



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

“Filologiya va pedagogika”
ilmiy-metodik jurnali
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 30-noyabrda
364/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va
13.00.00 – Pedagogika fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-yil
14 (18)-son**

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI**

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА**

**PHILOLOGY AND
PEDAGOGY**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu sonda

Shavkat rahmon
she'riyatida oksimoron
qo'llanilishi

**27
bet**

Sharq va G'arb
orasidagi ustoz-shogird
an'anasi

**71
bet**

Navoiy manoqib-
holotlarida
zullisonaynlik va
ko'ptillilik masalalari

**76
bet**

Развитие
аналитического
мышления студентов на
практических занятиях
по предмету «Общее
языкознание»

**120
bet**



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

**2025-yil
14 (18)-son**

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova
Muxlisa Do'stmuhamedova

SAHIFALOVCHI
Gulnoza Valiyeva

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 28.11.2025 da
nashr etildi.

MUASSIS
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zoxon Karimova
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri

Farhod Boqiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri o'rinbosari

Azizbek Turdiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri o'rinbosari

Farrux Jabborov
"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и
литературы" –
"Language and literature teaching" jurnali bosh
muharriri

Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-
professori, filologiya fanlari doktori

Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nurafshon filiali
professori, filologiya fanlari doktori

Anatoliy Lixodziyevskiy
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Oksana Gibraltarskaya
O'zbekiston Milliy universiteti
professori, filologiya fanlari doktori

Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ranusha Atayeva
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori

Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Iroda Nasimova
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Dilmurod Teshaboyev
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari
doktori

Gulhida Ikromova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori

Aziza Axmedova

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori

Xadicha Muxitdinova
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

G'ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-
professori, pedagogika fanlari doktori

Sevara Ziyayeva
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Indira Narkulova
O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Abduvali Daminov
O'zbekiston Milliy universiteti
ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasida
katta o'qituvchisi

Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari nomzodi

Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va
xorijiy tillar, pedagogika kafedrasida dotsenti

Zulfiya Ortiqova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa
doktori

Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining
Urgut filiali dotsenti

Dilafroz Asqarova
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim
kafedrasida o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Nasim Ochilov. Ma'naviy-axloqiy shaxs timsolining badiiy adabiyotda tasvirlanishi.....	4
Nafisa Karimova. "Adabiyot qoidalarida" ijodkorlik mavzusining yoritilishi	6
Ergash Boborajabov. Virtual olam jozibadorligiga qaramlikning davlat xizmatchilarida qaror qabul qilish samaradorligiga ta'siri	7
Jumagul Suvonova. Charos Boqiyeva. "Alpomish" dostonining mustaqillik davrida o'rganilishi	8
Abdullaxon Sulaymonov. Gulchehra Qo'z'iyeva. Ulug'bek Hamdam ijodida ramziylik ("Na'matak" asari misolida)	10
To'lqin Allayorov. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik rivojlanishida lingvopoetika fanining amaliy ahamiyati va dolzarbligi	11
Gulruh Ne'matova. Matbuotda turizm yo'nalishlarini targ'ib qilish va yoritish metodikasi	13
Shoira Islomova. Frazologik birliklarning shevalardagi ifodasi	14
Shuxrat Lolayev. "Uloqda" hikoyasida tarixiylik tamoyili va ma'rifatparvarlik konsepsiyasi	16
Mahfuzaxon Xomidova. Intertekstuallikka lingvokulturologik yondashuv	17
Feruza Hafizova. "Ayrishox" qissasida tabiat poetikasi va ramziy obrazlar talqini	19
Elyor Matchanov. Milliy identiklikning zamonaviy yapon adabiyotidagi ahamiyati	20
Parvina Nabiyeva. Dunyo assotsiativ tadqiqotlari tajribasi va o'zbek tilidagi assotsiativ maydon	22
Gulnoza Xushvaqtova. Badiiy asarlar tarjimalarida ekzotizmlar, realiyalar va ramzlarning lingvosemiotik vazifalari	24
Asqarali Madaliyev. Jadid adabiyotida milliy ma'rifat va sog'lom jamiyat konsepsiyasi	26
Dilovar Ibragimova. Shavkat Rahmon she'riyatida oksimoron qo'llanilishi	27
Aziza Xudoynazarova. Abduvali Musayev. G'afur G'ulom nasrining lingvopoetik mohiyati va ularni o'qitish jarayonidagi samarali yondashuvlar	29
Shaxnoza Norkulova. Ra'no Alimardanova. Alisher Navoiy asarlarining nomlari: tarjima, ta'rif va muvofiqlik	30
Нигора Абдурашитова. Сравнительный анализ русского и узбекского героического эпоса на примере «Слова о полку Игореве» и дастана «Алпамыш»	31
Адолат Бобо-Хожаева. Современные подходы в лингвистических исследованиях: цифровые методы анализа вторичных тюркских заимствований (арабизмов и персидизмов) в русском языке	32
Арзайым Ибрагимова. Диалектная вариативность существительных как источник стилистически маркированных фоновариантов на примере английского, русского и каракалпакского языков	34
Вероника Маткурбонова. Композиция системы образов в романе А.Б.Сальникова «Оккульттрегер»	36
Эльвира Минибаева. Анна Шереметьева. Основные единицы русской словообразовательной системы	37
Виктория Пулатова. Специфика образа протагониста в антиутопии Д.Лавгроува «Дни»	39
Шахло Рашидова. Переходность в классификации частей речи и феномен синкретизма	40
Зумрад Ахмедова. Гульчехра Давлятова. Знаки как элемент национальной культуры	42
Немат Сабиров. Путевые записки о Средней Азии XVIII – начала XIX века в русской литературной традиции	44
Валентина Хегай. Антропоцентризм русских пословиц с гендерной семантикой	45
Дильфуза Хусенова. Номинации человека в микроконтексте в узбекском и русском языках	47
Умида Юлбарсова. Наргиза Усанова. Прагматика благодарности и извинения в молодежном дискурсе	49
Mahfuza Muxtorova. Shafolat Termiziy she'riyatida badiiy san'atlarning o'rni	50
Ulug'bek Hamdamov. Kundaliklar haqida ayrim mulohazalar	52
Mohira Hayitova. Murakkab sport turlariga oid atamalarining leksik-semantik tahlili va ularga zamonaviy yondashuvlar	54
Bahora Sadikova. Italian tilida antonimlarning lingvosemantik tahlili	56
Jamoliddin Temirov. Maxmurning "Qissayi qishloqi xarobi Hapalak" she'ri tahlili	57
Umiida Imomova. Lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy usullari	58
Akbar Ruziyev. Zamonaviy tilshunoslikda "sotsiopragmatika" tushunchasi va uning mohiyati	60
Farangiz Anvarova. Den Braun romanlari tarjimasidagi leksik muammolar	61
Shahnoza Abrayeva. Tibbiy morfemalarning nutqda namoyon bo'lish xususiyatlari va ularni semantik sinflarda tahlil qilish	64
Sadoqat Odilova. Bosh qahramon xarakterini ochishda ikkinchi darajali personajlarning funksional roli	66
Latofat Cho'liiyeva. Turk adabiyotshunosligida navoiy merosining o'rganilishi: yetakchi yo'nalishlar	68
Dilafroz Qalandarova. Sharq va G'arb orasidagi ustoz-shogird an'anasi	71
Shohista Erkinova. O'zbek xalq ertaklarida ijobiy xarakterdagi kampir obrazining badiiy talqini	72
Manzura Tuychiyeva. Xitoy va o'zbek tillarida zoonim frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari	74
Farruxbek Olim. Navoiy manoqib-holotlarida zullisonaynlik va ko'ptillilik masalalari	76
Nodira Musayeva. Reuters hamda Sinhua axborot agentliklari faoliyati (sayt tahlili misolida)	79
Nosir Mirjonov. Tibbiy diskursda atamalarining kognitiv modellari va ularning shakllanish dinamikasi	80
Ma'suma Mo'minova. Ruxshona Teshayeva. Alisher Navoiyning Shoh G'arib Mirzoga bag'ishlab yozgan tarkibband marsiyasi tahlili	82
Nasiba Hasanova. Lexical-Semantic Classification of Anathematic Units in English and Uzbek Languages	84
Dildora SAFAROVA. Linguocognitive Interpretation of Ecological Units in English Literary Texts	86
Iroda Nasimova. Taqriz	88
Yuldash Ibragimov. Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari leksikasining tadqiqi	89
Zamira Ibragimova. Qoraqalpog'iston o'zbek shevalariga turkiy tilli xalqlarning lingvomadaniy ta'siri	91
Shuxrat Abdullayev. O'zbek va qoraqalpoq tillarida "yurak" asosli frazemalarning uslubiy-semantik xususiyatlari	92

Mahliyo Pardayeva. O'zbek va ingliz tillarida so'z birikmalarining qiyosiy tipologiyasi: strukturaviy, kognitiv va konstruktsion yondashuvlar asosida tahlil.....	94
Maxfuza Artikova. Ispan elektron gazeta sarlavhalarining lingvopragmatik xususiyatlari	95
Shamsiya Atoeva. "Majolis un-nafois"ning Latifiy tazkirasiga ta'siri	97
J.O.Kaniyazova. Aytmatovshunoslik Qoraqalpog'istonda.....	99
Jaxongir Kenjabayev. Korpus lingvistikasi asosida sport terminlarining dinamik rivojlanish modeli.....	100
Azizbek Vosiljonov. Kompyuter lingvistikasida korpusshunoslik masalalari.....	102
Sevara Parmonova. Alisher Navoiy va Fariduddin Attor tazkiralarda Junayd Bag'dodiy zikri	103
Qurdosh Qahramonov. "Padarkush" dramasi g'oyaviy-badiiy motivlari.....	105
Ulugbek Karimov. Cyberpunk Genre in Contemporary Science Fiction Novels	107

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Muxlisa Usmonaliyeva. Xitoy tilida tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish strategiyalari	107
Laziz Gaffarov. Kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish jarayonini takomillashtirish strategiyalari va istiqbollari	110
Shaxnoza Berdiyoro. Zamonaviy o'quv muhitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ommillari va ularning ta'limga ta'siri.....	113
Abdusalim Kenjaboyev. Kambag'allikni kamaytirishda sifatli ta'limning roli va davlat siyosati.....	114
Saodat Yuldosheva. Mumtoz asarlarni o'rganish va o'qitish masalalari	116
Xadicha Muxitdinova. O'quv topshiriqlari uzviyligini ta'minlash – o'quvchilarni mustaqil mushohada yuritishga o'rgatishning muhim omili	118
Loila Mullaabaeva. Развитие аналитического мышления студентов на практических занятиях по предмету «Общее языкознание»	120
Наргиза Насырова. Игровые технологии как интерактивный метод обучения.....	123
Венера Примова. Теоретические основы и практическая реализация корпусного подхода в преподавании русского языка	124
Дилрабо Рахимова. Использование цифровых инструментов при обучении русскому языку.....	126
Hikmatilla Abdinabiye. Ta'lim sohasidagi islohotlar taraqqiyot garovidir.....	127
Ma'ruf Irgashev. O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv asosida til ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar.....	129
Shaxnoza Xamroqulova. Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy tarbiyasini pragmatik topshiriqlar orqali rivojlantirish	131
Nilufar Dumarova. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish: modulli ta'limda differensial yondashuvning qo'llanilishi.....	132
Zafarbek Xaqiqatbekov. Universitetlarda stressni kamaytirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar: nazariy asoslar, amaliy mexanizmlar va samaradorlik tahlili.....	135
Shoxista Rustamova. Talabalar tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda xalqaro grant va stipendiya tizimlarining roli	136
Gulruxsor Sharipova. O'quvchilar nutqini o'stirishda yozma ishlardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari	138
Sadoqat Normurodova. Innovatsion yondashuvlar: elektron interfaol vositalar orqali "Alifbo"ni o'rgatish	140
Nigora Raxmatova. Innovatsion metodik yondashuvlar asosida tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga chet tilini o'qitishni takomillashtirish.....	142
Gulhumor Usmonova. Qiyosiy tahlil: intensiv va ekstensiv o'qish metodlarining samaradorligi	143
Gulmira Mamatkarimova. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning boshlang'ich ta'limdagi integratsiyasi.....	145
Dilafroz Kenjabayeva. Media ta'lim tizimida talaba yoshlarning muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	146
Nilufar Shakarova. Odina Saidaxmedova. Yozma nutqiy faoliyat va uni takomillashtirish yo'llari.....	148
Mohigul Abrarova. Kamaliddin Astankulov. Tarbiya darslarida multimedia va axborot texnologiyalarining integratsiyasi.....	150
Sarvar Baxodirov. Futbolchilarning jismoniy tayyorgarliklari orqali texnik maxoratini yaxshilash.....	153
Mahbuba Ikramova. Boshlang'ich sinflarda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish: imkoniyatlar va muammolar	154
Dilnavoz Toxirova. Vocabulary Activities for Teaching Adjectives of People's Character.....	156
Maftuna Ibraximova. Effectiveness of Blended learning models in uzbek higher education.....	157
Nigora Khaydarova. Empirical Study of Pedagogical Conditions for Developing Students' Reflexive Competence in the Educational Process of Medical University Students	159
Nigora Irbutayeva. Rayxona Muxammadiyeva. Ruxshona Umirzakova. Talabalarining ijtimoiy faol shaxs sifatida rivojlanishida o'zini o'zi boshqarish tizimi va ta'lim texnologiyalarining roli.....	162
Shoxista Rustamova. Pedagogik ta'lim transformatsiyasi sharoitida talabalarining tadqiqiy kompetensiyalarini barqaror rivojlantirish modeli.....	164
Mahbuba Ikramova. Boshlang'ich sinflarda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish: imkoniyatlar va muammolar.....	165
Shahnoza Ikramova. Kamaliddin Astankulov. O'quvchilarda ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishni rag'batlantirish	167
Chutkul Boltayev. Ingliz tilini o'qitishda Blended learning: an'anaviy va onlayn ta'limning integratsiyasi.....	168
Baxtiyorjon Baratov. Talabalarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishda xalq og'zaki ijodining o'рни	170
Xusniya Axmedova. Evfemizmlarning nutqdagi leksik-semantik xususiyatlari.....	171
Sitorabonu Murodova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanidagi "Spirtlar" mavzusini CLIL metodi asosida o'qitish	172
Nozima Akbarova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda klaster yondashuvning pedagogik imkoniyatlari	174
Gulhayo Bobomurodova. Tibbiy ingliz tilini o'rganishda o'yin texnologiyalarining o'рни.....	178
Ma'rif Sag'dullayev. Shifokorlar nutq madaniyatida "o'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanining o'рни, maqsad va vazifalari	179
Xolidaxon YUNUSOVA. Gender yondashuvga asoslangan pedagogik nazariyalar tahlili	180

Nasim OCHILOV,

filologiya fanlari doktori, professor

MA'NAVIIY-AXLOQIY SHAXS TIMSOLINING BADIY ADABIYOTDA TASVIRLANISHI

Annotatsiya. Maqolada ma'naviy-axloqiy shaxs timsolining badiiy adabiyotdagi ifodalanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari va ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot uchun Ibrohim Adham timsoli misol qilinib, uning tasavvufiy qarashlari, ruhiy poklanishi va insoniy kamolot sari intilishi badiiy asarlarda qanday aks etishi o'rganiladi. "Ibrohim Adham qissasi" xalq kitobi orqali epik obraz va sujet, kompozitsiya va badiiy xususiyatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy timsol, badiiy talqin, mumtoz adabiyot, tasavvuf, sufiy, sujet va kompozitsiya, xalq kitobi.

Annotation. The article analyzes the expression of the image of a spiritual and moral person in fiction, its specific features, and scientific significance. As an example for research, the image of Ibrahim Adham is used, and how his Sufi views, spiritual purification, and striving for human perfection are reflected in his artistic works is studied. Through the folk book "The Story of Ibrahim Adham" the epic image and plot, composition, and artistic features are analyzed.

Keywords: spiritual and moral symbol, artistic interpretation, classical literature, Sufism, plot and composition, folk book.

Аннотация. В статье анализируется выражение образа духовно-нравственной личности в художественной литературе, его специфические особенности и научное значение. В качестве примера для исследования используется образ Ибрахима Адхама, изучается, как его суфийские взгляды, духовное очищение и стремление к человеческому совершенству отражаются в художественных произведениях. Через народную книгу «История Ибрахима Адхама» анализируются эпический образ и сюжет, композиция и художественные особенности.

Ключевые слова: духовно-нравственный символ, художественная интерпретация, классическая литература, суфизм, сюжет и композиция, народная книга.

Bugungi kunda adabiyotshunosligimiz barcha sohalar kabi yangilanish jarayonlarini boshdan kechirib, jahon ilmiy yutuqlari asosida rivojlanmoqda. Adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik sohasidagi ijodiy harakatlar, tahlil usullarining yangilanishi va nazariy qarashlarning tizimli olib borilishi adabiyotshunoslar va munaqqidlarning tinimsiz izlanishlari bilan boyitilmoqda.

O'zbek mumtoz adabiyotini bugungi zamon talablari asosida qayta o'rganish, nodir qo'lyozmalarda saqlanib kelayotgan umumbashariy g'oyalarni tahlil qilish, ularni sharhli bayon bilan o'quvchilarga tushunarli tilda izohlash, manbalarni estetik talablar asosida tasniflash va baholash muhimdir. Shu bilan birga, G'arb va Sharq tarixiy poetika yutuqlarini uyg'unlashtiruvchi nazariy qarashlarni belgilash, milliy adabiyotimizda zamonaviy poetik tafakkur namoyon bo'lishini ko'rsatish, tarjima nazariyasi doirasida ilmiy mezonlarni aniqlash, folklor va folklorshunoslikning yutuqlarini kengaytirish hamda yangi tamoyillarni ishlab chiqish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu masalalar adabiyotshunoslikni yangi ilmiy konsepsiyalar asosida rivojlantirish, zamonaviy adabiy-estetik tafakkurga mos tahlil va tadqiq usullarini tizimli amalga oshirishda muhim omil vazifasini o'taydi. O'tmish va bugungi adabiyotshunoslik olami inson va dunyo qiyofasini badiiy talqin etish, tafakkurdagi yangicha imkoniyatlarni keng ma'noda davom ettirish imkonini beradi.

Badiiy adabiyot voqelikni "obrazli tafakkur" uyg'unligida tasvirlashga intiladi; uning bosh maqsadi inson kamoloti va ma'naviy-axloqiy kechinmalarni ifodalashdir. Mumtoz adabiyotda ma'naviy-axloqiy shaxs qiyofasi adabiy asarlarda insonning ichki dunyosi, axloq, odob, imon, vafo va insof kabi ruhiy-ma'naviy sifatlar orqali komil inson timsoli sifatida tasvirlanadi. Mumtoz ijodkorlar insonni nafaqat jismoniy mavjudot sifatida, balki ma'naviy kamolot sari intilayotgan ruhiy olam sohibi sifatida ko'rsatganlar. Tasavvuf adabiyotida insonning ruhiy-ma'naviy yuksalishi, komillik sari intilishi islomiy qarashlar bilan bog'langan va alohida e'tibor bilan tasvirlangan. Shunday timsollardan biri – Ibrohim Adham. U tasavvuf adabiyotida va ma'naviy-axloqiy ta'limotda muhim obraz hisoblanadi. Ibrohim Adham timsoli orqali insonning ruhiy poklanishi, dunyoviy ne'matlardan voz kechishi va ilohiy haqiqatni izlash yo'lidagi sa'y-harakatlari aks etadi.

Yozma manbalarda Ibrohim Adham haqida alohida asar bo'lmasa-da, uning axloqiy-ma'naviy ruhiyati ko'plab hikoyatlarda

tasvirlangan. Masalan, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida Ibrohim Adhamning podshohlilikni tark etib tariqatga yuzlangani va Makka shahriga borishi, u yerda Fuzayl ibn Iyoz, Sufyon Savriy, Abu Yusuf G'asuliy kabi mashhur sufiylar bilan suhbatda bo'lgani qayd etiladi. Navoi shunday yozadi: "Avvalgi tabaqadandur. Kuniya Abu Ishoq va oti va nasabi Ibrohim Adham binni Sulaymon, binni Mansur al-Balxiy. Mulukdin erkani xud mashhurdur. Yigitlikda tavba tavfiqi topdi. ...Ibrohim Adhamning holoti bag'oyat ko'ptur. Bir kitob bitsa bo'lur". Shu bilan birga, u tasavvuf yo'lini puxta egallagan va ibrat ko'rsatgan so'fiy sifatida ko'rsatiladi.

So'fiyona adabiyotda tariqat yo'li bilan poklanayotgan, komillik sari intilayotgan insonning dunyoqarashi, tushunchalari obrazli tasvirlanadi. Shu boisdan so'fiy shoirlarning bosh maqsadi insonlarga Haqni va o'zni tanishga oid rivoyat, hikoyatlar orqali o'g'it, pand-nasihati berish bo'lgan. Fariddin Attorning "Ilohiynoma", "Mantiq ut-tayr", Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy", "Ichindagi ichindadir", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr" kabi asarlarida ana shunday g'oyaviy maqsadni ilgari surish, izohlash uchun hikoyatlardan o'rinli foydalaniladi. Misol uchun, "Hayrat ul-abror"dagi ikkinchi maqolat islom masalasiga bag'ishlangan. "Navoiy talqini bo'yicha, islom davlatida yashashning o'zigina musulmon bo'lish uchun yetarli emas. Shoir hadisga tayangan holda haqiqiy musulmon deb, boshqa odamlar qo'li va tilidan omon va salomat bo'lgan kishigagina nisbatan qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi. Bunday axloqiy darajaga yetish uchun inson islomning besh ruknini xolis niyat va pok e'tiqod bilan bajarishga harakat qilishi kerak. Navoiy islom dinining arkoni – shahodat kalimasini aytish, namoz, ro'za, zakot hamda hajning shartlarini bayon etish bilan birga bu amallar shunchaki rasm-rusm emas, balki ruhiy tarbiyaning asoslari ekanini juda chiroyli tarzda ifodalab bergan" [1: 83].

Ibrohim Adham bilan bog'liq hikoyatlar ham mana shunday ibrat vazifasini o'tashi bilan ahamiyatlidir. Unga I. Adhamning Ka'ba ziyoratiga borishi, Ka'baning esa Robiya Adviya oldiga ketgani tasvirlangan hikoyat kiritilgan. N. Komilov ta'kid bo'yicha, "Ka'ba ziyorati lavhasi tasavvuf ahlining har qanday suratlar, timsollarga sig'inishni inkor etishlariga ishoradir. Qolaversa, Ollohning o'ziga oshiq bo'lgan, faqat uni deb yongan kishiga bu ishlar ortiqcha, yoinki ma'nini anglamay, suratparastlik qilish bilan barobar deb qaralgan" [2: 85]. Shoir hikoyat orqali tasavvufning

asl maqsadini anglatish, ishqning taqvodan ustun ekanini Robiya Adviya misolida ko'rsatishni maqsad qilgan. Ibrohim Adhamning o'n to'rt yil toat-ibodatda bo'lib, Ka'bani joyidan topmagani va ruhiy vaziyatini shoir shunday tasvirlaydi:

*Chekti fig'onkim, bu nedur, yo Iloh,
Hotifi un berdikim: "Ey piri roh,
Bodiya qa'tig'a durur bir ajuz,
Shavqu muhabbat yukidin qaddi go'z" [3: 118].*

Robiya Adviya Oллоh yo'liga o'zini bag'ishlagan namoyandalardan hisoblanadi. Shuning uchun Navoiy uning timsolini ham keltiradi va hikoyatda Robiya Ibrohimga quyidagicha javob beradi:

*...Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.
Sanga samar berdi namozu riyo,
Bizga bu bar berdi niyozu fano [3: 120].*

Ko'rinib turibdiki, tasavvuf falsafasi ishqning solik hayotini qamrab olishini, o'zlikni va ilohiy haqiqatni anglatishi Robiya timsoli orqali ifodalanadi. Ibrohim Adham esa hali o'zlikdan chekinmagan obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Ibrohim Adham timsoli tasvirga olingan ko'plab asarlarda shaxsning ruhiy-ma'naviy kamolotiga doir g'oyaviy maqsad badiiy ifodasini topadi. Bu shaxs poetik timsol sifatida gavdalana boradi. Epik obraz sifatida an'anaviy tarzda badiiy ifodasini topgan ushbu timsol nafaqat yozma adabiyotimiz namunalarini, balki xalq kitoblari ruknida ommalashgan sujet tarkibida ham ommalasha boradi va mustaqil asar sifatida namoyon bo'ladi. "Ibrohim Adham qissasi" diniy-tasavvufiy mavzuga bag'ishlangan xalq kitoblarning badiiy namunasi hisoblanadi [5]. Doston Ibrohim Adhamning Haq yo'lidagi ruhiy iztiroblari va komillik darajasiga yetishini tasvirlaydi. Doston sujet va kompozitsiyasi, obrazlar tarkibi va badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Asar mumtoz dostonlarimizdagi kabi dastlab basmala, undan keyin "Ammo roviyoni ahbor va noqiloni osor va muhaddisoni doston va bo'ston andog' rivoyat qilurlarkim" degan xalq kitoblari uslubiga xos an'anaviy qolip shaklida boshlanadi. Unda Ibrohim Adhamning dunyoga kelishi, bolalik yillari, Balx shahri podshohligiga erishishi, taqvodorlik yo'lini tanlab, taxtidan, oilasidan voz kechishi, Makkay Madina shahriga yo'l olib, u yerda toat-ibodatda bo'lishi, o'tinchilik kasbi bilan mashg'ul bo'lib kun o'tkazishi va foni dunyodan boqiy dunyo sari rixlat qilishigacha bo'lgan voqealar tasvirlanadi. Doston voqealarining umumiy mazmunida Ibrohim Adham shajarasi va u bilan bog'liq epizodlar keng bayon etilgani hamda voqealar ma'lum tugallik asosida shakllantirilgani sababli dostonni ikki qismdan tashkil topgan degan xulosaga kelish mumkin. Asarning birinchi qismida Ibrohimning dunyoga kelishidan bolalik yillarigacha bo'lgan voqealar qiziqarli tasvirlanadi. Unda Adhamning Malikshoh qizi Malikayi Xo'bonni sevib qolishi, podshoh tomonidan tegishli shartning qo'yilishi, shart bajarilgach malikani bermasligi, malikaning vafot etishi, Adhamning Oллоhga munojati sababli qayta tirilishi, ulardan Ibrohimning tug'ilishi, malikaning o'z ota-onasi bilan qaytadan topishishi, Ibrohimning o'sib-ulg'ayishi bilan bog'liq voqealar qalamga olinadi va Malikshohning taxtni Ibrohimga vasiyat qilib qoldirishi va vafoti bilan yakunlanadi. Bu qism bevosita xalq romanik dostonlariga

xos uslubda tasvirlanadi. Ya'ni podshohning farzandsizlik motivi, qahramonning bexosdan malikani ko'rib oshiq bo'lishi, malikaning saylbog' tasviri va shart qo'yishi manzaralari romanik bo'yloqlarda ko'tarinki ruhda tasvirlangan. Bunday xususiyatlar esa doston aytuvchi va ko'chiruvchining xalq romanik dostonlariga xos usullarni yaxshi o'zlashtirganidan dalolat beradi.

Ikkinchi qism doston g'oyasida ko'zda tutilgan voqealar bayoni bilan davom ettiriladi. Ibrohimning Balx shahri podshohligini adolatli boshqarishi, ovga chiqishi, ovda qulog'iga g'oyibdan kelgan ovoz eshitilishi, qahramonni xushyorlikka chorlovchi boshqa epizodlar qiziqarli va ta'sirchan tasvirlanadi. Chunki ruhiy poklanish harakatida bo'lgan qahramon kechinmasida Haqqa intilish tuyg'ulari barq urayotgan bo'lsa-da, uni yengib o'tuvchi ishonch va e'tiqodning to'liq yetilmagani doston voqealarida asta-sekinlik bilan turli tasvirlarda ko'rsatib boriladi. Doston voqealari epik qahramonning umumiy hayot lavhalarini qamrab olsa-da, ikkinchi qismiga doir voqealar ruhiy-ma'naviy kamolot yo'liga intilayotgan timsol obrazining badiiy ifodasi sifatida gavdalanadi, Ibrohim Adhamning haqiqiy taqvodor, ishq yo'liga kirgan oshiq timsoli ekanidan dalolat beradi. Qahramonning murakkab holatlari aks ettirilgan ko'plab hikoyatlar kotibning ijodiy izlanishlari asosida to'ldirilgan, ba'zan kengaytirilib, yaxlit doston ko'rinishiga keltirilgan. Ibrohim Adham podshohlikni tark etib, sahruma-sahro kezib yurganida unga vazirlari Temurxon va Sarafrozxon tomonidan berilgan nasihatlar, qahramonning ularga bergan javobi o'quvchiga asar badiiy g'oyasini yorqinroq anglash imkonini beradi:

*Ibrohim der, kechibdurman, tamomi mulki ashyodin,
Qaro chamanni dedim, atlas-u zarbaft kimxodin-
Ki, bu vayronalar behdur, o'shondog' ko'shki bolodin,
Haram sori safar qildim, kechibman mulki dunyodin,
Qo'yung o'z xolima do'stlar, Xudo degan qalandarman [3: 159].*

Dostonda Ibrohim Adham komil inson obrazi sifatida gavdalanitiriladi. Qahramonning maqsad sari intilishida ko'mak beruvchi Xizr obraziga raqib sifatida shayton obrazining keltirilishi asar badiiy konsepsiyasini yoritishda muhim rol o'ynagan. Dostonga xos mana shunday xususiyatlarni umumlantirib, xulosa qilishimiz mumkin. Birinchidan, ushbu doston g'oyaviy asosi, sujet va kompozitsion izchilligi, obrazlar tarkibi jihatidan xalq kitoblarning mukammal namunasi hisoblanadi. Ikkinchidan, dostonda Ibrohim Adham obraziga yuklatilgan g'oyaviy maqsad kotibning mahorati bois to'liq ifoda bayoniga ega bo'lgan. Uchinchidan, xalq og'zaki ijodi va yozma manbalarda keltirilgan og'zaki rivoyat, hikoyat voqealari dostonda g'oyaviy jihatdan bir xillikka ega bo'lsa-da, ijodkorning tasvir xususiyatidan kelib chiqqan holda kengaytirilib, yagona sujetga birlashtirilgan. Bunday holatlar asarning yaxlitligini ta'minlab, qahramon taqdirini, xarakter qirralarini batafsil tasvirlash imkonini bergan. To'rtinchidan, asarning kompozitsion tuzilishi xalq dostonlari kabi nasr va nazmdan tashkil topgan. Ammo muallifning mumtoz she'riy janrlar va badiiy san'atlardan yaxshi xabardorligi, ularni mahorat bilan qo'llay olgani hamda xalq kitoblari uslubini yaxshi egallagani asarning badiiy jihatdan mukammal shakllanganini ko'rsatadi. Beshinchidan, Ibrohim Adham yozma manbalarda ruhiy-ma'naviy kamolot timsoli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojiddinov Sh. va boshq. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yettinchi tom. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Alisher Navoiy. Hayrat-ul abror. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021
4. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
5. Ibrohim Adham qissasi. Xalq kitoblari. – Toshkent: Yozuvchi, 1991.

Nafisa KARIMOVA,

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

“ADABIYOT QOIDALARI”DA IJODKORLIK MAVZUSINING YORITILISHI

Annotatsiya. Abduraf Fitratning “Adabiyot qoidolari” asarida mavzu, mundarija, tartib, uslub, she'riy vaznlar va san'atlar kabi ijod laboratoriyasiga doir bir qancha masalalar ko'rib chiqilgan. Maqolada esa mazkur unsurlar batafsil yoritilgan. Maqolada “Adabiyot qoidolari”dan joy olgan masalalar shartli ravishda ikkiga bo'lib o'rganilgan. Ayrim o'rinlarda Fitratning adabiy-estetik qarashlari chuqur nazariy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: laboratoriya, mavzu, mundarija, tartib, uslub.

Annotation. In Abduraf Fitrat's “Rules of Literature”, a number of issues related to the laboratory of creativity, such as theme, content, order, style, poetic meters, and art, are examined in detail in this article. The questions included in the “Rules of Literature” are conditionally divided into two parts. Certain literary and aesthetic views of Fitrat are subject to deep theoretical analysis.

Keywords: laboratory, theme, mundarija, order, style.

Аннотация. В произведении Абдурафа Фитрата «Правила литературы» рассматривается ряд вопросов, относящихся к лаборатории творчества, таких как тема, содержание, порядок, стиль, поэтические размеры и искусства, подробно освещенные в данной статье. Вопросы, включенные в «Правила литературы», условно разделены на две части. Определенные литературно-эстетические взгляды Фитрата подвержены глубокому теоретическому анализу.

Ключевые слова: лаборатория, тема, содержание, композиция, стиль.

Adabiyot san'at sifatida turli qonuniyatlardan yiroq bo'lishi mumkin, biroq adabiyotshunoslik fan sifatida o'ziga xos nazariy parametrlarga ega. Nazariy qonuniyatlar ikki guruhga ajraladi. Birinchisi, nazariyotchi bilishi, o'zlashtirishi muhim sanalgan qonuniyatlar, ikkinchisi esa adabiyotning saviyasi, etikasiga, kitobxonning dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi, kishilarga ma'naviy ozuqa beradigan asarlarni yaratishdek o'ta mas'uliyatli vazifani bajaruvchi ijodkor ahliga tegishli bo'lgan qonuniyatlar. Masalan, *obraz* atamasining ta'rif, turlari, asarda obraz bajargan vazifani ko'rsatib berish nazariyachiga xos vazifa hisoblansa, obrazning hayotdan olinishi, shakllanishi, vazifa bajarishining obyektiv va subyektiv tomonlari, agar real hayotda prototipi mavjud bo'lsa, u bilan alohida ishlash kabilar ijodkorning ijod laboratoriyasida hal etiladigan masala sanaladi. Xullas, adabiyotga xos qoidalar ham nazariy va amaliy jihatdan turlanadi. Bu masalaga jadid adabiyoti davrida qanday qaralgani, ma'rifatparvarlik adabiyotida ijod laboratoriyasining o'rni kabi masalalarni Abduraf Fitratning “Adabiyot qoidolari” asari misolida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, deb bildik.

Milliy uyg'onish davrida bir qancha ilmiy asarlar yozgan Fitratning fan taraqqiyotidagi xizmati katta. U “Adabiyot qoidolari” (1926) va “Aruz haqida” (1936) kitoblari orqali o'zbek adabiy estetik tafakkurini yangi davr tushunchalari bilan boyitgan, davom ettirgan va adabiyot nazariyasi bo'yicha ham zamonasining yetakchi mutaxassisi sifatida e'tibor va e'tirof qozongan [1: 363]. Ijodiy jarayonning boshlanishini zehn bilan bog'lagan Fitrat “Adabiyot qoidolari”da shunday yozadi: “Bir asarni yozg'anda zehnimizning yumushi (xizmati) turli tushlarga kiradi: yozuvchi-adib boshda shul to'g'rida yozilaturgan bir narsani topadir. So'ngra shu narsa to'g'risidagi o'ylar, tuyg'ularini oxtarib, topib yig'adir. “Zehniy yumush”ning shu bo'limiga ijod (bor etish-yaratish) deyiladi [2: 14]. Demak, adib ijod jarayonini “zehniy yumush” deb bilgan.

Fitrat ijod laboratoriyasi unsurlaridan ayrimlari haqida o'z fikr-mulohazalarini aytib o'tgan. Jumladan, mavzu, mundarija, tartib, uslub, she'riy vaznlar va san'atlar haqida ma'lumotlar bor. “Adabiyot qoidolari”dan joy olgan unsurlarni shartli ravishda ikkiga bo'lib tahlil qilishimiz mumkin. Birinchisi, ijod laboratoriyasining umumjahon nuqtayi nazaridagi unsurlari. Ikkinchisi, ijod laboratoriyasining faqat Sharq adabiyotshunosligiga xos bo'lgan unsurlari. Mavzu, mundarija, tartib, shuningdek, uslubga xos xususiyatlarning batafsil ko'rib

chiqilishi kabilar umumjahon miqyosida olib qaraladigan jihatlaridir. Sharq mumtoz adabiy-estetik tafakkuriga oid bo'lgan aruz vazni, badiiy san'atlar, she'riyat tili, she'riy janrlar nisbatan ko'proq tahlilga tortilgan.

Mavzu tanlash har qanday adabiyotning, yozuvchining bajarishi lozim bo'lgan birlamchi vazifasidir. Mavzu asarning yo'nalishi belgilaydi. Tanlangan mavzu yozuvchi va jamiyat munosabati masalasini ham hal etadi. Bu masalada Fitrat shunday deydi: “Adabiyotning mavzusi butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o'z ichki-tashqi dunyosida sezib onglag'anlaridir. Bir tomchi suvdan tengizgacha, bir uchqundan buyuk bir yong'ingacha, kichkina bir yaproqdan ulug' o'rmonlargacha nima bor esa, hammasi adib-yozg'uchi uchun mavzu bo'larlik narsalardir” [2: 15]. Fitrat yozuvchi jamiyat uchun xizmat qilar ekan, tanlaydigan mavzusini ham aynan mana shu jamiyat o'rab turgan va unga bevosita bog'liq bo'lgan tabiatdan izlash mumkin ekanini ta'kidlamog'da. Yozuvchi mavzuni asarning bosh g'oyasidan kelib chiqqan holda tanlaydi [3: 9]. U mavzu va g'oya o'zaro muvofiq kelmasligini yozuvchining adashishi, deb biladi.

Mavzu atrofiga birikadigan jarayonlar, deylik, asar sujeti mavzuga qarab shakllantirilsa-da, Fitrat unga mundarija shakllantirilishi lozimligini va mundarijaning uch shartini berib o'tadi. Uning fikricha, mundarijaga asarning g'oyasini ko'rsatuvchi jihatlar, g'oyaga mos fikrlar va ma'lumotlar kiritiladi. Ikkinchidan, mundarijaning asosiy qismidagi mavzular o'zaro uyg'un holda bo'lishi kerak. Uchinchidan esa mundarija qismlari bir-biriga qarama-qarshi bo'lmasligi kerak. Uchinchi talabga diqqat qaratsak, badiiy asarda mundarija asar sujeti vositasida shakllantiriladi va bunda qismlar ham, boblar ham bir-biriga qarama-qarshi turmaydi. Agar badiiy asarning mundarijasida qarama-qarshilik ko'rinsa, bu holat sujet tartibini buzadi. Fitratning mundarija shakllantirishga oid ilmiy talablaridan kelib chiqib, bu faqat badiiy asarga emas, balki ijtimoiy, siyosiy mavzuda yozilgan asar, ilmiy adabiyotga ham xos, deb xulosa qilish mumkin.

“Adabiyot qoidolari”da tartib masalasida ham alohida qaydlari keltirilgan: “Mundarija yaxshi tartib etilgan sayin asarning qimmati ortadir, yozg'uchini muvaffaq bo'lishga yaqinlashtiradi. Tartib mundarija uzra yurgiziladi” [2: 17]. Bunda asar yozilishida foydalanilayotgan material mantiqiy ketma-ketlik kasb etishi muhimligi ta'kidlanmog'da. Mundarija tartibni belgilovchi vosita ekaniga diqqat qaratilmog'da. “Tartib

yolg'uz asar yozishda emas, so'z so'ylashda ham muhimdir" [2: 17]. Tartib bugun filologiya sohasida ancha kengaygan tushuncha bo'lib, aytilishi rejalashtirilgan, mantiqiy tugallikka ega fikrning tezida namoyon bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Fikr xoh yozma bo'lsin, xoh og'zaki shaklda bayon etilsin, tartib saqlanib qolishi kerak. Abdurauf Fitrat "Bir notiq aytmoqchi bo'lg'ani so'zlarni qisqacha tartib qilmasdan minbarga chiqub gapursa, hech bir maqsadga yaqinlasha olmaydir, so'zinda qayoqqa borishni bilmay gapura beradir, hech bitira olmaydir" [2: 17] deganda aynan shu jihatlarni nazarda tutgan. Tartibsiz gap – maqsadsiz, g'oyasiz fikr. Maqsadli nutqda tartib ham o'z- o'zidan mavjud bo'ladi. Qolaversa, badiiy asar muallifning g'oyasi ustiga qurilgani uchun tartibsiz bunyod bo'lmaydi. Biroq Fitrat nutq so'zlash masalasida ham so'z yuritib, tartib barcha yo'nalishlarga tegishli ekanini anglatmoqchi bo'lgan.

Ijodkorning individualligini belgilovchi jihatlardan biri shaxsiy uslubga egalikdir. Ijodkor uslubi qanchalik teran, fikr ifodalash yo'sini o'ziga xoslik kasb etsa, auditoriyasi shunchalik keng bo'ladi. Fitrat bu masala haqida shunday deydi: "Uslubning adabiyotdagi o'rni juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar, ma'lumotlarning eski, boshqa shoirlar tomonidan aytilg'on bo'lishi mumkindir. Ularning eskiligini bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizga o'quta olgan kuch uslubdadir" [2: 17]. Fitrat fikrini dalillash uchun turkiy xalqlar kitobxonlari "Layli va Majnun" dostonini Nizomiy, Jomiy va Navoiy talqinida turlicha o'qiganini aytadi. Masala mumtoz shoirlar uslubini yoritish bilan davom etadi. Uslub sujetga unchalik daxl etavermaydigan unsur, deb xulosa

chiqarishimiz mumkin. "Layli va Majnun"da voqealarning asosiy xamirturushi bir, ammo natijasi turlicha. "Umarxon zamonining uslubi bilan Muqimiy, Avloniy zamonidagi uslub ham, bu kungi yangi adabiyotimizning uslubi ham boshqa-boshqa uslublardir" [2: 19] deb yozadi Fitrat.

Umuman olganda, davr ijodkorining xususiy uslubi o'z zamonasidan, o'zi ijod qilayotgan ijodiy muhitdan kelib chiqqan holda shakllanar ekan. Bu o'rinda biz umumiylik va xususiylikning o'zaro munosabatini kuzatishimiz mumkin. Behbudiy, Avloniy, Fitratlar bir adabiy muhit vakili sifatida ma'rifatparvarlik g'oyalari mos uslubda yozishgan, ular mumtoz adabiy muhit va keying davr ijodkorlaridan jamoaviy tarzda farqlanib turishadi. Birinchidan, bunga davr va muhit ta'siri sabab bo'lgan. Ikkinchidan, jadidlar eski o'zbek yozuvida, yangidan shakllanayotgan adabiy tilda ijod qilishgan, bir xil mavzularga qo'l urishgan, bir g'oya ostida birlashishgan [3: 54]. Garchi bir xil ijtimoiy- siyosiy, adabiy-ma'rifiy masalalarda maqola yozishgan bo'lsa-da, ularning ifoda yo'sini turlicha edi. Avloniy ijtimoiy-axloqiy masalani badiiy uslubga yaqin tarzda ifodalagan, Behbudiy maishiy hayot orqali ijtimoiy-siyosiy masalani ochib bergan, Fitrat esa har qanday tushunchaga nazariy jihatdan yondashishga uringan. Demak, ular shaxsiy uslubiga ega bo'lgan.

Abdurauf Fitrat ijod laboratoriyasi unsurlarini jadid davri adabiy muhitidan kelib chiqqan holda misollar yordamida izohlagan. Uning "Adabiyot qoidalari" asari ijod laboratoriyasi tarixidagi mukammal asarlar sirasidan, deb aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. va bosh. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
3. Karimova N. Kichik tadqiqotlar. – Toshkent: Muharrir, 2018.

Ergash BOBORAJABOV,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

VIRTUAL OLAM JOZIBADORLIGIGA QARAMLIKNING DAVLAT XIZMATCHILARIDA QAROR QABUL QILISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Maqolada virtual olamning jozibadorligi va unga bog'liqlik davlat xizmatchilarida qaror qabul qilish samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: virtual olam, ijtimoiy tarmoqlar, bog'liqlik, davlat xizmatchilari, qaror qabul qilish, samaradorlik.

Annotation. The article analyzes how the attractiveness of the virtual world and dependence on it affect the effectiveness of decision-making in civil servants.

Keywords: virtual world, social networks, dependence, civil servants, decision-making, effectiveness.

Аннотация. В статье анализируется влияние привлекательности виртуального мира и зависимости от него на эффективность принятия решений государственными служащими.

Ключевые слова: виртуальный мир, социальные сети, зависимость, государственные служащие, принятие решений, эффективность.

Virtual olam jozibasi – ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o'yinlar va raqamli platformalar orqali inson diqqati tortadigan, vaqtini o'g'iraydigan ko'rinish va hissiyot uyg'unligi. Bu muhit ichidagi inson real hayot va xizmat majburiyatlaridan uzoqlashadi, uning ish qobiliyati pasayadi, diqqatini jamlashi qiyinlashadi hamda ijtimoiy izolyatsiya kuchayadi. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayon **kiberqaramlik** sifatida baholanadi. Davlat boshqaruvi tizimida virtual muhitga haddan tashqari berilish ish unumdorligi va tashkiliy intizomni pasaytiradi, qaror qabul qilish jarayonlarida uzilishlarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, davlat xizmatchilari ortiqcha virtual faoliyat bilan shug'ullanganida ma'lumot xavfsizligiga tahdidlar ortadi, ijtimoiy kapital va jamoaviy ish samaradorligi susayadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun davlat organlarida axborot texnologiyalaridan maqsadli

foydalanish me'yorlarini joriy qilish, xizmatchilar uchun raqamli gigiyena va psixologik treninglar o'tkazish, mehnat intizomini nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Shu tarzda raqamli texnologiyalar faqat samaradorlikni oshirish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy global axborot muhitida internet davlat boshqaruvi tizimining ajralmas qismiga aylandi. Har kuni davlat organlari fuqarolar bilan turli shakllarda axborot almashadi, qarorlarni ommaga yetkazadi va jamoatchilik fikrini o'rganadi. Bu jarayonda mediata'lim va mediasavodxonlik davlat idoralari mehnatining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Birinchi navbatda, mediasavodxonlik davlat organlarining axborot shaffofligi va jamoatchilikka ishonchini mustahkamlaydi [1]. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ochiq ma'lumotlarni

to'g'ri taqdim etish, manipulyativ xabarlarini bartaraf qilish va fuqarolarga ishonchli axborot yetkazish davlat boshqaruviga ishonch darajasini oshiradi. Ikkinchidan, internet orqali tarqatiladigan axborot hajmining ortishi davlat xizmatchilari uchun yangi vazifalarni yuklaydi [2]. Axborot oqimida to'g'ri manbani saralay olish, yolg'on va feyk ma'lumotlarni ajratish, ommaviy axborot vositalari bilan samarali muloqot qilish kabi ko'nikmalar mediasavodxonlik orqali shakllanadi. Masalan, Stenford universiteti tadqiqotchilari ta'kidlaganidek, tanqidiy fikrlash ko'nikmasi davlat xizmatchilarida qaror qabul qilish jarayonini sifat jihatdan yaxshilaydi. Uchinchidan, mediata'lim davlat boshqaruvida samaradorlik va hisobdorlikni oshiradi [3]. Yevroparlament hisobotlarida qayd etilganidek, mediasavodxon kadrlar davlat organlarida ochiqlik siyosatini amalga oshirishda, aholi bilan muloqotda va islohotlarni tushuntirishda yuqori samaraga ega bo'ladi. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasida ikki tomonlama ishonchli munosabat o'rnatishga xizmat qiladi. Shuningdek, internet orqali ommaviy munosabatlarni boshqarish jarayonida mediasavodxonlik davlat xizmatchilarining ijtimoiy-axloqiy mas'uliyatini oshiradi. YUNESKONing ta'kidlashicha, mediata'lim nafaqat axborotni tahlil qilish ko'nikmasini, balki jamoatchilik bilan muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi (2022). Mediasavodxonlik davlat idoralari o'z auditoriyasining ehtiyojlari va umidlarini tushunish imkonini beradi. Bu aholining axborot so'rovlarini, afzalliklari va manfaatlarini tahlil qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Davlat boshqaruvi xodimlari ushbu omillardan xabardor bo'lib, auditoriya talablarini yaxshiroq qondirish va yanada samarali muloqotni ta'minlaydigan kommunikatsiya strategiyalarini yaratishi mumkin [4].

“Xatarlar bo'yicha muloqot” (risk communication) tushunchasi ilk bor 1984-yilda ingliz adabiyotlarida tilga olingan edi. Lekin ushbu fenomen mazkur tushuncha paydo bo'lgunga qadar ham mavjud bo'lgan. Ya'ni jamiyat turli xavfli vaziyatlar (tabu, mifologiya, migratsion jarayonlar va h.k.larni buzish) bilan bog'liq bashorat qilish, ta'sir etish va kommunikatsiya mexanizmlaridan doimiy ravishda foydalangan. Shuning uchun aholi bilan muntazam muloqot olib borish xavflarni boshqarishning ajralmas va muhim xususiyati bo'lib kelgan. Qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kommunikatsiya orqali xatarlarni boshqarishga

oid nazariy ishlanmalar davlat boshqaruvi organlari, xususiylash tashkilotlar, notijorat tuzilmalar va manfaatdor guruhlarining qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish borasidagi ishlarini osonlashtiradi. Shuningdek, jamiyatda munosabatlarning rivojlanishiga ko'mak beradi. Mazkur yondashuv “jarayonga yo'naltirilgan” deb nom olgan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati – xatarlarni muhokama qilishda aholining faol ishtirok etishidir [5].

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, inqirozga qarshi kommunikatsiya ko'pincha jamoatchilik ishonchini hamda tashkilot yoki ijtimoiy institutlar obro'sini tiklashga qaratilgan harakatlar doirasida amalga oshiriladi. 1990-yillarda ilmiy adabiyotlarda biznes sohasidagi inqirozli kommunikatsiya bo'yicha tashkilotning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga muvofiqqligini ifodalovchi “tashkilot legitimligi” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritish g'oyasi ilgari surildi. Hukumat va davlat organlarining legitimligi esa ularning davlat boshqaruvida demokratik saylov mexanizmlarida ishtirok etayotgan aholining orzu-umidlariga mos ravishda faoliyat yuritishi orqali baholanadi. Siyosat va davlat boshqaruvi sohasidagi empirik ma'lumotlarga asoslangan tadqiqotlarda ilgari surilgan ilmiy yondashuvlarga ko'ra, davlat (siyosiy hokimiyat) inqirozli vaziyatlarda har doim ham jamiyat bilan samarali muloqot o'rnatishga tayyor bo'lmaydi. Chunki davlat boshqaruvi organlari OAV bilan yaqindan hamkorlik qilsa-da, demokratik tamoyillarga ko'ra, ularning muayyan voqea-hodisani yoritishdagi subyektiv tanlovi va yondashuvini boshqarishga, ma'qul kelmagan va davlat hokimiyati imijiga salbiy ta'sir qiladigan axborotlarni ta'qiqlashga qaratilgan dialogni yo'lga qo'yishga haqqi yo'q [6].

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, auditoriyaning talab va umidlarini to'g'ri tushunish davlat organlariga aholi manfaatlarini, talablariga eng mos keladigan muloqot strategiyasini yaratish imkonini beradi. Bu auditoriyaning axborotga bo'lgan ehtiyoji va afzalliklarini tahlil qilish, aholini qiziqtiradigan asosiy mavzularni aniqlash va axborotning eng yaxshi tarzda taqdim etilishini baholash qobiliyatini o'z ichiga olishi mumkin [7]. Media savodli davlat idoralari fikr-mulohaza yig'ish, ijtimoiy tarmoq muhokamalarini kuzatish va sotsiologik tadqiqotlardan foydalanish orqali aholini nimalar qiziqtirayotgani yoki tashvishlantirayotganini aniqlashga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO – Building Media and Information Literacy for a Resilient Uzbekistan, 2025.
2. OECD-OECD Report on Public Communication: The Global Context and the Way Forward, 2021.
3. Media savodxonlik va uning davlat boshqaruvidagi o'рни // O'zMU xabarlar, 2024.
4. Chess C. Organizational theory and the stages of risk communication // Risk Analysis, 2001. Vol. 2. – P. 179.
5. Kaspersen R.E. Six propositions on public participation and their relevance for risk communication // Risk Analysis, 1986. Vol. 6. – P. 275.
6. Horsley S. Toward a Synthesis Model for Crisis Communication in the Public Sector: An Initial Investigation // Journal of Business and Technical Communication, 2002. Vol. 16. №4. – P. 406.
7. Рейтинг доверия населения к президенту В.В. Путину: База данных всероссийских опросов общественного мнения «Архивариус».

Jumagul SUVONOVA,

Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti dotsenti;

Charos BOQIYEVA,

Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti magistranti

“ALPOMISH” DOSTONINING MUSTAQILLIK DAVRIDA O'RGANILISHI

Annotatsiya. The article analyzes the “Alpomish” epic in detail from the perspective of independence period folklore studies. Scientific views on the epic nature, artistic and stylistic features, historical roots, and versions of the dastan have been revised, and the complex of scientific research created during the years of independence has been summarized. Based on the scientific heritage of leading scholars such as Qozoqboy Yuldashev, Tura Mirzayev, M.Saidov, B.Sarimsoqov, the interpretations of the dastan, the system of epic images, the evolution

of motifs, and the connection of the dastan with the culture of the Turkic peoples are illuminated. Also, a comparative analysis of the approaches of Uzbek and Russian researchers during the period of independence was conducted, and the role of “Alpomish” as a literary phenomenon reflecting the spirit of the people, national identity, and universal values was scientifically revealed.

Kalit so'zlar: “Alpomish”, folklor, epik tadqiqotlar, mustaqillik davri folklorshunosligi, epik talqin, doston versiyalari, qiyosiy tahlil.

Annotation. The article analyzes the “Alpomish” epic in detail from the perspective of independence period folklore studies. Scientific views on the epic nature, artistic and stylistic features, historical roots, and versions of the dastan are revised, and the complex of scientific research created during the years of independence is summarized. Based on the scientific heritage of leading scholars such as Qozoqboy Yuldashev, Tura Mirzayev, M.Saidov, B.Sarimsoqov, the interpretations of the dastan, the system of epic images, the evolution of motifs, and the connection of the dastan with the culture of the Turkic peoples are illuminated. Also, a comparative analysis of the approaches of Uzbek and Russian researchers during the period of independence was conducted, and the role of “Alpomish” as a literary phenomenon reflecting the spirit of the people, national identity, and universal values was scientifically revealed.

Keywords: “Alpomish”, folklore, epic studies, Independence period folklore studies, epic interpretation, epic versions, comparative analysis.

Аннотация. В статье подробно анализируется эпос «Алпамыш» с точки зрения фольклористики периода Независимости. Пересматриваются научные взгляды на природу эпоса, художественно-стилистические особенности, исторические корни и версии дастана, обобщается комплекс научных исследований, созданных за последние 35 лет. На основе научного наследия таких ведущих ученых, как Козокбой Юлдашев, Тура Мирзаев, М.Саидов, Б.Саримсаков, освещаются интерпретации дастана, система эпических образов, эволюция мотивов и связь эпоса с культурой тюркских народов. Также проведен сравнительный анализ подходов узбекских и российских исследователей в обозначаемый период, научно раскрыта роль «Алпамыша» как художественного явления, отражающего дух народа, национальную идентичность и общечеловеческие ценности.

Ключевые слова: «Алпамыш», фольклор, исследования эпоса, фольклористика периода Независимости, интерпретация эпоса, версии эпоса, сравнительный анализ.

“Alpomish” – xalq qahramonlik dostoni. Turkiy xalqlar orasida uning bir necha versiyalari tarqalgan bo'lib, noyob badiiy asar hisoblanadi. “Alpomish” asari asrlar davomida kuylanib, xalq og'zaki ijodi sifatida bizlargacha yetib kelgan. U qadimiy turkiy tilda yozilgan doston. 1999-yili O'zbekistonda “Alpomish” dostonining 1000 yilligini keng nishonlandi. Bu dostonida Alpomish laqabli Hakimbek degan qo'rqmas bahodir pahlavonning begona qalmoqlar yurtida aziyat chekayotgan amakisi (qaynotasi) bilan sevgilisi Barchinoyini qutqarib kelishi va murod-maqsadiga yetishi juda jonli tasvirlangan. Alpomish qalmoqlar yurtida ko'p qiyinchiliklarga, hiyla-nayranglarga duch kelib, ularni mardona yengib o'tadi. O'zining mardligi, haqqoniyligi, tantiligi tufayli qalmoqlar yurtida ham, o'z vatanida ham adolatni qaror toptiradi. Ushbu dostonida o'zbeklarning fe'l-atvori juda mahorat bilan tasvirlangan.

“Alpomish” qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug'lar birligini kuylovchi ulkan eposdir. Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganidek, “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqqoniy bo'lishni, vatanimizni, oila qo'rg'onimizni qo'riqlashni, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishni o'rgatadi. “Xalq dostonlarining sara namunasi bo'lgan “Alpomish” xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi hisoblanib, yosh avlodni komil inson qilib shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli o'rta maktab o'quv dasturiga kiritilgan xalq og'zaki ijodi janrlarini chuqur va har tomonlama o'rganish bir tomondan, o'quvchilarda xalqimiz tarixi, ma'naviyati va og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishni uyg'otsa, ikkinchi tomondan, ularda ajdodlar kabi Vataniga, xalqiga bo'lgan mehr-muhabbatni yanada kuchaytiradi. Atiqli xalq baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'lidani yozib olingan “Alpomish” dostoni xalqimizning ana shunday noyob adabiy meroslaridan biridir” [1].

Jahon ma'naviyati va madaniyatiga munosib hissa qo'shgan, o'tmishi yuqori saviyada o'tgan xalqlar og'zaki ijodida butun dunyo folklorshunos olimlari muttasil o'rganayotgan asarlar bor. “Forsaytlar Haqidagi Sagalar”, “Nardlar”, “Manas” shular jumlasidandir. “Alpomish” ham ana shunday asarlar qatorida munosib o'ringa ega. Shuning uchun folklorshunoslikda “Alpomish”ning xalq qahramonlik eposi sifatidagi tarixiy ahamiyati atroflicha o'rganillar. Hamid Olimjon, Hodi Zaripov, M.Saidov, To'ra Mirzayev, Malik Murodov, Bahodir Sarimsoqov, Mamatqul Jo'rayev kabi o'zbek

olimlari mazkur asarni ijtimoiy hayotning badiiy ijoddagi ifodasi yo'nalishida tadqiq etganlar. Doston haqidagi yangi fikr B.Sarimsoqovning “Alpomish” eposi haqida uch etyud” hamda “Alpomish – klassik epos namunasi” maqolalarida qayd etildi [2]. Bugungacha “Alpomish” dostonining turkiy dostonlar qatorida tutgan o'rni, epik timsollar tizimi tadjiridagi mavqeyi, jahon mifologik tafakkur tajribasining dostoniga ko'rsatgan ta'siri, undan o'rganilgan jihatlar, asar sujetining yaratilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, etnik-maishiy omillar, asardagi timsollar tizimi o'rganilgan. Doston badiiyatini o'rganishga qaratilgan ishlar sirasiga M.Saidovning “O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari”, I.Yormatovning “O'zbek xalq eposi badiiyati (“Alpomish” dostoni asosida)” va “O'zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati”, Q.Yo'ldoshevning “Alpomish talqinlari” kabi ishlarni kiritish mumkin. Dostonning o'qishligini ta'minlagan, xalqimiz qalbidan chuqur o'rin olgan jihat uning milliy ruhияtimiz bilan chambarchas bog'liqligida. “Alpomish” millat uchun faqat o'tmish emas, hozir va kelajak hamdir. U barcha buyuk asarlar singari abadiyatga daxldor. Shuning uchun asarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tadqiq etish adabiyotshunosligimizning kechiktirib bo'lmas masalalaridan biridir.

Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan “Alpomish” turkum dostonlarining tarixiy ahamiyati va badiiy qimmat hamisha ko'plab folklorshunos, adabiyotshunos, faylasuf, tarixchi etnograflarning e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Jumladan, turkiy xalqlar eposini tadqiq etishda A.K.Borovkov, V.M.Jirmunskiy, B.N.Putilov, H.V.Paksoy, K.Rayxl, O.Ingyong singari jahon olimlarining xizmatlari beqiyosdir. Professor A.K.Borovkov turkiy xalqlar o'rtasida keng tarqalgan “Alpomish” dostonini o'rganish va to'plash tarixini, har bir versiyada o'sha xalqning milliy an'analari o'z ifodasini topganini o'zbek, qoraqalpoq, qozoq versiyalari asosida tahlil qilgan. U bosh qahramon Alpomishning do'stlari (Qultoy, Qorajon) va raqibi (Uulton) obrazlaridagi qarama-qarshiliklarni tahlil qilib, ikki bo'limdan iborat bu asarning har bir qismi turli davrlarda yaratilgan va bo'limlarning har biri o'zicha mustaqil ravishda aytib kelingan, degan xulosaga keladi [3]. M.I.Afzalov “Alpomish” eposining o'sha vaqtda mavjud bo'lgan o'n ikki variantini bir-biriga qiyoslab, uning asosini xalqchil motivlar tashkil qilishini alohida qayd etadi, har bir variantning o'ziga xos badiiy fazilatlarini xususida ham to'xtalib o'tadi.

“Alpomish” dostonining o'zbek versiyasi va o'ttizdan ziyod variantini yaxlit tizim sifatida monografik tadqiq

etgan akademik To'ra Mirzayev tadqiqotlari folklorshunoslik, xususan, "Alpomish" tadqiqida alohida ahamiyatga ega. U o'zbek xalq qahramonlik eposi sujetining genetik ildizlari, yetakchi motivlarining yuzaga kelish tarixi, manbalari va "Alpomish"ning o'zbek baxshilari repertuaridagi o'ziga xos talqinlarini o'rgandi. Olim shunday yozadi: "Umuminsoniy fazilatlarini o'ziga singdirgan "Alpomish"dek katta bir eposning barcha mavjud variantlarini qiyosiy o'rganish muhim nazariy va praktik ahamiyatga ega, chunki busiz traditsion tekstning ijodiy variantlari nimalardan iborat ekanini, dostonchi mahoratidagi individual xususiyatlarni, epik poeziya markazlari va maktablarining o'zia xos an'alarini belgilab bo'lmaydi.

"Alpomish" dostonining mustaqillik davridagi tadqiqotlari uning xalqimiz ma'naviyati va madaniyati uchun qanchalik muhimligini yana bir bor ko'rsatdi. Dostonning epik tabiatini, badiiy-uslubiy xususiyatlarini va turkiy xalqlar madaniyati bilan bog'liqligini o'rganish, uning xalqqa va butun insoniyatga ta'sirini ilmiy asosda yoritishga imkon berdi. O'zbek va xorijiy tadqiqotchilar "Alpomish"ning turli versiyalarini qiyosiy tahlil qilib, uning epik obrazlar tizimi, motivlar evolutsiyasi va milliy ruhiyat bilan chambarchas bog'liqligini aniqladilar. Ushbu tadqiqotlar dostonni nafaqat o'tgan asrlar merosi, balki hozirgi va kelajak avlod tarbiyasida muhim adabiy va ma'naviy vosita sifatida qadrlashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamoldinova M. "Alpomish" dostonini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish". – Toshkent, 2018.
2. Sarimsoqov B. "Alpomish" – klassik epos namunasi // O'zbek tili va adabiyoti, 1999. – B. 3–9.
3. Боровков А. К. Георгическая поэма об Алпамыше. Об эпосе Алпамыш. Материалы по обсуждению эпоса Алпамыш. Ответственные редакторы В.И.Чичеров и Х.Т.Зарифов. – Ташкент: АН Уз ССР, 1959. – С.61–86.

Abdullaxon SULAYMONOV,

Guliston davlat universiteti filologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti;

Gulchehra QO'YLIYEVA,

filologiya fanlari doktori, dotsent

ULUG'BEK HAMDAM IJODIDA RAMZIYLIK ("NA'MATAK" ASARI MISOLIDA)

Annotatsiya. Maqolada Ulug'bek Hamdamning "Na'matak" asaridagi ramziylikning badiiy talqini o'rganiladi. Na'matak obrazi uch avlod hayotidagi mehr-oqibat, ziddiyat va inson – tabiat munosabatining ramzi sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ulug'bek Hamdam, "Na'matak", uch avlod, naqorat, badiiy tafakkur, falsafiy talqin.

Annotation. The article explores the artistic interpretation of symbolism in Ulugh Beg Hamdam's work "Na'matak". The image of the rosehip is analyzed as a symbol of kindness, conflict, and the relationship between humans and nature in the lives of three generations.

Keywords: Ulugbek Hamdam, "Na'matak", three generations, chorus, artistic thinking, philosophical interpretation.

Аннотация. В статье исследуется художественная интерпретация символики в произведении Улугбека Хамдама «Шиповник». Образ шиповника анализируется как символ доброты, конфликта и взаимоотношений человека и природы в жизни трех поколений.

Ключевые слова: Улугбек Хамдам, «Шиповник», три поколения, припев, художественное мышление, философская интерпретация.

Zamonaviy yozuvchi Ulug'bek Hamdam ijodi bugungi o'quvchilar qalbidan mustahkam o'rin egallagan bo'lib, uning asarlari o'ziga xos badiiy uslubi, hayotiylik va chuqur ma'no qatlamlari bilan ajralib turadi. Yozuvchining asarlarida so'z qo'llash mahorati, xalq hayoti va ruhiyatiga tayangan holda yaratilgan obrazlarning tabiiyligi, milliy qadriyatlarga sodiqligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, qahramonlar ismlarining sof turkiy shakllarda berilishi ham milliylikning badiiy ifodasi sifatida diqqatga sazovor. Yozuvchi, shoir yaratayotgan asarida o'z siymosini yoki o'zi ko'rgan va bilgan insonlar portretini gavdalantiradi. Ulug'bek Hamdam ijodida ham bu xususiyat yaqqol seziladi. Chunki qahramonlar atrofimizdagi insonlar, voqealar esa biz boshdan kechirayotgan hayotdan olingan. Yozuvchining ko'plab asarlarida avlodlar o'rtasidagi ruhiy va ma'naviy bog'liqlik, davrning inson taqdiriga ta'siri kabi mavzular markaziy o'rin tutadi. Nasr va nazmda mayda detallargacha e'tibor qaratilishi, peyzaj tasvirining o'ziga xos tarzda qo'llanishi uning ijodini yanada ta'sirchan qiladi.

Ijodkorning o'zbek adabiyotida ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotgan "Na'matak" mini romani ham yuqorida aytilgan xususiyatlarga ega. Filologiya fanlari doktori Sh.Turdimov asar haqida shunday deydi: "Yozuvchi asarda na'matakni butadan ismga aylantira olgan voqea, kechinmalarni hikmatga payvand etgan...

Yozuvchi asar nomiga berkitgan sir voqealar bayonida ochilgan... asar ulkan epik qamrovli voqelikni qisqa hajmga jamlagan... "Na'matak" – majoziy asar" [2: 413–414]. "Na'matak"ning hikoyi yoki mini roman sifatida talqin qilinishi haqidagi bahslar mavjud bo'lsa-da, asarning shakldan ko'ra mazmuni, undagi ramziy qatlam birlamchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois maqolada asar "badiiy matn" – "asar" sifatida umumlashtirib o'rganilgan.

Qo'shiq va she'rdagi kulminatsion nuqta – naqorat juda muhim. Ulug'bek Hamdam "Na'matak" asariga "shohbayt" qilib naqorat qismini tanlagan. Bu qism asar mohiyatini ochib berishda, uning davomiylik, uzviyligini ta'minlashda asosiy vazifani bajaradi. Naqorat to'rt marotaba takrorlanadi va har safar yangi ma'no yuki bilan namoyon bo'ladi. Matn uch qismdan iborat bo'lib, har biri o'z xulosasiga ega hamda o'zidan oldingi va keyingi bo'limlarni mazmunan birlashtiruvchi tayanch detallar orqali bog'lanadi.

"Qanday ko'zla boqsa, odam olamga,

Shunday javob aylar olam odamga,

degan ekan donishlar..."

Bu – asarning birinchi qismidagi dastlabki naqorat va so'zboshi. Birinchi qismda uch jihat ko'zga tashlanadi: 1. Odamning odamga boqishi. 2. Odamning olamga boqishi. 3. Olamning odamga boqishi. Asarning birinchi qismida na'matak obrazi mehr-oqibat,

qo'shnichilik, tabiat bilan uyg'un yashash g'oyalari ifodalanadi. Qalbi pok insonning ishida unum, hayotida fayz bo'ladi, oilasidan baraka yog'ilib turadi. Ikki qo'shnida ham bu sifatlar yetarlicha topiladi. Ikkinchi qismda yigit va qizning ilk uchrashuv nuqtasi kelgusi hayotlariga tarix bo'lgan voqeadan boshlanadi. Uchinchi qismda na'matak ikki qo'shni tomonida ham teng va mo'l hosil berishini kuzatasiz.

Birinchi yildagi na'matak mevalari insonlar insonlarga va tabiatga befarq munosabatda ekanini ko'rsatsa, ikkinchi yildagi mo'l ikki qo'shni o'rtasidagi o'zaro oqibatdan tabiat ham bebahra qolmaganini anglatadi. Uchinchi yil bahorida esa ikki oila farzandlari taqdiri oppoq na'matak gullari misoli birlashadi. Fikrimizcha, na'matak birinchi qismda mehr-oqibat ramzi. Keyingi qism (avlod) qismati birinchisidan tubdan farq qiladi. Yigit va qiz yoshini yashab oshini oshaguncha, o'z ahlilariga qanday munosabatda bo'lsalar, na'matakka ham shunday qaradilar, parvarish qildilar. Ular ham bu dunyodan o'tarkan, dalahovliga kelgan avlod asar mazmun-mohiyatining butunlay o'zgarishiga sabab bo'ladi. O'rtada oqibat yo'qoladi. Mehr bulog'i chashmalari yopiladi. Ishonch devorlari buzilib, o'rnida hovlilarni taqsimlash uchun chegara – devor tortiladi. Qaysi tomon devor tortmasin, o'rtada na'matak sarson...

Asarning ikkinchi qismida voqealar na'matak atrofida sodir bo'ladi. Nafs iskanjasiga tushganlar uni chopib tashladi. Bu odamning olamga munosabati edi. Inson o'z yovuz niyatini amalga oshirishga tuynuk hosil qildi. Odamning odamga va olamga munosabati salbiy tomonga o'zgardi. Begunoh daraxtga tortilgan bolta gunohkor bo'yinni ham ayab o'tirmadi. Hech qancha vaqt o'tmay ikkinchi qo'shni ham qamoqda vafot etdi. Insonning tabiatga bo'lgan yaxshiy munosabati tabiatning ham qahriga sabab bo'ldi, natijada asar fojiali yakun topadi. Shuning uchun bu qism naqorat bilan yakun topadi

“Qanday ko'zla boqsa, odam olamga,

Shunday javob aylar olam odamga, degan ekan...” [1]

Birinchi qismda *donishlar* so'zi bor edi. Bu qismda esa qo'llanilmaydi. Sh.Turdimov bu haqda shunday yozadi: “Huddi xalq qo'shiqlaridagidek bir hikmat naqorat bo'lib, uch qismni birlashtirib – bog'lab turibdi. Yozuvchi hikmatga badiiy maqsadni ochuvchi kalit vazifasini yuklagan. Hikmatlarni ifoda shaklida voqelik tasviri va mazmuniga uyg'un, tadrijiy ko'rinish olgani

bejiz emas” [2: 414]. Na'matak bu qismda kitobxonga insoniylik chegarasini anglatadi. Bu chegarani buzish qiyin emas. Asarda ham bu nafs va ochko'zlik chegarasi buzilishi bilanoq johilliklar boshlanadi.

Qanday ko'zla boqsa, odam olamga,

Shunday javob aylar olam odamga, degan... [1]

Ikkinchi bo'lim naqorat bilan boshlanib, naqorat bilan tugagan. Birinchi naqoratdagi *degan ekan* ota-bobolari tilidan aytilgan hikmat tarzida berilgandi, asar so'nggida esa bu so'z tabiat tilidan aytilgan.

Uchinchi avlod voqealari ikkinchi avlod qismatidan darak berish bilan boshlanadi. “Adib uchinchi avlod taqdirini atigi uch kunlik vaqt birligiga sig'dirar ekan, bu bilan inson umrining g'oyatda qisqa ekaniga urg'u bergan” [4]. Bu qism avvalgi avlod vakillarining hayot tarzi, tabiatga bo'lgan munosabati va voqealar rivoji bilan keskin farq qiladi. Bu qism uch kunni o'z ichiga oladi. “Qushlar chug'ur-chug'ur qo'shiq aytadi, arilar g'o'ng'illaydi, shabboda ham yana o'z tilida odamlar kechmishidan shivirlab nimalarnidir zamzama qiladi” [1: 420]. *Zam-zam* arab tilida “to'xta-to'xta” ma'nosi ifodalaydi. Bu ikkinchi avlod vakillariga qaratilgan bir ogohlik qo'ng'irog'i edi, ular buni tushunib yetmagani sabab umri nes-nobud bo'ldi.

Birinchi kunda ko'klam tasviri beriladi. Na'matak iforidan mast bo'lgan yigit va qiz bu butaning nomini bilmaydi. Adib uchinchi avlod sifatida har bir kitobxon o'zini-o'zi tushunishini ta'kidlagan. Ikkinchi kun yigit ham, qiz ham tunni bedor o'tkazadi. Ular butaga mehr berayotgandek tuyuladi. Uchinchi kunda esa butaga hamon nom berishmaganini kuzatasiz. Asar yana naqorat bilan xotimalanadi. Bu gal xotima esa hech kimning tilidan bayon qilinmagan. Adib xulosa chiqarish va butani nomlashni kitobxonga yuklaydi. “Kim biladi deysiz, ular balki bobolarini eslashayotgandir, balki otalarini, balki yodlarida tamomila o'zga o'y bordir...” [4: 420].

Qanday ko'zla boqsa, odam olamga,

Shunday javob aylar olam odamga [1].

Asarda tinish belgilari ham ta'sirchanlikni oshirib, uning zalvoriga xizmat qilgan. So'roq va undovning (?) undov va so'roqqa aylanishi (!?) mulohaza qilishimizga sabab bo'lsa, naqarat va boshqa o'rinlarda kelgan uch nuqta (...) o'quvchini tin olishga, o'ylashga undaydi. Demak, asar hali uzoq yillar davomida kitobxonlar ardog'ida bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulug'bek Hamdam. Na'matak (mini roman). <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ulug-bek-hamdham-1968/ulug-bek-hamdham-na-matak-mini-roman>.
2. Hamdam U.Vatan haqida qo'shiq. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
3. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi: Alouddin Mansur. – Toshkent: Cho'lpon, 1992.
4. Yakubov I. Mini roman yaratish yo'sinidagi eksperimental izlanishlar // Worl of Philology, 2022. Vol. 1, Issue 2. – B. 5–10.
5. Hamdam U.Vatan haqida qo'shiq. – Toshkent: Akademnashr, 2014.

To'lqin ALLAYOROV,

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti dotsenti

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK RIVOJLANISHIDA LINGVOPOETIKA FANINING AMALIY AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Annotatsiya. Maqolada lingvopoetika fanining shakllanishi, uning asosiy tadqiq obyektlari, badiiy matnda til birliklarining estetik vazifasi va muallif poetik konsepsiyasini til orqali ochish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy matnning semantik, pragmatik va estetik qatlamlari o'zaro munosabatda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, badiiy matn, obrazlilik, estetik funktsiya, individual uslub, poetik semantika.

Annotation. The article examines the theoretical foundations of linguopoetics, the aesthetic function of linguistic units in literary texts, the poetic value of grammatical forms, and the linguistic indicators of an author's individual style. The study highlights the significance of linguopoetic analysis in revealing semantic depth, imagery systems, and the aesthetic concept of a literary work.

Keywords: linguopoetics, literary text, poetic semantics, aesthetic function, individual style.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы лингвопоэтики, эстетическая функция языковых единиц в художественном тексте, поэтическая нагрузка грамматических форм и лингвистические проявления индивидуального стиля автора. Обоснована научная значимость лингвопоэтического анализа в раскрытии семантической глубины, образной системы и эстетической концепции произведения.

Ключевые слова: лингвопоэтика, художественный текст, поэтическая семантика, эстетическая функция, индивидуальный стиль.

Lingvopoetika – tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan ilmiy yo'nalish bo'lib, badiiy matndagi til birliklarining estetik vazifasini o'rganadi. Uning asosiy maqsadi – adabiy asar poetikasini tilning ichki imkoniyatlari orqali talqin qilish, muallifning uslubiy individualligini lingvistik mezonlarda aniqlash. Ushbu yo'nalish XX asr oxiridan boshlab o'zbek adabiyotshunosligida ham faol tadqiq qilina boshladi. Lingvopoetika badiiy matnning quyidagi qatlamlarini o'rganadi:

- leksik-semantik birliklarning obraz hosil qilishdagi roli;
- grammatik shakllarning estetik qiymati;
- kontekstual ma'no kengayishi;
- metaforik va metonimik modellar;
- ritmik-sintaktik tuzilishning ta'sirchanlikdagi o'rni.

Bu obyektlar orqali matnning ichki musiqiyligi, hissiy ta'siri va poetik konsepsiyasi namoyon bo'ladi.

Til tizimiga xos birliklar va ularning grammatik-semantik xususiyatlari: leksik ma'no; grammatik ma'no: zamon, shaxs, mayl; gap qurilishi; morfologik shakllar; fonetik vositalar. Bu birliklar aslida nutqning mantiqiy, strukturaviy tomonini belgilaydi.

Poetik kategoriya. Badiiy matnning estetik, obrazli, emotsional tabiatini belgilovchi birliklar: metafora, ramz, timsol; obrazlilik; ritm va intonatsiya; muallifning estetik konsepsiyasi; badiiy tasvir vositalari; matnning ichki musiqiyligi. Poetik kategoriya san'atkorona ma'no yaratadi. Lingvistik birliklar badiiy matnda faqat axborot berish uchun emas, balki obraz yaratish, estetik ta'sir ko'rsatish, ruhiy holatni ifodalash vazifalarini bajaradi. Shu sabab til (lingvistik) poetika (badiiylik)ga aylanadi. Masalan:

Oddiy leksik birlik: "yurak".

Poetik kontekstda: "qo'rquvga to'la yurak", "sokin yurak", "g'ubor bosgan yurak" – bu yerda grammatik shakl + kontekst = estetik ma'no.

Yoki:

Grammatik zamon: hozirgi zamon.

She'riy nutqda: voqeaning jonli kechishi, dramatismning kuchayishi.

Sintaktik usul: inversiya.

Poetika: urg'u, ichki ritm, emotsional turtki beradi.

Lingvistik kategoriya – tizim. Poetik kategoriya – estetik ifoda. Ular badiiy matnda uyg'unlashganda obrazlilik kuchayadi, muallif uslubi seziladi, qatlamli ma'no hosil bo'ladi, matnning poetik semantikasi boyiydi.

Badiiy matnda til unsurlari ikki asosiy vazifani bajaradi: nomlash, estetik ta'sir ko'rsatish. Grammatik shakllar badiiy matnda faqat grammatik ma'no berib qolmay, poetik-estetik vazifa ham bajaradi. Ular voqea dinamikasini, personaj ruhiyatini va matnning ichki ohangini shakllantiradi.

Zamon shakllarining estetik funksiyasi. Hozirgi zamon – voqeani ko'z oldimizda kechayotgandek ko'rsatadi, dramatismni oshiradi. Masalan: *Ko'chalar jim. Shamol esadi. Daraxtlar uvillaydi.* Bu yerda hozirgi zamon matnga jonli kamera effektini beradi. O'tgan zamon – xotiraviy, sokin, falsafiy kayfiyat yaratadi: *U uzoq yo'l yurdi, sokin kechalarda o'zi bilan suhbatlashdi.* Kelasi zamon – orzu, intilish, noaniqlik yoki tashvish hissini kuchaytiradi: *U bir kun albatta qaytadi. Yuraklar yana topishadi.*

Mayl va shaxs-ko'plik kategoriyasi. Buyruq mayli – keskinlik, talab, ichki hayajon ifodasi: *Ketma! Uzoqlashma!* Istak mayli – noziklik, umid, bosiqlik ifodalaydi: *Yaqinroqda bo'lsang edi...* Shaxs-ko'plik formasida estetik urg'u o'zgaradi: *men* shakli – intim, shaxsiy, ichki kechinma; *biz* shakli – umumlashma, jamoaviy ruhni anglatadi.

Qo'shimchalarning poetik yuki

-ar, -er (odat) → davomiylilik va ruhiy bezovtalanish: *U tunlari o'ylanar, ko'chalarga chiqib ketar...*

-guday, -moqchidir (tasavvur, taxmin) → lirizm va mulohaza: *U yo'llar tugaguday bo'ldi.*

Sintaktik bo'laklarning grammatik-kechinmaviy yuklamasi

Parsellyatsiya ("bo'laklash") → ruhiy larzani kuchaytiradi: *U ketdi. Shunchaki ketdi.*

Inversiya → urg'u va intonatsiyani o'zgartiradi: *Ko'ngliga savol keldi bir: kim u aslida?*

Grammatik shakllar badiiy matnda voqea ritmini belgilaydi, obrazning psixologik qiyofasini ochadi, matnga emotsional rang beradi, muallif uslubiga xos original ohang uyg'otadi.

Lingvopoetika aynan ikkinchi vazifani markazga qo'yadi. Masalan, oddiy nutqdagi yo'l so'zi qissa yoki she'r matnida "taqdir", "tanlov", "ruhiy iztirob" ma'nolarini ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu kengayish poetik semantikaning eng muhim xususiyatidir. Sinonimiya, antonimiya, polisemiya, metafora, metonimiya kabi hodisalar obraz yaratishda asosiy vositadir. Masalan, Cho'lpon poetikasida *tun* so'zi nafaqat vaqt birliklarini, balki ruhiy iztirobni ifodalovchi timsol sifatida ham qo'llanadi.

Fe'l zamonlari narrativ dinamikani belgilaydi. Hozirgi zamon shaklining poetik matnda qo'llanishi kishida voqea bevosita sodir bo'layotgandek tasavvur uyg'otadi. Sifatdosh, ravishdosh, qo'shma fe'llar obrazning ko'chma, harakatli tusini kuchaytiradi. Takror, parallelizm, inversiya, parsellyatsiya kabi sintaktik qurilmalar matnning musiqiy ko'lamini yaratadi. She'rdagi ritmik qurilish sintaktik strukturalarning uyg'unlashuvi bilan yuzaga keladi. Muallifning individual uslubini aniqlashda uch asosiy mezon qo'llanadi:

1. Leksik tanlov – muallif doimiy qo'llaydigan obrazli birliklar majmuyi.

2. Sintaktik konstruksiyalar – yozuvchiga xos gap qurilishi modellari.

3. Poetik konsepsiya – asar dunyoqarashi, g'oyaviy-emotsional asosining til orqali ifodalanishi.

O'tkir Hoshimov matnlarida soda gaplar, soddalashtirilgan sintaksis va jonli xalq iboralari muallif uslubining asosiy belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvopoetik tahlilning badiiy matnni chuqur talqin qilish, yozuvchi uslubini ilmiy asosda tasniflash, talabalarda poetik tafakkurni rivojlantirish, tarjimashunoslikda ekvivalentlikni ta'minlash, adabiy ta'limda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishda juda ahamiyatli. Lingvopoetika amaliy jihatdan matnning ichki estetik tizimini tushunishga yordam beradi, badiiy asarning ilmiy tahlilini boyitadi. Demak, lingvopoetika badiiy matnning lingvistik va estetik tabiatini birgalikda o'rganadigan kompleks fan bo'lib, uning asosiy vazifasi til birliklari orqali poetik mazmunni ochishdir. Badiiy matnning semantik, sintaktik, pragmatik va estetik qatlamlari aynan lingvopoetik tahlil orqali yaxlit tizim sifatida talqin

qilinadi. Ushbu yo'nalish o'zbek adabiyotshunosligida ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Yo'ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2007.

Gulruh NE'MATOVA,

Alfraganus universiteti Sharq filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

MATBUOTDA TURIZM YO'NALISHLARINI TARG'IB QILISH VA YORITISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimiz bosma nashrlarida turizm mavzusida original mediamaterial yozish va ommalashtirishga qaratilgan zamonaviy usullar va ularning tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: matbuot, sayohat, destinatsiya, turizm, marketolog, forum, elektron nashr, kontent, kargo, transfer, reys, lokatsiya.

Annotation. The article examines modern methods of creating and promoting original media materials on tourism in domestic print media and provides an analytical assessment of them.

Keywords: press, travel, destination, tourism, marketer, forum, electronic publication, content, cargo, transfer, flight, location.

Аннотация. В статье рассматриваются современные методы создания и продвижения оригинальных медиаматериалов на туристическую тематику в отечественных печатных средствах массовой информации и приводится их аналитическая оценка.

Ключевые слова: пресса, путешествие, пункт назначения, туризм, маркетинг, форум, электронная публикация, контент, груз, трансфер, рейс, местоположение.

Turizm sohasi OAV bilan to'g'ri va tizimli aloqani yo'lga qo'yish orqali katta natijalarga erishmoqda. Jurnalistlar tayyorlagan kontentlar sayyohlar oqimini oshirishda boshqa vositalarga qaraganda samarali ekanini tajribada sinaldi. Ayniqsa, bu yo'nalishda matbuotning hisssasi va qamrovi katta. Buning ichiga sayyohlik yo'nalishlari haqidagi hikoyalar, sayohat bo'yicha maslahatlar, mehmonxonalar, restoranlar va shu bilan bog'liq boshqa bizneslar haqidagi sharhlarni kiritish mumkin.

Yirik xorijiy tadqiqotchilar – Flip Kotler, Jon Bouens, Jamyes Makens turizm marketingiga bag'ishlagan kitobida shunday deydi: "Matbuotda turizmning yoritilishi turizm sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijobiy yondashuv turistlarni belgilangan joyga jalb qilishga yordam beradi, salbiy yondashuv esa ularni tashrif buyurishdan qaytaradi. Shu sababli, turizm bo'yicha marketologlar va destinatsiyalar ko'pincha turizmning matbuotda yoritilishiga ta'sir qilish uchun ishlaydilar [1: 88].

OAV ko'pincha badiiy ko'rgazmalar, konsertlar va teatr tomoshalari kabi madaniy turizm tadbirlarini yoritib boradi. "Muzeylar va galereyalar esa mashhur sayyohlik joylari bo'lib, ommaviy axborot vositalari ko'pincha yangi eksponatlar va maxsus tadbirlarni yoritadi. Bu bosma matbuotga mos eng katta ustunlikdir" [2] deydi S.Makdonald ilmiy qo'llanmasida. Mediada turli madaniy tadbirlarning yoritilishini tahlil qilgan olim J.E.Hanniganning yozishicha, "madaniy turizm festivallari va tadbirlari ko'pincha ommaviy axborot vositalarida yoritiladi, chunki ular ko'plab tashrif buyuruvchilarni jalb qila oladi" [2: 87].

O'zbekiston allaqachon o'zining madaniy turizmdagi salohiyatini namoyon etgan. Masalan, "Euronews" nashrining "Uzbekistan showcases rich cultural heritage at Tashkent conference" maqolasida mamlakatimizning madaniy merosi yuqori baholanib, Butunjahon turizm forumi instituti prezidenti Bulut Bagji shunday deydi: "Bunday festivallar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Agar O'zbekiston turizmni rivojlantirishda shunday davom etsa, 100 foiz ishonchim komil – 20 million sayyoh orzu emas, bu haqiqatga aylanishi mumkin" [3].

Turizmning matbuotda yoritilishi murakkab va o'zgaruvchan, ammo bu turizm sanoati muvaffaqiyatiga

ta'sir qiladigan muhim omil sanaladi. "Stat.uz" nashrining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonga aksariyat sayyohlar yoz oylarida tashrif buyuradi. Bu davrda O'zbekiston jurnalistikasida turizm targ'iboti ham kuchayadi. Turizm sohasini matbuotda aks ettirishda kamchiliklar ham yo'q emas. Jumladan, medianing mintaqa turizmiga bergan noto'g'ri bahosi yoki umuman olganda, kontentlarning samaralilik darajasining pastligida ko'rinadi.

"O'zbekistondagi turizm yo'nalishlari" maqolasini tahlil qilsak. "Turizmni faol rivojlantirayotgan O'zbekiston bugungi kunda o'z mehmonlariga gastronomik turizm, agroturizm, etnoturizm, ekoturizm, ziyorat turizmi va boshqa turizm turlarini taklif etishga tayyor", deb yoziladi jurnalda. Maqolaga ijodkorlik ruhida yondashilgan. "Quyoshga o'xshash issiq va totli non", "Saxiy quyosh tufayli Yevropa yoki Janubiy Amerika sharoblari bilan raqobatlasha oladigan yaxshi sharob", "Unutilmas taassurotlar girdobi" kabi pafosli jumladan foydalanilgani maqolaning salmog'ini oshirgan.

"O'zbekiston qanday qilib Markaziy Osiyoning aviatsiya xabiga aylanmoqda?" maqolasida diagramma berilganini va u aniq dalillarga asoslanganini ko'rishimiz mumkin. Maqolani mashhur jurnalist, "Kursiv Media" muharriri o'rinbosari Vadim Yerkov yozgan. Maqola rasmiy tilda yozilgan bo'lib, statistika va qimmatli ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. Bu orqali jurnal mamlakatimizning turizm salohiyati yuqori ekanini, buni raqamlar ham isbotlashini ko'rsatib berishga uringan. Xususan, kargo, transfer, reyslar soni va narxlari o'zaro taqqoslangan.

David Griffin va Kevin Metanlarning 2011-yilda olib borgan tadqiqotlari natijasida nashrdan chiqqan kitobda aytilishicha, eng ko'p chop etiladigan xabarlar sarguzashtlarning yangi turlari, lokatsiyalari, sayohatchilar xotiralari va foto janrlarida bo'ladi" [4]. Masalan, belgiyalik mashhur sarguzasht ixlosmandi Sinthia Bil o'zining blogida O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan Chimyon tog'lari bag'rida bo'lishga chorlab shunday yozadi: "O'zbekiston timsolini tasavvur qilganda, ko'pchilik darhol uning feruza koshinli gumbazlari va sonasanoqsiz minora va maqbaralar bilan bezatilgan ajoyib Ipak yo'li shaharlarini esga oladi. Ammo mening xotiralarim biroz boshqacha... O'zbekistonning tinch manzaralari, tebranib turgan tog' cho'qqilari va qishloq ahlining tabassumlari bilan

to'la. O'zbekiston sarguzashtlar yurti" [5]. "Chirchiq daryosida rafting" esa "Asia Adventures" blogi nazariga tushgan. "Chirchiq daryosi O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, raftingning boshlang'ichdan yuqori darajagacha bo'lgan turlarini taklif etadi" [6] deyiladi xabarda. Xususan, David Ayri va Jon Tribe 2010-yili chop etgan "Tourism and the Media: Global and Local Perspectives" kitobidagi quyidagi jumla turizm va matbuotning o'zaro uyg'unligini ifodalab bera oladi: "Turizmning ahamiyati matbuotning rivojlanishi va rivojlantirilishi uchun ham qimmatlidir. Medialashgan davrda

turizmning bosma nashrdagi targ'iboti eng mukammal va ishonchli usulligicha qolaveradi" [7: 88].

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, turizm yo'nalishlariga ta'sir etuvchi yagona omil matbuot emas. Iqtisodiy sharoitlar, siyosiy barqarorlik va iqlim o'zgarishi kabi boshqa omillar ham rol o'ynaydi. Biroq matbuot odamlarning sayyohlik va tashrif buyurish uchun tanlagan yo'nalishlari haqidagi fikrlarini shakllantirishda kuchli vosita bo'ladi. Bu esa medialarning turizm yo'nalishlarini qanday ta'sirchan usullarda yoritib olishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kotler P., Bowen J., Makens J. Tourism marketing: A practical guide (9th ed.). – London: Pearson Education, 2020.
2. Macdonald S. Mediating the museum: Scholarship, spectacle, reception. – New York: Routledge, 2006.
3. Hannigan J.E. Festivals, media and cultural change. – New York: Routledge, 2019.
4. [Uzbekistan Airways](https://www.uzairways.com/assets/mag/). <https://www.uzairways.com/assets/mag/>.
5. Griffin D., Meethan K. Adventure tourism and the media: Representations, risks and responsibility. – New York: Routledge, 2011.
6. Hiking of Uzbekistan – 6 Best Hiking Trails in the Nuratau and Chimgan Mountains in Uzbekistan. <https://www.journalofnomads.com/hiking-in-uzbekistan-mountains/>.
7. Airey D., Tribe J. Tourism and the media: Global and local perspectives. – New York: Routledge, 2010. – 88-b.

Shoira ISLOMOVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsent v.b.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SHEVALARDAGI IFODASI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilining hududiy ko'rinishlarida uchraydigan frazeologik birliklar, ularning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va milliy-madaniy mazmuni tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning xalq ruhiyati, tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim til vositasi ekani yoritib beriladi. Tadqiqot davomida shevaga xos ko'plab iboralar yig'ilib, ular fonetik, leksik va semantik jihatdan o'rganildi hamda qadimiy turkiy qatlamlarga doir unsurlar aniqlandi. Shuningdek, hayvon obrazlari, totemik qarashlar va etnik e'tiqodlar asosida yuzaga kelgan iboralar ramziy talqinda tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, dialektal frazemalar, qipchoq shevasi, o'zbek tili, milliy-madaniy meros, qadimiy leksika, sheva xususiyatlari.

Annotation. This article analyzes the phraseological units found in regional varieties of the Uzbek language, their origins, semantic features, and cultural significance. It highlights the role of phraseological expressions as an important linguistic tool that reflects the spiritual world, historical experience, worldview, and values of the people. During the research, numerous dialect-specific expressions were collected and examined from phonetic, lexical, and semantic perspectives, and elements belonging to ancient Turkic layers were identified. Additionally, idioms formed on the basis of animal imagery, totemic beliefs, and ethnic conceptions were interpreted symbolically.

Keywords: phraseological units, dialectal phraseology, Qipchaq dialect, Uzbek language, national cultural heritage, ancient lexicon, dialectal features.

Аннотация. В статье анализируются фразеологические единицы, встречающиеся в диалектных формах узбекского языка, их происхождение, семантические особенности и национально-культурное содержание. Освещается, что фразеологические единицы являются важным языковым средством, отражающим дух, исторический опыт, мировоззрение и ценности народа. В ходе исследования было собрано множество диалектных выражений, которые были изучены с точки зрения фонетики, лексики и семантики, а также выявлены элементы, относящиеся к древнетюркским слоям. Также в символической интерпретации были проанализированы образы животных, выраженные, возникшие на основе тотемических взглядов и этнических верований.

Ключевые слова: фразеологические единицы, диалектные фраземы, кыпчакский диалект, узбекский язык, национально-культурное наследие, историческая лексика, диалектные особенности.

Frazeologik birliklar (FB) har bir xalq tilining bebaho boyligi bo'lib, uning milliy ruhiyatini, dunyoqarashi va ichki ma'naviy olamini aks ettiradi. Bunday birliklar tilda oddiy birikma sifatida emas, balki xalqning tafakkuri, hayotiy tajribasi, an'analari va qadriyatlari mujassam bo'lgan badiiy ifoda vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologizmlar orqali xalqning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy turmushi, mehnat jarayoni va milliy mentaliteti o'z ifodasini topadi. Har bir hududning o'ziga xos sheva va lahjalar o'zida betakror frazeologik boylikni mujassam etadi va ular milliy-madaniy merosimizning muhim bo'lagi hisoblanadi. Shevalarda uchraydigan iboralar, hikmatli ifodalar, maqol va matallar esa xalqning dunyoqarashi, hayot tarzi, kasb-kori hamda an'ana va odatlari haqida qimmatli ma'lumot beradi. Shu bois shevalar, ayniqsa, ularning frazeologik qatlamini o'rganish faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki madaniy va tarixiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotda Qashqadaryo viloyatining qipchoq shevasi vakillari kundalik nutqida keng qo'llaydigan frazeologik birliklar tizimli ravishda tahlil qilindi. Mazkur iboralar mahalliy aholining turmush tarzi, dunyoqarashi hamda ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi muhim til vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Qipchoq shevasidagi frazemalar ko'pincha ijtimoiy, diniy, madaniy va iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanib, aholi hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oladi. Bu frazeologik birliklar xalq tafakkurining mahsuli bo'lib, ularning har biri ma'lum bir tarixiy tajriba, hayotiy holat yoki madaniy qadriyatni aks ettiradi. Frazemalarning vujudga kelishi va rivojlanishida odamlarning atrof-muhitga, tabiat hodisalariga, jamiyatlardagi munosabatlarga hamda diniy e'tiqodlarga bo'lgan qarashlari asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli har bir frazema faqat til birligi emas, balki xalq ruhiyati, mentaliteti va dunyoqarashining yorqin ifodasidir.

Frazeologik birliklarning aynan qaysi davrda yuzaga kelganini aniq belgilash qiyin bo'lsa-da, ularning ildizlari juda qadimgi madaniy qatlamlarga borib taqalishi shubhasizdir. Frazeologizmlar xalqning turmush tarzi, madaniy an'analari va tarixiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, avloddan avlodga og'zaki nutq orqali yetib keladi. Har bir ibora o'zining shakllanish davri bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'sha davrdagi hayot tarzi, dunyoqarash, kasb-kor hamda madaniy muhitni o'zida aks ettiradi. FB millatning til manzarasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ma'no tizimida xalqning qadriyatlarini, hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, amaliy faoliyati va e'tiqodlari mujassamdir. Frazemalar real voqealar va insonlarning xatti-harakatlariga munosabatni ifodalab, baholovchi vazifani bajaradi. Shu sababli ular nutqqa obrazlilik, ta'sirchanlik va hissiy boylik bag'ishlaydi.

Dialektal frazemalar tilning tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan bo'lib, ma'lum bir hududga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Ba'zi sheva frazeologizmlari boshqa lahjalarida yoki adabiy tilda ham uchrash mumkin, ammo ko'pincha ular o'z hududiga xos talaffuz va so'z tanlovi bilan ajralib turadi. Masalan, *z'oli bolmaq*, *ayzi kalni ayziday bolmaq*, *part bo'lib qalmaq*, *dimayi' chay bolmaq*, *ayzi kalisdek acilib qalmaq*, *ko'ziga bo'z'evin tushmoq*, *j'arilgudak bolib qalmaq*, *z'uragi tasma*, *z'uragiga haviur tushmaq*, *narxini pi'chmaq*, *qizil katman*, *navcha z'urmaq*, *qentari'ib qojmaq*, *vara'za kirmaq*, *z'olga salmaq* kabi iboralar shular jumlasidandir. Ularning tarkibida juda qadimiy turkiy leksik qatlamlarga mansub so'zlar ham uchraydi, til tarixini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. *Z'an z'ayaga z'avuq*, *shishak so'ydi*, *yemiga tushmoq*, *qiz boldi*, *gapdin z'amani qanquv*, *b'ozlagan b'otadaj*, *z'aqshi kesu hut* – qazan qazan sut, *z'aman kesu hut* kabi iboralarda XI–XIV asrlarga oid qadimiy so'zlar va ma'no qatamlari hanuzgacha saqlanib qolganini ko'rish mumkin.

O'zbek tilshunosligida dialektal frazeologizmlarni ilmiy jihatdan o'rganish jarayoni XX asrning 60-yillaridan boshlab faol rivojlana boshladi. X. Doniyorov, T. Sodiqov, H. Uzoqov, Sh. Shomaqsudov, S. Dolimov, M. Hamidov kabi olimlar sheva frazeologiyasini tadqiq etishda muhim ilmiy natijalarga erishgan [1]. X. Doniyorov qipchoq shevalarida uchraydigan iboralarni fonetik va semantik xususiyatlariga ko'ra to'rt guruhga ajratgan [2]. T. Sodiqov esa Toshkent shevasi frazeologiyasining obrazlilik darajasi va sinonimik imkoniyatlarini yoritgan [3]. H. Uzoqov adabiy tilda uchramaydigan, faqat shevalarga xos iboralarni qiyosiy jihatdan tahlil qilgan [4]. Shomaqsudov va Dolimovlarning "Qayroqi so'zlar" asarida shahar so'zlashuv uslubiga xos minglab iboralar lug'aviy sharhlar bilan jamlangan [5].

Shevalarda uchraydigan obrazli frazeologik birliklar mahalliy aholining etnik tasavvurlari, qadimiy totemik qarashlari va hayvonlarga xos belgilar haqidagi ishonchlarini ham aks ettiradi. Bu iboralarda hayvonlarning nafaqat tashqi belgilariga, balki xulq-atvori orqali inson xarakteri va ijtimoiy munosabatlarga ko'chirilgan ramziy ma'nolariga ham urg'u beriladi. Masalan, *ko'ngliga qo'chqor kelmoq*, *bori' arqasiga qaramajdi* iboralari bo'riga xos dadillik va qat'iyatni ifodalasa, *it jegasini tanimajdi* iborasi itning o'zgaruvchan tabiatidan kelib chiqib, insonning bevafo yoki noshukurligini kinoyaviy tarzda tasvirlaydi. Shuningdek, *itga dari bolmaq* kabi iboralar esa behuda, foydasiz ishni bajarishni obrazli shaklda ifodalaydi.

Har bir hududga xos yashash tarzi, kasb-kori hamda tarixiy-madaniy an'analar aholining nutqida aks etgan dialektal frazeologizmlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday iboralar tilning boyligini ko'rsatish bilan birga, xalq tafakkurining qadimiy qatamlarini ham o'zida mujassam etadi. Dialektal

frazemalarni chuqur ilmiy tadqiq etish, ularning lug'atlarini tuzish, kelib chiqish tarixini aniqlash o'zbek tilshunosligi oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Tilimizdagi ko'plab frazeologik birliklar til egalarining kundalik mashg'ulotlari, kasb-korlari bilan bog'liq holda shakllanganini ko'rish mumkin. Masalan, *sansizni' sabayi' uzun*, *kalti' z'ip kirmavga kelmäs*, *ishi xor'zin*, *arqavini' tart*, *bojni' sardazdaj*, *kalabasi' z'itib*, *urcuqday ajlanmaq*, *boj jurgun'ca*, *en jur*, *ajayin' astida ala xor'zin*, *bir xor'zin semirmaq*, *ko'nglida qora paxtasi bor* kabi iboralar mazmun jihatidan gilamchilik faoliyati, jarayonlari va kasbiga xos holatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Dialektal frazemalar o'zining fonetik, leksik va semantik xususiyatlari bilan adabiy til hamda boshqa dialektlardan farqlanadi. Ularning shakllanishida aholi yashab turgan muhit, ular shug'ullanadigan soha, milliy urf-odatlar va dunyoqarash muhim rol o'ynaydi. Sheva frazeologizmlarini turli omillariga ko'ra guruhlash, ularning ma'no tizimi va o'zaro semantik munosabatlarini aniqlash ham shevashunoslik tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, insonning aqliy salohiyati, fahm-farosati, ruhiy holati, xarakteri va o'zaro munosabatlari bilan bog'liq tasavvurlar ham sheva iboralarining shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Bu jihatlar dialektal frazemalarning mazmunini boyitib, ularning mavzu doirasini yanada rang-barang qilgan.

Til egalari nutqida **rang nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar** ham anchagina uchraydi. Masalan: *boshiga qop-qora jel tushmoq*, *ko'nglida qizil dog'i bor*, *oq terini ko'k teri qilmoq*, *asli qizil tez o'ngar*, *ko'nglida qora paxtasi bor*, *orasidan ola o'tmoq*, *oq qilmoq*, *rangi sarg'aydi* kabi iboralar shular jumlasidandir. Majoziy tafakkurga xos jihatlardan biri sifatida ovqat, taom tayyorlash jarayoni, taomlarning kundalik hayotdagi o'рни va ahamiyatiga doir holatlar ham sheva frazeologizmlarining shakllanishiga asos bo'lgan omillar qatorida tilga olinadi. Shuningdek, mahalliy aholi ruhiyatiga xos mehmondo'stlik, pazandalik kabi fazilatlar ham ko'plab iboralarda o'z ifodasini topgan. **Milliy taomlar bilan bog'liq frazemalar** tarkibida sof o'zbekcha nomlarning hozirgacha yashab kelayotgani esa alohida diqqatga sazovor. Masalan, *xamiri achimas* – bemalol, hotirjam bo'lish; *faqirga palov bas* – kamtarinlik, qanoatni ifodalovchi ibora; *ataladan suyak chiqqanday* – kutilmaganda paydo bo'lish; *non ursin* – o'z so'zining to'g'riligiga qat'iy ishonchini bildirish maqsadida aytiladigan qasam ifodasi sifatida qo'llanadi.

Tilimizda uchraydigan ko'plab frazemalar kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlar asosida ham shakllangan. Xususan, **oshxona jihozlari bilan bog'liq frazeologizmlar** anchagina bo'lib, ular asosan insonning xarakteri, fe'l-atvori yoki ijtimoiy ahvolini ifodalashda xizmat qiladi. Masalan: *bir tovoq bo'lmoq* – ahil-inoq yashamoq; *kosasining tagi oqarmasin* – baxtdan quruq qolmoq; *suqma qoshiq* – har narsaga aralashaveradigan kishi; *qozoni och* – ziqna, tejamkor; *o'tmas pichiq bilan so'ymoq* – kimsani ojiz ahvolga solmoq kabi iboralar shular jumlasidandir.

O'simliklar bilan bog'liq frazemalar esa ko'pincha til egalarining yashab turgan hududidagi flora, daraxtlar va ularning atrofida shakllangan tasavvurlar natijasida vujudga keladi. Bunday iboralarning ayrimlari adabiy tilda ham uchrasa-da, ko'pchiligi faqat ma'lum shevalargagina xos bo'lib qolgan. Masalan: *tomiri suvga yetmoq* – iqtisodiy jihatdan farovonlashmoq; *dami bilan davcha teradi* – o'ylamasdan ish qilmoq; *uying bug'doyga to'lgir* – rizqing mo'l bo'lsin, degan duo; *gulni gulga qo'shmoq* – yigit va qizni unashtirmoq; *basharasiga g'isht tushgan* – juda xunuk; *tilining uchi biyday* –

fikrini tez aytadigan odam; *oshnam botir, qollama patir* – o'zini qahramon qilib ko'rsatmoq kabi iboralar bunga misol bo'ladi.

Frazeologik birliklarni tadqiq etish tilimizni boyitish va milliy o'zligimizni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ular orqali xalqimizning ruhiyati, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keladi. Tadqiqot jarayonida to'plangan frazemalar nafaqat tilning boyligi sifatida, balki millatimizning tarixiy

va madaniy xazinasini sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq ijodining bebaho qismi bo'lgan frazeologik birliklar voqelikni obrazli ifodalashga xizmat qilgan holda tarixiy so'z shakllarini ham saqlab kelmoqda. Shu sababli frazeologik birliklarni to'plash, tizimli o'rganish va ilmiy tahlil qilish nafaqat adabiy tilimizni boyitadi, balki xalqimizning ruhiyati va madaniyatini chuqurroq tushinishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Doniyorov X. O'zbek tili "j" lashgan (qipchoq) dialektining frazeologiyasi ustidan kuzatishlar / SamDU asarlari (Frazeologiya masalalari), №106. – Samarqand, 1961. – B. 80–85.
2. Sodiqov T. Toshkent oblast o'zbek shevalari leksikasi: Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 1968.
3. Uzoqov H. Dialektal frazeologizmlar haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1974. №6. – B. 60.
4. Shomaqsudov Sh., Dolimov S. Qayroqi so'zlar. – Toshkent, 2011.
5. Xamidov M.A. O'zbek tili janubiy Surxondaryo o'zbek shevalari barqaror birikmalarining lingvistik xususiyatlari. – Termiz, 2023.

Shuxrat LOLAYEV,

Termiz davlat universiteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o'qituvchisi

"ULOQDA" HIKOYASIDA TARIXIYLIK TAMOIYILI VA MA'RIFATPARVARLIK KONSEPSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid adabiyotida hikoya janri yangilanishi, hikoya va hikoyatlarning xususiyatlari, "Uloqda" hikoyasining realistik hikoya sifatidagi badiiy tahlili hamda bu tahlil orqali asarda jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy holatning aks etishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: marifatparvarlik adabiyoti, janr ifodasi, hikoyatlar, hikoyalar, kontrast, didaktik adabiyot, "Uloqda", ijtimoiy-axloqiy qarashlar.

Annotation. This article analyzes the renewal of the short story genre in Jadid literature, the characteristics of "hikoya" (stories) and "hikoyat" (tales), the artistic analysis of "Uloqda" as a realistic short story, and the reflection in the work of the social and moral situation in society.

Keywords: enlightenment literature, genre expression, tales, short stories, contrast, didactic literature, "Uloqda", socio-moral perspectives.

Аннотация. В данной статье анализируются обновление жанра рассказа в джадидской литературе, особенности рассказов и повествований, художественный анализ рассказа «Улогда» как рассказа в стиле реализма, а также отражение в произведении социально-нравственной ситуации в обществе.

Ключевые слова: просветительская литература, жанровое выражение, рассказы, повести, контраст, дидактическая литература, «Улогда», социально-нравственные взгляды.

Butun musulmon jadidlari otasi Ismoilbek G'aspiralining sa'y-harakatlari bilan musulmon o'lkasida til va din birligi, millat tushunchalari umumiy mushtaraklikni hosil qildi, umumiy bir g'oyani, maqsadni shakllantirdi. Jadidlar ijodiy tufayli adabiyotimizda **milliy kolorid** shakllandi. Shu asosda yozma adabiyotimizda dramatik tur qaror topishi hamda rivojlanishi, publitsistika, lirika va epik janrlar shakllanishi hamda evolutsiyasi muhim hodisa sifatida jadid adabiyoti mazmun-mundarijasini yaratdi.

"Janr adabiyot taraqqiyotining har bir yangi bosqichi va shu janrga mansub har bir asarda qaytadan tug'iladi, yangilanadi" [3: 120]. "Janr hozir bilan yashaydi, biroq hamma vaqt o'zining o'tmishi, ibtidosini yodda tutadi. Janr – ijodiy xotiraning adabiyot taraqqiyoti jarayonidagi vakili" [3: 120]. XX asr o'zbek adabiyotida hikoya janri yangilanishi ham yuqoridagi mulohazalarni yaqqol isbotlaydi. Adabiyotshunos Muqaddas Tojiboyeva "Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an'analari va mahorat masalasi" monografiyasida hikoya janridagi yangilanishlarni Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" axloqiy-didaktik darsligidagi hikoyalar bilan bog'laydi. Ko'rinadiki, hikoya janrining shakllanish omillarida axloq va didaktika eng asosiy vosita bo'lgan. Qolaversa, bu darslik uchun Sharq mumtoz adabiyotidagi didaktik asarlar: Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (XI), Ahmad Yug'niyning "Hibat-ul haqoyiq" (XII–XIII), Kaykovusning "Qobusnoma" (XII–XIV), Shayx Sa'diyning "Guliston" (XIII) dasturilamal bo'lib xizmat qilgan. Demak, jadid adabiyoti hikoyachiligining shakllanishi va asosiy mazmunida axloq masalasi turar ekan.

Jadid nasrida hikoya janri mumtoz adabiyotimizdagi hikoyatlar davomchisi sifatida shakllanganini biz jadidlar yozgan barcha darsliklarda kuzatishimiz mumkin. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat-ul atfol" (1908); Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adib us-soniy" (Ikkinchi adib, 1907); Abdulla Avloniyning "Ikkinchi muallim" ("Muallimi soniy", 1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Maktab gulistoni" (1917); Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi" (1914), "Qiroat kitobi" (1915) kabi darsliklaridagi hikoyalarda bosh mezon odob-axloq va ta'lim-tarbiya bo'lgan. Sharq hikoyatlari va XX asr jadid nasri hikoyalari o'rtasidagi bog'liqlik ularning genezisi va evolutsiyasiga ta'sir qilgan quyidagi omillar bilan izohlanadi:

1. Mumtoz Sharq hikoyatlari an'anaviy mavzu va obrazlarga boy bo'lib, o'zining klassik namunaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jadid nasrida esa hikoya oddiy xalqning ko'zini ochish, xalq hayotidan olingan hodisalarni yana xalqning o'ziga ibrat sifatida ko'rsatish tamoyili asosida shakllangan.

2. Sharq hikoyatlarida qahramonlar asosan boshqalarga ibrat bo'ladigan ma'lum va mashhur shaxslardir. Jadid hikoyalariga esa bosh qahramon sifatida oddiy odamlar yoki real shaxslar olinadi. Ularning hayotiy kechmishlari orqali o'quvchiga ma'lum xulosalar, ibratomuz mushohadalar yetkaziladi.

3. Hikoyatlarda qissadan hissa to'rtliklar, ruboiy, fardlarda aks ettirilsa, jadid hikoyalarida o'quvchilarga havola qilinadi.

4. Mumtoz hikoyatlarda nasr va nazm mushtarakligi bor, jadid hikoyachiligi esa faqat nasrda ifodalangan.

5. Mumtoz hikoyatlarda rivoyaviylik ustunlik qilsa, jadid hikoyalarida qahramonlar nutqiga alohida urg'u beriladi.

Umuman olganda, jadid hikoyachiligining shakllanishi va rivojida eng asosiy masala – xalq ma'naviyatini uyg'otish, turmush tarzini oyna qilib ko'rsatish, yoshlarni ilm-ta'limga undash, axloqiy-didaktik mushohadalar bilan tarbiyalash g'oyasi bo'lgan. Shu sababli XX asrda jadidlar realistik uslubda yetuk hikoyalar yaratdi. Bu hikoyalarda fikrning isboti yoki ibrat to'g'ridan to'g'ri berilmaydi; aksincha, xalq ichidagi ayanchli holatlar orqali o'quvchi mushohadaga chorlanadi. Ularni o'qigan kitobxon illatlarni takrorlamaslikka, ilm olishga, axloqiy-tarbiyaviy muhitni shakllantirishga tirishadilar. Aynan shuning uchun ham jadid adabiyoti "ma'rifatparvarlik adabiyoti" deya e'tirof etiladi.

Har bir asarda tafakkur va mazmun mushtarakligi insonni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Jadid adabiyotida insonni ijtimoiy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan birga ilm bilan baxtli hayotga yetaklash o'rinli ibrat orqali ko'rsatilgan. XX asr hikoyalaridagi realistik asos – oqibatlardan xulosalar chiqarish va bu oyna orqali o'ziga ibrat olish. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasida realistik metod kontrast orqali bayon etilgan va ibrat o'quvchilarga havola qilingan. Asarda kontrast sifatida berilgan quvonch va qayg'u aslida qanday ramziy ma'noni anglatadi? Quvonch – chavandozlik mahorati, butun oila, qolaversa, butun qishloq ahlining uluqqa bo'lgan qiziqishi, ulug'lar (otasi, akasi)dan faxr tuyush va ularga mos avlod bo'lishga xarakter qilib, namuna bo'lish, o'zbekona urf-odatlar. Qayg'u – insonlar bekorchi narsalarga ko'p vaqt sarflashi oqibatida o'zligini unutishi, yosh umrini kasb-ilm egallamasdan, hobbi ortidan quvib zavol qilishi, umrning bir pallasida Esonboy singari

falokatga uchrashi. Yozuvchi hikoya so'ngida jumlarlar orqali o'quvchilarga mulohaza chiqarish imkoniyatini beradi: "Kecha meni ot qoqqan ekan. O'rnimga kirishim bilan tirrakdek qotib uxlabman. Ertalab oyim: "Tur, tur tezroq, dadang kelsa, nax o'ldiradi!" – deb ustimdan ko'rpani tortib tashladi. Men uyqulik ko'zim bilan: "Dadam bozor ketmadimi?" – deb so'ragan edim, oyim: "Esonboyning janozasida!" – deb javob berdi. Mening uyqum o'chdi..." [5: 19]. Uyquning o'chishi bolaning haqiqatni anglashini bildiradi. Shu orqali Turg'unboy va yoshlar orqali axloqiy va ma'naviy tarbiya namoyon bo'ladi.

Abdulla Qodiriy ko'pkarini salbiy baholamaydi, ammo bir uluqning ortidan minglarcha insonlar yugurishi, uni tomosha qilib o'tirishini qoralaydi. Chunki o'sha davr insonlari ilmni unitib vaqtini bekorchi narsalarga sarflashadi. Agar insonlar "Uloq"qa to'plangandek ilm yo'lida, millatni yuksaltirish yo'lida birikkanda edi, Esonboy singari insonlar oyoq ostida qolib vafot etmasdi. Zero, asar sujetida "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql akslanadi.

Asardagi ijtimoiy-axloqiy mohiyat ulug'lar kichiklarga hobbi emas, haqiqiy ilm va kasb o'rgatishi kerakligida. Turg'unboy orqali yosh ziyoli tasviri yaratiladi, u jamiyatdagi hodisalarni kuzatib, tafakkurini rivojlantiradi. Bu introspeksiya uslubi orqali amalga oshiriladi. Shu sababli "Uloqda" jadid adabiyotidagi realistik hikoyaning dastlabkisi sifatida e'tirof etiladi. Jadid adabiyotida bu hikoyagacha yaratilgan hikoyalar darsliklarda berilgan va ularda axloqiy, pandnoma shakli ustunlik qilar, realistiklik uslubi deyarli sezilmas edi. "Uloqda" bilan bir davrda yaratilgan hikoyalarda esa ijtimoiy turmushdan olingan realistik uslub va axloqiy-ta'limiy g'oyalar keng singdirildi. 20-yillar hikoyalarida adabiy jarayonga xos umumiylik va muallifga xos individuallik yuqori darajada ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A. Ijod mashaqqati. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Qodiriy A. Diyori bakr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
3. Бахтин М.М. Собрание сочинений (в 7 т.Т.6). М., 2002.
4. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
5. Qodiriy A. Jinlar bazmi. – Toshkent: Zabbarjad Media, 2023.

Mahfuzaxon XOMIDOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

INTERTEKSTUALLIKKA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya. Intertekstuallik ma'lum bir xalqqa oid tarixiy, badiiy, madaniy xotirani yangi matnda aks ettiradi. Shu jihatdan uning lingvomadaniy xususiyati ham ahamiyatlidir. Maqolada intertekstuallikka lingvokulturologik yondashuvning nazariy asoslari yoritilib, turli ilmiy maktablarda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlarga tahliliy munosabat bildiriladi. Xususan, intertekstual birliklarning madaniy xotira, milliy tafakkur, konseptlar tizimi va presedent matnlar bilan bog'liqligi ilmiy adabiyotlar asosida izohlab beriladi.

Kalit so'zlar: intertekstuallik, madaniy kod, lingvokulturologiya, lingvokulturema, presedentlik, semiotika.

Annotation. Intertextuality reflects the historical, artistic, and cultural memory of a particular people in a new text. In this regard, its linguocultural features are also important. The article illuminates the theoretical foundations of the linguocultural approach to intertextuality and expresses an analytical attitude towards research conducted in this direction in various scientific schools. In particular, the connection of intertextual units with cultural memory, national thinking, the system of concepts, and precedent texts is explained on the basis of scientific literature.

Keywords: intertextuality, cultural code, linguoculturalogy, precedent, semiotics.

Аннотация. Интертекстуальность отражает историческую, художественную, культурную память определенного народа в новом тексте. В этом отношении важны и его лингвокультурологические особенности. В статье освещены теоретические основы лингвокультурологического подхода к интертекстуальности и выражено аналитическое отношение к исследованиям, проводимым в этом направлении в различных научных школах. В частности, на основе научной литературы объясняется связь интертекстуальных единиц с культурной памятью, национальным мышлением, системой концептов и прецедентными текстами.

Ключевые слова: интертекстуальность, культурный код, лингвокультурология, прецедент, семиотика.

Intertekstuallik fanlararo kategoriya sifatida falsafa, madaniyatshunoslik kabi sohalarida ham keng tadqiq qilinadi. Chunki tor lingvistik ma'nodagi matnlararo o'zaro ta'sir ham madaniyatlararo o'zaro aloqalar sifatida qabul qilinadi. Intertekstuallik madaniyatning turli hodisalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini tushuntirishda qo'l keladi. U insonga matnlarni ikki o'lchovli (sinxronik va diaxronik) madaniy makonda yo'naltirishga yordam beradi, uning umumiy madaniy rivojlanishini va sivilizatsiyalangan dunyoga integratsiya darajasini aniqlash imkonini yaratadi [6]. Shu jihatdan intertekstuallik faqat adabiyotshunoslik yoki tilshunoslikning emas, balki madaniyat bilan aloqador fanlarning ham asosiy tadqiq obyektiga aylanib ulgurgan.

Intertekstuallik hodisasi antroposentrik paradigma doirasida lingvomadaniy jihatdan ko'proq tahlilga tortilgan. Buning asosiy sababi uning bevosita matn yaratuvchisini, nutq egasining milliy-madaniy mansubligini, tarixi va madaniyatini ham o'zida aks ettira olishidir. Chunki "intertekstuallik" tushunchasi nafaqat matnlararo aloqadorlikni, balki madaniyatlararo muloqotni ham ifodalaydi. Bu o'rinda ham ikki xil holatni qayd etish o'rinni: muayyan matn ichida ayni madaniy kodlar ham, boshqa madaniyatga daxldor parchalar ham bo'lishi mumkin. Intertekstlar asosan muayyan madaniy, tarixiy, milliy xususiyatga ega matnlar, voqea-hodisalarning xalq ichida, uning lisonida, tafakkurida saqlanib kelayotgan matn parchalaridir. Xususan, *Navoiy, Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Otabek, Kumush, Alpomish* kabi allyuziyalar, "*Siz o'shami?!", "Kecha kelgumdir debon", "Oydan-da go'zaldir", "Sizni ham yomon ko'radi...Magazinchi G'aybulla,...", "Omboram yondi, pichog'iz sindi..."* kabi presedent iqtiboslar o'zida muayyan xalqqa, madaniyatga xos yukni tashiydi. Bunday intertekstual birliklarni milliylik nuqtayi nazaridan baholashgina uning mohiyatini to'liqroq ochishga yordam beradi. Shu jihatdan intertekstuallikni lingvomadaniy jihatdan tadqiq qilish muhim.

Intertekstuallikning muayyan madaniyat bilan bog'liqligi haqidagi fikrlar uni termin sifatida ilmiy muaomalaga kiritgan Y.Kristeva tadqiqotlarida ham uchraydi. Olima intertekstuallikni matnlarning "madaniyatlararo dialogi" sifatida baholaydi. Uning har bir matn iqtiboslar mozaikasidan iboratligi haqidagi fikri ham matnning madaniy kodlardan iboratligiga ishoradir. Intertekstuallikning madaniyat bilan bog'liqligi haqidagi fikrlar uning nazariy asoslariga asos solgan olim R.Bartda nomi bilan bog'liq. Olim matnni "cheksiz iqtiboslar yig'indisi, to'ri" sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, yozuvchi yoki kitobxon emas, balki madaniy kodlarning o'zaro bog'lanishlari matn mazmunini yaratadi [1]. Olimning fikricha, intertekstlardan holi matnning o'zi bo'lmaydi, ya'ni unda barcha matnlarda, albatta, matnlararo munosabatlar mavjud degan qarash ustunlik qiladi. Matnni tushunish bevosita uning o'quvchisi bilan bog'liqligi haqidagi fikrlar muallifi U.Eko ham matnni ochiq tizim sifatida baholaydi. Olim ochiq tizim bo'lgan matn interpretatsiyasi bevosita madaniyatlararo bilimlar va presedent matnlarga bog'liqligini ta'kidlaydi. M.Lotman ham intertekstuallik va madaniyat aloqasini chuqur tahlil qilgan olimlardan biridir. U fanga intertekstuallik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan "madaniyatning semiotik xotirasi" tushunchasini kiritdi. M.Lotman fikricha, intertekstuallik boshqa matnlardagi ma'lumotlarning to'planishi va ishlatilishi bo'lib, bu matnda voqelikni yanada chuqurroq aks ettirish hamda tarixiy muhit va madaniy-tarixiy xotirani tiklash imkonini beradi, matnlararo aloqalar va eslatmalar (oldingi matnlarga havolalar) orqali jamiyatning jamoaviy xotirasi tiklanadi [3: 1992]. Uning fikrlari bevosita intertekstuallikning

madaniyat bilan aloqasini anglashga yordam beradi: "Semiotika nuqtayi nazaridan, madaniyat – kollektiv intellekt va kollektiv xotiradan iborat, ya'ni muayyan matnlarni saqlash va uzatish hamda yangilarini yaratish funksiyasini bajaradigan individ darajasidan yuqori mexanizm. Shu ma'noda, madaniyat maydoni umumiy xotira makoni sifatida belgilanadi, ya'ni unda ayrim umumiy matnlar saqlanib qolishi va aktual holga keltirilishi mumkin" [3: 1991]. Bu yerda umumiy madaniyatga, ya'ni ko'pchilikka tanish bo'lgan matnlar, holatlar, voqea-hodisalar ular uchun semiotik belgi sifatida xotiradan joy olishi va muayyan matn ichida kelganda bimalol tushunilishi haqida o'rinni fikr bildirilgan.

Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan intertekstuallik hodisasi rus olimlaridan Y.M.Lotman, M.B.Yampolskiy, G.G.Slishkin kabilarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan. Y.M.Yampolskiyning kino va uning xususiyatlariga bag'ishlangan aksar ishlarida intertekstuallikning madaniy jihatlarini aks etgan fikrlariga duch kelamiz: "Madaniyat – o'zaro bog'langan matnlar tizimi bo'lib, ularning har biri oldingilar bilan aloqada, o'zaro kontekst va ma'no almashinuviga asoslangan. Shu sababli, madaniyat o'zini intertekstual muloqot orqali ifoda etadi" [7]. Shuningdek, olim intertekstual birliklar madaniy xotira, tarixiy bilimlarni saqlash va uzatish vositasi ekani, har bir matn o'z o'quvchisi bilan madaniy muqolotga kirishishi, intertekstuallik muloqot vositasi sifatida muallif va kitobxonni madaniy kodlar bilan bir-biriga bog'lashi, matnlararo munosabatlar orqali o'tmish va hozirgi zamonga ko'priq qurilishi, madaniy muloqot amalga oshishi haqidagi fikrlarni ilgari suradi. G.G.Slishkin ham intertekstuallikning madaniyat bilan aloqasini hajviy asarlar (parodiya, askiya, hazillar) misolida tahlil qilgan [5]. U asosan presedent matnlarning lingvokulturologik belgiga egaligi va konseptologiyadagi o'rnini monografik planda o'rganadi. Rus tilshunosi Y.Neshkova esa ingliz, rus, fransuz tillaridagi materiallar asosida intertekstuallikning multfimlardagi lingvomadaniy aspektini o'rganagan [4]. Dissertatsiyada intertekstuallikning lingvokulturologik birlik sifatida multiplikatsion diskurdagi vazifasi, uning namoyon bo'lish ko'rinishlari, globalashuv jarayonida intertekstual birliklar madaniy xotirani saqlashda muhim vosita ekani tadqiq qilingan. I.F.Kisel media diskurdagi sarlavhalarning, E.Anikova esa media diskurdagi intertekstuallikning lingvomadaniy jihatlarini tahlil qilgan. Umuman, bu yo'nalishda rus tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar salmog'i ko'p va turlicha. Bizningcha, bu lingvokulturologiyaning ayni shu tilshunoslik maktabidagi rivoji bilan bevosita bog'liqdir.

G'arb tilshunosligida ham intertekstuallikning lingvomadaniy jihatlarini tadqiq qilingan ishlar uchraydi, ularning aksariyatida sarlavha, epigraflar yoki presedent matnlarning lingvomadaniy jihatlarini yoritiladi. Xususan, M.Halliday tadqiqotlarida intertekstuallikning lingvokulturologik jihatdan tadqiqiga oid ayrim fikrlar mavjud. Tilshunoslikka antroposentrik yondashuvning ta'siri natijasida so'nggi yillarda til birliklari, jumladan, matn turlari va kategoriyalarini ham shu paradigma doirasida tadqiq qilish an'anasi boshlandi. Shu bois o'zbek tilshunosligida va o'zbek olimlarida ham bu yo'nalishda ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, D.Xudoyberganovanning matnning antroposentrik tadqiqiga bag'ishlangan monografik tadqiqotida presedent matnlar va intertekstuallik haqida fikrlar mavjud. Presedent matnlar lingvokulturologiyaning asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi. U bevosita intertekstuallik bilan bog'liq hodisadir. Yana bir olim Z. Soliyeva milliy-madaniy sentensiyalar bo'yicha

tadqiqot olib borgan. Unda o'zbek va ingliz tilida uchraydigan axloqiy-ta'limiy matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari o'rganilgan.

Umuman olganda, intertekstuallikni madaniy jihatdan tahlil qilish u alohida hodisa sifatida adabiyotshunoslik, tilshunoslik yoki falsafada o'rganila boshlangandan buyon davom etib kelmoqda. Matnlararo munosabatlarning lingvomadaniy jihatdan tahlili amalga oshirilgan tadqiqotlardan anglashiladiki, u madaniyat bilan aloqador

hodisa. Bunga "matn – madaniy hodisa" degan qarash asos bo'lgan. Shuningdek, intertekstual munosabatlar bevosita madaniy munosabatlar sifatida talqin qilingan. Intertekstuallikka lingvokulturologik yondashuv esa bizga muallif va matnning madaniy xosligini aniqlash, matndagi milliy tafakkur va madaniy xususiyatlarni tushunish, madaniy kodlar va yashirin ma'nolarni ochish hamda tilning madaniyatni qanday ifodalayotganini, madaniyat esa mazmun yaratishda qanday rol o'ynayotganini kengroq o'rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Барт Р. Интертекстуальность / Современное зарубежное литературоведение: Энциклопедический справочник / Под ред. И.П.Ильина и Е.А.Цургановой. М., 1996.
2. Нешкова Е.Г. Лингвокультурологический аспект интертекстуальности в мультипликационном дискурсе (на материале английского, русского и французского языков): автореф. ... Челябинск, 2020.
3. Лотман Ю.М. Статьи по семиотике и топологии культуры. Таллин: Александра, 1992.
4. Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. М.: Academia, 2000.
5. Halliday M.K. Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning. – London: Edward Arnold, 1978.
6. Аникина Э.М. Лингвокультурная специфика реализации интертекстуальности в дискурсе СМИ: автореф. дисс. канд. филол. наук. Уфа, 2004.
7. Интертекстуальность и фигуры интертекста в дискурсах разных типов / науч.ред. Т.Н.Колокольцева, В.П.Москвин, 4-е изд., стер. М.: Флинта, 2021.

Feruza HAFIZOVA,

Termiz davlat universiteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrası o'qituvchisi

"AYRISHOX" QISSASIDA TABIAT POETIKASI VA RAMZIY OBRAZLAR TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada surxondaryolik yozuvchi Mengziyo Safarov ijodining mohiyati, tabiatni jonli mavjudot sifatida gavdalanirish mahorati, tasvirlaridagi estetik-falsafiy qatlam, "Ayrishox" qissasidagi ramziy obrazlar, qahramonlar ruhiyati va ularning badiiy funksiyasi ilmiy-nazariy yondashuv asosida yoritiladi. Qissa Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asari bilan qiyosiy aspektda ko'rib chiqilib, adibning Surxondaryo koloritini adabiyotga olib kirishdagi o'рни, tabiatni himoya qilish g'oyasining badiiy-estetik talqini ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: "Ayrishox", Buxoro bug'usi, tabiat poetikasi, ekologik tafakkur, badiiy tafakkur, Chingiz Aytmatov, "Oq kema", inson va tabiat munosabati.

Annotation. This article reveals the essence of Surkhondaryo writer Mengziyo Safarov's work, his mastery of embodying nature as a living organism, the aesthetic-philosophical layer in his descriptions, the symbolic images in the story "Ayrishox", the psychology of the characters, and their artistic function from a scientific-theoretical perspective. The story is considered in a comparative perspective with Chingiz Aytmatov's "The White Steamship", the writer's role in introducing the Surkhondaryo color into literature and the artistic and aesthetic interpretation of the idea of nature conservation are emphasized.

Keywords: "Ayrishox", Bukhara buffalo, nature poetics, ecological thinking, artistic thinking, Chingiz Aytmatov, "White Steamship", human-nature relationship.

Аннотация. В данной статье раскрываются сущность творчества сурхандарьинского писателя Менгзия Сафарова, его мастерство воплощения природы как живого организма, эстетико-философский слой в описаниях, символические образы в повести «Айришох», психология героев и их художественная функция с точки зрения научно-теоретического подхода. Повесть рассматривается в сравнительной перспективе с произведением Чингиза Айтматова «Белый пароход», подчеркивается роль писателя в введении сурхандарьинского колорита в литературу и художественно-эстетическая интерпретация идеи охраны природы.

Ключевые слова: «Айришох», бухарский буйвол, поэтика природы, экологическое мышление, художественное мышление, Чингиз Айтматов, «Белый пароход», взаимоотношение человека и природы.

O'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Mengziyo Safarov ijodi o'ziga xos badiiy-estetik tamoyillari, tabiat va inson munosabatlarini badiiy idrok etishdagi noyob yondashuvi bilan ajralib turadi. Adibning yozuvchilik faoliyati tarixchi, tabiatshunos va kuzatuvchan olim sifatidagi dunyoqarashi bilan uyg'un. Ayniqsa, Surxondaryo hududining tabiiy-madaniy koloritini badiiy matnga olib kirishi, ekologik muammolarni ijod markaziga qo'yishi adib ijodining asosiy xususiyatlaridan biridir. U butun ijodiy yo'li davomida inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni izlagan, tabiatni antropomorfik talqinda, ya'ni gapiradigan, his qiladigan va harakatlanuvchi tirik mavjudot sifatida tasvirlagan.

Yozuvchi tabiat obrazlarini juda jonli tasvirlaydi: tog' toshlari, oppoq qor, bahorning harir libosi, saharda purkalgan izg'irin, chim o'tlar – bularning barchasi tiriklikning o'z ovozig

ega timsollaridek gavdalanadi. "Bahor qishning qoqshol panjasidan o'zini qutqarib, tobora rang-paydo bo'lib boradi; qish esa o'jarlik bilan yon-atrofga yopishadi, nihoyat esa oq ko'rpsini shosha-pisha yig'ib, ortga chekinishga majbur bo'ladi" [1: 60]. Bunday majoziy tasvirlar kitobxonda ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otadi; insonning tabiat farzandi ekanini eslatib turadi. Ulug' rus shoiri Pushkin bekorga "Tabiat uyqu sukutini allalaydi" demagan. Mengziyo Safarovning tabiatga bo'lgan mehr-e'tiborining ildizi uning uzoq yillar davomida Amudaryodagi "Payg'ambar oroli" qo'riqxonasi direktor o'rinbosari vazifasida ishlagani bilan bog'liq. Bu yillarda u hudud hayotini chuqur o'rgandi, kuzatishlar olib bordi, natijada "Katta daryodagi kichik orollar" turkumidagi asarlar yaratildi. Turkumdagi ilk yirik asar – "Ayrishox" qissasidir.

Adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek, "Ayrishox" yozuvchining eng pishiq, eng yetuk asarlaridan biridir. Qissa voqealari Amu sohillari va Bobotog' etaklariga tutash Qobadiyon hamda Xontog'ay dashtlarida kechadi. Asarda Chingizxonni ham lol qoldirgan, ulug' tarixiy shaxslarning e'tiboriga tushgan bug'ular timsoli; tabiat fidoyisi, hayotda omadi kelmagan Suyar Suyun; yuzida umidsizlik soyasi sezilib turadigan Oynovvot; tiriklikning eng muqaddas ildiziga bolta urishga ham toymaydigan, hayotga beparvo Botir kabi yorqin obrazlar tasvirlangan. "Ayrishox" – inson va tabiat, inson va hayvonot o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadigan qissa. Bundan bor-yo'g'i bir asr ilgari Markaziy Osiyo – Amu va Sirdaryo bo'yolari quyuq to'qayzorlar, o'rmonzorlar bo'lib, Turon yo'lbarisi, Buxoro bug'usi, minglab qushlar uchun boshpana edi. Ulkan daryolar quchog'i vatanga muhabbat, fidoyilik, sabr va matonat timsoli sifatida turardi. Ammo badnafs insonlar faoliyati oqibatida tabiat va noyob hayvonlar tobora qirilib bormoqda. Shunga qaramay, jamiyatda tabiatni asrashni hayotiy maqsadiga aylantirgan insonlar ham bor. Qissada ular alohida ehtirom bilan tasvirlanadi.

Buxoro bug'usi (xongul) alohida ramziy yukka ega obraz. Yozuvchi uning aynan erksevarlik sifatiga urg'u beradi: "Erk har qanday qulaylikdan yuksak. Dono ajdodlar maqtagan hosiyating ham shu bo'lsa kerak" [1: 30] deb yozadi. Bug'u – hurriyat, go'zallik, beg'uborlik timsoli. Asarda Ayrishox dastlab insonlar qo'lida voyaga yetadi, keyin esa o'z qavmiga qaytariladi. U insonlarda ham ezgulik, ham razolat borligini ko'radi. "Hazrati inson" unga olovli tamg'a bosgan bo'lsa-da, ona bug'u shunday deydi: "Qulog'imdagi tamg'a ulardan ulgu. Odamlar ming yaxshi bo'lsa ham, ulardan olisroq yurgan afzal" [1: 40]. Bu fikr insoniy mohiyatning murakkabligini, buyuklik va pastkashlik insonlarga birdek xos ekanini ko'rsatadi. Adib bug'ularning qirilib ketishidan iztirobga tushadi. Asarda insonlar ularni hovli bezagiga aylantirishga urinmoqda, bu – ma'naviy inqirozni ifodalaydi. Qissani o'qir ekanimiz, beixtiyor Chingiz

Aytmatovning "Oq kema" asaridagi Shoxdor ona bug'u haqidagi rivoyat yodga tushadi. Unda ham odamlarning ochko'zligi bug'ular qirg'iniga sabab bo'ladi. "Go'zallikni o'ldirib bo'ladimi? Go'zallik xazon bo'lgan joyda qabohat unib chiqadi", degan mazmun asarning asosiy g'oyasini tashkil etadi.

Mengziyo Safarov ijodi nafaqat badiiy tasvirlar majmuyi, balki ma'naviy ogohlik, ekologik fikrlashning adabiy talqinidir. Yozuvchi ona tabiatning, atrof-muhitning ehtirosli himoyachisi sifatida maydonga chiqadi va jamiyatni beparvolikdan qaytishga chaqiradi. Ijodini chuqur anglash uchun adibning tug'ilib-o'sgan joyi bilan tanishish muhim. Chunki oila, muhit, odamlar ijodkor xotirasida o'chmas iz qoldirib, keyinchalik uning asarlarida o'z aksini topadi. M.Safarov ham Surxondaryo hayotini, Surxon koloritini adabiyotga olib kirishga intilgan. Uning qahramonlari siz-u biz bilgan oddiy surxondaryolik insonlardir. Masalan, asardagi Botir dastlab bug'uni otish niyati bilan keladi, lekin aslida bu yovuzlik emas: u befarzand ayolning dardiga malham bo'lmoqchi. Ammo Suyar Suyun kabi fidoyi insonlar bilan tanishib, uning dunyoqarashi o'zgaradi. Shu o'rinda obrazning ruhiy evolutsiyasi namoyon bo'ladi. Oynovvot obrazi ham o'ziga xos. Yozuvchi uni "xastadil", yuzida nur o'rniga parishonlik aks etgan ayol sifatida ko'rsatadi. Befarzandlik uning ruhiyatida chuqur iz qoldirgan. Bu obraz Aytmatovning "Oq kema"sidagi Buke xolani eslatadi.

Xulosa qilib aytganda, "Ayrishox" qissasi – tabiat, go'zallik, erk, fidoyilik va insoniylik haqida yaratilgan falsafiy-badiiy asardir. Unda insonning tabiatga nisbatan beparvoligi keskin tanqid qilinadi, go'zallikni asrab-avaylash g'oyasi esa ilgari suriladi. Adibning ma'naviy qiyofasi va obro'-e'tibori aynan shu jihatlar bilan belgilanadi: u ma'naviy hayotimizga muhim hissa qo'shgan ijodkor sifatida tan olinadi. "Ayrishox" qissasi esa tabiat poetikasi, hayvonot olamining ramziyligi hamda insonning ma'naviy mas'uliyati kabi masalalarni teran badiiy talqin etgani bois yuksak qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov M. Ayrishox. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
2. Aytmatov Ch. Oq kema. – Toshkent: Sharq, 2022.
3. Murtozayev B. Ona tuproq qo'shig'i // Surxon yoshlari, 2021-yil 30-aprel.
4. Safarov M. Ona tuproq qo'shig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.

Elyor MATCHANOV,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Yaponshunoslik Oliy maktabi katta o'qituvchisi

MILLIY IDENTIKLIKNING ZAMONAVIY YAPON ADABIYOTIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy yapon adabiyotida milliy identiklikning badiiy, madaniy va falsafiy ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Milliy identitetning shakllanishi nafaqat tarixiy va madaniy omillar, balki zamonaviy jamiyatning ijtimoiy dinamikasi, shaxsiy ruhiy kechinmalar va global madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Yapon yozuvchilarining milliylikni ifodalashda qo'llagan ramziy strukturalari, poetik tasvirlari, narrativ yondashuvlari va psixologik qatlamlarini yoritiladi.

Kalit so'zlar: milliy identiklik, zamonaviy yapon adabiyoti, estetik tamoyillar, madaniy xotira, badiiy ifoda.

Annotation. In this article, the artistic, cultural, and philosophical significance of national identity in modern Japanese literature is deeply analyzed. The formation of national identity is studied not only in connection with historical and cultural factors, but also in inseparable connection with the social dynamics of modern society, personal spiritual experiences, and global cultural processes. The symbolic structures, poetic imagery, narrative approaches, and psychological layers used by Japanese writers to express nationality are illuminated.

Keywords: national identity, modern Japanese literature, aesthetic principles, cultural memory, artistic expression.

Аннотация. В данной статье художественное, культурное и философское значение национальной идентичности в современной японской литературе подвергаются глубокому анализу. Формирование национальной идентичности изучается не только в связи с историческими и культурными факторами, но и в неразрывной связи с социальной динамикой современного общества, личными духовными переживаниями и глобальными культурными процессами. Освещаются символические структуры, поэтические образы, нарративные подходы и психологические пласты, использованные японскими писателями для выражения национальности.

Ключевые слова: национальная идентичность, современная японская литература, эстетические принципы, культурная память, художественное выражение.

Milliy identiklik masalasiga XX–XXI asrlar adabiyotshunosligi va madaniyatshunosligi doirasida eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Globalizatsiya jarayonlarining kuchayishi, madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi, ijtimoiy makonning o'zgarishi va shaxsiy identitetning murakkablashuvi natijasida "milliylik" tushunchasi ko'plab ilmiy sohalarda qayta talqin qilinmoqda. Yapon adabiyoti bunday jarayonlarning o'ziga xos badiiy aksini beruvchi noyob maydon bo'lib, unda milliy identitetning tarixiy xotira, madaniy an'ana, ijtimoiy ong va individual ruhiyat bilan bog'liq murakkab qatlamlari chuqur aks etadi.

Yaponiya qadimiy an'analari, mentaliteti va madaniy tafakkuri bilan ajralib turadigan jamiyat. Klassik adabiyotdan tortib zamonaviy modern va postmodern yo'nalishlarigacha "milliy o'zlik" tushunchasi yapon adabiy maktablarining markaziy g'oyasidir. Biroq XXI asrga kelib, milliy identiklikni aks ettirish avvalgidan ancha murakkab tus oldi: global madaniy bosimlar, texnologik modernizatsiya, migratsiya jarayonlari, gender o'zgarishlari va shaxsning ichki psixologik olamida ro'y berayotgan dinamikalar adabiy matnlarda milliylikning yangi mazmunlarda paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda [2: 245]. Zamonaviy yapon yozuvchilari milliy identiklikni nafaqat tarixiy-madaniy kontekst orqali, balki individual tajriba, shaxsiy xotira, psixologik inqiroz, jamiyatning yangi sotsial strukturalari va global muhit bilan munosabatlar orqali talqin qilishmoqda. Milliy o'zlik masalasi Murakami Haruki, Ogava Yoko, Yoshimoto Banana, Kawakami Hiromi, Tawada Yoko kabi yozuvchilarning ijodida o'ziga xos yangi narrativ shakllar orqali namoyon bo'lib, ularda milliylik shaxsiy ichki dunyo bilan bog'langan ko'p qatlamli fenomen sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan olganda, milliy identitet zamonaviy yapon adabiyotida nafaqat adabiy-estetik kategoriya, balki madaniy, ijtimoiy va psixologik konsept sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Adabiy obrazlar, ramzlar tizimi, makon va vaqt tasvirlari, ruhiy jarayonlar hamda o'zlikni izlash motivlari orqali yozuvchilar milliylikning dinamik, o'zgaruvchan va ko'p qatlamli tabiatini yoritadilar.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi globallashgan dunyoda milliy identitetning ahamiyatini saqlab qolish yoki uning qayta shakllanish jarayonini tushunish adabiyotshunoslikda muhim ilmiy vazifa sanaladi. Zamonaviy yapon adabiyoti bu jarayonning eng yorqin namoyon bo'ladigan makonlaridan biri bo'lib, milliylikning badiiy tasvirlanishi orqali jamiyatning o'zini anglash darajasini, ruhiy holatini va madaniy ongining o'zgarishini aks ettiradi. Yapon adabiyotida milliy identiklik masalasini ko'plab yetakchi yaponshunos olimlar chuqur o'rgangan. Donald Keene "Japanese Literature: An Introduction" va "Dawn to the West" kabi asarlarida yapon adabiyotining tarixiy shakllanishi va milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini yoritadi. Uning izlanishlari yapon identitetining adabiy ildizlarini anglashga muhim hissa qo'shadi. Haruo Shirane esa "Japan and the Culture of the Four Seasons" tadqiqotida madaniy xotira, tabiat timsollari va milliy ramzlarning yapon adabiy tafakkuridagi o'rnini tahlil qilib, milliylikning badiiy ifodasini ilmiy asoslaydi [1: 47–89].

Zamonaviy adabiyot vakili Tomas Iles "The Crisis of Identity in Contemporary Japanese Literature" asarida modern jamiyat sharoitida milliy identitetning beqarorligi, globalizatsiya ta'siri va shaxsiy o'zlikning izlanishi kabi masalalarni ochib beradi. R. Miller milliy va shaxsiy identitetning madaniy tabiatini o'rganib, yapon jamiyatidagi "men" va "biz" tushunchalarining adabiy jarayonga ta'sirini tahlil qiladi. Yoshio Sugimoto esa "An Introduction to Japanese Society" kitobida milliy

identitetning ijtimoiy konstruksiya sifatida shakllanish jarayonini tushuntirib, zamonaviy yapon jamiyatining madaniy dinamikasini yoritadi [2: 104]. Zamonaviy yapon adabiyotida milliy identiklikning badiiy talqini murakkab, ko'p qatlamli va dinamik jarayon bo'lib, u jamiyatning madaniy xotirasi, tarixiy o'zlikni anglash, ijtimoiy o'zgarishlar va shaxsiy ruhiy kechinmalar bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. Milliy identitet adabiy matnda faqat ramziy mazmun sifatida emas, balki badiiy tafakkurning asosiy struktura elementi sifatida namoyon bo'ladi. Yapon yozuvchilari milliylikni tasvirlashda turli badiiy vositalar – ramziy obrazlar, metaforik strukturalar, makon va vaqtning psixologik talqinlari, shaxsiy xotira motivlari va ruhiy introspeksiylardan keng foydalanadilar. Shu orqali milliy identitet adabiyotda nafaqat madaniy an'analarga tayanadi, balki uni zamonaviy sotsial jarayonlar bilan bog'lovchi o'zaro ta'sir maydoniga aylanadi.

Yapon adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri – milliylikning shaxsiy ruhiy tajriba bilan uyg'unlashgan holda ifodalanishidir. Murakami Haruki, Ogava Yoko, Kawakami Hiromi, Yoshimoto Banana kabi zamonaviy yozuvchilar milliy identitetni faqat tashqi belgilar, madaniy atributlar yoki tarixiy an'analarga orqali emas, insonning ichki olami, ruhiy izlanishlari, munosabatlaridagi nozik psixologik holatlar orqali ham talqin etadilar. Masalan, Murakami asarlarida milliylik ko'pincha izolyatsiya, ichki bo'shliq, yo'qotish va o'zlikni izlash motivlari orqali namoyon bo'ladi. Bu jarayonda milliy identitet an'anaviy tushunchadan ko'ra universallashtirilgan, shaxsiy tajribaga asoslangan badiiy kategoriya sifatida shakllanadi [3: 85].

Zamonaviy yapon adabiyotida milliy identitetning yana bir muhim jihati – madaniy xotira va tarixiy ongning badiiy talqinidir. Adiblar milliy xotiraning shaxsiy va kollektiv ko'rinishlarini o'zaro uyg'unlashtirib, jamiyatning tarixiy izlanishlari qanday qilib shaxsiy identitetning tarkibiy qismiga aylanishini yoritadilar. Ushbu jarayonda xotira faqat o'tmishni eslatish vositasi bo'lib qolmay, balki hozirgi zamon identitetining ma'nosini belgilovchi badiiy mexanizmga aylanadi. Tabiat tasvirlari, uy-makon obrazlari, bolalik xotiralar, oila-munosabatlari kabi motivlar orqali yozuvchilar yaponlikning "ichki mazmuni"ni – zamon, makon va avlodlar o'rtasidagi ruhiy bog'liqlikni ko'rsatadilar.

Milliy identitetning shakllanishi va badiiy talqini globalizatsiya sharoitida yanada murakkablashgan. Yapon yozuvchilari an'anaviy milliylik tushunchalarini global madaniyatning bosimi, texnologik zamonaviy hayot, migratsiya jarayonlari va transmilliy aloqalar ta'sirida qayta ko'rib chiqmoqdalar. Ayniqsa, Tawada Yoko kabi adiblarning ijodida milliy o'zlik chegaralari kengayib, bir vaqtning o'zida bir nechta madaniy makonlarga mansublik hissi paydo bo'ladi. Bu jarayonda milliy identitet barqaror emas, balki moslashuvchan, ko'p makonli va o'zgaruvchan sifatga ega bo'ladi. Adabiyotda milliylik ko'pincha makon va vaqtning badiiy talqini orqali ifodalanadi. Yapon adabiyotida makon – uy, shahar, tabiat, yopiq yoki ochiq hududlar – milliylikning ramziy ko'rinishiga aylanadi. Vaqt esa ko'pincha insonning o'zini anglash jarayoni bilan bog'liq holda badiiy strukturaga ega bo'ladi. Shu bois milliy identitetni tasvirlashda makon va vaqt estetik-falsafiy mazmun kasb etadi. Zamonaviy yozuvchilarning ijodida milliy identitet gender, ijtimoiy rol, jamiyat bosimi, individual erkinlik kabi omillar bilan ham uzviy bog'liq tarzda talqin etiladi. Ayol yozuvchilar, masalan, Kawakami Hiromi yoki Yoshimoto Banana, milliylikni ko'proq oilaviy munosabatlar, hissiy noziklik, jamiyatning ayollar haqidagi stereotiplari va shaxsiy mustaqillik kabi jihatlar orqali

yoritadilar. Bu esa milliy identitetni kengroq – ijtimoiy, psixologik va madaniy kontekstlarda ko'rib chiqishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy yapon adabiyotida milliy identitlikning namoyon bo'lishi murakkab va ko'p qatlamli jarayon bo'lib, u an'anaviy estetik qarashlar, madaniy xotira, shaxsiy ruhiy tajriba va global ijtimoiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Adabiy tahlillar yapon yozuvchilarining milliy identitetni ifodalashda shaxsiy va kollektiv xotiraning o'zaro ta'siridan samarali foydalanayotganini ko'rsatdi. Milliylik tushunchasi endi faqat tarixiy meros yoki an'anaviy qadriyatlar bilan belgilanmay, balki zamonaviy insonning ruhiy holati, jamiyatdagi o'ri, global dunyoga moslashish jarayoni orqali ham talqin etilmoqda [5: 96]. Asarlarda ishlatilgan ramziy obrazlar – makon, tabiat, shahar muhitining tasviri, uy va oila timsollari – milliy identitetning zamonaviy mazmunini yoritishda markaziy rol o'ynaydi. Zamonaviy yozuvchilar milliylikni qat'iy chegaralangan hodisa sifatida emas, balki o'zgaruvchan, moslashuvchan, ko'p qirrali fenomen sifatida tasvirlaydilar. Ayniqsa, Murakami Haruki va Tawada Yoko kabi adiblar milliy o'zlikning global jarayonlar ta'sirida qanday transformatsiyaga uchrayotganini badiiy shaklda ochib beradilar.

Yakuniy xulosalar tadqiqotning asosiy g'oyalarini umumlashtirib, zamonaviy yapon adabiyotida milliy

identitlikning o'ri va ahamiyatini chuqur ilmiy asosda yoritadi. Avvalo, milliy identitet yapon adabiyotida barqaror, o'zgarmas kategoriya emasligi, balki tarixiy kontekst, madaniy an'ana, jamiyat dinamikasi va shaxsiy tajribalar ta'sirida doimo qayta shakllanib boradigan dinamik hodisa ekani aniqlandi. Yozuvchilarning badiiy izlanishlari milliylik tushunchasining an'anaviy chegaralarini kengaytirib, uni zamonaviy psixologik, falsafiy va ijtimoiy mazmunlar bilan boyitmoqda.

Zamonaviy yapon adabiyoti milliy identitetni ko'pincha shaxsiylik prizmasi orqali ifodalab, milliylikni ruhiy jarayonlar, ichki izlanishlar va hayotiy inqirozlar bilan bog'laydi. Bu yondashuv yaponlikning badiiy talqinini individuallashtiradi, uni ko'p qatlamli va o'zgaruvchan fenomen sifatida ochib beradi. Madaniy xotira, makon va vaqt, tabiat va jamiyat obrazlarining zamonaviy qo'llanilishi milliy identitetni badiiy shakllantirishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Globalizatsiya sharoitida milliy identitetning talqini yanada murakkablashib, yapon adabiyoti transmilliy, ko'p madaniyatli va global tajribalar bilan boyimoqda. Bu jarayon milliy o'zlikning zamonaviy badiiy ko'rinishini shakllantirib, yapon adabiyotini xalqaro madaniy muloqotning faol ishtirokchisiga aylantirmoqda. Natijada milliy identitet yapon adabiyotida nafaqat milliy madaniyatning ramzi, balki shaxsiy o'zlik, global tajriba va madaniy transformatsiya chorrahasida turgan murakkab badiiy konstruktsiya sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Keene D. Japanese Literature: An Introduction. – Tokyo: Tuttle Publishing, 1997.
2. Shirane H. Japan and the Culture of the Four Seasons. – New York: Columbia University Press, 2012.
3. Miller R. The Japanese Self in Cultural and Historical Perspective // Journal of Asian Studies, 1994. – Vol. 53, №2. – P. 310–333.
4. Haruki M. Norwegian Wood. – Tokyo: Kodansha, 1987.
5. Iles T. The Crisis of Identity in Contemporary Japanese Literature. – Leiden: Brill, 2007.

Parvina NABIYEVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

DUNYO ASSOTSIIATIV TADQIQOTLARI TAJRIBASI VA O'ZBEK TILIDAGI ASSOTSIIATIV MAYDON

Annotatsiya. Maqolada assotsiativ tezaurusning lingvistik va psixolingvistik mohiyati ochib beriladi. Rus assotsiativ lug'ati, Edinburg assotsiativ tezaurusi va o'zbek tilidagi misollar batafsil tahlil qilinadi: stimul so'zlar ("men", "mushuk", "o'zbek")ga berilgan javoblar chastotalari, o'zgarishlari va madaniy konteksti ko'rib chiqiladi. Maqola erkin assotsiativ tajribalar metodologiyasiga asoslanib, assotsiativ tezaurusning tilshunoslikdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: assotsiatsiya, assotsiativ lug'at, modellashtirish, assotsiativ tajriba, milliy qadriyatlar, stimul so'z, antropominant, semantik maydon.

Annotation. This article reveals the linguistic and psycholinguistic essence of the associative thesaurus. The Russian associative dictionary, the Edinburgh associative thesaurus, and examples in Uzbek are analyzed in detail: the frequency, variations, and cultural context of responses to stimulus words ("I", "cat" and "uzbek") are examined. The article, based on the methodology of free associative experiments, demonstrates the significance of associative thesaurus in linguistics.

Keywords: association, associative vocabulary, modeling, associative experiment, national values, stimulus word, anthropomance, semantic field.

Аннотация. В данной статье раскрывается лингвистическая и психолингвистическая сущность ассоциативного тезауруса. Подробно анализируются русский ассоциативный словарь, эдинбургский ассоциативный тезаурус и примеры на узбекском языке: рассматриваются частоты, вариации и культурный контекст ответов на слова-стимулы («я», «кошка», «узбек»). В статье, основанной на методологии свободных ассоциативных экспериментов, показано значение ассоциативного тезауруса в лингвистике.

Ключевые слова: ассоциация, ассоциативный словарь, моделирование, ассоциативный эксперимент, национальные ценности, слово-стимул, антропоминантность, семантическое поле.

So'nggi yillarda insonning tashqi olam haqidagi bilimlari va tasavvurlari uning assotsiatsiyalari orqali namoyon bo'lishi masalasiga dunyo tilshunosligida alohida e'tibor qaratilmoqda. Inson muayyan voqelikni tilda tasvirlar ekan, ushbu voqelik bo'yicha o'zida mavjud assotsiatsiyalarga ham murojaat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, assotsiativ lug'atlar ushbu vazifalarni hal

qilishda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Assotsiativ lug'atlar inson ongining tilni idrok etish va uni ishlatish jarayonlarini o'rganishga yordam beradi. Bu lug'at turi an'anaviy lug'atlardan farqli o'laroq, faqatgina tilshunoslar emas, balki jamiyatning turli qatlam vakillarini jalb qilgan holda keng miqyosli erkin assotsiativ tajribalar natijalariga asoslanib tuziladi.

Muayyan bir soʻzning maʼnolarini aniqlashda shu soʻz boʻyicha kishilarda yuzaga kelgan assotsiatsiyalarga murojaat qilinadi. Insonda bunday assotsiatsiyalar soʻzni eshitish yoki oʻqish orqali idrok etilishi natijasida hosil boʻladi. Assotsiatsiyalarga turtki beruvchi soʻz inson tomonidan idrok etilgandagina assotsiatsiya obyektiga aylanadi. Anglashiladiki, muayyan soʻzning til egalari tomonidan idrok etilgan maʼnolarini aniqlashda assotsiativ tajriba metodi ahamiyatlidir [2: 94]. Assotsiativ tezaurus madaniy bilimlarni oʻzida aks ettiruvchi ong modelidir. Buning natijasida lugʻat foydalanuvchisida muayyan madaniyatga xos dunyoqarash haqida tasavvur shakllanadi. Shu bilan birga, u maʼlum bir avlodga mansub oʻrtacha ona tili soʻzlashuvchisining ogʻzaki xotirasiga xos noyob modelashtirish qobiliyatlarini namoyon etadi [1: 40]. Bizga maʼlumki, assotsiatsiya soʻzlar yoki boshqa til birliklari oʻrtasidagi mantiqiy bogʻlanishlarni ifodalaydi. Bu tushuncha soʻzlarning ongda yoki nutqda birga ishlatilish, qoʻshnichilik yoki boshqa munosabatlar orqali bir-biri bilan bogʻlanishini anglatadi.

Assotsiativ lugʻat tuzish uchun material toʻplashning asosiy vositasi psixologiya va psixolingvistikada keng qoʻllaniladigan erkin assotsiativ tajriba usuli hisoblanadi. Tajriba ishtirokchilariga stimul soʻz beriladi va ular bu soʻzni oʻz onglarida idrok etgan holda xotiralariga kelgan birinchi javobni aytadilar. Masalan, ishtirokchilarga “qor” soʻzi aytilgan boʻlsa, ularning xotirasidagi birinchi javob *oq* yoki *qish* boʻlishi mumkin. Bu jarayon insonning tashqi olam haqidagi bilim va tasavvurlari ong va tilda aks etishini oʻrganishga xizmat qiladi. Javoblarning takrorlanish soni boʻyicha saralab, lugʻatga kiritiladi. Psixolingvistika sohasida stimul soʻzni toʻgʻri tanlash va uni taqqidqotchi koʻzlagan maqsadga toʻgʻri yoʻnaltirish ham erkin assotsiativ tajribalarda muhim rol oʻynaydi. Stimul sifatida ishlatilgan soʻzlar ona tilida soʻzlashuvchining ongida mavjud boʻlgan leksik va semantik bogʻlanishlarni aniqlashga yordam beradi [4: 21]. Masalan, zamonaviy rus tilining assotsiativ tezaurusi 1986–1996-yillarda rus tilida soʻzlashuvchi 6600 nafar 17–25 yoshli talabalar ishtirokida oʻtkazilgan keng koʻlamli assotsiativ tajribalar natijalari asosida tuzilgan. Soʻrovnomaning birinchi bosqichida (1986–1991) olingan javoblar keyingi bosqichda (1992–1994) stimul sifatida qoʻllanildi va ikkinchi bosqichdagi javoblar orasidagi yangi soʻzlar tajribaning uchinchi bosqichi (1994–1996) uchun stimullar roʻyxatiga kiritildi. Rus assotsiativ lugʻati va uning yangilangan versiyasi soʻz-stimullarga javoblar takrorlanishini reyting sifatida taqdim etadi. Lugʻat til ongining dinamikasini va madaniy qiymatlarning oʻzgarishini aks ettiradi. Misollar orqali til tasviridagi evolyutsiya va ijtimoiy-madaniy oʻzgarishlar koʻrsatiladi. “Men” soʻz-stimuliga javoban, 77 respondent *sen* soʻzini assotsiatsiya sifatida keltirgan va eng yuqori chastotani koʻrsatgan, ikkinchi lugʻatda 59 respondent *odam* soʻzini, 33 ishtirokchi *shaxsiyat* soʻzlarini assotsiatsiya sifatida keltirgan va unda *odam* soʻzi ustunlik qilgan. Bu tajribada 13 qatnashchi *sen* javobini keltirgan va bu soʻz toʻrtinchi oʻringa tushadi. Tajribalardagi natijalar individualizmning kuchayishi va shaxsiyat qiymatining oshganini koʻrsatadi, 10–12 yil ichida til ongida madaniy oʻzgarishlarni aks ettiradi. Shuni taʼkidlash kerakki, uchinchi bosqichdan boshlab assotsiativ tezaurus tarmogʻi zanjirga moyil boʻladi. Respondentlar koʻpincha tajribaning oldingi bosqichlarida stimul boʻlgan soʻzlar bilan javob berishadi. Bu tezaurus tarmogʻi til egalarning oʻrtacha leksikasi va ularning dunyo haqidagi tasavvurlarini tavsiflash imkonini beradi.

Ingliz tilida assotsiativ tezauruslarni tuzish ishlari XX asrning 70-yillarida boshlangan. Bunday tezauruslarning

eng muhim namunalaridan biri Edinburg assotsiativ tezaurusidir. Ushbu lugʻatni G.Kiss, K.Armstrong, R.Milroy va J.Piper kabi tadqiqotchilar ishlab chiqqan. Lugʻat ingliz tilidagi leksik birliklar oʻrtasidagi assotsiativ bogʻlanishlarni empirik ravishda oʻrganish uchun moʻljallangan maʼlumotlar bazasidir. Bu lugʻat semantik tarmoq emas, balki insonlarning stimul soʻzlarga beradigan assotsiativ reaksiyalarini jamlagan normativ toʻplamdir. Assotsiativ normlar nazariyasi F. de Sossyur va Y.N.Karaulov ishlariga asoslanadi, bu yerda soʻzlar paradigmatic va syntagmatic munosabatlar orqali bogʻlanadi. Har bir stimul soʻz uchun umumiy javoblar soni, turli javoblar miqdori va har bir javob turining takrorlanish soni qayd etiladi. Bu parametrlar psixolingvistikada soʻzlar oʻrtasidagi semantik yaqinlikni oʻlchash uchun asos boʻladi. Masalan, *mushuk* stimul soʻziga berilgan umumiy javoblar soni 94 ta, turli javoblar miqdori 30 ta, “it” javobining takrorlanishlar soni esa 49 tani tashkil qilgan.

Edinburg assotsiativ tezaurusining maʼlumotlari turli ilmiy tadqiqotlarda assotsiativ semantik tarmoqlarni shakllantirish uchun keng qoʻllaniladi. Chunki tezaurus mualliflarining taʼkidlashicha, u soʻzlar oʻrtasidagi semantik aloqalarga oid ishonchli psixolingvistik maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi [3]. Ushbu maʼlumotlar, shuningdek, reklama sohasida innovatsion yondashuvlar uchun boy resurs sifatida xizmat qiladi. Xususan, Edinburg assotsiativ tezaurusi asosida *tinchlik* va *neytron* soʻzlari oʻrtasida 84 ta assotsiativ zanjirni yangilash qilish mumkin boʻlib, ularning har biri 6 ta semantik bogʻlanishdan iborat. Bu assotsiatsiyalar soʻzlar oʻrtasidagi semantik masofani psixolingvistik dalillarga asoslangan holda aniqlaydi, bu esa ommaviy axborot vositalari xabarlarini va reklama matnlarini ishlab chiqishda qoʻllaniladigan muhim maʼlumotlar manbai hisoblanadi. Taʼkidlab oʻtish kerakki, har bir assotsiativ zanjirda berilgan soʻz juftligi oʻrtasidagi semantik aloqalarni bogʻlovchi oltita semantik bogʻlanishning mavjudligi Y.N.Karaulov kashf etgan “olti qadam qoidasi” bilan mutanosibdir. Mazkur qoidaga koʻra, semantik jihatdan qanchalik uzoq boʻlmasin, har qanday ikki leksema oʻrtasida semantik bogʻliqlikka asoslangan soʻzlar zanjirini shakllantirish mumkin. Bu zanjir doimo olti elementdan oshmagan uzunlikka ega boʻladi. Ushbu qoida tezaurus lugʻatining “uzluksizligi” ni ifodalaydi.

Oʻzbek tilshunosligida D.Lutfullayeva “Soʻzning assotsiativ maʼno xususiyati” maqolasida oʻzbek leksemasining assotsiativ maʼnolarini tajriba orqali tahlil qilgan [2]. Tajriba soʻz maʼnolarining til egalari ongida qanday shakllanishi va assotsiatsiyalar orqali qanday ifodalanishini oʻrganishga qaratilgan boʻlib, 364 kishi ishtirok etgan. Javoblar jamlanib, assotsiativ maydon shakllantirildi. Tajribada oʻzbek leksemasiga 25 marta *millat* javob reaksiyasi qaytarilganini, 10 marta *ona yurt* assotsiatsiyasi namoyon boʻlganini anglatadi. Lugʻaviy maʼnolar assotsiatsiyalarda mehmondoʻstlik, doʻppi kabi qirralar bilan ochiladi. Natijada soʻz maʼnolari til egalari tasavvurlarida voqelanib, milliy qadriyatlar aks etishi isbotlandi.

Oʻzbek tilidagi xulq-atvor leksemalarining antropomiant xususiyatlarini aniqlash maqsadida 18–25 yoshli talabalar ishtirokida uchta stimul soʻz boʻyicha erkin assotsiativ tajriba oʻtkazildi. Tadqiqotda uchta stimul soʻz – *halol*, *jurʼatli* va *samimiy* asosiy tahlil obyekti sifatida tanlandi. Natijalar shuni koʻrsatadiki, “halol” stimuliga nisbatan eng yuqori assotsiatsiya *poklik* (32%) boʻlib, 16 marta qayd etilgan, undan keyingi eng faol javoblar sifatida *vijdon* (26%), *ishonch* (14%), *oila* (10%) va *halol mehnat* (6%) soʻzlari kiritilgan. Bu holat halollik konsepti oʻzbek madaniyatida, avvalo, diniy-axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy hayot va oila bilan chambarchas bogʻliq

ekanini tasdiqlaydi. *Jur'atli* stimulida esa eng ko'p uchragan assotsiatsiya *mard* (34%) bo'lib, undan keyin *qo'rqmas* (28%), *erkak* (24%), *jasur* (22%) va *vatan* (12%) kabi birliklar qayd etilishi "jur'at" tushunchasining o'zbek jamiyatida asosan erkaklik, himoya, vatanparvarlik va qahramonlik timsollari bilan talqin qilinishini ko'rsatadi. Samimiy leksemasida esa eng yuqori natija *ochiqko'ngil* (38%), undan keyingi o'rinlarda *mehribon* (30%), *do'st* (24%), *tabassum* (20%), *sadoqat* (14%) leksemalari qayd etildi. Samimiyat o'zbek ongida ijtimoiy yaqinlik, suhbat madaniyati va mehmondo'stlik bilan bevosita bog'liq ekani aniqlandi. Ushbu kuzatuvlar asosida, xulq-atvor leksemalari o'zbek mental leksikonida e'tiqod – mardlik – mehr uchligi asosida shakllangan semantik tizimni yuzaga keltiradi degan xulosaga kelindi.

Bundan tashqari, respondentlarning muhim qismi *halol* so'ziga iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni ham kiritishgan. Jumladan, *porasiz*, *adolatli*, *nohaqliksiz*, shuningdek, *haq-huquqni bilgan* kabi assotsiatsiyalar "halollik" tushunchasi jamiyatda korrupsiya va adolatsizlikka qarshi turishning ramzi sifatida qabul qilinishini ko'rsatadi. Bu holat halollik kontseptining zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan uyg'unlashganligini, ya'ni u faqat axloqiy fazilat emas, balki davlat va jamiyat boshqaruvi samaradorligi mezoni sifatida ham idrok etilayotganini tasdiqlaydi. Respondentlarning tasavvurlarida halollikning ana shunday ko'p qatlamli semantik tuzilishi uning o'zbek

mentalitetidagi qadimiy ildizlari va bugungi kundagi dolzarbligini bir vaqtning o'zida aks ettiradi.

Assotsiativ lug'atlarning bir qator umumiy o'xshashliklari mavjud bo'lib, ular umumiy metodologiyaga ega. Bundan tashqari, bu turdagi lug'atlarda subyektlarga stimul so'z taqdim etiladi, ishtirokchilar beradigan birinchi javob (30–60 soniya ichida) qayd etiladi, javoblardagi takrorlanishlar soni statistik tahlil qilinadi. Barchasi Karaulov qoidasiga tayanib tilning "uzluksizligi"ni tasdiqlaydi. Assotsiativ lug'atlar yaratish maqsadida olib borilgan tajribalar natijasi insonning ongi asrlar davomida madaniy hamda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, zamon va makon, tashqi muhit ta'sirida o'zgarib borishini ko'rsatadi.

Assotsiativ lug'atlar milliy ongni chuqur o'rganishga, universal semantik aloqalarga, milliy qadriyatlar va urf-odatlariga tayangan holda shakllanadi. Ayni shu jihatlariga ko'ra, turli xalqlarga tegishli bo'lgan assotsiativ lug'atlarda o'ziga xos farqlar namoyon bo'ladi. Xususan, o'zbeklarga xos milliy qadriyatlar ulug'lanishi, mehmondo'stlik, oila kabi tushunchalarning e'zozlanishi assotsiativ maydonida hosil bo'ladigan so'zlar zanjirida o'z aksini topadi. O'ziga xos jihatlardan yana biri shuki, g'arb assotsiativ lug'atlarida individuallik ko'proq namoyon bo'lsa, sharq xalqlarida jamoaviylik va qarindoshlik munosabatlari ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ufimtseva N.V. The Associative Dictionary as a Model of the Linguistic Picture of the World // Procedia – Social and Behavioral Sciences, 2014, Tom 154. – P. 36–43.
2. D. Lutfullayeva. So'zning assotsiativ ma'no xususiyati // Eurasian Journal of Academic Research, 2024. Vol 2, Issue 12.
3. Amancio D.R. Using Complex Networks to Quantify Consistency in the Use of Words // Journal of Statistical Mechanics: Theory and Experiment., 2012. Vol. 12.
4. Kiss G., Armstrong C., Milroy R., Piper J. An associative thesaurus of English and its computer analysis. In: The Computer and Literary Studies. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1973.
5. Deese J. The Structure of Associations in Language and Thought. – Baltimore: The Johns Hopkins Press, 1965.
6. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. М.: Наука, 1976.

Gulnoza XUSHVAQTOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

BADIIY ASARLAR TARJIMALARIDA EKZOTIZMLAR, REALIYALAR VA RAMZLARNING LINGVOSEMIOTIK VAZIFALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima qilingan badiiy matnlarda uchraydigan ekzotizmlar, realiyalar va ramziy birliklarning lingvosemiotik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonida denotativ ma'no ko'pincha saqlanadi, biroq konnotativ va madaniy semantik qatlamlar sezilarli darajada kamayadi. Ramziy strukturalarning intensivligi pasayadi, ikonlar esa ma'lum darajada simvollarlashuvga uchraydi. Ushbu holat tarjimaning lingvopragmatik ta'siriga, o'quvchi ongida hosil bo'ladigan assotsiativ-hissiy qabulga ta'sir ko'rsatadi. Maqolada adabiyotlararo madaniy uzatish jarayonida lingvosemiotik moslashuv strategiyalarining zarurligini ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: lingvosemiotika, ekzotizm, realiya, ramz, tarjima, denotatsiya, konnotatsiya, semiosfera, lingvopragmatika, Pirs modeli.

Annotation. This article analyzes the linguosemiotic functions of exoticisms, realities, and symbolic units found in translated literary texts. The research results show that in the translation process, the denotative meaning is often preserved, but the connotative and cultural-semantic layers are significantly reduced. The intensity of symbolic structures is reduced, and icons are subjected to some degree of symbolization. This circumstance influences the linguopragmatic effect of the translation, the associative-emotional perception formed in the reader's mind. The article emphasizes the necessity of linguosemiotic adaptation strategies in the process of intercultural transmission.

Keywords: linguosemiotics, exoticisms, realia, symbols, translation, denotation, connotation, semiosphere, linguopragmatics, Peirce's model.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвосемиотические функции экзотизмов, реалий и символических единиц, встречающихся в переведенных художественных текстах. Результаты исследования показывают, что в процессе перевода денотативное значение часто сохраняется, но коннотативные и культурно-семантические слои значительно уменьшаются. Интенсивность символических структур снижается, а иконы в некоторой степени подвергаются символизации. Это обстоятельство влияет на лингвопрагматический эффект перевода, на ассоциативно-эмоциональное восприятие, формирующееся в сознании читателя. В статье подчеркивается необходимость стратегий лингвосемиотической адаптации в процессе межкультурной культурной передачи.

Ключевые слова: лингвосемиотика, экзотизмы, реалии, символы, перевод, денотация, коннотация, семиосфера, лингвопрагматика, модель Пирса.

O'zbek adabiyotida modernizm va milliy uyg'onishning markaziy figuralari sifatida tanilgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning she'riy va nasriy asarlari o'zbek madaniyatining chuqur semantik qatlamlarini ochib beradi. Uning "Go'zal", "Kecha va kunduz" va "Do'xtur Muhammadiyor" kabi asarlarida ekzotizmlar (madaniy xos birliklar), realiyalar (milliy hayot tarziga oid tushunchalar) va ramzlar (simvolik timsollar) o'zbek identikligining asosiy vositalari sifatida qo'llanilgan. Inglizcha tarjimalarda, masalan, Kristofer Fort tarjima qilgan "Night and Day" ("Kecha va kunduz") romanida bu elementlar semiotik qayta kodlanishga uchraydi, bu esa madaniy yo'qotishlarga olib keladi. Til belgilar tizimi sifatida denotatsiya (to'g'ridan to'g'ri ma'no) va konnotatsiya (qo'shimcha ma'no) qatlamlarini birlashtiradi, ammo tarjima jarayonida konnotativ qatlam ko'pincha zaiflashadi [1: 12]. Yakobson ta'kidlaganidek, tarjima intralingvistik va interlingvistik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, bu madaniy kodlarni o'zgartiradi [4: 235]. Yuriy Lotmaning madaniy semiosfera nazariyasiga ko'ra, tarjima bir semiosferadan ikkinchisiga o'tish bo'lib, unda ma'lumot yo'qotilishi muqarrar [2: 67].

Tadqiqotimiz Charlz Sanders Pirsning ikon-indeks-simvol uchlik modeliga [3: 52], Roland Barthning denotativ-konnotativ semantika konsepsiyasiga [1: 44] va Yuriy Lotmaning madaniy semiosfera nazariyasiga [2: 88] asoslanadi. Bu modellar yordamida belgilarning madaniy va tilshunoslik o'zgarishlari tahlil qilinadi, chunki semiotika adabiy matnni belgilar tizimi sifatida ko'radi. Cho'lponning "Go'zal", "Kecha va kunduz" va "Do'xtur Muhammadiyor" asarlari inglizcha tarjimalari bilan qiyoslangan. Qiyoslash Rasulovning tarjimashunoslik prinsiplari [5: 103] va o'zbek adabiyoti tarjimalaridagi lingvostilistik usullarga asoslanadi. O'quvchi ongida hosil bo'ladigan assotsiativ effektlar Yakobsonning pragmatik ekvivalenti qarashlariga [4: 238] va psixolingvistik ekvivalensiya nazariyasiga asoslanib o'rganildi. Bu yondashuv tarjima jarayonidagi madaniy adaptatsiyani baholaydi.

Ekzotizmlar o'zbek madaniyatiga xos birliklar bo'lib, tarjimalarda izohli yoki adaptatsiya usullari bilan beriladi. Misol: *do'ppi* – *traditional Uzbek cap* shaklida tarjima qilinadi. Bu Bart ta'kidlaganidek, konnotatsiyaning so'nishiga olib keladi [1: 51], chunki do'ppining o'zbek madaniyatidagi ikonik ma'nosi, ya'ni *milliy faxr* timsoli simvolik neytrallashtiruvchi o'tadi [3: 113]. *Choyxona* so'zi *teahouse* deb tarjima qilingani sabab, ijtimoiy markaz sifatidagi konnotatsiyasi zaiflashadi.

Realiyalar milliy hayot tarzini ifodalaydi. Misol qilib *mahalla* so'zining *traditional neighborhood community* ko'rinishidagi so'zning madaniy kodini to'liq ochib berolmaydi. Lotman fikricha, har bir madaniy birlik o'z semiosferasiga ega, tarjima esa bu semiosferani toraytiradi [2: 92]. *Mahallaning* ijtimoiy-madaniy kuchi, ya'ni "jamiyat nazorati va yordami" ma'nolari tarjimada to'liq ochib berilmagan.

Ramzlar Cho'lpon poeziyasida milliy uyg'onishni ifodalaydi. Misol uchun, *bahor* – ozodlik va yangilanish ramzi. U tarjimalarda oddiy *spring* shaklida beriladi, bu esa konnotativ qatlamni yo'qotadi. *Oy* ramzi esa muhabbat va vatanga nisbatan sevgini ifodalaydi, tarjimalarda uning ham emotsional intensivligi kamayadi. Pirs nazariyasiga ko'ra, belgilar **ikon** (o'xshashlik asosidagi belgi), **indeks** (ishora orqali ma'no beruvchi belgi) va **simvol** (kelishuvga asoslangan belgi) kabi turlarga ajratiladi [3: 55]. Cho'lpon asarlarining inglizcha tarjimalarida ushbu belgilar tizimi sezilarli darajada transformatsiyaga uchraydi. Avvalo, **ikonik belgilar** – masalan, *do'ppi* yoki *mahalla* ingliz tilida o'ziga

xos madaniy o'xshashlikka ega bo'lmagani sababli **simvolga aylanadi**. Bu jarayon tarjimada madaniy konnotatsiyaning qisqarishiga olib keladi [3: 61]. Natijada o'zbek madaniyatiga xos tasvir o'quvchi ongida to'laqonli aks eta olmaydi, tarjimon esa ularni izohli shaklda berishga majbur bo'ladi. Shuningdek, **indekslar** – masalan, *ko'z yoshi*, *shamol* kabi tabiiy ishoraviy birliklar – tarjimada ham emotsional va semantik markazini saqlab qoladi. Biroq pragmatik intensivlik **pasayadi**. Bu holat indeksning asl pragmatik yukiyangi madaniy semiosferada to'liq ishlamasligidan dalolat beradi. **Simvolik belgilar**, masalan, *bahor* inglizcha tarjimada o'zbek madaniyatidagi chuqur ramziy mazmunini to'liq yetkaza olmaydi. Bart ta'kidlaganidek, bunday hollarda simvolning **intensivligi kamayadi**, konnotativ qatlam esa yengillashadi [1: 40]. Shu bois Cho'lpon poeziyasidagi milliy uyg'onish, ruhiy tiklanish, muhabbat va tabiat ramzlari ingliz o'quvchisi uchun asl tilidagidek ta'sirchan bo'lolmaydi. Umuman olganda, tarjima jarayonida ikonlarning simvollarga aylanishi, indekslarning emotsional yukni qisman yo'qotishi va simvollar intensivligining kamayishi **madaniy ma'no yo'qotishlariga** olib keladi. Bu esa lingvosemiotik nuqtayi nazardan tarjimaning eng muhim muammolaridan biri.

Lotman ta'kidlaganidek, tarjima bir semiosferadan boshqasiga o'tish bo'lib, unda "yo'qotishlar" yuz beradi [2: 101]. Cho'lpon asarlarida bu yo'qotishlar ramziy ma'nolarning yengillashuvi, milliy birliklarning generalizatsiyasi va pragmatik effektning pasayishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Masalan, "Kecha va Kunduz" tarjimasida milliy va madaniy birliklarning 37% dan faqat 10% i saqlanib qoladi, bu lingvokultural xususiyatlarning zaiflashuvini ko'rsatadi. Yakobson fikricha, pragmatik ekvivalentni to'liq o'tkazish imkonsiz [4: 290]. Cho'lponning tarjima qilingan asarlarida "bahor", "oy", "muhabbat" va "vatan" tushunchalari assotsiativ effektini yo'qotadi, chunki ingliz o'quvchisi uchun bu ramzlar chuqur ma'no kasb etmaydi. Psixolingvistik ekvivalensiya nazariyasi bu o'zgarishlarni tushuntiradi, unda tarjima madaniy adaptatsiyani talab etadi.

Ushbu tadqiqot natijalari Cho'lpon asarlarining inglizcha tarjimalarida ekzotizmlar, realiyalar va ramziy birliklar **lingvosemiotik qayta kodlanish** jarayoniga duchor bo'layotganini tasdiqladi. Tarjima jarayonida belgilar tizimining **denotativ komponenti nisbatan barqaror saqlansa-da**, ularning **konnotativ, madaniy va ideologik qatlamlari sezilarli darajada reduksiya qilinishi** kuzatildi. Bu esa belgining yangi semiosferaga moslashuvi jarayonida uning madaniy semantikasining qayta talqin qilinishini ko'rsatadi. Shuningdek, tarjima matnidagi belgilar o'quvchi ongida uyg'otgan **pragmatik effekt** ham o'zgarishga uchrab, manba madaniyatiga xos hissiy, estetik va assotsiativ signallar qabul qiluvchi madaniyat doirasida qayta shakllanadi. Mazkur transformatsiyalar ikon va indekslarning simvolik darajaga siljishi, ramzlarning intensivlikni yo'qotishi hamda madaniy kodlarning neytrallashtiruvchi orqali namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, tarjimonlar Cho'lponning poetik individualligini va estetik ruhini yetkazishda ma'lum darajada muvaffaqiyatga erishgan. Biroq **madaniy adaptatsiya, semantik kompensatsiya va konnotativ ekvivalentlikka doir yangi strategiyalarni ishlab chiqish** kelajak tadqiqotlar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Mazkur maqsad o'zbek adabiyotining xalqaro maydondagi adekvat qabul qilinishini ta'minlash bilan birga, milliy madaniy kodlarning global semiosferada izchil aks etishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barthes R. Elements of Semiology. – New York: Hill and Wang, 1977.
2. Lotman Y. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. – Indiana: Indiana University Press, 1990.
3. Peirce C.S. The Essential Peirce. – Indiana: Indiana University Press, 1998.
4. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation. In On Translation. – Cambridge: Harvard University Press, 1959.
5. Rasulov A. O'zbek tarjimashunosligi asoslari. – Toshkent, 2015.
6. Abdulhamid Chulpon. <https://www.ziyouz.uz/en/poetry/44-modern-uzbek-poetry/195-abdulhamid-chulpon>.

Asqarali MADALIYEV,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son o'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

JADID ADABIYOTIDA MILLIY MA'RIFAT VA
SOG'LOM JAMIYAT KONSEPSIYASI

Annotatsiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati nafaqat ma'rifiy va madaniy yangilanish, balki jamiyatning sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan g'oyalarni ham o'zida mujassam etgan. Maqolada jadid adabiyotida tibbiy va gigiyenik tushunchalarning paydo bo'lishi, ularning ma'rifiy vazifasi hamda omma salomatligini yaxshilashga qaratilgan targ'ibot mexanizmlari keng tahlil qilinadi. Shuningdek, jadidlar ilgari surgan sog'lom jamiyat konsepsiyasining milliy uyg'onish jarayonidagi o'zni ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, tibbiyot, sog'lom jamiyat, tibbiyot atamaları, gigiyena, epidemiyaga qarshi tavsiyalar, gigiyena madaniyati, tibbiy-ma'rifiy targ'ibot.

Аннотация. Движение джаидов, сформировавшееся в конце XIX - начале XX веков, воплощало в себе идеи не только просветительского и культурного обновления, но и утверждения здорового образа жизни в обществе. В статье подробно анализируется возникновение медицинских и гигиенических понятий в джаидской литературе, их образовательная функция и пропагандистские механизмы, направленные на улучшение общественного здравоохранения. Также на научной основе освещается роль концепции здорового общества, выдвинутой джаидами, в процессе национального возрождения.

Ключевые слова: джаидизм, медицина, здоровое общество, медицинские термины, гигиена, противозидемические рекомендации, гигиеническая культура, медицинско-просветительская пропаганда.

Annotation. The Jadid movement, which took shape at the end of the 19th - beginning of the 20th centuries, embodied ideas not only of enlightenment and cultural renewal, but also of establishing a healthy lifestyle in society. The article analyzes in detail the emergence of medical and hygienic concepts in Jadid literature, their educational function, and propaganda mechanisms aimed at improving public health. The role of the healthy society concept put forward by the Jads in the process of national revival is also scientifically substantiated.

Keywords: Jadidism, medicine, healthy society, medical terms, hygiene, anti-epidemic recommendations, hygienic culture, medical and educational propaganda.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda kechgan jadidchilik harakati Markaziy Osiyo tarixidagi eng muhim ma'rifiy jarayonlardan biri sifatida tarixga kirgan. Bu harakatning ko'plab tadqiq qilingan qirralari bor: yangi maktablar, matbuot, teatr, milliy ozodlik g'oyalari, yangi adabiy uslub va siyosiy fikr shakllanishi. Biroq jadidchilikning aholi salomatligini yaxshilash, tibbiyot va gigiyena madaniyatini ommalashtirishdagi o'zni yetarlicha yoritilmagan.

Aslida jadidlarning "yangi hayot" konsepsiyasida sog'lom turmush tarzi, poklik madaniyati, epidemiyalarga qarshi kurash, xalqning tibbiy savodxonligini oshirish avvalo milliy uyg'onishning muhim vositasi sifatida qaralgan. Ular uchun "sog'lom millat" – ma'rifatli millatning ajralmas qismi edi. Jadid asarlarida o'tgan asr tibbiyot atamaları – *mikrob, yuqum, vabo, sil, emlash, gigiyena, toza havo, poklik, badan salomatligi* nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etgan. Bu atamalarning ilk ommalashuvi jadid publisistikasida yorqin ko'rinadi.

Jadidchilik va tibbiyot ma'rifiy harakatning ajralmas qismi. Jadidchilik faqat yangi alifbo, yangi maktab, yangi adabiyot emas – bu xalqning hayot tarzini zamonaviylashtirish haqidagi keng qamrovli islohotlar dasturi edi. Jadidlar to'g'ri tushungan bir qoida bor: sog'liq madaniyati – jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti. XX asr boshlarida Turkistonda epidemiyalar keng tarqalgan, xalq orasida tibbiy bilimlar ancha zaif edi. Rejimimiz ovqatlanish, iflos suv, inson yashaydigan hududning sanitar holati, bolalar o'limining yuqoriligi davrning asosiy muammolari bo'ldi. Odamlarning ko'p qismi kasallik sababi va yuqish yo'llarini bilmas, zamonaviy tibbiyotga nisbatan ishonch past edi. Jadidlar bu muammo bilan ham bevosita kurashdilar. Ular xalq uchun tushunarli tibbiy qo'llanmalar yozdi, matbuotda gigiyena qoidalarini berishni odatga aylantirdi, epidemiyalar paytida

maxsus tavsiyalar e'lon qildi, tibbiy atamalarni tarjima qilib, turkiy tilda shakllantirdi, maktab darsliklariga ham salomatlik haqidagi bo'limlarini kiritdi. Bundan bir natija maqsad qilingan edi – sog'lom, bilimli, zamonaviy fikrlaydigan millatni tarbiyalash [5: 23].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tibbiy bilimlar holati. Tarixiy manbalarga ko'ra, 1897-yilda butun Turkistonda 200 ga yaqin shifokor bo'lgan, ularning aksariyati shaharlarda yashagan. Qishloq joylarda xalq asosan an'anaviy tabiblarga tayanadi, "virus", "mikrob", "yuqumli" kabi tushunchalarni bilmas edi. Aynan shu sharoit jadidlarni tibbiyot sohasiga murojaat qilishga majbur etdi. Chunki xalq orasidagi tibbiy savodsizlik jadidlarning umumiy mafkurasi – ma'rifat va islohot g'oyalariga zid edi [6: 9]. Bu davrda keng tarqalgan kasalliklar: chechak (bolalar o'limi yuqori), vabo (har 5–7 yilda kuchli epidemiyasi), sil (nam va havo almashmaydigan xonalar sabab bo'ladi), bezgak (zaharli hasharotlar ko'pligidan kelib chiqadi), qizamiq (bolalarda tez tarqaluvchi illat). Jadid mualliflarining maqolalarida ana shu kasalliklar haqida ommabop, sodda til bilan yozilgan ma'lumotlar juda ko'p. Ular buni xalq hayoti uchun zarur ishlardan biri deb bilishgan.

Jadid adabiyotida tibbiy risolalar va atamalar talqini. Jadid mualliflarining birinchi tibbiy-ommabop asarlari ixcham, xalq tilida yozilgan bo'lib, ular epidemiyalarga qarshi amaliy tavsiyalarni qamrab olgan. Ilk tibbiy asarlarga M.Behbudiyning "Vabo haqida" (1911) ommabop tibbiy-ma'rifiy risolasini, A.Avloniyning tibbiy-tarbiyaviy maqolalarini (1913–1917) va Munavvarqorining gigiyena haqidagi tarjimalarini keltirish mumkin. Ularda uchraydigan ilmiy atamalar: kasallik nomlari: *vabo, sil, chechak, bezgak, isitma, qizamiq, tust (dizenteriya), qoraguo'l* [2: 12]; tibbiy tushunchalar: *mikrob, yuqum, illat, havo*

ifloslanishi, suv buzilishi, ovqat hazmi, tana harorati, yurak zarbi, nafas yo'llari.

Jadidlar atamalarini ilmiy asos bilan, biroq xalq tushunishi uchun yengil uslubda tushuntirgan. Masalan: "Mikrob ko'z bilan ko'rinmas, iflos joylarda yashaydigan jonzo bo'lib, badanga kirsa, kasal soladi"; "Vabo kirgan joyni havodor qilmaq, suvni qaynatib ichmak kerak". Bu jumlar zamonaning "sanitariya" faniga mos kelar edi.

"Oyna" jurnali va jadid matbuotida tibbiy-ma'rifiy maqolalar. 1913–1915-yillarda nashr etilgan "Oyna" jurnali jadidchilikning eng muhim axborot tarqatadigan manbalaridan bo'ldi. Jurnalda salomatlik madaniyatiga bag'ishlangan o'nlab maqolalar chop etildi [7]. Behbudiy "Oyna"da yoritgan mavzular: vaboga qarshi choralar, toza suv ichish qoidalari, xonalarni havodor qilish, bolalarni emlash, ovqatlanish tartibi, sanitariya qonunlari. Uning fikrlari orasida juda muhim bir tezis bor: "Poklik – salomatlikning asosidir, salomat millat esa taraqqiyning ruhi" [2: 16]. Bu kabi maqolalar orqali tibbiy terminologiya – mikrob, emlash, yuqumli, sanitar qoida, havo yangilash, toza muhit – omma ichida jadal ommalashdi.

Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi tibbiy-gigiyenik atamalar. Abdulla Avloniyning mazkur asari milliy ma'rifiy pedagogikaning asosiy manbalaridan bo'lib, unda sog'liq masalalariga katta o'rin berilgan. Undagi gigiyenik qoidalar tibbiy atamalar bilan bayon etilgani bilan muhim. Asarda uchraydigan tibbiy-gigiyenik tushunchalar: poklik, toza havo, badan salomatligi, isitma, taom hazmi, mashq qilish, uy havosini yangilash. Avloniy sog'lom hayotni axloq masalasi sifatida talqin qiladi: "Ortiqcha taom badanni zaif etar, hazmni buzur. Mashq salomatlikka vositadir" [1: 19]. U ilk bor jismoniy tarbiya, havo

yangilash, poklikni "milliy ma'naviyat"ning bir qismi sifatida ko'rsatgan mutafakkirlardan biridir.

Cho'lpon va Fitrat ijodidagi tibbiy atamalarining ijtimoiy-tanqidiy vazifasi. Jadid adabiyotining badiiy qanoti – Cho'lpon va Fitrat – tibbiy atamalardan metafora sifatida foydalanib, milliy ahvolni falsafiy tarzda baholagan. Cho'lpon publisistikasida tez-tez uchraydigan *millatning ruhiy kasallikka chalingan, jamiyat tani zaif, ma'naviyatdagi inqiroz virusi* [3: 5] kabi iboralar badiiy-ilmiy til orqali jamiyatning siyosiy va madaniy kafolatsizligini, illatlarini tanqid qiladi va ahli orasida ommalashadi.

Fitrat: "inqiroz virusi"ning badiiy-ijtimoiy talqini. Fitrat jamiyat tanazzulini *jamiyat taniga chirish tushdi, millat irodasi zaif, firqa-advot – millatni zaharlaydigan mikrob* [8] kabi iboralar bilan ifodalagan. Bu atamalar jadid ijodkorlarining tibbiyot terminlarini ijtimoiy-simvolik ma'noda ham qo'llaganini ko'rsatadi. Jadidlarda eng ko'p uchraydigan gigiyenik atamalar: *poklik, toza havo, emlash, yuvinish, havodor qilish*. Ijtimoiy-metaforik atamalar: *millat tani, ruhiy kasallik, inqiroz virusi, jamiyat tanazzuli* [8]. Bu atamalar jadid adabiyoti orqali umummilliy tilga kirib keldi va keyinchalik tibbiy terminologiyaga asos bo'ldi.

Jadidchilik harakati tibbiy savodxonlikni oshirish, sanitariya madaniyatini ommalashtirish, epidemiyalarga qarshi ilmiy qoidalarini targ'ib etish orqali milliy tibbiy madaniyatni shakllantirgan dastlabki harakatlardan biri bo'ldi. Jadid asarlarida tibbiy atamalarining paydo bo'lishi zamonaviy ilm-fanni qabul qilish, jamiyatni sog'lomlashtirish, milliy uyg'onish g'oyasini ilgari surish maqsadlariga xizmat qilgan. Shu jihatdan jadidlar nafaqat adabiy-mafkuraviy, balki tibbiy-gigiyenik ma'rifiy harakatning ham asoschilaridir. Ularning asarlaridagi atamalar bugungi tibbiyot tili uchun ilk pog'don vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
3. Cho'lpon. Publisistika asarlari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2006
5. Ziyayev H. O'zbekistonda jadidchilik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1997–2007.
6. Abdullayeva D. Jadid matbuoti tarixi. – Toshkent, 2025.
7. "Oyna" jurnalining 1913–1915-yillardagi sonlari.
8. "Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston" arxiv gazetalar.

Dilovar IBRAGIMOVA,

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA OKSIMORON QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Maqolada Shavkat Rahmon she'riyati poetiktizimida oksimoronning badiiyvazifasi, mazmuniyziddiyatlarni kuchaytirishdagi roli tahlil qilinadi. Shoir poetikasidagi falsafiy mushohadalar, lirikaning ijtimoiylashuv jarayoni misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: oksimoron, lirik kechinma, ko'chma ma'no, tasviriy ifoda, ijtimoiylashuv, tashbeh.

Annotation. The article analyzes the artistic function of the oxymoron in the poetic system of Shavkat Rahmon's poetry, its role in intensifying semantic contradictions. Philosophical observations in the poetics of the poet and the process of socialization of lyrics are illuminated based on examples.

Keywords: oxymoron, lyrical experience, figurative meaning, figurative expression, socialization, metaphor.

Аннотация. В статье анализируются художественная функция оксюморона в поэтической системе поэзии Шавката Рахмона, его роль в усилении смысловых противоречий. На основе примеров освещаются философские наблюдения в поэтике поэта и процесс социализации лирики.

Ключевые слова: оксюморон, лирическое переживание, переносное значение, образное выражение, социализация, метафора.

Milliy adabiyotimizning ayni gullab yashnagan davri XX asrning ostonasidan boshlangan bo'lib, uning o'ziga xosligi o'tgan asrning 70–80-yillarida haqiqat va haqqoniyatni so'zlay olgan bir guruh shoirlar ijodida namoyon bo'ldi. Ushbu davr o'zbek she'riyatida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi, o'zbek adabiy muhitida erk to'polonchilari – Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Azim Suyun, Usmon Azim kabi shoirlarning ijodi bilan

ajralib turadi. Ayniqsa, she'riyatning zabardast vakili va yetuk darg'alaridan biri – Shavkat Rahmon nomi o'zbek adabiyotida yuksak o'rin tutadi. Avvalo, shoir millatparvarlik ruhida tanildi.

Shoir O'sh shahrida savdogar oilasida tug'iladi, yoshlikdan hayot tashvishlarini totadi, atigi o'n uch yoshida uy quradi. Shu hayot qiyinchiliklari shoirlikka bo'lgan mehrini kuchaytirib, uning qalbiga ijodning jilvalarini ulashadi. Deyarli hamisha qizg'in ijod

bilan shug'ullangan talabchan shoir o'sha davrlarning nazm vakillaridan biri bo'lgan o'ta soddadil, samimiy va ochiqko'ngil Tursunboy Adashboyev bilan tanishadi. Shavkat Rahmon o'zi yozgan barcha she'rlarini unga ko'rsatadi. Shu sababli Shavkat Rahmonning she'rlari gazeta va jurnallarda chop etilib, sekin-asta tanila boshlaydi.

Moskvadagi tahsilni tugatgach, shoir Toshkentga kelib turli nashriyotlarda muharrir bo'lib ishlay boshlaydi. O'ziga talabchan bo'lgan yosh shoir ancha tajribaga ega bo'lib, atrofidagi adabiy muhit ham unga ta'sir ko'rsatadi. Shoir adabiyotga ilk bor o'zining "Rangin lahzalar" she'riy kitobi bilan kirib keladi. Shundan so'ng ketma-ket "Yurak qirralari", "Gullayotgan tosh", "Ochiq kunlar", "Hulvo" singari she'riy asarlari bilan adabiyot olamini yanada yoritadi.

Ijodkorning she'rlari mazmuniga nazar soladigan bo'lsak, ularning vazminligi, qalbga yetib boruvchi kuchi, she'riy bo'yoqlar va tasviriy ifodalarga boy ekanligining shohidi bo'lamiz. Ular lirikaga boy bo'lib, har qanday o'qirmanni his-tuyg'ular ummoniga g'arq qiluvchi satrlari bilan e'tiborga molikdir. Ma'lumki, nazmshunos olimimizning she'riy bitiklari "Saylanma" tarzida ham chop etilgan. Shoir saylanmasida "Hamal", "Xo'rsiniq", "Ozodlik qo'shig'i", "Bir kecha yodi" kabi, shuningdek yuzlab boshqa she'rlar o'z o'rniga ega, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoir "G'amgin she'r"ida shunday yozadi:

Umr ham o'tganday...

go'yo bir kunda,

nastarin guliday ochilib so'ldik.

Go'yo bir nafaslik ravshan quyunda,

Qalbi so'qirlarga afsona bo'ldik [1].

Ushbu falsafiy fikrlar, mushohada ettirilgan misralarining o'zidayoq, shoir mahoratli so'z ustasi ekaniga guvoh bo'lishimizni ta'minlaydi. Yuqoridagi misralarda o'xshatishning qo'llanilishi va dunyoning bir nafas ekanligi – quyunga o'xshatilishi – lirik qahramon qalbini nastarin gulining ochilib so'lishiga qiyoslash orqali ifodalanadi. Bunda "ravshan quyun", "so'qir qalb" kabi chuqur ma'noga ega so'z birikmalarining mohirona ishlatilgan. Mana shuning uchun shoirning nazmlarida liropoetika kuchli, chuqur ma'no aks etgan, his-tuyg'ular barq urib turgan she'rlar doim qalbga yaqin bo'lgan va xalq orasida tez ijtimoiylashuvga sabab bo'lgan, deb bemalol aytish mumkin.

"Shavkat Rahmon o'z ijod namunalarida avtoportretini chizgan; Sh.Rahmonni hech ko'rmagan odam ham shoirning she'rlari orqali ichki va tashqi suratini osongina chiza oladi, ishonib, ikki tomchi suvday bir xil chiqadi, g'irt o'xshaydi, quyib qo'yganday o'zi bo'ladi! Men Shavkat Rahmon she'riyatini ham, shaxsiyatini ham shuning uchun yaxshi ko'raman. Ijodkor qalbi va qalami bir va juda sokin edi; hatto mustamlakaga, haqsizliklarga, zulmga isyoni ham sokin edi" [1] deb yozadi taniqli yozuvchi Nurulloh Muhammad Raufxon.

Muallif o'zi ta'rifidagi "Avtoportret" she'rda shunday deydi:

Eng baxtiyor lahzalarda ham

Uning sokin isyoni so'nmas,

Tug'ilimgan shunchaki aslo,

U hech qachon shunchaki o'lmas.

"She'r ruhiga alohida ma'no bag'ishlagan "sokin isyon" oksimoroni shoirning badiiy kashfiyotidir. Ma'lumki, oksimoronda mazmun jihatidan zid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ajramas birlik hosil qiladi" [2]. Shu jihatdan *sokin* va *isyon* so'zlari qarama-qarshi ma'noga ega bo'lishiga qaramay, shoir mahorat bilan bunday so'zlardan oksimoronlar yaratadi. Umuman olganda, Shavkat Rahmonning ko'plab she'rlarida oksimoronning ajoyib tarzda qo'llanilishini kuzatish mumkin. Quyidagi satrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, muallif quyug badiiy tasvirlar yaratadi:

Sahro egalari....

G'am tepalari...

Zulmatda yig'ilgan chechaklar dardi,

Moziyga yo'l solgan kun tevalari,

Yurakning tuyg'udan yorishgan qari,

Vaqtning shavqatsiz nevaralari,

Qaylarga oborab bizlarni ayrib.

Aynan "Sahro egalari" satrlarida go'zal tasviriy ifoda na'munlariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shavkat Rahmon she'rlarini "rubobiy" deya ayriicha tasvirlaydi va albatta barcha nazmshunoslar ichida uslubi ajralib turadi.

Xulosa qilganda, adabiyot gulshanidagi xushna'vo bulbullarimizdan biri Shavkat Rahmon ijodi hamisha xalqimiz qalbidan joy olib kelgan. U yaratgan she'rlardagi badiiy ifodalar esa o'ziga xos individual ahamiyatga ega bo'lib, shoirning badiiy mahoratining yuksakligini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmon Sh. Abadiyat oralab. – Toshkent: Movarounnahr, 2012.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Sultonqulova F. On the expression of folk songs in the creation of Usman Azim // Modern Science and Research, 2024, 3 (2). – P. 282–285. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30754>.
4. Sultonqulova F. Metaphorical images in the poetry of Osmon Azim. International Engineering Journal For Research & Development, 2020, 3(2). – P. 282–285.
5. Sultonqulova F. Metaphorical images in Osman Azim poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 2020, 04 (84). – P. 537–539.

Aziza XUDOYNAZAROVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti;

Abduvali MUSA'YEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

G'AFUR G'ULOM NASRINING LINGVOPOETIK MOHIYATI VA ULARNI O'QITISH JARAYONIDAGI SAMARALI YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Maqolada G'afur G'ulomning nasriy asarlarida namoyon bo'ladigan lingvopoetik vositalar tizimi, ularning badiiy-funksional imkoniyatlari hamda o'quvchilarda obrazli fikrlashni shakllantirishdagi o'рни yoritiladi. Yozuvchining tilidagi xalqona ohang, emotsional ekspressiya, qahramonning ichki monologi va holat tasvirlarining o'ziga xos tarzda uyg'unlashuvi tahlil qilinadi, nasriy nutqidagi kulgi va samimiyatning tarbiyaviy roli, kompozitsion usullarini esa o'quv jarayonida tatbiq etish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: G'afur G'ulom, nasriy uslub, lingvopoetika, tarbiyaviy hazil, obrazlilik.

Annotation. The article explores the system of linguopoetic devices manifested in G'afur G'ulom's prose works, their artistic and functional possibilities, and their role in shaping figurative thinking in students. The folk motif in the writer's language, emotional expression, the character's inner monologue, and the unique combination of situation descriptions were analyzed, and the educational role of laughter and sincerity in prose speech, as well as the possibilities of applying compositional techniques in the educational process, were revealed.

Keywords: G'afur G'ulom, prose style, linguopoetics, educational humor, imagery.

Аннотация. В статье освещается система лингвопоэтических средств, проявляющихся в прозаических произведениях Гафур Гулама, их художественно-функциональные возможности и роль в формировании образного мышления учащихся. Проанализированы народный мотив в языке писателя, эмоциональная экспрессия, внутренний монолог героя и своеобразное сочетание описаний ситуации, раскрыта воспитательная роль смеха и искренности в прозаической речи, а также возможности применения композиционных приемов в учебном процессе.

Ключевые слова: Гафур Гулам, прозаический стиль, лингвопоэтика, воспитательный юмор, образность.

G'afur G'ulom ijodi bo'yicha lingvopoetik tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab muntazam ravishda olib borilgan. D.U.Rasulmuxamedova yozuvchining nasriy merosini gumanistik dunyoqarash bilan bog'lab o'rganar ekan, uning badiiy nutqida erkinlik, mehr, adolat kabi universal qadriyatlar dominant sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [1: 42]. Tadqiqotchining fikricha, yozuvchining obrazlar tizimi oddiy hayotiy tafsilotlar orqali chuqur falsafiy ma'no kasb etadi.

M.N.Bergutova "Poetic Image and Imagery of Gafur Ghulom" nomli ilmiy ishida adibning metafora va obrazlar tizimini zamonaviy poetik tafakkur asosida talqin qiladi. Uning qarashicha, yozuvchi xalq tiliga xos tasvir vositalarini badiiy tafakkur darajasiga ko'targan, har bir obraz semantik jihatdan ko'p qatlamli bo'lib, unda folklor tafakkurining izlari ko'rinadi [3: 14]. S.U.Berdiyeva esa bolalar obrazini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotida yozuvchining inson tabiatini chuqur bilishi, bola ruhiyatini nozik tasvirlash mahoratini alohida e'tirof etadi [2: 6]. Uning fikricha, adib uchun bolalik nafaqat estetik obraz, balki milliy ajdodlar donishmandligining davomiy shaklidir. A.N.Kamalov maqolalarida G'G'ulom merosini xalqona madaniy kodlar tizimi sifatida talqin qiladi. U yozuvchi matnlarida maqollar, hikmatli iboralar, etnopsixologik tasvirlar, oilaviy qadriyatlar, milliy odob me'yorlari bir tizimda yashashini ta'kidlaydi [4: 78]. Kamalov fikricha, adibning tilida nutq ohangining melodikligi folklor og'zaki ijodining davomiy ko'rinishidir. Bu tadqiqotlardan umumiy xulosa shuki, G'afur G'ulomning nasriy nutqi xalqona, sodda shaklda berilgan bo'lsa-da, uning semantik tuzilishi murakkab, emotsional ohangi kuchli, tarbiyaviy ruh bilan sug'orilgan. Nasriy matnlarida xalqona nutqning poetiklashuvi muhim o'rin tutadi. Yozuvchi xalq og'zaki nutqiga xos ifodalarni oddiy bezak sifatida emas, balki badiiy kompozitsiyaning mazmuniy markazi sifatida qo'llaydi. *Voy, bola-ey!*, *Bo'ldi-da, bo'ldi-da!* kabi jonli iboralar personaj qiyofasini yaratadi, uning kayfiyatini ochib beradi, matnda ruhiy harakatni kuchaytiradi. Bu til unsurlari o'quvchilarning matnni tabiiy, jonli va quvnoq tarzda idrok etishiga yordam beradi.

Ichki monologning emotsional kuchli yozuvchining "Yodgor", va "Xotinlar" kabi hikoyalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ichki

monolog personaj ruhiyatini ochadi, muallifning pozitsiyasini yashirin tarzda anglatadi, voqea davomida psixologik chuqurlik yaratadi. Bu lingvopoetik hodisaning o'quv jarayonidagi ahamiyati shundaki, u o'quvchilarga qahramonning ichki olamini tushunish, ruhiy tahlil qilish, matnni emotsional idrok etish ko'nikmasini shakllantiradi. Hazilning tarbiyaviy tabiatini o'rganish jarayonida aniqlanishicha, G'G'ulom hazilni voqea jiddiyatini kamaytiruvchi vosita sifatida emas, balki axloqiy g'oyani kuchaytiruvchi badiiy mexanizm sifatida qo'llaydi.

Metaforik makon yaratish G'G'ulom nasrining eng muhim poetik belgisidir. Yozuvchining matnlarida *uy, yo'l, bog', xonadon, ko'cha* kabi makonlar real tasvir sifatida ham, ramziy ma'no sifatida ham qo'llanadi. Bu obrazlar milliy qadriyatlarni, oilaviy munosabatlarni, insoniy muhabbatni, ruhiy barqarorlikni ifodalaydi. Obrazli makon matnga chuqur falsafiy qatlam beradi va o'quvchilarni axloqiy mazmunga yo'naltiradi. Tilning sintaktik melodikasi esa adib uslubining ritmik asosini tashkil etadi. Qisqa gaplarning almashuvi, dialog va monolog o'rtasidagi o'zaro ritmik uyg'unlik, takrorlarning musiqiy ta'siri, parallel konstruksiyalarning barqarorligi matnning ohangdorligini ta'minlaydi. Bu ritm o'quvchini matn ichiga tortadi, personajlar nutqiga yaqinlashtiradi va voqea rivojiga jonlilik baxsh etadi.

Lingvopoetik diagnostika usuli o'quvchilarning matndagi badiiy vositalarni nafaqat topish, balki ularning mazmuniy, estetik va emotsional vazifalarini chuqur tushunishiga xizmat qiladi. Masalan, *Uy – taqdir chirog'i* metaforasining real, ramziy va milliy-madaniy ma'nolarini tahlil qildirish o'quvchilarda ko'p qatlamli fikrlashni shakllantiradi. Bu yondashuv adabiy tasvirning ko'p ma'noliligini anglashga yordam beradi.

Obrazga kirish metodi o'quvchini matn ruhiga yaqinlashtiradi. Bu usulda o'quvchi o'zini personaj o'rniga qo'yadi, uning ichki monologini yaratadi, fikrlarni davom ettiradi. Masalan, "Shovqinli mehmonlar" hikoyasida bola nuqtayi nazaridan ichki monolog yozish o'quvchining sezgirlik va nutqiy ifoda ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu metodning afzalligi matnni nafaqat o'qish, balki his qilish imkoniyatini berishida. **Psixologik xarita chizish** usuli "Yodgor" hikoyasida samarali natija beradi. O'quvchilar qahramon ruhiyatining o'zgarishini

ranglar, belgilar va ramzlar bilan ifodalaydi. Bu jarayon nafaqat matnni chuqurroq anglashni, balki emotsional tafakkurni rivojlantirishni ham ta'minlaydi. G'.G'ulomning dialogik tuzilishi jonli bo'lgan asarlarini ssenariyga aylantirish qulay. O'quvchilar bu asarlardan qisqa sahna yaratadilar, suhbat ohangini, obraz xarakterini, nutqning tabiiyligini ko'rsatadilar. Sahnalashtirish adabiy matnni tirik nutqqa aylantiradi va badiiy obrazlarning tabiiyligini his qilish imkonini beradi.

Reallik va badiiyatni qiyosiy tahlil qilish o'quvchilarga hayotiy vaziyatlar bilan badiiy voqealarni solishtirish, obrazlar va ularning ma'nosini chuqur tushunish imkonini beradi. O'quvchi asardagi bir epizodni real hayotdagi vaziyat bilan solishtirar ekan, badiiy umumlashtirishning tabiatini anglaydi. Milliy-madaniy kodlarni aniqlash o'quvchilarni

tilning madaniy ildizlari bilan tanishtiradi. O'quvchilar matndan xalqona iboralar, udumlar, odob me'yorlari, oilaviy qadriyatlar, milliy urf-odatlariga oid elementlarni ajratadilar. Bu ularda madaniy savodxonlik va tarixiy tasavvurni shakllantiradi.

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, G'afur G'ulomning nasriy uslubi sodda, ammo mazmunan chuqur tabiatiga egaligi bilan o'quv jarayonida juda samarali vosita hisoblanadi. Yozuvchining xalqona nutq, ichki monolog, hazil, ramziy tasvirlar va sintaktik ohangdorlikdan ustalik bilan foydalanishi matnni lingvopoetik jihatdan boy qiladi. Ana shu lingvopoetik boylikni dars jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning badiiy tafakkuri, nutqiy madaniyati va milliy-madaniy dunyoqarashini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Расулмухамедова Д.У. Выражение идеи свободы в творчестве Гафура Гуляма (монография). Ташкент, 2022.
2. Berdieva S. U. Gafur Ghulom's Contribution to the Representation of the Child Image in Uzbek Prose // NamSPI, 2024. https://journal.namspi.uz/articles_public_file/e1018316edfa5b68df65306d99da7159.pdf.
3. Bergutova M.N. Poetic Image and Imagery of Gafur Ghulom // ResearchGate, 2025. https://www.researchgate.net/publication/366064732_Laboratory_works_of_gafur_gulam_poetic_image_and_imagery (дата обращения: 27.11.2025).h
4. Kamalov A.N. National Values and Folklore Traditions in the Works of Gafur Ghulom // Languages and Literature (Inlibrary.uz), 2024. <https://inlibrary.uz/index.php/ijll/article/view/60420>.
5. Mirzayeva Sh. A. Modernist Features in Uzbek Literature of the 20th Century (monograph). – Tashkent, 2023.

Shaxnoza NORKULOVA,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti;

Ra'no ALIMARDANOVA,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti

ALISHER NAVOIY ASARLARINING NOMLARI: TARJIMA, TA'RIF VA MUVOFIQLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining umumiy xususiyatlari, asarlarining nomlanishi, forsiy va arabiy atamaları, o'zbek tilidagi muqobil nomlari, tarjima va izohlari xususida so'z boradi. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchi va tadqiqotchilarga Navoiy asarlarining nomlarini mazmun va badiiy maqsadga muvofiq tushunishga yordam berishdir.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, asarlar nomlari, arabcha va forschalar nomlari, o'zbekcha muqobil nomlar, tarjima, izoh, darslik, adabiyotshunoslik, adabiy tarjima.

Аннотация. В данной статье рассматриваются общие черты творчества Алишера Навои, названия его произведений, персидские и арабские термины, альтернативные названия на узбекском языке, переводы и комментарии. Основная цель исследования - помочь читателям и исследователям понять названия произведений Навои в соответствии с содержанием и художественной целью.

Ключевые слова: Алишер Навои, названия произведений, арабские и персидские названия, узбекские альтернативные названия, перевод, комментарий, учебник, литературоведение, литературный перевод.

Annotation. This article examines the common features of Alisher Navoiy's work, the titles of his works, Persian and Arabic terms, alternative names in Uzbek, translations, and commentaries. The main purpose of the research is to help readers and researchers understand the titles of Navoi's works in accordance with the content and artistic purpose.

Keywords: Alisher Navoi, titles of works, Arabic and Persian titles, Uzbek alternative titles, translation, commentary, textbook, literary studies, literary translation.

Alisher Navoiy asarlari nomlarining aksariyati arabcha yoki forsiy tilida ekanini ma'lum. Shu bois, ularning o'zbek tilidagi muqobili odatda arabiy va forsiy nomlari yonida, qavsda berilishi tabiiy. Masalan: "Badoe ul-bidoya" ("Badiiylilik ibtidosi"), "Navodir ul-nihoya" ("Behad nodirliklar"), "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilar hayrati"), "Nasoyim ul-muhabbat" ("Muhabbat shabadalari"), "Munshaot" ("Nomalar" yoki "Xatlar"), "Mezon ul-avzon" ("Vaznlar o'lchovi"), "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasi"). Ammo Navoiy asarlari nomlarining hozirgi zamon tilida berilishida har xilliklar yoki mavhumliklar ko'zga tashlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratilgan "Adabiyot" darsliklaridagi Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga doir sahifalarga e'tibor bersak, ayrim holatlar namoyon bo'ladi. 7-sinflar uchun mo'ljallangan darslik-majmuada ulug' shoir asarlarining ba'zilarini sanab o'tiladi. Masalan, "Badoe ul-bidoya", "Navodir ul-nihoya" va ularning

o'zbekcha nomi "Badiiylilik ibtidosi" hamda "Tuganmas nodirliklar" (2000-yilgi nashrida "Nihoyasiz nodirliklar") tarzida berilgan.

"Badoe ul-bidoya"ning "Badiiylilik ibtidosi" va "Navodir ul-nihoya"ning "Tuganmas nodirliklar" (yoki "Nihoyasiz nodirliklar") deyilishini chuqur tahlil qilish zarur. Negaki, *badoe* arabcha bo'lib, "yangi ochilgan g'uncha" yoki "yangilik" ma'nosini bildiradi. Shu bois, *badiiy adabiyot* atamasini "yangi odoblar" yoki "go'zal odoblar" deb atash to'g'ri bo'ladi. Mazmuni bo'yicha esa "Badoe ul-bidoya"ning o'zbekcha tarjimasini "Yangilikning boshlanishi" yoki "Go'zallikning boshlanishi" sifatida talqin qilinadi. "Navodir ul-nihoya"ning tarjimalarida ham xilma-xilliklar mavjud: "Tuganmas nodirliklar", "Cheksiz nodirliklar", "Nodir tugallanish". Ammo aslida "Behad nodirliklar" eng mos keladigan tarjima deb o'ylaymiz.

Darsliklarda Navoiyning "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub" va boshqa asarlarining ham

o'zbekcha nomlari turlicha. Masalan, "Majolis un-nafois"ning eng to'g'ri tarjimasi "Nafis bazmlar" yoki "Go'zal bazmlar", "Muhokamat ul-lug'atayn" esa "Ikki tilning muhokamasi" yoki "Ikki til qiyosi" deb berilishi maqbul. "Mahbub ul-qulub" esa "Ko'ngillarning sevgilisi" yoki "Qalblarning sevgilisi" tarzida ifodalanadi.

Xulosa qilganda, Alisher Navoiy asarlari nomlarining arabiy va forsiy manbalari bilan birga o'zbekcha muqobil nomlarini to'g'ri berish, ularning mazmuni va mavzusi bo'yicha izoh berish muhimdir. Bu o'quvchiga asarning mazmuni, ruhiyati va badiiy mohiyati haqida aniq tushuncha beradi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov B., Yo'ldoshbekov J. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 3-nashr. – Toshkent: Sharq, 2013.
2. Qosimov B., Jumaxo'ja N. O'zbek adabiyoti: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1998.

Нигора АБДУРАШИТОВА,

*старший преподаватель, и.о. доцента
Ташкентского гуманитарного университета*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА НА ПРИМЕРЕ «СЛОВА О ПОЛКУ ИГОРЕВЕ» И ДАСТАНА «АЛПАМЫШ»

Аннотация. В статье раскрываются универсальные и национально-специфические особенности эпического мышления, отражённые в сюжетах, образах героев, историческом контексте и идеологическом содержании указанных произведений. Особое внимание уделяется проблематике патриотизма, героизма, духовных ценностей и роли женских образов в формировании художественного мира эпоса, делается вывод, что сопоставительное изучение эпических текстов способствует углублению межкультурного диалога, укреплению гуманистических и патриотических идеалов, лучшему пониманию историко-культурных корней русского и узбекского народов.

Ключевые слова: героический эпос, «Слово о полку Игореве», «Алпамыш», сравнительный анализ, патриотизм, женские образы, национальная идентичность.

Сопоставление данных Узбекского национального корпуса показывает, что такие номинации часто участвуют в микроконтекстах, задающих социальный фон: «*Kelin tushdi*», «*Kuyov salom berdi*». В русском языке ролевые номинации не столь активно используются для описания бытовых действий, так, «Невестка приехала» не является обязательным элементом описания ритуала. Это различие отражает разную степень культурной значимости семейных ролей.

Таким образом, анализ показывает, что узбекские номинации человека структурируются вокруг социально-ролевых и возрастно-иерархических категорий, тогда как русские – вокруг оценочных и дискурсивных характеристик личности. В микроконтексте эти различия проявляются особенно ярко, поскольку контекст усиливает или ослабляет культурно значимые компоненты значения. Русский язык демонстрирует большую степень смысловой флуктуации, тогда как узбекский – большую прагматическую стабильность и социальную маркированность. Учитывая идеи Караулова о языковой личности [1], можно утверждать, что способы номинации человека в обоих языках отражают различия в коммуникативных нормах и ценностях: русская речь допускает более свободное выражение субъективной оценки, узбекская – более формальное уважение социальной дистанции, в итоге микроконтекст выступает ключевым механизмом проявления культурно обусловленной семантики номинаций человека.

Литература

1. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М.: Наука, 1987.
2. Ирисханова О.К. Игры фокуса в языке: семантика, синтаксис и прагматика дефокусирования. М.: Языки славянских культур, 2014.
3. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. М.: Наука, 1974.
4. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
5. Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. М.: Русские словари, 1997.
6. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. Минск: ТетраСистемс, 2004.
7. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Universitet, 2002.
8. Uzbek National Corpus (Uzbekcorpus.uz). Национальный корпус узбекского языка.

Умида ЮЛБАРСОВА, Наргиза УСАНОВА,
преподаватели Ферганского государственного университета

ПРАГМАТИКА БЛАГОДАРНОСТИ И ИЗВИНЕНИЯ В МОЛОДЕЖНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. В статье рассматриваются прагматические особенности выражения благодарности и извинения в молодежном дискурсе, трансформация традиционных речевых формул, влияние цифровой коммуникации на языковое поведение, а также прагматические стратегии, характерные для неформального общения: молодежь использует более гибкие, сниженные и экспрессивные формы, отражающие ценности группы и специфику современного коммуникационного пространства.

Ключевые слова: молодежный дискурс, прагматика, благодарность, извинение, речевые акты, цифровая коммуникация, коммуникативные стратегии, экспрессивность, разговорная речь.

Annotatsiya. Maqola yoshlar diskursida minnatdorchilik va uzr bildirish nutq aktlarining pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda an'anaviy nutq formulalarining transformatsiyasi, raqamli kommunikatsiyaning til xulqiga ta'siri hamda norasmiy muloqotga xos pragmatik strategiyalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari yoshlar nutqida yanada moslashuvchan, usluban past, ekspressiv shakllarning qo'llanishi ushbu guruhning qadriyatlarini va zamonaviy kommunikatsiya makonining o'ziga xosligini aks ettirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yoshlar diskursi, pragmatika, minnatdorchilik, uzr bildirish, nutq aktlari, raqamli kommunikatsiya, kommunikativ strategiyalar, ekspressivlik, og'zaki nutq.

Annotation. The article examines the pragmatic features of expressing gratitude and apology in youth discourse. It analyzes the transformation of traditional speech formulas, the influence of digital communication on linguistic behavior, and the pragmatic strategies characteristic of informal interaction. The study demonstrates that young speakers tend to employ more flexible, reduced, and expressive forms, which reflect group values and the specific nature of the contemporary communicative environment.

Keywords: youth discourse, pragmatics, gratitude, apology, speech acts, digital communication, communicative strategies, expressiveness, colloquial speech.

Прагматика благодарности и извинения в молодежном дискурсе – одно из актуальных направлений современных лингвопрагматических исследований, поскольку данные речевые акты являются фундаментальными средствами поддержания социальных отношений, регулирования межличностных взаимодействий и реализации этикетных норм. Благодарность и извинение формируют основу ритуализированного общения, однако в молодежной среде они приобретают иные формы, отличающиеся вариативностью, экономичностью и повышенной экспрессивностью. Молодежный дискурс отражает специфику мировосприятия молодых людей, во многом определяющуюся влиянием цифровой коммуникации, высокой скоростью информационного обмена и снижением уровня формальности в общении, которые способствуют трансформации традиционных речевых формул, а их прагматическое содержание получает новые способы языковой реализации [1].

В молодежной коммуникации благодарность сохраняет основную функцию – выражение признательности за оказанное действие или внимание, однако способы её выражения существенно меняются. Молодые носители языка активно используют сокращенные и стилистически сниженные варианты, такие как «спс», «пасиб», «спасибо большое» в разговорно-модифицированной форме, а также уменьшительные и экспрессивные формы, например, «спасибочки» или «спасибки». Эти варианты выполняют преимущественно функцию сближения, поскольку создают атмосферу неформальности и демонстрируют принадлежность к определенной социальной группе. Удвоение и варьирование звуковой структуры, как в форме «спасибооо», выступает средством экспрессии, придающим актам благодарности оттенок эмоциональности. Такой способ выражения признательности указывает на стремление молодежи не только передать содержание речевого акта, но и выразить своё отношение, создать эффект искренности и непосредственности, что характерно для неофициальной межличностной коммуникации.

Наряду с этим значительное место занимают имплицитные формулы благодарности, не содержащие явного маркера благодарственного акта. Высказывания типа «круто, что помог», «вообще выручил», «не ожидал, спасибо» представляют собой контекстуально обусловленные выражения, где благодарность передается посредством оценки ситуации или поступка собеседника, что свидетельствует о тенденции к снижению ритуальности и стремлению к большей естественности в общении. Такие формулы часто используются в ситуациях, когда прямое «спасибо» кажется излишним или недостаточно отражающим индивидуальный характер взаимодействия. Имплицитные выражения особенно распространены в дружеских группах, где отношения характеризуются доверием и отсутствием строгой дистанции.

Извинение в молодежном дискурсе также демонстрирует значительную трансформацию, отражающую изменения норм межличностного взаимодействия. Традиционные формулы «извините», «прошу прощения», характерные для официальной и межпоколенной коммуникации, в молодежной среде воспринимаются как чрезмерно формальные. На смену им приходят сниженные варианты: «сорян», «сорри», «моя ошибка», «я накосячил», «я тупанул». Такие формы подчеркивают неофициальный характер общения и выполняют функцию демонстрации открытости и признания собственной ошибки без излишнего самоуничижения, создают атмосферу равенства между коммуникантами и способствуют более быстрой и непринужденной коммуникации.

В молодежной речи широко распространены метатекстовые конструкции, выражающие извинение через объяснение обстоятельств, такие как «я не успел», «так получилось», «не заметил». В этих случаях говорящий не столько приносит извинение, сколько дает контекст, позволяющий собеседнику переосмыслить ситуацию. Такие выражения выполняют функцию смягчения, поскольку снимают часть ответственности с говорящего и переводят акцент с вины на обстоятельства. Этот прагматический прием особенно распространен в ситуациях, когда

нарушение не является социально значимым или когда необходимо сохранить позитивную атмосферу общения [2].

Характерной чертой молодежного дискурса является также использование иронии и игровых форм извинения. Гиперболизированные варианты, такие как «виноват во всем», «каюсь», «прощай меня», служат, с одной стороны, смягчению возможного конфликта, а с другой – поддержанию дружеских отношений. Прагматическая функция таких выражений заключается в создании комического эффекта, способствует снятию напряженности и уменьшению социальной дистанции. Иронические формы извинения являются одним из механизмов, позволяющих молодежи регулировать межличностную коммуникацию в условиях тесного взаимодействия.

Анализ молодежной речи показывает, что степень формальности извинения зависит от характера отношений между коммуникантами. В официальных ситуациях, таких как взаимодействие с преподавателями, работодателями или незнакомыми людьми, молодежь использует нейтральные формы, например, «извините, что задержал ответ» или «прошу прощения за неудобства». Однако в неформальном общении доминируют сниженные варианты. Иными словами, молодежная коммуникация регулируется гибкой системой прагматических норм, которые адаптируются к конкретным социальным ролям и ситуациям.

Интересно комбинирование речевых актов благодарности и извинения в одном высказывании. Высказывания типа «спасибо, что понял, извини, что так вышло» или «спасибо, что подождал, сорян, задержался» позволяют говорящему выразить одновременно признательность и сожаление. Такие формулы выполняют функцию поддержания

гармонии в общении, поскольку помогают балансировать между положительным и отрицательным воздействием на собеседника. Комбинированные речевые акты особенно часты в молодежной среде, где большое значение имеют эмоциональная поддержка и взаимное признание.

Переход благодарности и извинения в цифровую среду приводит к существенным изменениям в их структурной и прагматической организации. Цифровая коммуникация способствует сокращению формул, усилению экспрессивности и появлению элементов, характерных для устной речи. Однако она также порождает коммуникативные сбои, особенно в межпоколенном общении. Например, сокращенное извинение «сорян» может восприниматься старшими как неискреннее или недостаточно уважительное. Это показывает, что выбор формы речевого акта должен учитывать социальные ожидания адресата, культурные нормы и коммуникативную ситуацию [3].

Обобщая результаты анализа, можно утверждать, что прагматика благодарности и извинения в молодежном дискурсе демонстрирует переход от ритуально закреплённых формул к более гибким, экспрессивным и контекстуализированным стратегиям. Молодежная среда вырабатывает собственные нормы выражения признательности и извинения, лучше соответствующие её ценностям – неформальности, открытости, эмоциональной выразительности и снижению социальной дистанции. Такие трансформации отражают динамику современного языка и подчеркивают важность дальнейшего изучения прагматических механизмов, регулирующих межличностное общение в быстро меняющемся цифровом обществе [4].

Литература

1. Арутюнова Н.Д. Язык и человек. М.: Языки русской культуры, 1999.
2. Баранов А.Н. Прагматика речевого общения. М.: URSS, 2001.
3. Формановская Н.И. Речевое общение и этикет. М.: Наука, 2005.
4. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. М.: ЛКИ, 2008.
5. Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика. М.: Новое литературное обозрение, 2002.
6. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: CUP, 1987.

Mahfuza MUXTOROVA,

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

SHAFOAT TERMIZIY SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shafoat Termiziyning she'riy merosida badiiy san'atlarning o'rne va ularning poetik mazmunni ochishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shoir asarlarida tashbeh, talmeh, istiora va tashxis kabi san'atlarning qo'llanishi orqali lirik qahramon kechinmalari, tabiat manzaralari hamda tarixiy-estetik qarashlar badiiy yoritilgani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Shafoat Termiziy, poetik mazmun, ritm, tashbeh, talmeh, istiora.

Annotation. This article analyzes the role of artistic devices in Shafoat Termizi's poetic heritage and their significance in revealing poetic content. It is shown that in the poet's works, through the use of such devices as tashbeh, talmeh, istiora, and tashxis, the experiences of the lyrical hero, natural landscapes, and the author's historical and aesthetic views are artistically illuminated.

Keywords: Shafoat Termizi, poetic content, rhythm, simile, allusion, metaphor.

Аннотация. В данной статье анализируется роль художественных приёмов в поэтическом наследии Шафоат Термизий и их значение в раскрытии поэтического содержания. Показано, что в произведениях поэта через использование таких приёмов, как ташбех, талмех, истиора и ташхис, художественно освещены переживания лирического героя, природные пейзажи и историко-эстетические взгляды автора.

Ключевые слова: Шафоат Термизий, поэтическое содержание, ритм, сравнение, аллюзия, метафора.

Shafoat Termiziy o'zining mazmundor ijodi bilan she'riyat muxlislarining mehrini qozongan ijodkordir. Uning turli mavzularni qamragan she'riyatidagi o'quvchi qalbida estetik zavq uyg'otadigan, shoir misralarining quyma va ohangdorligini

ta'minlaydigan she'riy san'atlarni alohida tadqiq etish lozim. Shoir she'rlaridagi o'ynoqi xushohanglik, xalq ijodiga xos yengil ritm badiiy tasvir vositalari hamda badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanganida namoyon bo'ladi. Haqiqiy

ijodkor o'zining badiiy-estetik tafakkuri tadrijida hamisha yangilikka intiladi. She'riyat atalmish bo'stonni yangicha obrazlar bilan boyitadi. Bunda tabiat hodisalarini, odam va olam sir-sinoatlarini, jamiyatning ijtimoiy masalalariga murojaat qiladi. Shoir ijodida ayni shu holatlarga guvoh bo'lish mumkin. Ayniqsa, bunday lirik namunalarda yetuk badiiy obrazlar va badiiy tasvirlarning originalligi, o'ziga xos jihatlari badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalangani e'tirofga sazavordir. Shoir iste'dodining mazkur jihatlari ilmi bade, she'r ilmining asosi bo'lgan ma'naviy, lafziy va mushtarak (qorishiq) kabi go'zal badiiy san'atlarning qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Mumtoz adabiyotimizda ham, zamonaviy she'riyatimizda ham barcha ijodkorlar badiiy mahoratini ko'rsatuvchi faol san'atlardan biri o'xshatish (tashbeh)dir. Badiiy tafakkurning eng qadimiy elementlaridan biri hisoblangan o'xshatish san'atining tarixiy ildizlari poetik tafakkur taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi. She'riy san'atlar bo'yicha risola yozgan olim Yoqubjon Is'hoqov ushbu san'at haqida shunday yozadi: "...uning mohiyati so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa yoki xususiyatni ular o'rtasida mavjud bo'lgan biror o'xshashlik, umumiylik (sifat, belgi yoki funktsiya) nuqtayi nazaridan qiyoslashdan iboratdir. O'xshatishdan maqsad esa tasvir obyekti bo'lgan predmet yoki hodisani yoxud ularning biror xususiyatini yorqinroq tasvirlash va chuqurroq ochib berishdir. Tashbeh san'atkorga o'z taassurotlarini, fikr va kechinmalarini obrazli ravishda yorqin bayon qilish uchun cheksiz imkoniyatlar beradi" [1: 84].

Shafolat Termiziy ijodida tashbeh san'ati lirik qahramon tuyg'ularini aks ettirish vositasidir. Ijodkor ohu, tog' qizi, osmon, yulduz kabi obrazlarini lirik qahramon darajasiga ko'targan, shu boisdan she'rlarida mazkur obrazlar bilan bog'liq bo'lgan turli ichki kechinmalarni aks ettiruvchi tashbehtar qo'llagan.

Bir sir aytay tinglagil, Gulista qiz,

Bodomqovoq, do'doqlari pista qiz.

Ohu yanglig' hurkak nozga usta qiz,

Bir sir aytay tinglagil, Gulista qiz.

Keltirilgan birinchi parchada shoir lirik qahramonni oshiq qilgan yorning nihoyatda go'zal va dilbarligini mumtoz an'ana izidan borib, *yanglig'*, *o'xshar*, *-day* kabi o'xshatish vositalari orqali tasvirlagan. O'xshatishning bu turi she'riyatimizda *tashbihi mutlaq* deb nomlangan.

Shoir tabiat manzaralari bilan bog'liq Ona Vatan obrazining, uning tabiati go'zalliklarini yaratishda tashbeh san'atidan o'rinli foydalanib, badiiy tasvirning aniq va betakrorligiga erishadi:

Bir alp yigit desam yurtim, belda kamari Surxon,

Gar osmonga mengzar bo'lsam shamsi, qamari Surxon.

Konga qiyos etsam agar boylik samari Surxon,

Mening yurtim erur bu yurt – bir yurtki, pari Surxon.

Shu bilan birga ijodkor she'rlarida badiiy tasvir va obrazlarni yaratishda rang-barang she'riy san'atlarni o'rinli qo'llagan. Ayniqsa shoir talmeh san'atining ajoyib na'munalarini yaratib, poetik maqsadini amalga oshirgan. Talmeh ("nazar solmoq") she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asar qahromonlarni, mashhur shaxslar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir [2: 171]. Shoir she'rlarida ushbu she'riy san'at faol qo'llanilib, uning bir nechta ko'rinishi uchraydi:

1. Tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq talmehlar:

2. Asar qahramonlari, san'atkorlar nomi bilan bog'liq talmehlar.

3. Shaharlar, joy, voqealarga ishora qiluvchi obrazlar nomi bilan bog'liq talmehlar.

Shafolat Termiziy she'rlarining aksariyat qismi tarixiylik mavzusi bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib shoir tomonidan yaratilgan tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq talmehlar bir nechta ko'rinishda bo'ladi:

a) Tarixiy shaxslar nomi keltiriladi:

Haq qavmi sochilib zaminda o'sdi,

Zamonlar tanitdi dushmanu do'stni,

Musoni, Isoni topdi Zardo'shtni.

b) ijodkorlar, shoirga zamondosh ijod ahli vakillari:

Chechan qilding ne Fozildek asillarni,

Qodir, Chorsha, Shoberdiday nasllarni...

2) asar qahramonlari nomi, san'atkorlar, afsonalar bilan bog'liq talmehlar:

Sen o'zing husnda podshohi zamon,

Iskandar qul bo'lgan go'zal Raxshona...

Vafoni dilga tugib kiring sevgi bo'stoniga,

Sadoqat bobida Farhod, Majnunni siz pir tuting...

3) shaharlar, joy, voqealarga ishora qiluvchi obrazlar nomi bilan bog'liq talmehlar.

Zamonlar oldida zamin ham janda,

Yo'q bo'lib ketdi-ku hatto shahri Kot.

Yuqoridagi tahlillardan namoyon bo'ladiki, uning she'rlaridagi satrlarga singdirilgan fikrlarni yoritishda talmeh san'ati orqali yuzaga kelgan obrazlar ijodkor ijtimoiy-estetik idealini ifodalashga xizmat qiladi. Har bir tarixiy shaxs, badiiy asar qahramoni, afsona va tarixiy joy nomlari shoirning fikrlarini ixcham, teran dalillashda o'rinli qo'llanilgan.

Shafolat Termiziy she'rlaridagi mazmundorlik va ta'sirchanlikni ta'minlovchi she'riy san'atlardan biri tashxis san'atidir. Tashxis – (arabcha "shaxslantirish") – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, shaxsga xos xususiyatlarning hayvonlar, qushlar, jonsiz narsa-predmetlarga nisbat berilishi. Ya'ni tashxisda insonlarga xos bo'lgan his-tuyg'u, xatti-harakatlar boshqa mavjudotlarga yoki jonsiz narsalarga ko'chiriladi [3: 326]. Shoir ijodida ushbu she'riy san'at tabiat manzaralari bilan bog'liq tasvirlarda ko'p qo'llaniladi. Ijodkor surxonning betakror tabiati, ko'kka salom bergan tog'lari, daryo, yil fasllari bilan bog'liq obrazlarni yaratishda tashxis san'atining imkoniyatlaridan keng foydalandi. "Bobotog' bahori", "Surxondaryoning lafzi halol dehqonlari xususida", "Termiz – Turon eshigi", "Amuga boqib" she'rlarida yuqoridagi jihatlar yaqqol ko'rinadi:

Unda kutar meni bir chaman,

Gullaridan bog'lay she'rimni.

Sen – ko'shkidan yorug' olamga,

Boqib turar bahor – jonona.

"Bobotog'" she'ridan keltirilgan ushbu parchada shoir jonlantirish vositasida o'ziga xos go'zal badiiy tasvirlar yaratishga erishgan. Ayni tabiat tasvirlari o'quvchida estetik zavq va hayrat uyg'otadi. Umuman, jonlantirish shoir she'rlarida turli ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Jonlantirishning nimaga nisbatan qo'llanishi ijodkorning badiiy mahoratiga, tilimizning yashirin, nozik ma'no ifodalash imkoniyatlaridan qay darajada xabardorligiga bog'liq. Shoirning "Kech kuz ohanglari" she'rida ham jonsiz tabiat unsurlarini shaxslantirish orqali tabiat manzaralarining originalligi hamda g'oyaviy maqsadini yoritishga erishilgan:

Ufqqa kift tirab mudraydi tog'lar,

Osmonning nazari og'ir qo'rg'oshin.

Egasiz hovliday bepardozi bog'lar,

Podalar oralar polizlar loshin.

Odimalay boshlaydi ohista yomg'ir,

Jimirlar hududsiz jigarrang voha.

E'tibor berilsa, jonsiz tabiat unsurlariga insonga xos xususiyatlar shunday mahorat bilan ko'chirilganki, o'quvchi nazdida baland tog'lar "Ufqqa kift tirab mudrash", "ohista yomg'irning odimlay boshlashi", "jigarrang vohaning jimirlashi" jonlantirish san'ati orqali tasvirning aniqligi, tabiiy va ohangdorligiga erishgan. Jonlantirish shoir she'rlaridagi poetik ta'sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, shoir she'rlaridagi badiiy obrazlarning aniqligi mumtoz adabiyotimizda ham zamonaviy she'riyatimizda ham keng qo'llangan **istiora** san'ati orqali aks etadi. Istiora arabcha so'z bo'lib, "biror narsani omonatga olmoq" degan ma'noni ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir majoziy ma'noda qo'llash san'ati sanaladi. Ko'pincha bu ikki ma'no o'zaro o'xshashlikka asoslanadi, shu jihatdan istiora tashbeh san'atiga yaqin turadi [4: 53].

Ey, chehrasi **bir dasta gul**,
Labi g'uncha, tili bulbul.

Gulqahqah kulgingni kul,
Sen-la dunyom bahor bo'lsin.

Ushbu banddagi **bir dasta gul** birikmasi o'z ma'nosida qo'llanayotgani yo'q, ya'ni shoir haqiqiy gulga emas, balki gul kabi go'zal yorga murojaat qilmoqda. Mumtoz adabiyotimizda **gul** an'anaviy istioralardan biri bo'lib, "yor", "go'zal mahbuba", "inson" ma'nosi o'rnida ishlatilgan va ayni shu timsol orqali istioraning go'zal namunasi yaratilgan.

Qizlarni sog'intirgan oydin visol, oppoq tush,
Yurtning oq quvonch **oltin lolalari gulladi**,
Saxovatingga tutdim qalbmni – **siniq jomni**,
Karaming gulobiga to'ldir uni llohim.

Birinchi parchada **oltin lolalari gulladi** istiorasi paxta timsolini, ikkinchida esa **siniq jom**, **karaming gulobi** istioralari lirik qahramon qalbini, **siniq jom**, **karaming gulobi** insonga berilgan tiriklik shukronasini ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006.
2. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheratieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
4. Hojjahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1998.
5. Rahmatullayev Sh. Ozod so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 321 b.

Ulug'bek HAMDAMOV,

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

KUNDALIKLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada kundaliklar avtobiografik adabiyotning muhim ko'rinishi sifatida tahlil qilinadi. Avtobiografik janrning nazariy asoslari, shaxsiy tajriba va muallif "men"ining shakllanish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kundalik matnlarining tabiiyligi, real vaqt rejimida yaratilishi, introspektiv mohiyati va individual ruhiy holatni aks ettirishdagi o'zni ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan asoslab beriladi. Ushbu janrning kompozitsion tarkibi va qurilishi, poetik xususiyatlari, badiiy-hujjatli tabiati va fragmentarlik tamoyillari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kundalik, avtobiografiya, memuar, introspeksiya, muallif "men", hujjatlilik, badiiylilik, ichki monolog, shaxsiyat.

Annotation. This article analyzes diaries as an important form of autobiographical literature. The theoretical foundations of the autobiographical genre, personal experience, and mechanisms for the formation of the author's "I" are examined. Also, the naturalness of everyday texts, their creation in real-time, their introspective essence, and their role in reflecting individual mental states are scientifically and theoretically substantiated. The compositional structure and structure, poetic features, artistic-documentary nature, and principles of fragmentation of this genre are illuminated.

Keywords: diary, autobiography, recollection, introspection, authorial self, documentary aspect, artistic expression, fragmentariness, inner monologue, personality.

Аннотация. В данной статье анализируются дневники как важная форма автобиографической литературы. Рассматриваются теоретические основы автобиографического жанра, личный опыт и механизмы формирования авторского «я». Также с научно-теоретической точки зрения обосновывается естественность повседневных текстов, их создание в режиме реального времени, интроспективная сущность и роль в отражении индивидуального психического состояния. Освещаются композиционный состав и построение, поэтические особенности, художественно-документальная природа и принципы фрагментарности данного жанра. Ключевые слова: дневник, автобиография, воспоминания, интроспекция, авторское «я», документальность, художественность, фрагментарность, внутренний монолог, личность.

Ключевые слова: дневник, автобиография, воспоминания, интроспекция, авторское «я», документальность, художественность, фрагментарность, внутренний монолог, личность.

Insonning ichki olamini, ruhiy kechinmalarini va kundalik hayot manzaralarini bevosita jarayonning o'zida qayd etishga qaratilgan kundaliklar adabiyotning eng qadimiy va eng tabiiy shakllaridan biridir. Avtobiografik adabiyotning shakllanishida kundaliklar alohida o'rin tutadi. Chunki u voqelikni qayta qurish yoki estetik qayta ishlashdan ko'ra, aynan shaxsning o'sha paytdagi ruhiy holatini bir vaqtning o'zida aks ettiradi. Shaxsiy tajribasi va individual dunyoqarash markazga chiqayotgan zamonaviy adabiyotda kundalik janri muallifning o'zlikni anglash, ichki dialog va ruhiy jarayonlarni tahlil qilishning samarali shakliga aylandi. Shuning uchun kundaliklar avtobiografik janrning asosiy ko'rinishlaridan biri

sifatida kishi "men"ining evolutsiyasini tadqiq etishda muhim manba.

Adabiy-ensiklopedik lug'atlarda "muallif o'z qalbining dunyo bilan munosabati tarixini shakllantirishga e'tibor qaratadi, xotiralar muallifini esa, birinchi navbatda, shu dunyoning o'zi, u bilan uchrashgan odamlar, kuzatgan va ishtirok etgan voqealar qiziqtiradi" [1: 12] qabilidagi mulohazalarga duch kelamiz. Demak, avtobiografik yoxud avtobiografik xarakterdagi janr namunalarda muallif hayotining muayyan davri yoritiladi. Bu borada kundaliklar xarakterli. Avtobiografik janrning markazida muallifning shaxsiy hayoti, boshdan kechirgan voqealari va ruhiy

kechinmalarini qayta xotirlash jarayoni yotadi. Memuar, xotira, maktub va kundalik kabi shakllar avtobiografik prozaning turli ko'rinishlarini tashkil etadi. Kundalik esa bu tizimning eng bevosita, eng samimiy va eng tabiiy shaklidir. Chunki memuarlar ma'lum vaqt o'tgach qayta tuziladi, kundalik esa ayni hayot jarayonida yoziladi. Shuning uchun u zamon bilan birga o'sadi, o'zgaradi, muallifning kayfiyati, fikri, ruhiy holatiga mos ravishda shakllanadi. Avtobiografik "men"ning shakllanishi ham aynan kundalikda ko'proq namoyon bo'ladi.

Avtobiografiya adabiy janr sifatida ko'pincha memuarlarga yaqin bo'ladi [3: 19]. Kundalik – shakl jihatdan adabiyotshunoslikdagi avtobiografik va memuar asarni eslatadi. Uning asosiy jihati, voqealarning sujetli tarzda berilmasligi, vaqt tartibiga rioya qilinishi, faktografiklik xususiyatlari bilan baholanadi. "Adabiyotshunoslik lug'ati"da kundalikka shunday ta'rif beriladi: "Kundaliklar – ko'rgan-kechirganlarni kuma-kun, odatda sanasini qayd etgan holda yozib borish; adabiyotdagi shu tarzda amalga oshirilgan rivoya shakli" [2: 147]. Kundalik maishiy-shaxsiy xarakterdagi adabiy shakl sifatida keng tarqalgan bo'lib, turli kasb va ijtimoiy qatlam vakillari tomonidan yuritilgan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy poetik va funksional belgilarga ega. Avvalo, kundalikning asosiy mohiyati muallifning boshdan kechirgan voqealari, holatlari va kechinmalari bilan ularning matnda qayd etilishi orasida deyarli vaqt masofasining mavjud emasligidir. Ya'ni kundalik bevosita "impression" usulda, muallifning taassuroti sovimasdan yoziladi. Aynan shu "real vaqt rejimi" unga memuardan tubdan farq qiluvchi xususiyat bag'ishlaydi. Memuarda kechmish voqelik muallif xotirasi asosida qayta konstruksiya qilinadi, kundalikda esa voqealar oqimi sinxron tarzda hujjatlashtiriladi.

Ikkinchi muhim jihat shundan iboratki, kundalik odatda omma uchun mo'ljallanmaydi; u muallifning o'zi uchun, o'z ichki tajribalarini tartibga solish, o'z-o'zini tahlil qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Shu sababli kundalik matnida muallifning fikr va kechinmalarida yalango'ch samimiyat, situativ hissiyotlar, baho va munosabatlarda hech qanday stilizatsiya yoki ijtimoiy "senzura"ning yo'qligi kuzatiladi. Bu esa kundaliklarga deyarli hujjat darajasida ishonarlilik, psixologik autentiklik baxsh etadi. Muallifning o'z fikrini yashirmay, barchani inobatga olmagan holda yozishi matnda "ichki monologning sof shakli"ni yuzaga chiqaradi.

Kundaliklar asosan shaxsning bevosita hayotiy maydonida sodir bo'layotgan voqealarni aks ettirsa-da, ular muallifning dunyoqarashi, hayot mohiyati, insoniy munosabatlar, ma'naviy-ruhiy izlanishlar haqidagi umumlashma mulohazalarini ham o'zida mujassam eta oladi. Kundalikda individual tajribadan universal falsafiy xulosaga o'tish jarayoni ko'pincha tabiiy va mantiqan uzviy kechadi. Shu bois, bunday matnlar muallif ruhiyati, ideallari va ijodiy transformatsiyasini o'rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Aynan mana shu xususiyatlari tufayli yozuvchi va shoirlar tomonidan yuritilgan kundaliklar adabiyotshunoslikning, xususan, biografik va avtopsixologik tadqiqotlarning tayanch manbalaridan biri hisoblanadi. Undagi faktografik material, ruhiy holatlar dinamikasi, ijodiy izlanishlarning bosqichma-bosqich aks etishi ijodkor shaxsining ichki evolyutsiyasini rekonstruksiya qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, kundalikning kompozitsion tabiatiga xos unsurlar – fragmentarlik, davomiylik, vaqtning ketma-ketlikda berilishi, mikrodavriy ritm – ayrim hollarda badiiy niyatni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bois adabiyotda kundalik shaklidan kompozitsion uslub sifatida foydalanilgan badiiy asarlar ham ko'p uchraydi.

Ba'zi matnlarda kundalik to'liq janr ko'rinishida namoyon bo'lsa, ayrim asarlarda u sujetni rivojlantiruvchi, personaj psixologiyasini ochuvchi yoki badiiy struktura dinamikasini belgilovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Ta'kidlaganimizdek, kundaliklarda vaqt chizig'i uzluksiz davom etadi. Har bir sana o'ziga xos ruhiy burilishlarni, ichki dialoglarni va mikrovoqealarni muhrlaydi. Bu jihat kundalikni nafaqat shaxsiy hujjat, balki o'ziga xos adabiy matnga aylantiradi. Anne Frank kundaligi inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib berishda qanchalik teran bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [4]. Bunday matnlar avtobiografik prozaning o'ziga xos laboratoriyasi sifatida baholanadi. Kundalik – o'zining kompozitsion tuzilishi va nutq tabiatiga ko'ra avtobiografik hamda memuar janrlari bilan yaqinlik kasb etadigan adabiy shakl. Biroq mazkur janrning o'ziga xos poetik tabiatini belgilovchi bir qator xususiyatlar mavjud. Avvalo, kundalikda voqealar an'anaviy sujet chizig'i asosida qurilmaydi; unda syujetning izchil rivoji o'rnini vaqtning ketma-ketlikda qayd etilishi, ya'ni xronologik prinsip egallaydi. Sana bilan belgilab borish nafaqat matnning tashqi ko'rinishini tashkil etadi, balki muallif ongidagi ruhiy holatlar, kechinmalar va kundalik tajribalar oqimini tabiiy tarzda aks ettirishga xizmat qiladi.

Kundalikning faktografiklik xususiyati ham uni memuardan farqlovchi muhim belgidir. Memuarda voqelik ma'lum vaqt o'tgach, qayta eslab, qayta konstruksiya qilingan holda berilsa, kundalik real vaqtning o'zida yoziladi. Shu bois kundalik matnida hayotiy detallar, mikromanzaralar, muallif kayfiyatidagi o'zgarishlar bevosita jarayon oraliqida qayd qilinadi. Bunday bevositalik kundalikning hujjatlilik darajasini oshiradi va uni o'zi mansub bo'lgan avtobiografik proza tizimida alohida poetik sifat bilan namoyon etadi. Shu jihatlari bilan kundaliklar shaxsning o'zlikni anglash, ruhiy introspeksiya va ichki dialogni ochib beruvchi noyob matn shakli sifatida adabiy jarayonning muhim ko'rinishlaridan biriga aylanadi. Kundaliklarning kompozitsion tuzilishi o'ziga xos erkinlik va ochiq shakllilik bilan tavsiflanadi. Mazkur janrda muallif o'z fikrini qat'iy kompozitsion qoliplarga bo'ysundirmaydi, aksincha, ichki kechinmalar, o'zgaruvchan kayfiyatlar, kunlik holatlar matnning tabiiy ritmini belgilaydi. Kundalikni yuritishda fikrning erkin harakat qilishi, ya'ni assotsiativ tafakkur oqimi orqali shakllanishi ushbu janrning muhim poetik belgisi sanaladi.

Muallif qayd etgan har bir fikr, har bir jumla alohida bir mikromatn sifatida shakllanadi. Ba'zan kundalik sahifalarida she'riy parchalar, maqollar, hikmatli mulohazalar, ijodiy niyatning dastlabki konturlari, tasavvurlar yoki yarim tayyor badiiy g'oyalar mujassam bo'ladi. Bunday badiiy elementlarning kiritilishi kundalikning poetik qiymatini oshiradi, uni oddiy hujjatli matndan estetik-badiiy mazmun bilan to'yingan adabiy hodisaga aylantiradi. Shuning uchun kundalik ko'plab ijodkorlar uchun ham sinov maydoni, ham fikr laboratoriyasi vazifasini o'taydi. Kundaliklar epistolyar adabiyotning ham ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtiradi. Epistolyar shaklning asosiy belgisi – matnning bevosita muallif nutqi asosida shakllanishi, adresantning o'z-o'ziga yoki tasavvuriy adresatga murojaat qilishi – kundaliklarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda matnning "ichki manzilli" bo'lishi, ya'ni o'qilishga emas, qayd etishga yo'nalganlik sezilib turadi.

Kundaliklarning badiiy kompozitsiyasida bir qator poetik unsurlar uchraydi. Ularga lirik chekinishlar, kiritma voqealar, badiiy tafsilotlar (detallar), epigraf kabi shakllar kiradi. Shuningdek, kundalik matnida portret tasviri, psixologik

holatlarning peyzaj orqali ifodalanishi (psixologik peyzaj), metaforik talqinlar kabi badiiy vositalar ham keng qo'llanadi. Ushbu elementlar kundalikning badiiy-estetik qatlamini shakllantirib, uning faqat faktografik hujjat emas, balki ichki dunyoni san'atkorona aks ettiruvchi matn ekanini ko'rsatadi. Natijada kundaliklar kompozitsiyasi shaklan fragmentar, mazmunan esa yaxlit bir ruhiy-biografik makonga ega bo'ladi. Ular muallif shaxsiyatining rivoji, estetik didi, badiiy idroki va hayotiy-falsafiy qarashlarining shakllanish jarayonini bosqichma-bosqich namoyon eta oladigan noyob matnlardir.

Kundaliklar avtobiografik adabiyotning eng tabiiy, eng samimiy va eng subyektiv shakli sifatida shaxsning o'zlikni anglash jarayonini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Bunda muallif o'zining kundalik tajribalarini qayd etar ekan, nafaqat voqealar ketma-ketligini, balki ruhiy holatidagi o'zgarishlarni ham aks ettiradi. Kundalikning hujjatlilik va badiiylilik o'rtasidagi nozik chegarani saqlab turishi uni avtobiografik janr tizimida alohida o'ringa ega qiladi. Zamonaviy adabiy jarayonda esa kundaliklar nafaqat shaxsiy esdalik, balki estetik tajriba va ichki dialogning badiiy shakliga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Литературный энциклопедический словарь / Под общ. ред. В.М.Кожевникова и П.А.Николаева. М.: Советская энциклопедия, 1987.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.
4. Frank Anna. Anna Frank kundaligi. – Toshkent: Iread, 2021. – 320 b.

Mohira HAYITOVA,

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
o'zbek va chet tillari kafedrasida o'qituvchisi*

MURAKKAB SPORT TURLARIGA OID ATAMALARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI VA ULARGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Maqolada murakkab sport turlariga oid atamalarining shakllanish jarayoni, leksik-semantik tuzilishi va zamonaviy sport lingvistikasidagi dinamikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 650 dan ortiq atamalar korpusi tuzilib, ularning struktur-semantik modellari o'rganildi. Natijalar atamalarining xalqaro sport diskursiga moslashuv jarayonlarini aniqlashtirdi. Korpus lingvistikasidan foydalangan holda terminlarning qo'llanish chastotasi va semantik dinamikasi aniqlanib, murakkab sport turlariga oid atamalarining rivojlanish tendensiyalari yoritildi.

Kalit so'zlar: murakkab sport turlari, sport terminologiyasi, leksik-semantik dinamika, metafora, kompozitsiya, korpus lingvistikasi, sport leksikografiyasi.

Annotation. The article analyzes the process of formation of terms related to complex sports, their lexical-semantic structure, and their dynamics in modern sports linguistics. During the research, more than 650 term corpora were compiled, and their structural-semantic models were studied. The results clarified the processes of adapting terms to international sports discourse. Using corpus linguistics, the frequency and semantic dynamics of term usage have been determined, and trends in the development of terms related to complex sports have been illuminated.

Keywords: complex sports, sports terminology, lexico-semantic dynamics, metaphor, composition, corpus linguistics, sports lexicography.

Аннотация. В статье анализируется процесс формирования терминов, относящихся к сложным видам спорта, их лексико-семантическая структура и динамика в современной спортивной лингвистике. В ходе исследования был составлен корпус, включающий более 650 терминов, изучена их структурно-семантическая модель. Результаты уточнили процессы адаптации терминов к международному спортивному дискурсу. С помощью корпусной лингвистики определены частота и семантическая динамика употребления терминов, освещены тенденции развития терминов, относящихся к сложным видам спорта.

Ключевые слова: сложные виды спорта, спортивная терминология, лексико-семантическая динамика, метафора, композиция, корпусная лингвистика, спортивная лексикография.

Murakkab sport turlari, jumladan, figurali uchish, snoubord, biatlon, akrobatik chang'i va shu kabi turlar o'zining murakkab texnik harakatlari bilan ajralib turadi. Bu sport turlaridagi terminologiya nafaqat sportchilarning texnik harakatlarini ifodalashga, balki o'quv jarayonida, xalqaro musobaqalarda va federatsiya materiallarida ham keng qo'llaniladi [Turner, 2021].

Sport terminologiyasining o'rganilishi tilshunoslik va pedagogika sohalari uchun dolzarbdir, chunki u terminlarning semantik o'zgarishini, xalqaro diskursga moslashuvini va terminlarni o'qitish metodikasini aniqlashga yordam beradi [1: 54]. Murakkab sport turlari terminologiyasi o'ziga xos semantik qatlamlar, metaforik ifodalar va texnik komponentlar bilan boyitilgan bo'lib, ularning to'liq tahlili ilmiy asosda yetarlicha amalga oshirilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot murakkab sport turlari terminlarini leksik-semantik jihatdan o'rganishga,

ularni tasniflashga va o'quv jarayonida samarali qo'llash metodlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Sport terminologiyasini o'rganish bo'yicha ilg'or ilmiy yondashuvlar bir nechta asosiy yo'nalishda rivojlangan:

- **Struktur-semantik yondashuvda** terminlar ichki tuzilishi va komponentlarining semantik roli tahlil qilinadi [1: 54]. Masalan, *air rotation phase* terminidagi har bir komponent – *air*, *rotation*, *phase* – o'ziga xos texnik va fazoviy ma'noga ega. Shu usul yordamida murakkab sport turlari terminlarining semantik qatlamlari aniqlanadi va ularni tasniflash imkoniyati yaratiladi.

- **Metaforik modelashtirish.** Murakkab sport turlari terminlari ko'pincha metaforik asosda shakllanadi. Masalan, *butterfly turn*, *swallow jump*, *eagle position* kabi terminlar harakat traektoriyasini yoki tana pozitsiyasini obrazli ifodalaydi [3: 112]. Tadqiqotchilar bu yondashuvni sport

leksikasi semantik boyligini oshirish va terminlarni pedagogik material sifatida o'rgatishda muhim deb hisoblaydilar.

- **Korpus lingvistik** metodologiyasi murakkab sport turlari terminlarining qo'llanish chastotasi va semantik o'zgarishlarini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi [7: 23]. Masalan, 2020–2024-yillarda *figurali uchish* va *snoubord* terminlarining qo'llanish chastotasi 18% ga oshgan, bu esa ularning diskursga moslashuvini ko'rsatadi.

- **Taqqoslash yondashuvida** ingliz va rus tillaridan o'zlashgan terminlar o'zbek tiliga moslashtiriladi, tarjima va leksik moslashuv muammolari aniqlanadi [5: 112]. Masalan, *pivot* termini *figurali uchish*da burilish harakati, *snoubord*da esa burilish texnikasi sifatida ishlatiladi.

Adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, murakkab sport turlari terminologiyasini o'qitishda kontekstual yondashuv, vizual materiallar va taqqoslash usuli samarali hisoblanadi [2: 67].

Shuningdek, ilmiy manbalar murakkab sport terminologiyasining dinamik rivojlanishini ko'rsatadi. Bu terminlar doimiy ravishda yangi sport texnikalariga moslashadi va xalqaro sport lug'atlarida yangilanadi [6]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, murakkab sport turlari terminlariga bag'ishlangan maxsus qiyosiy-lingvistik tadqiqotlar yetarli emas. Ayniqsa, o'zbek tilidagi variantlarning xalqaro terminlar bilan uyg'unligi, semantik differensiasiyasi va uslubiy funksiyalarini chuqur o'rganish dolzarbdir.

Murakkab sport turlari terminlarining leksik-semantik xususiyatlari:

1. Leksik qatlamlarning tarkibi. Murakkab sport turlari terminlari asosiy ravishda quyidagi guruhlardan tashkil topadi:

- **Harakat terminlari:** *flip, twist, salto, roll, spin, plank, lunge* semantik jihatdan harakatning yo'nalishi, amplitudasi, aylanish darajasi bilan farqlanadi.

- **Kombinatsiya terminlari:** *aerial sequence, combo set, routine, series* mazmun jihatdan harakatlar ketma-ketligi yoki kompozitsion strukturani bildiradi.

- **Baholash mezonlari terminlari:** *difficulty, execution, artistry, penalty* gimnastika va akrobatikada asosiy baholash komponentlari.

- **Jihoz va makon terminlari:** *beam, bars, vault, track, trampoline* murakkab sport turlarining semantik tizimida muhim mikrokategoriya.

Semantik tahlil

2. Polisemantik birliklar. Murakkab sport terminlarida ko'p ma'nolilik keng tarqalgan:

- **Routine:** mashq majmuasi, musobaqa chiqishi, texnik kombinatsiya.

- **Set:** Kombinatsiya, mashqlar takrorlovi, musobaqaning bo'lagi.

Bu atamalarining kontekstsiz talqini ko'p ma'noliligi sababli qiyin bo'lib, semantik disambiguatsiya talab etadi.

3. Terminlarning semantik motivatsiyasi. Metaforik asosga ega terminlar:

- **lunge** ("sakrash") – aslida qilichbozlikdan olingan.
- **plank** – taxtaga o'xshash tekis holat.
- **butterfly twist** – harakat shakli kapalak qanoti harakatidan metaforik olingan.

Zamonaviy yondashuvlar:

1. Kompyuter lingvistikasi asosida sport terminlarini avtomatik tahlil qilish. Asoslari:

- Sport korpuslari yaratish (gimnastika, triatlon, akrobatika matnlari).
- Semantik tarmoqlar (Word2Vec, BERT asosida).
- Terminlar avtomatik aniqlanishi (Named Entity Recognition).

- Harakat nomlarini video-analiz asosida avtomatik yorliqlash (pose detection + lingvistik semantika).

2. Korpus lingvistikasida qo'llash. Murakkab sport turlarida harakatlar nomlanishi ko'pligi sababli, korpus yondashuvi terminlar chastotasini, variantlarining qo'llanish darajasini va semantik yaqinlikni aniqlashda muhim.

3. Terminologik standartlashtirish:

- O'zbekiston sport federatsiyalari asosida terminlar yagona lug'atga kiritilishi.
- O'zbekcha ekvivalentlar yaratishda semantik moslikni ta'minlash.

Xalqaro reglamentlarga mos termin birikmalari: **"artistic gymnastics difficulty table" → "badiiy gimnastika murakkablik jadvali".**

Murakkab sport turlari terminlarining leksik-semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu terminlar o'zida ko'p qirrali semantik kategoriyalarni mujassam etadi. Ular struktura, mazmun, qo'llanish sohasi va tarixiy manbalari jihatidan murakkab bo'lib, ko'plab tillardan o'zlashgan birliklardan tashkil topadi. Zamonaviy kompyuter lingvistikasining rivojlanishi ushbu terminlarni avtomatik qayta ishlash, ulardan o'quv jarayonida foydalanish va terminologik standartlar yaratishga imkon bermoqda. Murakkab sport turlari terminologiyasini chuqur o'rganish sport ta'limi, sport jurnalistikasi, tarjimashunoslik, lingvokulturologiya va terminologiya fanlarining rivojiga xizmat qiladi.

Murakkab sport turlari terminologiyasi lingvistik va pedagogik jihatdan muhimdir. Korpus lingvistikasi terminlarning qo'llanish chastotasi va semantik dinamikasini aniqlashda samarali vosita. Tadqiqot natijalari murakkab sport turlari terminologiyasini mukammallashtirish, lug'atlar tuzishda yangi yondashuvlar ishlab chiqish va sport ta'limi hamda tarjimada terminlardan to'g'ri foydalanish uchun ilmiy asos yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Bauer L. Compounding in the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018.
2. Kövecses Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. – Oxford: Oxford University Press, 2015.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago University of Chicago Press, 2003.
4. Larson R. Sport Linguistics: Terminology and Discourse Analysis. – London: Routledge, 2017.
5. Matsumoto K. Linguistic Dynamics in Winter Sports Terminology. – Tokyo University Press, 2020.
6. Oxford Sports Dictionary. Winter and Extreme Sports Terms. – Oxford: Oxford University Press, 2019.
7. Sport Corpus Data. Sports Terminology Frequency Report 2020–2024. International Language Analytics Center, 2024.

Bahora SADIKOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti roman-german tillari fakulteti
ispan va italyan filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

ITALYAN TILIDA ANTONIMLARNING LINGVOSEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada antonimlarning tipologiyasi, semantik mexanizmlari, morfologik qarama-qarshiliklari, taqsimot xatti-harakati va madaniy tasvirlari tizimli ravishda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, italyan antonimlari axloq, ijtimoiy ierarxiya va O'rtayer dengizi dunyoqarashi kabi madaniy dixotomiyalarga chuqur singib ketgan.

Kalit so'zlar: antonim, kognitiv-semantik mexanizm, leksik birlik, morfologik birlik, morfologik antonim, kontseptual metafora.

Annotation. The article systematically examines the typology, semantic mechanisms, morphological contradictions, behavioral distribution, and cultural images of antonyms. The research results show that Italian antonyms have deeply penetrated cultural dichotomies such as morality, social hierarchy, and Mediterranean worldview.

Keywords: antonym, cognitive-semantic mechanism, lexical unit, morphological unit, morphological antonym, conceptual metaphor.

Аннотация. В статье систематически рассматриваются типология, семантические механизмы, морфологические противоречия, поведенческое распределение и культурные образы антонимов. Результаты исследования показывают, что итальянские антонимы глубоко проникли в такие культурные дихотомии, как мораль, социальная иерархия и средиземноморское мировоззрение.

Ключевые слова: антоним, когнитивно-семантический механизм, лексическая единица, морфологическая единица, морфологический антоним, концептуальная метафора.

Antonimiya universal lingvistik kategoriya bo'lsa-da, uning amalga oshirilishi madaniy, tarixiy va strukturaviy omillarga qarab tillarda farq qiladi. Italiya tilshunosligida antonimlar (antòni, opposti di significato) leksikonning muhim tarkibiy qismlari sifatida qaraladi va matn uyg'unligi, qarama-qarshi ritorika, metaforik fikrlash va baholash semantikasiga hissa qo'shadi [1: 25].

Ushbu tadqiqotning asosiy g'oyasi shundan iboratki, antonimiya shunchaki leksik munosabat emas, balki alto/basso, bene/male, chiaro/scuro, giusto/sbagliato kabi qarama-qarshi o'qlar bo'ylab voqelikni tashkil etishga xizmat qiluvchi kognitiv-semantik mexanizmdir. Bu qarama-qarshiliklar nafaqat semantik xususiyatlarni, balki italyan ongiga xos bo'lgan madaniy yo'nalishlar va qadriyatlarni ham aks ettiradi [2: 30].

Kruz antonimiyani "bir xil grammatik sinfga mansub leksik birliklar orasidagi ikkilik kontrast munosabati" [3: 86] deb ta'riflaydi. Lyons (1977) antonimlar "o'lchovli semantik o'lchov" ga ega bo'lishi kerakligini, ya'ni ularni mazmunli taqqoslash mumkinligini qo'shimcha qiladi [4: 95]. Italiya tilshunosligida De Mauro (2016) uchta mezonni ta'kidlaydi: 1. Semantik qarama-qarshilik. 2. Sintaktik va morfologik o'xshashlik. 3. Parallel kontekstlarda almashtirish [5: 98]. Masalan: *caldo* – *freddo*, *forte* – *debole*, *pieno* – *vuoto*. Bu antonimlar semantik miqyosda quyidagi pozitsiyalarni egallaydi: *largo* – *stretto*, *alto* – *basso*. Ular oraliq qiymatlarga ruxsat beradi (abbastanza *caldo*, molto *lento*). Kruz skalyar antonimlar "eng kognitiv jihatdan sezilarli tur"ni ifodalashini ta'kidlaydi [6: 34]. Oraliq holatlarsiz ikkilik qarama-qarshiliklar: *vivo* – *morto*, *vero* – *falso*, *interno* – *esterno*. Bular huquqiy, tibbiy va mantiqiy munozaralarda keng tarqalgan. O'zaro bog'liq rollarni aks ettirilgan: *prestare* – *prendere in prestito*, *padre* – *figlio*, *comprare* – *vendere*. Bu juftliklar Italiya madaniyatida ijtimoiy va ierarxik munosabatlarni namoyish etadi [7: 155].

Italyan tilida bir nechta morfologik birliklar qo'llaniladi: *possibile* – *impossibile*, *normale* – *anormale*, *regolare* –

irregolare. Thornton italyancha so'z yasash samaradorligining asosiy dalili sifatida morfologik antonimlarni ta'kidlaydi [8: 56]. Italyancha antonimlar ko'pincha qiymatga boy qarama-qarshiliklarni kodlaydi: *bene* – *male*, (*yaxshilik* – *yomonlik*), *giusto* – *sbagliato* (*to'g'ri* – *noto'g'ri*). Bu juftliklar madaniy jihatdan shartlangan bo'lib, xristian axloqi va O'rta yer dengizi axloqiga asoslangan [9: 120].

Italyan tilida antonimlar ko'pincha birga uchraydi: *nel bene e nel male*, *di notte o di giorno*, *giovani e vecchi*. Bu "birgalikda tanlash tendentsiyasi" deb ataladi [3: 76]. Italyancha kontseptual metaforalarni yaratish uchun antonimlardan foydalanadi: *alto/basso* → *social hierarchy* (*alto rango*, *basso livello*), *chiaro/scuro* → *morality & transparency*, *pieno/vuoto* → *emotion* (*un vuoto nel cuore*). Lakoff va Jonson "bunday qarama-qarshiliklar bilishning qanday tuzilganligini ko'rsatadi" [8: 98] deb ta'kidlaydilar. Ko'pgina maqollar ikkilik kontrastga tayanadi: *Tra il dire e il fare c'è di mezzo il mare*. *Chi è dentro vuole uscire, chi è fuori vuole entrare*. *Senza il male non si conosce il bene*.

Lapuchchi fikriga ko'ra, maqollardagi qarama-qarshilik tuzilmalari italyan xalq psixologiyasini kodlaydi [2: 67]. Italyan tili axloqiy hukmni ifodalash uchun axloqiy antonimlarga tayanadi: *onesto* – *disonesto*, *puro* – *impuro*. Qarama-qarshi juftliklar ijtimoiy mavqeini aks ettiradi: *alto* – *basso*, *ricco* – *povero*. O'rtayer dengizi madaniyatlarida quyidagi kabi qarama-qarshiliklarni ta'kidlaydi: *fortuna* – *sfortuna*, *gioia* – *dolore*. Bu qarama-qarshiliklar italyancha nutqqa xos bo'lgan hissiy ekspressivlikni namoyish etadi [9: 89].

Italyancha antonimiya lingvistik, kognitiv va madaniy omillarning o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Qarama-qarshi tuzilmalar italyan dunyoqarashiga xos bo'lgan axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy naqshlar va kognitiv kontseptualizatsiyalarni ochib beradi. Antonimlar fikrni tartibga solish, ritorik kontrast yaratish va baholash ma'nolarini ifodalash uchun asosiy semantik vosita vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Serianni L. Italiano. Grammatica, sintassi, dubbi. – Milano: Garzanti, 1997.
2. Lapucci C. Dizionario dei proverbi italiani. – Milano: Mondadori, 2007.
3. Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
4. Lyons J. Semantics (Vol. 1–2). – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
5. De Mauro T. Il dizionario della lingua italiana. – Milano: Garzanti, 2016.
6. Dardano M., Trifone P. La lingua italiana. – Bologna: Zanichelli, 1997.
7. Thornton A.M. Word Formation in Italian. – Berlin: De Gruyter, 2004.

8. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
9. Rossi M. Lingua, Cultura e Cognizione nel Mediterraneo. – Florenzia: Firenze University Press, 2014.
10. Rainer F., Grossmann M. Linguistica italiana. Bologna: il Mulino, 2019.
11. Voghera M. Aspetti semantici del lessico italiano. – Roma: Carocci, 2017.

Jamoliddin TEMIROV,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

MAXMURNING “QISSAYI QISHLOQI XAROBI HAPALAK” SHE'RI TAHLILI

Annotatsiya. Qo'qon adabiy muhitining zabardast ijodkori Maxmud Mulla Shermuhammad o'g'li Maxmur she'riyati, ularda ifodalangan davr ijtimoiy voqeligining badiiy talqini masalasi hunuzgacha o'z ilmiy yechimini topgan emas. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada shoirning ijtimoiy hayot tasvirlangan “Hapalak” she'ri mustaqil yondashuv asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: “Hapalak”, davr va zamon, ramziy obraz, achchiq kulgu, majoz, xarob, satira, ijtimoiy hayot.

Annotation. The poetry of the outstanding creator of the Kokand literary environment, Mahmud Mulla Shermuhammad ugli Makhmur, and the artistic interpretation of the social reality of that time expressed in it, have not yet received their scientific solution. From this perspective, this article presents an independent, well-founded analysis of the poet's poem “Hapalak”, which depicts social life.

Keywords: “Hapalak”, era and time, symbolic image, satirical laughter, metaphor, ruin, satire, social life.

Аннотация. Поэзия выдающегося творца кокандской литературной среды Махмуда Муллы Шермухаммеда углы Махмура и выраженная в ней художественная интерпретация общественной действительности того времени до сих пор не получили своего научного решения. С этой точки зрения в данной статье представлен самостоятельный, обоснованный анализ поэмы поэта «Хапалак», описывающей общественную жизнь.

Ключевые слова: «Хапалак», эпоха и время, символический образ, сатирический смех, метафора, руины, сатира, общественная жизнь.

Ona yurt go'zalligini, o'ziga xosliklarini har bir ijodkor o'z qarashidan kelib chiqib kashf qiladi va o'zi bilgan dunyo orqali bu narsalarni o'z ijodida yoritishga intiladi. Shunga ko'ra, qaysi bir ijodkor o'z she'rlarida oddiy tikan vositasida o'zgachalikni, go'zallikni ifodalasa, boshqa bir ijodkorlar, Maxmur kabilar qora ranglar orqali o'quvchiga oqlikni, soflikni, Vatanga bo'lgan muhabbatni yetkazishga harakat qiladi hamda bu ijodiy namunalar davr va zamon holatidan kelib chiqishi hech kimga sir emas. Qo'qon adabiy muhitida ijod qilgan shoirlar ham bu jarayonlardan ichida qaynashgan. Bu davrning o'ziga xususiyatlaridan biri ijodkorlar achchiq kulgu vositasida Vatanning ayanchli tasvirini, asl holatini ko'rsatishda keng foydalanishgan. Vatan, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni bor bo'yicha ko'rsatish, tasvirlash ijodkordan juda katta jasoratni talab qilgan. Asl voqelikni berishga harakat qilganlar esa bu yo'lda majozdan keng foydalanishgan. Majozning yuksak namunasini davr muhitidagi Gulxaniyning “Zarbulmasal” ida ko'rishimiz mumkin. Gulxaniy Yodgor po'stindo'z, Xolboqi misgar, Zokirboy kafshfurush kabi insonlarning Tuya, Sangpush, Chayon singari hayvon va hasharotlar timsollarida berilishi va ramziy obrazlarning tilida xalq tilida mashur bo'lgan maqol, ifodaviy birliklarning o'ziga xosda berilishi majozning eng yuksak namunasini yuzaga keltirgan. Asarda berilgan har bir voqea-hodisa, masalning “Zarbulmasal”da o'z yuki bor.

Asardagi bosh g'oyani adabiyotshunoslar “yolg'iz Farg'ona viloyatida emas (!), umuman Movarounnahrda vayronagarchilikning hukmronligini ko'rsatish va uni fosh etish” [1: 204] deb aytib keladilar. Gulxaniy, Maxmur singari ijodkorlar Vatan, vatanparvarlikni ifodalashda, bu so'zlarga juda kam miqdorda murojaat qilishgan. Ijodkorlar asl inja tuyg'ular qalbdan bo'ladi degan qoidalarga amal qilishganday, go'yo. Maxmur vatan taqdiriga befarq bo'lmagan inson sifatida, mamlakat aholisining kechirayotgan azob-uqubatli hayotini, mamlakat taqdiriga, insonlarning taqdiriga bepisandlik bilan qaragan xonlikka, xalqning mashaqqatli turmushini tasvirlashda ancha qayg'u chekkani sir emas.

Maxmur ham davr adabiy muhitidagi ustozlari, zamondoshlari izidan borib Vatanga bo'lgan hisslarini asosan,

qora tasvirlar orqali berishga intilgan. Bu jihatdan, Maxmur Hapalak ahliga atab yozgan she'ri alohida xarakterlidir. Zero, bizningcha, Hapalak Vatan ichidagi Vatan bo'lib, undagi g'am-hasratlar ruhan ijodkorni ezib yuborgan va Maxmur bu dardlarni she'rida tasvirlashga, Vatanning boshidagi bu ko'rguliklarni yoritishga harakat qilgan. To'liq nomi “Dar sifati qishloqi Hapalak ba mahdum Maxmur taalluq yofta” (Maxmur mahdum aloqador bo'lgan Hapalak qishlog'ining sifati) bo'lgan she'ri an'anaviy yo'lda murojaat bilan boshlanib, “Jahondori zafar” ya'ni, ulkan g'alabalarning g'olibi, jahonni egallagan shaxsga, Amir Umarxonga atab yozadi. U taqdirning, “davri falak” ning yorug'ligi, ziyosi ekanligini qayd etadi. Bir so'z bilan aytganda, amirga maqtovlar yog'diradi. Ikkinchi satrdan esa, birdan xarob Hapalakning qissasiga quloq sol deb, maqtaluvchi shaxsga keskin murojaat qiladi. Maxmurga xos bo'lgan kuchli satira aynan shu she'rida juda maromiga yetgani e'tiborlidir. Amir nafaqat davrning, balki ayni lahzada, “taqdir”ning ziyosi bo'lsa ham, uning hukmronligi ostidagi xarob Hapalak qishlog'i asli amirning bir xasta, nochor, buzuk holatda ekanligiga ishora qilgan:

Ey jahondori zafar kavkabai davri falak,

Go'sh qil qissayi qishloqi xarobi Hapalak [2: 49].

Qishloqdagi ayanchli ko'rinishni ko'rsatib berish uchun shoir odamlar qolib, parrandalarning tasviriga urg'u qaratadi. Turfa qishloq parrandalari g'azabga minganligini, va buning sababi qishloqdagi, amirlikdagi ochlik, yo'qchilik ekanligini nazarda tutgan holda, tovug'i ignachi, o'rdak va g'ozlari kapalak kabi bo'lib qolganligini qayd etadi:

Turfa qishloqi g'azab karda ki parrandalari,

Tovuqi ignachi-yu, o'rdagu g'ozi kapalak.

Hapalak qishlog'ining yana bir qiyofasini uylarning qay darajada “hashamatli” ekanligini va bu uylar ko'rshapalaklarning makon tutgan manzilligini tasvirlash orqali quyidagicha yozadi:

Dema uy, balki zaminkandir, agar kirsas kishi,

Har taraf betiga urgaylar aning ko'rshapalak.

Boru yo'q uylarini banda bayon gar qilsam,

Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak.

Keyingi bandda esa shoir va nihoyat qishloq ahlining tasvirini gavdalandiradi. Parrandalari o'lar holatda bo'lgan qishloqdagi odamlar ham ulardan nari-beri hayot tarziga egaligi, qiyinchilik xalqni qiynab, och-nahor kun kechirayotganini va to'g'ridan to'g'ri bularning sababi ochlik ekanligini yozadi:

Xalqini ko'rsang agar o'las-yu, qoqu-xarob,

Ochlikdan egilib qomati misli kamalak.

Navbatdagi bandda yuqoridagilarni dalillash uchun turli-tuman o't, ajriqning tomiridan tayyorlab yeydigan qishloq aholisi tasviri beriladi, achinarli holatni ushbu satrlardan anglash mumkinki, xalq-ki o't yeyib kechirayotgan ekan, bunday qishloqning, Vatanning parrandalari hasharot bo'lishi notabiiy emasdek:

Ajirig' tomirini o'g'urida mayda tuyub,

Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak.

Tilla solig'i haqidagi band oldidan qiziq satrlarga duch kelishimiz mumkin. Bu qishloqning aholisi ancha taqvodor, diniy amallarni qilib yuradigan pok insonlar ekanligini, lekin ayni lahzada, qishloqda hatto, oddiy bir yuz-qo'lni yuvish uchun suv yetishmasligi, va bu ko'p ehtimol aynan shu narsa muammolarning ildizi ekanligini, xalq nochorligining asl sababi ekanligini anglash mumkin:

Gar tohorat qisa qovmi suv topolmay nochor,

Betini qum bila yub (ko'zi) ga surgay guvalak...

Shoir suv muammosini Qurama haqida yozilgan she'rida ham qayd etib o'tganligidan suvning taqchilligini tushunib olish mumkin.

Turfa shahriki, aning sarsari monandi samum,

Kuydirib shiddati sarmosi xaloyiqni chu mum,

Har taraf anda olib xayli balo, favji hujum,

Suvi zahrobayi g'am, chashmalari ayni zaqqum,

Hosili mahsuli ofoti baqoyi Qurama [3: 64].

"Hapalak" she'rining tilla solig'i haqidagi davomida shoir yana amirni ko'klarga ko'taradi, "adolatning shiyami" bo'lgan podshoh Hapalak ahliga marhamat qilishidan umid qiladi:

Ey falak qadri adolat shiyamu mulki malak,

Marhamat chog'ida rahm ayla ba holi Hapalak.

Kechagina tilla solig'ini eshitgan xalqning holatini ifodalash uchun xalq orasidagi *kapalagi uchmoq* iborasini qo'llagan shoir, yuqorida qo'llangan kapalak obrazini bejiz kiritmaganini tushunib olish mumkin, ya'ni "devorda osilib turgan miltiq oxirida otilgan" edi:

Kecha go'yo eshitib shuhrati tilla pulini,

Hapalak qo'rqusidan uchdi misoli kapalak.

Hapalak xalqining dardini yoritish maqsadida yozilgan ushbu she'rda birdan bir chora amirning himmati, karomati ila kapalak yana o'z joyiga qo'nishini, hayot yana o'z tarziga qaytishini istaganicha (yana och-nahor, suvsiz holatiga degan ma'no yashiringan bo'lishi ham mumkin, chunki Maxmur tilla solig'ini bekor qilishi uchun oxirgi satrlarni yozganligini tushunish mumkin) yakun yasaydi:

Himmating yo'lida bir tepa karomat qilgin,

Kapalak boz qo'nib joyiga bo'lgay Hapalak.

Xulosa qilsak, she'r Qo'qon xonligidagi ijtimoiy hayotni, xonlar va beklar e'tiborsizligidan ezilgan aholining og'ir ahvolini, voqelikni tasvirlash orqali xonlikdagi real jarayonlarni, qiyinchiliklarni aniq va yorqin ranglarda ifodalaydi va muallif Vatani taqdiri uchun kuyunuvchi chin xalqparvar shoir ekanini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. – Toshkent, 1961.
2. Maxmur devoni, varaq, 49 a. (Ushbu devonni 1950-yil Po'latjon Qayumov va Charxiy (Asqarali Xamroaliyev) Qo'qon shahridan topgan).
3. 3. Maxmur devoni, varaq, 64-bet. (Ushbu devonni 1950-yil Po'latjon Qayumov va Charxiy (Asqarali Xamroaliyev) Qo'qon shahridan topgan).

Umida IMOMOVA,

*Termiz davlat universiteti roman-german tillari kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Interfaol metodlar, raqamli ta'lim platformalari, autentik matnlardan foydalanish, loyiha asosida o'qitish, multimedia vositalari, madaniyatlararo muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar kabi samarali usullar ilmiy-nazariy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologik kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, integrativ yondashuv, autentik materiallar, raqamli resurslar, interfaol metodlar.

Annotattion. This article analyzes modern pedagogical approaches aimed at forming linguocultural competence. Effective methods such as interactive methods, digital educational platforms, using authentic texts, project-based learning, multimedia tools, and tasks aimed at intercultural communication are highlighted on a scientific and theoretical basis.

Keywords: linguocultural competence, intercultural communication, integrative approach, authentic materials, digital resources, interactive methods.

Аннотация. В данной статье анализируются современные педагогические подходы, направленные на формирование лингвокультурологической компетенции. На научно-теоретической основе освещаются такие эффективные методы, как интерактивные методы, цифровые образовательные платформы, использование аутентичных текстов, проектное обучение, мультимедийные средства, задания, направленные на межкультурную коммуникацию.

Ключевые слова: лингвокультурная компетенция, межкультурная коммуникация, интегративный подход, аутентичные материалы, цифровые ресурсы, интерактивные методы.

Global kommunikatsiya, madaniyatlararo hamkorlik va raqamli axborot makonining kengayishi zamonaviy ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, xorijiy tilni o'qitish jarayonida o'quvchilarning lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirishga muhim pedagogik maqsad sifatida qaralmoqda. Lingvokulturologik kompetensiya – o'quvchining til birliklarini faqat grammatik qurilmalar sifatida emas, balki muayyan xalqning madaniy qadriyatlari, mentaliteti, ijtimoiy me'yorlari va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi hodisa sifatida anglay olish va muloqot jarayonida ular bilan ongli ravishda ishlay olish qobiliyatidir.

Zamonaviy metodlar til va madaniyatning uzviy bog'liq ekanligini e'tirof etgan holda, madaniy kontekstdagi kommunikatsiyani o'qitishning yangi shakllarini taklif qilmoqda. Lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish bugungi kunda xorijiy til ta'limining dolzarb yo'nalishiga aylangan bo'lib, u o'quvchilarning tilni faqat grammatik va leksik jihatdan emas, balki madaniy kontekstda to'g'ri idrok etish va qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Globallashuvning kuchayishi, ta'limning raqamli va interaktiv formatlarga o'tishi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi ushbu kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan metodlarni takomillashtirishni talab etmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar aynan til va madaniyat integratsiyasiga asoslanadi, shu bois lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirish ko'p qatlamli, tizimli va interaktiv jarayon sifatida qoraladi [3: 150].

Multimedia va raqamli platformalar asosidagi yondashuv.

Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini vizual, dinamika va interaktivlik bilan boyitadi. Virtual muzeylar, raqamli atlaslar, to'liq immersiv videolar va madaniy kontentga ega platformalar o'quvchiga o'rganilayotgan xalqning madaniy hayoti bilan bevosita tanishish imkonini beradi. Onlayn almashinuv, lingvochat va tandem platformalari esa o'quvchilarning boshqa madaniyat vakillari bilan jonli muloqotga kirishishini ta'minlaydi. Bu esa real kommunikativ vaziyatda madaniy kodlarni qo'llashga, kommunikativ strategiyalarni moslashtirishga va ijtimoiy sezgirlikni shakllantirishga imkon yaratadi.

Autentik materiallar orqali o'qitish. Lingvokulturologik kompetensiya shakllanishida autentik materiallar asosiy rol o'ynaydi, chunki ular real madaniy muhitni aks ettiradi. Filmlar, intervyular, podkastlar, internet bloglari, ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar o'quvchi uchun tabiiy kommunikativ vaziyatlarni namoyon etadi [1: 318].

CLIL texnologiyasi (fan va til integratsiyasi). CLIL modeli lingvokulturologik kompetensiyani chuqur shakllantirishga xizmat qiladi, chunki u tilni o'rganishni mazmun bilan bog'laydi. Tarix, sotsiologiya, geografiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar bo'yicha mavzularni chet tilida o'rganish o'quvchiga madaniyatning ilmiy asoslarini tushunish imkonini beradi. CLIL darslarida o'quvchilar madaniyatlararo farqlarni ilmiy tahlil qiladi, madaniy fenomenlarning kelib chiqishi, rivoji va

zamonaviy talqinlari haqida fikr yuritadilar. Bu esa tanqidiy tafakkurni, konseptual o'zlashtirishni va madaniyatni tizimli anglashni ta'minlaydi.

Loyiha asosida ta'lim. Loyiha ishlari lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirishda eng samarali amaliy metodlardan biridir. "Madaniyat haftaligi", "Til va madaniyat", "Milliy bayramlar taqqoslanishi", "Madaniy artefaktlar xaritasi", "Xorijiy davlatlar tarixi va urf-odatlari" kabi loyihalar o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borish, ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Loyihalar jarayonida o'quvchilar real madaniy obyektlar, tarixiy manbalar, vizual materiallar bilan ishlaydi. Bu jarayon madaniy ongini, ijodiy fikrni va madaniy sezgirlikni kuchaytiradi [4: 571].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirishda multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning madaniy bilimni vizual idrok etish qobiliyatini kuchaytiradi va muloqot jarayoniga jalb etilishini oshiradi. Autentik materiallar esa lingvokulturologik hodisalarning tabiiy kontekstda chuqur o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Madaniyatlararo kommunikatsiyaga yo'naltirilgan topshiriqlar o'quvchilarda empatiya, tolerantlik va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirgan bo'lsa, CLIL texnologiyasi ilmiy va madaniy konseptsialarni birgalikda o'zlashtirish imkonini berdi. Loyihaviy faoliyat o'quvchilarning ijodiy tafakkurini, madaniy ongini va tahliliy ko'nikmalarini sezilarli darajada kuchaytirganligi aniqlandi.

Olingan natijalar zamonaviy metodlarning lingvokulturologik ta'limda o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanishi eng samarali natijalar berishini ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar o'quvchini madaniyatga bevosita yaqinlashtirsa, autentik materiallar bu madaniyatning tabiiy qatlamlarini o'z aksida namoyon etadi. Madaniyatlararo muloqotga asoslangan topshiriqlar o'quvchini interaktiv faol ishtirokchiga aylantiradi. CLIL esa madaniy bilimlarning ilmiy asosda shakllanishiga xizmat qiladi. Bu metodlarning har biri alohida samarali bo'lsa-da, ular birgalikda qo'llanilganda lingvokulturologik kompetensiyani kompleks shakllanishiga, o'quvchilarning real kommunikativ sharoitga tayyorlanishiga va madaniyatlararo jarayonlarda faol ishtirok etishiga yanada keng imkoniyat yaratadi.

Lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish zamonaviy xorijiy til ta'limi uchun ustuvor yo'nalishlardan biridir. Tadqiqot asosida shuni ta'kidlash mumkinki, multimedia vositalari, autentik materiallar, madaniyatlararo muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar, CLIL texnologiyasi va loyihaviy yondashuv ushbu kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali metodlari sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur yondashuvlar nafaqat til o'rgatadi, balki o'quvchilarni global dunyoda samarali muloqot qila oladigan, madaniy farqlarni tushunadigan va ularga moslasha oladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atayev Sh.A. Chet til mashg'ulotlarida o'qishning lingvokulturologik xususiyatlariga doir mulohazalar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, Vol.2, Issue 20. – P. 315–319.
2. Nabiyeva D. Boshlang'ich ta'limda chet tili o'rgatish kompetensiyalar. Academic research in educational sciences, 2021, 2 (6). – P. 125–130.
3. Хабибуллаева Г. Лексик kompetensiyani shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning o'рни va ahamiyati // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 2025, 1(1). – С. 149–151.
4. Xaqqulova D. Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda ona tili fanining o'quv dasturi tahlili // Икпо, 15(02). – P. 572–574.

Akbar RUZIYEV,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “SOTSIOPRAGMATIKA” TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Annotasiya. Maqolada “sotsiopragmatika” tushunchasi va uning zamonaviy tilshunoslikdagi o'рни tahlil qilinadi. Sotsiopragmatika sotsiolingvistika va pragmatikaning integratsiyasi sifatida ko'rib, tilning jamiyatdagi ijtimoiy vazifalari, turli kontekstlarda verbal va nonverbal birliklarning qo'llanilishi, shuningdek, til vositalarining ijtimoiy kontekstga mos ishlatilishi masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: sotsiopragmatika, sotsiolingvistika, semiotika, pragmatika, pragmlingvistika, implikatsiya, verbal va nonverbal.

Annotation. The article analyzes the concept of “sociopragmatics” and its place in modern linguistics. Sociopragmatics is considered as the integration of sociolinguistics and pragmatics, illuminating the social functions of language in society, the use of verbal and nonverbal units in various contexts, and the use of linguistic means in accordance with the social context.

Keywords: sociopragmatics, sociolinguistics, semiotics, pragmatics, pragmlinguistics, implication, verbal and nonverbal.

Аннотация. В статье анализируется понятие «социопрагматика» и его место в современной лингвистике. Социопрагматика рассматривается как интеграция социолингвистики и прагматики, освещающая социальные функции языка в обществе, использование вербальных и невербальных единиц в различных контекстах, а также использование языковых средств в соответствии с социальным контекстом.

Ключевые слова: социопрагматика, социолингвистика, семиотика, прагматика, прагмалингвистика, импликация, вербальное и невербальное.

Bugungi kunda pragmatika ko'plab yo'nalishlarni qamrab oladi, shu jumladan sotsiolingvistika, nutqni tahlil qilish, suhbatni tahlil qilish va madaniyatlararo aloqa va boshqalar. Bu yo'nalish implikatsiya, taxmin va nutq harakatlarini o'rganish bilan cheklanib qolmaydi, bu mavzular xali ham tadqiqotning muhim yo'nalishlari bo'lib qolmoqda. Zamonaviy sotsiopragmatikaning asoslari Geoffrey Leech va Jenny Thomas asarlarida keltirib o'tilgan. Zamonaviy tilshunoslikning bu yo'nalishi XX asrning oxirgi choragidan boshlab tahlil etib kelinmoqda.

Til – nafaqat muloqot vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ajralmas bir qismi. Til o'z egalarining ijtimoiy maqomi, madaniy qadriyatlarini, tarixiy tajribasi va psixologik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Tilshunoslikda ushbu o'zaro bog'liqlikni o'rganishga yo'naltirilgan ko'plab yo'nalishlar mavjud bo'lib, shulardan biri – sotsiopragmatikadir. Sotsiopragmatika atamasi ilk bor 1980-yillarda tilshunoslar tomonidan pragmatikaning ijtimoiy o'lchovlarini tahlil qilish zarurati natijasida ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur soha pragmlingvistika bilan sotsiolingvistikaning kesishgan nuqtasida shakllanadi. Agar pragmatika tilning vaziyatga bog'liq ma'no va maqsadlarini o'rgansa, sotsiopragmatika bu maqsadlarning ijtimoiy kontekstda qanday shakllanishi va qanday tushunilishini o'rganadi. Sotsiopragmatikaning mohiyati nutq aktlari va til vositalarining ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishi va qanday talqin qilinishini o'rganishda namoyon bo'ladi. Masalan, biror kishidan yordam so'rash, rad etish, uzr so'rash, tanbeh berish yoki tan olgan kabi pragmatik faoliyatlar turli jamiyatlarda turli usullar bilan amalga oshiriladi. Bu farqlar, odatda, madaniyat, jins, yosh, ijtimoiy status, rasmiylik darajasi kabi omillar bilan belgilanadi. Ana shu omillarni hisobga olgan holda tahlil qilish sotsiopragmatikaning vazifasidir.

Sotsiopragmatikaning shakllanishi G.Leech, G.Casper, P.Braun, S.Levinson, kabi tilshunos olimlar nomi bilan bog'liq. P.Brown va S.Levinson 1987-yilda nashr etishgan xushmuomalalik (hurmat) tamoyiliga bag'ishlangan maxsus risolada “Sotsiolingvistika pragmatikaga tadbiq etilishi lozim” degan shiorni olga surishdi [5:42–43]. Lisoning tizimli ravishda kontekst bilan bog'liqligini o'rganish pragmatikaning vazifasidir. Turli ijtimoiy maqomga ega bo'lgan shaxslarning turli vaziyatlarda ma'lum pragmatik manbalardan foydalanishi sotsiolingvistik tahlil uchun muhimdir. Kommunikantlar muloqot tizimida qanchalik muhim o'rinni egallamasin, bu

tizimning markazida kommunikantlarning ijtimoiy roli turadi. Muloqot ishtirokchilarining aynan shu xarakteristikasi nutqiy faoliyatning “qay darajada rivojlanishiga obyektiv va subyektiv ravishda o'z ta'sirini ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qiladi” [1: 70–72].

XX asr oxirlarida ilmiy izlanuvchilarning nutqiy faoliyatga nisbatan qiziqishi keskin darajada ortdi. Doimiy ravishda o'rganilgan an'anaviy paradigma (leksik va grammatik) dan antroposentrik paradigma (inson faktori)ga e'tibor kuchaydi. Natijada bu holat turli xil yo'nalishlar kesishuviga ya'ni pragmatika, sotsiolingvistika, pragmlingvistika, psixolingvistika kabi turli xil nazariyalar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Yangi paydo bo'lgan sotsiopragmatik yo'nalish, interaktiv nutqiy faoliyatning faqatgina lingvopragmatik xususiyatini emas, balki sotsial va sotsiomadaniy kontekstning umumiy o'ziga xosliklari bilan birgalikda tahlil qiladi. Mazkur yo'nalish ma'lum bir til jamiyati ichida lingvistik shakllar, pragmatik funksiyalar, shuningdek umumiy qabul qilingan muloqot normalarining bir-biriga bog'liqligini o'rganadi.

Sotsiopragmatika sotsiolingvistika va lingvopragmatikani sintez qilgan holda e'tiborini turli sotsiolingvistik kontekstlarni anglash uchun tildan to'g'ri foydalanishga qaratadi. Sotsiopragmatik bilimlar o'z ichiga lingvistik shakllardan to'g'ri foydalanish va nutqiy strategiyadan noto'g'ri foydalanganda yuzaga keladigan oqibatlarini o'rganadi. Sotsiopragmatik tahlil kooperatsiya (hamkorlik) tamoyili, xushmuomalalik (hurmat) nazariyasi, nutqiy aktlar nazariyasi, funksional, kommunikativ, leksik jihatdan yondashuvni o'z ichiga oladi.

O'zbek tilshunosi, Sh.Safarov quyidagi fikrlarni ham keltirib o'tadi: “Voqelik til tizimining barcha sathlarida, lisoniy faoliyatning turli bosqichlarida turlicha aks etadi. Voqelikning lisoniy aksi, nafaqat, insonning lisonda ifoda topadigan tajribasidan iborat, balki uning shaxsining muloqot jarayonidagi ifodasi hamdir. Har bir shaxsning muloqot jarayonidagi ishtiroki uning ijtimoiy mavqeiga, bajarayotgan vazifasi, egallagan o'rniga nisbatan kechadi. Demak, kommunikantlarning ijtimoiy mavqei va shaxsiy psixofiziologik xususiyatlari bilan bog'liq belgilarning muloqot jarayonidagi ifodasini o'rganish lison va voqelik munosabati muammosi ilmiy tahlil uchun muhimdir” [2: 157].

Sotsiopragmatikani o'rganishning dolzarbligi shundaki, u nafaqat tilni o'rganishni, balki ijtimoiy va madaniy kontekstni ham o'rganishni o'z ichiga oladi. Sotsiopragmatik ma'no ko'pincha kontekstga bog'liq bo'lib, turli madaniyatlar va

ijtimoiy guruhlarda farq qiladi. Masalan, xushmuomalalikni ifodalash va talqin qilish usuli madaniyatlarda turlicha bo'lib, bir madaniyatda qo'pol yoki odobsiz deb hisoblanishi mumkin bo'lgan narsa boshqasida juda maqbul bo'lishi mumkin.

Yana bir qiyinchilik shundaki, sotsiopragsmatika tildan foydalanishning aniq va yashirin jihatlarini o'z ichiga oladi. Ma'ruzachilar bilvosita yoki nazarda tutilgan nutq harakatlari orqali ma'noni yetkazishlari mumkin va tinglovchilar kontekstli ko'rsatmalar asosida mo'ljallangan ma'noni xulosa qilishlari kerak. Bu tilning sirtqi tuzilishiga qaratilgan an'anaviy lingvistik tahlil usullaridan foydalangan holda sotsiopragsmatikani o'rganishni qiyinlashtiradi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, sotsiopragsmatika jonli va muhim o'rganish sohasi bo'lib qolmoqda. Bu tilni o'qitish, madaniyatlarda muloqot va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun tildan foydalanish usullarini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, bu til va muloqotni har tomonlama o'rganishning muhim tarkibiy qismidir. Umuman olganda, sotsiopragsmatika rivojlanishda va kengayishda davom etadigan dinamik va fanlararo sohadir. Til, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni o'rganishda davom etar ekanmiz, tilning ma'noni yetkazish, ijtimoiy maqsadlarga erishish, munosabatlarni o'rnatish va saqlash usullarini chuqurroq tushunamiz. Pragsmatika o'zining keng doirasi va amaliy qo'llanilishi bilan kelgusi yillar davomida tadqiqot va o'rganishning muhim yo'nalishi bo'lib qolishi aniq. Sotsiopragsmatika – bu tilning ijtimoiy va pragsmatik o'lchamlarini o'rganadigan fan. Ushbu fan tildan foydalanish ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida qanday shakllanishini, tilning vazifalari nimada ekanligini va tildan foydalanish odamlar o'rtasidagi munosabatlarga qanday ta'sir

qilishini o'rganadi. Sotsiopragsmatika Geoffrey Leech qarashiga ko'ra quyidagicha talqin qilinadi. U 3 xil farqlanishni ta'kidlab o'tgan:

Umumiy pragsmatika: "tildan kommunikativ foydalanishning umumiy shartlari";

Sotsiopragsmatika: tildan foydalanish bilan bog'liq, aniqroq "lokal" vaziyatlar;

Pragsmalingvistika: "ma'lum bir til tomonidan taqdim etilgan ma'lum manbalar muayyan illokutsiyalarni yetkazish uchun" [6: 11].

Pragsmalingvistika va sotsiopragsmatika umumiy pragsmatikaning quyi kategoriyasi sifatida emas balki, uni maxsus aniq nutqiy vaziyatlar va misollar orqali to'ldiruvchi komponentlar hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida barcha olimlar ham sotsiopragsmatikani pragsmatik jihatdan tahlil qilishmagan. Masalan, Nevalainen and Raumolin-Brunberg va Nevala sotsiopragsmatikani sotsiolingvistik tomondan tahlil qilgan. Wood esa sotsiopragsmatikani tanqidiy diskurs tahlili tomonidan tahlil qilgan. Boshqacha qilib aytganda ular sotsial yo'nalgan til tahlilidan uzoqlashgan. Sotsiopragsmatika maxsus sotsial kontekst va so'zlovchining aniq nutqiga nisbatan ta'sirini o'rganadi. Bunda asosiy e'tibor o'sha vaziyatdagi kontekstga beriladi. Sotsiopragsmatika tilning ijtimoiy funksiyalarini tushunish uchun tildan foydalanishning ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstini o'rganadi. Tildan foydalanishga jamiyatning tarkibiy xususiyatlari, ijtimoiy sinf, jins, etnik kelib chiqishi, yoshi va boshqa omillar kabi ko'plab omillar ta'sir qiladi. Sotsiopragsmatika ushbu omillarni hisobga olgan holda tildan foydalanishni tahlil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mo'minov S., Rasulov Q. Kommunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida // Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari, 2007. – B. 70–72.
2. Safarov Sh. Pragsmalingvistika. – Toshkent, 2008.
3. Mengliyev B.R., Bahridinova B.M. O'quv lug'atlari. // Ma'rifat, 2013, №82.
4. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1985.
5. Brown P., Levinson S., Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 42–43.
6. Leech G. Principles of pragmatics. – London: Longman, 1983.

Farangiz ANVAROVA,

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

DEN BRAUN ROMANLARI TARJIMASIDAGI LEKSIK MUAMMOLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada Den Braun romanlarining o'zbek tiliga tarjimalari misolida badiiy tarjimada uchraydigan leksik muammolar tahlil qilinadi. Xususan, leksik ekvivalentlik, milliy-madaniy leksika, polisemantik so'zlar, terminlar hamda frazeologik birliklar tarjimasi bilan bog'liq masalalar yoritiladi. Tadqiqotda kontekst va madaniy omillarning tarjima jarayonidagi ahamiyati ochib berilib, mavjud muammolarga tarjimon topgan samarali yechimlar misollar asosida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, badiiy asar, leksik muammo, polisemantik so'z, frazeologik birlik.

Annotation. This article analyzes the lexical problems encountered in literary translation using the examples of Dan Brown's novels translated into Uzbek. In particular, issues related to lexical equivalence, national-cultural vocabulary, the translation of polysemous words, terms, and phraseological units are highlighted. The study reveals the significance of context and cultural factors in the translation process, and provides examples of effective solutions to existing problems found by the translator.

Keywords: translation, literary work, lexical problem, polysemous word, phraseological unit.

Аннотация. В данной статье на примере переводов романов Дэн Брауна на узбекский язык анализируются лексические проблемы, встречающиеся в художественном переводе. В частности, освещаются вопросы, связанные с лексической эквивалентностью, национально-культурной лексикой, переводом многозначных слов, терминов и фразеологических единиц. В исследовании раскрывается значение контекста и культурных факторов в процессе перевода, на примерах показаны эффективные решения существующих проблем, найденные переводчиком.

Ключевые слова: перевод, художественное произведение, лексическая проблема, многозначное слово, фразеологическая единица.

Tarjima – bir tildagi matnlar, leksik va frazeologik birliklarni yangi bir tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima

millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishlaridan biri. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar

orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki faoliyat hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Vaqt o'tib tarjimaga bo'lgan talablar asta-sekin yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmaydi.

Tarjimaning ko'lam va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga bog'liq va, o'z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi. "Tarjima" tushunchasi bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarni anglatadi. Tarjima sohasining eng gullagan davri XX asrga to'g'ri keladi. Ma'lumki, har qanday tarjima muayyan darajada ijodiy ish hisoblanadi. Badiiy asarlar tarjimasida esa alohida yondashuvni talab etishi, mahorat va san'atkorlikni taqozo qilishi jihatidan san'at iqlimidir. Buni o'zbek tarjimashunoslik fanining darg'asi G'aybullay Salomov shunday asoslaydi: "Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun boshqa tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab etadi. Bunday tarjima san'at darajasidagi tarjima asar sirasiga kiradi" [1: 27].


Tarjima jarayonidagi eng muhim jihat bu mazmun jihatdan o'xshashlikdir, ya'ni tarjima matni asliyat bilan bir xil mazmunni ifodalashi kerak. Manba matndan uzatilgan ma'lumot bilan tarjima matni orasida farq mavjudligi to'liq ma'lumot almashish imkoniyatini cheklaydi. Manba va tarjima matnlari orasidagi semantik bir xillik ma'no muqobillarining turli darajalariga asoslanadi. Tarjimon odatda asl manba

matnga yaqin birliklardan foydalanishga intiladi. Ushbu jarayonda tarjimon bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklardan biri leksik muammolar sanaladi. Bu muammolar tarjimonning so'zlarni to'g'ri tanlashi, ularning kontekstdagi ma'nosini anglab yetishi hamda tarjima tilidagi muqobilini topa olishiga bog'liq. Chunki har bir til o'ziga xos leksik birliklarga ega. Shu kabi muammolar aynan badiiy tarjima sohasida ham uchraydi.

Badiiy tarjimada asliyat va tarjima matnlari voqelik manzarasining ikki timsolidir. Bir tildan ikkinchi tilga o'girish lisoniy-fikriy qayta yaratish jarayonigina bo'lib qolmay, o'zaro muqoyasa qilinayotgan timsollarning, manzara va tasavvurlarning, hatto qahramonlar nutqining mohiyatiy-mantiqiy, milliy va uslubiy tavsifini, o'ziga xosligini saqlab qolish jarayoni ham hisoblanadi. Shu jihatdan tarjima lingvistik amalgina emas, madaniyatlararo o'ziga xos qiyosiy tahlil hamdir. Bu o'z-o'zidan notanish madaniyat unsurlari yoki tushunchalari guruhiga xos so'z va atamalarni tarjimada berishning eng maqbul usuli va vositasini tanlashni taqozo etadi. Zero, mutlaq muqobil, mutanosib tarjimaning bo'lishi ham qiyin. Tarjima aynanligi esa nisbiy tushuncha. Asliyat matni bilan tarjima matni o'rtasidagi lisoniy farqlar qiyoslanayotgan har ikki tilning barcha sathlar bo'yicha o'zaro muvofiq emasligi bilan belgilanadi. Ko'pincha bunday farqlar mazmun sathida emas, asosan ifoda shakli sathida anglashiladi. Ammo bu matn mazmuniy mundarijasi unsurlari bir-biriga aynan mos keladi, degani emas [2: 159–160].

Ayniqsa, mashhur amerikalik bestseller asarlar yozuvchi Den Braunning roman-trillerlari tarjimasida bu kabi leksik-semantik muammolar tarjimon tomonidan mohirona bartaraf etilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Leksik-semantik muammolar



Quyida tarjimaning leksik muammolari, ularga ta'riflar va bir qancha misollar keltirilgan:

Leksik ekvivalentlik muammosi. Ba'zan bir tildagi so'z boshqa bir tilda to'liq yoki to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmasligi mumkin. Bu holatda tarjimon kontekst asosida eng mos

variantni tanlashi lozim. Muqobillar ma'nosi ko'p hollarda kontekstga bog'liq bo'ladi, ammo lug'atga murojaat qilish ham muhimdir. Tarjimada so'z ma'nolarini taxminiy tarjima qilishga yo'l qo'yilmaydi. So'z va uning ma'nolarini tarjimon yaxshi bilishi yoki ularni lug'atdan topishi shart. Aks holda

tarjimon “tarjimonning soxta do‘stlari” tuzog‘iga tushishi muqarrar [3: 104].

Shu o‘rinda “tarjimonning soxta do‘stlari” nima ekaniga aniqlik kiritib o‘tsak. Misol uchun, “source language” ya‘ni asliyat tilidagi biror bir so‘zning transkripsiya usuli bilan qilingan tarjimasi “target language”, ya‘ni tarjima tilidagi boshqa bir so‘z bilan omonimlik xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *park* va *magazine* so‘zlari o‘zbek tilidagi *park* va *magazin* so‘zlari bilan qaysidir ma‘noda omonimlik xususiyatiga ega. Aslida esa bu so‘zlarning tarjimasi *mashinalar to‘xtash joyi* va *jurnaldir*.

Leksik ekvivalentlikka keladigan bo‘lsak, ingliz tilidagi semantik jihatdan neytral hisoblangan *matter* so‘zi turli kontekstlarda turlicha ma‘nolarni ifodalaydi va o‘zbek tiliga ham turlicha tarjima qilinadi: 1. *This matter is rarely found in nature – Bu modda tabiatda kam uchraydi*. 2. *It doesn’t matter for me which one to choose – Menga qaysini tanlashni farqi yoq*. 3. *A great deal of work was done on this matter – Ishning katta qismi shu masalaga bog‘liq*. Taniqli Amerika olimi, tarjimashunos va lingvisti Yu. Nayda tarjimada ekvivalentlik haqida gapirganda, uni nisbiy (formal) hamda dinamik ekvivalentliklarga ajratib ko‘rsatadi. Nisbiy ekvivalentlikda har bir so‘z doim unga muvofiq so‘z bilan tarjima etiladi, asliyat tilidagi gap bo‘laklari, nutq birliklari tarjima tilida o‘zgartirilmasdan o‘z holicha saqlanadi. Barcha idiomalar kalka qilinadi. Asliyatdan uzoqlashishlar izohlab boriladi. Dinamik ekvivalentlikda esa leksika va grammatika adaptatsiya qilinadi, matn o‘quvchiga tushunarli bo‘lishiga harakat qilinadi [3: 10].

Masalan, Den Brauning “Farishtalar va Iblislar” asarida keltirilgan “*But that’s the least of my problems, he thought*” gapi o‘zbek tiliga “*Lekin bu eng daxshatli emas, deb o‘yladi u*” tarzida tarjima qilingan. Bu aynan dinamik ekvivalentlikka misol bo‘ladi, ya‘ni tarjimada adekvatlikni saqlab qolish uchun butun bir sintaktik birlik – gap adaptatsiya qilingan: barcha leksik birliklar boshqasi bilan almashtirilgan va tasdiq mazmuni inkorga o‘zgartirilgan. Albatta, kontekst ma‘nosidan kelib chiqqan holda moslashtirilgan.

Milliy va madaniy leksikalar muammosi. Ba‘zi so‘zlar milliy yoki madaniy xususiyatlarga bog‘liq bo‘lib, boshqa tilda ularning aniq ekvivalenti mavjud bo‘lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, tarjimon yuzlashadigan eng qiyin muammolardan biri buyumlar yoki voqea-hodisalarning leksik ekvivalentini topishdir. Masalan, ingliz tilidagi *Thanksgiving* so‘zi o‘zbek tiliga *Minnatdorchilik kuni* deb tarjima qilinsa-da, bu bayramning madaniy mazmuni to‘liq aks ettirilmaydi. Bunday hollarda izohli tarjimalar va qo‘shimcha tushuntirishlar berish kerak bo‘ladi. Bir-biriga ekvivalent bo‘lib ko‘rinadigan so‘zlar aslida ekvivalent bo‘lmasliklari mumkin. Masalan, *cho‘chqa* so‘zi ma‘lum darajada salbiy bo‘yoqqa ega. Ammo Amerikada *pig* so‘zi neytral ma‘noda qo‘llanadi. Bunday hollarda tarjimada salbiy ma‘noga ega boshqa bir so‘zdan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Den Brauning “Da Vinchi Siri” asarida voqealar rivoji asosan Parijda bo‘lib o‘tadi. Yozuvchi asarda ko‘proq fransuzcha murajaat vositalaridan foydalangan. Asarning muqaddima qismida keltirilgan *Pain is good, monsieur!* jumlasida o‘zbek tiliga *Bilasizmi, mesye, og‘riqning foydasi bor* tarzda transkripsiya usulidan foydalangan holda tarjima qilingan. Tarjimon shu o‘rinda *mesye* so‘zining o‘rniga *jano* so‘zidan foydalansa ham bo‘lar edi, biroq u tarjimada fransuzcha nutqni ifodalovchi unsurni ko‘rsatib bermog‘chi bo‘lgan.

Bundan tashqari, tilshunoslik sohasidagi “muqobilsiz leksika” tushunchasi aynan milliy, madaniy leksikaga misol bo‘la oladi. Muqobilsiz leksika deganda, har qanday tilda

boshqa tilga bir so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydigan leksik birliklar nazarda tutiladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. Har bir davlatning onomastik birliklari, pul va o‘lchov birliklari, bayram va marosim nomlari va shunga o‘xshash leksemalari o‘sha millat madaniyatining bir belgisi sanaladi [4: 42]. Bunga misol qilib, “Da Vinchi Siri” asaridagi bir jumlaning keltirish: “*On either side of the gallery, stark walls rose thirty feet, evaporating into the darkness above*”. Ushbu jumladagi *feet* so‘zi *oyoqlar* emas, balki uzunlik o‘lchov birligi – *fut* deya tarjima qilingan. Asarda yana *inch – dyum, mile – milya, yard – yard* kabi o‘lchov birliklaridan ko‘p marotaba foydalanilgan.

Polisemantik so‘zlarning tarjimasi. Polisemantik so‘zlarni tarjima qilish – bu oddiygina so‘zlarni almashtirish emas, balki madaniyatlar orasida ko‘prik qurishdir. Bu jarayon tarjimondan faqat tillarni emas, balki fikrlash usullarini ham chuqur bilishini talab etadi. Aynan shu sababli bu mashina tarjimasidan inson tarjimasini ajratib turuvchi eng muhim ko‘nikmalardan biridir. Ko‘p ma‘noli so‘zlar tarjimada bir qancha chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *bank* so‘zi ham moliyaviy muassasa nomi, ham daryo sohili ma‘nolarini ifodalab kelishi mumkin. Kontekstni to‘g‘ri anglamlilik noto‘g‘ri tarjimaga olib keladi.

Shu kabi misollarni “Farishtalar va Iblislar” asarida ham ko‘rishimiz mumkin: “*The silence of his home was shattered again, this time by the ring of his fax machine – Uydagi sukunatni bu safar faks mashinasining jiringlashi buzdi*”. Ushbu jumladagi *ring* so‘zi *jiringlash* deya tarjima qilingan, vaholanki, uning “uzuk” degan ma‘nosi ham bor. Bu yerda so‘zning polisemantik xususiyati ochiqlanadi, ya‘ni denotativ ma‘no va konnotativ ma‘nolari voqelanadi.

Misol tariqasida *head* so‘zini oladigan bo‘lsak, uning dennotativ ma‘nosi tana a‘zosi ekanligi bo‘lsa, konnotativ ma‘nosi kontekstdan anglashiladigan boshqa ma‘nosi, masalan, rahbar kabi: *She nodded her head, He is the head of our department*.

Terminologik muammolar. Ilmiy va texnik matnlarda terminlarni tarjima qilish juda muhim. Har bir soha o‘ziga xos atamalariga ega bo‘lganligi sababli, tarjimon o‘sha sohadagi bilimlarga ham ega bo‘lishi lozim. Terminlar noto‘g‘ri tarjima qilinsa, matn mazmuni buzilishi mumkin. Boshqa tillardagi turli sohalarga doir ilmiy matnlarni va terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yoki aksincha bo‘lganda turli xil muammolar paydo bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tiliga boshqa tillardan, asosan, ingliz tilidan ilmiy ishlar tarjima qilinayotganda duch kelinayotgan terminlarni tarjima qilish uchun o‘zbek tilida yaratilgan sohaviy terminlarga oid qo‘llanmalar to‘liq emas, bu esa tarjimon va til o‘rganuvchilari uchun terminlarni tarjima qilishda katta muammolarga sabab bo‘ladi. Aytaylik, ingliz tilidagi biror terminning o‘zbek tilida muqobili topilmasa, o‘sha so‘zni o‘z holicha (kalka) tarjima qilinadi.

Terminlar muayyan soha, ilmiy yo‘nalish yoki texnik tizim doirasida aniq tushunchani ifodalovchi birliklar bo‘lib, ularni tarjima qilishda aniqlik, izchillik va ilmiy asoslanganlik talab etiladi. Bugungi globallashuv sharoitida tillararo ilmiy-texnik axborot almashinuvi jadallashgani sari, xorijiy tillardan o‘zlashayotgan terminlar soni ortmoqda. Bu esa tarjimon oldiga ikki yoqlama vazifani qo‘yadi: birinchidan, xorijiy atamani to‘g‘ri tushunish, ikkinchidan, uni tarjima tilida maqbul, tushunarli va to‘g‘ri muqobil bilan ifoda etish. Aynan shu nuqtayi nazardan, terminlarning tarjimasiga doir usullar, muammolar va samarali yechimlar masalasi bugungi

tarjimashunoslikda dolzarb mavzulardan biri sifatida e'tirof etiladi [5: 312].

Masalan, *area* terminini olsak, u turli ilmiy kontekstlarda turlicha ma'nolarni ofodalab keladi. Masalan, 1) *a part of a town or a country*; 2) *a part of a house or a garden*; 3) *a particular subject, range of activities*. Bu kabi hollarda ham kontekstning ma'nosiga e'tibor beriladi. Yoki bo'lmasa, Den Braunning "Farishtalar va Iblislar" asarida shunday jumla berilgan: "This plane goes Mach fifteen – Bu samolyot tezlikni o'n besh maxgacha oshira oladi". Ushbu misoldagi *Mach* termini o'zbek tiliga *max* tarzida transkriptsiya usulidan doydalangan holda tarjima qilingan hamda qo'shimcha izoh berilgan: "Bir max taxminan tovush tezligiga teng (340 m/s). Avstriyalik fizik va faylasuf Ernst Max nomi berilgan".

Frazeologik birliklarni tarjima qilish. Frazeologik birliklar, asosan, semantik jihatdan yaxlit, ammo leksik va grammatik jihatdan murakkab iboralaridir. Frazeologik birliklar yoki iboralar ko'pincha so'zma-so'z tarjima qilinmaydi, balki ular turli madaniy, lingvistik va kontekstual farqlarga qarab moslashtiriladi. Masalan, ingliz tilidagi *to break the leg* iborasi so'zma-so'z tarjima qilinsa, *oyoqni sindirmoq* bo'ladi. Lekin bu iboraning asl ma'nosi – *omad yor bo'lsin*. Bu ibora ko'proq norasmiy uslubda qo'llaniladi. Ayniqsa, badiiy asarlarda frazeologik birliklarni tarjima qilish tarjimondan ulkan salohiyat talab qiladi.

Tarjimada frazeologik birliklarni noto'g'ri qo'llash natijasida mazmun yo'qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Shu sababli, frazeologik birliklarni to'g'ri tarjima qilish badiiy asarlarning muvaffaqiyatli tarjimasini uchun muhim o'rin tutadi [6: 294]. Tarjimada frazeologik muvofiqliklarning asosiy turlari: 1) to'liq mos kelish; 2) qisman mos kelish; 3) umuman mos kelmaslik. To'liq muvofiqlik, ya'ni ikki til frazeologik birliklarining ham shaklan, ham mazmunan to'liq mos kelishi kamdan-kam uchraydi. Masalan, "to bring oil to fire – olovga yog' sepmoq". Qisman muvofiq frazeologik birliklar o'z ichiga leksik, grammatik farqlanishga, ammo ma'no va

uslubiyatning o'xshashligiga asoslanadi, ya'ni ular shaklan bir xil, ammo leksik tuzilishi, morfologik tartibi va uslubiy yasalishi jihatidan umuman boshqacha bo'lishi mumkin. Leksik jihatdan qisman muvofiqlikka misol: "to get out of bed on the wrong foot – chap yoni bilan turmoq". Umuman mos kelmaslik deganda, bir tildagi frazeologik birliklarning boshqa tillarda muqobillari mavjud emasligi tushuniladi. Masalan, ingliz tilidagi ko'pgina frazeologik birliklarning o'zbek tillarida muqobillari mavjud emas. Muvofiq bo'lmagan frazeologik birliklarni so'zma-so'z tarjima qilish mumkin: "to call things by their true names – har narsani o'z nomi bilan atamoq" [7: 164].

Den Braunning romanlarida ham frazeologik birliklardan ko'p foydalanilgan va ularning o'zbek tilidagi tarjimalarida biz yuqoridagi holatlarga duch kelamiz. "Farishtalar va Iblislar" asaridan olingan quyidagi misolni va uning o'zbek tiliga tarjimasini ko'rib o'tsak: "He turned and gave Langdon an ominous smile. Speak of the devil" – Haydovchi Lengdonga yuzida yoqimsiz tabassum bilan o'girilib, "Bo'rini gapirsang, qulog'i ko'rinadi!" – dedi". Bu yerda frazeologik birliklarning qisman mos kelish holati kuzatilgan. Tarjimon ingliz tilidagi frazeologik birlikning o'zbek tilidagi ayni ekvivalentini topib, yozuvchi yetkazib bermoqchi bo'lgan ma'noni saqlab qolgan. Yoki bo'lmasa, "Da Vinchi Siri" asaridagi misol va uning tarjimasiga yuzlansak: "I am a lamb of God. Shepherd me as your heart commands – Yurak qayerga buyursa, o'sha yoqqa yuboravering. Men hammasiga tayyorman". Bu yerda frazeologik birliklarning qisman mos kelishini kuzatamiz.

Tarjimada leksik muammolar tarjimonning til bilimi, madaniy saviyasi va kontekstni tahlil qilish qobiliyatiga hamda tarjimonlik sohasidagi turli xil ko'nikmalariga bog'liq. Shu kabi muammolarni muvaffaqiyatli bartaraf qilish tarjimonning aniqligi va ifodaviyligiga bevosita ta'sir qiladi. Tarjimon har doim ma'noni to'g'ri yetkazishga, so'zlarning funksional vazifasini tushunishga intilishi lozim. Ayniqsa, badiiy asarlar tarjimasini tarjimondan ko'p mehnat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov G. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 1983.
2. Toshaliyeva S. Badiiy tarjimaning ba'zi muammolariga doir // Tarjimashunoslar forumi, 2022.
3. G'afurov I, Mo'minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012.
4. Anvarova F. Den Braunning "Farishtalar va Iblislar" asarida uchraydigan ba'zi lingvokultremalarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasini xususida // Tamaddun nuri, 2024. №8.
5. Mahmudova M. Terminlar tarjimasini: usullar, muammolar va yechimlar // Modern science and research, 2025.
6. Sadikova S. Frazeologik birliklar va ularning tarjima jarayonidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari / "Yangi O'zbekistonda o'zbek adabiy tilining rivojlanish tendensiyalari: muammolar, yechimlar, tavsiyalar" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2024.
7. Nosirova A. Frazeologik birliklarning tarjimadagi muammolari // International conference pedagogical reforms and their solutions, 2024.
8. Brown D. Angels and Demons. – New York: Pocket books, 2000.
9. Braun D. Farishtalar va Iblislar. – Toshkent: Ilm-Ziyo Zakovat, 2023.
10. Brown D. The Da Vinchi Code. – New York: Doubleday, 2003.
11. Braun D. Da Vinchi siri. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.

Shahnoza ABRAYEVA,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son o'zbek va xorijiy tillar kafedrasida
katta o'qituvchisi

TIBBIY MORFEMALARNING NUTQDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI VA ULARNI SEMANTIK SINFLARDA TAHLIL QILISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy terminologiya tarkibidagi morfemalarning nutqda namoyon bo'lish xususiyatlari, ularning semantik sinflarga ajralishi hamda struktur-semantik funksiyalari tahlil qilinadi. Tibbiy morfemalarning o'zbek tilidagi moslashuv jarayoni va ularning ilmiy uslubda qo'llanishi ham nazariy hamda amaliy materiallar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlari: tibbiy morfema, prefiks, suffiks, semantik sinf, terminologiya.

Annotation. This article analyzes the features of the appearance of morphemes in speech, their division into semantic classes and structural-semantic functions in medical terminology. The process of adaptation of medical morphemes in the Uzbek language and their use in the scientific method are also covered on the basis of theoretical and practical materials.

Key words: medical morpheme, prefix, suffix, semantic class, terminology

Аннотация. В статье анализируются особенности появления морфем в речи, их деление на семантические классы и структурно-семантические функции в медицинской терминологии. На основе теоретического и практического материала освещается процесс адаптации медицинских морфем в узбекском языке и их использование в научном методе.

Ключевые слова: медицинская морфема, префикс, суффикс, семантический класс, терминология.

Mamlakatimizning so'nggi yillarda dunyo hamjamiyatiga integrallashuvi tilshunoslikda terminlarning tahlili va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarning amalga oshirilishiga sabab bo'lmoqda. Tibbiy terminologiya har bir xalqning ilmiy-texnik taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega bo'lgan leksik qatlamdird. Tibbiyot sohasida qo'llaniladigan terminlarning asosiy qismi yunon-lotin manbalariga tayangan holda shakllangan bo'lib, ularning tarkibi, yasovchi morfemalari va semantik xususiyatlarini tahlil qilish tilshunoslik uchun muhim ilmiy masalalardan sanaladi. Ayniqsa, tibbiy morfemalarning nutqda qanday semantik yuklama bilan namoyon bo'lishi, qanday ma'no farqlari yaratishi va ularning tasnifi hozirgi tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Tilshunoslikda tibbiyot terminologiyasiga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar, jumladan ingliz, fransuz, rus va o'zbek tilshunosligida tibbiyot terminologiyasi masalalari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Latinizmlar va ellinizmlarning fransuz tili leksik tizimiga kirib kelish tarixini ko'plab mualliflar (Gabdraxmanov M.G., Lobashevskaya T.A., Popandopulo Y.I., Shapiro G.D., Kaden V.G., Mitterand N., Quemada V.) ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritib bergan. Fransuz tilidan tashqari, leksik birliklarning klassik tillar komponentlari bilan so'z yasash, morfologik, semantik, etimologik asoslarini o'rganish boshqa ko'p tillarning materiali bo'yicha olib borildi. Bu muammo bo'yicha tilshunoslik tarixida juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi (Akulenko V.V., Vasileva O.A., Zayseva R.F., Kovalevskiy

R.L., Korletyanu N.G., Levit Z.N., Lotte D.S., Palatov M.I., Petrishina V.U., Romaneyev Y.A., Savonchik S.S., Stankevich A.A., Suslova Y.I., Felenkovskaya I.V.).

Nutqning har xil darajalarida lotincha va yunoncha elementlarning konsentratsiyasi bir xil emas, morfemalar nutqda ko'pincha morfemaning o'zi va o'zi uchraydigan kichik soha tili bilan bog'liq turli funksional vazifani bajaradi. Morfemalarning nutqda qo'llanilishining farq qiluvchi belgilari ularni semantik sinflarda tahlil qilganda ko'rinadi, olingan natijalar tadqiq qilinayotgan morfemalarning kichik soha tillari va darajalar bo'yicha ko'rsatkichlari kabi muhim ahamiyatga egadir. Klassik tillardan o'zlashtirilgan elementlarning so'z yasash qiyosiy potensial xarakterlari aniqlanadi. Morfemalarni shartli morfologik taqsimlash yordamida so'z yasash aspektida lingvistikada aks ettirilmagan ayrim qonuniyatlarni ajratib ko'rsatishga muvaffaq bo'lindi, bu taqsimlash qandaydir darajada klassik tillar morfemalarining tasnifi muammosiga aloqadordir.

Bizning eksperimentimizda sinonimik morfemalarning faqat cheklangan soni tahlil qilinganligi sababli, chiqarilgan xulosalar ancha katta ko'lamdagi materialda olingan natijalarning ishonchililigini aniqlash maqsadida olib borilgan. Ajratib ko'rsatilgan so'z yasash modellari sinonimik elementlarning tahliliga qo'shimcha hisoblanadi. Ular shu nuqtai nazardan muhimki, klassik tillar elementlarining joylashuvini aniqlashga yordam beradilar. Tadqiq qilinayotgan sinonimik morfemalar ot, sifat, ravish va fe'llardan tashqari boshqa so'z turkumlarida uchramaydilar.

11-jadval

Sinonimik elementlar yordamida hosil qilingan so'zlarning umumiy soni

Morfemalar		Otlar	Sifatlar	Ravishlar	Fe'llar	Jami
Lotincha	Soni	903	1242	60	219	2424
	%	37,2	51,2	2,5	9,1	100
Yunoncha	Soni	1659	1115	13	29	2816
	%	58,9	39,6	0,5	1,0	100

Tadqiq qilinayotgan elementlarni o'z ichiga olgan ajratib ko'rsatilgan so'zlar ro'yxatiga jami 5240 ta so'zlar (100%), ya'ni lotincha morfemalarga ega bo'lgan 2424 ta so'z (46,3%) va yunoncha morfemalarga ega bo'lgan 2816 ta so'z (53,7%) kirdi(11-jadval). Yunoncha morfemalar lotincha morfemalarga qaraganda otlarni hosil qilishga intiladilar, ayni paytda sifatlar yunoncha morfemalarga qaraganda lotincha morfemalar bilan ko'proq hosil qilinadi.

Lotincha morfemalar: con- (356 ta so'z hosil qiladi), som- (189 ta), rré- (165 ta), yex- (123 ta), radi(o)- (68 ta), dis- (65 ta), post- (64 ta), intra- (61 ta), sub- (59 ta), co- (58 a) va boshqalar. eng mahsuldor hisoblanadilar. Tadqiq qilinayotgan yunoncha morfemalarga hyper- (171 ta so'z), anti- (129 ta), hypo- (114 ta), hydr(o)- (112 ta), cardi(o)- (106 ta), poly- (90 ta), cyt(o)- (87 ta), péri- (84ta), path(o)- (80 ta), hém(o)- (79 ta) kiradi.

Yunoncha morfemalar: cyt(o)- (54 ta), hém(o)- (56 ta), hydr(o)- (72 ta), path(o)- (56 ta), ro1u- (56), hypo- (66), hyper- (122) va lotincha elementlar: con- (155 ta), com- (83 83 ta), ex- (53 ta), rré- (60 ta), so- (31), radi(o)- (35 ta) yordamida ko'p otlar hosil qilinadi.

Lotincha morfemalar umuman olganda 60 ta ravishni, ya'ni hamma so'zlarning 2,5% ni hosil qiladilar, ayni paytda yunoncha morfemalar faqat 13 ta (0,5%) ravishni hosil qiladilar. Lotincha morfemalar **con- (18 ta ravish), som- (6 ta), un(i)- (5ta), rré-(5 ta)** eng mahsuldor hisoblanadi. Qandaydir mahsuldor yunoncha morfemalarni ajratib ko'rsatishga muvaffaq bo'linmaydi, chunki ular ravishlarni hosil qilishda so'z yasashning sust faolligini namoyon etadi.

Qayd qilish kerakki, tibbiyot kichik soha tillari o'zining shaxsiy ravishlar to'plamiga ega va ularning ko'pchiligini tibbiy matnda uchratish mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

antigéniquement, bactériologiquement, carcinologiquement, céphaliquement, chirurgicalement, chromosomiquement, électrocardiographiquement.

Ushbu ravishlar asosan yunoncha morfemalar yordamida **-ment** suffiksi bilan hosil qilingan. M.I.Berlinning qayd etishicha, ular aniq ifodalangan o'ziga xoslikka ega va harakatning namoyon bo'lishi sohasiga bevosita aloqadordir. Yuqorida ko'rsatilgan ravishlar **“au point de vue de la bactériologie, ... de la radiologie”** va boshqa konstruksiyalar bilan almashtirilishlari mumkin.

Tadqiq qilinayotgan lotincha elementlar fe'llarni hosil qilish borasida yunoncha elementlarga (29 ta = 1,0%) nisbatan ancha mahsuldor hisoblanadilar (219 ta = 9,1%). Fe'llarning eng faol so'z yasovchi formantlari bo'lib **con-** (60 ta fe'l), **som-** (32 ta), **yex-** (21 ta), **rré-** (20 ta), **dis-** (12 ta) morfemalari hisoblanadi. Yunoncha morfemalar bu jihatda kammahsuldir. Hamma yerda qo'llaniladigan leksika so'zlarining katta sonini hosil qiluvchilarga asosan lotincha **capit-, circon-, so-, col-, com-, contr(a)- dis-, équ(i)-, ex-, man(u)-, rré-** va boshqa morfemalar kiradi.

Lotincha va yunoncha ad'ektiv (6 juft), adverbial (5 juft), pronominal (1 juft) va numeral (9 juft) morfemalar uncha mahsuldor emas va hosil qilingan so'zlarning soni (1-6%) bo'yicha keskin kvantitativ kontrastlarni namoyon qilmaydi.

Shunday qilib, otlar asosan lotincha predlogli va yunoncha substantiv morfemalar hisobiga hosil qilinadi; sifatlar - lotincha predlogli va yunoncha substantiv elementlar yordamida, ravishlar va fe'llar esa lotincha predlogli morfemalar yordamida yasaladi. Lotincha predlogli morfemalarning so'z yasashdagi yuqori faolligi shu bilan izohlanadiki, ushbu elementlar asosan terminlarda qo'llaniladigan yunoncha elementlarga qaraganda umumqo'llaniladigan leksikada ko'p so'zlarni hosil qiladi.

Tibbiy morfemalarning nutqda qo'llanilishi ilmiy uslubning eng muhim tarkibiy unsurlaridan biri bo'lib, ular semantik aniqlik, informativlik va terminologik tizimning izchilligini ta'minlaydi. Morfemalarning prefiks, suffiks va o'zak komponentlar sifatida murakkab semantik sinflarga ajralishi tibbiy terminlarning mazmunini aniq va izchil ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, o'zbek tilida tibbiy morfemalarning moslashuvi milliy terminologiya taraqqiyotining muhim bosqichi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: Советская Энциклопедия, 1969.
2. Балли ш. Общая лингвистика к вопросы французского языка. М.: Изд. иностр. лит, 1955.
3. Беженарь Г.И. Структурно-семантическая характеристика французских медицинских терминов: Автореф. дис. ...канд. филол. Л., 1973.
4. Бережан С.Г. О синонимичности однокоренных слов с разной аффиксальной частью. В кн.: Лексическая синонимия. М., 1967,

Sadoqat ODILOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

BOSH QAHRAMON XARAKTERINI OCHISHDA IKKINCHI DARAJALI PERSONAJLARNING FUNKSIONAL ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi Murod Muhammad Do'stning "Darvoza yonidagi it" hikoyasida ikkinchi darajali personajlarning kompozitsion va semantik vazifalari tahlil etiladi. V.N.Toporov va M.M.Baxtin qarashlari asosida ularning it obrazini ochishdagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: ikkinchi darajali personaj, periferik obraz, bosh qahramon, kompozitsion funktsiya, semantik yuk, badiiy funktsionallik.

Annotattion. This article analyzes the compositional and semantic functions of the secondary characters in Murod Muhammad Dust's short story "The Dog by the Gate". Based on the views of V.N.Toporov and M.M.Bakhtin, their role in revealing the image of the dog is examined. The study's novelty lies in the systematic interpretation of the artistic function of the unnamed peripheral characters.

Keywords: secondary character, peripheral figure, protagonist, compositional function, semantic load, artistic functionality.

Аннотация. В данной статье анализируются композиционные и семантические функции второстепенных персонажей в рассказе Муро́да Мухамма́да Ду́ста «Собака у ворот». На основе взглядов В.Н.Топорова и М.М. Бахтина раскрывается их роль в раскрытии образа собаки.

Ключевые слова: второстепенный персонаж, периферийный образ, главный герой, композиционная функция, семантическая нагрузка, художественная функциональность.

Badiiy asarning asosini voqealar rivoji hamda personajlar tashkil qiladi va u adabiy asar poetikasini tashkil etuvchi eng muhim unsurlardan biri sanaladi. Asarda bosh qahramon bilan bir qatorda ikkinchi darajali personajlar ham sezilarli funksional yukga ega. Ikkilamchi personajlarning poetik tahlili ularning matndagi kompozitsion o'rni, psixologik va semantik vazifasi, estetik qiymatini aniqlash orqali ochib beriladi. Ikkinchi darajali personajlar sujet dinamikasida muhim rol o'ynaydi, sababi ular voqealar rivojini boshlab beruvchi, keskinlashtiruvchi yoki yakunlovchi kompozitsion katalizator vazifasini ham bajara oladi. Bu obrazlarning paydo bo'lishi sujet chizig'iga yangi burilish olib kiradi, bosh qahramonning xatti-harakatini, qarorlarini yoki ruhiy kechinmalarini faollashtiradi. Shuning uchun ham bunday obrazlarni sujetni harakatlantiruvchi "ichki mexanizm" sifatida baholash mumkin.

Rus adabiyotshunosligi manbalarida ham ikkinchi darajali personajlar alohida muammo sifatida o'rganilgan. Jumladan, V.N.Toporov quyidagicha yozadi: "Ikkinchi darajali personajlar nafaqat yordamchi sujet elementi sifatida, balki bosh qahramon ichki olamini ochish va badiiy matnni boyitishda semantik yukni ham olib boradi" [2: 45]. Olimning ushbu fikri zamonaviy adabiyotshunoslikda ikkinchi darajali personajlar rolini aniqlashda muhim nazariya hisoblanadi. Adabiyotshunos M.M.Baxtin esa yordamchi personajlarga nisbatan "periferik personaj" atamasini qo'llaydi. "Xatto periferik personajlar ham asarning dialogik tuzilmasiga hissa qo'shadi...ular bosh qahramonning ongiga ta'sir qiladi" [1: 112]. Bu nuqtai nazar periferik personajlarning matnda mustaqil ovozga ega ekanini, faqat fon vazifasini bajarmasligini anglatadi. Toporov ikkinchi darajali personajlarni psixologik va dramatik nuqtai nazardan, Baxtin esa strukturaviy-dialogik jihatdan tahlil qiladi. Shu sababli bu nazariyalar bir-birini o'zaro to'ldiradi.

“Personaj” tushunchasi o'zbek adabiyotshunosligida ham avvaldan dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiy tanqid va nazariyada personajlar masalasi alohida tahlilga olina boshladi. Adabiy asar sujeti va g'oyaviy-badiiy tizimini tashkil etishda bosh qahramon (asosiy personaj) bilan bir qatorda ikkinchi darajali personajlarning ham ahamiyati katta hisoblanadi. Ular asar sujetining harakatini rivojlantirish, bosh qahramonning xarakterini ochib berish va muayyan g'oya, ijtimoiy muhitni yoritishda vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu istilohga “Adabiyotshunoslik lug'ati” da quyidagicha ta'rif beriladi: “Personaj (lot. persona – shaxs, teatr maskasi) badiiy adabiyotdagi inson obrazi, adabiy asardagi voqea ishtirokchisi, his-kechinma va nutq subyekti. Personaj termini qahramon, ishtirok etuvchi (dramatik asarda), xarakter terminlari bilan bitta sinonimik qatorni tashkil qilib, ma'no jihatidan neytral bo'lgani bois bu qatorda dominant vazifasini o'taydi. Biroq hamma personajlarga nisbatan qahramon, ishtirok etuvchi, xarakter terminini ishlatib bo'lmaydi. Zero, ular asarda o'zining tutgan mavqeyi, tashiyotgan g'oyaviy-badiiy yukning salmog'i, voqealardagi ishtiroki, umumlashtirish darajasi kabi qator jihatlaridan farqlanadi, darajalanadi” [3: 223]. Demak, “asarda qimirlaganki inson obrazi bo'lsa – katta yoki kichikligi, sujetdagi ishtiroki, asar strukturasida tutgan o'rnidan qat'i nazar – hammasini personaj deb atash mumkin” [4: 99].

O'zbek nasrida yozuvchi Murod Muhammad Do'stning “Darvoza yonidagi it” hikoyasi hayvon obrazini bosh qahramon darajasiga olib chiqilganligi bilan muhim o'rin tutadi. Asarning bosh obrazi – Olapar. Hikoya voqealari aynan shu jonivor atrofida sodir bo'ladi. It orqali inson va hayvon munosabatlari, shuningdek oilaviy qadriyatlardagi ma'lum o'zgarishlar tasvirlangan. Muallif hikoyadagi ikkinchi darajali qahramonlarga nom bermaydi. Ularni shunchaki xo'jayin, xotin, pochtachi kabi umumiy atamalar bilan nomlaydi. Adib ularni ayni bir nom bilan chegaralamaganligiga sabab, ularni shaxsiy darajada emas, balki universal timsol sifatida ochib berishga harakat qiladi. Nom berilmagan ikkinchi darajali personajlar diqqatni Olaparning xarakteriga qaratilishiga yanada yordam beradi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, adibning nom bermaslik strategiyasi hikoyaga poetik va allegorik rang beradi. O'quvchi xo'jayin va xotin obrazlarini faqat ularning roli va xarakatlari orqali anglaydi. Bu esa hikoyaning hissiy kuchni oshiradi, voqealarni abstrakt va umumiy insoniy tajribalar doirasida qabul qilish imkonini beradi.

Hikoya Olaparning tasviri bilan boshlanadi. U tuni bilan uxlamagan, a'zoyi badani qaqshab og'rir edi. U anchayin qarib qolgan, hurishga ham holi yo'q. Uni bir paytlar rahmdil bir o'tkinchi (xo'jayini) bu yerga olib kelgan. Unga sut, ivitilgan non berishgan, xo'jayinning bolalari uni suyib erkalashgan, uning jajji oq-qora xoldor panjalarini o'pib, yuzlariga surtashgan edi. Lekin hozir u hech kimga keraksiz qari it edi, xolos. Hattoki uy egalari yangi itvachcha ham olib kelgan edilar. Hikoyadagi ikkinchi darajali personajlar esa xo'jayin va uning ayoli. Xotin itni yoqtirmaydi, kun bermaydi. Buni xo'jayinning xotining qarata: “Kecha yaloqqa qarabmiding?”, – degan gapiga javoban: “Xudo ursin o'sha go'rso'xtani! Ko'tara savlat, it siyog'i yo'q! Kechasi bilan vov demaydi, go'rso'xta...Tun bo'yi cho'zilib yotadi. Shuyam itmi?

Ma'rakaning ziynati, osh-u nonning ofati. Turqiyam haligi ochofat Rasulga o'xshaydi. He, o'lsin!” – degan gaplaridan ham ko'rish mumkin. Lekin xo'jayin itni yaxshi ko'radi: “Hov, itga til tekkizma xotin! O'nta Rasuling Olaparning tirnog'iga arziyas. Buning yoshligida bo'ri olgani esingdan chiqdimi?” [5]. Yozuvchi ikkinchi darajali personajlar o'rtasida sodir bo'lgan konfliktidan foydalanib, itning o'z egasiga qanchalik sadoqatli ekanini hikoya davomida “isbotlab” beradi. Ayol obrazi uning ichki tangligini keltirib chiqaradi, Olaparni qarg'ab, shu orqali voqeaviy dinamika hosil qiladi. Bu personaj orqali muallif uy ichidagi real ijtimoiy hayotni, odamlarning kayfiyatga bog'liq adolatsiz munosabatlarni ko'rsatadi. Bu esa bosh qahramon – Olapar obrazini yanada yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi. Chunki hamma unga birday yaxshi muaomala qilsa, e'zozlasa, itning vafodorligi bunchalik kuchli ko'rinmas edi. Yozuvchining maqsadi asosiy qahramonning o'z egasiga qanchalar sodiqligini kontrast orqali ochib berishdan iborat. Ko'rish mumkinki, hikoyadagi barcha personajlar u yoki bu tarzda Olapar bilan bog'langan. Bu esa kkinchi darajali personajlarning barcha xatti-harakati bevosita itning turli rakursdagi talqiniga xizmat qilishini anglatadi.

Hikoyada davomida xo'jayin obraziga alohida ta'rif berilmagan yoki uning portreti chizilmagan bo'lsa ham, asarning ayrim o'rinlarida keltirilgan voqealar uning ichki dunyosini ochib beradi. Jumladan, itni otib tashlash uchun olib borayotgan bu personaj juda tund va xafa. Har doim it bilan ovga chiqqanda “Qaro ko'zim...”ni xirgoyi qilib ketadigan xo'jayin bugun mum tishlaganday jim. Buning sababi bitta – ko'ngildagi ayanchli iztirob: itga bo'lgan mehr va oilada it tufayli kelib chiqayotgan dilxiraliklar o'rtasidagi kontrast tuyg'ular. Xo'jayinning xarakter xususiyatlari quyidagi jumlar orqali ham yanada ravshan ochib berilgan: “Olapar yuziga tushgan iliq tomchilardan hushiga keldi. Tepasida xo'jayin o'tirar edi...Xo'jayin yum-yum yig'lar edi”; “Meni kechir oshna... Xo'jayin engashdi, yuzini itning boshiga tegizdi. – Sani sig'dirmasa nima qilay?... Bilasan, o'sha tunda begona odamni tishlaganingdan beri yomon ko'radi. Shungayam besh yil bo'pti. Ilojim qancha, oshnam... O'rtada bolalar bor, ajralib ketolmasam... Mangayam alam qiladi... oson deb o'ylaysanmi? Eh, odam bo'lganingda hammasini bilarding...Endi keksayib qolding...Ma, go'shtni yegin... Senga deb o'g'irlab chiqdim...Endi shu yerda o'laqol, Olapar” [5]. Parchadagi xo'jayin obrazi ambivalent shaxs sifatida gavdalanadi, ya'ni bir tomondan mehr-muhabbatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, oilaviy majburiyat orqali ayrim cheklovlariga bo'ysunishga majbur. Uning shaxsiyatida ichki zaiflik, ruhiy iztirob va empatiya ko'zga tashlanadi. Xo'jayinning nutqi va xatti-harakatlari uning ichki konfliktini boshdan kechirayotganini yaqqol namoyon qiladi. Yozuvchi mazkur personaj orqali inson tabiatining paradoksal va ambivalentligini yoritadi.

Xulosa qilish mumkinki, Murod Muhammad Do'stning “Darvoza yonidagi it” hikoyasida inson va hayvon o'rtasidagi sodiqlik, mehr-muhabbat mavzularini poetik jihatdan atroflicha ochib beriladi. Ikkinchi darajali personajlar esa voqealar rivojiga yordam berib, markaziy qahramonning ruhiy holati va ijtimoiy vaziyat fonini yoritib berishga xizmat qiladi. Shu orqali hikoya sodiqlik, mehr va axloqiy qadriyatlarning ahamiyatini chuqur tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. Москва, 1972.
2. Топоров В.Н. Литературная структура романа. Москва, 1990.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr. 2013.

4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent. Navoiy universiteti, 2018.
5. Murod Muhammad Do'st. Darvoza yonidagi it (hikoya). <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/murod-muhammad-do-st-1949/murod-muhammad-do-st-darvoza-yanidagi-it-hikoya>.

Latofat CHO'LLIYEVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

TURK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA NAVOIY MEROSINING O'RGANILISHI: YETAKCHI YO'NALISHLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiya adabiyotshunosligida Alisher Navoiy merosining o'rganilish jarayoni, uning shakllanish bosqichlari va yetakchi ilmiy yo'nalishlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida matnshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjima va qiyosiy tahlil yo'nalishlarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar misollar asosida yoritiladi. Turkiyalik olimlarning Navoiy asarlarini qo'lyozma manbalar, tanqidiy matnlar, til xususiyatlari va badiiy-falsafiy mazmun nuqtayi nazaridan o'rganish tajribasi umimlashtiriladi. Maqola Alisher Navoiy merosini turkiy adabiy-madaniy makon doirasida chuqurroq anglash, turk va o'zbek navoiyshunosligi o'rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlash hamda istiqboldagi tadqiqotlar uchun nazariy-metodik asos yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Turkiya, navoiyshunoslik, matnshunoslik, tarjima, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, qiyosiy tahlil, qo'lyozma nusxalar.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the study of Alisher Navoi's heritage in Turkish literary scholarship, focusing on the stages of its development and the leading research directions. The paper examines scholarly works conducted within the fields of textual studies, linguistics, literary studies, translation studies, and comparative analysis, illustrated through representative examples. It systematizes the contributions of Turkish scholars who have explored Navoi's works through manuscript sources, critical editions, linguistic features, and their artistic and philosophical dimensions. Particular emphasis is placed on interdisciplinary approaches, digital Navoi studies, and international academic cooperation. The article aims to deepen the understanding of Alisher Navoi's legacy within the Turkic literary and cultural space, strengthen scholarly ties between Uzbek and Turkish Navoi studies, and establish a theoretical and methodological foundation for future research.

Keywords: Alisher Navoi, Turkey, Navoi studies, textual studies, translation, linguistics, literary studies, comparative analysis, manuscript copies.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется процесс изучения наследия Алишера Навои в турецком литературоведении, этапы его формирования и ведущие научные направления. В центре внимания находятся исследования, выполненные в рамках текстологии, языкознания, литературоведения, переводоведения и сравнительного анализа, которые рассматриваются на конкретных научных примерах. Обобщается опыт турецких учёных по изучению произведений Навои с опорой на рукописные источники, критические тексты, языковые особенности и художественно-философское содержание. Особо подчёркивается значение междисциплинарного подхода, цифровой навоистики и международного научного сотрудничества. Статья направлена на более глубокое осмысление наследия Алишера Навои в контексте тюркского литературно-культурного пространства, укрепление научных связей между узбекской и турецкой навоистикой, а также на формирование теоретико-методологической базы для дальнейших исследований.

Ключевые слова: Алишер Навои, Турция, навоистики, текстология, перевод, языкознание, литературоведение, сравнительный анализ, рукописные списки.

Turkiyada Alisher Navoiy ijodiga qiziqish shoir tirikligi vaqtidanoq boshlangan. Usmonli turk shoirlarining ko'pchiligi o'z asarlarida Navoiyini hurmat-ehtiroim bilan tilga olganlar. Misol uchun, usmonli shoirlaridan Dukkakinzoda Yahyo Bey "Gulshani anvor" nomli asarida Alisher Navoiy haqida shunday yozadi:

*Mîr Nevâyî gül-i bâ-hârdur
Hamsesi bir nâfe-i Tatardur.
Sözleridur aşk odunuñ sarsari
Her biri bahr-ı gazelûñ geveryi.
Vasf idemem zât-ı hîred-mendini
Ayn-ı acem görmedi mânendini [3:12].*

Navoiyga bo'lgan kuchli ishtiyoq va muxlislik navoiyshunoslikning ham ancha erta boshlanishiga sabab bo'lgan. Hozirgi kunga kelib, Navoiy hayoti, ijodi, asarlari tahlili va tarjimalariga bag'ishlangan talaygina tadqiqotlar mavjud.

Turkiyada Navoiy asarlarini o'rganish jarayoni – tarixan uzluksiz rivojlanayotgan, manba va metodologiya jihatidan doimiy yangilanib borayotgan ilmiy yo'nalish. Dastlabki filolog-manbaviy yondashuvlardan tortib, hozirgi kunda raqamli va fanlararo tahlillargacha bo'lgan taraqqiyot, Turkiyada Navoiyshunoslikni juda xilma-xil, chuqur va amaliy jihatdan boy soha sifatida shakllantirdi. Har bir bosqichda aniq olimlar va ilmiy maktablar o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi va bugungi

tadqiqotlar shularning barchasini yangi nazariy-metodologik kesimlarda birlashtirmoqda.

Turkiya navoiyshunosligidagi yetakchi tendensiyalarni aniqlash uchun qilinayotgan tadqiqotlarni aniq yo'nalishlarga ajratib, har bir yo'nalishga oid ishlarni alohida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Turkiya navoiyshunosligini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin: 1. Matnshunoslik va matbaachilik yo'nalishi. 2. Tilshunoslik yo'nalishi. 3. Adabiyotshunoslik yo'nalishi. 4. Tarjima va qiyosiy tahlil yo'nalishi. Har bir yo'nalish o'ziga xos metodologiya va manba bazasiga ega bo'lib, Navoiy merosining turli qatlamlarini o'rganishga xizmat qiladi.

Matnshunoslik va tarjima yo'nalishi. Turkiyada Navoiy asarlarining ilmiy-nazariy tahlili, avvalo, matnshunoslik sohasida shakllangan. Bunga sabab Turkiyada ko'p sonli Navoiy asarlari qo'lyozma nusxalari mavjudligidir. Hozirgi kunda Turkiyaning To'pkapi, Sulaymoniya, Ayasofiya, Nuruosmoniya kabi kutubxonalarida minglab qadimgi qo'lyozma asarlar orasida Navoiy asarlari nusxalari ham saqlanmoqda. Quyida Navoiy asarlari qo'lyozmalarini magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari sifatida o'rganib, tarjima qilib, asarlarning tanqidiy-tahliliy matnlari yaratgan olim va tadqiqotchilar ro'yxati keltirilgan:

1. "Hayrat ul-abror" – Muhammed Sabir, Vahit Türk, Şaban Doğan, Tanju Oral Seyhan.
2. "Farhod va Shirin" – Gönül Alpaz Tekin, Fatih Bakırcı

3. "Layli va Majnun" – Ülkü Çelik
4. "Saddi Iskandariy" – Hatice Tören
5. "Ilk devoni" – Nursel Özdarendeli
6. "Navodir un-nihoya" – Bilge Özkan Nalbant
7. "G'aroyib us-sig'ar" – Günay Kut
8. "Navodir ush-shabob" – Metin Karaörs
9. "Badoye ul-vasat" – Kaya Türkay
10. "Favoyid ul-kibar" – Önal Kaya
11. "Majolis un-nafois" – Vahit Türk, Kemal Eraslan, Hanife Gezer
12. "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat" – Vahit Türk
13. "Tarixi anbiyo va hukamo" – Ayşehan Deniz Abik, Vahit Türk
14. "Tarixi muluki Ajam" – Ayşehan Deniz Abik, Hilal Oytun Altun
15. "Munshaot" – Ayşehan Deniz Abik, Vahit Türk
16. "Vaqfiya" – Vahit Türk
17. "Munojot" – Vahit Türk
18. "Chihil hadis" ("Arbain") – Vahit Türk
19. "Nazm ul-javohir" – Vahit Türk
20. "Siroj ul-muslimin" – Vahit Türk
21. "Mahbub ul-qulub" – Zuhal Kargı Ölmez, Vahit Türk

Tadqiqotlar ko'lamidan ko'rinib turganidek Turkiyada Navoiy asarlari tanqidiy matnlarini yaratish, asarlarning turli nusxalarini solishtirish va ularni turkchaga tarjima qilish borasida ancha-muncha ishlar amalga oshirilgan. Shuningdek, Navoiy asarlarining tanqidiy nashrlari elektron shaklda "Türk Edebiyatı Veri Tabanı" va "Digital Türkiyat" platformalarida mavjud bo'lib, bu raqamli matnshunoslik yo'nalishining shakllanayotganini ko'rsatadi. Ammo shunga qaramay hali qilinajak ishlar nihoyatda bisyor. Hali mavjud qo'lyozma nusxalar o'rganib bo'linmasdan yana yangilari aniqlanmoqda. Masalan, "Badoye ul-bidoya" devonining Turkiyadagi 6-qo'lyozma nusxasi 2019-yilda aniqlandi [7].

Turiyada Navoiy asarlari ustida qilinayotgan tadqiqotlar haqida navoiyshunos turk olimi Vahid Türk 2021-yilda yozgan "Türkiye'de Ali Şir Nevai Çalışmaları" [6:440] maqolasida shunday deydi: "Alisher Navoiy asarlari yuzasidan amalga oshirilgan magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarining bir qismida til xususiyati tahlil qilinganligi, ammo bir qismida faqatgina matn ustida ishlanganligini ko'rish mumkin. Asarlarining nusxalari qiyoslanib, mukammal matn nashrlarini amalga oshirish lozim. Bu yerda nomi keltirilgan tadqiqotlar, Toshkent nashrlari bilan qiyoslanganda ham mazmunga ta'sir qiluvchi ko'plab o'qish farqliligi borligini ko'rish mumkin". Demak, Navoiy asarlari qo'lyozma mantlarini o'rganishda o'zbek va turk olimlari yaqin hamkorlikda ish olib borib, 2 davlatda qilinayotgan ishlar solishtirilib, fikr almashinib turish lozim.

Tilshunoslik yo'nalishi. Tilshunoslik Turkiya navoiyshunosligining eng chuqur rivojlangan yo'nalishlaridan biridir. Turkiyalik tilshunoslar asosan Navoiy asarlaridagi eski o'zbek tili (Chig'atoy tili) grammatikasi, fe'llar, yordamchi so'zlar, so'z yasalishi, sintaksis, fonetik va morfemik masalalariga e'tibor qaratganlar. Tilshunoslik bilan bog'liq tadqiqotlar asosan magistrlik dissertatsiyalaridan iborat. Misol uchun, Tülay Gençtürk Demircioğlu "Ali Şir Nevâî Divanlarından Yapılan Bir Derleme: Tuhfetü's-Selâtin ve Eserde Geçen İsim-Fiiller" tadqiqotida Navoiyning "Tuhfat us-salotin" asaridagi harakat nomi shakllarini o'rgangan. 2002-yilda esa Aynur Turgut "Ali Şir Nevâyî'nin Eserlerinde Kelime Grupları ve Türkiye Türkçesi ile Karşılaştırılması" magistrlik dissertatsiyasida Navoiy asarlaridagi so'z turkumlari

o'rgangan va ularni turk tili bilan qiyoslagan. "Mahbub ul-qulub" va "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlaridagi fe'llarning vazifa shakllari tadqiq qilingan tadqiqot Nermin Değer [4] tomonidan amalga oshirilgan.

Ibrahim Salih Bökö esa To'pkapi saroyi kutubxonasidagi Revan bo'limida 808 raqami bilan saqlanayotgan "Kulliyoti Navoiy" qo'lyozma asar ichidan joy olgan "G'aroyib us-sig'ar" devoni ustida tadqiqot olib borgan. Va 2018-yilda "Ali Şir Nevâyî'nin Garaibü's-Sigar İsimli Eserinde Edatlar" (Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" asarida ko'makchilar ") mavzusida magistrlik dissertatsiyasini yozgan. Tadqiqotchi Sinem Aşık Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining sintaksis jihatidan tahlil qilgan [2]. 2019-yilda Rabia Polat "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" va "Lison ut-tayr" asarlaridagi yordamchi fe'llarni o'rgangan va "Ali Şir Nevâyî'nin Eserlerinde Yardımcı Fiiller" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shu yili Pakize Yıldırım ismli tadqiqotchi "Saddi Iskandariy" asaridagi sifatdosh va ravishdoshlarni tadqiq qilgan [9]. Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asaridagi gap sintaksisi tahlil qilingan tadqiqot Oğuzhan Yangınerna oid [8]. Tilshunoslik yo'nalishidagi bu tadqiqotlar natijasida Navoiy asarlari nafaqat adabiy, balki turkiy til tarixining metodik manbasi sifatida o'rganila boshlandi.

Adabiyotshunoslik yo'nalishi. Adabiyotshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar Navoiy asarlarining mazmun, kompozitsiya, obrazlar tizimi va falsafiy mohiyatini o'rganishga qaratilgan. Bu borada ham magistrlik dissertatsiyalari, ham doktorlik ishlari, ham kitoblar mavjud. Jumladan, Uğur Köroğluning "Ali Şir Nevâî'nin Mecalisü'n-Nefayis Adlı Tezkiresindeki Türk Edip ve Şairler", Esma Acarning "Ali Şir Nevâyî'nin Garaibü's-sigar'ında İnsan", Bayram Topluning "Mekarimü'l-Ahlak Kitabında Ali Şir Nevâî'nin Özellikleri" kabi magistrlik dissertatsiyalarida; Yusuf Altınışıkning "Ali Şir Nevâyî'de Tasavvuf", Yusuf Çetindağning "Ali Şir Nevâî'nin Batı Türkçesi Divan Edebiyatına Tesiri" (XVI. Yüzyıl Sonuna Kadar), Selma Erginning "Ali Şir Nevâyî Etrafında Teşekkül Etmiş Özbek ve Türkmen Rivayetleri", Hilal Kalkandelenning "Ali Şir Nevâî ve Farsça Divanının İçerik Açısından İncelenmesi" kabi doktorlik tadqiqotlarida Navoiy asarlari adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Ushbu tadqiqotlar Navoiy va uning asarlaridagi turli mavzularni qamrab olganligi bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Ularda Navoiy g'oyalari islomiy axloq va tasavvuf falsafasi bilan bog'liq tarzda tahlil etiladi. Navoiy atrofidagi ijodiy muhit, zamondoshlari va adabiy an'ana bilan munosabatlari ochib beriladi. Shu tariqa, Navoiy nafaqat shoir, balki madaniy yetakchi shaxs, olim sifatida talqin qilinadi. Qolaversa, Navoiy falsafasidagi "komil inson" konsepsiyasi zamonaviy gumanistik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar Navoiy ijodini faqat adabiy manba emas, balki falsafiy-madaniy tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil yo'nalishi. Qiyosiy tadqiqotlarda Navoiy asarlari ba'zi Usmonli adabiyoti vakillari asarlari bilan solishtirilib, u orqali o'rta asr turkiy tafakkurining umumiy ildizlari ko'rsatib berilgan. Masalan, Nilgün Ateşli Usmonli turk shoiri Gulshahrining "Mantiq ut-tayr" asarini Navoiyning "Lison ut-tayr" asari bilan solishtirib "Gülşehri'nin Mantiku't-Tayr'ı ile Ali Şir Nevâyî'nin Lisanü't-Tayr'ının Şekil ve Muhteva Özellikleri Açısından Karşılaştırılması" tadqiqotini yozgan bo'lsa, Pınar Çelik Önal "Farhod va Shirin" dostonining Usmonli adabiyotiga ta'sirini qiyosan o'rgangan [5]. Bu yo'nalishdagi e'tiborga molik jihat shundaki, Turkiyada Navoiy ijodiga oid tadqiqotlar ichida nafaqat qiyosiy adabiyotshunoslik, balki

qiyosiy tilshunoslikka oid dissertatsiyalar ham talaygina. Misol uchun, tadqiqotchi Turgay Akduruş Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkiri va Jem Sultonning turkcha devonlari o'rtasidagi fonetik va morfemik o'xshashliklar va farqlarni o'rganib, "Ali Şir Nevâyî'nin Mecâlisü'n-Nefâ'is'i ile Cem Sultan'ın Türkçe Divân'ı Arasında Ses Bilgisi ve Ekler Açısından Karşılaştırma" nomli dissertatsiyasini yozgan. Xuddi shu yo'nalishda izlanish olib borgan Türkmen Aksoy esa Navoiyning "Badoye ul-vasat"i va Usmonli shoiri Mahmud Pashaning devonini solishtirib, ulardagi tovush va qo'shimchalarni tahlil qilgan [1]. Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar"i va Jem Sultonning "Jemshid va Hershid"i orasida fonetik va morfemik solishtirmani 2019-yilda Sema Gümüşgerdan amalga oshirib, "Ali Şir Nevâyî'nin Fevayidü'l-Kiber'i ile Cem Sultan'ın Cemşid ü Harşid'i Arasında Ses Bilgisi ve Ekler Bakımından Bir Karşılaştırma" nomli magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Shunday qilib, Turkiyada navoiyshunoslik shakllangan bu ilmiy yo'nalishlar – matnshunoslikdan qiyosiy tadqiqotlarga bo'lgan jarayonni o'zida mujassam etadi. Har bir yo'nalish o'z metodologiyasiga ega bo'lib, ularning barchasi birgalikda Navoiy merosini turkiy dunyo tafakkurining ajralmas qismi sifatida talqin etadi. Turkiyada Navoiy ijodini o'rganish sohasida so'nggi o'n yil davomida bir qator barqaror va yetakchi tendensiyalar shakllangan. Birinchi navbatda, tadqiqotlar bir qancha fan va sohalararo aloqadorlikda olib borilmoqda. Ya'ni, Navoiy asarlari faqat adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki tilshunoslik, matnshunoslik, qiyosiy adabiyot, ijtimoiy va falsafiy tahlil bilan ham birgalikda o'rganilmoqda. Bu tendensiya Navoiy ijodining kompleks va ko'p qirrali tabiatini yoritishga xizmat qiladi, shu bilan birga turk va o'zbek adabiyoti, shuningdek Sharqiy turk xalqlari ijodi bilan qiyosiy aloqalarni ham o'rganishga imkon yaratadi.

Ikkinchi muhim tendensiya – turkiya navoiyshunosligiga raqamli va texnologik metodologiyalarning keng qo'llanilishidir. Tadqiqotchilar Navoiy asarlarini raqamli korpuslarda tahlil qilmoqda, faksimile va elektron nashrlar yordamida matnshunoslik ishlari yanada tizimli amalga oshirilmoqda. Misol uchun, Xamsa va Majolis un-nafois asarlarining faksimile nashrlari va avtomatik morfologik tahlil vositalari yordamida fe'l tizimi, so'z turkumlari va sintaksis xususiyatlari chuqur o'rganilmoqda. Bu nafaqat an'anaviy filologik tadqiqotlarni boyitadi, balki yangi lingvistik va stilistik metodlar yordamida Navoiy tilining o'ziga xos jihatlarini keng auditoriyaga yetkazadi.

Uchinchi asosiy tendensiya – interaktiv va qiyosiy tadqiqotlar rivojlanishi. Turkiya olimlari Navoiy asarlarini nafaqat turk tilida, balki fors va boshqa turkiy tillarda mavjud manbalar bilan solishtirib, ularning o'zaro aloqalari va ta'sirini

keng tahlil qilmoqda. Bu yondashuv Navoiy ijodining Sharqiy va Markaziy Osiyo adabiy merosidagi o'rnini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, qiyosiy tadqiqotlar orqali Navoiy asarlaridagi obrazlar, axloqiy qadriyatlar, "komil inson" modeli va ijtimoiy mavzular yanada boy kontekstga ega bo'ladi.

To'rtinchi tendensiya – ensiklopedik va tarjima ishlarining faollashuvi. Turkiya olimlari Navoiy asarlarini turk tiliga tarjima (tabdil) qilish bilan birga, ularni ensiklopedik izohlar va bibliografik tavsiflar bilan boyitmoqda. Bu jarayon ilmiy hamjamiyat uchun Navoiy merosini yanada osonlashtirmoqda va xalqaro tadqiqotlar uchun asos yaratmoqda. Bu yo'nalish, ayniqsa, magistrlik va doktorlik ishlarida keng qo'llanilib, Navoiy asarlarini tizimli o'rganish va ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkonini beradi.

Beshinchi muhim tendensiya – universitetlar va ilmiy markazlar faoliyatida Navoiy ijodini o'rganishning tizimli yo'lga qo'yilgani. Istanbul, Ankara, Erzurum, Konya, Kayseri va Elazığ universitetlarida Navoiyshunoslikning rivojlanishi uchun maxsus kurslar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari, xalqaro konferensiyalar tashkil etilmoqda. Bu esa Navoiy asarlarini o'rganishning ilmiy tizimlashuvini kuchaytiradi va yosh tadqiqotchilar uchun katta imkoniyat yaratadi. Universitetlarda olib borilayotgan izlanishlar, shuningdek, raqamli navoiyshunoslik va fanlararo aloqadorlik bilan integratsiyalashgan holda yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Oltinchi tendensiya – xalqaro hamkorlik va ilmiy almashinuv. Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi qo'shma konferensiyalar, faksimile nashrlar va tarjima loyihalari Navoiy merosining global miqyosda tan olinishini ta'minlamoqda. Shu orqali Navoiy ijodi faqat tarixiy va adabiy nuqtayi nazardan emas, balki madaniy va intellektual meros sifatida ham keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Bu hamkorlik yangi metodologiyalarni yaratish, navoiyshunoslikni zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan boyitish, Navoiy merosini yanada kengroq auditoriyaga yetkazish va ilmiy tadqiqotlarni yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi.

Muxtasar aytilsa, Turkiya navoiyshunosligi allaqachon katta ilmiy yo'nalishga aylanib ulgurgan. Uning bir necha ichki tarmoqlari ham yuzaga kelgan. Jumladan, Turkiy ilmiy fanida Alisher Navoiy "Xamsa"sini o'rganish, unga taqlid qilish, tadqiq etish ishlari juda uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Zamonaviy o'zbek navoiyshunosligi "Xamsa"ga oid yangi tadqiqotlar yaratish bilan birga xorij xamsashunosligi tajribalari, ayniqsa, yutuqlaridan yaxshi xabardor bo'lishi zarur. Shu ma'noda Alisher Navoiy "Xamsa"sining turkiyada o'rganilishini monografik planda maxsus tadqiq etish hozirda dolzarb ilmiy muammolardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksoy T. Ali Şir Nevâyî'nin Bedayü'l-Vasat'ı ile Mahmud Paşa'nın Divanı Arasında Ses Bilgisi ve Ekler Bakımından Bir Karşılaştırma. – Sivas, 2018.
2. Aşık S. Ali Şir Nevâyî'nin Muhakemetü'l-Lügatayn Adlı Eserinin Sözdizimi Bakımından İncelenmesi. – Manisa, 2019.
3. Çetindağ Y. Ali Şir Nevai'nin Osmanlı şiirine etkisi. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı, 2006.
4. Değer N. Ali Şir Nevâyî'nin Mahbubu'l-Kulûb ve Muhakemetü'l-Lügatayn Adlı Eserlerinde Fiilimsiler. – İstanbul, 2014.
5. Önal P.Ç. Ali Şir Nevâyî'nin Osmanlı Edebiyatı Üzerine Etkisi ve Bu Etkiye Bir Örnek Olarak Ferhâd ü Şîrîn Mesnevisi. – Ankara, 2015.
6. Türk V. Türkiye'de Ali Şir Nevai Çalışmaları // Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi, 2021, 52. – S. 403–442.
7. İstanbul'da Navoiyning ilk rasmiy devoni yangi nusxasi aniqlandi. <https://kun.uz/news/2020/01/15/istanbulda-navoiyning-ilk-rasmiy-devoni-yangi-nusxasi-aniqlandi>.
8. Yanginer, Oğuzhan (2021). Ali Şir Nevâyî'nin Tarih-i Enbiyâ ve Hükemâ Adlı Eserinde Cümle Bilgisi, İstanbul Kültür Üniversitesi, Lisansüstü Eğitim Enstitüsü, İstanbul.
9. Yıldırım, Pakize (2019). Ali Şir Nevâyî'nin Sedd-i İskenderi Adlı Eserindeki Sıfat-filler ve Zarf-filler, Uşak Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Uşak.

Dilafroz QALANDAROVA,

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

SHARQ VA G'ARB ORASIDAGI USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI

Annotatsiya Mazkur maqolada turkiy xalqlar folklori namunalarini G'arbga yetkazishda muhim rol o'ynagan doston va ertak janrlari chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o'z tarjimalari orqali o'zbek xalq ertaklari va "Alpomish" dostonini ilk bor Germaniyada, keyinchalik Yevropada va butun dunyo miqyosida tanitgan nemis olimi, tilshunos, adabiyotshunos, folklorshunos va mashhur turkolog Karl Rayxl, hamda unga ushbu imkoniyatlarni yaratishda ustozlik qilgan mashhur folklorshunos olim, akademik To'ra Mirzayev orasidagi ustoz-shogird an'anasi va olimning ustoziga bo'lgan hurmati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: folklor, folklorshunoslik, turkologiya, tarjima, qiyosiy tadqiq, doston, ertak, baxshi, folklor ekspeditsiyasi.

Annotation. In this article, the genres of dastans and fairy tales, which played an important role in the transmission of folklore samples of the Turkic peoples to the West, are deeply analyzed. Along with this, the mentor-student tradition and a scholar's respect for their teacher will be discussed between German scholar, linguist, literary scholar, folklorist, and renowned Turkologist Karl Reichl, who first introduced Uzbek folk tales and the "Alpomish" epic to Germany, and later to Europe and the world, through his translations, and the renowned folklorist, academician Tura Mirzayev, who mentored him on creating these opportunities.

Keywords: folklore, folklore studies, turkology, translation, comparative research, epic, fairy tale, Bakhshi, folklore expedition.

Аннотация. В данной статье глубоко анализируются жанры дастанов и сказок, сыгравшие важную роль в передаче образцов фольклора тюркских народов на Запад. Наряду с этим, будет обсуждаться традиция наставника-ученика и уважение ученого к своему учителю между немецким ученым, лингвистом, литературоведом, фольклористом и известным тюркологом Карлом Райхлом, который своими переводами впервые представил узбекские народные сказки и эпос «Алпамыш» в Германии, а затем в Европе и во всем мире, и известным фольклористом, академиком Турой Мирзаевым, который наставлял его в создании этих возможностей.

Ключевые слова: фольклор, фольклористика, тюркология, перевод, сравнительное исследование, эпос, сказка, бахши, фольклорная экспедиция.

Mutaxassisligi bo'yicha ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lgan Karl Rayxl taqdir taqazosi bilan 1958-yilda VJirmunskiy va H.Zarifovlarning "O'zbek qahramonlik eposi" kitobining doktor Fleysher nemis tilida o'giran hamda Germaniyada chop etilgan qisqacha bayoni bilan tanishadi. Shu tanishuv unga yangi bir sohani egallash uchun turtki bo'ladi. Kitob uning taqdirini tubdan o'zgartirib yuboradi. Olim o'zbek folklori, tarixi, urf-odat va an'analariga qiziqib, o'zbek folklori bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi. Dastavval mustaqil ravishda o'zbek tilini o'rganadi. Keyinchalik o'rganganlarini tarjima orqali mustahkamlab boradi.

Akademik To'ra Mirzayev aytganidek, "Karl Rayxl qandaydir siyosiy maqsadlar yoki o'tkinchi bir havas bilan o'zbek folklorini o'rganishga kirishgan emas, balki uni bu yo'lga o'zining qiyosiy tekshirishlariga keng imkoniyat ochishga intilishi, qadimgi grek, german, fransuz, kelt eposlarini har tomonlama o'rganishga bo'lgan ehtiyoj undadi. Uning tadqiqotlaridagi uzviylik va uzluksizlik shunday xulosa chiqarishga to'la asos beradi" [1: 2]. K.Rayxlning "Alpomish" dostoni yuzasidan olib borgan izlanishlari uning "Alpomish" o'zbek qahramonlik eposi" kitobida jamlangan. Bu kitob Bonn shahrida o'zbek va nemis tillarida bosilib chiqqan. Kitobdan asl matn, tarjima, tadqiqot hamda professor To'ra Mirzayevning "Alpomish dostonining o'zbek variantlari" kitobining katta bir bo'lumi joy olgan. Ushbu kitobning taqdimoti ham Bonn universitetida bo'lib o'tgan. Unda bevosita To'ra Mirzayev boshchiligidagi bir guruh o'zbek olimlari, O'zbekiston xalq baxshisi Shoberdi Boltayev va elchixona xodimlari ishtirok etishgan.

Karl Rayxl haqli e'tirof etganidek, o'zbek folklorshunoslarining birinchi galdagi vazifasi bu ulkan xazinani avlodlar uchun asrab qolish edi. "Hech mubolag'asiz aytamanki, bunday ulkan xazina kamdan kam xalqlarga nasib etadigan buyuk merosdir. Bu buyuk merosdan shu kunga qadar nashr etilganlari ummondan bir tomchi xolos", – deydi olim. K.Rayxl Germaniya qaytganidan so'ng oradan ancha vaqt o'tib akademik To'ra Mirzayevga 1981-yilning 21-sentabrida xat yozadi. Maktubida uning ustoziga bo'lgan mehrini yorqin his qilish mumkin:

"Juda muhtaram, juda aziz To'ra Mirzayev!

Marhamat qilib, Sizga hali maktubni yozmaganimni kechiring! O'zbekistondan Germaniyaga qaytganimdan beri ham universitetda ham uyimda ko'p ishim bor edi. Sizga yozishimdan ilgari, o'zbekcha yaxshiroq o'rganmoq istadim, ammo – afsuski - vaqtim yo'q edi. Shuning uchun yana bir marta xatolarimni kechiring!

Oldin sizga juda rahmat! O'zbekistonda turishim, institutingizda ishlashim, Siz va kasbdoshlaringiz bilan tanishishim menga juda yoqdi. O'zbekistondagi folklor to'g'rida ko'p o'rgandim va mamlakatingizda turishim men uchun juda muhim edi. Sizga rahmatimni ifodalab berish uchun o'zbek tilining ega bo'lishim yetmaydi!

Rahmatimni ham kasbdoshlaringizga – ayniqsa Z.Husaynovaga, M.Mirzayevaga, B.Sarimsoqovga, G.Jahongirovga, Yu.Nurmurodovga aytishingizni iltimos qilaman.

"Xalq baxshilarining epik repertuari" degan ko'p yaxshi kitobingizni Toshkentda oldim. O'zbek baxshilar to'g'rida nemis tilida bir maqola yozmoqdaman va buning uchun qiziq va muhim kitobingiz juda foydali. "Raushan"ning tarjimasini ham davom qilaman. "Yusuf va Ahmet" dostonining bir fotokopiyasi Yuldoshga yubordim, ammo u fotokopiyani olmaganini menga yozdi. Sizga shuning uchun yana bir kopiya yuboraman, Yuldoshga ham o'zbek ertaklarining bir tarjimasini, Sizga Germaniya to'g'rida bir kitob yuboraman.

Samimiy salomlar bilan,

Karl Reichl

1981-yil 18-noyabr.

Bu xat kitoblar bilan Germaniyaga qaytdi! Yana bir marta Sizga xatni, ammo endi kitobsiz yuboraman.

Karl Reichl" [3].

Xat ilmiy qimmatini yo'qotmasligini istaganimiz sababli, uni qog'ozda qanday yozilgan bo'lsa, shu tarzda maqolaga kiritdik. Satrlardan olimning o'zbek tilini 80-yillarning boshidayoq anchagina puxta o'zlashtirganini sezish qiyin emas. Olimning O'zbekistonga dastlabki tashrifidanoq uni o'zbek xalq og'zaki ijodiga qiziqishi ortganini va aynan o'sha tashrif olimning keyingi rejalarining ibtidosi bo'lganligini payqash mumkin. O'z o'rnida o'zbek-nemis aloqalarining yo'lga qo'yilganligi, mazkur fikr almashishlar o'zbek

olimlaridan Yo'ldosh Nurmurodovning "O'zbek folklori nemis tilida" nomli kitobining dunyoga kelishi va yana bir qancha tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajardi. Kitobda o'zbek xalq og'zaki ijodining nemis olimlari tomonidan o'rganilishi, mazkur sohada amalga oshirilgan tarjimalar, jumladan, Karl Rayxl tomonidan qilingan o'zbek ertaklari tarjimasi, mazkur tarjimalarning boshqa tarjimalardan farqi ularning asliyatdagi matn va tarjimaning yonma-yon joylashtirilishida ekanligi haqidagi folklorshunoslikda shu kunga qadar o'zbek-nemis qiyosiy aspektda o'rganiluvchi tadqiqotlar uchun qimmatli manba sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. K.Rayxl T.Mirzayev nashr ettirgan "Alpomish dostonining o'zbek variantlari" va "Xalq baxshilarining epik repertuari" kitoblari haqidagi fikrini davom ettirar ekan: "Bu faqat mening e'tirofim emas. Bunday e'tirofni rossiyalik, turkiyalik, amerikalik olimlarda ham ko'rishingiz mumkin", – deydi olim va bunga misol qilib rus olimi B.Putilovning "Epik ijod" nomli so'nggi kitobida uch yuzdan oshiq o'rinda To'ra Mirzayevning mazkur kitoblardan ko'chirmalar keltirganiga dalillar keltiradi va shu birgina misolning o'ziyoq o'zbek folklorshunosligining darajasini belgilab berishini ta'kidlaydi.

Karl Rayxl O'zbekistonga navbatdagi tashrifi jarayonida bevosita To'ra Mirzayev ilmiy rahbarligida o'z tadqiqotlarini olib boradi. U 1988-yil yozida Toshkentdagi Adabiyot institutining Folklor bo'limida T.Mirzayev bilan ishlagan. Shu boisdan u taniqli o'zbek folklorshunos olimi T.Mirzayevni o'zi uchun ustoz va do'st deb bilgan. Akademik T.Mirzayev yaratgan "Alpomish dostonining o'zbek variantlari" va "Xalq baxshilarining epik repertuari" kabi asarlarini Karl Rayxl nafaqat o'zbek, balki dunyo xalqlari folklori va epik ijodiyotini o'rganishdagi qimmatli manba ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun olim o'z tadqiqotlarida mazkur kitoblardan keng foydalangan. Hatto ayrim o'rinlarini tarjima qilib, ulardan dunyo folklorshunoslari ham foydalanishini ko'zda tutgan.

Karl Rayxl o'zbek baxshilari, dostonlari borasida ham qator tadqiqotlar olib borgan. Uning 1992-yilda yaratgan "Turkiy xalqlar qahramonlik eposi" nomli tadqiqoti Nyu-Yorkda ingliz tilida bosilib chiqqan. Bu kitobda ko'proq baxshichilik an'analari, turkiy xalqlar qahramonlik eposining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. K.Rayxl O'zbekistonga qilgan 2018-yilning 5-avgust sanasidagi tashrifi jarayonida o'z xati va dastxati bilan "Medieval Oral Literature" kitobini o'zi e'tirof etganidek, O'zbekistondagi do'sti va ustoz akademik T.Mirzayevga sovg'a qiladi. Yana shuni aytish lozimki, o'zbek folklorshunosligida K.Rayxl ilk bor o'z tarjimasini uning (baxshi yoki jirov tomonidan kuylangan) jonli ijrosidagi kompakt-disk bilan birgalikda nashr ettirish tajribasini boshlab berdi." [1: 17–20]. T.Mirzayev e'tirof etganidek, bu – o'zbek va qoraqalpoq dostonlaridan kompakt-disk bilan birgalikda chop etilgan birinchi nashrdir.

2007-yilda Finlandiya fanlar akademiyasi olimning "Edegy" dostoni haqidagi monografiyasini doston Jumaboy Bozorovdan yozib olingan variantini nashrdan chiqardi. K.Rayxl o'zbek dostonlarini tarjima qilishni "Ravshan" dostonidan boshlagan. Bu doston tarjimasi to'g'risida juda ko'p mutaxassislar iliq fikrlar bildirishgan. Ular Karl Rayxlning mazkur tarjimasini hamda bu doston haqidagi tadqiqotini yuqori baholashgan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Karl Rayxl O'zbekistonga kelganida bevosita To'ra Mirzayev ilmiy rahbarligida o'z tadqiqotlarini olib borgan. U taniqli o'zbek folklorshunos olimi To'ra Mirzayevni o'zi uchun ustoz va do'st deb bilgan. Olim yaratgan "Alpomish dostonining o'zbek variantlari" va "Xalq baxshilarining epik repertuari" asarlari nafaqat o'zbek, balki dunyo xalqlari folklori va epik ijodiyotini o'rganishdagi qimmatli manba ekanini ta'kidlagan. O'z tadqiqotlarida ham mazkur kitoblardan keng foydalangan. Bu esa bizga asrlar davomida Sharq xalqlari orasida davom etib kelayotgan ustoz-shogird an'analari hudud tanlamasligini yana bir bor isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T. Karl Rayxl – o'zbek folklori tadqiqotchisi // O'zbek tili va adabiyoti, 2013, №4. – B.17–20.
2. Mirzayev T. Ustozlar. Safdoshlar. Izdoshlar (Karl Rayxl – o'zbek folklori tadqiqotchisi). – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021.
3. Kalandarova D. Attitude to uzbek folklore in the research of Karl Reichl // Academia: An International Multidisciplinary Research Journal, 2021, 11.5. – P. 500 – 503.
4. Dilafuz, Kalandarova. Issues Of Uzbek Folklore and its Research in Germany // Journal of Positive School Psychology, 2022, 6.9. – P. 4395–4398.
5. Kalandarova D.A. Research classification of Karl Reichl. Current Research // Journal of Philological Sciences, 2021, 2 (11). – P. 29–33.
6. Kalandarova D.A. Problems of comparative folklore in the research of Karl Reichl. Cutting-Edge Science / International Scientific and Practical Conference, 2021, 1.9. – P. 32–33.

Shohista Ikrom qizi ERKINOVA,

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA IJOBIY XARAKTERDAGI KAMPIR OBRAZINING BADIY TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining yorqin namunalaridan biri bo'lgan ertaklardagi kampir obrazining badiiy tasviri, o'ziga xos xususiyatlari, ertak voqealari rivojida tutgan o'rnini va ahamiyatini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: folklor, ertak, kampir obrazi, dev kampir, pari.

Annotation. This article analyzes the artistic portrayal of the old woman's image in fairy tales, which are bright examples of Uzbek oral folk art, its unique features, and its role and significance in the development of fairy tale events.

Keywords: folklore, fairy tale, image of an old woman, giant old woman, fairy.

Аннотация. В данной статье анализируется художественное изображение образа старухи в сказках, являющихся яркими образцами узбекского устного народного творчества, его уникальные особенности, роль и значение в развитии сказочных событий.

Ключевые слова: фольклор, сказка, образ старухи, старуха-великанша, фея.

Xalq og'zaki janrlaridan biri bo'lmish ertaklarning aksariyatida kampir obrazi uchraydi. Ularning turli jihatlari, xil-xususiyatlari, xarakterlari ochib beriladi. Ertaklarning ba'zilarida kampir obrazini qalbi mehrga to'la, farzandi uchun jonini beruvchi, jonkuyar ona qiyofasida ko'rsak, ayrimlarida qaharli, makkor, o'z manfaati uchun hech narsadan qaytmaydigan yovuz qiyofada ko'ramiz.

Jamila Asqarovaning bildirishicha, “kampir – o'zbek xalq ertaklarida asosiy personajlardan biri, u asosan, bosh qahramonga ziyon yetkazuvchi yalmog'iz kampir, maston kampir, shum kampir va yordam beruvchi sehrgar ko'rinishlarida keladi” [1: 415]. Ertaklardagi kampir obrazlarining tahlilini ertak boshlamalaridan boshlaganimiz maqsadga muvofiqdir. Ertaklarda boshlama sujet chizig'ida doimiy element hisoblansa-da, sujet rivojiga aloqador emas, balki harakatning tashkil topishiga turtki bermaydi. U qahramonlar haqida ma'lumot beradi. Sujet chizig'ida sodir bo'ladigan voqea-hodisalarning qaysi zamon va makonda kechayotganidan xabar beradi. Boshlama sujet yo'nalishida noaniqlik va umumiylik kasb etadi: “Bor ekanda, yo'q ekan. Och ekanda, to'q ekan. Qadim zamonda bir podsho o'tgan ekan”. Boshlamalar har gal bir-birini inkor etuvchi muddaoni ifodalaydi. Ularda voqea va hodisalarning bo'lib o'tgan o'rni noma'lum bo'lib, nomi aytilmaydi, ularda noaniqlik hukmronlik qiladi: “Bir shahar, bir mamlakat” deb ta'kidlanadi, xolos [2: 3].

Ana shunday boshlamaga ega “Hunarli yigit” ertagi “Bir bor ekan bir yo'q ekan, qadim zamonda bir shaharda bir chol bilan kampir bo'lgan ekan” [3: 9] deya boshlanadi. Bu ertakda chol-u kampirning bir o'g'li va ota meros bir hovlisigina bo'lib ular nochorlikda kun kechirishi bilan voqealar rivoji boshlanadi. Ertakdagi chol va kampir obrazi ijobiy xarakterdagi obrazlardir. Bundan tashqari, “Podachining qizi” ertagidagi kampirni ham ijobiy xarakterdagi obraz sifatida olsak ham bo'ladi. Qizning kampirni uchratishi ham o'zgacha tarzda keltirilgan: “Bir kuni qiz dalada sigirni o'tga qo'yib, o'zi charx yigirib o'tirsa, birdan qattiq shamol turibdi-yu, paxtasini uchirib ketibdi. Qiz uni ushlab olaman deb yugurib ketaveribdi, lekin tutolmabdi. Oxiri paxtani shamol bir tog' bag'ridagi g'orga olib kirib ketibdi. Qiz paxtaning ketidan g'orning ichiga kirsak, oppoq sochli bir kampir o'tirgan emish” [3: 21]. Ushbu ertakda qiz va g'ordagi kampirning bir-biri bilan uchrashishiga magik vosita qilib shamol keltirilgan.

Mamatqul Jo'rayev “O'zbek xalq samoviy afsonalari” kitobida quyun, dovul, girdob yoki jillikalavan deb nomlanadigan shamol turlari va ular haqidagi xalq qarashlari, afsonalari to'g'risida o'z ilmiy mulohazalarini bildirib o'tgan. Olimning fikricha, qadimgi insonlar qattiq shamollarni yovuz kuchlarning faollashuvi natijasida sodir bo'ladi, deb anglaganlar va tabiiy hodisa ko'rinishida namoyon bo'ladigan yovuz kuchlarga magik amallar, ritual aytimlar vositasida sirli yo'sinda ta'sir etishga uringanlar. Lekin yuqorida shamol yovuz kuchlarning faollashuviga emas, balki ijobiy qahramonning yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan. Bu ertakda qiz kampirni bir uychada emas, g'orda uchratadi. Shuningdek, “Dev-kampir” ertagidagi kampirning makoni ham g'orda bo'ladi: “Tishlari bilan Bukri tog'ining biqinidan g'or ochib, o'ziga uy yasab olibdi” [8, 96]. Tog' va g'orlar yalmog'iz kampir, ajdaholarning nafaqat boshqa yovuz kuchlarning makonini, balki ilohiy makonlarni ham anglatgan. “Tog'lar, – deb yozadi Murot O'roz, – ulug'vorlikni ifoda etgan, tangri hisoblangan, qo'riqllovchilik vazifasini ado etgan tangrilar, tangrichalar va tog' parilarining makoni bo'lgan” [5: 20].

Ba'zi doston va ertaklarda g'orlar ibodat qilish joyi sifatida ham talqin qilinadi. Yuqoridagi ikkala ertakdagi kampirni

bir-biri bilan qiyoslaydigan bo'lsak, ularning umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlari ko'rinishimiz mumkin. Masalan, “Podachining qizi” ertagidagi kampirning makoni g'orda, “Zumrad va Qimmat” dagi kampirniki esa o'rmondagi uychada, ikkala kampir ham o'gay onaning qo'lida qiynalayotgan, azoblanayotgan qizchalarga yordam beradi. Eng ahamiyatli tomoni shundaki, bu ertaklardagi kampir ismi bilan berilmagan, ya'ni kimligi noaniq qoladi. Obrazlarning ismini keltirmasdan noaniq holda berish bu xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlardan biridir. Aksariyat xalq ertaklarida ijobiy xarakterdagi kampir ismsiz beriladi. Shuningdek, ikkala ertakda ham qizlarning o'gay onalari va ularning qizlari bor bo'ladi.

Yuqoridagi ertaklarda kampir obrazi inson qiyofasida namoyon bo'lsa, “Ermana mergan” ertagida parilar mamlakatidagi kampir dev ko'rinishidagi kampir edi. Ushbu ertakda dev kampir bilan parilar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rinishimiz mumkin. Kampir merganga yordam beradi. Ertakdagi matnni keltirib o'tsak yana-da tushunarliroq bo'lardi: “U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Parilar mamlakatiga yetib boribdi. Kechqurun ekan bir kampirnikiga salom berib kirib boribdi. Kampir dev kampir ekan. „Agar saloming bo'lmaganda, ikki yamlab bir yutardim”, – debdi va:

Bu yerlarda nima qilib yuribsan, – deb so'rabdi.

Men bu yerlarga bir qo'lni qidirib keldim, – debdi Ermana mergan.

Kampir o'ylab turib:

Agar sen shu qo'l bilan olishgan bo'lsang men sen bilan bellashmay qo'ya qolay, sen qidirib kelgan qo'l mening pari singlimning qo'li bo'ladi. Uning qirq quloch sochi bor, u qirq kun uxlaydi. Uxlaganiga endi uch kun bo'ldi, – deb u uxlayotgan chinorni ko'rsatibdi” [9: 229]. Ermana mergan parining qirqta sochini chinorning qirqta shoxiga bog'lab parini o'ziga taslim qiladi va unga uylanadi. To'yni esa parining dev kampir onasi qilib beradi. Qadimgi animistik tasavvurga ko'ra, soch jonli narsa bo'lib, unda egasining magik qudrati, kuchi mujassamlashgan bo'ladi [6, 10]. Shu sababdan pari o'z magik qudratidan mahrum bo'lganligi uchun Ermana merganga yengiladi. Shu tariqa Dev kampir, pari va Ermana mergan o'rtasida qarindoshlik aloqalari vujudga keladi.

“Odamzodning dev bilan qarindoshligi bizga turkiy xalqlarning qadim afsonalaridan ma'lum” [5: 32], – deb keltiradi Eshonqul Jo'raqulov. Bundan tashqari, “Dev-kampir” ertagidayam kampir dev sifatida beriladi. Shuningdek, bu ertakda podshoning o'lgan olti oylik bolasini yuvintirish, ya'ni g'assolik ishini ham bir kampir bajaradi. “Suv qizi” ertagida suvosti mamlakatiga tushib qolgan Tursunbek va G'ayratga suvni tagida yashovchi kampir o'z uyidan joy beradi. Bu kampir shu mamlakat podshosining qizining doyosi ekanligini ham aytadi. “Qora mushkul ot” [7: 5] ertagida ham kampir shohning qiziga enagalik qiladi. Yana shunday o'zga eldan kelgan yigitga o'z uyidan joy berib unga yordam qo'lini cho'zuvchi kampilardan birini “Qirq kuyov” ertagida uchratamiz. “Kampir qistaganidan keyin podshoh qizini olishga kelganini aytibdi. Kampir xafa bo'lib:

O'g'lim, bu ishni qo'y, juda og'ir ish, bajarishing mushkul. Yosh yigit ekansan, bekorga nobud bo'lma. Bir necha qiyin shartlari bor, ularni bajara olmasan. Mana qara, yettita qoziqda yettita ot turibdi. Mana shu yetti otni yetti o'g'lim minib yurar edi. O'g'illarim shu podshohning qizini olamiz, deb shartlarini bajara olmasdan, birin-ketin nobud bo'lishdi. Bir o'zim shu hovlida qoldim. Qo'y, o'g'lim, podshohning qizidan boshqa qizlar ko'p. Shulardan biriga seni uylantirib, o'zimga o'g'il qilib olaman, – debdi” [3: 222]. Kampirning

yigitga aytgan bu so'zlaridan uning ham ko'ngli yarim, farzand dog'ida qiynalayotganini bilib olamiz.

Ertaklarda va dostonlarda aksariyat kampirlar befarzand yoki farzandi olamdan o'tgan sifatida beriladi. Aynan ushbu ertakda podshohlar kampirlarni sovchi qilib ham jo'natishgan. Kampirning sovchilikka kelishi xuddi shunday tarzda "Nigini shohi moron" ertagidayam uchraydi. Ota-onasi uyidan haydab yuborgan bola daryo yoqalab ketayotib oqshoq oxirib turgan kampirni ko'rib unga salom berib bu kecha uyida tunashi uchun ijozat so'raydi. Kampir avvaliga bolaga qaramay salomiga alik ham olmay uyiga kirib ketadi. Bolakay kampirning darvozasi oldida o'tirib ilonning bergan uzugi orqali oldiga turli xil noz-u ne'matlarni paydo qilib kampirni chaqiradi. Keyin ikkalasi yeb-ichib suhbatlashib bo'lgach kampir bolani uyiga kildiradi. Bola bilan kampirning bir-birlariga mehri tushib ona-bola tutunishadilar. Bola shu mamlakat podshohining qiziga oshiq bo'lib kampir enasini sovchilikka yuboradi. "– Ey, borsam, boraqolay-da, – deb podshonikiga qarab ketdi. Borib arkoni davlatning darvozasini supura boshladi" [7: 42]. Demak, kampirlar ham enagalik, ham sovchilik, ham g'assolik vazifalarini bajaruvchi shaxs sifatida keltirilgan ekan.

"Shamshirboz" ertagida bosh qahramonlar Obboz va Shamshirboz yana ertaklardagi an'anaviylik asosida bir kampirdan tunash uchun joy so'raydi: "Shaharda bir daryo bo'yida bir ko'prik bo'lib, ko'prik tagida bir kampir oqshoq oqlab o'tiribdi. Kampir bilan salomlashib, bir kecha yotish uchun joy so'radilar. Kampir: "Joy yo'q", deb oqshog'ini oqlab, yoniga qaradi va ikki yigitni ko'rdi. Bu yigitlar ham o'z bolalariga o'xshash ko'ziga yaxshi ko'rinib: "Hay bo'lmasam, bir kechalik joy berayin", deb uyiga olib bordi" [7, 117]. E'tibor

bergan bo'lsangiz "Nigini shohi moron" va "Shamshirboz" ertaklarining ikkalasida ham kampirlar daryo yaqinidagi uyining atrofida oqshoq, ya'ni oqshuvoq (Oqish mayda bargli, o'tkir hidli, achchiq, poyasi pishiq, kuch va uzun yovvoyi o't. Undan supurgi qilinadi) [4: 512] tozalab turgan holatda tasvirlangan.

"Xotam" ertagida boshqa shaharga ketayotgan Jalolboy va Xotam kech tushib qolganligi uchun bir kambag'al kampirning uyida tunab qoladilar. Jalolboyning shu kampirdan Dilorom haqida eshitishi bilan uning sarguzashtlari boshlanib ketadi. Bu ertakdagi kampir obrazi Dilorom haqida xabar berishi orqali sujet liniyalarini boshlab bergan. Ushbu ertakdagi kabi kambag'al kampir "G'ulombachcha" ertagida ham bor. Bu kampirning mamlakatining bir qoidasi bo'lib, unga ko'ra kambag'allar bolalarini sotar ekan. Ertak qahramoni bo'lmish kampir enamiz ham juda nochor ahvoldaligidan yakka-yu yagona o'g'lini bozorga olib borib sotishga majbur bo'ladi. G'ulombachchaning onasi unga o'xshagan nochorlikdan farzandini sotgan onalarning tipik obrazi sifatida xalq tomonidan ertakka kiritilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ertaklardagi ijobiy xarakterga ega kampir obrazlarining nomsiz, ya'ni ismsiz berilishi birinchidan, xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan noaniqlik, umumiylik usuli bo'lsa, ikkinchidan, yoshi katta kampir enalarga bo'lgan hurmat yuzasidan ularning ismi aytilmagan. Ular aksariyat ertaklarda farzandsiz deb keltiriladi. Agar farzandi bo'lgan taqdirdayam yolg'iz bitta farzandi bo'lib, uni nochorligidan sotib yuboradi, yoki farzandi birdan ko'p bo'lsa, ertakda ularning hammasi olamdan o'tgan-u onasi farzand dog'ida kuygan bo'lib, musofir bo'lib o'zga eldan kelgan bolani o'ziga o'g'il qilib oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarova J. Epik janrlarda ayollar obrazining qiyosiy tadqiqi / "Zamonaviy baxshichilik san'ati: oltin merosning yangi ohanglari" mavzusidagi III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: Nodirabegim, 2023.
2. Juraqulov R.D. Ertak janrining o'ziga xos xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences, 2022. Volume 3, Issue 5.
3. O'zbek xalq ertaklari (Uch og'ayni botirlar). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
5. Eshonqul J. Folklor. Obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999.
6. Kayumov O. Uzbek folklorida pari obrazi. – Toshkent, 1999.
7. Kul'sa – gul, yig'lasa – dur ertaklar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti, 1983.
8. O'zbek xalq fantastikasi. (Yonar daryo. Sehrli ertaklar). IV kitob. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1986.
9. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. Oltin beshik yertaklar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashtiyoti, 1985.

Manzura TUYCHIYEVA,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti
xitoy filologiyasi kafedrasida stajyor-o'qituvchisi*

XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA ZONIM FRAZELOGIK BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy va o'zbek tillarida keng qo'llaniladigan zoonim frazeologik birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlari, ular orqali ifodalangan milliy-madaniy qadriyatlar, shuningdek, xalq dunyoqarashining til birliklarida aks etish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har ikki tildagi hayvon nomlari ishtirok etgan iboralar o'zaro qiyoslanib, umumiy va farqli jihatlar, hayvon obrazlarining konnotativ ma'nosi, madaniy stereotiplarda tutgan o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: zoonimlar, frazeologik birliklar, lingvokulturologiya, xitoy tili frazeologizmlari, o'zbek tili frazeologizmlari, madaniy konnotatsiya, milliy-madaniy xususiyatlar.

Annotation. This article analyzes the semantic and pragmatic features of zoonymic phraseologisms widely used in Chinese and Uzbek languages, the national-cultural values expressed through them, and the peculiarities of reflecting the worldview of the people in linguistic units. During the research, expressions with animal names in both languages are compared, their common and distinctive features, connotative meaning of animal images, and their place in cultural stereotypes are highlighted.

Keywords: zoonymic units, phraseological units, linguistic cultural studies, Chinese phraseology, Uzbek phraseology, cultural connotation, national and cultural features.

Аннотация В данной статье анализируются семантико-прагматические особенности зоонимических фразеологизмов, широко используемых в китайском и узбекском языках, национально-культурные ценности, выраженные через них, а также особенности отражения мировоззрения народа в языковых единицах. В ходе исследования сравниваются выражения с названиями животных в обоих языках, освещаются общие и отличительные черты, коннотативное значение образов животных, их место в культурных стереотипах.

Ключевые слова: зоонимы, фразеологические единицы, лингвокультурология, фразеологизмы китайского языка, фразеологизмы узбекского языка, культурная коннотация, национально-культурные особенности.

Til insoniyatning eng qadimiy ijtimoiy-madaniy hodisasi bo'lib, unda xalqning ma'naviy merosi, mental dunyosi, qadriyatlar, urf-odat va an'analari mujassamdir. Frazеologik birliklar esa tilning eng obrazli, semantik jihatdan murakkab qatlamini tashkil etadi. Ayniqsa, zoonim komponentli iboralar xalqning asrlar davomida shakllangan tasavvurlari, turmush tarzi, hayvonot olami bilan bog'liq qadriyatlar va dunyogarashining eng yorqin lingvokulturologik ko'rsatkichidir [1: 27].

Turli xalqlarning hayvonlarga munosabati ularning ekologik sharoitiga, xo'jalik faoliyatiga, diniy e'tiqodiga, mifologik tasavvuriga, ijtimoiy hayotiga bevosita bog'liq bo'lgan. Masalan, o'zbek xalqi asrlar davomida chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanib, hayvonlarni kundalik turmushning ajralmas qismi sifatida qabul qilgan. Shu bois ot, sigir, qo'y, it kabi hayvonlar bilan bog'liq iboralar ko'p uchraydi. Xitoy xalqi esa hayvonlarni ko'pincha mifologik va ramziy mazmunda talqin qiladi. Ajdar (龙), turna (鹤), maymun (猴) kabi obrazlar xitoy madaniyatida ko'p asrlik simvolik talqinlarga ega.

Frazеologik birliklar – semantik jihatdan yaxlit, grammatik jihatdan barqaror, obrazli ma'noga ega bo'lgan nutq birliklaridir. Ular ko'pincha metaforik tusga ega bo'lib, nutqda hissiy-ta'sirchanlikni oshiradi [2: 31]. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlar quyidagicha tasniflanadi:

- semantik butunlik darajasiga ko'ra: frazemalar, frazeologik birliklar, frazeologik birikmalar;
- komponentlarning o'zgaruvchanlik darajasi bo'yicha;
- kelib chiqish manbai asosida: mifologik, etnografik, diniy, tarixiy va boshqalar.

Zoonim frazeologizmlar esa hayvon nomi asosida shakllanadigan turg'un birikmalardir. Zoonimlar xalqning hayvonot olamiga bo'lgan munosabati orqali dunyoni idrok etish modelini ko'rsatadi. Bu iboralarda quyidagilar aks etadi:

- hayvonlarning biologik xususiyatlari (tezlik, sekinlik, ayyorlik);
- xalqning real turmush tajribasi;
- mifologik va diniy e'tiqodlar;
- o'lchovlar, sifatlar, ijtimoiy baho;
- qadriyatlar tizimi (ot – sadoqat, ajdar – qudrat).

Frazеologik birlikda zoonimning ma'nosi ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri hayvonga emas, balki **inson xarakteriga** nisbatan qo'llanadi [3: 45]. Zoonimlar har ikki tilda ikki darajada namoyon bo'ladi:

universal – butun dunyo xalqlarida bir xil ma'no olishi (tulki – hiylakor);

milliy – faqat o'z madaniyatiga xos (ajdar – xitoyda baxt, o'zbekda ertak qahramoni).

Xitoy va o'zbek tillarida zoonim frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili

It / 狗 (gōu) obrazining madaniy konnotatsiyasi. O'zbek tilida: It ko'pincha maishiy hayotdagi pozitsiyasi tufayli salbiy baho beradi: *itdek charchamoq* – haddan ortiq holdan toyish, *itning bolasi* – haqorat, *it qilmoq* – xor qilish. Lekin ijobiy holatlar ham bor: *itdek sadoqatli* – sodiq inson.

Xitoy tilida aksariyat iboralarda salbiy: 狗眼看人低 – odamlarni kamsituvchi, 狗嘴吐不出象牙 – yomon odamdan

yaxshi so'z chiqmaydi. Lekin Xitoy taqvimida *dog year* – omadli yil sifatida ham talqin qilinadi [4: 23]. **Farq:** O'zbekchada *it* – maishiy baholash vositasi. xitoychada – axloqiy tanqid instrumenti.

Ot / 马 obrazi – kuch va muvaffaqiyat timsoli. O'zbek tilida Turkiy madaniyatda ot yuksak maqomga ega: *otday chopmoq*; *otdek yigit*, ot – erkinlik, jasurlik, do'stlik ramzi. **Xitoy tilida** ot farovonlik va tezlik ramzi: 马到成功 – darrov muvaffaqiyat, 千里马 – iste'dodli shaxs. **Umumiylik:** “kuch”, “tezlik”, “yuksaklik” ma'nosi ifodalanadi.

Sigir / 牛 obrazining ikki xil madaniy talqini. O'zbek tilida sigir sokin, yuvvosh: *sigirdek bosiq*, *sigir bo'lib turmoq*. **Xitoy tilida** “牛” – kuch, baraka, mehnatsevarlik, 牛气冲天 – kuchi to'lib-toshgan, 老黄牛 – juda mehnatkash inson. **Farq:** xitoychada – ijobiy, o'zbekchada – sokin, kamharakat.

Maymun / 猴子 obrazining ikki xil madaniy talqini. Maymun obrazi ko'pincha aqlli, chaqqon, ba'zan talpinchi va hiyla-nayrangli sifatlar bilan bog'lanadi. **Farq:** maymun Xitoy madaniyatida aqlli, hazil-mutoyibaga moyil va talpinuvchi obraz sifatida ko'plab hikoya va afsonalarda uchraydi. O'zbek madaniyatida esa ko'pincha shod, talpinuvchi, ba'zan aldovchi obrazni yaratadi.

Ilon / 蛇 obrazining ikki xil madaniy talqini. Xitoy madaniyatida ilon hiyla, ehtiyotkorlik va ba'zan tahdid ramzi. **Farq:** xitoy xalqida *ilon* ko'pincha sehrli, bilimli hayvon sifatida ko'rsatiladi. o'zbek xalqida hiyla, aldov yoki xavf bilan bog'lanadi.

Ajdar / 龙 obrazining farqli konnotatsiyasi. Xitoyda ajdar – eng yuksak simvol: hukmdorlik, mo'l-ko'lchilik, kuch, baraka ramzi. **O'zbek folklorida** ajdar – ertak qahramoni, ko'pincha yovuz mavjudot. **Bu eng yaqqol madaniy farqlardan biri** [5: 18].

Xitoy falsafasida hayvonlar:

- taqdir ramzlari (12 hayvon yilnomasi),
- tabiat elementlarining in'ikosi,
- kosmik kuchlar tasviri,
- taoistik “yin-yang” muvozanati sifatida talqin qilinadi.

Ajdar, turna, yo'lbars, ilon kabi hayvonlar ming yillardan beri ramziy ahamiyatga ega.

O'zbek madaniyatida hayvonlarning o'rni. Turkiy xalqlarning ko'chmanchilik, chorvachilik, otga sig'inish an'anasi zoonimlarning mazmuniga bevosita ta'sir qilgan. Hayvonlar ko'pincha jasurlik, sadoqat, omonlik, ro'zg'or timsoli sifatida gavdalanadi.

Frazеologizmlarning emotsional baholash funksiyasi. Zoonim frazeologizmlar odatda baholovchi xarakterga ega: ijobiy baho – ot, turna, ajdar; salbiy baho – it, cho'chqa, tulki. Bu baho xalqning qadriyat tizimi bilan belgilanadi.

Xitoy va o'zbek tillaridagi zoonim frazeologik birliklar har ikki xalqning madaniy merosi, qadimiy tasavvurlari va hayvonot olamiga bo'lgan munosabatini chuqur aks ettiradi. Ikki til o'rtasidagi qiyosiy tahlil natijalari:

- Umumiy antropologik stereotiplar mavjud (tulki – ayyorlik).
- Ayrim hayvonlar ramziy ma'nosi keskin farqlanadi (ajdar, sigir).
- Frazеologizmlar madaniy kod rolini bajaradi.

- Zoonimlar xalqning mental dunyosini ochib beradi.
- Xitoy frazeologiyasida mifologik ramzlar ko'p, o'zbek tilida esa etnografik obrazlar ustun.

Demak, zoonim frazeologizmlar nafaqat tilning obrazli qatlamini tashkil etadi, balki madaniyatlararo tafakkurni o'rganish uchun ham asosiy manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Abduraxmonov G. O'zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent, 2010.
Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 2004.
刘正光. 汉语习语研究. – 北京, 2012.
王力. 现代汉语语法研究. – 北京, 1991.
Xasanova D. Zoonimlar negizidagi o'zbek tili frazeologizmi. – Samarqand, 2018.

Farruxbek OLIM,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

NAVOIY MANOQIB-HOLOTLARIDA ZULLISONAYNLIK VA KO'PTILLILIK MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning manoqib-holotlari, ya'ni "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlari tili haqida so'z boradi. Asardagi o'ziga xos ifoda va tasvir xususiyatlari, zullisonaynlik va ko'ptillilik masalalari tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Navoiy, Jomiy, Sayyid Hasan, Pahlavon Muhammad, manoqib-holot, siymo, til, ifoda, tasvir, zullisonaynlik, ko'ptillilik, diniy ifodalar.

Annotation. This article examines the language of the works by the great poet and thinker Alisher Navoi: «Khamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad.» The features of expression and imagery in the works, as well as the issues of bilingualism and multilingualism, are analyzed.

Keywords: Navoiy, Jami, Sayyid Hasan, Pahlavon Muhammad, manoqib-holot, language, expression, imagery, bilingualism, multilingualism, religious expressions.

Аннотация. В данной статье рассматривается язык произведений великого поэта и мыслителя Алишера Навои «Хамсат ул-мутахаййирин», «Голоти Сайид Хасан Ардашер», «Голоти Пахлавон Мухаммад». Анализируются особенности выражения и образа в произведении, вопросы двуязычия и многоязычия.

Ключевые слова: Навои, Джами, Сайид Хасан, Пахлавон Мухаммад, манокиб-голот, язык, выражение, образ, двуязычие, многоязычие, религиозные выражения.

Navoiyning ustoz Abdurahmon Jomiy xotirasiga bag'ishlab yozilgan "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida zullisonaynlik mavjud. Albatta, asar, avvalo, turkiy tilda yozilgan. Biroq unda keltirilgan maktablar, she'riy baytlarning ko'pchiligi aynan forsiyda. Navoiy ustozining hurmati uchun uning xatlari va ularga ilova qilingan she'riy baytlarga forsiy tilda javob qaytaradi. Shuning uchun ham, "Xamsat ul-mutahayyirin"ning "Ikkinchi maqolat"idagi barcha xat va she'riy yozishmalar forsiy tilda. Jomiy turkiyda ijod qilgan, buni Navoiy asarining "Uchinchi maqolat"ida: "...*Turkcha alfoz bila nazmg'a iltifot qilmas erdilar*", [1: 71] deb alohida ta'kidlab o'tadi.

Qalam sohibining zullisonaynlik va ko'ptillilik mavzusidagi fikrlari "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida namoyon bo'lgan. U, avvalo, arab tili haqida so'z yuritib, "Qur'oni karim" va hadislar shu tilda ekanini, shu sabab ham mo'jizali lison ekanini ta'kidlaydi. Keyin esa turkiy, forsiy va hindiy tillar muhokamasiga o'tadi. Navoiyning ta'kidlashicha, turkiylarning aksariyati forsiyni tushunadi, yaxshi so'zlay oladi, hatto, shoirlari shu zabonda she'rlar yozadi: "... *turkning ulug'din kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort tilidan bahramanddurlar, andoqim o'z xirad ahvoliga ko'ra ayturlar, balki fasohat va balog'at bila ham takallum qilurlar. Hatto, turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ash'or va shirin guftor zohir qilurlar*" [2: 12]. Ammo forsiylar turkiyda so'zlay olmasliklari, tushunmasliklari, mabodo, birortasi o'rgansa ham, hozirgi til bilan aytganda, aksent bilan gapirishini kuyunib yozadi: "Ammo sort ulusining arzolidin ashrofig'acha va omiysidin donishmandig'acha hech qaysi turk bila takallum qila olmaslar va takallum qilg'onning ma'nisin ham bilmaslar. Agar yuzdin, balki mingdin biri bu tilni o'rganib, so'zki aytsa ham, har kishi

eshitsa bilur va uning sort ekanin fahm qilur va mutakallim o'z tili bila o'z rasvolig'ig'a o'zi iqror qilg'ondektur" [2: 12]. Shundan anglashiladiki, zullisonayn shoirlarning deyarli hammasi turkiy qalamkashlardan chiqqan. Ular an'anaga muvofiq forsiy tilda, shuningdek, o'z ona tillarida ijod qilishgan. O'sha davrda o'zi forsiy bo'lib, turkiyda qalam surgan ijodkor deyarli yo'q. Shuning uchun zullisonaynlik ham bir tomonlama bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin. Arab tili esa, asosan, diniy vazifani bajargan. Shuningdek, Sharq uyg'onishi davridan beri (IX-XII asrlar) ilmiy asarlarni shu tilda yozish an'anasi shakllangani bois, forsiy va turkiy tilda yozilgan badiiy asarlarga ham arabiy nom berish urfga kirgan.

Navoiyning bir qism forsiy asarlari yaratilishiga Jomiy sababchi bo'lgan. "Xamsat ul-mutahayyirin"da aks etgan ikki ijodkorning bir-biriga o'zaro adabiy ta'siri ana shunday xulosa chiqarishga imkon beradi. Navoiy, hatto, Jomiyga bag'ishlangan 140 misradan iborat marsiyasini ham ustozini ruhini inobatga olgan holda aynan forsiy tilda yozdi.

"Xamsat ul-mutahayyirin" Jomiyga bag'ishlangani uchun ham undagi forsiy misralarning soni – turkiydagisiga qaraganda ancha ko'p. Asarda keltirilgan jami 660 misraning 526 tasi, ya'ni 79,7 foizi – forsiy, 134 tasi, ya'ni 20,3 foizi esa – turkiy. Demak, forsiy tildagi she'rlar – hajman turkiy tildagi satrlardan 4 barobar ko'p. Bu tabiiy edi. Chunki Jomiy forsiy shoir edi, Navoiyning u bilan muloqotlari ham aksaran shu tilda amalga oshgan. Navoiy ham "Xamsat ul-mutahayyirin"da zullisonaynlikning o'sha davrda amalda bo'lgan shu an'anasiga qat'iy amal qilib, keltirilgan forsiy parchalarni turkiyga tarjima qilib o'tirmaydi. Ammo muallif asarda boshqa bir qat'iyatni mahkam tutadi. Qaysi tilda

aytilganidan qat'i nazar, Jomiy Navoiyga bildirgan fikr-mulohazalarning bari turkiyda keltiriladi. Demak, asardagi zullisonaynlikning nozik xususiyatini aniqlab olish kerak. Bu shundan iboratki, "Xamsat ul-mutahayyirin" ikki tilda emas, bir tilda, ya'ni turkiyda yozilgan. Biroq undagi forsiy badiiy iqtiboslar aynan keltirilgan. Shu tariqa faktning ishonchligi ta'minlangan. Bu o'sha davr uchun qabul qilinadigan usul bo'lgan.

Alisher Navoiyning "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlari janr jihatidan Abdurahmon Jomiy haqida yozilgan "Xamsat ul-mutahayyirin"ga yaqin tursa-da, holotlar hajm jihatidan kichikroq asar bo'lganligi uchun ham ulardagi ifoda va tasvir usullari birmuncha farq qiladi. Qalam sohibi holotlarda ixchamlikka intilgani yaqqol ko'rinib turadi. "Holoti Sayyid Hasan Ardasher"da alohida hikoyatlar keltirilmagan. Lekin asar tarkibida ikkita o'ta nozik va ta'sirchan voqea bor. Birinchisi, Sayyid Hasananning mansabni tark etishi, podshohdan izn so'rashdagi murakkab vaziyat bo'lsa, ikkinchisi yolg'iz farzandi Sayyid Muhammadning o'limi bilan bog'liq. Sayyid Hasan oltmish yoshdan keyin dunyoviy ishlardan, mansablardan voz kechib, to'liq Haq yo'lida xizmat qilishga kirishish uchun podshohdan ruxsat so'ragani, ammo Husayn Boyqaro bunga ikki yilcha ko'nmaganini yaxshi bilamiz. Xalqqa va hokimiyatga manzur bo'lgan davlat xizmatchisidan voz kechish podshoh uchun ham yoqimli ish emas edi. Ammo vaziyat uni chorasiz qoldirdi. Navoiy ana shu nozik holatni mahorat bilan yetkazishga harakat qiladi. Muallif Haq yo'lga intilgan Sayyid Hasananning ham, sodiq bir xizmatchisidan ayrilayotgan hukmdorning ham holatini bortligicha tasvirlashga intiladi. Asarni o'qiyotgan o'quvchi ikkala shaxsning ham vaziyatini to'g'ri tushinishi kerak. Muallifning asl maqsadi, aslida – shu. Navoiyning tarixiy fakti to'g'ri yetkazish mahorati aynan shu yerda ko'rinadi: *"Chun podshoh ulcha imkoni bor, iltimosda mubolag'a qildilar. Ko'rdilarki, alarning qiriftorlig'i andoq yerda ermashki, o'zluklari bila yo birovning ehtimomi bila xaloslik mumkin bo'lg'ay. Ko'rdilarki, ortuqrog' mubolag'a voqe' bo'lsa, zulm bo'lg'udekdur, rahm qildilar va chorasiz ruxsat voqe' bo'ldi"* [3: 98]. Podshoh Sayyid Hasandan ishda qolishni iltimos qiladi, ammo ko'radiki, o'zining yoki boshqa kishining talabi bilan biron narsa o'zgaradigan emas. Ortiqcha qaysarlik qilsa, unga zulm bo'lishini bilib, rahm qiladi va chorasiz ruxsat beradi. E'tibor berilsa, yuqoridagi parchada *"ko'rdilarki"* so'zi kalit so'z bo'lib xizmat qilyapti. Bundan oldingi abzasda ham *"podshohi islompanoh chun ko'rdilarkim"* [3: 97] degan birikma keladi. Navoiy real, zamondosh hukmdor haqida so'z yurityapti. Shuning uchun ham, vaziyatni tasvirlashda diplomatik yo'l tutadi. *"Ko'rdilarki"* so'zi esa, nozik holatni tasvirlashda eng muhim kalimaga aylanadi.

Asarda keltirilgan ikkinchi muhim voqea, ya'ni yagona farzand Muhammadning o'limi va uning qabrga qo'yilishi bilan bog'liq. Bu musibatni ham Sayyid Hasan Xudoga noshukrlik bo'lmasligi uchun haddan ziyod sabr va og'irlik bilan qabul qiladi. Sunnatga muvofiq o'g'lini o'zi qabrga qo'ygan vaqtda ham vazminlikni yo'qotmaydi. Bundan atrofda qattiq taajjubga tushadi. Navoiy buni shunday ifodalaydi: *"Na'sh bilan borg'on darveshlar va akobiru ashrofni hayrat lol qilib, taajjub behol qildi. Bu nav' fano va istig'roq va havsala bashar xaylidin noma'lumdirkim, kimda bo'la olg'ay"* [3: 100].

Holotda Sayyid Hasananning 6 ta fazilati alohida sanaladi. Shu xislatlarni ajratilgan holda ko'rsatib berish uchun Navoiy 5 marta ketma-ket *"yana biri"* [3: 94] degan so'zni qo'llaydi. Zamonaviy matnlarda biz bunday o'rinlarda raqamlardan foydalanamiz. Lekin XV asrda bunday qoidalar hali shakllanib ulgurmagan edi. Ammo fazilatlarini alohida ajratib ko'rsatishga

ehtiyoj yuqori bo'lganligi uchun ham muallif ana shu so'zni o'z o'rnida ishlatadi.

Navoiy "Xamsat ul-mutahayyirin"da Jomiy sizlab yozgani kabi holotda ham Sayyid Hasananning orqasidan har doim sizlab yozadi. Masalan: *"...o'z hollarida erdilar"* [3: 95], *"...topar erdilar"* [3: 95], *"...tilar erdilar"* [3: 96], *"...tortar erdilar"* [3: 96], *"...musharraf bo'ldilar"* [3: 96]. Bu ham muallifning nozik farosatini, ulug'larga bo'lgan o'ziga xos hurmatini, shuningdek, qalam tebratish madaniyatini ko'rsatadi. Husayn Boyqaro haqida so'z yuritilganda ham Navoiy doim sizlab yozadi. Asarda dialog, ko'chirma gapdan ham foydalanilgan. *"Bir ulug' kishi so'rdikim: "Barchani musallam tutduq, ammo suvning zavqi nechuk yigitlikdagicha bo'lmag'ay? Har kishi suvsiz bo'lsa, xoh qari, xoh yigit suv ichgach, atashi dav' bo'lub, zavqe topar"*.

Alar dedilarkim: "Rost, zavq topar, ammo tafovut bor..." [3: 101].

"Holoti Sayyid Hasan Ardasher"da nasriy forsiy matnlar yo'q. Faqat ikki o'rindagina forsiy misralar keltirilgan. Birinchisi, tosh qozon haqidagi bayt bo'lsa, ikkinchisi, Ardasherning vafoti munosabati bilan tushirilgan ta'rix. Ikkisi jami 6 misra. Holotdagi turkiy misralarning soni 46 ta. Demak, asardagi she'riy matnlarning 11,5 foizigina forsiy tilda ekan. Navoiyning manolib-holotlari ichida forsiy tildan eng kam foydalanilgani shu asar bo'lib chiqyapti.

"Xamsat ul-mutahayyirin"dagi kabi ushbu holotda ham arabiy ifodalar mavjud. Bu o'rinda ham arabiy ifodalar, asosan, shaxslar nomlari tilga olinganda ishlatilgan. Olamdan o'tganlarning ismi tilga olinganda ishlatiladigan bu diniy iboralardan tashqari, yana bir o'rinda arabiy ifoda keltiriladi. Bu safar Sayyid Hasananning tilidan. U yolg'iz farzandi vafot etganida: *"Al-hukmu lilloh" egasiga bizdin keraklik ekandur – eltti, umid uldurkim, rahmat qilg'ay*, [3: 100] – deydi. *"Al-hukmu lilloh"*, ya'ni *"Allohning hukmi bilan"* deb tarjima qilinuvchi bu ibora *"Allohning irodasi"*, *"Allohning xohishi"* sifatida hozir ham ishlatiladigan ifodalardan biri.

Hajm jihatidan deyarli teng bo'lgan holotlar boshqa ko'p jihatlari bilan ham o'xshash. Navoiy ikkala asarda ham umumiy qolipdan foydalangan. Holotlarda tamoman boshqa-boshqa shaxslar tasvirlangan bo'lsa ham, o'quvchi ularlardagi ifoda va tasvir uslubining hamohangligini, albatta, sezadi. Shakldagi bu o'xshashlik holotlarning birinchi abzasidanoq bilinadi. "Holoti Sayyid Hasan Ardasher"ning boshida Navoiy Sayyid Hasananning *"siyar va holoti"* [3: 89], "Holoti Pahlavon Muhammad"da Pahlavon Muhammadning *"siyrat va surati"* [4: 105] haqida hikoya qilishini aytib o'tadi. Bu o'rinda muallif asar kimga bag'ishlanganini bildirib, ularning ismini to'liq keltiradi.

"Holoti Pahlavon Muhammad" asari nisbatan keyinroq yozilgani uchun ham "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" Navoiyning bu tipdagi asar yozishiga qolip bo'lib xizmat qilgan. Ammo ikkinchi holotda ham o'ziga xosliklar ko'rinib turadi. Birinchidan, "Holoti Pahlavon Muhammad"da she'riy matnlarning hajmi anchagina keng. Chunki Pahlavon Muhammad ham shoir, ham xonanda, ham qo'shiqnavis edi. Shu sabab ham muallif bu o'rinda she'riyatga kengroq o'rin ajratgan. Ikkinchidan, forsiy matnlar ham birinchi holotdagidan ko'ra ancha ko'p. Pahlavon forsiy tilda ijod qilgan.

Asarning badiiy jihatdan eng muhim qismi bu – yetti baytli g'azal bilan bog'liq hikoyat keltirilgan sahifalar deyishimiz mumkin. *"Har qayon boqsam"* deb boshlanuvchi g'azalning maqta'sidagi *"Gar Navoiy"* so'zi o'rniga *"Gar Nasimiy"* deb, shoirni g'alati ahvolga solgan Pahlavonning ajoyib hazilkash inson ekanligini bilamiz. Navoiy bu voqeani shunchaki keltirmaydi, balki Pahlavonning quvligidan tashqari, adabiy bilim darajasi yuqoriligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bundan

tashqari, u Navoiyga shunchalik yaqinki, unga bemaolol hazil qilishga haddi sig'adi.

Muallif hikoyani tasvirlashda dialog usulidan foydalanadi.

Masalan: *“Zarurat yuzidin so'rdimki:*

– Bu she'rni qachon yod qilib eding?

Dedi:

– O'n ikki yil bo'lg'ayki, Bobur mirzoning majlisida bu she'r o'tar erdi, menga bag'oyat xush keldi, bitib yod tuttum” [4: 117].

Ikki shaxs orasidagi suhbatni dialog usulida ifodalash ancha qulay va o'quvchiga ham tushunish oson. Ammo bir jihat hammamizni qiziqtiradi. Navoiy Pahlavon bilan qaysi tilda suhbat qilgan? Pahlavonning Navoiy turkiy she'rini yodlashidan taxmin qilishimiz mumkinki, u turkiyni yaxshi bilgan. Garchi, dialogdagi savol-javoblar turkiyda keltirilgan bo'lsa ham, ikki shaxs qaysi tilda suhbat qurgani bizga ma'lum emas. Navoiy Jomiy bilan forsiy tilda gaplashgan. Lekin *“Xamsat ul-mutahayyirin”* dagi ustoz-shogird suhbatlari turkiyda keltiriladi. Shuning uchun ham bu holotda Navoiy Pahlavonning so'zlarini turkiyga o'girib keltiryaptimi yoki boricha yozyaptimi, buni aniqlash juda mushkul. Ammo yana bir muhim jihat ajablantiradi. Navoiy Jomiy ham, Sayyid Hasanni ham orqasidan sizlab gapiradi. Buni yuqorida alohida e'tirof etgandik. Biroq negadir bu holotda Pahlavonni sizlamaydi. Yuqoridagi dialogdan ham buni sezish mumkin. Nega muallif o'z prinsipiga amal qilmadi? Bu – Navoiy ikki ustozidan ko'ra, Pahlavonni kamroq hurmat qilganligidan desak, adashamiz, albatta. Balki, Navoiy ifodaning qisqaroq shaklidan foydalanishga qaror qilgandir.

Navoiy Pahlavon Muhammad o'zlashtirgan ilmlarini birma-bir sanab, sharhlab berishda *“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”* dagi uslubni qo'llaydi. Ya'ni ketma-ket *“yana...”* [4: 111] so'zidan foydalanib, uning fazilatlarini alohida-alohida qilib ajratib beradi. Holotda ikkita voqeiy hikoya keltiriladi. Birinchisi, yuqorida ko'rib chiqqanimiz g'azal bilan bog'liq qiziqarli voqea bo'lsa, ikkinchisi, Pahlavonning o'limining qisqa tafsiloti. Do'stining tobi qochganini eshitgan Navoiy zudlik bilan tabiblarni jo'natadi, ammo ular qisqa muddatda Pahlavonning jon berganini aytib qaytib kelishadi. Pahlavon Navoiyning ko'p yillik eng yaqin qardondarlaridan biri edi. Shuning uchun muallif holotda ikki marta Pahlavonning 40 yillik do'sti, hamdami, sirdoshi ekanligini alohida ta'kidlaydi. Bu holotda turkiy misralar bor-yo'g'i 12 ta. Ularning bari Navoiy qalamiga mansub. Forsiy misralar esa 70 ta. Demak, asarda keltirilgan forsiy misralar 85,36 foizni, turkiylari esa 14,63 foizni tashkil qiladi.

Arabiy ifodalar bu asarda ham asosan kishi nomlariga qo'shib keltirilgan o'rinlarda uchraydi. O'ziga xos yana arabiy ifodalar asarning bosh qahramoni Pahlavon Muhammadni ta'riflash uchun qo'llanadi. Jumladan, *“shams ul-millati vad-din”* [4: 105], *“mahbub ul-qulub”* [4: 113], ya'ni *“millat va dinning quyoshi”*, *“qalblarning suyuklisi”* kabi iboralar bilan Pahlavonni

ulug'laydi. Hazrat Jomiy tilga olingan joyda esa, ustozini *“Shayx ul-islomiy qahf ul-anomiy”* [4: 119] rutbasida ta'riflaydi. Bu esa islom shayxi, insonlar tayanchi, panohi degan ma'nolarni anglatadi. Holotda keltirilgan izohga ko'ra, *“qahf ul-anomiy”* deganda, Qur'oni karimning *“Qahf”* surasida birodarlar uzoq muddat uxlab qolgan g'or, sig'inadigan joy nazarda tutilgan.

Yuqoridagi tahlillardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Alisher Navoiy nafaqat tengi yo'q shoir, balki buyuk nasrnavis ham edi. Layli va Majnun, Farhod va Shirin kabi to'qima timsollarni haddi a'losiga yetkazib yaratgan shoir o'zi bilan hamnafas yashagan zamondoshlar siymosini aks ettirishda butunlay boshqa yo'ldan boradi. Manaqib-holotlarda u real insonlar timsolini borligicha tasvirlaydi. Har qanday mubolag'a, bo'rttiruvchi badiiy ifodalardan maksimal darajada qochadi.

2. Navoiy ustozlarining faqat o'zi bilgan, ko'rgan, guvoh bo'lgan jihatlarinigina yoritadi. Shuning uchun ham bu o'rinda obyektini tasvirlashda subyektning, ya'ni asar muallifining nigohi, nuqtayi nazari yetakchilik qiladi.

3. Manaqib-holotlarda zullisonaynlik va ko'ptillilik bor. Biroq, avvalo, bu asarlar turkiy tilda yozilgan. Faqat ulardagi turli forsiy iqtiboslar, ya'ni maktublar matnlari, she'riy misralar shundayligicha, tarjimasiz keltiriladi. Chunki asarlar, birinchi navbatda, o'sha davr kitobxonini uchun yozilgan. U zamonda savodlilar forsiyni ham bilishgan. Ammo manaqib-holotlardagi dialoglarda qahramonlar so'zlari turkiy tilda yangraydi. Bu misollar asarlarning turkiy tilda yozilganini tasdiqlaydi.

4. Diniy ahamiyatga ega bo'lgan arabiy ifodalar ham manaqib-holotlarda tarjimasiz keltiriladi. Ular turkiy tildagi matnga shundayligicha bog'lanadi. Bu ifodalar, asosan, diniy-tasavvufiy martabaga ega bo'lgan shaxslar nomi tilga olinganida qo'llanadi. Bu ham o'sha davr adabiy an'alarining o'ziga xos jihatlaridan biri. Turkiy tilda yozilgan mazkur asarda forsiy va arabiy ifodalarning qo'llanishi manaqib-holotlarning lisoniy imkoniyatlarini yanada kengaytirib, unga o'ziga xos bir joziba baxsh etadi.

5. Hajman deyarli teng bo'lgan holotlar ko'p jihatlarini bilan bir-biriga o'xshash. Muallif ikkala asarda ham umumiy qolipdan foydalangan, ularda tamoman boshqa-boshqa shaxslar tasvirlangan bo'lsa ham, ifoda va tasvir uslubining hamohangligi sezilib turadi.

6. Manaqib-holotlarda Navoiy voqealarni tasvirlashda dialogdan juda unumli foydalanadi. Ayniqsa, *“Holoti Pahlavon Muhammad”* asaridagi dialoglarda suhbatdoshning kutilmagan va jiddiy savollari Navoiyni ancha o'ylantirib qo'rganini ko'rishimiz mumkin. O'zaro savol-javob orqali o'rtaga muammo tashlash va unga yechim topish jarayonlari har qanday kitobxonni qiziqtirib qo'yishi aniq. Aynan shuning uchun ham muallif bu qizg'in jarayonni dialog orqali ifodalashni maqsad qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 15jild. Xamsat ul-mutahayyirin. – Toshkent: Fan, 1999. – 236 b.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 16jild. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan, 2000. – 334 b.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 15jild. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. – Toshkent: Fan, 1999. – 236 b.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 15jild. Holoti Pahlavon Muhammad. – Toshkent: Fan, 1999. – 236 b.

Nodira MUSAYEVA,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti o'qituvchisi

REUTERS HAMDA SINHUA AXBOROT AGENTLIKLARI FAOLIYATI (SAYT TAHLILI MISOLIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Reuters hamda Sinhua axborot agentliklari faoliyati, taraqqiy etish tarixi bayon etildi. Shuningdek, har ikkala axborot agentligining rasmiy web-sahifasi tahlil qilinib, ularning tarkibiy tuzilishi, yangiliklarni yoritish uslubi va multimedia vositalaridan foydalanish darajasi taqqoslab chiqildi.

Kalit so'zlari: axborot agentligi, Uza axborot agentligi, Reyters axborot agentligi, Sinhua axborot agentligi, sayt tahlili.

Annotation. This article describes the activities and development history of the news agencies Reuters and Xinhua. Also, the official website of both news agencies was analyzed, and their structural structure, style of news coverage and the level of use of multimedia tools were compared.

Keywords: news agency, Uza news agency, Reuters news agency, Xinhua news agency, site analysis.

Аннотация. В данной статье описывается деятельность и история развития информационных агентств Рейтер и Синьхуа. Также был проанализирован официальный сайт обоих информационных агентств, а также проведено сравнение их структурной организации, стиля подачи новостей и уровня использования мультимедийных средств.

Ключевые слова: информационное агентство, информационное агентство Уза, информационное агентство Рейтер, информационное агентство Синьхуа, анализ сайта.

Axborot agentliklari ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, global axborot jamiyatining ajralmas komponentiga aylanib ulgurdi. "Ular hamon media muhitidagi har qanday o'zgarishlarga sezgir va ma'lumotlar, dalillar bilan ishlashda professional standartlarni o'rnatadilar" [1: 130] deydi olim L.Vartanova. Darhaqiqat, axborot agentliklari elektron nashrlar, sun'iy yo'ldosh telekanallari, ijtimoiy tarmoqlarda yangiliklar veb-saytlari soni ortayotgan bo'lsa-da, OAVga, ijtimoiy auditoriya, obunachilariga axborot yetkazishda ustunlikni saqlab qolishga harakat qilmoqda. G'arbning rivojlangan mamlakatlarida axborot agentliklari – ommaviy axborot vositalarining eng qaynoq xabarlarini yetkazishdagi asosiy vositasi hisoblanadi. Jumladan, Reuters (keyingi o'rinlarda Reyters) axborot agentligi – XIX asrning o'rtalarida tashkil topgan, moliyaviy axborot va yangiliklarni tarqatuvchi eng nufuzli, ishonchli yirik xalqaro axborot agentliklaridan biridir. Agentlikni 1851-yil Pol Djulius Reuters Londondagi birja yangiliklarini telegraf kabellari orqali Parijga yetkazish maqsadida tashkil etgan edi. Biroq keyinchalik uning qoshida gazeta, 1923-yilda esa radiostudiya tashkil etildi. 2008-yilda esa agentlikni "Thomson" korporatsiyasi sotib oldi va "Thomson Reuters" deb nomladi [1]. Agentlik bugungi kunda 12 ta – ingliz, fransuz, arab, ispan, nemis, italyan, portugul, rus, yapon, koreys, urdu va xitoy tillarida yangiliklarni tayyorlab taqdim etmoqda. Agentlik yangiliklari, foto va video materiallari dunyoning ko'plab yirik axborot nashrlari orqali tarqatiladi. Agentlik 197 byuroga ega bo'lib, 91 mamlakatda 14 ming nafardan ziyod xodimi faoliyat yuritadi [2].

Reyters axborot agentligining asosiy kuchli tomonlaridan biri – uning moliyaviy bilimiga ega ekanligi hamda biznes va iqtisodga oid yangiliklarni keng qamrovda yoritishidir. Uning muxbirlari va tahlilchilari dunyoning yirik moliya markazlarida joylashgan bo'lib, jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, valyuta kurslari, fond bozori ko'rsatkichlari hususidagi muhim ma'lumotlarni tezkor yoritadi.

Reyters faoliyatiga muntazam yangilanishlar, o'zgartirishlar kiritib boradi. Ayniqsa, o'nggi yigirma yilda avtomatlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirishga katta sarmoya kiritdi. Bu kompaniyaga yangiliklarni mijozlarga tezroq va samaraliroq yetkazib berish, xarajatlarni kamaytirish va umumiy samaradorlikni oshirish imkonini berdi. Agentlikning o'zgaruvchan bozor tendensiyalari va texnologiyalariga moslasha olish qobiliyati bir asrdan ko'proq vaqt davomida

yetakchi axborot agentligi sifatidagi mavqeini saqlab qolishga yordam berdi.

Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasining rasmiy axborot agentligi hisoblanmish Sinhua (新华社 (xinhuashe) – "Yangi Xitoy" jamiyati) axborot agentligi mamlakatdagi eng yirik axborot manbaidir. Agentlik 1931-yil "Xitoy Qizil axborot agentligi" sifatida tashkil etilgan bo'lib, 1937-yildan buyon hozirgi "Sinhua" nomi ostida faoliyat yuritib kelmoqda. Qarorgohi Pekinda joylashgan. 1944-yildan ingliz tilida ham axborotlarni efirga uzata boshladi. Shuningdek, fransuz, rus, ispan, portugul, arab, yapon tillarida axborot va tahliliy materiallar tarqatish bilan cheklanmay, marketing hamda monitoring tadqiqotlarini ham olib boradi. Sinhua axborot agentligi Xitoy Xalq Respublikasining matbuot, radioeshittirish, kinematografiya va televideniye davlat boshqarmasi muassisligida faoliyat yuritadi. Agentlik nafaqat Xitoyda, balki jahonda ham eng yirik xalqaro axborot agentliklari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallashga harakat qilmoqda. U hozir O'rta Sharq, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Lotin Amerikasi va Afrika hududlarida bosh boshqarmalariga, shuningdek, dunyoning turli mamlakatlarida bo'limlariga ega. Xitoyning barcha hududida muxbirlar punktlari, yuzdan ortiq sho'balari mavjud.

Reyters hamda Xitoyning Sinhua axborot agentliklari saytining rus tilidagi versiyasi taqqoslandi. Mazkur ikki axborot agentligi Rossiya va MDH mamlakatlari foydalanuvchilari uchun uchun o'z axborotlarini rus tilida taqdim etadi va solishtirish uchun ayni muddao. Taqqoslash tahlili barcha parametrlar bo'yicha olib borilmaydi, chunki bu tadqiqot davomida o'rganilishi kerak bo'lgan asosiy muammo emas. Bizni asosan axborot agentligining xalqaro miqyosga olib chiqqan hamda global axborot sharoitida yetakchilik maqomini aniqlaydigan parametrlar va tendensiyalar nimalarda aks etishi mumkinligi qiziqtiradi. Reyters hamda Sinhua axborot agentligining maxsus rus tilidagi versiyaga ega bo'lishi, avvalo rus tilida so'zlashuvchi ko'p sonli auditoriyaga ta'sir o'tkazish uchun yetarli kuchli asos bo'lib xizmat qiladi. Taqqoslash, shuningdek, G'arb va Sharq ommaviy axborot vositalari o'rtasida raqobatning mavjudligi va bu mamlakatlar o'rtasida yopiq holda axborot urushi davom etayotgani tufayli ham muhimdir.

Reyters esa jahon miqyosida tan olingan xalqaro axborot yetkazish bo'yicha yetakchi transmilliy axborot agentligi hisoblanadi. Agar har ikkala agentlikni taqqoslasak, axborot materiallarni joylashtirish bo'yicha nisbat deyarli teng.

Ammo xalqaro axborot agentliklariga mansublikning asosiy mezonlaridan biri – eksklyuziv xabarlarga talab yuqori ekanligi hisobga olinsa, Reyters bu borada Sinhuadan ustun. Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, Reyters, Frans-Press va Associated Press bu sohada uzoq vaqtdan beri yetakchilik qilmoqda. Reytersning rus tilidagi sayti Sinhuaning rus tilidagi saytiga qaraganda ancha kichik, biroq uning asl sayti tashqi dizayn va kontent sifati jihatidan juda boy. Sinhuaning rus tilidagi sayti esa Reytersdan ko'ra ancha jozibalroq. Reyters Rossiya va MDH mamlakatlari uchun asl saytiga qaraganda kamroq bo'limlarni taklif etadi. Saytda muhim xabarlar, sport, iqtisodiyot bo'limlari ajratib ko'rsatilgan bo'lib, asosan Rossiya siyosati hamda iqtisodiyotiga qaratilgan materiallar joylab boriladi.

Sinhuaning rus tilidagi sayti materiallarni bo'limlar bo'yicha qulay joylashtirishi bilan ajralib turadi. Har bir bo'limning boshida eng muhim matnlar va so'nggi fotoxabarlar joy oladi. Reytersning rus tilidagi versiyasiga qaraganda bo'limlar va materiallar ancha ko'p. Axborot mahsulotlarining miqdori va tabiati doimiy emas. Ular doimiy ravishda mijozlarning talablariga qarab o'zgaradi. Ularni o'rganish uchun ekspert va tahliliy xizmatlar jalb qilinadi. Agentliklarning muvaffaqiyati texnik-texnologik omillar bilan ham bog'liq. Kompyuter tarmoqlari, sun'iy yo'ldosh, internet provayderlarisiz samaradorlikning yuqori darajasiga erishish (ya'ni, raqobatdosh bo'lish) mumkin emas. Yetakchi axborot agentliklari faoliyati aniq vaqt rejimiga sozlangan, ya'ni voqealar haqidagi xabarlar

dolzarbligini saqlab qolgan holda tezkor yetkaziladi. Iqtisodiy islohotlar sharoitida agentlik ma'lumotlarini iste'mol qilishda gazeta, jurnal, radio, televideniye ulushi kamaymoqda. Bu nafaqat to'lov qobiliyatining pasayishi, balki tadbirkorlik tuzilmalarining sezilarli darajada ko'payishi bilan ham bog'liq.

Xalqaro tajribalarning o'zbek ommaviy axborot vositalari kontekstiga ijodiy moslashuvi O'zbekiston media brendining rivojlanishida ham muhim rol o'ynadi. "Endi axborot agentliklari ommaviy axborot vositalarini qayta ishlash uchun kuchli markazlarga aylandi, ularning madaniy ta'siri ommaviy axborot vositalaridan tashqariga chiqdi. Zamonaviy xorijiy axborot agentliklari faoliyatini chuqur tahlil qilish milliy axborot agentliklari faoliyatidagi asosiy muammolarini tushunish va hal etish uchun muhimdir" [2: 20]. O'zbek ommaviy axborot vositalari o'tish davrida zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan bo'lsa-da, mafkuraviy jihatdan milliy bo'lib qolish va davlat manfaatlariga javob berishda mamlakatning ijobiy qiyofasini yaratishga harakat qilgani, xolislik va obyektivlik tamoyillariga zid keladi. Bunday holat, birinchi navbatda, yangiliklarning obyektiv va xolis tarzda taqdim etish, neytrallik tamoyili, "dozalangan" axborot orqali jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatadigan an'analarga zid edi. O'zbek ommaviy axborot vositalarining kelajagi ularning qanday rivojlanishiga bog'liq. Xolislik, obyektivlik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga amal qilish, ularning jamiyatda ishonchli va obro'li manba sifatida o'z o'rnini saqlab qolishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вартанова Е. Л. Медиаэкономика зарубежных стран/Е. Л. Вартанова. М.: МедиаМир, 2013.
2. Рейтер. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Рейтер>.
3. Сапунов В.И. Функционирование зарубежных информационных агентств в современной медиасистеме. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. Воронеж: ВГУ, 2007.

Nosir MIRJONOV,

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

TIBBIY DISKURSDA ATAMALARNING KOGNITIV MODELARI VA ULARNING SHAKLLANISH DINAMIKASI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda o'zbek tilidagi tibbiyot terminologiyasining asosida yotuvchi kognitiv modellar o'rganiladi va 1990-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrdagi tibbiyot matnlari korpusi asosida ularning tibbiy diskursdagi shakllanish dinamikasini tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tibbiy diskurs, kognitiv terminologiya, konseptual model, konseptual metafora.

Anotation. This study examines the cognitive models underlying medical terminology in the Uzbek language and analyzes their formation dynamics in medical discourse based on the corpus of medical texts for the period from 1990 to 2025.

Keywords: medical discourse, cognitive terminology, conceptual model, conceptual metaphor.

Аннотация. В данном исследовании изучаются когнитивные модели, лежащие в основе медицинской терминологии в узбекском языке, и анализируется динамика их формирования в медицинском дискурсе на основе корпуса медицинских текстов за период с 1990 по 2025 год.

Ключевые слова: медицинский дискурс, когнитивная терминология, концептуальная модель, концептуальная метафора.

Ixtisoslashgan bilimlarning asosi bo'lgan terminologiya an'anaviy ravishda statik, monosemantik lingvistik birliklar tizimi sifatida qaratiladi. Biroq, zamonaviy tadqiqotlar, ayniqsa Kognitiv lingvistika doirasida, bu qat'iy yondashuvga e'tiroz bildirmoqda [1: 543–573]. O'zbek tilidagi tibbiy diskurs o'zining mustaqillik davrida (1991-yildan so'ng) tezkor taraqqiyoti, xalqaro andozalarga integratsiyalashuvi va yuqori ijtimoiy ahamiyati bilan bu kognitiv dinamizmni o'rganish uchun noyob maydonni taqdim etadi. Tibbiyotda qo'llaniladigan terminlar shunchaki yorliqlar emas; ular murakkab, rivojlanayotgan ilmiy bilimlarni tashuvchi vositalardir. Tibbiy terminlarni keltirib chiqaradigan chuqur kognitiv tuzilmalarni yoki modellarni tushunish, bilimlarni

aniq uzatish va samarali kasblararo muloqot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Klassik terminologiyadan kognitiv terminologiyaga o'tish [1:546] asosiy tushunchalar va ularning lingvistik ifodasining rolini ta'kidlaydi. Bu nuqtayi nazarining markazida Konseptual Metafora Nazariyasi (KMN) yotadi [2]. Avvalgi tadqiqotlar ilmiy diskursda metaforik modellarni aniqlagan, biroq O'zbek tilidagi tibbiy terminologiyada kognitiv modellarining shakllanishi va diaxronik evolyutsiyasiga qaratilgan keng qamrovli, dinamik tahlil muhim tadqiqot bo'shlig'i bo'lib qolmoqda. Xususan, 1990-yillardan 2025-yilgacha bo'lgan davrda hukmron konseptual modellar vaqt o'tishi bilan terminlarning strukturaviy va semantik evolyutsiyasiga

qanday ta'sir qiladi? Mishlanova (2005) rus tibbiy diskursidagi terminlarni o'rgangan bo'lsa-da, O'zbek tilidagi tili jarayonlar alohida tahlilni talab qiladi.

Ko'p tadqiqotlar tibbiy terminlarni kataloglagan bo'lsa-da, O'zbek tilidagi manbalarda ularning nomlanishi va kontseptual o'zgarishi ortidagi kognitiv arxitekturaning ("qanday" va "nima uchun") tizimli modellashgan tadqiqotlar kam. Ushbu ish quyidagi maqsadlarga erishish orqali bu bo'shliqni to'ldiradi:

1. Zamonaviy o'zbek tilidagi tibbiy terminologiyadagi asosiy tushunchalarni tuzilmashtiruvchi dominant kognitiv modellarni aniqlash va tizimli tavsiflash.

2. Ushbu modellardagi dinamik siljishni (1990–2025 yillar diaxroniyasini) va ularga mos keladigan terminlarni tibbiy taraqqiyotning belgilangan davrlari bo'yicha tahlil qilish.

3. Yangi tibbiy terminlarning shakllanishi uchun mas'ul bo'lgan asosiy kognitiv mexanizmlarni (masalan, kontseptual metafora, metonimiya, aralashtirish) aniqlash.

Ushbu tadqiqot kognitiv terminologiya va kognitiv-diskursiv lingvistika tamoyillariga asoslanadi. Termin

prototipga asoslangan kategoriya sifatida ko'rib chiqiladi, uning ma'nosi bilim sohasining soddalashtirilgan, tuzilmashtirilgan ifodasi bo'lgan kognitiv model orqali vositachilik qiladi. KMN terminlarning manba sohasidan (masalan, Mexanika) nishon sohasiga (masalan, Anatomiya) o'tkazilishini tushuntiruvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot o'zbek tilidagi nufuzli manbalardan olingan 4,500 dan ortiq tibbiy terminlar korpusidan foydalanadi, shu jumladan:

- ixtisoslashgan o'zbekcha tibbiy lug'atlar va ensiklopediyalar (masalan, 2000-yildan keyingi nashrlar).

- diaxronik taqqoslashni ta'minlash uchun 1990 va 2025-yillar oralig'ida nashr etilgan o'zbek tilidagi monografiyalari, klinik qo'llanmalar, O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi hujjatlari va ilmiy jurnallari.

- o'zbek tilidagi tibbiyot darsliklari (eski va yangi avlod).

Tibbiy terminologiyadagi dominant kontseptual modellar:

Korpus tahlili o'zbek tilidagi tibbiy diskursda quyidagi kontseptual modellarning ustunligini ko'rsatadi:

№	Kontseptual model (manba → nishon)	Korpusdagi ulushi (taxminiy)	O'zbekcha misollar (atamalar)
1	organizm → mexanizm/ texnologiya	34,8%	yurak klapani, nafas olish mexanizmi, tartibga soluvchi, disbalans, tizimning buzilishi
2	kasallik → qarshi kuchi/urush	22,5%	infeksiyaga qarshi kurashish, immunitet himoyasi, agressor hujayralar, mudofaa reaksiyasi
3	inson/organizm → bino/hudud/joy	17,0%	o'tish joyi, infeksiya darvozasi, hujayra devoir, aylanma yo'l (shovunt)

Prototipik tuzilmalar va periferik zonalar:

O'zbek tilidagi terminologik tizimning yadrosini (prototipini) asosiy kasallik nomlari va organ-anatomik atamalar tashkil etadi, ular odatda klassik yunon/lotin terminlarining kalkalari hisoblanadi. Periferiya esa yangi texnologiyalar (masalan, telemeditsina, gen terapiyasi) va ijtimoiy-tibbiy tushunchalar (masalan, sug'urta, ijtimoiy kasalliklar) bilan bog'liq bo'lgan yangi terminlar bilan ifodalanadi. Ushbu periferik terminlar ko'pincha "Jarayon" (Process) va "Axborot" (Information) modellari asoslanadi.

Termin shakllanishidagi diaxronik siljishlar (1990–2025):

Diachronik tahlil manbaning o'zgarishi kontseptual modellarning intensivligiga bevosita ta'sir ko'rsatganini aniqladi:

- **1990-yillargacha:** Terminologiya asosan Rus tili orqali kirgan lotin/grek/mexanik terminlarga tayanadi. "Organizm → mexanizm" modeli mutlaq hukmronlik qilgan.

- **1990–2025-yillar oralig'i (asosiy siljish).** Bilim manbasining o'zgarishi (rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri ingliz tiliga (Anglosakson modeli) o'tishi) kuzatildi.

- **Modellardagi o'zgarish.** "Mexanizm" modeli barqaror bo'lib qolgan bo'lsa-da, "Jarayon" (Process) va "Genetika/Molekula" asosidagi modellar keskin kuchaygan (taxminan 1990-yillarda 5% dan 2025-yilga kelib 15% gacha o'sish). O'zbekcha misollar: *apoptoz, skrining, signalizatsiya yo'li, menejment, monitoring*. Bu o'zgarish O'zbekiston tibbiyotining molekulyar darajadagi izlanishlarga va xalqaro klinik protokollarga e'tibor qaratishini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili tibbiy diskursidagi terminologiya ta'kidlanganidek, statik emas, balki kognitiv modellar tomonidan boshqariladigan dinamik

tizimdir. Topilgan universal modellar ("Mexanizm", "Urush") tibbiy bilimlarning umuminsoniy kontseptualizatsiya asosiga qurilganligini tasdiqlaydi. Diachronik tahlil esa 1990-yildan keyin O'zbekistonda terminologiya evolyutsiyasiga ta'sir qilgan asosiy omil geosiyosiy va til siyosatidagi o'zgarishlar ekanligini ochib beradi. Rus tilidan o'zlashtirish orqali kirgan terminlar ulushi pasayib, ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri kalkalar va yangi Molekulyar/Jarayonli tushunchalar kirib kelishi tezlashgan. Bu, bir tomondan, O'zbekiston tibbiyotining xalqaro (Anglosakson) standartlarga yaqinlashuvini ifodalasa, boshqa tomondan, yangi kirib kelgan terminlarning o'zbek tiliga moslashuvi, ularning polisemiya (ko'p ma'noliligi) va terminologik barqarorlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, *menejment* termini tibbiyotda *davolash rejimini* anglatib, umumiy *boshqaruv* ma'nosidan ajralishi kognitiv taranglikni keltirib chiqaradi. Kontseptual modellarni tushunish, tibbiy ta'lim jarayonida faqatgina terminlarning lug'aviy ma'nosini emas, balki ularning kognitiv asosini o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa kasbiy muloqot va tibbiy tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot O'zbek tilidagi tibbiy diskursdagi terminlarning shakllanishi va evolyutsiyasini kognitiv-diskursiv nuqtayi nazardan tizimli tahlil qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy terminologiyaning shakllanishi "Organizm – mexanizm" va "Kasallik – qarshi kuchi" kabi dominant kognitiv modellar tomonidan boshqarilishi aniqlandi. 1990–2025 davri ichida kuzatilgan eng muhim evolyutsion siljish – bu terminologik manba vektorining o'zgarishi (rus tilidan ingliz tiliga) va buning natijasida *protses* va *genetika* kabi yangi, yuqori darajadagi bilimlarni ifodalovchi

terminlarning tezkor kirib kelishi. Tibbiy lug'atlarni tuzishda terminlarning kognitiv asoslari va ularning turli modellardagi variantlarini aks ettirish, shuningdek, tibbiy ta'limda KMN orqali terminlarni tushuntirish

tavsiya etiladi. Tarjima jarayonida terminning faqat leksik ekvivalentini emas, balki uni keltirib chiqargan konseptual modelni (masalan, rus/lotin modelidan ingliz/molekulyar modelga o'tish) hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Faber P.A cognitive view on terminology and specialised language // Cognitive Linguistics, 23(3). – P. 543–573.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Temmerman R. Towards new ways of terminology description: the sociocognitive approach. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2000.
4. Xoliqov A. O'zbek tilidagi tibbiy terminlar leksik-semantik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Yo'ldoshev, G. (2004). Tibbiyot terminlari lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

Ma'suma MO'MINOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori;

Ruxshona TESHAYEVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ALISHER NAVOIYNING SHOH G'ARIB MIRZOGA BAG'ISHLAB YOZGAN TARKIBBAND MARSİYASI TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning "Tarkibband" marsiyasi o'zbek adabiyotidagi marsiya janrining eng yuqori cho'qqisi sifatida ilmiy tahlil qilinadi. marsiya janrining o'zbek adabiyotidagi o'rnini, tarkibband shaklining marsiyada ilk bor to'laqonli qo'llanilishi, har bir bandni boshlovchi "Yo Rab, ne tonglar ki, tong otmas" misrasining semantik va ritmik funksiyasi, radif va qofiyaning o'zgaruvchan tizimi hamda asarning musiqiy-ritmli tuzilishi yoritiladi. O'zbek mumtoz lirik adabiyotida janrlarning shakllanishi, ularning badiiy-ma'naviy funksiyalari va Navoiyning Shoh G'arib Mirzo obrazini she'riy vositalar orqali jonlantirishi kabi mavzularga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: janr, g'azal, qasida, qit'a, bayt, band, marsiya, Shoh G'arib Mirzo, Sulton Husayn.

Annotation. The article scientifically analyzes Alisher Navoi's "Tarkibband" marsion as the highest peak of the marsion genre in Uzbek literature. The role of the marsion genre in Uzbek literature, the first full use of the tarkibband form in the marsion, the semantic and rhythmic function of the line "Yo Rab, ne tonglar ki, tong otmas" that begins each stanza, the changing system of radif and rhyme, and the musical-rhythmic structure of the work are highlighted. In Uzbek classical lyrical literature, topics such as the formation of genres, their artistic and spiritual functions, and Navoiy's revitalization of the image of Shah Gharib Mirzo through poetic devices are explored.

Keywords: genre, ghazal, qasida, qit'a, bayt, stanza, elegy, Shah Gharib Mirza, Sultan Husayn.

Аннотация. В статье научно анализируется марсия Алишера Навои «Таркиббанд» как высшая вершина жанра марсия в узбекской литературе. освещается роль жанра марсия в узбекской литературе, первое полноценное использование формы таркиббанд в марсии, семантическая и ритмическая функция строки «Yo Rab, ne tonglar ki, tong otmas», начинающей каждую строфу, изменяющаяся система реди́фа и рифмы, а также музыкально-ритмическая структура произведения. В узбекской классической лирической литературе рассматриваются такие темы, как формирование жанров, их художественно-духовные функции и оживление Навои образа Шах Гариб Мирзо посредством поэтических средств.

Ключевые слова: жанр, газель, касида, китъа, бейт, строфа, элегия, Шах Гариб Мирза, Султан Хусейн.

O'zbek lirik poeziyasining janr jihatidan boyib, mukammal holga kelishi bevosita Navoiy nomi bilan bog'liq. Navoiy devonida biz, bir tomondan, o'zbek poeziyasida o'zining ma'lum an'analarga ega bo'lgan lirik janrlarning mohiyat e'tibori bilan yangicha rivojini ko'rsak, ikkinchi tomondan, fors adabiyotida o'zining qat'iy qonuniyatlariga ega bo'lgan, ammo o'zbek adabiyotida (yoki umuman turkiy adabiyotda) paydo bo'lmagan yoki u qadar rivoj topmagan, ba'zi bir janrlarning yangi zamindagi hayotini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Janrlar badiiy tafakkurning aniq namoyon bo'lish shakllaridan iborat bo'lib, ularda adabiyot taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari o'zining bevosita ifodasini topadi. Har bir janrning paydo bo'lishi, rivojlanishi va nihoyat tanazzuli tarixiy-adabiy muhit bilan qat'iy bog'liq. Har bir janrning o'z tasvir obyekti bo'lib, u har bir janrning ichki imkoniyatlari bilan chambarchas bog'langan. G'azaldagi mazmunni, maqsadni ruboiy shaklida ifodalab bo'lmaganidek, qasidaning mazmunini qit'a yoki boshqa biror bir janr doirasida tasavvur qilish ham qiyin. O'zbek mumtoz lirikasida xususiyashtirish alomatlar har bir aniq asarda emas, balki, asosan, janrlar doirasida ko'rinadi. Masalan, g'azal, qasida, soqiynoma, marsiya,

muxammaslarda muallif obrazi, uning nomi ko'rsatilgan holda, ma'lum darajada aniqroq va yorqinroq ko'rinadi. Ruboiy va qit'ada esa umumlashgan xarakterga ega. Xullas, har bir janr uchun voqea va inson kechinmalarining muayyan tomonlarini o'ziga xos yo'sinda ifodalash mansub. Shu jihatdan janrlar mavjud adabiy me'yorning, badiiy mezonning bevosita ifodachisi hamdir. Olim Hamid Sulaymonov e'lon qilgan ushbu marsiya [1] 2011-yil chop etilgan Alisher Navoiy asarlari to'la asrlar to'plamining IV jildida (770-bet) ham nashr ettirilgan. Marsiya vafot etgan biron shaxsga bag'ishlab yozilgan badiiy, ko'pincha, she'riy asar hisoblanadi. Marsiya janridagi asarlar g'azal, muxammas, musaddas, tarjiband, tarkibband kabi shakllarda bitilishi mumkin. Marsiyalarda marhumning fazilatlar ulug'lanib, asar muallifining unga bo'lgan mehr-muhabbati, ehtiromi ifodalanadi.

Shoh G'arib Mirzo Sulton Husayn Mirzoning o'g'li bo'lib, uning onasi Xadichabegimdir. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida Shoh G'arib Mirzo haqida "Sho'x ta'bluk va mutassarif zehnlik va nozik taxayyulluq va daqiq taaqqulluq yig'itdur. Nazm va nasrda naziri ma'dum va mutaxayyila va hofizada adili noma'lum (ya'ni, nazm va nasrda tengi yo'q,

fikrlash va hofizada o'xshashi yo'q). Ov va qush xotiriga marg'ub va qurro (Qur'onni qiroat bilan o'qish) va o'qish ko'ngliga mahbub", deb yozadi va shoirning uchta o'zbek tilidagi va ikkita forsiydagi g'azallaridan matla'larni keltiradi:

*Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor,
Qaysi bir shamshod qad sarvi xiromonimcha bor.*
Yana biri:

*Tarki mehr aylab agarchi bo'ldi jonon o'zgacaha,
To tirikman qilmagumdir ahdu paymon o'zgacha.*
Keyingisi:

*Porso yoring'a may ichmak shior o'lmish yana,
Baski tortarman sabu, egnim figor o'lmish yana.*

Shoh G'arib Mirzoning forsiy she'rlardan quyidagi matla'ni Navoiy juda oshiqona yozilgan, deb keltiradi:

*Bozam baloyi jon g'ami on mohpora shud,
Ey voy, on marizki, dardash du bora shud.*

Ya'ni: Yana o'sha oy kabi (go'zalning g'ami) jonimga balo bo'ldi. Ey voy, o'sha kasallikning dardi ikki barobar oshdi.

Shoir keyingi matla'ni "bag'oyat oshiqona va mutaassirona voqe' bo'lubturkim", – deb ta'riflaydi:

*Do'ston, hargoh guzar so'i mazori man kuned,
Joiy takbiram duoi joni yori man kuned.*

Ya'ni: Do'stlar, goho mozorim tomon kelib turing. Menga fотиha o'qish o'rniga yorimning duoi jonini qiling.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida "Shoh G'arib Mirzo bukri edi. Agarchi hay'ati (ko'rinishi) yomon edi, tab'i (tabiati) xub edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg'ub edi. "G'aribiy" taxallus qilur edi", – deb yozadi va uning devon ham tuzganini ta'kidlab, bir forscha matla'ni keltiradi:

*Dar guzar didam pariroyie, shu dam devonavash,
Chist nomi o', kujo boshad, nadonam xonaash [2].*

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining oxirida Shoh G'arib Mirzoga alohida 53-bobni ajratadi. Uni yaxshi fazilatlariga ega, ilm-ma'rifatga tashna bo'lgan shahzoda sifatida ta'riflaydi va unga ba'zi nasihatlarini qiladi.

Navoiy mamalakat va xalq taqdiriga aloqador shaxslarning, ayniqsa, ilm-fan o'rganishlarini g'oyat muhim deb bilgan. Shu bois Shoh G'arib Mirzoning ham ilm o'rganishga jahd qilishi, kasb-hunarni egallashda kamolotga intilishi lozimligini ta'kidlaydi:

*Qayu fankim, shuru' etmaklik anda,
Kishidin yaxshi ot qolg'ay jahonda.*

Bu fikr tasdig'i uchun shoir Iskandar va Ulug'bek Mirzolari-da yodga oladi. Ulug'bek Mirzo timsolida ilmning qudratini ko'rsatib beradi:

*Bilik garchi ko'rinur ko'zga ziynat,
Vale shahlarga bordur o'zga ziynat.*

Diniy ilmlar (tafsir, hadis va fiqh)ni, ilmi hikmatni o'rganishi, ayniqsa, tarixni o'rganishni uqtiradi. Bu nasihatlar sirasida ichkilikning ofati haqida ham so'z ketadi. Ko'rinadiki, davr illatiga aylanib borayotgan saroydagi hayot shunday pand-nasihatni taqozo etgan. Badiiy ijodda shahzodaning nozik so'zni, ma'nolar jilosini, noyob timsollarni idrok etishi, ulardan mohirlik bilan foydalanishini maqtaydi.

Navoiy yana bir bor "Xamsa"ning "Sab'ai sayyor" dostonida, Xadichabegimni vasf etar ekan, G'aribiyini ham tilga oladi. Garchi bu qismda G'aribiyning nomi tilga aynan olinmasa-da, Xadichabegimning "ikki sa'd axtar farzandi", "biri fazlda jahon nodiriyu biri lutf ila jahon joni" degan iboralardan G'aribiy va Muzaffar Husayn Mirzolar ko'zda tutilganligini bilib olish mumkin:

*Oy-u kun yo'q agarchi monanding,
Ikki sa'd axtar, ikki farzanding.
Fazl aro nodiri jahon birisi,
Lutf birla jahong'a jon birisi.
To jahon bo'lg'ay, ul ikkov bo'lsin,
Qo'llarig'a jahon garov bo'lsin.*

Navoiy Sulton Husayn Mirzoga, uning xonadoni-yu farzandlariga hurmat-u muhabbat ko'zi bilan qaragani sababli, ular haqida har doim ham faqat yaxshi so'zlab, ularning jamol-u kamolda, jismoniy va ma'naviy fazilatlarida tengi yo'q kishilar, deb ulug'laydi. G'aribiy, bir tomondan, Sultonning farzandi ekanligi uchun Navoiyning mehr-u muhabbatiga sazovor bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan kuchli iste'dodga ega shoir ekanligi uchun ham uning qalbidan chuqur o'rin olgan edi. Navoiy ana shunday go'zal she'riy payvand orqali uni o'z farzandidek bilib, uning she'riy yutuqlari-yu insoniy barkamolliklaridan quvonib, qanday tavsif qilgan bo'lsa, uning barvaqt hayotdan ko'z yumganidan qayg'urib, o'z qayg'ularini har bandi olti baytdan iborat bo'lgan besh bandlik tarkibbandida izhor qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu marsiyani 1971-yilda H.Sulaymonov nashr ettirgan edilar. Marsiya matni 1499–1500 (hijriy 904)-yillarda ko'chirilganligi hisobga olinsa va "Xazoyin ul-maoniy" hamda "Majolis un-nafois"ning ham ikkinchi tahriri 1498-yilda amalga oshirilganligiga ahamiyat berilsa, tazkirada Shoh G'arib Mirzo hayot, shahzoda ijodkor sifatida zikr qilinganligi u 1498-yil oxiri yoki 1499-yil avvallarida vafot etgan deb taxmin qilishimiz mumkin.

Har bandi 6 baytdan iborat 5 bandli (60 misrali tarkibband) tarkibband-marsiyada shahzoda, shirinsuxan inson, sohibi devon shoir Shoh G'arib Mirzoning o'limi butun Hirot ahli uchun katta musibat bo'lganligi, hamma chuqur qayg'u chekkanligi qalamga olinadi:

*Barcha g'amgin, baridin menda fuzun g'amzadalik,
Ro'zgorimni qilib tiyra bu motamzadalik.*

Hozirgi davr mumtoz adabiyotida ham G'aribiy haqida mustaqil maqola orqali yoki biror bir mavzu bilan bog'liq tarzda ma'lumotlar berila boshlandi. A.Abdug'afurov "Buyuk beshlik saboqlari" nomli kitobida va "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 1996-1997-yillarda chiqqan ayrim sonlarida temuriylar davri madaniyati haqida e'lon qilgan maqolalarida "Majolis un-nafois" va "Boburnoma" ma'lumotlariga asoslanib, G'aribiyga ham to'xtalib o'tadi [3]. Shuningdek, navoiyshunos olim S.G'aniyeva "Ta'bi xo'b, kalomi marg'ub" nomli maqolasida va "Majolis un-nafois"ning izohlar qismida bu shoir haqida Navoiy, Bobur va Faxriy Hiraviylar yozgan ma'lumotlarni taqdim etadi [7].

Shoh G'arib Mirzo xazinasida behisob oltin-u javohirlari bor davlat hukmdorining o'g'li, ta'lim-tarbiya olishiga maxsus xizmatkorlar qo'yilgan shahzoda bo'lsa-da, ko'ngli o'ksik, xuddi hech kimi, puli yo'q gadolardek g'arib edi. Zero, onasi sarvqomat va go'zal ayol bo'lib, jismoniy kamchilik bilan tug'ilgan farzandidan mehrini ayar edi. Sulton Husayn Boyqaroning o'n ikki nafar xotinidan yigirma bitta o'g'li va o'n yetti qizi bo'lib, xotinlari orasida amir Muhammad Sariqning qizi malika Xadichabegimning mavqeyi baland edi. Boyqaro Xadichabegimdan Shoh G'arib Mirzo, Muzaffar Husayn, Sulton Jahongir, Jahongir Husayn hamda Xonim ismli qiz farzand ko'rgan edi [2].

Xulosa qilib aytganda, Shoh G'arib Mirzoning vafotiga bag'ishlab yozilgan ushbu tarkibband-marsiya "Xazoyin ul-maoniy"ga tartib berilgandan keyin yozilganligi sabab ham undan o'rin olmagan. Shoh G'arib Mirzoning vafotiga bag'ishlab

yozilgan ushbu marsiya aruzning ramali musammani maxbuni

maq'tui musabbag' vaznida yozilgan bo'lib, uning poetikasini badiiy san'at vositalari-yu, go'zal tasvirlar jonlantirib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulaymon H. Alisher Navoiyning G'arib Mirzo vafotiga yozilgan marsiyasi // Adabiy meros. 2-kitob. – Toshkent: Fan, 1971.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.
3. Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. – Toshkent: G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
4. Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999.
6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
7. G'aniyeva S. Ta'bi xo'b, kalomi marg'ub // O'zbekiston adabiyoti vas an'ati, 1996, 5 iyul.

Nasiba HASANOVA,

English teacher at academic lyceum of SamSU

LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF ANATHEMATIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. This article is dedicated to the essence of lexical-semantics, the history of its development, and approaches to its study. Scientists who worked in this field and their scientific results were analyzed. The differences between paradigms and syntagms are explained, and paradigm categories are described in detail. The classification of curses and insults is also considered.

Keywords: lexical-semantics, paradigms, syntagms, anathematic units, curses, vulgarisms, emphatic, relief-oriented, contempt, disrespect, insult, hatred, vulgarism.

Annotatsiya. Ushbu maqola leksik-semantikaning mohiyati, uning rivojlanish tarixi va tadqiqot yondashuvlariga bag'ishlangan. Sohada faoliyat yuritgan olimlar va ularning ilmiy natijalari tahlil qilingan. Paradigma va sintagmalar o'rtasidagi farqlar tushuntirilib, paradigmalarining turkumlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, la'natlash va haqorat so'zlarining tasnifi ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: leksik-semantika, paradigmalar, sintagmalar, anafemik birliklar, qarg'ishlar, vulgarizmlar, emfatik, relefli, mensimaslik, hurmatsizlik, haqorat, nafrat, vulgarizm.

Аннотация. Эта статья посвящена сущности лексико-семантики, истории её развития и подходам к её исследованию. Проанализированы ученые, работавшие в данной области, и их научные результаты. Объясняются различия между парадигмами и синтагмами, подробно описываются категории парадигм. Также рассматривается классификация слов проклятия и оскорбления.

Ключевые слова: лексико-семантика, парадигмы, синтагмы, анафемистические единицы, проклятия, вульгаризмы, эмфатический, рельефный, презрение, неуважение, оскорбление, ненависть, вульгаризм.

It is widely acknowledged that scholars have long been intrigued by words and their meanings, an intellectual concern that can be traced back to antiquity. In the Western philosophical tradition, reflections on meaning date to Aristotle; however, lexical semantics did not emerge as an independent field of linguistic inquiry until the nineteenth century. Prior to this period, studies of meaning lacked a systematic theoretical framework and were largely confined to individual scholars' analyses of historical texts and the cultural evolution of human societies. These early semantic investigations were predominantly grounded in historical and philosophical approaches, with particular emphasis on etymology and diachronic changes in word meaning.

As Geeraerts (2010) observes, in its initial stage lexical semantics conceptualized meaning as a mental entity, interpreting semantic change primarily as a psychological process. In response to this perspective, early twentieth-century structuralist linguistics –strongly influenced by Ferdinand de Saussure –redefined the study of meaning. Structuralists viewed language as a self-contained system in which meaning arises from networks of lexical relations rather than from individual mental representations (Lehrer, 1974; Cruse, 1986). Within this framework, meanings are determined by the relations words establish with other words in the linguistic system.

A central contribution of structuralism is the distinction between paradigmatic and syntagmatic relations. Paradigmatic relations describe how lexical items can substitute for one another within the same contextual slot, while syntagmatic relations account for how words combine linearly to form

larger syntactic structures. Focusing on lexical–semantic relations, Paradis (2012) identifies three major categories: (1) homonymy and polysemy, which involve identical linguistic forms associated with different meanings; (2) synonymy and hyponymy, which refer to different forms connected through semantic similarity or hierarchical relations; and (3) antonymy, characterized by formal and semantic opposition.

Building on these approaches, Yunusova (2024) defines lexical semantics as a discipline that examines how words encode meaning both in isolation and within contextual usage. She emphasizes that lexical units function within complex semantic networks and can be systematically analyzed through relations such as synonymy, antonymy, polysemy, homonymy, hyponymy, hypernymy, and meronymy. Complementing this view, Husanova (2024) proposes a dual classification of lexical relations, distinguishing between semantic relations – including synonymy, antonymy, hyponymy, and gradational series – and formal relations such as homonymy and paronymy. She further notes that synonyms may differ in evaluative connotation, historical development, or stylistic register, while graduonyms express varying degrees of a shared quality, as illustrated by sequences like *baby – child – teenager* or *large – medium – small*.

Curses functioned as authoritative and performative speech acts within early human societies (Foucault, 1980), deriving their power from deeply rooted mythological and religious worldviews. Mythological traditions significantly reinforced the perceived efficacy of curses: divine maledictions in Greek mythology (Luck, 2006), curses mediated through Slavic household spirits (Ivanits, 1989), and Uzbek folkloric

invocations associated with figures such as Alvasti and Yalmog'iz (Propp, 1968) all attest to a long-standing belief in the transformative, disciplinary, and regulatory force of language.

Curses uttered by women – such as “May the evil you intend rebound upon you” – played a particularly important role in maintaining social norms and communal morality (Butler, 1997). In maternal discourse, expressions like “May the harm you wished my child return to you” function not merely as emotional reactions but as assertions of moral authority and social power [6]. Through such verbal acts, women position themselves as agents of symbolic influence, demonstrating how language operates as a medium for exercising and reproducing social control.

Religious oaths and vows constituted another significant category of early curse expressions. In the Middle Ages, phrases such as “God’s wounds” or “Christ’s blood” were considered irreverent and offensive to religious sensibilities [1]. With the advent of the Reformation and the rise of Puritanism, linguistic taboos became more rigid, and blasphemy was subject to legislative punishment. This period strengthened the distinction between culturally acceptable language and vulgar or taboo expressions – a division that continues to shape modern linguistic norms.

Over time, anathematic units have undergone notable semantic shifts. Changes in their evaluative polarity – toward either positive or negative connotations – reflect broader transformations in social values and communicative practices [4: 3]. E.Blamir et al. classify anathematic units according to their discursive function into two primary types: emphatic curses, which intensify reference to a specific object or situation (e.g., “That damned dog is trampling my flowers”), and relief-oriented curses, which serve to discharge strong negative emotions (e.g., “Damn it!” uttered after a sudden mishap) [3: 32].

G.Horan (2013) proposes an alternative classification, distinguishing between formulaic curses directed at the listener (e.g., “May you die of a wasting disease,” “I hope you...”), curses framed as appeals to the Creator (e.g., “May God forgive you...”), self-directed curses (e.g., “May God strike me dead...”), and explicit curse formulations (e.g., “The curse of

hell on you”). In some instances, the appeal remains implicit rather than overtly stated, as in exclamations such as “Oh hell!” Within Christian belief systems, such expressions are often interpreted as careless or trivial invocations of divine power and are therefore perceived as mocking the sacred [2: 72].

From a literary-linguistic perspective, O.Yuldashev and M.Olimova analyze vulgarisms in the novel *Shaytanat* and classify them into several lexical-semantic groups: words expressing contempt or disrespect (befarosat, to'nka, megajin), units denoting hatred (qo'rqoq, hayvon), expressions conveying insult and degradation (shumshuk, maraz, xunasa, chuvrindi), and phrases signaling intense anger (padaringga la'nat, haromi, enag'ar, juvonmarg) [8].

From a broader lexical-semantic viewpoint, anathematic units may be divided into four categories: (1) expressions characterizing a person's moral or social identity (yuzi qora, xudo organ, Tom of Bedlam); (2) curses directed explicitly at the listener (Woe betide you, qo'ling akashak bo'lsin); (3) foul expressions aimed at objects or events (curse the day, osmon yiroq, yer qattiq); and (4) fixed idiomatic expressions with reduced negative force (dog my cats, afti qursin).

The overall analysis of lexical semantics and anathematic expressions demonstrates that word meanings are dynamic, interrelated, and continuously shaped by cultural, psychological, and social forces. From early etymological investigations to structuralist theories and contemporary semantic frameworks, research on meaning reveals a complex network of relationships among lexical units. The study of curses, in particular, underscores the function of language as a powerful medium for expressing authority, constructing identity, and regulating social norms. Appearing in mythological narratives, religious formulas, and everyday discourse, anathematic expressions reflect the historical evolution of moral values and communicative practices. Therefore, curses should not be regarded merely as marginal or peripheral linguistic phenomena; rather, they constitute culturally embedded discursive practices that contribute significantly to our understanding of how language both mirrors and actively shapes social reality.

References

1. Allan K., Burridge K. *Forbidden words: Taboo and the censoring of language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
2. Battistella E.L. *Bad language. Are some words better than others?* Oxford and –New York: Oxford University Press, 2005.
3. Blamire E., Laturus R., Perez-Leon A. *Profanity Across Gender and Age* // *University of British Columbia Sojourners: Undergraduate Journal of Sociology*, 2013. Vol. 5. – P. 32–50.
4. Deckker D., Sumanasekara S. *Profanity Through Time: A Corpus-Based and Sociolinguistic Study of the Evolution, Usage, and Perception of English Curse Words* // *International Journal of Southern Economic Light (JSEL)*, 2025. Vol. 13, Issue 5. – P. 3
5. Horan G. *You taught me language; and my profit on't/Is, I know how to curse': cursing and swearing in foreign language learning* // *Language and Intercultural Communication*, 2013, 13(3). – P. 283–297.
6. Gulomova R. *Социокультурное происхождение слов проклятий* // *Лингвоспектр*, 2025, 4(1). – P. 1159–1164.
7. Husanova D. B. *Tilshunoslikda leksik-semantik munosabatlar* // *Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*, 2024. – B. 133–136.
8. Yuldashev O., Olimova M. *Lexical-semantic analysis of certain definitions and vulgarisms used in Tahir Malik's "Shaytanat"* // *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 2023. Vol. 3, №5. – P. 718–722.
9. Yunusova M.Sh. *Lexical semantics as a branch of linguistic semantics: theoretical foundations and analytical approaches* // *New Renaissance International Scientific Journal*, 2024. Vol. 2, Issue 5, – B. 545–549.

Dildora SAFAROVA,

Jizzax davlat pedagogika instituti dotsent v.b

LINGUOCOGNITIVE INTERPRETATION OF ECOLOGICAL UNITS IN ENGLISH LITERARY TEXTS

Annotation. This article explores the lingvocognitive interpretation of ecological units in English literary texts. Ecological units, such as nature, environment, and ecological themes, are analyzed in terms of their linguistic and cognitive representation, examining how human-nature relationships are modeled cognitively in literature. Using examples from Romantic literature and Emily Dickinson's poetry, the paper applies a lingvocognitive approach to demonstrate how ecological consciousness is shaped through language. The findings emphasize the significant role of literary texts in cognitively interpreting ecological issues.

Keywords: ecological units, lingvocognitive interpretation, English literary texts, ecological consciousness, Emily Dickinson, Romantic literature, language and cognition, ecological discourse.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz badiiy matnlarida ekologik birliklarning lingvokognitiv talqinini o'rganiladi. Ekologik birliklar, ya'ni tabiat, atrof-muhit va ekologik mavzularning til va kognitiv jihatdan qanday ifodalanishi, adabiy asarlarda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning kognitiv modellari orqali tahlil qilinadi. Maqola romantik davr adabiyoti va Emily Dikinson she'riyati misolida lingvokognitiv yondashuvni qo'llaydi, ekologik ongning til orqali shakllanishini ko'rsatadi. Natijada badiiy matnlar ekologik muammolarni kognitiv jihatdan talqin qilishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ekologik birliklar, lingvokognitiv talqin, ingliz badiiy matnlari, ekologik ong, Emily Dikinson, romantik adabiyot, til va kognitsiya, ekologik diskurs.

Аннотация. Эта статья исследует лингвокогнитивную интерпретацию экологических единиц в английских художественных текстах. Экологические единицы, такие как природа, окружающая среда и экологические темы, анализируются с точки зрения их лингвистического и когнитивного представления, изучая, как отношения человека и природы моделируются когнитивно в литературе. На примерах из романтической литературы и поэзии Эмили Дикинсон применяется лингвокогнитивный подход для демонстрации формирования экологического сознания через язык. Результаты подчеркивают значительную роль художественных текстов в когнитивной интерпретации экологических проблем.

Ключевые слова: экологические единицы, лингвокогнитивная интерпретация, английские художественные тексты, экологическое сознание, Эмили Дикинсон, романтическая литература, язык и когнития, экологический дискурс.

In the contemporary era, marked by escalating environmental crises such as climate change, deforestation, and biodiversity loss, literature has emerged as a powerful medium for examining human interactions with the natural world. English literary texts, ranging from the Romantic period to modern and contemporary works, frequently incorporate ecological themes that extend beyond descriptive representation and engage deeper cognitive and conceptual processes shaped by language. Within this context, the present article explores the lingvocognitive interpretation of ecological units in English literary texts.

In this study, the term *ecological units* refers to linguistic constructions that represent elements of the natural environment, including nature-based metaphors, personifications of landscapes, and symbolic representations of ecological balance or disruption. Lingvocognitive analysis, which integrates principles from linguistics and cognitive science, examines how such units are conceptualized, mentally processed, and interpreted by readers, thereby shaping ecological awareness and environmental consciousness.

The notion of *lingvocognitive* emphasizes the dynamic interaction between linguistic structures and cognitive models. In literary discourse, ecological units are not static semantic elements; rather, they activate mental schemas and conceptual frames that reflect culturally embedded attitudes toward nature. This analytical perspective draws upon ecolinguistics, which investigates the role of language in shaping human-nature relationships, as well as ecocriticism, which examines literature's contribution to environmental ethics and awareness. By applying a lingvocognitive framework to selected English literary texts, this article seeks to reveal how authors employ linguistic devices to stimulate cognitive shifts toward ecological sensitivity and sustainability.

The significance of this research lies in its interdisciplinary scope, bridging literary studies, linguistics, and environmental scholarship. In an era of accelerating ecological degradation, understanding how literary texts cognitively construct and

communicate environmental issues offers valuable insights for education, cultural discourse, and environmental policy-making. Structurally, the article consists of a review of ecological themes in English literature, an outline of the lingvocognitive methodology, analytical case studies drawn from Romantic literature and the poetry of Emily Dickinson, and concluding remarks addressing the implications of the findings for contemporary ecolinguistics.

The integration of ecological perspectives into literary analysis has developed substantially since the emergence of ecocriticism in the late twentieth century. Early foundational works, most notably those by Lawrence Buell, emphasized literature's capacity to represent environmental realities and promote ecological awareness and conservation ethics. Within English literature, the Romantic period represents a crucial turning point, as poets such as William Wordsworth and Samuel Taylor Coleridge reconceptualized nature not merely as a scenic backdrop, but as a living, dynamic entity closely intertwined with human cognition and emotional experience. Their writings articulate an early form of ecological consciousness, often critiquing the environmental consequences of industrialization and mechanized progress.

Subsequent scholarship has expanded ecological literary studies to include lingvocognitive dimensions. Research focusing on language and cultural ecological environments demonstrates how linguistic choices in literary texts shape readers' cognitive processes, including metacognitive strategies involved in interpreting environmental narratives. Lingvocognitive studies of conceptual and measurement units in languages such as English and Uzbek reveal culturally specific ways of perceiving ecological categories such as time, space, and natural resources. These categories are frequently encoded metaphorically in literary discourse, reflecting culturally embedded ecological worldviews.

Emily Dickinson's nature poetry offers particularly rich material for such analysis. Her frequent personification of natural elements and abstract ecological processes

allows for detailed examination through discourse-based approaches, including Systemic Functional Linguistics (SFL). Through SFL, scholars have demonstrated how Dickinson's linguistic choices construct ecological meanings and promote ethical relationships between humans and the natural world. Collectively, this body of research underscores that English literary texts do not merely depict ecological realities but actively shape readers' environmental ethics by privileging harmony, interdependence, and sustainability over exploitation.

Moreover, broader ecolinguistic theories, influenced by scholars such as Einar Haugen and Arne Naess, emphasize the importance of "eco-translation" and environmentally responsible linguistic practices. These perspectives contribute to the lingvocognitive approach by conceptualizing ecological units as cognitive prototypes that activate schemas of interconnectedness and ecological balance in the reader's mind.

The present study adopts a lingvocognitive methodological framework that integrates principles from cognitive linguistics and ecolinguistics. Cognitive linguistics posits that language reflects underlying conceptual structures, including image schemas, conceptual metaphors, and mental models, all of which play a central role in the interpretation of ecological units. For example, metaphors such as "nature as a mother" evoke nurturing and protective schemas that influence readers' ecological attitudes and value judgments.

The analysis also draws on Systemic Functional Linguistics (SFL) to examine how ecological meanings are constructed through three metafunctions: the ideational metafunction, which concerns the representation of environmental processes and entities; the interpersonal metafunction, which shapes the relationship between the text and the reader; and the textual metafunction, which organizes ecological meanings cohesively within the discourse. Literary texts are selected based on their prominence in ecological literary traditions, including Romantic works by William Wordsworth and Henry David Thoreau, as well as selected poems by Emily Dickinson, such as "The Grass" and "I Have a Bird in Spring."

Data collection involves close textual reading and systematic linguistic coding of ecological units, including personifications, material and relational processes, and metaphorical expressions. Cognitive interpretation is conducted by examining how these linguistic units activate mental models and conceptual mappings, drawing on conceptual metaphor theory to relate linguistic forms to embodied cognitive experiences. This qualitative approach enables an in-depth exploration of how literary language cognitively constructs ecological realities. While the interpretive nature of the analysis may involve a degree of subjectivity, this limitation is addressed through consistent theoretical grounding and cross-referencing with established scholarly interpretations.

Ecological Units in Romantic Literature

British and American Romantic literature vividly exemplifies lingvocognitive interpretations of ecological units through nature-centered discourse that cultivates ecological consciousness. In William Wordsworth's "Lines Composed a Few Miles above Tintern Abbey," nature is cognitively conceptualized as a spiritual and epistemological guide. Linguistic devices such as relational processes (e.g., "the mighty world / Of eye, and ear") activate schemas of unity and perceptual wholeness. Through the ideational metafunction, the poem represents nature as an organic and interconnected system, thereby

cognitively reorienting readers from an anthropocentric worldview toward one of ecological interdependence.

Similarly, Henry David Thoreau's *Walden* employs ecological units to critique material excess and the exploitation of natural resources. Metaphorical constructions such as "the life in us is like the water in the river" cognitively model human-nature symbiosis, encouraging readers to conceptualize existence as embedded within natural cycles. From a lingvocognitive perspective, these units evoke embodied perceptual schemas in which simplicity, balance, and self-restraint function as cognitive antidotes to the mental fragmentation produced by industrialization. Nature, thus, becomes a cognitive space for purification and ethical reflection.

In James Fenimore Cooper's frontier narratives, ecological units frequently appear through the personification of untamed landscapes. Wilderness is linguistically framed not as chaos but as a meaningful cognitive domain essential for human fulfillment and moral development. Such representations activate schemas of exploration, freedom, and responsibility, promoting ethical stewardship. Textual cohesion and recurring ecological imagery reinforce themes of harmony between humans and the natural world, highlighting literature's capacity to cognitively encode environmental ethics.

Lingvocognitive Interpretation in Emily Dickinson's Poetry

Emily Dickinson's poetry offers particularly nuanced lingvocognitive interpretations of ecological units. In "The Grass" (also known as "A Narrow Fellow in the Grass"), natural elements are anthropomorphized through material processes such as "stir all day" and "hold the sunshine," cognitively constructing nature as an autonomous entity rather than a passive object. The ideational metafunction foregrounds interconnectedness among grass, butterflies, and bees, activating schemas of ecological balance and mutual dependence.

At the interpersonal level, Dickinson's predominantly declarative tone fosters a sense of reverence and attentiveness, guiding readers toward a cognitive recognition of nature's autonomy. Textual cohesion, particularly through the repetitive use of conjunctions such as "and," produces rhythmic continuity that mirrors natural cycles. This linguistic rhythm reinforces anti-anthropocentric perspectives by aligning textual flow with ecological temporality.

In "I Have a Bird in Spring," ecological units associated with seasonal change are cognitively processed through mental processes such as "I wish" and "I dread," reflecting a progression from uncertainty to acceptance. The personification of the bird and spring as simultaneously deceptive and reliable activates schemas of trust in natural laws and cyclical renewal. Lingvocognitively, these representations encourage readers to reconceptualize uncertainty as an inherent and constructive aspect of ecological order, thereby promoting harmony rather than control.

Collectively, Dickinson's linguistic choices construct ecologically beneficial cognitive discourses, inviting readers to perceive nature not as subordinate to humanity but as a co-equal participant in existence.

Comparative Insights

A comparative analysis of Romantic texts and Dickinson's poetry reveals shared lingvocognitive patterns. Personification consistently activates empathy-based schemas, while the use of material, relational, and mental processes models dynamic interactions between humans and the natural environment. These patterns demonstrate how linguistic form shapes cognitive interpretation and ethical orientation. At the

same time, cultural ecological environments influence the realization of ecological units. English literary traditions, often shaped by individualistic cognitive models, may contrast with representations found in other linguistic and cultural contexts. Cross-linguistic studies of ecological units in English and other languages suggest that variations in conceptualizing time, space, and natural resources affect cognitive ecological framing. This comparison underscores literature's powerful role in shaping cognitive environmental ethics and highlights the value of lingvocognitive analysis for understanding how language mediates human–nature relationships.

The lingvocognitive interpretation of ecological units in English literary texts demonstrates how language functions as a cognitive mechanism for shaping ecological consciousness. Analysis of Romantic literature and the poetry of Emily Dickinson reveals that linguistic devices such as metaphor, personification, and process types activate cognitive schemas grounded in harmony, interdependence,

and respect for the natural world. These findings highlight the role of literary discourse in moving readers beyond anthropocentric perspectives toward more ecologically sustainable modes of thinking. The implications of this study extend to educational contexts, where lingvocognitive approaches to literary analysis can be effectively employed to cultivate environmental awareness and critical ecological literacy among learners. By engaging with literary texts through a cognitive–ecological lens, students are encouraged to develop reflective attitudes toward human–nature relationships. Future research may broaden this framework by examining contemporary and digital literary forms, particularly those shaped by multimedia and online environments, to explore how emerging modes of discourse influence ecological cognition. Ultimately, English literature continues to serve as a vital cultural and cognitive resource for interpreting, negotiating, and responding to the complex ecological challenges of the modern world.

References

1. Li Y. Influence and Analysis of the Language and Cultural Ecological Environment in the Cognitive Process of English Writing. PMC, 2022. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9398823/>.
2. Rustamova S. Lingvocognitive and Linguocultural Study of Measurement Units in English and Uzbek Languages. ResearchGate, 2025. https://www.researchgate.net/publication/389125299_Lingvocognitive_and_linguocultural_study_of_measurement_units_in_english_and_uzbek_languages.
3. Al-Abboodi, H. M. T. (2019). An Ecological Analysis of Emily Dickinson's "The Grass". Theory and Practice in Language Studies. <https://www.academypublication.com/issues2/tpls/vol09/07/15.pdf>.
4. A History of Some Major Ecological Literary Discourses. ECOS. <https://www.ecos.org.uk/a-history-of-some-major-ecological-literature/>.
5. Ecology in Literature. Oxford Bibliographies. <https://www.oxfordbibliographies.com/abstract/document/obo-9780199830060/obo-9780199830060-0148.xml>
6. Chen X. (2022). The Ecological Consciousness of Natural Writing in British and American Romantic Literature. PMC. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9388313/>

Iroda NASIMOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Erkboyeva Yoqutxon Mamasobirovnaning 10.00.09 – Jurnalistika ixtisosligi bo'yicha "Onlayn-mediada gonzo jurnalistikasi: shakllanishi va taraqqiyot tendensiyalari (xalqaro va milliy tajriba tahlili asosida)" dissertatsiyasiga

TAQRIZ

So'nggi o'n yilliklarda raqamli media maydonining jadal o'zgarishi natijasida jurnalistik uslublar, xususan, subektiv yondashuvga asoslangan gonzo jurnalistikasi xalqaro va milliy axborot makonida yangi bosqichga ko'tarildi. Onlayn platformalar: bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, internet-nashrlar gonzo jurnalistikasining shakllanishi, tarqalishi uchun keng imkoniyat yaratdi. Shu sababli gonzo jurnalistikasining xalqaro tajribadagi rivoji va uning O'zbekiston onlayn mediasidagi namoyon bo'lish shakllarini o'rganish ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Aytish joizki, Erkboyeva Yoqutxonning tadqiqot ishida izchillik bor, manbalarning boyligi, nazariy qarashlarning amaliy misollarning uyg'unligini alohida e'tirof etish joiz.

Tadqiqotchi gonzo jurnalistikasining paydo bo'lishi, evolyutsiyasi va zamonaviy xususiyatlarini turli maktablar (H.Tompson, T.Vulf) hamda Yevropa va Amerika jurnalistikasidagi amaliy misollar asosida chuqur yoritgan. Tadqiqotning nazariy qismi manbalarga boy, xalqaro va milliy kontekst solishtirilgan, gonzo jurnalistikasining axloqiy va axborot xavfsizligi bilan bog'liq masalalarning dolzarb

yondashuvi aks etgan. Ammo inobatga olinishi kerak bo'lgan quyidagi kamchiliklar ko'zga tashlanadi:

1. Ishning kirish qismini Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining "Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatini rasmiylashtirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasi bo'yicha rasmiylashtirilishi lozim. Ishning kirish qismida Nizomda keltirilgan tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchiligi kabi qismlarning kiritilishi kirishning yaxlit holatga kelishiga yordam beradi.

Ishning ilmiy yangiligi qismida keltirilgan birinchi va ikkinchi bandlar mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, ularni farqlovchi konseptual chegaralar yetarli darajada ifodalanmagan. Har ikkala band ham gonzo jurnalistikasida muallif pozitsiyasi va subektivlikning ustuvorligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, mazkur bandlarning ifoda uslubi ilmiy terminologik jihatdan boyitish zarur.

2. Ishning "Gonzo jurnalistikasi mohiyati va shakllanish tamoyillari" nomli 1-bob birinchi faslida Hanter Tomson "gonzo" siga va shaxsiyatiga ko'proq urg'u berilgan bo'lib,

umumiy jihatdan faslga xos bo'lgan gonzo jurnalistikasining mohiyati va shakllanish tamoyillari to'la ochib berilmagan.

3. "Gonzo jurnalistikasining ilmiy-nazariy talqinlari" nomli birinchi bob 2 faslda gonzo jurnalistikasining ilmiy nazariy talqinlari deb nomlangan bo'lib, yangi jurnalistika bilan gonzo o'rtasidagi bog'liqlik nazariy jihatdan yetarli asoslanmagan, ularning o'zaro chegaralari, farqlari aniq ajratilmagan. Gonzo jurnalistikasining "format" sifatida izohlanishi bo'yicha yetarli iqtiboslar keltirilgan. Ammo tadqiqotchi bu yondashuvlarni tahlil qilib, gonzo jurnalistikasi qaysi mezonlarga ko'ra janr emasligi, nimalarga ko'ra format sifatida qaralishi aniqlashtirmagan.

4. "AQSh va G'arbiy Yevropa OAVda gonzo jurnalistikasining xususiyatlari" nomlangan 2.1.faslda "gonzoga xos", "gonzo uslubida" degan iboralar bor, lekin fasl boshida gonzo materiallari deb atash uchun quyidagi mezonlar zarur deb keyin materiallar tahlil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

5. Ishning 2.2. fasli "MDH mamlakatlari gonzo jurnalistikasining tadriji" deb nomlangan bo'lib, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi mamlakatlardan misollar bor, ammo "MDH mamlakatlari" sarlavhasiga nisbatan balans yetarli emas (masalan, Ukraina, Belorussiya, kabi boshqa davlatlardan umumiy misollar bo'lishi mumkin edi).

6. Terminologiyada vaqt-vaqti bilan chalkashliklar bor. "gonzo janri", "gonzo uslubi", "gonzo yo'nalishi", atamalar bir bo'lim ichida almashib ishlatilgan. Bu esa janr/uslub/format o'rtasidagi chalkashliklarni vujudga keltiradi.

7. Uchinchi bob milliy media maydonidagi gonzo jurnalistikasi va unga xos axloqiy, huquqiy, axborot xavfsizligi masalalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotchi

O'zbekiston mediasidagi real keyslarni (Millar teledasturidagi sahnalashtirilgan reportajlar, ELTUZ blogidagi materiallar, electric-blackout mavzusidagi postlar) chuqur tahlil qilar ekan, gonzo uslubining axloqiy chegaralari, shaxsiy hayot daxlsizligi, fakt, fikr va emotsiya to'qnashuvi, sahnalashtirish xavfli jihatlari kabi dolzarb masalalarni ochib bergan. Keyslarni tematik bloklarga maxfiylik, sensatsionlik, manipulyativ yondashuv, etik buzilishlar, jurnalist mas'uliyati kabi bo'limlarga bo'lib berish orqali klassifikatsiya qilinganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

8. Matnida ayrim orfografik va terminologik nomuvofiqliklar ham uchraydi: "gibrid", "multimediaviylik", "online/onlayn", "shubxasiz/shubhasiz" kabi variantlar aralash qo'llangan. Bunday texnik nomuvofiqliklar mazmunni o'zgartirmasa-da, rasmiy ilmiy matn sifatiga putur yetkazadi.

9. Ishda berilgan yangi bilimlar, muammolar xulosada to'laqonli aksini topmagan. Takliflar qismini kuchaytirish kerak.

Umuman olganda, dissertatsiya ishi tugallangan va mustaqil tadqiqot bo'lib, ushbu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Shubhasiz, dissertant turli ilmiy tadqiqot usullaridan foydalangan holda ko'plab materiallarni topish, to'plash va tahlil qilish uchun mashaqqatli mehnat qilgan.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, Erkboyeva Yoqutxon Mamasobirovnaning "Onlayn-mediada gonzo jurnalistikasi: shakllanishi va taraqqiyot tendensiyalari (xalqaro va milliy tajriba tahlili asosida)" mavzusidagi dissertatsiyani kamchiliklarni bartaraf etgan holda keyingi bosqichga tavsiya etish mumkin.

Yuldash IBRAGIMOV,

*Nukus davlat pedagogika instituti professori,
filologiya fanlari doktori*

QORAQALPOG'ISTON O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASINING TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi turkiy xalqlarning etnik tarqalishi va qanday tarmoqlarga bo'linishi bayon etiladi. Shuningdek, mazkur hududning madaniy, iqtisodiy turmush tarzi bilan uzviy bog'liq ravishda til xususiyatlaridagi o'zgarishlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: dialekt, sheva, areal, hudud, etnogeniz, izoglossa, tarixiy ildiz.

Annoation. This article describes the ethnic distribution and division of the Turkic peoples living in the Republic of Karakalpakstan. Changes in linguistic features are also studied in close connection with the cultural and economic way of life of the given region.

Keywords: dialect, dialect, area, region, ethnogenesis, isogloss, historical root.

Аннотация. В данной статье описывается этническое распределение и разделение тюркских народов, проживающих в Республике Каракалпакстан. Также изучаются изменения в языковых особенностях в тесной связи с культурным и экономическим образом жизни данного региона.

Ключевые слова: диалект, диалект, ареал, регион, этногенез, изоглосса, исторический корень.

Dialekt va shevalarni tadqiq etish xalqning tarixi, etnogenezi, etnik yashash yo'li, mazkur hududning madaniy, iqtisodiy, turmush tarzi bilan uzviy bog'liq ravishda qaraldi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zbek shevalari leksikasini tadqiq etish borasida etnik guruhlarining tarkib holatlari, ularning qanday tarmoqlarga bo'linish masalalari qisqacha bayon etildi.

Dialektlarni tadqiq etish ishi juda muhim. Chunki dialektlar ilmiy jihatdan adabiy tilning moddiy bazasiga manba sifatida baholansa, amaliy nuqtai nazardan ular hozirgi adabiy tili leksikasini boyituvchi manbalardan biri sifatida tan olinadi. Shevalarni tadqiq etishning maktab tajribasi, gazeta-jurnal, radio eshittirish, o'ynai jahon ko'rsatuvlarini takomillashtirish, shevaga xos so'zlarni noo'rin qo'llash, adabiy tilning vazifasini belgilash, badiiy asarlarda personajlar tilida qanday holatda va qanday

maqsadga asoslanib sheva unsurlaridan foydalanish usullariga e'tibor qaratish zarur.

Til jamiyatning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Ushbu jarayon davomida u sayqal topadi, ma'no jihatdan kengayadi. Tilning rivojlanish holatini jamiyatning rivojlanishi belgilaydi, jamiyatning tarixini, o'sha tilda so'zlashadigan xalqning tarixini bilmasdan, tilning rivojlanish tarixini tushinish mumkin emas. Demak, har qanday tilni, dialekt va shevalarni, uning taraqqiyot yo'lini o'rganish uchun, o'sha tilning egasi bo'lgan xalqning o'tmishdagi hayot yo'lga e'tibor qaratish lozim. Dialektlarni o'rganishning ahamiyati haqida mashhur turkolog P.M.Melioranskiy ham juda ahamiyatli fikr bildirib, uni o'rganish qadimgi estaliklarni bilishga, til tarixini tadqiq etishga juda foydali ekaniga alohida e'tibor qaratgan edi.

Xalqning o'tmishda kechirgan hayot yo'li bir qancha tarixiy sharoitlarni ochib berishga yordamlashadi, bir xalq tilida bir qancha dialektning paydo bo'lishi ham qoliplashishning asosiy manbai haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Masalan, o'zbek tilining o'g'uz va qipchoq lahjalaridan misol keltiraylik. Qipchoq lahjasi Amudaryoning quyi qismida, uning ikki qirg'og'iga qator-qatora joylashib, makon etgan o'zbek xalqining o'tmish tarixi bilan sug'orilib, o'zining leksik tarkibi bilan asosiy leksik fondi ko'p boy so'zlarni to'plasa, o'g'uz dialekti, asosan, uning leksikasi ham shunday yo'lni o'tdi. Xalqning og'zaki so'zlashish tilining boyligini yig'ish, tadqiq etish, boshqa dialekt va shevalarga solishtirib, o'zora solmog'ini belgilash mas'uliyatli ish. "Har bir adabiy tilning dialektal bazasini tadqiq etish davrida, – deydi N.A.Baskakov, – hozirgi aniq tarixiy sharoitlarni, uning barcha taraqqiyot jarayonini e'tiborga olish lozim". Keltirilgan metodologik holatlarni hisobga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zbek shevalari lug'at tarkibi taraqqiyoti xalqimizning o'tmishdagi tarixiy bosqichlari bilan teran bog'lab tadqiq etishni ma'qul ko'rdik. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zbek shevalari lug'at tarkibi taraqqiyotining tarixiy sharoitlari o'zining asosiy belgilari bo'yicha, O'rta Osiyodagi asosiy turkiy tillar bo'lgan o'zbek, qoraqalpog, qozoq, turkman tillari leksikasining rivojlanish sharoitlari o'xshash bo'lib keladi». Bu holat dialektal leksika uchun ham tegishlidir. Bundan tashqari, "Orolbo'yi o'zbek shevalari tadqiqi" monografiyamizda masalaning o'rganilish tarixiga alohida bob ajratilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida istiqomat qiluvchi xalqlar bir daryodan suv ichib, bir havodan nafas olib, tarixning barcha davrlarida birga bo'lgan, yonma-yon qadam tashlab, turmushning shodu xurramligi, g'am-u g'ussasini teng totgan xalqlardir. Shuning uchun ham, ularning tili, tarixi, dini, milliy qadriyati, dili, tagi azal-azaldan mushtarakdir. Ular qadimda qipchoq ittifoqi davrida **"92 bovli qipchoq"**, Oltin O'rdaning mashhur xoni O'zbekxon davrida **"92 bovli o'zbek"**, "92 bovli urug'-turk" deb atalgan. Bu davrda ularning etnik tarkibiga mo'g'ul tip etnik guruhlar ham aralashganlar. Y.G'.G'ulomov, N.A.Aristov, N.A.Xanikov, S.P.Tolstov, T.A.Jdanko, S.Kamolov, X.D.Doniyorov, Sh.Shoabduraxmonov, F.Abdullayev, B.Jo'rayev, O.Madraximov, E.O'rozov, V.Egamov, D.Nosirov, M.Valiev, R.Qo'ng'urov, M.Axmedov, O'.Bekbaulov, Z.Do'simov, O'.Dospo'lov, Q.Abdimuratov, Y.M.Ibrohimov va boshqa olimlar turkiy xalqlarning 92 bovlidan tashkil topganligini har tomonlama asoslab berganlar. Turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining ham 92 bovli urug'-qabiladan tashkil topganligi haqida ularning og'zaki ijod namunalari, shajaralari, ayrim shoirlarning asarlarida ham qimmatli va boy tarixiy ma'lumotlar mujassam. Masalan, XVII asrda yashab ijod etgan buyuk shoir Turdi (Farog'iy) ham o'zbek eloti **92 urug'-qabilaning** birikuvidan tarkib topganligini ta'kidlab:

*Tor ko'ngillik beklar, man-man demeng, kenglik qiling,
To'qson ikki bori (bovli) o'zbek yurtidur tenglik qiling,
deb ularni birlashishga, inoq, totuv, hamjihat yashashga
chaqiradi.*

Qoraqalpog'iston Respublikasida qadimdan o'zbeklarning qo'ng'iroq, qipchoq, nayman, mang'it, xitoy, kanagas, qangli, qurbanog, qiyot, qatag'on, tartuvli, bo'gajali, qarg'asha, xonjig'ali, qo'shtamg'ali, kerayit, qo'lop, joloyir, uyshun, uzun, kinik, boysun, bolg'ali, muytan, no'kis, do'rman, ochamayli, sag'ir, sarsan, djaqayim, chanchqili, shirin, sayot, bayot, juvondir, avshar, bijanak, chandir, saxtiyan, uyg'ur, qarapoq (qoraqalpog), alosh (qozoq), turqmon, igdir, saripo'stin, qorachakman kabi urug'-qabilalar birga yashab keladilar. Bu urug'-qabila nomlarining ko'pi hozirgi vaqtda qoraqalpog, qozoq, tatar, turkman, nug'ay, qirg'iz, uyg'ur, boshqurd, qo'miq, qorachoy, balqor, xakas, cho'lim, chuvash xalqlari o'rtasida ham aynan uchraydi. O'zbeklar orasida

o'zlarining qaysi urug'-qabilaga mansubligini farqlash hozirgi vaqtda faqat qariyalar uchungina xosdir. Qoraqalpog, qozoq, qirg'iz, turkman, boshqirdlarning kattasidan-kichigigacha o'zlarining qaysi urug' yoki qabila, to'b, bo'lakka tegishli ekanligini yaxshi ajratib bera oladilar.

N.A.Aristov Markaziy Osiyo, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi urug'-qabilalar tarkibini tadqiq etish butun turkiy xalqlarning etnik tarkibini bilib olishga yo'l ochishini, qipchoq o'zbeklari tarkibida alohida-alohida qadimgi turkiy qabilalarni uchratish mumkinligini batafsil bayon etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi turkiy xalqlarda **"Tumanlining tubi bir, tub otasi Mayqibiy"** deb (Amu va Sir daryolarning quyi oqimida yashovchi barcha turkiy xalqlar) o'zlarini **tumanli** deb ataydilar. Ular shajaralarida ham o'zlarining kelib chiqishini bir manbaga bog'laydilar. Masalan, qoraqalpog xalqining mumtoz shoiri Berdaq o'z shajarasida: "Mo'ytan, Qo'ng'iroq, Xitoy, Qipchoq, Kenagas, Mang'it ipakdek bari olti urug' qoraqalpog o'zbekdan ajralgan ekan...", deb yozadi. Biz bu o'rinda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'zbek shevalari vakillari nutqidan yozib olgan shajarani fikrimizning tasdig'i sifatida keltirishni ma'qul ko'rdik.

Shajarada bayon qilinishicha, Anas Sahobadan Mug'oz degan o'g'il tug'iladi, Mug'ozdan Jo'bol, Jo'boldan Suxayl degan o'g'il dunyoga keladi. Suxaylning Oqcho'lpon degan xotinidan Otar va Tatar degan ikki o'g'il tug'iladi. Otardan Estek va Boshqiz (Boshqird) degan bolalar bunyod bo'ladi. Tataridan esa No'gay tug'iladi. Suxaylning ikkinchi xotini Quraydan Duyim va Olomon degan ikki o'g'il dunyoga keladi. Duyimdan Tuman, Tumandan Turke, Turkedan Tanas, Tanasdan Turmiz, Turmizdan Anji, Anjidan Dat kelib chiqqan. Olomondan esa, Jeyilxon va Seyilxon degan o'g'illar tug'iladi. Seyilxondan sakkiz aris (sakkiz qabila, bo'g'im) turkman kelib chiqqan. Jeyilxondan Mayqibiy degan bir bola, Mayqibiydan O'zbek va Jonibek degan bolalar dunyoga keladi. O'zbekdan hozirgi o'zbeklar kelib chiqqan. Jonibekdan Ayriqalpog degan bir bola, Ayriqalpogdan Olosh (qozoqning otasi), Qirg'iz, So'zoq ajralib chiqqan. So'zoqdan qoraqalpog ajralib chiqqan, (Bu shajara 1966 yil Xo'jayli tumani, Aeroport ko'chasi, 26-uyda yashovchi Kumisboy Alpiso'vning tilidan yozib olindi). Bu bir muncha afsonaga o'xshab ko'ringani bilan, har qanday afsonaning asosida haqiqatlik yotadi deganlaridek, turkiy xalqlarning genetik yaqinliklarini izohlashda yaqindan yordam berishi aniq.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqlari o'rtasida asr-asrlardan davom etib kelayotgan qon-qarindoshlik, hamkorlik va do'stlik munosabatlari rishtasi mustaqillik ato etgan ne'matdir. Viloyat, tuman, qishloq kengashlarining hisob ma'lumotlariga nazar tashlasak, o'zbek-qoraqalpog; qozoq-o'zbek, qoraqalpog-qozoq, qozoq-turkman kabi aralash nikohlar miqdori 25–30 foizdan ziyod. Qoraqalpog'iston Respublikasining intensiv rivojlanish davri avval xorazmiylar, keyinroq o'g'uz va qipchoqlar nomi bilan bog'liq. SHu tufayli mazkur mintaqadagi turkiy tillarning barchasi uchun umumiy bo'lgan qadimiy xorazmiy tilining substrat hodisasi saqlangan. Misolar:

haz kayif, **yap** ariq, **solma** ariqcha, **sarxum** – tojik. *sar* bosh, *xum* – suv soladigan sopol idish;

otiz – ekin ekiladigan maydon, dala;

chel marza, **zenggi** norvon;

adan – eshikdan kirgan joy, poygoh;

adrasman – isiriq;

Galdimiyan, Durbadik, Mazdubast, Mizdakxon, Zamaxshar, Gavvraqal'a, Chilpiq, Hojimuluq'ajimullq (Hoji momo o'gli) *Izmuxshir (Zamaxshar)* kabi tarixiy nomlar toponimlar saqlanib kelmoqda. Ushbu tarixiy er-suv nomlarini avaylab, asrab saqlab qolish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimov Y.M. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zbek shevalarining areal leksikasi. – Toshkent: Firdavs-shox, 2025.
2. Ibragimov Y.M. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarining tasnifi \ Filologik tadqiqotlar. – Nukus, 1978.
3. Ибрагимов Ю.М. Лексика узбекских говоров Южного Приаралья. Нукус: Билим, 1996.
4. Ibragimova Z.Y. Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari qishloq xo'jaligi leksikasi. – Toshkent, 2013.

Zamira IBRAGIMOVA,

*Qoraqalpog' davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

QORAQALPOG'ISTON O'ZBEK SHEVALARIGA TURKIY TILLI XALQLARNING LINGVOMADANIY TA'SIRI

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog'iston hududidagi o'zbek shevalarining shakllanishida turkiy tilli xalqlarning tarixiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar asosida yuzaga kelgan lingvomadaniy ta'siri yoritiladi. O'g'uz va qipchoq lahjalariga xos fonetik, morfologik hamda leksik xususiyatlar areal va etnolingvistik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: hudud, lingvomadaniyat, etnos, etnik tarqalish, areal.

Annotation. The article highlights the linguocultural influence of Turkic-speaking peoples on The formation of Uzbek dialects in the territory of Karakalpakstan, which arose on the basis of historical, cultural, and economic ties.

Keywords: territory, linguoculture, ethnos, ethnic distribution, area.

Аннотация. В статье освещается лингвокультурное влияние тюркоязычных народов на формирование узбекских диалектов на территории Каракалпакстана, возникшее на основе исторических, культурных и экономических связей. Фонетические, морфологические и лексические особенности огузских и кыпчакских диалектов анализируются с ареальной и этнолингвистической точек зрения.

Ключевые слова: регион, лингвокультура, этнос, этническое распространение, ареал.

Qoraqalpog'iston mintaqasi qadimdan geografik o'rni, tabiiy sharoiti qulay, tarixiy voqealarga nihoyatda boy, dunyo fani va madaniyati taraqqiyoti xazinasiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan buyuk alomalar, fozilu fuzolalar, olimu ulomalar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan, odamlar doimiy yashab kelgan go'shalardan. Ular muayyan hududda qadimdan o'tiroq hayot kechirib, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanib kelgan. Ushbu muqaddas va tabarruk maskanga turli tarixiy sabablarga ko'ra keyin kelib turkiylashgan ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi urug'-qabilalarning aralashuvi natijasida etnik tarkibi murakkablashdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zbek shevalarining hozirgi holati va uning tarixi, o'zbek xalqining turli xalq, urug'-qabila birliklariga tegishli lingvistik ma'lumotlarni saqlab kelayotganligi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, o'zbek tili o'g'uz va qipchoq lahjalari bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar tarixiy-lingvistik nuqtai nazardan tadqiq yetilib, ular haqida tegishli xulosalar chiqarildi, boshqa hududlardagi o'zbek shevalari hamda turkiy tillar tarixiy manbalar leksikasi bilan tarixiy-qiyos qilindi. Shevalardan yig'ilgan materiallarni qiyoslaganda, birinchi navbatda hayotiy muhim tushunchalar (leksemalar) ni tanlab; qadimgi yozma manbaalar bilan qiyoslaganda) ham muqoyasa qilish tayyorligiga tayanildi.

Mazkur shevalar o'zbek tilining qipchoq va o'g'uz lahjalariga tegishli bo'lib, singarmonizmning tanglay ohangdoshligi qonuniyatiga to'la bo'ysunadi. Bular Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l, Ellikqal'a, Beruniy, Amudaryo, Xo'jayli, Qo'ng'iro't, Taxiatosh, Qonliko'l, Nukus, Chimboy Shumanay tumanlari, Xorazm viloyatining Yangibozor, Qo'shko'pir, Gurlan tumanlari, Turkmaniston Respublikasi Doshog'uz viloyati Qizil Bodaq, Iloli, Doshog'uz, Ko'hna Urganch tumanlarining qishloqlarida joylashgan o'zbek shevalari sarlavhasida birlashtirib tahlilga tortildi.

A.A.Potebnya izohlaganidek, tilda ilgari yaratilgan narsa yangi davr uchun ikki xil xizmat qiladi – bir qismi yangi sharoitda yangi qobiqqa kiradi, bir qismi esa yangilikning mavjud bo'lishi tufayli o'z shakl va mazmunini o'zgartiradi.

Shunga muvofiq, tilning tashqi kobig'i doim ola-bula bo'ladi, turli xarakterga ega bo'lgan qatlamlar o'rin almashib, yangilik eski qobig'idan joy oladi, eski esa yangi mundarija kasb etadi.

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari fonetik tizimida so'z boshida ham jarangli, ham jarangsiz undoshlarni qo'lash imkoniyatiga ega. Ammo bu hodisaning o'rni turkiy tillarda, shuningdek, o'zbek tili va shevalarida bir xilda emas. Masalan, Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarining sharqiy I tur oraliq guruhida so'z boshida jarangli undoshni ishlatishga moyillik kuchli bo'lsa, g'arbiy va II tur oraliq guruhida, aksincha, jarangsiz undoshni qo'llash keng tarqalgan.

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida morfologik shakllarni qo'llashda ko'pgina o'ziga xos o'zgachiliklar o'rin olgan, u yoki bu shevaning tarqalgan aholi punkiti joylashuv o'rni, ma'lum tarixiy sharoiti, aholi etnik tarkibining xilma-xilligiga bog'liq ko'pgina fonetik hodisalar, morfologik shakllar, leksik o'zgachiliklar vujudga keldi. Bularning barchasi o'rganilayotgan sheva vakillarining o'zaro va qardosh turkiy xalqlar bilan asrlar davomida aloqa-munosabatda birga yashaganliklaridan darak beradi. Shu boisdan, ikki tur lahja vakillari bir xildagi morfologik shakllarni bema'lol qo'llayveradi: *улым yeddindjida uoqyudy: syg'yrdy araq savg'an bosa, deshana arqchyq; avzynda qarap solla, kan yig'lyyverme, gəziң qyazaryp ketadi* va boshqalar. Bu holat ko'pincha o'g'uz va qipchok sheva vakillarining aralash yoki yonma-yon, chegaradosh joylashgan qishloqlarida kuzatildi. Ushbu o'rinda A.B.Jo'rayevning "sof qorluq, sof qipchoq, sof o'g'uz shevasi yo'q" degan fikrini keltirish joiz.

Xullas, o'zbek tilining qipchoq lahjasi, xususan, hozirgi turkiy tillar bilan qiyoslash, taqqoslash natijasida ular o'rtasida umum etnolingvistik aloqalar mavjudligi aniqlandi. Birinchidan, o'zbek tilining o'g'uz-qipchoq lahjasi va hozirgi turkiy tillarda ham singarmonizm qonuniyatining tanglay qonuniyati saqlangan, ikkinchidan, unlilar tizimi ham bir-biriga yaqin, mos keladi, uchinchidan, nutq tovushlari turli xil kombinator-pozitsion o'zgarishlarga duch keladi, to'rtinchidan, o'zbek adabiy tilidagi shevalarda so'z oxiri jarangli yoki jarangsiz undosh bilan bitganda, undoshning xarakteriga

ko'ra kelishik, egalik, affikslar progressiv assimilyasiyaga duch keladi: **-ti/tyñ;** **-di/dyñ;** **--ti/ty;** **di/dy;** **-kə/qa;** **-gə/g'a tən//tan;** **-dən/dan** kabi. Turkiy tillarning qadimgi yodgorliklari tilida ham keng qo'llangan; beshinchidan, nutq jarayonida ikki narsa-buyum o'rtasidagi qiyos mantiqan anglashilib

turganda **-raq, rak, -rek;** **-lav, -ləv, -lev, -sav, -chyl\chil** affikslari qatnashadi, oltinchidan, shaxs-son, zamon ko'rsatkichlari anglatgan ma'nolari, vazifasi ham o'zaro bir-biriga yaqin. Bunday yaqinliklar, o'xshashliklar turkiy xalqlarning qadimiy aloqa munosabatlari natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джурраев А.Б. Теоритические основы ареального исследования узбекоязычного массива. Ташкент: Фан, 1991.
2. Потебня А.А. Вопросы диалектологии тюркских языков (Заключительное слово на Координальном совещании по вопросам диалектологии тюркских языков). Баку, 1989.
3. Ibragimov Y.M. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarining tasnifi \ Filologik tadqiqotlar. – Nukus, 1978.
4. Ибрагимов Ю.М. Лексика узбекских говоров Южного Приаралья. Нукус: Билим, 1996.
5. Ibragimova Z.Y. Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari qishloq xo'jaligi leksikasi. – Toshkent, 2013.

Shuxrat ABDULLAYEV,

*Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA “YURAK” ASOSLI FRAZEMALARNING USLUBIY-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillarida “yurak” asosli frazemalarning uslubiy-semantik xususiyatlari haqida mulohazalar bildirilgan. Mavzuga doir nazariy ma'lumotlar o'rganilayotgan tillardagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili orqali asoslangan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazema, somatik ibora, barqaror birikma.

Annotation. This article discusses the stylistic and semantic features of phrases based on “heart” in the Uzbek and Karakalpak languages. The theoretical information on the topic is based on a comparative analysis of phraseological units in the studied languages.

Keywords: phraseology, phraseme, somatic phrase, fixed expression.

Аннотация. В данной статье рассматриваются стилистико-семантические особенности фразем на основе “сердце” в узбекском и каракалпакском языках. Теоретическая информация по теме основана на сравнительном анализе фразеологических единиц в изучаемых языках.

Ключевые слова: фразеология, фразема, соматическое выражение, устойчивое сочетание.

Ma'lumki, frazemalarning shakllanishi uchun asos bo'ladigan komponentlar turli predmet, shaxs, narsa-buyum, voqea-hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Ana shu asos komponent frazemalarning tarkibidagi boshqa komponentlar bilan birikib yaxlit holda umumiy ko'chma ma'no anglatishga xizmat qiladi.

Frazemalar, avvalo, xalq tilida turli voqea-hodisalar, jamiyat, tabiat, koinot, hayvon va qushlar bilan bog'liq holda paydo bo'ladi. Frazeologizmlarning shakllanishida inson va uning faoliyati, turmush tarzi, yashash joyi, psixikasi, shart-sharoitlari, fikr-mulohazalari, kayfiyati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi birliklar ham asosiy rol o'ynaydi. Jumladan, inson tana a'zolari nomlari orqali shakllangan frazemalar tilda juda ko'p uchraydi. Bunday frazemalarni ilmiy adabiyotlarda somatik frazeologizmlar deb yuritiladi.

Mana shu kabi somatik iboralar o'zbek xalqi tilida juda faol qo'llanib, ular insonning turli xatti-harakatlari, psixologik jarayoni, turmush tarzi, yashash sharoiti va jamiyatdagi qadr-qimmat, o'ziga xosligi, qobiliyati kabi xislatlarini yaqqol ifoda eta oluvchi til birliklaridan biri hisoblanadi.

Somatik frazemalarni boshqa tillarda ham faol qo'llanishini o'sha xalq vakillari nutqi, badiiy adabiyoti va boshqa manbalar orqali kuzatishimiz mumkin. Boshqa turkiy xalqlar tillaridagi kabi bunday frazemalar qoraqalpoq tilida ham ko'p uchraydi. Ma'lumki, qoraqalpoq xalqi o'zbek xalqi bilan ko'p jihatdan umumiy xarakterga ega. Ularning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, dini, madaniyati va ma'naviyati bilan bir qatorda tilida ham ancha yaqinlik va umumiyliklar kuzatiladi. Qoraqalpoq tilida ham somatik iboralar mavjud bo'lib, ular insonning ijtimoiy-siyosiy hayoti, yashash tarzi, madaniyati va boshqa xususiyatlarini tilda jozibali, ta'sirchan, yorqin ifodalashda

muhim hisoblanadi. O'zbek tilida ham, qoraqalpoq tilida ham ushbu guruhni tashkil etuvchi deyarli barcha frazemalar insonning sifatini ifodalaydi: *qo'li qisqa, qo'li baland, ko'z ochib yumguncha, ko'zi yetmaydi, og'zi qulog'ida, yuragi yorilmoq, qo'ltig'iga suv purkamoq, barmog'ini tishlamoq* kabi. Bu tillarda “yurak” leksemasi bilan bog'liq shakllangan frazemalarning uslubiy-semantik xususiyatlarini aniqlash muhim masalalardan biridir.

O'zbek tilida “yurak” komponentli frazemalarga *yuragi achidi, yuragiga qil sig'maydi, yuragiga g'ulg'ula solmoq, yuragi keng, yuragi orqasiga tortib ketdi* kabi, qoraqalpoq tilida esa *juregi ayniw, juregi alip ushiw, juregi bosasiw, juregi muz boliw, juregi shawkildew, juregi arqasina tartti, juregi awizina tigildi (keldi), juregi barmadi (betlemedi), juregi bos, juregi bosasti, juregi gilkiledi, juregi dawamadi* va boshqalarni keltirish mumkin. Bu tillardagi *yurak* bilan bog'liq ayrim frazemalarning nutqda qo'llanishini kuzataylik. O'zbek tilida *yuragi shuv etib ketdi* frazemasining o'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida “bir lahza ich-ichidan qo'rqish aralash hayajonlanmoq” [1, 320] ma'nosida izohlangan. Uning yana o'zbek tilida *yuragi shig' etib ketdi* shaklidagi varianti ham mavjud bo'lib, ayni bir ma'noda ishlatiladi. Masalan: “*Ne ko'zi bilan ko'rsin, to'riq otning ustida hech kim yo'q... Yuragi shuv etib ketdi*”. (G'.G'ulom). “*Qizim endi tashqariga chiqma, uyat bo'ladi, – dedi. Bunday gapni birinchi marta eshitganim uchun yuragim shig' etib ketdi*” (Oydin). Ko'rinadiki, *yuragi shuv etib ketdi* iborasining ma'nosi misolda yanada aniqroq tasvirlangan. Mazkur iboraning varianti bo'lgan *yuragi shig' etib ketdi* frazemasini ham aynan bir xil ma'no kasb etmoqda. Shuni ta'kidlash mumkinki, yozuvchilar variantdosh frazemalarni qo'llagan bo'lsalar-da, har ikkala

misolda ham “kishining qo'rquv aralash hayajonlanishi”ni, ya'ni ular anglatgan ma'noni yorqin aks ettirilgan.

Xuddi shu shakldagi frazema qoraqalpoq tilida *juregi suw ete qaliw* tarzida qo'llaniladi. Bu frazema qoraqalpoq tilining qisqacha frazeologik lug'ati hamda frazeologizmlar lug'atida “qattiq qo'rqmoq, xavotirlanmoq, hovliqdi” [2;3: 78] deb izohlangan. Misollarga murojaat etamiz: “*Buni kórip íp-íssi júregim suw ete qaldí* (O.Xojaniyazov). ... *adamlarğa kózi túsip, júregi suw ete qalíp kózimniń aldí tındí* (A.Begimov). Misollardan ko'rinadiki, qoraqalpoq tilidagi mazkur frazema ma'nosida ham “qo'rquv aralash hayajonlanish” ma'nosi mavjud. Lekin frazemaning lug'atda *qattiq qo'rqmoq* tarzida ma'nosi kuchaytirilib berilgan.

Shuningdek, *yuragini yormoq* – *yuragi yorildi* o'zbek xalqi nutqida juda ko'p ishlatiladigan frazemalardan biri hisoblanadi. Mazkur frazema 1. Qattiq cho'chitib qo'rqitmoq; 2. Ichidagi istak yoki dardini aytmoq ma'nolarini ifodalaydi [1: 317]. “Qattiq cho'chitib qo'rqitmoq” ma'nosi quyidagi misolda kuzatiladi: “*Hay, bu nimasi, Tursunoy? Bolaning yuragini yorasiz-a, aylanay*” (M.Ismoilov). “*Bunda gap ko'p. Qiz tushmagur yuragini kimga yorishni bilmay kirib qolgan ekan*” (A.Muxtor.) gapida *yuragini yorish* frazemasini tasvirlanayotgan voqea mazmun-mohiyatidan kuzatiladiki, “qo'rqish” ma'nosida emas, balki “kimgadiri o'z dardini, istagini bildirmoqqa harakat qilmoq” ekanligi seziladi. Bu frazemani har ikki adib uslubiy maqsadi, voqea-hodisa, qahramon nutqini to'g'ri va aniq tasvirlash uchun o'z o'rnida qo'llay bilgan. Demak, o'zbek tilida *yurak* komponentli *yuragini yormoq* yoki *yuragi yorildi* frazemasini bir xil shakllangan bo'lsa-da, ma'no mundariyasi bilan farqlanadi.

Qoraqalpoq tilida ham aynan *yurak* asosiga qurilgan *juregi jariliw* frazemasini qo'llanilib, u “qattiq quvonch yoki qo'rquvdan yuragi ishlaymay qolib o'lmoq” [3, 78] hamda uning varianti *juregi jarildi* “1) qattiq qo'rqdi; 2) juda quvondi, shod bo'ldi” [2: 76] ma'nosida izohlanadi. Uning antonimi sifatida *juregi jarilmaw* frazemasini bor. Frazemaning izohidan ko'rish mumkinki, qoraqalpoqcha ibora mazmuni o'zbekcha variantidan farqlanib, unda “qattiq quvonmoq” ma'nosi, shu bilan birga “qattiq qo'rqish natijasida yurakning faoliyatini to'xtatishi, ya'ni, o'lmoq” hamda “qattiq qo'rqmoq” ma'nolari mavjudligi kuzatiladi. Bu o'ziga xoslikni ikkala xalqning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy turmush tarzi bilan bog'lash mumkin. Ushbu frazemani o'z o'rnida to'g'ri qo'llash yozuvchi yoki muallifdan yuksak mahorat, uslubiy savodxonlikni talab qiladi. Aks holda aytilmoqchi bo'lgan fikr yoki tasvirlanayotgan voqea-hodisa o'zgacha tus olishi hamda bu tinglovchi yoki o'quvchida tushunmovchilikni yuzaga keltirishi, tabiiy. Xuddi shuningdek, o'zbekcha matnni qoraqalpoq tiliga yoki aksincha hollarda bu frazemalarni to'g'ri tarjima qilish tarjimonga katta mas'uliyat yuklaydi.

Quyidagi frazemaning uslubiy-semantik xususiyatlarini ko'rib o'taylik. O'zbek tilida *yurak* so'zi bilan bog'liq shakllangan “nimadandir xavfsirab, biror ishga jazm qila olmaslik” [1: 314] ma'nosida *yuragi betlamadi* frazemasini qo'llanadi. Misol: 1. “*Ummat polvon indamaganiga, u ham so'ramadi. To'g'risi, so'rashga yuragi betlamadi*” (S.Anorboyev). 2. “*Qishloq yigitlaridan hech qaysisi yuragi betlab to'ng'izga qarshi borolmabdi*” (Sh.Toshmatov). Keltirilgan misollarda bir frazemaning ikki varianti uslubiy qo'llangan bo'lib, ikkalasida ham bir xil ma'no anglatib kelgan. Birinchi misolda asosiy shakli ishlatilgan bo'lsa, ikkinchi misolda uning *yurak betlab* varianti ishlatilgan. *Yuragi betlamadi* frazemasini bo'lishsiz shaklda, *yurak betlab* esa bo'lishli shaklda qo'llanadi. Keltirilgan birinchi misolda frazema kesim vazifasida sintaktik munosabatga kirishgan. Ikkinchi misolda esa frazema bo'lishli shaklda kelgan bo'lsa-da, gapning kesimi bo'lishsiz fe'l bilan ifodalangan. Shu bois ham *yurak betlab* frazemasini *yuragi betlamadi* iborasining varianti sifatida qo'llash mumkin.

Qoraqalpoq tilida “jüreksinbew, aytayin degenin ayta almaw, qoriqinquirap otirw” [2: 78] ma'nosida *juregi dawamaw* iborasi mavjud. Frazema tarkibiga e'tibor berilsa, o'zbekcha frazema tarkibidagi *betlamadi* so'zi o'rnida qoraqalpoqcha ibora tarkibida *dawamaw* leksemasi almashinib kelgan. Bu frazemalarning shakllanish asoslari bilan bog'liq hodisadir. Bu frazemalar ma'nosining izohida ham ayrim farqlar kuzatiladi. Masalan: *Bul soraw jáne sharshattí. «Awa» dewge júregi dawamadí* (O'.Ayjanov). *Sonnan xabarin sorayin desem de júregim dawamay otir* (Sh.Seytov). Ikki misolda ham frazemaning mazmun mundarijasida “xavfsirash, hadiksirash natijasida biron narsani aytishga botinolmaslik” semalari mavjud ekanligi seziladi. Shuningdek, qoraqalpoq tilida “tawekel etpedi” [2: 76] ma'nosi ham kuzatiladi. Buni har ikki adib to'g'ri anglagan holda frazemani uslubiy maqsadda ishlatgan. Demak, *yurak* leksemasi bilan bog'liq o'zbekcha *yuragi betlamadi* va qoraqalpoqcha *juregi dawamaw* frazemalari tarkibidagi ikkinchi komponenti boshqa so'zlardan tashkil topgan bo'lsa-da, bu frazemalar ma'nosi orasida yaqinlik mavjud. Bu frazemalarni tarjima jarayonida to'g'ri qo'llash matn mazmunining jozibali, to'g'ri tasvirlanishini ta'minlaydi.

Umuman, kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, “*yurak*” asosiga qurilgan somatik frazemalar o'zbek va qoraqalpoq tillarida aynan bir shakl va mazmunda hamda ba'zi komponentlarining boshqa birliklar bilan shakllangan ekvivalentlari ishlatiladi. Bu umumiylik va tafovutlar ushbu tillarning o'ziga xos lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Tilshunoslikda ularni lisoniy tahlil etish, qiyosiy-tipologik belgilarini aniqlash, shakllanish jarayonlarini o'rganish umumiy tilshunoslik hamda turkologiyada muhim masalalar yechimini topish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
2. Пахратдинов Қ., Бекниязов Қ. Қарақалпақ тилинің фразеологизмлер сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2018.
3. Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилинің қысқаша фразеологиялық сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1985.

Mahliyo PARDAYEVA,

Qarshi davlat universiteti lingvistika kafedrası o'qituvchisi

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SO'Z BIRIKMALARINING QIYOSIY TIPOLOGIYASI: STRUKTURAVIY, KOGNITIV VA KONSTRUKSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TAHLIL

Annotatsiya. Qiyosiy sintaksis til tizimlaridagi umumiylik va farqlarni aniqlash orqali grammatik kategoriyalarning tiplanishini izohlab beruvchi muhim yo'nalish hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda o'zbek va ingliz tillarida so'z birikmalarining shakllanish mexanizmlari qiyosiy tipologik, konstruksion grammatik va kognitiv yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Agglyutinativ (o'zbek) va analitik (ingliz) tuzilmalarning strukturaviy farqlari, atributiv tartibning shakllanishi, sintagmatik segmentatsiya, predlog va affikslarning grammatik funksiyalari hamda zanjirsimon birikmalarining ikki tilga xos voqelanishi o'rganildi.

Kalit so'zlar: qiyosiy sintaksis, konstruksion grammatik, kognitiv model, atributiv tartib, sintagma, agglyutinativ-analitik tizim.

Annotation. Comparative syntax is an important field that explains the typification of grammatical categories by identifying commonalities and differences in language systems. In this study, the mechanisms of word formation in Uzbek and English were analyzed based on comparative-typological, constructive-grammatical, and cognitive approaches. The structural differences of agglutinative (Uzbek) and analytic (English) structures, the formation of attributive order, syntagmatic segmentation, the grammatical functions of prepositions and affixes, and the realization of chain combinations characteristic of both languages were studied.

Keywords: comparative syntax, constructive grammar, cognitive model, attributive order, syntagma, agglutinative-analytical system.

Аннотация. Сравнительный синтаксис является важным направлением, объясняющим типизацию грамматических категорий путем выявления общностей и различий в языковых системах. В данном исследовании механизмы образования словосочетаний в узбекском и английском языках были проанализированы на основе сравнительно-типологического, конструктивно-грамматического и когнитивного подходов. Изучены структурные различия агглютинативных (узбекских) и аналитических (английских) структур, формирование атрибутивного порядка, синтагматическая сегментация, грамматические функции предлогов и аффиксов, а также реализация цепочечных сочетаний, свойственных двум языкам.

Ключевые слова: сравнительный синтаксис, конструктивная грамматика, когнитивная модель, атрибутивный порядок, синтагма, агглютинативно-аналитическая система.

Qiyosiy tipologiya turli tillarning strukturaviy, morfologik va sintaktik o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashga qaratilgan yirik ilmiy yo'nalish bo'lib, uning doirasida so'z birikmalari o'rganilishi alohida ahamiyatga ega. O'zbek va ingliz tillari grammatik tizimining tabiatdagan farqlari — biri Agglyutinativ, ikkinchisi analitik — so'z birikmalarining shakllanish mexanizmlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ikki tilni qiyosiy tahlil qilish, birikmalarining strukturaviy modeli, atributiv tartibi, bog'lovchi vositalar va sintagmatik bo'linishlarining o'zaro taqqoslanishi nazariy va amaliy qiyamga ega.

Tilshunoslik tarixida Greenberg, Comrie, Croft kabi tipolog olimlarning ishlari so'z tartibi universallari va kategoriyalarning strukturaviy mavqeini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Zamonaviy lingvistikaning konstruksion grammatik (Fillmore, Goldberg), kognitiv lingvistika (Lakoff, Langacker) va usage-based (Bybee) yondashuvlari ikki tilning birikma hosil qilishdagi prototipik modellari va kontseptual jarayonlarini tushuntirishda imkoniyat yaratadi. Bunga parallel ravishda Hallidayning funksional grammatikasi so'z birikmalarining matn va nutq strukturadagi semantik-doimiy rollarini ko'rsatadi.

Qiyosiy tipologiya turli tillarning umumiy va farqli sintaktik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ayniqsa so'z birikmalarining strukturaviy va semantik tahlilida muhim o'rin tutadi. O'zbek tilining Agglyutinativ tabiati uni ingliz tilidan tubdan farqlaydi [1: 55]. Ingliz tili esa analitik qurilishga asoslanadi, bu esa so'z tartibining qat'iyligini taqozo etadi [5: 112].

So'z tartibi universallari bo'yicha Greenbergning ishlari ikki tilning atributiv strukturalarini izohlashda asos bo'lib xizmat qiladi [6: 44]. Kognitiv lingvistika vakillari — Lakoff, Langacker — birikmalar ortidagi kontseptual tuzilmani ochib beradi [7: 21]. Konstruksion grammatikada esa birikmalar tayyor strukturaviy qolip sifatida talqin qilinadi (Fillmore, Goldberg) [8: 15].

Qiyosiy-tipologik tahlil, konstruksion grammatik, kognitiv-semantik tahlil, korpus tahlili va fonetik-sintagmatik kuzatuvlar asosiy metod sifatida tanlandi. Har ikkala til matnlaridan namunalar olinib, atributiv tartib, predlog/affiks tizimi va zanjirsimon konstruksiyalar qiyoslandi.

1. Qiyosiy-tipologik tahlil. Greenbergning universallar nazariyasi, Comrie va Croftning tipologik tasnifi asosida ikki tilning strukturaviy tizimi — so'z tartibi, atributiv qurilmalar va bog'lanish mexanizmlari qiyoslandi. So'z birikmalarining strukturaviy, morfologik va semantik xususiyatlari Greenberg va Comrie tasniflari asosida qiyoslandi [6: 12].

2. Konstruksion grammatik yondashuv. Fillmore va Goldberg nazariyasiga tayangan holda, ikki tilda uchraydigan atributiv, zanjirsimon, predlogli va affikslı konstruksiyalar strukturaviy shablon sifatida o'rganildi. Ingliz va o'zbek tillaridagi atributiv, zanjirsimon hamda predlogli konstruksiyalar Goldbergning konstruksion yondashuvi bo'yicha tahlil qilindi [9: 30].

3. Kognitiv-semantik tahlil. Langackerning kontseptual struktura modeli asosida birikmalarining prototipik semantik tuzilmalari, kontseptual xaritalanish va atributiv kengayish holatlari qayta tahlil qilindi. Langacker modeliga o'ra kontseptual xaritalanish, prototipik tuzilmalar va atributlarning kognitiv tartibi tekshirildi [7: 58].

4. Korpus-lingvistik kuzatuv. O'zbek va ingliz matnlaridan tuzilgan parallel va monolingval korpuslar orqali chastota, model xilma-xilligi va sintaktik variantlar kuzatildi. O'zbek va ingliz matnlari asosida chastota, sintaktik variantlar va atributiv ketma-ketlik kuzatildi.

5. Sintagmatik-fonetik tahlil. Nutq materiali asosida sintagmalarning bo'linishi, urg'u taqsimoti va birikma chegaralarining fonetik belgilar orqali ajralishi o'rganildi. Nutqdagi urg'u, pauza va sintagma chegaralari fonetik kuzatuv asosida belgilandi [6: 97].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, Agglyutinativ va analitik tillar o'rtasida grammatik vositalarning tabiati turlicha, ammo sintaktik funksiyalar o'xshash. Kognitiv yondashuv ikki tilning

kontseptual xaritalanishida prototipik modellarni aniqlashga yordam berdi. Konstruksiya yondashuv esa ikki tilning birikma shablonlarini umumlashtirilgan strukturaga soladi.

1. Aggylutinatív va analitik tizimlarning birikma hosil qilishdagi farqi. O'zbek tilida so'z birikmalarini shakllantirishda kelishik qo'shimchalari, egalik affixlari va bitishuv asosiy vosita sanaladi. Ingliz tilida esa predloglar, yordamchi birliklar (determinatorlar) va qat'iy so'z tartibi markaziy rol o'ynaydi. Bu farq strukturaviy yondashuvlar doirasida ikki xil grammatik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

2. Atributiv tartibning tipologik farqlari. Ingliz tilida sifatlar qat'iy tartibga bo'ysunadi (opinion–size–age–color–origin–material–purpose). O'zbek tilida esa belgilar tartibi semantik-pragmatik ehtiyoj bilan belgilanib, ko'proq erkinlikka ega, biroq kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan prototipik markazlashuv mavjud.

3. Zanjirsimon va ko'p qavatli konstruktsiyalarning o'ziga xosligi. O'zbek tilida murakkab birikmalar doirasida hokim va tobe elementlarning ko'p qatlamli bog'lanishi kuzatiladi. "Maktabda o'qiyotgan bola" misolida "o'qiyotgan" elementi ikki sintaktik funktsiyani bajaradi. Ingliz tilida bu kabi konstruktsiyalar ko'pincha qo'shimcha gaplar orqali ifodalanadi: *the boy who is studying at school*.

4. Sintagma va so'z birikmasining farqlanishi. Tadqiqot natijalari nutqiy birlik sifatida sintagma fonetik segmentatsiya asosida shakllanib, pauza, urg'u va ritmik bo'linishlarga ega ekanini ko'rsatdi. So'z birikmasi esa lisoniy birlik bo'lib, fonetik omillardan mustaqil tarzda grammatik bog'lanish asosida voqelanadi. Ushbu farq ikki tilda turlicha fonetik-sintaktik realizatsiyani yuzaga chiqaradi.

5. Tarjima jarayonida kuzatilgan strukturaviy o'zgarishlar. O'zbek → ingliz tarjimasida grammatik ma'no ko'pincha predlog yoki yordamchi birlik orqali qayta quriladi, ingliz → o'zbek tarjimasida esa morfologik affixlarga tayanadi.

Bu jarayon konstruktsiyalar o'rtasidagi ekvivalentlikning moslashuvchan bo'lishi kerakligini ko'rsatdi.

Qiyosiy tahlil ikki tilning so'z birikmalari strukturasi tub farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu farqlar tilning umumiy grammatik tipologiyasi bilan bevosita bog'liq. Aggylutinatív tuzilma affixal vositalarni markazga qo'ysa, analitik tizim sintaktik vositalarni asosiy mexanizm sifatida qo'llaydi. Konstruksiya grammatik yondashuv bu ikki tilning birikmalarini umumlashtirilgan namunaviy strukturalar sifatida ko'rish imkonini berdi. Kognitiv yondashuv ikki tilning atributiv tuzilmalari ortida turuvchi kontseptual modellarni aniqladi. Ingliz tilidagi qat'iy atributiv tartib ongndagi kategorial tasnifning kuchli tizimga ega ekanini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa atributlar semantik-pragmatik zaruratga ko'ra joylashadi: bu esa diskursga moslashuvchanligini bildiradi. Sintagmatik tahlil ikki til nutqining fonetik qurilishidagi farqlarni aniqladi: ingliz tilidagi intonatsion birliklar tartibi ancha barqaror, o'zbek tilida esa sintagmaning segmentatsiyasi ko'proq pragmatik urg'uga bog'liq. Tadqiqot tarjima amaliyoti uchun ham muhim natijalarni ko'rsatdi. Xususan, ikki tilning sintaktik modelari o'rtasidagi tafovutlar tarjimada strukturaviy o'zgarishlarni talab qiladi, bu esa konstruksiya ekvivalentlarni tanlashda ekstra kunikmalarni zarur qiladi.

O'zbek va ingliz tillarida so'z birikmalarining shakllanishi tipologik jihatdan turlicha bo'lib, bu farq morfologik vositalarning ishlatilishi, sintaktik tartib, atributiv konstruktsiyalar va nutqdagi segmentatsiya orqali namoyon bo'ladi. Aggylutinatív va analitik tizimlarning qarama-qarshi tabiati grammatik kategoriyalarni ifodalashda turli strategiyalarni yuzaga chiqargan. Konstruksiya va kognitiv yondashuvlar ushbu farqlarni chuqur izohlashga imkon berib, ikki tilning sintaktik xususiyatlari haqida keng qamrovli ilmiy tasavvur yaratadi. Tadqiqot natijalari til o'qitish, tarjima amaliyoti, korpus lingvistikasida qo'llanishi mumkin bo'lgan nazariy va amaliy xulosalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulomov A. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent, 1985.
2. Usmonov S. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1996.
3. Nurmonov A. O'zbek tili sintaksisi masalalari. – Toshkent, 2001.
4. Yo'ldoshev M. O'zbek tilida so'z birikmasi nazariyasi. – Toshkent, 1999.
5. Halliday M.A.K. Functional Grammar. – London, 1994.
6. Langacker R. Conceptual Grammar. – Oxford, 1991.
7. Fillmore C. Construction Grammar – Theory, 1998.
8. Goldberg, A. (1995). Constructions: A Construction Grammar Approach.

Maxfuza ARTIKOVA,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

ISPAN ELEKTRON GAZETA SARLAVHALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Axborot oqimining kundan kunga kuchayib borishi ommaviy axborot vositalari, jumladan, saytlardagi materiallarga ommaning e'tiborini jalb qilishning murakkablashuviga olib kelmoqda. O'quvchi e'tiborini tortish uchun esa aynan maqola sarlavhasining roli mustahkamlanib borishi tabiiy. Ushbu maqolada Ispaniyaning rasmiy gazetalarida berib boriladigan sarlavhaning lingvopragmatik jihat tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: matbuot, gazeta, sarlavha, adresat, lingvopragmatika, yashirin va oshkora ma'no.

Annotation. The intensification of information flow with each passing day leads to a complication in attracting public attention to mass media materials, including on websites. Naturally, the role of the article's title is strengthened to attract the reader's attention. This article analyzes the linguopragmatic aspect of headlines published in official Spanish newspapers.

Key words: press, newspaper, headline, addressee, linguopragmatics, implicitness and explicitness.

Аннотация. Усиление информационного потока с каждым днем приводит к усложнению привлечения внимания общественности к материалам средств массовой информации, в том числе на сайтах. Естественно, что роль заголовка статьи укрепляется, чтобы

привлечь внимание читателя. В данной статье анализируется лингвопрагматический аспект заголовков, публикуемых в официальных газетах Испании.

Ключевые слова: пресса, газета, заголовок, адресат, лингвопрагматика, имплицитность и эксплицитность.

Matbuot o'zgarishining zamonaviy tendensiyalaridan biri gazetalarning elektron shaklga o'tayotgani hamda axborot miqdorining cheksizlik kasb etayotganidir. Jumladan, Ispaniyaning eng yirik rasmiy gazetalarini hisoblangan "El País", "El Mundo", "ABC" gazetalarini bir necha yillardan buyon elektron nashlarni jadal sur'atlar bilan rivojlantirishmoqda. Sun'iy idrok hisob-kitoblariga ko'ra, bir sutka mobaynida "El País" gazetasi o'rtacha 150, "El mundo" esa 140, "ABC" gazetasi 100 ta materialni chop etadi. Tabiiyki, mazkur jarayonda aksariyat gazeta materiallari o'quvchilar tomonidan e'tiborsiz qoldiriladi. Shu sababdan ham so'nggi yillarda ispan jurnalistlari tomonidan asosiy axborotni sarlavhada berish, ta'sirchan, ifodaviy usullar orqali o'z materialiga gazetonlarni jalb qilishga intilish kuchayib, shu bilan birga, gazeta sarlavhalari tilshunoslarga tomonidan dolzarb ta'dqiqot obyektiqa aylantirilmogda.

Xususan, ispaniyalik olim Asunción Escribano Hernández sarlavhalarni morfo-sintaktik, pragmatik, g'oyaviy hamda mazmunan tadqiq qilib, sarlavhaning bugungi axborot asrida o'zgarishlarga yuz tutayotganini ta'kidlaydi: "Onlayn gazetalarda axborotlar haddan tashqari ko'p yuklanadi. Bu esa o'quvchini toliqtiradi, shu sababdan ham gazeta sarlavhalari kun sayin o'quvchilarning e'tiborini ko'proq jalb qilish maqsadida o'zgarimogda" [1: 38]. Demak, sarlavha tanlashda uning lingvopragmatik xususiyatiga e'tibor qaratish dolzarb hisoblanadi. Zero, "gazeta sarlavhasini tahlil qilishda pragmatik tushunchalarni qo'llashning asosligi pragmatikaning avvalo inson shaxsiga yo'naltirilganligidadir va u tildan tashqari voqelik bilan chambarchas bog'liqdir" [2:3]. Shuningdek, "pragmatiklar tomonidan o'rganilgan ko'plab masalalar bevosita gazeta sarlavhasi bilan bog'liq" [5: 389]. Bundan kelib chiqadiki, har bir sarlavha ma'lum bir perlotsion (maqsadga erishish) natijaga erishishga qaratilgan. Har qanday gazeta sarlavhasining pragmatik maqsadi o'quvchini maqolani o'qishga undashdir.

Har qanday ijodiy asar uchun sarlavhaning o'rni muhim. Sarlavha o'zi mansub matnning g'oyaviy-badiiy mazmunini aks ettirishga, matn mazmuni yuzasidan imkon qadar to'liq ma'lumot yetkazishga yo'naltirilgan bo'ladi. S.X.Shomaqsudova sarlavhani muallif va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning boshlanishi, deya ta'riflab, u qanchalik jozibali bo'lsa, aloqa bog'lash ham shunchalik tez va samarali bo'lishini aytadi [4: 94]. L.I.Toshmuhammedovanning fikricha, sarlavha – doim biror hodisa yoki g'oyaning mohiyatini ochib berish vositasi, demak, bu vosita ustida ishlash jurnalist, yozuvchi, muharrirdan alohida mas'uliyat talab qiladi [3: 20]. Sarlavhani o'rganishga pragmatik yondashuvda biz tilning ta'sir qiluvchi xususiyatlarini ta'kidlab, pragmatikaning asosiy qoidalariga tayanamiz. Shu nuqtayi nazardan, sarlavha kommunikativ akt sifatida ikkita asosiy funktsiyani bajaradi:

1) axboriy (axborot mazmun va mohiyatini uzatish);

2) pragmatik (ruhiyatning hissiy-irodaviy sohasiga va qabul qiluvchining xatti-harakatlariga ta'sir qilish). Bu funktsiya axborot makonida haddan ziyod ko'p bo'lgan ommaviy axborot vositalari matni ichida matnning o'qilishiga erishishga yordam beradi. Gazeta sarlavhalarining ijtimoiy yo'nalishi ularning auditoriyaning motivatsiyasi va qiziqishlariga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi, bu asosan materialning janri bilan belgilanadi. Masalan, yangiliklar janri keng auditoriya uchun mo'ljallangan hisoblanadi. Unda sarlavhalarining ijtimoiy ahamiyati keng bo'lib, o'quvchini nafaqat dolzarb yangiliklar, balki vaqt o'tishi bilan dolzarb bo'lib qolayotgan doimiy muammolar bilan ham qiziqitirishiga

bog'liq. Masalan, yuqorida sanab o'tilgan ispan gazetalarning bir kunda chop etilgan bosh maqolalari asosan xalqaro ahamiyatga ega masalalarga bag'ishlanib, turlicha ko'rinish kasb etadi va bu bilan tahririyatning asosiy nuqtayi nazarini belgilab beradi: *Más de 80 muertos en las últimas horas en Gaza por ataques israelíes* ("El país", 3.07.2025); *Qué está buscando Macron en Putin y qué puede encontrarse* ("El mundo", 3.07.2025); *Trump y Netanyahu amenazan a Hamás para que acepte un alto el fuego temporal en Gaza* ("ABC", 3.07.2025).

Ispan gazetalarini axboriy janrdagi materiallari sarlavhasi axborot uzatish vazifasini bajaradi, ta'sir etuvchi vazifasi esa ikkinchi darajali, yuzaki xarakterga ega bo'lib, matnning hujjatli xususiyatini to'ldiradi, xolos. Bu sarlavhalarda qo'llanilgan pragmatik vositalarda namoyon bo'ladi. Ko'pincha ma'lumot beruvchi yoki tavsiflovchi bo'lgan axborot matnlarining sarlavhalari uchun asosan neytral lug'atdan foydalanish xarakterlidir. Masalan ("El mundo", 3.07.2025): *Mueren dos hombres en Plasencia (Cáceres) y Córdoba por el calor*; *El socio de Cerdán consiguió con fraude la obra de un colegio junto al empresario del PNV*; *La transformación del Feijóo moderado y centrista tras tres años en Madrid: todos le llaman presidente*.

Tahliliy matnlarda esa sarlavhalar ma'lum bir madaniy va mafkuraviy kontekst bilan shartlangan mafkuraviy rang beradi. Xususan ("El país", 3.07.2025): *El abogado de Cerdán pide en el Supremo su puesta en libertad: "Estamos ante una causa general"*; *Tellado, tras hablar con los socios de Sánchez: "No están dispuestos a dejarlo, lo pagarán en las urnas"*; *Otegi admite que Cerdán ha sido "el interlocutor más importante" entre el PSOE y EH Bildu*; *La Fiscalía se opone a que el Supremo investigue a Félix Bolaños por el "caso Begoña Gómez"*.

Ispan gazetalarini sarlavhalari orasida eng hissiy-ta'sirchan va shaklan qisqasi bu – fikr janri sarlavhalaridir. Fikr janri guruhiga oid sarlavhalarda lisoniy baho, obrazlar, qiyoslash, chaqiriqlar, ritorik so'roq va boshqalar yordamida ifodaviy-ta'sirchanlikka erishiladi. Fikr janridagi matnlar aniq ifodalangan individual mualliflik uslubi bilan ajralib turadi. Jumladan ("El país", 3.07.2025): *Cara y cruz de la cumbre de Sevilla*; *El reto de la izquierda en Chile*; *Ni un paso atrás, compañeros*; *¿Socialdemócratas, despertad!*; *¿El ejército de Trump*; Por quién cantan las sirenas.

Ispan gazetalarini sarlavhalari ko'pincha o'quvchilarni jalb qilish uchun ifodaviy til birliklari va yorqin so'zlardan foydalanishi bilan ajralib turadi ("ABC", 3.06.2025): *La ley y las pinturas de Sijena*; *¿Recuerdas a Chrissy Metz? Respire hondo antes de verla ahora*; *Ni ética ni estética... ni vergüenza*.

Bunday sarlavhalar nominativ (obyektni bildiruvchi) yoki predikativ (bayonot qilish) bo'lishi mumkin, ammo predikativ sarlavhalar bosma va onlayn platformalarda diqqatni jalb qilishda samaraliroq hisoblanadi.

Yuqoridagi misollardan turli mavzulardagi gazeta matni sarlavhalarini faqat bitta janr bilan bir-biriga bog'lab bo'lmasligi, jurnalistikaning ayrim janrlarida ma'lum turdagi sarlavhalarining ustunligi ko'rinadi. Ya'ni sarlavha material muallifi ma'lum bir kontekst yoki o'zi qo'ygan kommunikativ maqsadga erishish uchun eng muhim deb hisoblagan axborot berish va baholash xususiyatini o'zida mujassam etadi.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, gazeta sarlavhasi taqdimotning ixchamligi bilan ajralib turadi. Tahririyat sarlavhalarida baholash funktsiyasi ustunlik qiladi, bu boshqa funktsiyalar bilan birlashtirilishi mumkin. Gazeta

sarlavhasini o'rganishga pragmatik yondashuv esa axborot qabul qiluvchiga ta'sir ko'rsatishning lingvistik hamda ekstralingvistik vositalarini muallifning kommunikativ niyatini amalga oshirishdagi samaradorligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Ispan gazetalaridagi sarlavhalar unda qo'llanilgan so'z, til birliklari hamda ifodalarga ko'ra quyidagi turlarga ajraladi: izohlovchi sarlavhalar, qiyoslovchi sarlavhalar, sabab ko'rsatuvchi sarlavhalar, tanqidiy sarlavhalar. Ispan gazeta matnlari sarlavhalari matnga mazmunan xos ravishda axborot beruvchi, savolni ilgari suruvchi hamda hissiy-ta'sirchan sarlavhalarga ajraladi.

Tahliliy sarlavhalar nafaqat axborot berish, balki voqea-hodisani tavsiflash, tushuntirish xususiyatiga ham egadir. Bu turdagi sarlavhalarning asosiy maqsadi o'quvchilarda "nima uchun?" va "qanday?" kabi savollarni qoldirmaslikdir. Global maydon, ayniqsa, onlayn jurnalistikada axborotning haddan tashqari ko'pligi nafaqat qolip sarlavhalardan qochishga, balki ifodaviy sarlavhalarni endi boshqasiga o'xshamaydigan, unikal tarzda yozishga majbur qilmoqda. Iqtibosli sarlavhalarning ko'p sonida uchrashi ispan gazetalarida sarlavha tanlashning lingvopragmatik xususiyatini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asunción Escribano Hernández "Uso periodístico de la lengua: los títulos en prensa". Colección: Vitor: [VI] | 64. – Salamanca, 2000.
2. Дементев В.В., Седов К.Ф. Социопрагматический аспект теории речевых жанров: Учебное пособие. Саратов, 1998.
3. Toshmuhamedova L.I. Sarlavha uslubi. – Toshkent, 2012.
4. Shomaqsudova S.X. Mediamatn sarlavhasi retsipient bilan samarali nutqiy kontakt o'rnatishning birlamchi vositasi // O'zbekistonda xorijiy tillar, 2019, №1.
5. Лингвистический энциклопедический словарь / под ред. В. Н. Ярцевой. М.: Советская энциклопедия, 1990.
6. "El país", "El mundo", "ABC" gazetolari.

Shamsiya ATOYEVA,

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich tayanch doktranti*

"MAJOLIS UN-NAFOIS"NING LATIFIY TAZKIRASIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkiri turkiy tildagi dastlabki tazkira sifatida Sharq xalqlari orasida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ushbu asarda 459 nafar shoir haqida ma'lumot berilgan bo'lib, Movorounnahr va Xurosondagi adabiy muhit yoritilgan. Hazrat Navoiy o'z tazkiri orqali o'ziga xos maktab yaratdi va bu an'anaga aylandi. "Majolis un-nafois"ning yaratilishi bir qancha o'lkalar adabiyoti qatorida Usmonli turk adabiyotiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqolada "Majolis un-nafois"ning Latifiy "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasiga ta'siri xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tazkira, tazkirachilik an'anasi, adabiy muhit, adabiy ta'sir masalalari, nazira, Usmonli adabiyoti.

Annotation. Alisher Navoi's "Majolis un-nafois" tazkir is of great importance among the peoples of the East as the first tazkir in the Turkic language. This work provides information about 459 poets and covers the literary environment of Transoxiana and Khorasan. Hazrat Navoi created a unique school through his tazkir, which became a tradition. The creation of "Majolis un-nafois" had a significant impact on the literature of several countries, including Ottoman Turkish literature. This article discusses the influence of "Majolis un-nafois" on Latifi's "Tazkirat ush-shuaro" tazkir.

Keywords: tazkira, tazkira tradition, literary environment, issues of literary influence, nazira, Ottoman Turkish literature.

Аннотация. Тазкир Алишера Навои «Маджолис ун-нафоис» имеет большое значение среди народов Востока как первый тазкир на тюрском языке. В этом труде содержится информация о 459 поэтих и освещается литературная среда Мавераннахр и Хорасана. Хазрат Навои создал уникальную школу тазкира, ставшую традицией. Создание «Маджолис ун-нафаис» оказало значительное влияние на литературу ряда стран, в том числе на османскую литературу. В данной статье рассматривается влияние «Маджолис ун-нафаис» на тазкир Латифи «Тазкират уш-шуаро».

Ключевые слова: тазкира, традиция тазкира, литературная среда, вопросы литературного влияния, назира, османская литература.

Turkiy adabiyot tarixida tazkira janrining shakllanishi va rivojlanishida Alisher Navoiyning o'rne beqiyosdir. Uning "Majolis un-nafois" ("Nafis majlislar") asari nafaqat turkiy adabiyotda, balki butun Sharq adabiyoti tarixida ilk mukammal shoirlar tazkiri sifatida e'tirof etiladi [2: 52]. Bu asar keying davrda yaratilgan tazkiralarda uchun asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Manbalardan korinadiki, biror bir shoirning ijodiy mahoratiga baho berishda tazkirachilar uning qaysi shoirdan ta'sirlanganligiga yoki usluban kimga yaqinligiga urg'u beradilar. XV asar tazkiranavisligida ham adabiy ta'sir masalalari xususida so'z borganda, shubhasiz, eng ko'p Hazrat Navoiyga to'xtalishgan.

O'z davrining mashhur tazkiranavislaridan biri bo'lmish Latifiy ham "Majolis un-nafois"dan ilhomlangan holda "Tazkirat ush-shuaro"ni yozadi. Muallif Navoiyga xos uslubni saqlash bilan birga asarning ichki tuzilishida ayrim yangiliklar ham kiritib o'tadi.

Latifiy tazkirasining muhim jihatlaridan biri – u Alisher Navoiy ijodiga keng to'xtalib, uning ta'sir doirasini qayd etadi. Asarda Navoiy nafaqat Turkiston adabiyotida, balki Usmoniylar adabiy muhitida e'tirof etilgani ko'rinadi. Uning she'riy uslubi, g'azalchilikdagi mahorati va ma'naviy ta'siri turli shoirlar orqali Rum sarzaminida ham o'z izini qoldirgan [7: 378]. Asli ismi Abdulatif bo'lmish ijodkor Latifiy 1491-yilda Kastamonuda tug'ilgan [4: 7]. Ilk ta'limini Kastamonuda boshlab keyin Istanbulga kelib kotib bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Muallif she'r va inshoga yoshligidan "ulfat" bo'lgani, olim va hunarmandlarga "hurmat va iltifot" ko'rsatgani xususida o'z tazkirasida aytib o'tadi [3: 490–491].

Latifiy kotiblik bilan shug'ullangan paytlarida o'z davrining mashhur dardori Iskandar Chalabiyga atab "Bahoriya" qasidasini yozish orqali ko'pchilikka taniladi va Belgrad kotibligiga tayinlanadi va uzoq yillardan so'ng yana Istanbulga qaytadi.

Latifiy Istanbulga qaytgan yillari Onado'li adabiyotida ilk tazkira sifatida dunyoga kelgan Sehiy Bey "Hasht behisht"ini tamomlagan va ilm ahli tomonidan iliq kutib olingan edi. Bu holat Latifiyda ham bir tazkira yozish orzusining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Shu tariqa o'zining tazkira yozishdagi shavqi va do'sti shoir Zaifiyning qistovi bilan Latifiy ham tazkira yozishga kirishadi. Shoir o'ziga katta shuhrat keltirgan asarni 1546-yilda tamomlab, o'z davrining sultoni Qonuniy Sulton Sulaymonga taqdim etadi. ning "Tarzi Navoiyda jahd" ko'rsatganligini e'tirof etishadi [3: 435-495].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Latifiy "Tazkirat ush-shuaro va tabsirat us-nuzamo" asari hijriy 953, milodiy 1546-yilda tamomlangan va davr sultoni Qonuniy Sulton Sulaymonga taqdim etilgan. Asar "Muqaddima", "Uch fastl" va "Xotima" qismlaridan iborat. Tazkirada 334 shoir haqida ma'lumot berilgan.

"Tazkira" alifbo tizimi, shoirlar va ularning she'rlariga berilgan adabiy tanqid va baholarning xolis va to'g'ri talqini bilan o'ziga xos asardir. Latifiy shoirlarning asl qadr-qimmatini darajasidan qat'i nazar, aniq va hech ikkilanmasdan bayon qilgan va o'zi belgilagan me'yorlar bilan har bir shoirga o'ziga munosib baho bergan. Vaqt o'tishi bilan u o'z hukmlarida to'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Usmonli turk mumtoz adabiyotidagi tazkira yozish an'anasi doirasida Latifiyning "Tazkira"si ham shakli, ham mazmuni, ham adabiy baholari bo'yicha hech qachon o'zib ketmagan va bu sohada hamisha peshqadamlik mavqeyini saqlab kelgan.

Latifiy "Tazkira"sining eng muhim xususiyatlaridan biri shoirlarning birinchi marta alifbo tartibida sanab o'tilganligidadir.

Bir shoirning boshqa bir shoirga ta'siri haqida gap ketganda "xos uslub"ga diqqat qilinadi. Xususan, bu holat Latifiy tazkirasida ham ko'rinadi Bu borada ham eng e'tiborga molik shaxs Alisher Navoiydir. Masalan, Hofizi Ajam va Muhiyning "Navoiy uslubiga yaqin xushoyanda guftori" bo'lgani; Shohiyi Sharqiy she'rlarining "Navoiy uslubi"ni eslatishi; Jamiliy "Aksar ash'orining Navoiy yo'lida bo'lganligi"; Niyoziyning "Navoiy ruhida she'rlar yozganligi" ta'kidlanadi. Shuningdek, Piri Chalabiy va Azmiy Afandining "Navoiy shevasi" da she'rlar aytgani; Fuzuliyning "Navoiy uslubiga yaqin bir tarsi diltirib va uslubi ajib"i bo'lganligi va "Navoiyyona" she'rlar yozganligi aytiladi.

"Tazkirat ush-shuaro"da Hazrat Navoiyga turli tarzda ergashgan shoirlar xususida ham so'z boradi. XVI asrda Alisher Navoiyning Onado'lida katta shuhrat qozonishida Ahmad Poshoning o'rni beqiyosdi. Ammo Usmonli turk adabiyotida yaratilgan ilk tazkiralarda Ahmad Posho va Navoiy orasidagi munosabatlar haqida fikr yuritilmagan. Sehiy Bey o'z tazkirasida "Ahmad Posho she'rlarining g'oyat balig' va fasih, turk tilida bundan ortig'i imkonsiz ekanligini bayon etadi" [5:55]. Latifiy esa bu zot vazirlar ichra olim, shoirlar orasida fozil bo'lib, Valiyuddin o'g'li sifatida tanilib, o'zining mashhur nasl-nasabi va komil fe'l-atvori bilan tanilganligiga toxtaladi.

Shuningdek, "Fors iboralari kiydirgan ma'no go'zaligiga turkcha liboslar kiydirganini" ta'kidlab o'tadi.

Ahmad Posho dastlab Sulton Murodxonga askar bo'lgan va o'zining aql-zakorati hamda obro'si bilan vazir darajasiga erishgan. U so'z fasofatining mohir ustasi bo'lib, ilm-ma'rifat sohasida barcha fan va san'atlarda mohit edi. Uning baytlari ta'sirchan va uslubi nafis edi. Shoir Hazrat Navoiy ijodiga katta qiziqish bildirgan va uning g'azallariga ko'plab nazira bog'lagan. Ahmad Posho o'z davrining mashhur shoiri ekanligini boshqa manbalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, Oshiq Chalabiyning ta'kidlashicha, Navoiyning 33 g'azali Boyazid II ga yuboriladi va ularga nazira yoza oladigan iste'dod sohibi izlanadi. Nihoyat, bu vazifa davrining mashhur shoiri Ahmad Poshoga topshiriladi [9:39]. Alisher Navoiy ko'pgina shoirlar singari Ahmad Posho ham o'ziga ustoz sifatida bilgan, uning ijodini katta qiziqish bilan kuzatib borgan. Oshiq Chalabiyning e'tiroficha, Ahmad Posho bir nazirasida Navoiy yuksak so'zlar bilan ta'riflaydi va she'r mulkining podshohi deydi.

Zamonasining mashhur ijodkorlaridan yana biri Basiriyydir. Asli bag'dodlik bo'lgan bu shoir Sulton Boyazid davrida Hazrat Jomiy va Hazrat Navoiylarning topshiriqlari bilan Rum diyoriga keladi. Navoiy devonini Rumga dastlab keltirgan ham Basiriyydir. Demak, aytish joizki, Alisher Navoiy ijodiy merosining Rum mamlakatiga Basiri orqali kirib kelgan. Shoir Basiri turkiy tilda ijod qilish barobarida asarlarida forsiy so'zlar ham uchray turadi. Tazkirada muallif ijodidan namuna keltirib o'tadi:

✠Åşî✠larını âh o Mesî✠â-dem öldürür (6)
Bu âdem öldürür ki Mesî✠ âdem ol durur [3: 149].

Tazkirada Sulaymon Beg o'g'li Sinan Chalabiy nomi bilan mashhur Behishti nomi ham tilga olingan. Latifiy tazkirada qayd etishicha, Behishti Sulton Boyazid davrida devon kotiblaridan bo'lgan. Vaqt o'tib bir xatoga yo'l qo'yib, xavotir sabab Eronga ketgan va u yerda Jomiy va Navoiy xizmatlarida bo'lgan. Tazkirada Qur'oni Karimning oyatlariga sharhlar yozganligi haqidagi ma'lumotlar ham keltirilgan.

"Tazkirat ush-shuaro"da keltirilishicha, Behishti "Xamsa"ga javob tariqasida besh risola yozib qoldirgan. "Vomiy va Azro", "Yusuf va Zulayho", "Husn-u Nigor", "Suhayl-u Navbahor", "Layli va Majnun" shular jumlasidandir.

Latifiy o'z tazkirasida davomida, Navoiydan ilhomlangan shoirlardan biri sifatida Jamiliy ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Jamiliy uslubi Hazrat Navoiyning usuliga monand tarzda ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. U o'zining uch jildlik to'plamida Navoiy g'azallariga butunlay qofiyali tarzda she'rlar yozgani tazkirada qayd etilgan. Latifiy bu haqda: «Nevâyi divânında olan eş'ârına külliyyen âfiye-ber-âfiye na'îre dimişdür» – deya qayd etadi [10: 60a].

Latifiyning "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasidan ko'rinadiki, Alisher Navoiy va uning "Majolis un-nafois" asari XVI asr Usmonli turk dunyosiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning ijodiy merosi faqat Xuroson va Movorounnahr adabiy jarayonida emas, balki Rum diyorida ham zabardast ijodkorlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 9-jild. – Toshkent, 2013.
2. Köprülü, F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. – İstanbul: Devlet Matbaası, 1928.
3. Latifi. Tezkiretü's-Şu'arâ ve Tabsiratü'n-Nuzamâ (haz. Rıdvan Canım). – Ankara, 2018.
4. Nihat Çetin. Latifi. – Ankara: İslam Ansiklopedisi. C. 7.
5. Sehiy Bey. Hasht behisht. – Anqara, 2017.

6. Yusupova D. Latifiy tazkirasida Navoiy izdoshlari talqini / Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining umumbashariyat ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotidagi o'рни mavzusidagi V xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Navoiy, 2025.
7. Chetindog'Y. Alisher Navoiy va Usmonli she'riyati. – Toshkent, 2011.

J.O.KANIYAZOVA,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, f.f.d

AYTMATOVSHUNOSLIK QORAQALPOG'ISTONDA

Annotatsiya. Ushbu maqola Qoraqalpog'istonda Chingiz Aytmatov ijodini o'rganishning bosqichlari va yo'nalishlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Birinchi bosqichda (1960–1990-yillar) uning asarlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilinib, qoraqalpoq o'quvchilari tanishadi. Ikkinchi bosqichda (XX asrning 80-yillaridan bugungi kungacha) uning ijodiga qiziqish boshlanib, uning asarlari ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylandi. Ilmiy tadqiqotlar Ch.Aytmatovning qoraqalpoq adabiyoti va madaniyatiga ta'sirini chuqur tahlil qilish bilan xarakterlanadi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq adabiyoti, Chingiz Aytmatov, tarjima, adabiy ta'sir, adabiy o'zlashtirish, tipologik o'xshashlik.

Annotation. This article is dedicated to the analysis of the stages and directions of studying Chingiz Aytmatov's work in Karakalpakstan. In the first stage (1960–1990), his works were translated into Karakalpak and introduced to Karakalpak readers. In the second stage (from the 80s of the 20th century to the present day), interest in his work began, and his works became the object of scientific research. Scientific research is characterized by a deep analysis of Ch.Aytmatov's influence on Karakalpak literature and culture.

Keywords: Karakalpak literature, Chingiz Aytmatov, translation, literary influence, literary borrowing, typological similarity.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу этапов и направлений изучения творчества Чингиза Айтматова в Каракалпакстане. На первом этапе (1960–1990 годы) его произведения были переведены на каракалпакский язык и ознакомлены каракалпакскими читателями. На втором этапе (с 80-х годов XX века до наших дней) начался интерес к его творчеству, и его произведения стали объектом научных исследований. Научные исследования характеризуются глубоким анализом влияния Ч.Айтматова на каракалпакскую литературу и культуру.

Ключевые слова: каракалпакская литература, Чингиз Айтматов, перевод, литературное влияние, литературное заимствование, типологическое сходство.

Chingiz Aytmatov ijodi bilan turkiy xalqlar adabiyotining aloqalarini o'rganish hozirgi adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biriga aylandi. Buning bir nechta sabablari bor. Birinchidan, Ch.Aytmatov prozasida umuman insoniyatning tashvishi, orzu-o'yilari aks etadi. Shuning uchun uning asarlari dunyo xalqlarining bir necha tillariga tarjima qilindi va har bir xalqning ma'naviy mulkiga aylandi. Ikkinchidan, Ch.Aytmatov nafaqat qirg'iz adabiyotida, balki jahon adabiyotida o'z uslubiga, badiiy nasr yaratish maktabiga ega yozuvchilar qatoridan o'rin oldi. Shuning uchun uning ijodidagi badiiy tasvirlash usullarini, tamoyillarini, obraz yaratish tajribalarini yosh yozuvchilar o'rgandi va o'zlashtirdi. Uchinchidan, XX asrda yetmish yil bir ittifoq tarkibida yashagan xalqlarning ijtimoiy ahvoli bir-biridan farq qilmas edi. Bu o'z navbatida adabiyotda o'xshash g'oya, mavzu, syujet, obrazlarning yuzaga kelish omillari bo'lib, o'xshash asarlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Aytib o'tilgan holatlar adabiyotshunoslikda Ch.Aytmatov tarjimalarining badiiy va lingvistik masalalarini, adabiy ta'sir va adabiy o'zlashtirish, tipologik o'xshashlikni o'rganish zaruriyatini vazifa qilib qo'yadi.

Qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatovning asarlari 1960-yillardan boshlab qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi va bugungi kunga qadar yozuvchining deyarli barcha hikoya, qissa, romanlari to'liq tarjima qilindi (1). Mana, shu davrdan boshlab Ch.Aytmatov ijodi qoraqalpoq adabiyotidagi bir qator badiiy asarlar bilan solishtirilib, ijoddagi o'xshashlik yoki adabiy ta'sir masalalari nuqtai nazaridan maqolalar yoziladi (2). O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi, O'zbekiston Qahramoni T.Qayipbergenov "Chingiz Aytmatov haqida bir necha so'z" maqolasida yozuvchining adabiyot maydoniga kirib kelishi juda ajoyib o'xshatishlar bilan ta'riflanadi:

"Buyuk Vatan urushidan g'alaba bilan qaytgan avlodning izidan elliginchi yillari adabiyot osmonidagi yulduzlarga yana bir avlod kelib qo'shildi. U yelkasiga avtomat osilmagan bo'lsa-da, urushning hasratli og'ir yukini zavod-fabrika sexlarida, kolxoz-sovxo dalalarida kattalar bilan teng yelkalashgan, davr vaqtidan oldin voyaga yetkazgan, ko'rgani ham, bilgani ham ko'p, hatto, bu yorug' olamda ko'z yoshning, kulguning

asosi nimada ekanini to'liq tushunib ulgurgan avlod edi. Agar o'sha avlodning savodxonligi haqida gap ketsa, maktablarda to'liq darajada har tomonlama ta'lim oldi deb tasdiqlash qiyin ko'ringan bo'lsa-da, ular o'qib ham, mehnat qilib ham, hayotdan tajriba to'plab ham mashq qilgan edi. Mana, shu avlod orasidan elliginchi yillarning oxirida, Qirg'iziston adabiyoti osmonida bir yulduz alohida yarq etib ko'zga tashlandi.

Bu yulduz – Chingiz Aytmatov" [1].

Yozuvchi T.Qayipbergenov zamondosh yozuvchisi Ch.Aytmatovning iste'dodiga shunday yuqori baho beradi. Tadqiqotchilar Ch.Aytmatov bilan T.Qayipbergenov ijodidagi o'xshashliklarni tipologik hodisalar sifatida qaraydilar. Haqiqatda ham, shunday. Shuningdek, T.Qayipbergenov Ch.Aytmatov prozasida "odam xayolining inson harakatining cheksiz ko'p qirraliligi va sirliligini... odam bolasining har qanday tragik vaziyatda ham kuchlliligini... konkret obrazlar orqali" aks ettirilishi uning ijodiga xos asosiy xususiyatlar ekanini belgilab o'tadi. T.Qayipbergenov to'g'ri ko'rsatganidek, "u Sharq va G'arb klassik adabiyotining namunalarini sintezlab yangi mazmunga moslashtirdi. Uning bu namunasi elliginchi-oltmishinchi yillardagi butun O'rta Osiyo yozuvchilarining yangi yaratilgan qissalariga namuna bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib nafaqat O'rta Osiyo adabiyotida, balki butun sovet adabiyotida "Chingiz Aytmatov maktabi" paydo bo'ldi".

Yozuvchining bu fikrlarini bir qator aytmatovshunoslar tasdiqlaydi va tadqiqotlari natijasida isbotlangan. Shuningdek, shu 1960–1970-yillari adabiy jarayonga aralashgan yosh iste'dodli yozuvchilar ham Ch.Aytmatovdan ijob sirlarini o'rganganligini bir qator maqolalarida yozadi. Qoraqalpoq tadqiqotchilari bu ikki yozuvchi ijodidagi o'xshashliklarni ikki yo'nalishda o'rganadi:

- 1) adabiy ta'sir va adabiy o'zlashtirish aspektida;
- 2) adabiy tipologiya aspektida.

Qoraqalpoq nasri va Ch.Aytmatov ijodi ham shu ikki yo'nalishda o'rganiladi.

1. Ch.Aytmatov ijodi bilan qoraqalpoq yozuvchilarining asarlaridagi o'xshashlik adabiy ta'sir va adabiy o'zlashtirish

natijasi sifatida qaraladi [2]. Ularda qoraqalpoq yozuvchilaridan Sh.Seytov, S.Saliyev, U.Pirjanov, Q.Kamalov, G.Esemuratova, K.Raxmanov va h.k.larning asarlarida qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatov ijodining ta'siri bor ekanligi ko'rsatiladi. Tadqiqotlar natijasida Ch.Aytmatovning qoraqalpoq nasriga adabiy ta'siri, asosan, yozuvchilarning syujet tanlash va uning kompozitsiyasini qurishda, badiiy-psixologik usullarini qo'llashida deb belgilanib o'tilgan.

1960–1970-yillardagi qoraqalpoq adabiyotshunosligida, asosan nasrdagi izlanishlar natijasida yuzaga kelgan yangi hodisalarni (janr, psixologik tasvirlar) boshqa yozuvchilardan yoki adabiyotdan ijodiy o'rganish va o'zlashtirish natijasi deb qaraladi (5). 1960-yillardagi qoraqalpoq adabiyotida lirik, psixologik belgilar sintezlangan nasriy asarlarni liro-epik (6), so'nggi tadqiqotlarda liro-psixologik nasr (7) deb ataydi. Qoraqalpoq prozasidagi lirik, psixologik xususiyatlar T.Qayipbergenovning "Muallimga rahmat" qissasida ko'rinadi. So'ngra T.Qayipbergenovning "Sovuq tomchi", "Uyqusiz tunlar", K.Smamutovning "Farzand", Sh.Seytovning "Turnalar uchib ketdi", G.Izimbetovning "Umr elasi" S.Saliyevning "Karvon manzildi ko'zlar" qissalari yaratildi. Bu shu davr adabiyotidagi asosiy uslubiy xususiyatlardan biri bo'lib, qahramonning psixologik kechinmalarini tasvirlashi natijasida yuzaga keldi. Bu davr bo'yicha tadqiqotlarda prozadagi lirik va psixologik uslubning kuchayishi qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatov ijodi bilan bog'lanadi.

2. Qoraqalpoq adabiyotidagi bir qator asarlar (T.Qayipbergenov, K.Sultanov) Ch.Aytmatov ijodi bilan solishtirilib, ulardagi o'xshashlik tipologik xarakterga ega deb qaraladi [3]. Yozuvchi Sh.Seytov va Ch.Aytmatov ijodidagi yaqinliklarni esa ikki aspektda: adabiy o'zlashtirish va tipologik hodisalar sifatida baholanadi [4]. Shuningdek, qoraqalpoq

dramatik asarlarining rivojlanishida ham Ch.Aytmatov ijodining ta'siri bo'ladi. Shoir va dramaturg T.Seytjanovning "Tinimsiz to'liqlar" pesasidagi "Qaljan obrazini yaratish jarayonida Ch.Aytmatovning "Sarvi bo'lyi nigorim" qissasining so'nggi epizodidan foydalanadi" deb yozadi qoraqalpoq dramaturgiyasini o'rganuvchi B.Tursinov [5].

Ch.Aytmatov asarlari qoraqalpoq sahnasida bir necha bor qo'yilgan. «Sarvqomat dilbarim» qissasi asosida eng dastlab spektakli A.Qayipovning rejissyorligida 1955-yili sahnalashtirilgan. Bu asar 2-marta Sh.Magzumova, V.D.Bolotinlar rejissyorligida 1971-yili sahna yuzini ko'radi. 1972-yili "Ona Yer-Ona" spektakli A.Mambetovning rejissyorligida sahnalashtirilgan. Spektakldagi To'lg'anoy rolini xalq artisti Oyimxon Shamuratova mahorat bilan ijro etgan. 2008-yili Sapar Xo'janiyozov nomidagi Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani va "Chingizxonning oq buluti" qissasi asosida yozilgan A.Sultonovning "Qurshov" spektakli sahnalashtiriladi. (Qirg'izistonning O'sh teatri rejissyori Abdurahmon Abdunazarov sahnalashtiradi).

Rejissyor Muxtor Reymov sahnalashtirishida 2024-yil 14-fevral kuni Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida Ch.Aytmatovning "Luvr o'rdagi" spektakli tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi (rassom Timur Shardemetov). Qirg'iziston kinochilari XP xalqaro Toshkent kinofestivali arafasida yozuvchi Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani asosida "Bo'ronli bekat" filmini suratga olgan edi. Ushbu film "Qoraqalpoqfilm" kinostudiyasida qoraqalpoq tiliga tarjima qililib, unga taniqli dublyaj rejissyori Talasboy Abdireymov tarjimonlik qildi. Filmga Qoraqalpoqiston xalq artisti Begebay Allaniyozov va iste'dodli sahna ustasi Mariyash Ismaylovalar ovoz berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айтматов Ш. Дәслепки муғаллим. Повесть. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1963.
2. Айтматов Ш. Ыразы бол, Гулсары. Повесть // Әмүдәрәя, 1969, №1.
3. Айтматов Ш. Ерте келген тырналар. Повесть // Әмиўдәрәя, 1976, №9.
4. Насруллаева З. Герой каракалпакской советской прозы. – Ташкент: Фан, 1976.
5. Нурмухамедов М. Судьбы народов – судьбы литературы. – Ташкент, 1982.
6. Айтматов Ш. Жәмиһла. Повесть // Әмүдәрәя, 1961, №10. – Б. 66.
7. Айтматов Ч. Жәмиһла. Повесть. – Нөкис: Қарақалпақ мәмлекет мәмлөкет баспасы, 1962

Jaxongir KENJABAYEV,

Termiz davlat universiteti fakultetlararo chet tillari kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

KORPUS LINGVISTIKASI ASOSIDA SPORT TERMINLARINING DINAMIK RIVOJLANISH MODEL

Annotatsiya. Ushbu maqolada sport terminlarining zamonaviy diskursda shakllanishi, o'zgarishi va ommalashuv jarayonlari korpus lingvistikasi metodlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda diaxron va sinxron tahlil, frekvent tahlil, kolokatsion modellash, semantik monitoring kabi yondashuvlardan foydalanildi. Natijalar sport leksikasining texnologik innovatsiyalar, yangi sport turlari, media makoni va globalashuv ta'sirida jadal rivojlanayotganini ko'rsatdi. Tadqiqot asosida sport terminlarining dinamik rivojlanish modeli ishlab chiqildi va amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, sport terminologiyasi, diaxron tahlil, kolokatsion model, leksik dinamikasi, semantik kengayish, sport diskursi.

Annotation. This article analyzes the processes of formation, change and popularization of sports terms in modern discourse based on the methods of corpus linguistics. The study used approaches such as diachronic and synchronous analysis, frequency analysis, collocation modeling, semantic monitoring. The results showed that sports lexicon is rapidly developing under the influence of technological innovations, new sports, media space and globalization. Based on the study, a model of dynamic development of sports terms was developed and practical recommendations were given.

Keywords: corpus linguistics, sports terminology, diachronic analysis, collocation model, lexical dynamics, semantic expansion, sports discourse.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы формирования, изменения и популяризации спортивных терминов в современном дискурсе на основе методов корпусной лингвистики. В исследовании использовались такие подходы, как диахронический

и синхронный анализ, частотный анализ, моделирование коллокаций и семантический мониторинг. Результаты показали, что спортивная лексика стремительно развивается под влиянием технологических инноваций, новых видов спорта, медиапространства и глобализации. На основе исследования разработана модель динамического развития спортивных терминов и даны практические рекомендации.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, спортивная терминология, диахронический анализ, модель коллокаций, лексическая динамика, семантическое расширение, спортивный дискурс.

Sport terminologiyasi zamonaviy til tizimining eng harakatchan va tez o'zgaruvchan qatlamlaridan biriga aylangan. Texnologik yangiliklar, ommaviy axborot vositalarining global ta'siri, yangi sport turlarining paydo bo'lishi, xalqaro musobaqalarning ko'payishi natijasida sport leksikasi semantik va funksional jihatdan doimiy ravishda boyib bormoqda. Sport terminlari nafaqat sport sohasi doirasida, balki sotsiologiya, tibbiyot, psixologiya, marketing, media va boshqa sohalarda ham keng qo'llanmoqda.

Korpus lingvistikasi katta matn bazalarini tahlil qilish orqali til birliklarining rivojlanish tendensiyalarini ilmiy-statistik asosda aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa sport terminologiyasining o'zgaruvchan tabiati, yangi terminlarning paydo bo'lish sur'ati, semantik differensiallashuv jarayonlarini o'rganishda korpus metodlarining ahamiyati beqiyosdir.

Sport terminologiyasi zamonaviy leksik tizimning eng dinamik qatlamlaridan biri bo'lib, u texnologiyalar, yangi sport turlari, media ta'siri va xalqaro musobaqalar jarayonida doimiy ravishda o'zgarib boradi. Korpus lingvistikasi esa sport terminlarining ushbu o'zgarishlarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda ingliz, rus va o'zbek tillarining elektron korpuslari, shuningdek media matnlari va onlayn resurslar tahlil qilindi. Mazkur tadqiqot sport terminlarining dinamik rivojlanish modelini ishlab chiqish, ularning o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash hamda terminlarning semantik kengayish mexanizmlarini tushuntirib berishga qaratilgan.

Tadqiqot sport terminlarining dinamik rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida korpus lingvistikasining zamonaviy metodlari asosida amalga oshirildi. Korpusga tayanuvchi yondashuv til birliklarini statistik, strukturaviy va kontekstual jihatdan tahlil qilishga imkon berib, sport leksikasidagi o'zgarishlarning aniq manzarasini yaratishga xizmat qildi. Quyida qo'llanilgan metodlar keltiriladi.

Diaxron korpus tahlili. Terminlarning vaqt o'tishi bilan o'zgarish tendensiyalarini aniqlash maqsadida ingliz, rus va o'zbek tillarining ochiq elektron korpuslari (COCA, BNC, Ruscorpora, Uzbek National Corpus) diaxron kesimda o'rganildi. Ushbu yondashuv yordamida sport terminlarining qo'llanish chastotasi, stilistik registri va semantik o'zgarishi 2000–2024-yillar oralig'ida qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, zamonaviy sport texnologiyalariga oid terminlarning keskin o'sish dinamikasi aniqlab borildi [1: 14].

Kolokatsion tahlil. Terminlarning boshqa leksik birliklar bilan birikuv darajasi (collocation strength) MI-score, T-score va log-likelihood ko'rsatkichlari orqali aniqlangan. Kolokatsion tahlil natijasida sport tilining ichki semantik maydonlari xaritasi tuzildi. Masalan, *injury – prevention – rehabilitation* kabi klasterlar sport tibbiyotiga oid terminlar majmuasini tashkil qilishi, *high press – counter attack – zone defense* kabi birikmalar esa taktik diskursga xos ekanligi aniqlangan.

Kompyuter lingvistikasi vositalari. Terminlarning semantik o'xshashlik darajalarini matematik jihatdan aniqlash maqsadida lemmatizatsiya, stemming, klasterlash va word

embeddings modellaridan (Word2Vec, FastText) foydalanildi. Bu yondashuv sport terminlari orasidagi yashirin semantik aloqalarni aniqlash imkonini berdi. Masalan, *agility, balance, coordination* birliklarining yuqori semantik yaqinligi ularning sport fiziologiyasi diskursida birgalikda qo'llanishini tasdiqladi.

Diskurs tahlili. Media matnlari, sport sharhlari, jurnalistik reportajlar, xalqaro musobaqalar bayonlari, bloglar va ijtimoiy tarmoqlardagi sport postlari tahlil qilindi. Diskurs tahlili terminlarning kontekstual funksiyalari, semantik yuklamasi va metaforik qo'llanilish holatlarini aniqlashga qaratildi. Bu yondashuv sport terminlarining jamiyatdagi ma'naviy, ijtimoiy va kommunikativ vazifalarini ochib berdi.

Korpus tahlillari sport terminologiyasining vaqt o'tishi bilan uch asosiy rivojlanish yo'nalishida shakllanayotganini ko'rsatdi: texnologik terminlar, media orqali global tarqaluvchi terminlar va kross-soha terminlari. 2015-yildan keyin sport texnologiyalariga doir terminlar sezilarli darajada ommalashgan. Bu jarayon sport jarayonlarini optimallashtirish, natijalarni aniqlik bilan qayd etish va yangi texnologik imkoniyatlarni joriy etish bilan bog'liq. Korpus tahlili natijalariga ko'ra, quyidagi terminlar faol qo'llanilmoqda:

- *VAR system* – video assistant referee tizimi, hakam qarorlarini aniqlik bilan tasdiqlashga yordam beradi.
- *hawk-eye* – optik kuzatuv va aniqlash texnologiyasi, sport musobaqalarida aniqlikni oshiradi.
- *performance analytics* – sportchilarning jismoniy ko'rsatkichlarini monitoring qilish va tahlil qilish jarayoni.
- *wearable sensors* – jismoniy faoliyatni o'lchash va nazorat qilishga mo'ljallangan kiyiladigan qurilmalar.

Ushbu terminlar texnologik yangiliklarning sport jarayonlariga kirib kelishi bilan muntazam qo'llanish chastotasiga ega bo'lib bormoqda va terminologiyaning zamonaviy leksik qatlamini boyitmoqda.

Natijalar sport terminlarining rivojlanishidagi asosiy sur'atlar jamiyatdagi o'zgarishlar bilan parallel ravishda sodir bo'layotganini ko'rsatdi. Texnologiyalar sportga tez kirib kelgani sayin yangi terminlar ham deyarli har yili paydo bo'lmoqda. Media esa terminlarning ommalashuvida asosiy katalizator bo'lib xizmat qilmoqda. Korpus metodlari orqali olingan ma'lumotlar sport terminologiyasini tizimli ravishda o'rganish, yangi terminlarning paydo bo'lishini oldindan prognoz qilish va ularning standartlashuvini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Tadqiqot sport terminlarining jadal rivojlanayotgan leksik qatlam ekanini tasdiqladi. Korpus lingvistikasi asosidagi tahlillar terminlarning semantik, funksional va statistik jihatdan qanday o'zgarajagini aniq faktlar bilan ko'rsatdi. Sport leksikasi texnologik innovatsiyalar, media diskursi va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq holda kengaymoqda. Ishlab chiqilgan dinamik rivojlanish modeli sport terminologiyasining strukturaviy va semantik o'zgarishlarini tushuntirishga imkon beradi hamda tarjima, leksikografiya, sport jurnalistikasi va ta'lim sohaslarida amaliy qo'llanishga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bai G. Construction of the Learner-Centered Teaching College English Teaching Mode Under Big Data Technology // International Journal of Web-Based Learning and Teaching Technologies (IJWLTT), 2025, 20(1).

2. Kenjabayev J.A. Lingodidactic Peculiarities of the Development of Communicative Competence of Students in the field of physical education // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, 2020. – B. 253–258.
3. G'afferov N. O'zbek tilining umumiy lug'atlarida sport terminlarining ifodalanishi // Oriental Art and Culture, 2022, 3(2).

Azizbek VOSILJONOV,

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi

KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA KORPUSSHUNOSLIK MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompyuter lingvistikasi va korpusshunoslikning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi. Noelektron kartoteka korpuslaridan tortib elektron korpuslarga bo'lgan jarayon, shuningdek, Brown, LOB, British National Corpus va Penn Treebank kabi yirik korpuslarning ilmiy va amaliy qiymati qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: korpus lingvistika, kompyuter lingvistikasi, til korpusi, Brown korpusi, British National Corpus, elektron korpus, lingvistik tahlil, korpusshunoslik tarixi, til texnologiyalari, mashina fondi.

Annotation. This article examines the formation and development stages of computer linguistics and corpus linguistics, as well as their significance in modern linguistics. It provides an overview of the transition from non-electronic card-catalog corpora to electronic corpora and briefly analyzes the scientific and practical value of major corpora such as the Brown Corpus, LOB Corpus, the British National Corpus, and the Penn Treebank.

Keywords: corpus linguistics, computational linguistics, language corpus, Brown Corpus, British National Corpus, electronic corpus, linguistic analysis, history of corpus studies, language technologies, machine fund.

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессы формирования и этапы развития компьютерной лингвистики и корпусной лингвистики, а также их значение в современной лингвистике. Кратко освещён переход от неэлектронных картотечных корпусов к электронным корпусам, а также проанализирована научная и практическая ценность таких крупных корпусов, как Brown Corpus, LOB Corpus, British National Corpus и Penn Treebank.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, компьютерная лингвистика, языковой корпус, Brown Corpus, British National Corpus, электронный корпус, лингвистический анализ, история корпусных исследований, языковые технологии, машинный фонд.

Jahon tilshunosligida tabiiy tilni qayta ishlash sohalari kengayib, kompyuter lingvistikasi yutuqlaridan tilni tadqiq etish, lingvodidaktika, leksikografiya, tarjimonlik borasida keng foydalanilmoqda. Jumladan, tilni o'rganishda tezaurus, elektron lug'atlar, avtomatik tarjima, axborot-qidiruv tizimlari qatorida til korpuslari ham asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Natijada til birliklari to'g'risidagi lingvistik ma'lumotlarni maxsus qidiruv orqali sanoqli soniyalarda qulay shaklda taqdim qiluvchi, til yoki tilning muayyan qismini minglab matn ko'rinishida o'z ichiga olgan, til imkoniyatlarini o'rganish va o'rgatishga mo'ljallangan korpuslar ham vujudga kelmoqda.

"Korpus lingvistikasi jahon kompyuter lingvistikasining juda tez rivojlanib ketayotgan sohasi bo'lib, bu borada ancha yutuqlarga erishilgan. Dunyo oliy ta'lim muassasalarida korpus lingvistikasi fan sifatida ham o'qitiladi. Bu sohaning predmeti korpus yaratish nazariyasi va amaliyoti bo'lsa, fan sifatida korpusning o'ziga xosligi, dasturlash asoslari kabi jihatlari o'qitiladi. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi, til korpusini yaratish, kompyuter texnologiyasi yordamida ulardan foydalanishning umumiy nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi" [1: 21]. Korpus lingvistikasining predmeti – til korpusi.

Kompyuter davrigacha bo'lgan korpuslar. Amaliy tilshunoslikning eng zamonaviy sohalaridan biri bo'lgan korpus lingvistikasi qadimiy tarixiy ildizlarga ega. Bu ildizlar til materialini to'plash va tizimlashtirish bilan bog'liq. Uzoq o'tmishdagi lug'aviy an'analarda so'zlarni yig'ish alohida ahamiyatga ega edi. Keyinchalik bu so'zlar asosida kartotekalar yaratilgan. Aytish mumkinki, XX asrning 80-yillari oxirigacha SSSRda kartotekalar asosida lug'atlar tuzish yetakchi bo'lgan. Tuzuvchilar alifbo tartibida har bir sarlavha va uning izohini bir yoki ba'zan bir nechta kartochkalarga yozib, maxsus kartotekalar tayyorladilar va nihoyat ushbu kartochkalardagi ma'lumotlarni ketma-ket joylashtirish orqali lug'atlarni tuzdilar. Maxsus arxiv shaklida saqlangan bunday fayllar turli masalalarni hal qilish jarayonida qaytadan foydalanilgan. Hozirgi zamon korpus lingvistikasining vazifalaridan biri

mavjud til materiallarini to'plash va ularni kartotekaga muvofiq saqlashdir. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi yig'ilgan materiallarni karta qutilarida, katalog shakllarida emas, balki tashuvchilarda saqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, kerakli ma'lumotlarni qidirish tizimi yaratilgan. Albatta, korpus lingvistikasi o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. Faqat kompyuter asrigacha bo'lgan korpus noelektron shaklda bo'lganligi, ma'lumotlarni korpusdan topishning avtomatlashmaganligi bilan xarakterlanadi. Korpus lingvistikasida bu davr raqamli texnologiya (ing.pre-elektronik) asrigacha bo'lgan davr sanaladi. Mashhur tilshunos Panini tomonidan tuzilgan qadimgi hind grammatikasi shaklan noelektron, mohiyatan korpus metodiga asoslangan edi. Miloddan oldingi V – IV asrlarda bu korpus folklor shaklida og'izdan og'izga ko'chib kelgan. Aslida, o'sha paytdayoq o'lik sanalgan sanskrit tilidagi vedalar matnidan iborat bo'lgan. Kompyuter asrigacha bo'lgan ko'plab korpuslar ham turli diniy muqaddas kitoblar bilan bog'liq. Umar Qur'onning yagona matnini jamlash uchun barcha variantlarni to'plash va solishtirishdan foydalangan. Injil matnlari esa atroflicha tadqiq etilganligi bilan ajralib turadi. Injilga asoslangan she'rlar ko'rsatkichiga ega so'zlar ro'yxati simfoniya yoki konkordans degan nom bilan ma'lum bo'la boshladi. Bunday korpus ilk marotaba XIII asrda paydo bo'lib, "Нравственная конкорданция Священного Писания" deb atala boshlandi [1]. Korpusni tuzish, o'rganish korpus lingvistikasi sohasi rivojlanishidan ancha oldin – XVIII asrlarda boshlandi. Chunonchi, Bibliyaga oid tadqiqotlar (mas., Cruden), lug'atlar (Johnson, Oxford English Dictionary, Webster Dictionary), tillarni o'qitish (частотный корпус Thorndike'a, 1921), Kvirk korpusi (Survey of English Usage) shular jumlasidandir. Kvirk korpusida 1 000 000 so'z qo'llash holati mavjud, dastavval har biri 17 satrli matndan iborat 4x6 dyum hajmli 1 000 000 kartochkadan iborat bo'lgan. Ushbu korpus eng so'nggi noelektron korpus, uni tuzish 1964-yilda boshlangan va 25 yil davom etgan hamda 1989-yilda nihoyasiga yetgan, chunki bu davrda kompyuter texnologiyasi ilgarilab ketgan edi. Zudlik bilan korpusni elektron shaklga keltirish zarurati

tug'ildi. Mazkur korpus hozir London universitetida saqlanadi; o'sha yerda undan foydalanish mumkin.

Kompyuter asridagi korpuslar. Elektron ommaviy axborot vositalarida birinchi lingvistik korpusni qurish to'g'risida qaror 1960-yilda qabul qilingan. Zamonaviy amerikacha ingliz tilining standart korpusi 1961-yildan 1964-yilgacha Qo'shma Shtatlardagi Braun universitetida qurilgan. Birinchi kompyuterlashtirilgan korpus The Brawn Corpus Amerika gazetalari, jurnallari va kitoblardan 500 ga yaqin matnlarni o'z ichiga olgan. Braun korpusidagi har bir matn 2000 so'zdan iborat 500 ta matnni, jami 1 million so'zni o'z ichiga olgan [3: 210]. Ish mualliflari U.Frensis va G.Kuchera katta hajmdagi materiallar va kolleksiyalardan foydalangan. Braun korpusining tashkil etilishi butun dunyo bo'ylab tilshunoslar va til bo'lmagan olimlarga ingliz tilini o'rganishda katta yordam berdi. Bu tilshunoslik, shuningdek, ingliz tilining rivojlanishiga turtki berdi. Braun korpusining asosiy maqsadi Amerika Qo'shma Shtatlarida yozilgan ingliz tilining turli janrlarini o'rganish va taqqoslash va bu tilning chastotali lug'atini tuzish edi. Ushbu korpusning tashkil etilishi milliy qiziqish va muhokamalarga sabab bo'ldi. Darhaqiqat, birinchi korpusning tashkil topishi bu boradagi nazariy masalalarni o'rganishni taqozo etdi [2: 148].

Ikkinchi kompyuter korpusi Lankaster universiteti va Oslo universiteti tomonidan Bergen ilmiy markazi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. 1970–1978-yillarda ishlab chiqilgan ushbu korpus ilmiy markaz joylashgan universitet va shaharlar nomlarining bosh harflari asosida qisqartma deb ataladi. Ushbu korpuslar yaratilgandan so'ng, katta hajmli xotiraga ega tezkor kompyuterlar ishlab chiqarila boshlandi. Bundan tashqari, skanerlarning rivoji uning yordamida matnni kompyuterga kiritish osonroq bo'ldi. Ilgari bu ish uzoq vaqt davomida klaviatura yordamida amalga oshirilgan. Oldin chop etilgan matnlarni skanerlar va matnni aniqlash dasturlari orqali mashina xotirasiga o'tkazish matnlarni yig'ishni tezlashtirdi. Natijada korpusga bir million emas, milliardlab so'zlarni kiritish mumkin bo'ldi. 1990-yilga kelib 600 dan ortiq kompyuter korpuslari mavjud edi.

SSSRda korpus lingvistikasi masalasi mashina fondi nomi bilan o'rganilib, o'tgan asrning 80-yillarida mashina fondini yaratish bo'yicha tadqiqotlarga e'tibor qaratildi. Rus tilining mashina fondini yaratish g'oyasi 1980-yillarning boshlarida tug'ilgan. 1985-yilda SSSR Fanlar akademiyasining Rus tili institutida ushbu korpusning tashkil etilishi boshlandi. 1990-yillarning birinchi yarmidayoq korpus lingvistikasi alohida soha sifatida shakllana boshladi. *“Korpus lingvistikasi kamolotga yetdi”*. Bu jumlaning J.Svartvik 1992-yilda korpus lingvistikasiga oid maqolasining kirish qismida tilga olgan [5: 78]. Bugungi kungacha bo'lgan davrda elektron korpuslar quyidagi bosqichlarni bosib o'tgan [6: 123]:

1. 1960-yillar: Brown korpusi AQSh, 1 mln. so'z va 500 ga yaqin namuna.
2. 1970-yillar: LOB – Lancaster – Oslo/Bergan korpusi, Buyuk Britaniya, Norvegiya 1 mln so'z.
3. Rus tilining mashina fondi, Upsala rus tilining korpusi (Shvetsiya), 1 mln so'z.
4. 1990-yillar: British National Corpus milliy korpus 100mln so'z (venger, italyan, xorvat, chesh, yapon tili) (*1-rasm*).
5. 1990-yillar: Penn korpusi. Sintaktik razmetkaga asoslangan korpus, 4,5 mln so'z.
6. Ingliz tili banki Birmingham (Collins Cobuild) 600 mln. so'z.
7. 2000-yillar: Amerika milliy korpusi, 100 mln. so'z.
8. Zamonaviy Amerika ingliz tili korpusi, 400 mln. so'z.
9. Rus tili milliy korpusi, 140 mln. so'z.
10. Gigaword korpusi: arab, ingliz, xitoy tili 2 mlrd. so'z.
11. Oxford English korpusi, 2 mlrd. so'z.
12. Portugaliya va Galitsiyatillari uchun CRPC, NILC, CORGA.
13. Ispan tili uchun CREA.
14. Qozoq tili uchun Kazakh-KTB.
15. Tatar tilining “Tugan Tel” korpusi, 180 mln so'z.

Umuman olganda, tilshunoslikka oid tadqiqotda fakt bilan ish ko'riladigan hollarda material yig'ilishi, sistemaga solinishi lozim. Bunday katta hajmli ishni bajarishda korpus vaqt va mehnatni tejaydigan ish quroli vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

История корпусной лингвистики. <https://www.myfilology.ru/177/istoriyakorpusnoj-lingvistiki/>.
Doniërov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.
Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016.
Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. I tom. – Toshkent: Fan, 1961
Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn – Toshkent: Tafakkur, 2014.
Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.

Sevara PARMONOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

ALISHER NAVOIY VA FARIDUDDIN ATTOR TAZKIRALARIDA JUNAYD BAG'DODIY ZIKRI

Annotatsiya. Fariduddin Attor “Tazkirat ul-avliyo” hamda Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida o'zlaridan ilgari yashab o'tgan va o'zlariga zamondosh bo'lgan bir qancha shaxslar, din peshvolari, shuningdek, ilohiy karomat sohiblari nomlarini zikr etib, ular haqida xalq orasida keng tarqalgan afsona va rivoyatlarni keltiradilar. Ushbu maqolada ana shunday buyuk shayxlardan biri – Ojunayd Bag'dodiy haqidagi ma'lumot va rivoyatlarning ahamiyati o'rganildi.

Kalit so'zlar: tazkira, zikr, xalifa, shayx, rivoyat, Navoiy, Attor, sahv.

Annotation. Fariduddin Attar in his “Tazkirat ul-Awliya” and Alisher Navoi in his “Nasoyim ul-Muhabbat” tazkir mentions the names of a number of personalities, religious leaders, and divine prophets who lived before them and were their contemporaries, and cites legends and traditions about them that are widespread among the people. This article examines the importance of information and traditions about one of such great sheikhs, Junayd Baghdadi.

Keywords: tazkira, dhikr, caliph, sheikh, tradition, Navoi, Attar, sahv.

Аннотация. В своих трудах «Тазкират уль-Аулия» Фарид ад-Дин Аттар и «Насайим уль-Мухаббат» Алишер Навои упоминают имена ряда личностей, религиозных лидеров и пророков, живших до них и являвшихся их современниками, а также приводят распространённые в народе легенды и предания о них. В данной статье рассматривается важность сведений и преданий об одном из таких великих шейхов – Джунайде Багдади.

Ключевые слова: тазкира, зикр, халиф, шейх, предание, Навои, Аттар, сахв.

Tasavvuf tarixida o'zining chuqur ma'rifiy qarashlari, ruhiy poklanish yo'lidagi ibratli hayoti va komillik borasidagi amallari bilan alohida o'rin egallagan mutasavvuflardan biri Junayd Bag'dodiy hisoblanadi. Uning ta'limoti tasavvuf olamida "sahv" maktabining asoslaridan biri sifatida e'tirof e'tilib, keying avlod so'fiylar qarashlariga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Junayd Bag'dodiy bag'dodlik mashhur shayx bo'lib, u haqida nihoyatda ko'p afsona va rivoyatlar yuradi. Bulardan eng ishonchlilarini biz Fariduddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo", Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" kabi tazkirlarida ko'rishimiz mumkin. Ushbu manbalar nafaqat uning hayoti va faoliyati haqida muhim ma'lumot beradi, balki Junaydning ruhiy olami, tasavvufiy qarashlari bilan ham o'quvchini tanishtiradi.

Ikkala tazkirada keltirilgan rivoyatlar bir xil bo'lmasa-da, har qaysisi ham bu zotning buyuk karomat sohibi hamda Alloh Rasulining nazari tushgan eng odil va taqvodor imomlardan biri ekanligiga guvohlik beradi. Attorning tazkiri Junayd Bag'dodiyning beqiyos madhi bilan boshlanadi. Jumladan, asarda ta'riflanishicha, "...piri ustod, shayxlarning shayxi, dunyo imomlarining imomi, jumla ilmlar bobida komil, furu' ichida taqvodor, muomala, riyozat va karomat ichida oliymaqom, avval-u oxir holida yoqimli va maqbul, barcha ko'ngillarga mahbub, barcha uning imomligiga yakdil, ... zohiri va botini orasta, tasavvuf ichida qutb" bo'lgan bu zotni Bag'dod ahli qavm tili deb atashar ekan" [1: 341].

Attor ham, Navoiy ham Junayd Bag'dodiyning shayx Sirri Saqatiyning shogirdi, suhbatdoshi ekanligini ta'kidlaydi. Bu borada har ikki tazkirada keltirilgan rivoyatda aytilishicha, Sirri Saqatiy o'z muridi Junaydga hamisha elga nuqt so'zlamolikni, minbarga chiqib, pand-nasihat qilmoqlikni maslahat berar ekan. Biroq behad kamtarlik yuzasidan Bag'dodiy bu taklifni rad etib keladi. Bir kuni kechasi (Navoiy tazkirasida bu juma kechasi deb berilgan) u tush ko'radi va tushiga Muhammad Mustafo (s.a.v) kiradilar unga muborak nazarlari bilan shunday buyuradilar: "Ey Junayd, sen mening ummatlarimga va'z-nasihat qilmoqqa loyiqsan, men senga ruxsat berdim. Xaloyiqqa va'z aytgil" [2: 82]. Shundan so'ng Junayd uyg'onib, darhol murshidi huzuriga yo'l oladi. Bu tushning mohiyati Sirri Saqatiyga g'aybdan ma'lum bo'ladi va u shogirdiga oq fotifa berib, so'z so'zlamoqqa da'vat etadi.

"Nasoyim ul-muhabbat"da Alisher Navoiy Attor tazkirasida keltirilmagan go'zal bir rivoyatni keltiradi [2: 82]. Unda aytilishicha, Junayd minbarga chiqib so'zlagan ilk kunida unga bir yigit "Ey shayx, Rasululloh (s.a.v)ning "Mo'minning farosatidan ehtiyot bo'ling, chunki u Alloh nuri bilan nazar qiladi" hadisining ma'nosi nima, deb savol beradi. Bu savoldan so'ng Junayd Bag'dodiy boshini egib biroz jim qoladi va so'ngra "Ey yigit, Islomni qabul qilki, Islomning vaqti kelibdur", deb javob beradi. U yigit haqiqatdan ham tarso yigit bo'lib, bu javobdan so'ng darhol oh urib, musulmon bo'ladi. "Imom Yofi' aytadiki, – deydi Navoiy, – boshqalar bu voqadan bir karomat ko'rsalar, men ikki karomat ko'rdim. Biri – Junaydning bu yigitning tarso ekanligini fahmlaganida va ikkinchisi Islom vaqti kelganligini anglatganidadir". Xuddi ushbu rivoyat "Nasoyim ul-muhabbat"da Abdulxoliq G'ijduvoni yozgan zikrida ham keltirilgan.

Junayd Bag'dodiy juda ko'p shogirdlar yetishtirgan va bu shogirdlar orasidan eng yaxshilarini bir nazardayoq anglay

oladigan buyuk shayx bo'lgan. Naql qilishlaricha, shayx shogirdlari orasidan birini nihoyatda e'zozlagan va bundan boshqa muridlarning ko'ngliga hasad o'ti tushgan [1: 351]. Bu qadar e'zozning sababini so'rganlarida Junayd "Shu uchunki, uning odobi boshqalardan ortiqdur", deb javob bergan. Buni isbotlash uchun shayx bir kuni barcha muridlari uchun bittadan qush keltirishlarini buyuradi va ularga bu qushni har biringiz biror joyda so'yingki, toki hech kim ko'rmasin deb aytadi. Muridlar har qaysisi qushlarni so'yib keltirishadi faqat o'sha shayx suygan muridgina qushni so'ymasdan qaytarib olib keladi va deydi, "Ey shayx, siz qushlarni hech kim ko'rmaydigan joyda so'yishni buyurdingiz, qayerga borsam, o'sha yerda Haq taoloni hozir-u nozir ko'rdim, so'ya olmadim!" shundan so'ng shayx Bag'dodiy boshqa shogirdlariga uning odobi va farosati haqida gapiradi va muridlar unga taslim bo'ladi. Junayd Bag'dodiyning bunday topshiriq berishdan maqsadi faqatgina shogirdining odobini boshqa shogirdlarga ko'rsatib qo'yish emas, balki so'fiylikning eng muhim tamoyili – Haqning doimiy mavjudligini his etish zarurligini anglatishdir. Junayd sevgan shogird ham topshiriqning zohirini emas, botinini anglab, tasavvufning markaziy g'oyasi – Allohni har laha huzurda deb bilishni anglab yeta olgan.

Junayd Bag'dodiy haqida Alloh ishigiga o'zini tamoman bag'ishlagan, bir namoz o'qiganda ba'zan qirq kunlab sajdadan bosh ko'tarmaydigan paytlari ham bo'lgan, degan rivoyatlar yuradi. Bunday rivoyatlar hozirgi darv kishisi uchun ishonchsizdek tuyulsa-da, aslida ular tagida ma'lum haqiqatlar yotadi. "Tazkirat ul-avliyo"da keltirilgan barcha avliyolar yoki shayxlar ham tug'ilgandanoq ilmi ilohiyga kirishib ketgan, deb bo'lmaydi, albatta. Ulardan ayrimlari avvaliga hatto mutlaqo dinsizlik, xudosizlik yo'lida bo'lib yoki Allohga sinqidildan imon keltirmagan bir holatda qandaydir bir voqea sabab ichlariga o't tushib, astoydil tavbaga bosh urganlari ham bisyor (masalan, Abdulloh Muborak).

Junayd Bag'dodiyning esa Alloh rizoligiga havasi shunchalik baland ediki, hatto sog'ligi ko'tarmagan paytlarda ham bir rakat namozni-da qoldirmay o'qib yurgan. "Tazkirat ul-avliyo"da keltirilgan rivoyatda bayon qilinishicha, shayxning ko'zlari og'rib qolganda tabib unga ko'zlariga aslo suv tekkizmaslikni maslahat beradi. Shunda shayx "Taxoratni qanday qilay?" deb so'raydi va tabibdan "Agar sizga ko'zlaringiz kerak bo'lsa, davosi shu" degan javobni oladi. Attor hikoyani davom ettirib aytadiki, tabib tarso edi va u ketgach Junayd Bag'dodiy ham darhol tahorat olib, namoz o'qishga kirishgan. Shunchalik uzoq ibodat qilganidan, sajdaga bosh qo'yganicha uxlab qoladi. Tushida esa hotifdan ovoz keladi: "Junayd Biz uchun ko'zidan kechdi. Agar shu onda barcha do'zax ahliga omonlik tilasa edi, ijobat bo'lar edi!" Shundan so'ng shayx uyg'onib qarasa, tabib kelganini ko'radi va tekshiruvdan so'ng shayxning ko'zlari sog'ayib qolganligi ma'lum bo'ladi. Tabibning buni qanday davoladingiz, degan savoliga esa, shayx bo'lgan voqeani ma'lum qiladi va "Bu davo Xoliqning davosidir, xalqning davosi emasdir, chin tabib Uning o'zidir" deya javob beradi. Bu javobdan so'ng tarso tabib ham shayx etagidan tutadi va imon keltiradi.

Ushbu rivoyat tasavvufdagi Allohga tavakkul, ibodatga sodiqlik g'oyalarini aks ettiradi. Haqiqiy so'fiy uchun sog'liq ham, davo ham faqat Allohdan keluvchi ne'matlardir. Tasavvufda bunday hol tuzalish uchun "sabablarni rad etish" emas, balki

sabablarning ustida ham Allohning irodasi turishini tan olish sifatida izohlanadi. Junaydning shifo topishi ham rivoyatlarda “karomat” sifatida emas, balki chin ixlos, qat’iyat, ibodatda mustahkamlikning natijasi sifatida Alloh tomonidan berilgan inoyat deb talqin qilinadi.

Har ikkala tazkirada ham, uzun-qisqa rivoyatlar orqali shayx Junayd Bag’dodiyning naqadar buyuk taqvodor, mustahkam imon sohibi bo’lganligi, o’z nutqlari bilan juda ko’pchilikni mutaassir qilganligi bayon qilinadi. “Nasoyim ul-muhabbat”da keltirilganidek, shayx Abu Ja’far Haddod aytadiki, agar aql kishi suratiga aylanganida edi, u Junaydning

qiyofasiga kirgan bo’lar edi [2: 83]. Junayd Bag’dodiyga Abu Nasr Sarroj, Abulqosim Qushayriy va ustoz Abu Ali Daqqoh kabi yirik ulamolar tarafdor bo’lishib, u Boyazid Bistomiy kabi so’fiylik amaliyotida mast bo’lish – o’zidan ketishdan ko’ra, xushyorlikni (sahf)ni afzal bilgan [3: 66]. Zero xushyorlik tabiiy holat bo’lib, orif ma’rifat yo’lini jazava holatiga tushmasdan, aql, tavoze, odob va ichki poklik asosida bosib o’tishi, shu orqali haqiqatga yetishi mumkin, deb hisoblagan. Tazkiralardagi hikoyatlar ham Junaydning donishmandligi, ruhiy teranligi, tasavvufdagi o’rnining naqadar yuksak bo’lganligini ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent: G’afur G’ulom, 2013-y.
2. Alisher Navoiy. Nasoyimul muhabbat. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.
3. Homidiy Hamidjon. Tasavvuf allomalari. – Toshkent: Sharq, 2009. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 20 jildlik. 17-jild. – Toshkent: Fan, 2001.
4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: O’zbekiston, 2009.
5. Alisher Navoiy: qomusiy lug’at. 1–2-jildlar. / Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2016.

Qurdosh QAHRAMONOV,

*O’zbekiston Milliy pedagogika universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

“PADARKUSH” DRAMASINING G’OYAVIY-BADIIY MOTIVLARI

Annotatsiya. Maqolada jadid adabiyotining atoqli namoyandasi M.Behbudiyning “Padarkush” asari davr ruhi va shaxs fojiasi nuqtayi nazaridan tahlil etilib, millat fojiasiga sabab bo’luvchi ma’rifatsizlik, jaholatparaslik illatlari badiiy fosh etilgani asoslangan.

Kalit so’zlar: asar konseptsiyasi, badiiy detal, badiiy makon, ijodkor badiiy psixologiyasi, fojiaiy qismat, drama, muallif chekinishlari, millat fojiasi, ramziy-majoziy mazmun, sarkazm.

Annotation. The article analyzes the work of M. Behbudi, a prominent representative of modern literature, “Padarkush” from the perspective of the spirit of the era and personal tragedy, and argues that it artistically exposes the ills of ignorance and ignorance that lead to the tragedy of the nation.

Keywords: concept of the work, artistic detail, artistic space, artistic psychology of the creator, tragic fate, drama, author’s withdrawal, tragedy of the nation, symbolic-metaphorical content, sarcasm.

Аннотация. В статье анализируется драма «Падаркуш» М. Бехбуди, известной фигуры современной литературы, с точки зрения духа времени и трагедии личности, и она основана на том факте, что пороки невежества и невежества, являющиеся причиной трагедии нации, художественно раскрываются.

Ключевые слова: концепция произведения, художественная деталь, художественное пространство, художественная психология создателя, трагическая судьба, драма, авторское отстранение, трагедия нации, символическо-метафорическое содержание, сарказм.

Turkistonda jadidchilik harakatining rahnomasi sifatida tan olingan atoqli mutafakkir Mahmudxo’ja Behbudiy o’zbek dramaturgiyasining ham asoschisi hisoblanadi. Xalqini ma’rifatli qilish, hur va ozod ko’rish istagi bilan yashagan alloma butun umrini millat bolalari uchun yangi tipdagi jadid maktablarini ochish, ularga atab darsliklar yaratish, kutubxonlar tashkil etish, safarnomalar yozish, davrning muhim masalalariga bag’ishlangan publitsistik maqolalar bitishga sarf etdi.

“Padarkush” dramasi yaratilishiga ham shu faoliyatning mantiqiy davomi sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Uning ijodkor sifatida boshqa badiiy asar yaratishga harakat qilmaganining tub sababi ham shunda bo’lsa kerak. 1909-yilda “Turkiston viloyatining gazet”da e’lon qilingan “Oq yelpog’ichli chinli xotun” nomli hikoya esa berilgan izohga ko’ra xitoy adabiyotidan olingan bo’lib, Behbudiyning qayta talqini asosida chop etilgan. Hikoya mazmuni ham shunday dalolat beradi.

Behbudiyshunoslarning fikricha, mutafakkir Turkistonda teatr san’atining tarbiyaviy-ma’rifiy ahamiyatiga katta e’tibor qaratadi. Uni ibratxona deb ataydi va o’zbek milliy teatrchiligining “...nazariy va amaliy masalalarini ishlab chiqdi” [4: 66]. M.Behbudiyning o’zi bu haqda “Teyotr nadur?” maqolasida shunday yozadi: “Teyotr oyinadurki, umumiy

hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko’zliklar ko’rib, kar quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa, teyotr va’z va tanbih etuvchi hamda zararli odat, urf-taomilni, qabih va zararini ayonon ko’rsatuvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to’g’ri so’ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchidir” [1: 150]. Ko’chirmadan ham ma’lum bo’ladiki, “Padarkush”ning yaralishidan asosiy maqsad jamiyatdagi “umumiy hollar”, zararli odat, urf-tamoyillarni, qabih va zararlarni hech bir rioya qilmasdan yuziga oyina tutib o’zlariga ko’rsatishdan iborat bo’lgan. Toki ko’z bilan ko’rib, kar quloqlar bilan eshitib, o’zlari uchun xulosa chiqarsinlar.

M.Behbudiy dramani “3 parda 4 manzarali, milliy birinchi fojia” deb ataydi. Darhaqiqat, drama fojiaiy asar. Unda mustamlaka zulmi ostidan ezilgan xalqimizning XX asr tongidagi ayanchli turmush tarzi, savodsizlik, taraqqiyotsizlik oqibatida ma’naviy inqirozga yuz tutgan qismati umumlashma tarzda ifodalangan. Asarda zamon va millat fojiasi uyg’un aks etadi. 1911-yilda yozilgan asarning chop etilishi bilan bog’liq voqealar haqida taniqli jadidshunos olim B.Qosimov shunday yozadi: “Xullas, 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo’lishining yubiley sanasiga bag’ishlanadi” degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko’rsatadiki,

ish oson ko'chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi" [2: 295]. Binobarin, asarni nashr etish uchun chor senzurasiga yon bosib, unga mutlaqo aloqasi bo'lmagan Borodino jangiga deb yozilgan bag'ishlov ham davr va millat ziyolilarining fojiasi sifatida yuzaga chiqmoqda.

Asardagi fojeliq ham voqelik fonida, ham qahramonlar xatti-harakatlari orqali ochila boradi. "Adabiyot va san'atda shunday asarlar borki, unda tasvirlangan xarakterlar holati, voqealarning oqimi asl mohiyati bilan fojia, bu fojia holatlar, xarakterlar holati voqealar tasviridan bevosita kelib chiqadi". Dramada boy ham, Toshmurod va uning ulfatlari ham fojiaviy obrazlar sifatida talqin etiladi. Asarning dastlabki sahnasidayoq fojeliq qirralari namoyon bo'la boradi. Bu boy huzuriga kelgan domullo va ziyoli bilan kechgan suhbat asnosida yuzaga chiqadi. Garchi bu sahna asardagi asosiy voqealarning nisbatan bir ekspozitsiya rolini o'ynasa-da, lekin muallif badiiy niyatini ochuvchi o'ziga xos kalit – ijtimoiy fojeliq sifatida talqin etiladi.

Domullo boydan o'g'lini o'qitmayotganinigi sababini so'rab, "...o'qitmoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur", degan gaplariga "...dunyo sababi, izzati – boylik", degan javobni oladi. Hisob-kitob ishlarini yuritishda ham ilmning zarurligi haqida gap ketganda, boy xizmatkori Xayrulloqga yetti so'm bersa mirzolikni ham, mehmonxona ishlarini ham bajarishini, hatto kechalari uyqu oldidan kitob ham o'qib berishini aytadi. Shariat ilmidan so'z ochilganda esa savodsiz bo'lsa ham besh vaqt namoz o'qish uchun kerakli duolarini bilishini bayon etadi. Butun sahna davomida domullo va ziyolining millat kelajagi bo'lgan farzandlarni bilimli qilish, vatan va millat taqdiri ularning qo'lida ekani haqidagi kuyunchaklik bilan aytgan gaplariga boyning uyqusiragan beparvo munosabati, e'tirozlari fojeliqning tub omillari sifatida ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, M.Behbudiy ma'rifatparvar ziyoli sifatida birinchi navbatda Turkiston xalqlarini jaholat botqog'idan qutqarish uchun ularni savodli qilish, o'z haq-huquqlarini anglashi zarur deb bilgan. Ma'rifatsizlik, ilmsizlik, qashshoqlik, boylarimizning matqurtligi va kaltabinligi, yurt boylklarining, birinchi navbatda, savdo-sotiq, ishlab chiqarishning armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo'lga o'tib ketishini davr fojiasi deb biladi va uni domullo va ziyoli tilidan aytilgan gaplar orqali ifodalaydi. Shu jihatdan boyning savodsiz bo'lsam ham, "...shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman", degan e'tiroziga nisbatan aytgan quyidagi fikrlari xarakterlidir: "Ko'ramizki, yigirma-o'ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo'lga o'tdi, muni sababi bizlarning o'qimag'onimizdur. O'qumagan boyvachchalarni ko'ramizki, ota molini barbod etar va oxiri xor va zor bo'lur, binobarin, o'g'lingizni o'qutmoqni sizga taklif qilurman" [1: 41].

Ziyoli aytgan: "Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo'lidan ketgandek, axloq va obro'yi ham qo'lidan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur" [1: 43] gaplarda nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy va diniy inqiroz haqidagi mushohadalar ham ilgari surmoqda. Akademik N.Karimov o'z maqolasida asar yozilishiga sabab bo'lgan yana bir ijtimoiy omil – fojiaviy qismat haqida so'z yuritadi. Olim Behbudiy

bilan zamondosh va maslakdosh yozuvchi, ma'rifatparvar Qo'qonboy Abduxolliqzodaning xotiralariga tayanib, o'sha kezlari Samarqandda merosga tezroq egalik qilish uchun boylarning o'g'illari tomonidan o'ldirilayotgani haqidagi ma'lumotlarni keltirib, quyidagilarni yozadi: "M.Behbudiy 1908–1910-yillarda Samarqandda ro'y bergan va shahar ahlini tahlilga solgan bunday ayanchli hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan yoki eshitgan. Va u "Padarkush"ni Mirfayozboyning o'z o'g'lining jo'ralari tomonidan o'ldirilishi voqeasi ta'sirida yozgan. Bu, bir tomondan, asarning yozilish tarixiga oydinlik kiritisa, ikkinchi tomondan, "Padarkush" tragediyasining xalq va jamiyat uchun g'oyat muhim ijtimoiy va ma'naviy masalaga bag'ishlanganidan dalolat beradi" [4: 67].

Demak, tragediyaning ikkinchi pardasida Toshmurodning ulfatlari bilan mayxonadagi maishatparasliklari, ichkilik ichib kayf qilishlari aks etgan manzaralar hayotiy asosga ega bo'lib, olim aytgan voqealarning o'ziga xos tasvirlardir. Muallif bu fojiani asl sababini, boyvuchcha va ulfatlarining ma'naviy tubanligini ilmsizlik va maishatparaslik bilan bog'laydi. Arman millatiga mansub Artunning mayxonasida mayxo'rlik qilib kallasi qizigan ulfatlar fohisha Lizani eslab qolishadi. Mayxonachidan uni topib kelishini so'rashadi. Artun Liza o'n besh manatsiz kelmasligini, uni olib kelish uchun foytunchiga ham pul to'lash zarurligini aytadi. Biroq ulfatlar mayxonachi aytgan pulni to'play olmagach, Tangriqul bilan Toshmurodning boyning uyiga yuborib, pul o'g'irlab kelish taklifini aytishadi. Bu taklifga boyning o'g'li Toshmurod ham rozi bo'lib, "Eshikning biri onamning uyidan ochilur, men kirib, hovli tarafdagi eshigini ocharman, so'ngra Tangriqul akam kirar", deya rejasini ochiqlaydi.

Uchinchi pardaning dastlabki manzarasida uydagi shovqindan boyning uyg'onib ketishi va kaltak bilan baqirchaqir qilib Tangriqulga tashlanishi hamda u tomonidan pichoqlanib yiqilishi voqealari fon sifatida yoritiladi. Sandiqdan boyning hamyonini olib voqea joyidan qochib qolgan Tangriqul va Toshmurod esa mayxonaga borib Liza bilan maishatni davom ettirishlari fojia sifatida talqin etiladi. Voqeadan xabar topgan boyvuchcha esa dod solib o'g'lini padarkush, deya qarq'aydi. Ham boyimdan, ham o'g'limdan ayrildim, deb faryod qiladi. Muallif, bu fojeliqning asl sabablarini yoritishni yana domullo va ziyoli zimmasiga yuklaydi. Sahnada hozir bo'lgan domullo tomonidan aytilgan ushbu fikrlar fojeliq omillarini fosh qilishga qaratilgan. "Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo'q. Bu badbaxlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, ba'manilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. O'g'lingizni beilmlik Sibirga yuboradi" [1: 48].

Ziyoli aytgan quyidagi fikrlar muallif kontseptsiyasini yanada aniqroq ifodalayadi. "Ilm va tarbiyasiz bolalarni(ng) oqibati shudir. Agarda bularni otasi o'qitsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas va bular ichkilikni bo'yla ichmasdi.... Oh, haqiqatda boyni o'ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyg'a giriftor qilgan beilmlikdir. ...hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir" [1: 49].

Xullas, Behbudiyning ushbu asari xalqimizni XX asr tongida jaholat uyqusidan uyg'otish, savodini chiqarib o'z haq-huquqlarini tanish, eng muhimi, "Haq olinur, berilmas" tamoyiliga amal qilib, milliy mustaqillik uchun kurash kontseptsiyasini ilgari surishi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1997. – 230 b.
2. Qosimov B. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent, 2022. – 636 b.
3. Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2018. – 710 b.
4. Karimov N. Behbudiy – jadid teatrining nazariyotchisi // O'zbek tili va adabiyoti, 2019, №4.

Ulugbek KARIMOV,

Uzbekistan State University of World Languages PhD, Associate Professor

CYBERPUNK GENRE IN CONTEMPORARY SCIENCE FICTION NOVELS

Annotation. This study examines the thematic and cultural dimensions of the cyberpunk subgenre within contemporary science fiction literature. It focuses on how advanced technologies – such as computers, artificial intelligence, and biotechnology – shape dystopian societies characterized by pronounced social inequality and corporate domination. Cyberpunk narratives often spotlight marginalized figures (“punks,” outcasts, rebels) living on the fringes of such societies and serve as a critique of late capitalism and surveillance culture. We analyze a selection of representative novels to explore fundamental questions: How is cyberpunk defined, and how has it evolved? Do these modern works fit the cyberpunk mold or transcend it? Our methodology involves comparative literary analysis grounded in cultural theory and genre studies. Key texts are discussed both individually and collectively to illustrate the genre’s aesthetic, ethical, and narrative features. The findings reveal that contemporary cyberpunk encompasses not only classic digital dystopias but also branches into biopunk and post-cyberpunk, reflecting global and environmental concerns. These developments confirm that cyberpunk remains a vital and adaptive mode of speculative storytelling in the 21st century, continuing to interrogate the relationships between technology, society, and marginalized identities.

Keywords: cyberpunk, biopunk, dystopian literature, technological critique, posthumanism, social marginalization, biotechnology.

Аннотация. В данной работе рассматриваются тематика и культурные аспекты субжанра киберпанк в современной научной фантастике. Особое внимание уделяется тому, как передовые технологии (такие как компьютеры, искусственный интеллект и биотехнологии) формируют дистопические общества, характеризующиеся ярко выраженным социальным неравенством и корпоративным господством. Киберпанк-нарративы часто выделяют маргинализированных персонажей («панков», изгоев, бунтарей), живущих на обочине общества, и служат критикой позднего капитализма и культуры надзора. Мы анализируем подборку репрезентативных романов, чтобы исследовать фундаментальные вопросы: как определяется киберпанк и как он эволюционировал? Соответствуют ли эти современные произведения канонам киберпанка или выходят за их рамки? Наша методология представляет собой сравнительный литературный анализ, основанный на культурологической теории и жанроведении. Ключевые тексты обсуждаются по отдельности и в совокупности, что позволяет продемонстрировать эстетические, этические и повествовательные черты жанра. Полученные результаты показывают, что современный киберпанк включает не только классические цифровые дистопии, но и ответвления биопанка и посткиберпанка, отражающие глобальные и экологические проблемы. Эти результаты подтверждают, что киберпанк остается важной и адаптивной формой спекулятивного повествования в XXI веке, продолжая исследовать взаимосвязи между технологиями, обществом и маргинализированными идентичностями.

Ключевые слова: киберпанк, биопанк, дистопическая литература, технологическая критика, постгуманизм, социальная маргинализация, биотехнологии.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot zamonaviy ilmiy-fantastik adabiyot doirasida kiberpank subjanrining mavzu doiralari va madaniy o'lchovlarini tahlil qiladi. Asarda kompyuter texnologiyalari, sun'iy intellekt va biotexnologiyalar kabi ilg'or texnologiyalar keskin ijtimoiy tengsizlik va korporativ hukmronlik bilan tavsiflanadigan distopik jamiyatlarni qanday shakllantirishi ko'rib chiqiladi. Kiberpank narrativlari odatda jamiyat chekkasida yashovchi “panklar”, isyonchilar va turli xil ijtimoiy chetlanib qolgan guruhlarini markazga chiqaradi hamda kech kapitalizm va kuzatuv (nazorat) madaniyatini tanqid qilish vositasi sifatida ishlaydi. Mazkur maqolada kiberpankni qanday aniqlash va uning qanday evolutsiya qilganiga oid asosiy savollarga javob izlash maqsadida vakillik qiluvchi bir qator romanlar qiyosiy adabiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi madaniyatshunoslik nazariyalari va janrshunoslik yondashuvlariga tayangan holda qiyosiy adabiy tahlil usuliga asoslanadi. Tanlangan matnlar alohida va kompleks tarzda ko'rib chiqilib, janrning estetik, axloqiy va narrativ xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy kiberpank nafaqat klassik raqamli distopiyalarni, balki biopank va postkiberpank kabi yo'nalishlarni ham qamrab oladi hamda global va ekologik muammolarni aks ettiradi. Shu tariqa, kiberpank XXI asrda ham texnologiya, jamiyat va chetlashtirilgan identifikatsiyalar o'rtasidagi munosabatlarni tanqidiy qayta o'ylashga imkon beruvchi, moslashuvchan va dolzarb spekulativ hikoya qilish rejimi bo'lib qolayotganini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: kiberpank, biopank, distopik adabiyot, texnologik tanqid, postgumanizm, ijtimoiy chetlashtirish, biotexnologiyalar.

Cyberpunk is a subgenre of science fiction characterized by its portrayal of *high technology and low life* – a world of advanced computing, cybernetics, and artificial intelligence intertwined with social decay and inequality [1: 42]. Originating in the 1980s, often linked to the “New Wave” of speculative fiction, cyberpunk imagines dystopian futures where powerful corporations and surveillance systems erode individual autonomy. In these worlds, protagonists are frequently antiheroes, rebels, or misfits living on society’s margins. The genre uses this setting to offer a cultural critique of late capitalism, globalized corporatism, and the ethical ambiguities of technological progress.

Recent decades have seen cyberpunk evolve into broader subgenres – for example, *biopunk*, which emphasizes genetic engineering and biotechnology; and *post-cyberpunk*, which often adopts more nuanced social and philosophical themes. This paper investigates key contemporary novels to answer foundational questions: What defines cyberpunk, and how has the genre developed over time? To what extent do modern works adhere to or transcend the classic cyberpunk model? By situating these texts within their historical and theoretical contexts, we aim to deepen understanding of

cyberpunk’s narrative and aesthetic features, and to assess its ongoing relevance in reflecting contemporary anxieties about technology, identity, and power.

The analysis employs a qualitative literary approach, drawing on genre theory, cultural studies, and postmodern literary criticism. We selected a range of influential science fiction novels (1990s–2010s) frequently associated with cyberpunk or its adjacent genres. These include *Chasm City* (Alastair Reynolds, 2001), *Sinners* (Pat Cadigan, 1991), *Diaspora* (Greg Egan, 1997), *Virtual Light* (William Gibson, 1993), *Altered Carbon* (Richard Morgan, 2002), *River of Gods* (Ian McDonald, 2004), and *The Wind-Up Girl* (Paolo Bacigalupi, 2009). These works were chosen for their critical acclaim and for representing diverse thematic concerns (e.g., noir noir/hard sci-fi, female authorship, global settings, biotechnology).

The primary method of analysis was close reading, supported by secondary literature on cyberpunk and related genres [18: 66]. We examined each novel’s setting, themes, and narrative style, comparing them against established cyberpunk motifs (urban dystopia, corporate control, cybernetics, virtual reality) and against each other to identify evolving trends. Scholarly sources (e.g., Moorcock, Bukatman [12: 57], McHale)

provide theoretical grounding for understanding genre conventions and their transformation.

Our comparative analysis yields the following observations on each novel and its relation to the cyberpunk tradition:

This space-opera noir blends classic cyberpunk motifs with cosmic science fiction. Set in a far future society shaped by memory-altering nanotechnology, it depicts a decaying metropolis afflicted by a plague. Reynolds combines detective-story tropes with high-tech speculation. While some critics label it “cyberpunk-adjacent” [2: 87], *Chasm City* retains a dystopian atmosphere and philosophical depth characteristic of the genre. Advanced technologies (e.g., memory uploading) become sources of identity crisis, and the narrative emphasizes the ruinous social effects of unchecked technology [3: 25]. This illustrates that even in a grand space setting, cyberpunk's core concerns—technological anxiety, moral decay, and marginalized heroes—persist.

Pat Cadigan's novel is notable as an early cyberpunk work by a female author, foregrounding voices often absent from the male-dominated canon [5: 34]. Set in a dystopian America wired through a neural net called the “socket,” *Sinners* explores how pervasive connectivity fractures human experience. The characters “sinners” or punks, seek alternate realities through hacking the net, reminiscent of *The Matrix*'s blending of virtual and real worlds. Cadigan investigates themes of identity, addiction, and alienation, posing philosophical questions about what is real when technology can alter consciousness [6: 92]. In doing so, the novel aligns with cyberpunk's poetic undercurrents of nihilism and existential inquiry. Its style and focus on tech-mediated identity prefigure later explorations of virtuality, highlighting cyberpunk's critique of escapist consumer culture and self-alienation [7: 15].

Greg Egan's *Diaspora* is a mind-expanding work of hard SF. It moves beyond Earth-centric settings to imagine post-human futures. Humanity has split into “Polises” (uploaded virtual beings), “Gleisner robots,” and “Fleshers” (genetically modified humans). The novel is driven by ideas about consciousness, space-time physics, and the search for cosmic intelligence. Unlike character-driven cyberpunk, *Diaspora* prioritizes intellectual exploration of identity and existence. Still, it resonates with cyberpunk's posthuman preoccupations. By showing how technology blurs life and machine (virtual bodies and robotics) and how such transformations impact social order, *Diaspora* extends cyberpunk themes into metaphysical territory [9: 73]. Its dense scientific detail and philosophical scope reinforce cyberpunk's legacy of questioning human nature under radical technological change [8: 32].

Gibson's *Virtual Light* returns to a more urban, near-future setting (post-earthquake California) and focuses on social fragmentation. It introduces the “Bridge People,” a homeless community living under a collapsed highway, emblematic of economic and social fissures in Gibson's world [11: 52]. The novel's MacGuffin is a pair of high-tech VR glasses (“virtual light”) promising an alternate reality. *Virtual Light* carries Gibson's vision of a fractured society: geography and economy have shifted, while disenfranchised individuals navigate a world of corporate secrets and underground cultures [13: 112]. More accessible than *Neuromancer*, it develops earlier themes (cyberspace, corporate conspiracy) with broader, relatable characters. In Gibson's canon, this work serves as a transitional piece that deepens his critique of tech-driven capitalism by focusing on resilience and grassroots communities in the ruins of “progress” [11: 52].

Morgan's debut novel fuses hardboiled noir with futuristic technology. In its world, human minds can be digitized and “resleeved” in new bodies, making death optional for the wealthy [14: 47]. The protagonist, Takeshi Kovacs, is a former soldier turned detective on a mission to investigate what appears to be his own murder. The narrative is fast-paced and gritty, highlighting cyberpunk's hallmarks: a violent underworld, body modification, and corrupt corporate-government power structures. Through its murder-mystery plot, *Altered Carbon* interrogates themes of identity (if your body can change, who are you?) and the commodification of life. Its explicit style and cyber-noir tone evoke classic noir protagonists while grounding the story in technology's existential consequences [15: 88]. This novel exemplifies modern cyberpunk's global popularity and its fusion of genre conventions (noir, SF) to discuss how technology reshapes society and selfhood [16: 90].

River of Gods significantly expands the genre's geographical and cultural scope. Set in mid-21st-century India, the novel interweaves multiple plotlines (nine points of view) involving artificial intelligences, caste tensions, political intrigue, and rival corporate interests [17: 137]. McDonald's vision is richly detailed: India is nearing water wars, and personal AI constructs challenge human relationships. The narrative highlights how Western and global influences collide in a non-Western setting. This broad perspective retains cyberpunk's interest in technology and power, but McDonald grounds it in the complexities of culture and religion. He uses the genre's toolkit (AI, biotech, surveillance) to explore social issues like inequality and resistance movements (e.g., the enigmatic “Tiger of Bangalore”) [18: 142]. The result is an ambitious work that pushes cyberpunk boundaries by refusing a single-hero focus, instead presenting a mosaic of agents affected by technology and politics. *River of Gods* thus exemplifies post-cyberpunk trends: it is transnational, multicultural, and concerned with how technology intersects with identity, ecology, and tradition [19: 109].

Bacigalupi's novel is a cornerstone of *biopunk*, a branch of cyberpunk concerned with genetics and the environment. It is set in a future Thailand crippled by ecological collapse (floods, plague, famine) and controlled by multinational biotech corporations. The narrative follows multiple characters, notably Emiko, a genetically engineered “wind-up girl” designed for servitude. Emiko's perspective illuminates issues of bodily autonomy, otherness, and exploitation [25: 140]. The world is intensely controlled by corporate hegemony: access to food is rationed, and biotech (seed corporations, engineered animals and people) is the means of control and conflict. Themes include corporate greed, postcolonial critique, and climate devastation. Biotech in this novel is not liberating but deeply oppressive, underscoring cyberpunk's critique of science used for profit rather than humanity. Bacigalupi's focus on a non-Western setting and on environmental themes reflects cyberpunk's evolution toward *cli-fi* (climate fiction) and global equity. Through characters like Emiko and the Bangkok rebel “Tiger,” the novel explores resistance to oppressive power and raises philosophical questions about humanity and rights in an age of genetic engineering [26: 48]. The Wind-Up Girl thus extends cyberpunk's lineage into new territory: it is dystopian and corporate-critical, but with a biological, ecological emphasis [29: 45].

Across these case studies, several patterns emerge. Each novel engages with classic cyberpunk themes—technological alienation, corporate power, and social decay—while also

branching into new concerns. The selection includes works that challenge or expand the genre: *Sinners* and *Wind-Up Girl* give voice to marginalized figures (female protagonists, Global South citizens); *Diaspora* pushes toward posthuman abstraction; *River of Gods* and *Virtual Light* situate cyberpunk in diverse cultural landscapes. Despite stylistic differences, all share an interest in how advanced technologies can erode or transform identity and community. The “technology” in these stories often functions almost as a character, shaping human destinies and social structures.

The analysis confirms that contemporary cyberpunk remains centered on the tension between humanity and technology, but its manifestations are more varied than in the original 1980s canon. Cyberpunk’s core definition—as worlds ruled by techno-corporate regimes where humans live in the gaps between advance and decay—holds true. Yet novels like *River of Gods* and *Wind-Up Girl* demonstrate that the genre now frequently incorporates environmental collapse and global power dynamics, reflecting 21st-century concerns. In this sense, cyberpunk has hybridized: *biopunk* and *cli-fi* elements are woven into the narrative fabric.

Notably, the selected novels often expand the representation of identities. Female and non-Western perspectives (Cadigan, Bacigalupi, McDonald) challenge cyberpunk’s early male/Western bias. The marginal characters – hackers, refugees, genetically engineered beings – exemplify how cyberpunk articulates otherness and resistance. This aligns with critical views that cyberpunk is a mode for exploring alienation and class struggle. Furthermore, the emphasis on individual subjectivity amid technological domination (seen in *Sinners* and *Diaspora*, for example) highlights the genre’s ongoing philosophical depth. Questions about consciousness, selfhood, and reality recur from Gibson to Egan, showing that cyberpunk is as much about internal as external landscapes.

The study also reveals a dialogue with cyberpunk’s legacy. Works like *Altered Carbon* and *Virtual Light* explicitly build on earlier themes (mind-uploading, VR, noir detective tropes) but use them to address contemporary issues (inequality, climate anxiety). Other texts, like *Chasm City*, blur genre boundaries but remain thematically congruent. In all cases, cyberpunk’s scepticism toward “technological salvation” is evident: advanced tech often brings unintended consequences and reinforces power disparities.

Overall, these findings suggest that cyberpunk continues to evolve without losing its critical edge. By incorporating new technologies (genetics, AI), new settings (global South, future Earth), and new critical perspectives (ecocriticism, postcolonialism), contemporary cyberpunk demonstrates resilience and relevance. It remains a vibrant lens for exploring the ethics of innovation and the plight of those left behind by progress.

This review of recent science fiction underscores that cyberpunk remains an important literary mode. Through our analysis, we have defined cyberpunk’s contemporary contours: it is characterized by dystopian worlds under corporate-technological dominance, and it persistently examines how such worlds marginalize certain identities. The selected novels, while diverse, each contribute to answering how cyberpunk is defined and how it has changed. Many transcend the strict cyberpunk label by blending genres (biopunk, post-cyberpunk), but they all engage with cyberpunk’s foundational concerns. By situating these works in a broader cultural and historical context, this study highlights cyberpunk’s enduring aesthetic and ethical questions about humanity and technology. As new technologies emerge and global challenges intensify, cyberpunk’s focus on alienation, power, and resistance ensures that it will remain a vital and critically rich genre in the 21st century.

References

1. Heffernan T. Cyberpunk and its Cultural Critique // *Journal of Speculative Fiction*, 1999, 15(3). – P. 45–59.
2. Cumbow J. Reaching for the Edge: Alastair Reynolds and the Evolution of Cyberpunk // *Techno-Thriller Studies*, 2017, 9(2). – P. 87–103.
3. Kern R. *Futurism and Dystopia in Science Fiction*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
4. McHale B. *Postmodernist Fiction: A New Literary Paradigm*. – London: Routledge, 2005.
5. Harrison G. The Female Cyberpunk: Breaking Barriers in Science Fiction // *Journal of Feminist Science Fiction*, 1991, 7(2). – P. 34–47.
6. Moorcock M. *Cyberpunk: Rebellion and Identity*. – London: Quantum Press, 1994.
7. Todorov T. *The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre*. – Cornell: Cornell University Press, 1975.
8. Moorcock, M. *The Structure of Speculative Fiction: Egan’s Philosophical Universe*. – London: Earthlight Press, 2004.
9. McHale, B. *Postmodern Science Fiction: Genre and Metafiction in Egan’s Works*. – New York: Routledge, 2001.
10. Vint S. Science Fiction and Posthuman Identity: Egan’s Legacy // *Journal of Science Fiction Studies*, 2012, 25(1). – P. 73–90.
11. McHale B. *Postmodern Science Fiction: Genre and Metafiction in the Cyberpunk Tradition*. – New York: Routledge, 2001.
12. Bukatman, S. *Cyberpunk and the Cultural Critique of Technology*. – California: University of California Press, 1993.
13. Sterling B. *Mirrorshades: The Cyberpunk Anthology*. – New York: HarperCollins, 1996.
14. Jackson K. *Exploring the Future: Identity and Consciousness in Cyberpunk Literature*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
15. Heffernan T. *The Noir and the Future: A Study of Posthumanism in Science Fiction*. – New York: Palgrave Macmillan, 2010.
16. Gibson W. *The History of Cyberpunk: An Author’s Perspective*. – London: Faber & Faber, 2005.
17. Moorcock M. *The Future Imagined: Ian McDonald’s Science Fiction*. – London: Faber & Faber, 2005.
18. Bukatman S. *Cyberpunk and the Global South: Literary and Cultural Perspectives*. – California: University of California Press, 2007.
19. Heffernan, T. *Futures Past: Science Fiction and Cultural Representation*. – New York: Palgrave Macmillan, 2009.
20. Vint S. *Cyberpunk and the Politics of Representation: Gender, Race, and Class in McDonald’s Work*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
21. Sterling B. *The Cyberpunk Anthology: Reframing the Genre*. – New York: HarperCollins, 2005.
22. Waldrop M. *Biopunk: The Rise of Genetic Engineering and Its Impact on Society*. – Cambridge: MIT Press, 2009.
23. Bukatman S. *Cyberpunk and the Posthuman Condition*. – California: University of California Press, 2007.
24. Heffernan T. *Futures of the Human: Bioethics and the Body*. – London: Palgrave Macmillan, 2009.

Muxlisa USMONALIYEVA,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti
xitoy filologiyasi kafedrası stajyor-o'qituvchisi*

XITOIY TILIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xitoy tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmalarining ahamiyati, ularni shakllantiruvchi zamonaviy metodlar, didaktik yondashuvlar hamda samarali strategiyalar tahlil qilinadi. Xitoy tilining tonalligi, yozuvi va fonetik tizimi tinglab tushunish jarayonini murakkablashtiruvchi omillar sifatida ko'rsatilib, ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beruvchi amaliy mashg'ulotlar, lingvodidaktik texnologiyalar va interaktiv usullar yoritiladi.

Kalit so'zlar: xitoy tili, tinglab tushunish, eshituv kompetensiyasi, tonal fonetika, kommunikativ metod, audiodidaktika, multimediali texnologiyalar.

Annotation. This article analyzes the importance of listening skills in teaching Chinese, modern methods of their formation, didactic approaches, and effective strategies. The tonality, writing, and phonetic system of the Chinese language are shown as factors complicating the listening process. Practical exercises, linguodidactic technologies, and interactive methods that contribute to the development of these skills are highlighted.

Keywords: Chinese language, listening comprehension, auditory competence, tonal phonetics, communicative method, audio didactics, multimedia technologies.

Аннотация. В данной статье анализируются важность навыков аудирования в преподавании китайского языка, современные методы их формирования, дидактические подходы и эффективные стратегии. Тональность, письменность и фонетическая система китайского языка показаны как факторы, усложняющие процесс аудирования. Освещаются практические занятия, лингводидактические технологии и интерактивные методы, способствующие развитию этих навыков.

Ключевые слова: китайский язык, аудирование, слуховая компетенция, тональная фонетика, коммуникативный метод, аудиодидактика, мультимедийные технологии.

Bugungi globallashuv sharoitida xitoy tiliga bo'lgan qiziqish keskin ortib bormoqda. Xitoy Xalq Respublikasining jadal rivojlanayotgan iqtisodiy salohiyati, xalqaro diplomatiyadagi mavqeyi va madaniy ta'siri xitoy tilini o'rganishni zamon talabi darajasiga ko'tardi. Til o'rganishning asosiy kompetensiyalari – o'qish, yozish, tinglab tushunish va og'zaki nutq ichida tinglab tushunish eng murakkab va ko'p qatlamli jarayon sanaladi [1: 17].

Xitoy tilida tinglab tushunish o'ziga xos fonetik xususiyatlar – to'rt asosiy tonning mavjudligi, polisemantik bo'g'inlar, talaffuzning musiqiylikligini talab qilishi bilan farqlanadi. Shu bois o'rganuvchilar uchun eshituv materiali bilan ishlash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish juda muhim. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tilni yaxshi tinglab tushunish boshqa ko'nikmalar: talaffuz, og'zaki nutq, lug'at boyligi va grammatika o'zlashtirilishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xitoy tilidagi to'rt asosiy ton (yīnpíng, yángpíng, shǎngshēng, qūshēng) eshituv jarayonida so'zning ma'nosini tubdan o'zgartiradi. Masalan: **mā** – ona, **má** – konoplya, **mǎ** – ot, **mà** – koyimoq. Tinglovchi ushbu tonlarni farqlash malakasiga ega bo'lmaguncha nutqni to'laqonli tushunishi qiyin kechadi. Demak, **tonal eshituvni rivojlantirish** – tinglab tushunishning tayanch bosqichi.

Xitoy tilida bir xil talaffuzga ega ko'plab iyerogliflar bo'lishi tinglovchidan kontekst asosida ma'no ajrata olish strategiyasini talab qiladi. Fonetik stereotiplar muntazam ravishda audiomateriallar eshitish orqali shakllanadi [2: 41]. Xitoycha nutqning tezligi yuqori bo'lgani sababli o'quvchining fonologik xotirasi, tezkor eshituv tahlili, diqqatni jamlash kabi psixologik ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarur.

Xitoy tilida tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishning metodik yondashuvlari. Kommunikativ metodning asosiy maqsadi – o'quvchini real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlash. Audio dialoglar, kundalik suhbatlar, autentik materiallar tinglash orqali tabiiy nutqqa moslashish ta'minlanadi.

Aqliy hujum, "shadowing" va takroriy tinglash strategiyasi.

- Shadowing metodida o'quvchi eshitayotgan nutqni bir vaqtning o'zida takrorlaydi;
- Loop listeningda bir material 3–5 marta turli vazifalar bilan tinglanadi;

- Aqliy hujumda tinglashdan oldin mavzuga kiriladi, taxminlar qilinadi.

- Bu yondashuvlar eshituv organining moslashuvchanligini kuchaytiradi. Tinglab tushunish samaradorligini oshiruvchi platformalar:

- HSK听力 audio fayllari;
- Xitoy telekanallari (CCTV);
- Bilibili, Youku videodarslari;
- Mobil ilovalar: HelloChinese, DuChinese, HSK Online.

Multimedia o'quvchini tabiiy xitoycha nutq muhitiga yaqinlashtiradi. Xitoy madaniyatiga oid real voqealarni – bayramlar, udumlar, kundalik nutq stereotiplari, real hayotiy suhbatlar tinglash orqali madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya rivojlanadi [3: 49]. O'quvchilarga mavzu yuzasidan savollar, asosiy so'zlar tanishtiriladi. Maqsad – tinglashni osonlashtirish, diqqatni kerakli nuqtalarga jamlash. O'quvchilar matnning umumiy mazmunini tushunishga harakat qiladi. Bu bosqichda beriladi: asosiy fikrni toppish, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, kerakli ma'lumotni ajratish vazifalari bajariladi. Nutqning alohida segmentlarini takroriy eshitish orqali lug'at boyligi mustahkamlanadi, grammatika konstruksiyalari aniqlanadi. Post-listening faoliyatlar:

- suhbat tashkil qilish;
- matn asosida hikoya tuzish;
- rollarga bo'lib qayta ijro etish;
- nutqdagi xatolarni tahlil qilish.

Xitoy tilini tinglab tushunishni rivojlantirishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari:

- Tonlarni to'g'ri farqlay olmaslik. Yechim: fonetik mashqlar, tonal juftliklarni tinglab aytish, maxsus ilovalar (ChinesePod, TonePerfect).

- Tez nutqni tushuna olmaslik. Yechim: sekinlashtirilgan audio bilan boshlash, asta-sekin real tezlikka o'tish.

- Lug'at boyligining kamligi. Yechim: tinglangan materiallardan lug'at daftarini yuritish, gaplar ichida so'zlarni yodlash.

- Iyerogliflarni bilmaslik. Yechim: audio + subtitrlı darslar, keyinchalik subtitrlarni o'chirish orqali mustaqil tinglash.

Xitoy tilida tinglab tushunishni rivojlantirishga qaratilgan samarali mashq turlari:

- Minimal juftliklar bilan ishlash. Masalan: **shi–si, je–zhe, lü–liu**. Bu mashqlar eshituv farqlashini kuchaytiradi.
- Tovushni tanish mashqlari. O'qituvchi bir nechta so'z aytadi, o'quvchi to'g'ri tonlarni yozadi.
- Gapning yo'qolgan qismini topish. Audio matn tinglanadi, o'quvchilarga bo'sh joylar beriladi [4: 52].
- Kino va podkastlar asosida tinglash. HSK darajasiga moslashtirilgan audiofilmlar tinglash stressni kamaytiradi.
- Onlayn kurslar va virtual muhitlar. Virtual sinflarda xitoylik o'qituvchi bilan jonli suhbatlar o'quvchining eshituv reaksiyasini tezlashtiradi.

Xitoy tilida tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish murakkab, bosqichli va tizimli yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Tonal fonetika, tez nutq, murakkab leksik struktura o'quvchilardan yuqori darajada eshituv faolligini talab qiladi. Shu bois, tinglab tushunishni o'qitish jarayonida kommunikativ, lingvokulturologik, interfaol va multimediali texnologiyalarni kompleks qo'llash katta samara beradi. To'g'ri tanlangan strategiyalar, muntazam mashq, real kommunikativ muhitga yaqin materiallar o'quvchilarning xitoycha nutqni eshitib tushunish malakasini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev M. Til o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
2. Jo'rayev M. Xorijiy til o'qitishining nazariy asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019.
3. Yunusova Z. Tilni tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari. – Toshkent: Fan, 2018.
4. Xoshimov O., Bozorova, X. Nutq madaniyati va notiqlik. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.

Laziz GAFFAROV,

Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

KASBIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish jarayonini takomillashtirish masalasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ta'lim sifati monitoringini raqamlashtirish, kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini joriy etish, o'qituvchilar malakasini oshirish, ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyani kuchaytirish va ichki audit mexanizmlarini modernizatsiya qilish kabi yo'nalishlar orqali boshqaruv jarayonini takomillashtirishning ilmiy asoslangan strategiyalari ishlab chiqiladi. Olingan natijalar kasbiy ta'lim tizimida sifat boshqaruvining hozirgi holati va istiqbolda uni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, ta'lim sifati, sifatni boshqarish, raqamli monitoring, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, ichki audit, innovatsion boshqaruv, mehnat bozori talablari.

Annotation. This article analyzes the issue of improving the process of managing the quality of education in professional educational institutions on a scientific basis. Strategies for improving the management process are being developed through such areas as digitalizing education quality monitoring, implementing a competency-based assessment system, improving teachers' qualifications, strengthening integration with production enterprises, and modernizing internal audit mechanisms. The obtained results will help determine the current state of quality management in the vocational education system and the possibilities of its development in the future.

Keywords: vocational education, education quality, quality management, digital monitoring, competency-based approach, internal audit, innovative management, labor market requirements.

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируется вопрос совершенствования процесса управления качеством образования в профессиональных образовательных учреждениях. Разрабатываются стратегии совершенствования процесса управления посредством таких направлений, как цифровизация мониторинга качества образования, внедрение системы оценки, основанной на определённых компетенциях, повышение квалификации преподавателей, усиление интеграции с производственными предприятиями и модернизация механизмов внутреннего аудита. Полученные результаты помогут определить текущее состояние управления качеством в системе профессионального образования и возможности его развития в будущем.

Ключевые слова: профессиональное образование, качество образования, управление качеством, цифровой мониторинг, компетентностный подход, внутренний аудит, инновационное управление, требования рынка труда.

Kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish jarayonini takomillashtirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanish jarayonida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Mehnat bozorida raqobatning keskinlashuvi, texnologik taraqqiyotning tezlashuvi, ishlab chiqarish korxonalarining malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi kasbiy ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablarga yangicha yondashuvni talab qiladi. Ta'lim sifati faqatgina o'quv jarayonining samaradorligidan iborat emas, balki unga o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarni qanchalik puxta egallashi, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorligi, raqamli, texnik va ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanish darajasi, o'quv muassasasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning malakasi, boshqaruv jarayonining shaffofligi va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan bo'lishi ham kiradi. Shu sababli kasbiy ta'lim muassasalarida sifatni boshqarishning yangicha modelini yaratish zaruriyati kun tartibidagi eng muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri sifatida ko'rilmogda. Mavzuning dolzarbligi shuningdek ta'lim tizimining keyingi yillarda tubdan

modernizatsiya qilinishi, me'yoriy-huquqiy asoslarning yangilanib borishi, xalqaro tajribalarni keng joriy etish jarayonining faollashuvi bilan ham izohlanadi.

Ta'lim sifatini boshqarishning mavjud holatini tahlil qilganda bir qator tizimli muammolarni ko'rish mumkin. Bular qatoriga o'quv jarayonini monitoring qilish mexanizmlarining yetarlicha raqamlashtirilmaganligi, baholash mezonlari va indikatorlarining amalda birxillashtirilmaganligi, mehnat bozori talablari bilan o'quv dasturlari o'rtasida uzviy bog'liqlikning yetishmasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyalaridagi farqlar, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikning barqaror emasligi va ichki audit jarayonlarining tizimli yo'lga qo'yilmaganligi kiradi. Bu holat kasbiy ta'lim muassasalarining boshqaruv modelini qayta ko'rib chiqishni, sifatni oshirishga qaratilgan mexanizmlarni modernizatsiya qilishni, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etadi. Mavzuning ilmiy asoslari shundan iboratki, ta'lim sifati boshqaruvi nafaqat tashkiliy jarayon, balki murakkab tizimli yondashuvni talab qiladigan ilmiy-metodik faoliyat turidir. Raqamli ta'lim

muhitining shakllanishi, sun'iy intellekt yordamida monitoring qilish imkoniyatlarining kengayishi, kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlarini yaratish jarayoni yeni sifat boshqaruvi konsepsiyasini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ushbu tadqiqotning maqsadi kasbiy ta'lim muassasalarida sifatni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish, istiqbollarni aniqlash va ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar o'rganilayotgan jarayonning ilmiy asoslanganligini ta'minlashga qaratilgan. Tizimli tahlil yondashuvi orqali kasbiy ta'lim muassasalaridagi barcha boshqaruv bo'g'inlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Xalqaro tajriba bilan solishtirish orqali ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan mexanizmlar o'rganildi. Diagnostik tahlil yordamida real vaziyat aniqlanib, mavjud muammolar, imkoniyatlar, kuchli va zaif jihatlar aniqlab borildi. Ekspertlar fikri asosida amaliyotchi pedagoglar, ishlab chiqarish korxonalari rahbarlari, malaka oshirish markazlari mutaxassislari bilan suhbatlar o'tkazilib, sifatni oshirishga qaratilgan real ehtiyojlar aniqlab olindi. Loyihaalash yondashuvi asosida takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi, unda boshqaruv jarayonining raqamli transformatsiyasini kuchaytirish, sifat monitoringi tizimini avtomatlashtirish, o'qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash kabi yo'nalishlar asos qilib olindi. Tadqiqot davomida kuzatish, so'rovnoma, tahliliy ma'lumotlarni qayta ishlash, kontent tahlil kabi metodlar ham qo'llanildi.

Olingan natijalar kasbiy ta'lim muassasalarida sifatni boshqarishning hozirgi holati qator yo'nalishlarda takomillashtirishni talab etishini ko'rsatadi. Raqamli boshqaruv vositalari yetarli darajada joriy qilinmaganligi sababli o'quv jarayoni monitoring qilish, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash, ta'lim sifati indikatorlarini avtomatik kuzatib borish jarayonlari ko'pincha qo'lda boshqariladi. Bu esa samaradorlikni sekinlashtiradi. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalaridagi farqlar ularning zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llash imkoniyatini cheklaydi. O'quv dasturlarining mehnat bozori talablariga moslashuvi sekin kechgani uchun bitiruvchilar amaliy ko'nikmalar bo'yicha yetarlicha tayyor bo'lmaydi. Ichki audit mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi sifatni baholashda subyektivlikni kuchaytiradi. Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikning ba'zi hududlarda sustligi kasbiy kompetensiyalarni real amaliyot bilan mustahkamlashni cheklaydi.

Tadqiqot natijalari asosida bir qator takomillashtirish strategiyalari ishlab chiqildi. Raqamli boshqaruv platformalarini joriy qilish ta'lim sifatini boshqarishda yangi bosqichni boshlab beradi. Raqamli monitoring tizimlari o'quv jarayonini real vaqt rejimida kuzatish, o'quvchilarning muvaffaqiyat dinamikasini aniqlash, sifat ko'rsatkichlarini avtomatik tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Bu tizimlar sun'iy intellekt asosida ishlashi mumkin bo'lib, ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni avtomatik aniqlash, individual o'quv yo'llarini taklif qilish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini yaratish mehnat

bozori bilan o'quv muassasalari o'rtasidagi moslikni ta'minlaydi. Bunda baholash jarayonida o'quvchining faqat bilimlari emas, balki real amaliy ko'nikmalari, muammolarni hal qilish qobiliyati, raqamli savodxonligi, jamoa bilan ishlash qobiliyati ham hisobga olinadi.

O'qituvchilar malakasini oshirish strategiyasi sifatni boshqarishning eng muhim tarkibiy qismi sifatida karaladi. Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatish, innovatsion metodikalarni amaliyotga joriy etish o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni mustahkamlash kasbiy ta'lim jarayonining amaliy samaradorligini oshiradi. O'quvchilar korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tashi, ish jarayonini real sharoitda kuzatishi, ishlab chiqarish madaniyatini o'rganishi sifatli mutaxassis tayyorlashga xizmat qiladi. Ichki audit tizimini takomillashtirish sifatni muntazam nazorat qilish va tahlil qilish orqali jarayonlarning shaffofligini oshiradi. Audit tizimi raqamli monitoring platformalari bilan integratsiyalashgan holda ishlasa, bu holat boshqaruvning aniq, tez va ishonchli bo'lishiga yordam beradi.

Natijalar muhokama qilinganda shuni ko'rish mumkinki, taklif etilgan strategiyalar mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, ular ilmiy asosga, amaliy ehtiyojga va xalqaro tajriba bilan uyg'unlikka ega. Raqamli transformatsiya jarayoni ta'lim sifatini boshqarishda asosiy drayverga aylanib bormoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim monitoringida qo'llanilishi o'quv jarayonining aniq va individual boshqaruvi ta'minlaydi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar malakasini muntazam ravishda oshirib borish sifatni boshqarishning asosiy elementi hisoblanadi. Shu bilan birga, taklif etilgan strategiyalarni amalga joriy qilishda ayrim cheklavlar mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi, ayrim hududlarda malakali pedagoglarning yetishmasligi, korxonalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishda tashkiliy to'siqlar mavjudligi kabi omillar jarayonni sekinlashtirishi mumkin. Biroq istiqbolda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanishi, pedagoglar tayyorlash tizimining modernizatsiya qilinishi va raqamli texnologiyalarning arzonlashuvi ushbu jarayonni tezlashtiradi.

Yakuniy xulosalar shundan iboratki, kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishni takomillashtirish raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini shakllantirish, pedagoglar malakasini oshirish, ishlab chiqarish bilan hamkorlikni mustahkamlash, ichki audit tizimini modernizatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshiradi, mehnat bozoriga yuqori malakali mutaxassislarni yetkazib berishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kasbiy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, sifat boshqaruvining barqaror modelini yaratish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi. Shu bois ishlab chiqilgan strategiyalarni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish kasbiy ta'lim tizimi rivojining istiqbolli yo'nalishi sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–158-sonli Farmoni.
2. Shevchuk E.V., Shpak A.V. Digital transformation of quality management of educational business processes // Journal of Informatization in Education, 2023, 20(2). – 159–175.
3. Gaffarov L.X. va boshq. Malaka oshirish ta'lim tizimida islohotlar: innovatsion g'oyalar // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya, 2021, №5. – B. 43–49.
4. Muslimov N.A. O'quvchilar mustaqil ta'lim jarayonida dasturiy didaktik majmuaning o'rne va ahamiyati // Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio', 2019. №6. – B. 48–52.
5. Anderson T., Dron J. Learning with Digital Platforms: A Framework for Educational Transformation. – London: Routledge, 2021.

Shaxnoza BERDIYOROVA,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ingliz tili o'qituvchisi

ZAMONAVIY O'QUV MUHITIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH OMMILLARI VA ULARNING TA'LIMGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'quv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlashning mazmuni, uni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari, hamkorlikda o'qitish metodlarining o'rnini yoritiladi. Talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, dalillar asosida xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlar amaliy misollar orqali asoslab beriladi. O'quv muhitidagi ijtimoiy-psixologik omillar va pedagogik jarayonning samaradorligiga ularning ta'siri ilmiy jihatdan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, mustaqil fikrlash, o'quv motivatsiyasi, hamkorlikda o'qitish, ijodkorlik, ta'lim sifati.

Annotation. This article analyzes the key factors influencing the development of critical thinking in the modern educational process. It highlights the essence of critical thinking and the role of innovative pedagogical technologies, digital learning tools, and collaborative learning methods in its formation. Effective methods aimed at developing students' independent thinking, problem analysis, and evidence-based decision-making skills are justified through practical examples. The impact of socio-psychological factors in the educational environment and their influence on the effectiveness of the pedagogical process are scientifically examined.

Keywords: modern education, innovative technologies, independent thinking, learning motivation, collaborative learning, creativity, quality of education.

Аннотация. В данной статье анализируются основные факторы, влияющие на развитие критического мышления в современном образовательном процессе. Освещается сущность критического мышления, а также роль инновационных педагогических технологий, цифровых образовательных средств и методов совместного обучения в его формировании. На основе практических примеров обоснованы эффективные методы развития у студентов навыков самостоятельного мышления, анализа проблемных ситуаций и принятия решений на основе доказательств. Научно исследовано влияние социально-психологических факторов образовательной среды на эффективность педагогического процесса.

Ключевые слова: современное образование, инновационные технологии, самостоятельное мышление, учебная мотивация, совместное обучение, креативность, качество образования.

Jahon miqyosida ta'lim tizimida kechayotgan tub islohotlar, raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga jadal kirib kelishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi zamonaviy o'quv muhitiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad – bilimlarni tayyor holda yetkazish emas, balki o'quvchi va talabalarni mustaqil fikrlaydigan, muammoni tahlil qila oladigan, dalillar asosida to'g'ri qaror qabul qila biladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish barcha bosqichdagi ta'lim jarayonining ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Tanqidiy fikrlash nafaqat mantiqiy mushohada yuritish, balki ma'lumotlarni solishtirish, baholash, asosli xulosa chiqarish, turli g'oyalarni orasida eng maqbulini tanlab olish jarayonidir. Ushbu ko'nikma zamonaviy yosh avlodning hayotiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish va kelajak kasbiy faoliyatida samarali bo'lishining muhim omillaridan biridir. Xususan, global axborot oqimi hukmron bo'lgan davrda har bir shaxs ma'lumotni tanqidiy tahlil qilish, feyk (soxta) axborotlarni ajratish, mustahkam dalillarga tayangan holda qaror qabul qilishga o'rganishi talab etiladi [1: 67].

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion va interfaol metodlarning joriy etilishi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Hamkorlikda o'qitish, loyiha asosida ta'lim, raqamli resurslar va virtual ta'lim muhiti o'quvchilarda mustaqil izlanish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o'z fikrini asoslab berish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda [2: 92]. Shu bilan birga, o'qituvchi shaxsining pedagogik mahorati, ta'lim muassasalaridagi psixologik muhit ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammosi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash – shaxsning mavjud ma'lumot va g'oyalarni tahlil qilish, ularni baholash, dalillarga asoslangan holda xulosa chiqarish hamda muqobil fikrlarni solishtira olish qobiliyatidir. Bugungi

globalashuv jarayonida axborotning keskin ko'payishi o'quvchilardan mustaqil fikrlay olish, haqiqatni aniqlash, soxta ma'lumotlarni ajrata bilish kabi ko'nikmalarni talab qilmoqda. Shu sababli ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tamoyillari yetakchi vazifa sifatida qaralmoqda.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishning nazariy asoslarini D.Dyui, R.Pol, B.Bloom, E.de Bono kabi olimlar ilmiy asoslab bergan bo'lib, ular tafakkur jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishini e'tirof etishgan. O'zbekistonlik olimlar – R.Mavlonova, M.Tolipov, N.Sayidahmedov, J.Hasanboeva va boshqalar ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, muammoli vaziyatlardan foydalanish, mustaqil izlanishni rag'batlantirish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar [4: 39].

Bugungi raqamli ta'lim muhiti tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn platformalar, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari o'quvchilarni bilimni mustaqil o'zlashtirishga undaydi. Biroq raqamli makonda noto'g'ri axborotning ko'pligi, chalg'ituvchi omillar tanqidiy fikrlashning sustlashuviga ham olib kelishi mumkin. Shu bois media savodxonlik va axborot madaniyati ta'limning ajralmas jihatiga aylanishi zarur. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash asosan interaktiv metodlar orqali rivojlantiriladi. Masalan, bahs-munozara, "aqliy hujum", rolli o'yinlar, keys-stadi, loyiha asosida o'qitish, refleksiv yondashuv o'quvchilarni faol fikr bildirishga, savol berishga, muammoli vaziyatga yechim taklif qilishga yo'naltiradi. Bu jarayonda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, fasilitator va motivator rolini bajaradi. Shuningdek, hamkorlikda o'rganish metodlari o'quvchilarni guruhda fikrlash, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish, qaror qabul qilishga o'rgatadi. Ijtimoiy-psixologik omillar ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim muhitida o'quvchi erkin fikr bildirish olishi, uning tashabbusi qo'llab-quvvatlanishi, xatoga yo'l qo'yish tabiiy jarayon sifatida qabul qilinishi lozim. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi

hurmat, ishonch va ochiq muloqot tanqidiy fikrlashning qay darajada rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning eng muhim vositalaridan biridir. Bu nafaqat bilimni chuqur o'zlashtirishga, balki o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini mustahkamlashga, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga xizmat qiladi. Natijada, zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos, ijodkor, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar shakllanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muhitining imkoniyatlari va pedagogik yondashuvlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda ayniqsa o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan metodlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida mavjud ilmiy manbalar, amaliy tajribalar hamda pedagogik kuzatuvlar asosida tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi omillar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha baholandi. **Birinchidan**, innovatsion ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarda tahliliy yondashuvni kuchaytiradi. Keys-stadi, bahs-munozara, loyiha ishlari, ijodiy topshiriqlar kabi metodlar qo'llanilganda, o'quvchi o'rgangan bilimni amaliy vaziyatlarda qo'llashga harakat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, dalillarni solishtirish, muqobil yechimlarni topish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, aynan interfaol mashg'ulotlarda o'quvchilarning fikr bildirish faolligi 2–3 baravar ortadi. **Ikkinchidan**, raqamli ta'lim muhiti tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda katta salohiyatga ega. Onlayn testlar, virtual platformalar, elektron resurslar o'quv materialining vizual va interaktiv taqdim etilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, internetdagi ma'lumotlarning ko'pligi o'quvchi oldiga tanlab olish, baholash va ishonchli manbani ajratish vazifasini qo'yadi. Bu jarayon tabiiy ravishda tanqidiy fikrlash mexanizmlarini faollashtiradi. **Uchinchidan**, ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirining tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quv muhiti qanchalik ochiq va qo'llab-quvvatlovchi bo'lsa,

o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining ta'lim jarayonidagi roli o'zgarib bormoqda: u endi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi va muloqot tashkilotchisi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'quvchilarning fikriga hurmat bilan yondashilganda, ular erkin ravishda savol berish va o'z pozitsiyasini himoya qilishga intiladilar [4: 31]. **To'rtinchidan**, baholash tizimining zamonaviy talablarga moslashuvi ham muhim omil hisoblanadi. An'anaviy baholash faqat tayyor bilimni o'zlashtirish darajasini o'lchaydi. Holbuki, tanqidiy fikrlashni baholash uchun refleksiya, portfolio, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan diagnostika kabi metodlar samaralidir. Eksperimental kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, jarayonli baholash o'quvchilarda fikrlash strategiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan nazariy tahlil va amaliy kuzatuvlar zamonaviy o'quv muhitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim jarayonining eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tanqidiy fikrlash shaxsning mustaqil ravishda fikr yuritish, axborotni baholash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, muammolarga yechim izlash va mas'uliyatli qaror qabul qilish kabi hayotiy hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar, hamkorlikda o'qitish, muammoli vaziyatlar asosida tanqidiy metodlar va raqamli ta'lim muhiti tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali omillar ekanligini isbotladi. Shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati, ochiq va qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhit yaratilishi, o'quvchilar fikriga hurmat bilan yondashish kabi ijtimoiy omillar ham bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida baholash tizimini takomillashtirish, refleksiya va portfolio asoslangan yondashuvlarni joriy etish o'quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi. O'z navbatida, media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish raqamli axborot oqimida to'g'ri yo'nalish tanlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., Xoliqberdiyev K., To'rayeva O. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 356 b.
2. Tolipov O.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019. – 284 b.
3. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman Publication, 2018. – 222 p.
4. De Bono E. Critical Thinking and Creativity in Learning. – London: Penguin Books, 2021. – 198 p.
5. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 2019. – 174 p.

Abdusalim KENJABOYEV,

Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti pedagogika va ijtimoiy ish kafedrası professor v.b.

KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDA SIFATLI TA'LIMNING ROLI VA DAVLAT SIYOSATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kambag'allikni kamaytirishda sifatli ta'limning o'рни va davlat siyosatining bu jarayondagi ta'siri tahlil qilingan. Ta'lim orqali iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, avlodlar avlodga o'tuvchi kambag'allik siklini buzish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari – stipendiyalar va grantlar tizimi, kasb-hunar va malaka oshirish kurslari, raqamli ta'lim platformalarini joriy etish, ta'lim sifati monitoringi hamda ta'limning ijtimoiy himoya tizimi bilan integratsiyasi – orqali kambag'allikni qisqartirish mexanizmlarining samaradorligi yoritilgan. Ushbu chora-tadbirlarning ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlarning mehnat bozoriga moslashuvini kuchaytirish va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashdagi amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, sifatli ta'lim, davlat siyosati, ijtimoiy himoya, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy imkoniyatlar, raqamli ta'lim, strategik chora-tadbirlar.

Annotation.

Keywords: poverty, quality education, state policy, social protection, social stability, economic opportunities, digital education, strategic measures.

Аннотация. В данной статье анализируется роль качественного образования в сокращении бедности и влияние государственной политики в этом процессе. Рассматривается важность расширения экономических возможностей через образование, преодоления

цикла бедности, передаваемого из поколения в поколение, и укрепления социальной стабильности. Также освещена эффективность механизмов сокращения бедности посредством государственных программ, реализуемых в Республике Узбекистан - системы стипендий и грантов, профессиональных и повышающих квалификацию курсов, внедрения цифровых образовательных платформ, мониторинга качества образования и интеграции образования с системой социальной защиты. Обоснована практическая значимость этих мер в расширении доступа к образованию, усилении адаптации молодежи к рынку труда и обеспечении экономической независимости.

Ключевые слова: бедность, качественное образование, государственная политика, социальная защита, социальная стабильность, экономические возможности, цифровое образование, стратегические меры.

Kambag'allik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy muammo sifatida global e'tiborni tortadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sifatli ta'lim kambag'allikni kamaytirishda eng samarali vositalardan biridir. Ta'lim tizimi shaxsiy daromad va kasbiy malakani oshirish orqali oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi, kambag'allik siklini buzadi va jamiyatda teng imkoniyatlar yaratadi. Shu nuqtai nazardan, davlat siyosati kambag'allikni kamaytirishda ta'limni asosiy strategik vosita sifatida qabul qiladi.

O'zbekiston sharoitida so'nggi yillarda ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsion metodlarni joriy etish, kasb-hunar va malaka oshirish kurslarini kengaytirish orqali kambag'allikni kamaytirish bo'yicha bir qator strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sifatli ta'lim kambag'allikni kamaytirishda bir nechta muhim yo'nalishlarda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi:

Ta'lim orqali iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish. Sifatli ta'lim olgan shaxslar yuqori malaka va kompetensiyaga ega bo'lib, ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi va daromadlarini sezilarli darajada oshiradi. Natijada, kam ta'minlangan oilalarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi mavqei yaxshilanadi. Ushbu mexanizm kambag'allikni qisqartirish va jamiyatdagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Kambag'allik siklini buzish. Ota-onaning sifatli ta'lim olganligi farzandlarining ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va ularni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror hayotga tayyorlaydi. Shu tarzda, ta'lim avlodlar avlodga uzluksiz ravishda o'tadigan kambag'allik siklini samarali tarzda buzadi. Bu esa uzoq muddatli ijtimoiy rivojlanish va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy barqarorlik va himoyani kuchaytirish. Sifatli ta'lim shaxsga o'z huquqlarini anglash, jamiyatdagi ijtimoiy dasturlardan samarali foydalanish va iqtisodiy mustaqil bo'lish imkonini beradi. Shu tariqa, ta'lim ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshiradi va shaxsni jamiyatdagi faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va kambag'allikni kamaytirishning integratsiyalashgan strategiyasini ta'minlaydi.

Davlat siyosati va strategik chora-tadbirlar. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni kamaytirish va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha tizimli davlat siyosatini amalga oshirmoqda. Ushbu siyosat bir qator strategik chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi, ular nafaqat ta'limga kirishni kengaytirishga, balki ijtimoiy himoyani kuchaytirishga ham qaratilgan. Birinchidan, **moliyaviy qo'llab-quvvatlash** tizimi joriy etilgan bo'lib, kam ta'minlangan o'quvchilar uchun stipendiyalar va grantlar ajratiladi. Bu chora o'quvchilarning ta'limga kirishini ta'minlash bilan birga, ularning oilaviy iqtisodiy yukini kamaytiradi va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Ikkinchidan, **kasb-hunar va malaka**

oshirish kurslari orqali yoshlarning ishga joylashish imkoniyati va daromad olish salohiyati oshiriladi. Ushbu dasturlar ta'lim olgan shaxslarni bozor talablariga mos kasbiy kompetensiyalar bilan ta'minlaydi, shuningdek, ularni iqtisodiy mustaqil qiladi va kambag'allik siklini buzishga xizmat qiladi. Uchinchidan, **raqamli ta'lim platformalari** joriy etilishi natijasida o'quvchilar masofaviy o'qish orqali ta'limga teng kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ayniqsa chekka hududlarda yashovchi va kam ta'minlangan oilalarning farzandlari uchun muhimdir, chunki ular uchun an'anaviy ta'limga kirish cheklangan bo'lishi mumkin. To'rtinchidan, **ta'lim sifati monitoringi** tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu orqali o'qituvchilarning malakasi oshiriladi va ta'lim jarayonining samaradorligi nazorat qilinadi. Natijada o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi oshadi va ta'lim sifati barqarorlikka erishadi. Beshinchidan, **ijtimoiy himoya tizimi bilan integratsiya** amalga oshiriladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam dasturlari birlashtirilgan holda ishlaydi, bu esa o'quvchilar va ularning oilalariga kompleks qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi.

Ushbu strategik chora-tadbirlar umumiy holda kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va yoshlarni iqtisodiy mustaqil qilishning muhim asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, davlat siyosati ta'lim tizimi orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va kambag'allikni kamaytirish maqsadiga erishishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sifatli ta'lim olgan shaxslar kambag'allikdan chiqish imkoniyati yuqori bo'ladi. Raqamli va interaktiv ta'lim resurslari kam ta'minlangan oilalarga o'z imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, davlat siyosati va ijtimoiy himoya dasturlarini integratsiya qilish ta'limning samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi. Ta'lim orqali erishilgan ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy mustaqillik kambag'allikni qisqartirishda eng ishonchli vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois sifatli ta'lim va davlat siyosati bir-birini to'ldiruvchi vositalar sifatida qaratiladi.

Sifatli ta'lim kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy himoyani mustahkamlashning eng muhim strategik vositasi sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'limga bo'lgan investitsiya nafaqat shaxsiy bilim va malaka darajasini oshiradi, balki oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, kambag'allik siklini buzish va farzandlarning ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat siyosati sifatli ta'lim tizimini rivojlantirishga, raqamli ta'lim resurslarini joriy etishga, o'qituvchilarning malakasini oshirishga va kam ta'minlangan o'quvchilar uchun qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirishga qaratilgan. Shu orqali o'quvchilarning kasbiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengayadi, ularning ishga joylashish va daromad olish salohiyati ortadi, natijada kambag'allik darajasi sezilarli darajada kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tuykulov A. Davlat strategiyalarining kambag'allikni qisqartirishga ta'siri // Science and Education, 2025, 6(4). B. 341–347.
2. Jumanova R.F. Aholi turmush darajasi: ko'rsatkichlari va uni oshirish yo'llari: Iqt. fan. nomz. olish uchun diss. avtoref... – Toshkent, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020-yil 25-yanvar.
4. Xudoyberdiyev J. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy holatlarini baholash – davlat siyosati darajasida // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlit 2024. 2-jild, №3. – B. 176–186.

Saodat YULDOSHEVA,

Samarqand davlat pedagogika institute o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

MUMTOZ ASARLARNI O'RGANISH VA O'QITISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada ta'lim bosqichlarida mumtoz adabiy asarlarni o'qitish jarayonida uchraydigan metodik, mazmuniy va amaliy muammolar tahlil qilinadi. Adabiyotshunos olimlar bildirgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarni keltirish orqali o'quv dasturlari, darsliklar hamda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq masalalar yoritiladi. Shuningdek, mumtoz matnlarni o'rgatish orqali o'quvchilar shaxsida milliy o'zlikni shakllantirishning dolzarbligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: o'quv dasturi, lirik va epik matnlar, ilmiy-nazariy qarashlar, o'rganish va o'qitish masalalari, o'quv va metodik qo'llanmalar.

Annotation. The article analyzes methodological, substantive, and practical problems that arise in the process of teaching classical literary works at the stages of learning. Through the citation of scientific and methodological recommendations expressed by literary scholars, issues related to curricula, textbooks, and teacher professional training are illuminated. The relevance of forming national identity in students through teaching classical texts is also emphasized.

Keywords: curriculum, lyrical and epic texts, scientific and theoretical views, issues of teaching and learning, educational and methodological manuals.

Аннотация. В статье анализируются методические, содержательные и практические проблемы, возникающие в процессе преподавания классических литературных произведений на этапах обучения. Путем приведения научно-методических рекомендаций, высказанных литературоведами, освещаются вопросы, связанные с учебными программами, учебниками и профессиональной подготовкой учителей. Также подчеркивается актуальность формирования национальной идентичности у учащихся посредством обучения классическим текстам.

Ключевые слова: учебная программа, лирические и эпические тексты, научно-теоретические взгляды, вопросы обучения и преподавания, учебные и методические пособия.

Keyingi o'n yillikda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini, mavjud tartibotlarini, me'yoriy asoslarini qayta ko'rib chiqish va isloh qilish borasida samarali ishlar qilindi. Jumladan, ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etishning negizi bo'lmish "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun mazmun-mundarijasining yangilanishi, ta'lim bosqichlari uzluksizligi va uzviyligini ta'minlovchi Milliy o'quv dasturlarning ishlab chiqilishi, ta'lim oluvchilarning bilim – ko'nikma – malaka – kompetensiya talablarining takomillashishi, hozirgi zamon ta'lim oluvchisining talab-ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv dasturi, darslik va qo'llanmalari mazmun-mundarijasining modernizatsiya qilinishi, ta'lim-tarbiya berish metodolo-giyasida yondashuvning o'zgarishi kabi barcha faoliyatlarda qator ishlar amalga oshirilayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qoshida tashkil etilgan **Prezident ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar hamda** umumta'lim maktablari uchun o'quv dasturlari ishlab chiqildi, o'quv darsliklari va ular uchun multimedia resurslari yaratilmoqda, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun o'quv ishchi daftarlari ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi maktab ta'limi sifat-samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning bilim saviyasi va axloqiy tarbiyasini oshirishga qaratilgan amaliy harakatlardir. Yuqorida qayd etib o'tilgan maktablarga o'quvchilarning ma'lum fanlardan bilim, ko'nikma, malakalarining ustunligi va iqtidoriga qarab saralanib, qiziqishlari va salohiyatiga qarab yo'naltirilishida o'z-o'zidan o'quvchilar qatlami tabaqalanishi kuzatiladi. Umumta'lim maktablarining o'quv dasturi va darsliklari mazmun-mundariyasi **prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablarning o'quv dasturi va darsliklaridan farqli ravishda barcha o'quvchilarning umumiy o'zlashtirishi va bilishi zarur bo'lgan fundamental bilimlar zaxirasini qamrab oladi. Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablarda esa belgilangan fan va ixtisoslikka doir bilimlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitish maqsad qilib olingan.** Har bir yo'nalishdagi maktabda ham o'zbek adabiyoti fani bo'yicha dasturda rejalashtirilgan mavzular o'qitiladi, o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishi, kitobxonlik ko'nikmalari shakllantiriladi.

Ma'lumki, har bir davrda o'quvchi (talaba)ning ma'naviy, axloqiy va estetik dunyoqarashini shakllantirishda adabiy ta'lim muhim o'rin tutib kelgan. Bugungi global va tezkor

o'zgarishlar sodir bo'layotgan zamonda yangilanib borayotgan iste'molchi – o'quvchilarning qiziqishlar doirasi kengayib, zamonaviy "trend matn"larga e'tibori kuchayib bormoqda. Ya'ni ularning ehtiyoj va intilishlari bir xillashib jadal tus olib bormoqda. "Shunday sharoitda har bir millat ahlining ijtimoiylashgan va dunyo bilan integratsiyalashgan holda o'z qiyofasini saqlab qolishiga erishish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyot tabiatiga ko'ra o'zida millatning etnik-estetik xotirasini, ma'naviy-axloqiy o'zligini saqlaydi. Shu bois jamiyat ma'naviyatining yuksalishida badiiy adabiyotning ulkan o'rni bor. O'zligini tanigan, o'zining milliy qiyofasini tashkil etgan aqliy, axloqiy, ruhoniy belgilardan xabardor shaxs tashqi ta'sirlar natijasida qiyofasini yo'qotib qo'ymaydi. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida adabiyot o'qitish shaxsdagi milliy o'zlikni saqlab qolishga qaratilishi kerak bo'ladi" [2: 3]. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning mumtoz adabiy asarlarni o'rganishga diqqatini oshirish dolzarbligni kasb etadi. Ajdodlar adabiy merosini o'rganish orqali ularda o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayoti haqidagi tasavvuri shakllantiriladi, tili va adabiyoti to'g'risida bilimi orttirilib boriladi.

Hech kimga sir emaski, bugungi kun o'quvchisining (ayrim hollarda o'qituvchining ham) mumtoz asarlarni o'qishga ishtiyoqi past. Asliy matnlarni o'qish va lug'at bilan ishlashdan ko'ra matn tabdili, mazmunini yoki biror tadqiqotchining ushbu matn haqidagi maqolasini o'qib qo'yishni afzal biladilar. Bu borada qator adabiyotshunos olimlar, tadqiqotchi va metodistlar ham uyg'un fikr bildirishlar. Jumladan, Q.Husanboyeva hamda R.Niyozmetovalar "Adabiyot o'qitish metodikasi" darsligida: "Mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishdagi murakkablik-larning ichki va tashqi omillari mavjud. Ichki omillarga mumtoz adabiyotning shakli, mazmuni va tabiatiga mavjud bo'lgan xususiyatlar kiradi. Tashqi omillarga esa qarash, munosabat va yondashuvlarning turlichaligidan iboratdir" [10: 75] deb qayd etadilar. Mualliflar mumtoz adabiyotni o'qitishdagi murakkabliklarga lug'aviy hamda matniy ma'noni aniqlashdagi til bilan, gap qurilishi bilan, tasavvufiy ramzlarni anglash bilan bog'liq qator qiyinchiliklarni sanab o'tadilar. O'rta maktabdan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan bosqichlarda so'fyo'na asarlarning o'ta jo'n o'qitilayotgani, ta'lim beruvchilarning o'zlarining bu ta'limotni yaxshi tushunmasliklari tufayli, o'qitishda

muammolarga duch kelinayotganligini aytib o'tadilar. Hamda ushbu muammoni bartaraf etish uchun ilmiy-uslubiy tavsiyalarni keltirib o'tadilar.

Q.Yo'ldoshev va M.Yo'ldoshevalar adabiyot saboqlarining deyarli barcha bosqichlarida har qanday matnni tushunilishi uchun sharhli o'qishning ahamiyatini ta'kidlaydilar: "Sharhli o'qishning zaruriyati zamonaviy o'quvchi bilan adabiyot sabog'ida o'rganilayotgan asar o'rtasidagi zamoniy oraliq hamda adabiy jarayonning tarixiy-estetik xususiyatlari tufayli yuzaga keladi. Bu zamoniy oraliqni butunlay yo'qotish yoki imkon qadar qisqartirish sharhli o'qishning ta'lim usuli sifatidagi vazifasi hisoblanadi. Agar adabiyot o'qitish kechimi va adabiyot o'qituvchisi faoliyatidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilar tomonidan badiiy asarning idrok etilishi sifatini oshirish bo'lsa, sharhli o'qish, birinchidan, o'quvchi uchun "begona" bo'lgan badiiy matnni uning "o'ziniki"ga aylantirishga xizmat qiladi, ikkinchidan, o'quvchilarni asarning ta'sir doirasi bo'lmish estetik zaryadlar maydoniga olib kiradi" [2: 151]. Sharhli o'qishning u yoki bu turini tanlash esa o'qituvchining har bir konkret o'quv vaziyatiga hamda o'zi va o'quvchilari oldiga qo'ygan maqsadlariga bo'liq bo'lishini qayd etadilar. Bu jarayonda o'qituvchining adabiy matnlarni o'qitishda turli o'qish usullarini uyg'unlashgan holda qo'llashlarini aytib o'tadilar.

Maktabda mumtoz adabiyotning o'qitilish holatiga nisbatan taqqiqotchi V.Qodirov alohida to'xtalib, ahvolning qoniqarsiz ikki: obyektiv va subyektiv sabablarini qayd etadi [9: 14]. Ya'ni obyektiv sabab – ta'lim mazmuniga doir hujjatlar (DTS, dastur, darslik, qo'llanmalar)dagi ayrim mazmuniy tafsilotlar, sifatiy ko'rsatkichlardagi hamda subyektiv sabab – o'qitishdagi nomukammalliklar, aniqrog'i, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi pastligiga diqqat qaratib, o'z mulohazalarini keltirib o'tadi. V.Qodirov o'z tadqiqotida 1991–2017-yillarda umum-ta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan adabiyot fani standarti va dasturlari, darsliklari mazmunini o'rganib, munosabat bildiradi [9: 15]. Jumladan, "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida e'lon qilingan adabiyot bo'yicha Davlat ta'lim standartiga [1: 16] e'tibor qaratib: "Standartda mumtoz adabiyotning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlari, matnni mustaqil o'qib tushunishga yo'llaydigan nazariy ma'lumotlar o'quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib berilishi alohida ko'rsatilmagan"ligi tufayli "ifodadagi o'zgachalik, tasvirdagi yangilik, badiiy mahorat masalasi ochiq qoladi" deb qayd etadi. Fikrining davomida "Adabiyot fanidan Davlat ta'lim standartida o'quvchini mumtoz matn bag'riga yetaklaydigan, matnga ma'no berishga o'rgatadigan nazariy ma'lumotlarning berilishi alohida belgilab qo'yilishi kerak. O'quvchilarga mumtoz matnni mustaqil o'zlashtirish ko'nikma va malakalarini shakllantiradigan ma'lumotlar tizimi ishlab chiqilib, dastur va darsliklarda aks ettirgan holda sinfma-sinf tadrijiy tarzda berib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi" [9: 17], degan xulosaga keladi. Taqqiqotchi sinflar kesimida "Adabiyot" darsliklariga ham to'xtalib, darslikka kiritilgan asar matni va tabdili, savol va topshiriqlar qismini ham tahlilga tortgan. Jumladan, 1997–2007-yillar oralig'ida chop etilgan 5–11-sinf darsliklariga kiritilgan mumtoz matnlar, ularga tuzilgan savol va topshiriqlarning mazmuni, soddamurakkabligi, sifati, hajmi yuzasidan ham mulohaza yuritgan.

Qayd etish joizki, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining pastligi mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishdagi oqsashlarning asosini tashkil qiladi. Adabiyot-shunos va metodist olim B.To'xliyev yozadi: "...badiiy asarni qanday tahlil qilish kerak? – degan savolga bir xildagi javobni berib bo'lmaydi. Bunga tahlilning maqsad va vazifalari, uni kim

tahlil qilayotgani va kim uchun tahlil qilayotgani, badiiy matnning yaratilgan davri, muallif maqsadi, janri, uslubi, shakli singari ko'plab omillar ta'sir o'tkazib turadi" [7: 3]. V.Qodirov ham shu fikrga uyg'un holda 2-subyektiv sabab sifatida "o'qituvchilarning ko'pi aynan shu omillarni yaxshi bilmaydilar. Adabiyot o'qitishdagi eng og'riqli nuqtalardan biri shudir" [8: 9], deb o'qituvchilarning o'z fanlari o'qitilishining o'ziga xos jihatlarni to'la anglab yetmasliklari bois mumtoz adabiyot o'qitilishidan kutilayotgan natija yuzaga chiqmay qolayotganligini ta'kidlab o'tadi.

"Navoiy asarlari tilini tushunish, uning tasvir san'atidagi betakror xosliklarni talab darajasida anglay olish nafaqat o'quvchi balki o'qituvchilar, ayniqsa yosh, tajribasiz pedagoglar uchun ham jiddiy muammo ekanligi hech kimga sir emas, – deb qayd etishadi Z.Mirzayeva va K.Jalilov, – Mazkur muammo, **birinchidan**, Navoiy so'z san'ati, tasvir vositalariga xos xususiyat, shoir ijodida badiiy san'atlarning qo'llanilish spetsifikasi, g'azallaridagi bir so'zning bir qancha ma'nolarda aks etganligi; **ikkinchidan**, Navoiy lirikasi aruz bilan bog'langanligi, aruz nazariyasi va poetikasi haqida faqat tor doiradagi mutaxassislargina yetarli bilimga ega bo'lib, maktab o'qituvchilarida bu masala qator qiyinchiliklar tug'dirayotganligi; **uchinchidan**, Navoiy asarlarida ko'plab forsiy va arabiy so'zlarning mavjudligi bilan izohlanadi" [12: 106]. Ko'rib turganimizdek, yuqorida qayd etilgan fikrlarning barchasida ta'lim bosqichlari kesimida mumtoz adabiy matnlarni o'qitishdagi muammolar deyarli bir xilligi ko'zga tashlanadi.

Педагогика идёт впереди техники, центральное место занимает ориентация на ученика, цифровые средства должны быть дополнением к уже существующим формам обучения. Навыки, необходимые совершеннолетним гражданам в цифровом мире, часто равноценны тем, которые требуют от них и сосуществование в нецифровом обществе. Для таких навыков нужно основательное образование, причём не только знание того, где что-либо стоит или с помощью какой программы можно что-либо выполнить. Студентам нужны прочные специальные знания для отбора и распределения всей информации, всех оценок и разъяснений, которые они постоянно получают по разным каналам.

Информационные технологии можно использовать для улучшения визуализации классического педагогического процесса, увеличения его методического разнообразия, что, безусловно, предоставит студентам широкие возможности для изучения нового материала [1, с. 73]. В настоящее время в обучении используется достаточное количество готовых материалов, таких как демонстрационные таблицы, учебные объекты, учебные видеофильмы. Если рассматривать информационные технологии с точки зрения коммуникаций, то это одна из приоритетных возможностей, которыми обеспечивает нас цифровизация. Социальные сети и мессенджеры позволяют нам легко и быстро обмениваться необходимыми файлами, проводить опросы, учитывать статистику просмотров, а также проводить аудио- и видеоконференции [2, с. 28]. Студенты могут использовать информационные технологии

для коммуникации с преподавательским составом. Онлайн-общение между студентами и педагогами – распространённая на сегодняшний момент цифровая форма коммуникативной активности. Компьютер становится востребованным элементом стремительно развивающейся коммуникационной среды.

Информационные технологии являются достаточно актуальными, когда студенты используют их для просмотра демонстрационного материала, сопровождающего классическую педагогическую деятельность, а также для создания собственного контента, отвечающего требованиям домашнего задания. Обучающиеся могут создавать собственные видео, аудиофайлы, тексты, изображения, фотографии, таблицы, схемы, графические композиции на компьютерах или мобильных устройствах. С использованием информационных ресурсов студенты разрабатывают разнообразные концептуальные карты, диаграммы, схемы, таблицы или графики [3, с. 203].

В данном случае информационные технологии являются инструментом активного мышления. Не всегда важен результат студенческой работы, гораздо большую значимость приобретает процесс самостоятельной работы, элементы разработки собственных информационных структур и активизации мышления, являясь востребованными к роли партнёра Информационные технологии не только поддерживают, но и активизируют мыслительные процессы студентов, повышают мотивационную готовность к учебе, заинтересованность дисциплиной. Ведущая цель цифровизации системы высшего образования – доступность и повсеместность распространения обучения. Таким образом, информационно-коммуникационные технологии позволяют использовать цифровые и дистанционные технологии в современном образовании. Методы, способствующие активному обучению, которые не всегда могут быть реализованы в условиях современной действительности в виде практики очного преподавания.

Литература

1. Карандеева А.М., Кварацхелия А.Г., Анохина Ж.А. Музей анатомии человека как средство профориентационной работы в высшей медицинской школе // Журнал анатомии и гистопатологии, 2013.
2. Маслов Н.В. и др. Проблема мотивации студентов к изучению анатомии на первом курсе медицинского вуза // Журнал анатомии и гистопатологии, 2017.
3. Кварацхелия А.Г., Карандеева А.М. Музей как средство профориентационной деятельности в высших учебных заведениях // Проблемы современной морфологии человека. Материалы Международной научно-практической конференции, посвященной 80-летию профессора Б.А.Никитюка, 2013.
4. Меретукова М.М. Преподавание русского языка как иностранного в условиях цифровизации образования // Актуальные проблемы педагогики и психологии, 2023, т. 4, №3.
5. Меретукова М.М., Хавдок А.Н. Особенности онлайн-обучения русскому языку как иностранному // Проектирование. Опыт. Результат. Воронеж, 2022, №1.

Hikmatilla ABDINABIYEV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR TARAQQIYOT GAROVIDIR

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlarida belgilangan ta'lim tizimini rivojlantirishga doir ustuvor vazifalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: islohot, malaka, uzluksiz ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, xususiy maktablar, xususiy oliy ta'lim muassasalari, konsepsiya, ta'lim grantlari taqsimoti.

Annotation. This article reveals the reforms carried out in recent years in the field of education of the Republic of Uzbekistan, the laws and regulations adopted, as well as the tasks defined for the further development of the education system and all forms of continuous education.

Keywords: reforms, qualifications, continuing education, general secondary education, private schools, private higher education institutions, concept, distribution of educational grants.

Аннотация. В данной статье раскрываются реформы, проведенные за последние годы в сфере образования Республики Узбекистан, принятые законы и подзаконные акты, а также задачи, определенные для дальнейшего развития системы образования и всех форм непрерывного образования.

Ключевые слова: реформы, квалификация, непрерывное образование, общее среднее образование, частные школы, частные высшие учебные заведения, концепция, распределение образовательных грантов.

Ta'lim – jamiyani rivojlantiruvchi eng muhim yo'nalish. Tarixdan ma'lumki, jahon ilm-fani yuksalishida davlatlar tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar muhim rol o'ynagan. "Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayondir" [2: 5]. Vatanimizda ta'lim sohasidagi islohotlar davlatimizning oqilona siyosati natijasidir. Ilm-fan sohasidagi o'zgarishlar yoshlarimizga jahon tajribasini o'rganish imkonini yaratish bilan birga, qonun va qonunosti hujjatlar orqali tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ta'limning huquqiy poydevorini tashkil etadi. Konstitutsiyada ta'limga oid normalar soni ortib, jamiyatdagi o'zgarishlarga mos ravishda ta'lim tizimining rivojlanishi belgilangan. 50-moddaga ko'ra, har bir kishi ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning turlari va shakllari hamda davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining rivojlanishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, bepul umumiy o'rta va boshlang'ich professional ta'limni kafolatlash ham davlat zimmasidagi vazifalardir. Ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tizimi orqali alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun shart-sharoitlar yaratiladi [1: 27].

Yuqorida keltirilganidek, barchaning ta'lim olish huquqini davlatimiz ta'lim tizimining barcha shakllariga o'z e'tiborini qaratgan holda, ularning rivojlanish jarayonlarini o'zining vazifasi sifatida olayotganligi ham ta'lim tizimimizning muhim jihati hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, davlat ta'lim standartlari asosida nodavlat sektorlarini ham rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratilishini belgilab qo'yilgan. Yillar davomida xususiy maktablar, xususiy oliy ta'lim muassasalarining faoliyati ham ortib bormoqda. Albatta, bularning barchasi yoshlarimizning bilimlarini yanada oshirishga qaratilgan. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya tizimining Konstitutsiyada aks etishi hamda davlat ularga g'amxo'rlik qilishi ham ta'lim tizimimizni o'ziga xos jihatlari hisoblanadi. Ta'lim bu taraqqiyot garovi hisoblanadi. Jamiyatning ertangi strategik kuchi bu yoshlar sanaladigan bo'lsa davlatimiz tomonidan ularning ta'lim olishi uchun tizimli islohotlar amalga oshirilib borilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimidagi islohotlar natijasi yoshlarni oliy ta'lim darajasi bilan qamrab olish jarayoni ham oshib bormoqda. 2025-yilda Oliy ta'limga qamrov 40,9 foizga yetishi belgilangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2024–2025 o'quv yili boshida 18–23 yoshdagi Respublika yoshlarining oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 47,7 % ni tashkil etgan, bu ko'rsatkich 2014 yil bilan solishtirilganda 40,9 foizga oshgan. Shu bilan birgalikda, talabalarning davlat hisobidan oliy ta'lim olishlari uchun ham davlat qabul kvotlarida davlat grant o'rirlarining oshirilib borayotganligi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan.

Ta'lim jarayonida xotin-qizlarning o'rini oshirish ularga keng imkoniyatlar yaratib berish jarayoni ham amalga oshirilib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-martda qabul qilgan "Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori ham muhim o'zgarishlardan bo'lgan. Qarorga ko'ra, ta'lim grant o'rirlari endi har o'quv yili yakunlangandan so'ng bakalavriat ta'lim

yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi), ta'lim tili va kurslar kesimida tabaqalashtirilgan tarzda alohida qayta taqsimlash jarayoni amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Endilikda faol tashabbuskor va 2 va undan yuqori bosqich talabalari kurs yakunlari bo'yicha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirgan talaba-yoshlarga to'liq ta'lim granti va to'liq bo'lmagan ta'lim grantlari asosida o'qishlarini davom ettirishga imkoniyat yaratib berildi. Bu ham ta'lim jarayonlarida yoshlarni yanada o'z ustiga ishlab intilishlariga turtki beradigan omillardan biri sanaladi.

Konstitutsiyamizda pedagoglarning huquqiy jihatdan huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularga shart-sharoit yaratish vazifasi ustuvor. 52-moddada O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, xalqning avlodni barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishiga g'amxo'rlik qiladi [1: 28]. Zero, jamiyat taraqqiyotini biz pedagog xodimlarsiz tasavvur eta olmaymiz. Pedagog xodimlarning huquqlarini ularning jamiyatdagi nufuzini oshirish ularga moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash jarayonlari ham amalga oshirilmoqda. Pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratildi, ularning ijtimoiy himoyasi ta'minlandi va 2024-yil 1-fevralda "O'zbekiston Respublikasining Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonun ta'lim mutaxassislarining huquqlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Unda pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ischanchlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'lishi belgilab qo'yilgan.

Ta'lim-tarbiya masalasi oila masalasining eng asosiy va zaruriy sharti ekanligi ta'kidlangan holda, oilada tarbiya va ta'lim jarayoni uyg'un holatda olib borilishini zarur ekanligini hisobga olgan holda, Konstitutsiyamizning 77-moddasi 1-qismida ham mustahkamlab qo'yildi. Ota-onalar va ularning o'rini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majbur degan konstitutsion normaning kiritilishi, shuningdek, oila institutida ota-ona o'z farzandining taqdiriga befarq bo'lmasligi, uning tarbiyalash bilan birgalikda ta'lim olish jarayonida ham mas'ul ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan [1: 39]. Jamiyatimizda oila instituti ham bu borada mas'ul ekanligi alohida e'tirof etilgan. Ta'lim jarayonlari davlatimiz tomonidan jahon standartlariga mos bilim va amaliy ko'nikmalar berish jarayoni sifatida amalga oshirilmoqda. Jamiyatimizdagi tub islohotlar normativ-huquqiy hujjatlarda ta'lim sohasining ustuvor vazifalari belgilab olingan.

"O'zbekiston – 2023" strategiyasida ham ta'limni jamiyatimizda yanada rivojlantirish, maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'limni tubdan isloh qilish masalalari muhim o'rin egallagan. Jumladan, maktab yoshiga yetmagan bolalarni Respublika hududida 100 % qayta tayyorlov guruhlariga qamrab olish va maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan isloh qilish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash belgilab olingan. O'lis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta maktab o'quvchilari uchun bepul avtobuslar yo'lga qo'yish, 700 ga yaqin

yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlariga har yili 500 ga yaqin xorijiy mutaxassislarni jalb etish, yangi avlod darsliklari asosida 1000 ta multimedia dasturlarini yaratish kabi ustuvor vazifalar bilan bir qatorda, ta'lim sektorida nodavlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarini sonini 1000 taga yetkazish va ulardagi o'quvchilar sonini uch baravarga oshirish belgilab olingan muhim masalalar hisoblanadi. Shuningdek, professional ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, 14 ta hududiy professional ta'lim markazlarini tashkil etish va boshqa bir qator muhim vazifalar belgilab olingan. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilmiy tadqiqot jarayonlarida yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash va ularga shart-sharoitlar yaratish jarayoni ham muhim masala sifatida belgilangan. Strategiya tom ma'noda olganda, aholi

talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim tizimimizning muhim jihatlari aks ettirgan hujjatlardan biri hisoblanadi.

2019-yilda qabul qilingan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish vazifalarini belgilaydi. Shu bilan birga, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 % dan oshirish va milliy universitetlarni xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarga chiqarish maqsad qilingan. Ta'lim bu jamiyatni rivojlantiruvchi, unga farovonlik baxsh etuvchi va kelajakka ishonchni oshiruvchi eng muhim vositadir. Shu sababli, davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish, yoshlarni ta'limga jalb qilish va ularni malakali kadr sifatida shakllantirish har bir milliy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonuni.
3. "O'zbekiston Respublikasining Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6786401>.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.
5. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. <https://lex.uz/en/docs/-6600413?ONDATE=26.03.2025>.

MARUF IRGASHEV,

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistri

O'QUVCHIGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY ASOSLAR

Annotatsiya. Maqolada o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari tahlil qilinagan. Yondashuvning besh tamoyili va til ta'limiga tatbiqi ko'rsatilgan. Akademik litseylarda bu yondashuvning afzalliklari va amaliy joriy etish yo'nalishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv, til ko'nikmalari, akademik litsey, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta'lim, faol o'qitish usullari.

Annotation. The article analyzes theoretical foundations of learner-centered approach to language skills development. Five key principles and their application in language education are demonstrated. Advantages of this approach and practical implementation directions in academic lyceums are presented.

Keywords: learner-centered approach, language skills, academic lyceum, communicative competence, autonomous learning, active learning methods.

Аннотация. В статье анализируются теоретические основы студентоориентированного подхода к развитию языковых навыков. Показаны пять основных принципов и их применение в языковом образовании. Представлены преимущества подхода и направления практической реализации в академических лицеях.

Ключевые слова: студентоориентированный подход, языковые навыки, академический лицей, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение, активные методы обучения.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'quvchining shaxsini rivojlantirish, uning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida tan olinmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o'qitishda o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash, uning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zaruriyati ta'kidlangan [1].

Akademik litseylarda ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning til ko'nikmalarini samarali rivojlantirish muammosi dolzarbligini saqlab qolmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, an'anaviy o'qituvchiga yo'naltirilgan metodlar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini to'liq rivojlantirishga imkon bermaydi [2: 45]. Shu munosabat bilan, o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvning nazariy asoslarini o'rganish va uni til ta'limiga tatbiq etish yo'llarini aniqlash zarur. Tadqiqotning maqsadi o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish va uni

akademik litseylarda til ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv konsepsiyasi Amerika olimi Maryellen Weimer tomonidan 2002 yilda ishlab chiqilgan va uning "Learner-Centered Teaching: Five Key Changes to Practice" asarida batafsil yoritilgan [3]. Weimer pedagogik jarayonda amalga oshirilishi kerak bo'lgan besh asosiy o'zgarishni taklif etdi: hokimiyat muvozanatini o'zgartirish, tarkib funksiyasini o'zgartirish, o'qituvchi rolini o'zgartirish, o'quvchining mas'uliyatini oshirish va baholash maqsadini o'zgartirish [3: 23]. Til ta'limi sohasida o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Brown "Principles of Language Learning and Teaching" asarida til o'rganishda o'quvchining faol ishtiroki va motivatsiyasi muhim omil ekanini ta'kidlaydi [4: 67]. Nunan esa "Learner-Centered English Language Education" kitobida bu yondashuvning til ta'limiga maxsus tatbiqini ko'rib chiqadi [5: 79]. O'zbek olimlari ham bu masalaga e'tibor qaratmoqdalar. J.Jalolov o'zining "Chet til o'qitish metodikasi" asarida

o'quvchi markazlashgan ta'limning afzalliklarini ta'kidlab, uni milliy ta'lim tizimiga joriy etish zarurligini ko'rsatadi [6: 89].

O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv – ta'lim jarayonida o'quvchini markazga qo'yuvchi, uning faol ishtirokini, mustaqilligini va mas'uliyatini ta'minlovchi pedagogik konsepsiyadir. Ushbu yondashuv quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Hokimiyat muvozanati o'zgaradi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi barcha qarorlarni mustaqil qabul qilsa, o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvda o'quvchilar o'quv jarayonini rejalashtirish va amalga oshirishda faol ishtirok etadilar. Til ta'limida bu o'quvchilarga mavzularni tanlash, vazifalarni shakllantirish va o'quv materiallarini aniqlashda ovoz berish orqali amalga oshiriladi [3: 35].

2. O'quv tarkibining funksiyasi o'zgaradi. Tarkib nafaqat o'zlashtirish uchun, balki o'rganishni o'rganish uchun ham vosita bo'lib xizmat qiladi. Til ta'limida bu ko'nikmalar qoidalarini oddiy eslab qolish emas, balki ularni haqiqiy muloqot vaziyatlarida qo'llash orqali o'zlashtirish deganidir [7: 112].

3. O'qituvchining roli o'zgaradi. O'qituvchi bilim manbai emas, balki fasilitator, yo'l boshchi va maslahatchi bo'lib qoladi. Til darslarida o'qituvchi o'quvchilarga mustaqil ishlash, xatolardan xulosa chiqarish va til ko'nikmalarini takomillashtirish uchun sharoit yaratadi [4: 134].

4. O'rganish uchun mas'uliyat o'quvchiga o'tadi. O'quvchilar o'z ta'limini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashda faol ishtirok etadilar. Bu til o'rganishda o'z-o'zini baholash, refleksiya va individual o'quv rejalari orqali amalga oshiriladi [5: 78].

5. Baholash maqsadi o'zgaradi. Baholash faqat natijalarni o'lchash emas, balki o'rganish jarayonini yaxshilash vositasiga aylanadi. Formativ baholash, portfolio usuli va hamkorlikda baholash keng qo'llaniladi [8: 156].

O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvning til ta'limiga tatbiqi bir qator afzalliklarni beradi. Birinchidan, o'quvchilarning motivatsiyasi oshadi. O'quvchilar o'z ta'lim jarayonida faol ishtirok etganda, ular o'rganishga ko'proq qiziqish bildiradilar va natijalar yaxshilanadi [9: 234]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvda o'quvchilarning intrinsik motivatsiyasi 40–45 foizga ortadi [10: 78]. Ikkinchidan, kommunikativ kompetensiya rivojlanadi. O'quvchilarga haqiqiy muloqot vaziyatlarida til ko'nikmalarini

qo'llash imkoniyati berilganda, ularning gapirish, tinglash, o'qish va yozish malakasi sezilarli darajada yaxshilanadi [4: 189]. CEFR standartlariga ko'ra, o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvda o'quvchilar B1-B2 darajalariga tezroq erishadilar [11: 21]. Uchinchi, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatlari shakllanadi. O'quvchilar mustaqil ishlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish orqali bu muhim ko'nikmalarni rivojlantiradilar [6: 145]. To'rtinchidan, o'quvchilarning individual farqlari hisobga olinadi. Har bir o'quvchining o'ziga xos o'rganish uslubi, sur'ati va qiziqishlari mavjud. O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv bu farqlarni inobatga olish imkonini beradi [12: 67]. O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni akademik litseylarda til ta'limiga joriy etishda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

• **Vazifaga asoslangan o'qitish (Task-Based Learning) metodini qo'llash.** Bu usulda o'quvchilar haqiqiy hayotiy vazifalarni bajarishda til ko'nikmalarini qo'llaydilar [13: 89].

• **Hamkorlikda o'rganish (Collaborative Learning) texnologiyalaridan foydalanish.** Guruhda ishlash orqali o'quvchilar bir-biridan o'rganadilar va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradilar [14: 123].

• **Mustaqil o'rganishni (Learner Autonomy) rivojlantirish.** O'quvchilarga o'z o'rganish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash malakalarini o'rgatish zarur [15: 201].

• **Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.** Raqamli vositalar o'quvchilarga qo'shimcha o'rganish resurslari va interaktiv mashqlarni taqdim etadi [16: 178].

O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv zamonaviy til ta'limining samarali usuli hisoblanadi. Bu yondashuv o'quvchilarning mustaqilligini, mas'uliyatini va faol ishtirokini ta'minlaydi. Akademik litseylarda til ko'nikmalarini rivojlantirishda ushbu yondashuvni qo'llash o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish, ularning motivatsiyasini kuchaytirish va individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv to'g'ri qo'llanilganda, o'quvchilar nafaqat til ko'nikmalarini yaxshilaydilar, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish va hayotiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradilar. Kelajakda ushbu yondashuvning amaliy tatbiqini tadqiq etish va uning samaradorligini eksperimental yo'l bilan tekshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. Weimer M. Learner-Centered Teaching: Five Key Changes to Practice. – San Francisco: Jossey-Bass, 2013.
4. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. 6th ed. – New York: Pearson, 2014.
5. Nunan D. Learner-Centered English Language Education. – New York: Routledge, 2013.
6. Jalolov J.J., Mahkamova G.T., Ashurov Sh.S. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
7. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
8. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 5th ed. – London: Pearson Longman, 2015.
9. Dörnyei Z., Ushioda E. Teaching and Researching Motivation. 2nd ed. – New York: Routledge, 2011.
10. Ly C.K., Dressman M. Teachers' Roles on English Language Teaching for Promoting Learner-Centered Language Learning // International Journal of TESOL & Education, 2023, 4(2), pp. 78-98.
11. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
12. Tomlinson B. Materials Development in Language Teaching. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
13. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
14. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperative Learning in Second Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
15. Little D. Learner Autonomy: Definitions, Issues and Problems. – Dublin: Authentik, 1991.
16. Chapelle C.A., Sauro S. The Handbook of Technology and Second Language Teaching and Learning. – Hoboken: Wiley-Blackwell, 2017.

Shaxnoza XAMROQULOVA,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

MATEMATIKA DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AQLIY TARBIYASINI PRAGMATIK TOPSHIRIQLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslari orqali o'quvchilarning aqliy tarbiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Aqliy tarbiya bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, bu jarayon esa pragmatik topshiriqlar orqali yanada samarali amalga oshiriladi. Maqolada o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, pragmatik topshiriqlarning namunalari, ularni ishlab chiqish metodikasi va ta'lim jarayoniga tatbiqi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: matematika, boshlang'ich ta'lim, pragmatik topshiriqlar, aqliy tarbiya, analitik fikrlash, muammoli vaziyatlar, ko'rgazmalilik, ta'lim metodikasi.

Annotation. This article examines the formation and development of students' mental education through mathematics lessons in elementary grades. Mental education plays an important role in the development of children's intellectual potential, and this process is carried out more effectively through pragmatic tasks. The article highlights the possibilities of developing students' logical thinking skills, connecting theoretical knowledge with real-life situations and applying it in practice. Examples of pragmatic tasks, their development methodology and application to the educational process are also analyzed.

Key words: mathematics, primary education, pragmatic tasks, intellectual education, analytical thinking, problem situations, demonstration, educational methodology.

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование и развитие психического воспитания школьников посредством уроков математики в начальных классах. Психическое воспитание играет важную роль в развитии интеллектуального потенциала детей, причем этот процесс более эффективно осуществляется через прагматические задачи. В статье освещаются возможности развития умений логического мышления учащихся, соединения теоретических знаний с реальными ситуациями и применения их на практике. Также анализируются примеры прагматических задач, методика их разработки и применения в образовательном процессе.

Ключевые слова: математика, начальное образование, прагматические задачи, интеллектуальное образование, аналитическое мышление, проблемные ситуации, демонстрация, методика обучения.

Boshlang'ich ta'lim bolalar uchun bilim olishning eng muhim bosqichidir. Ushbu bosqichda o'quvchilarning aqliy rivojlanishi nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki ularning kelajakdagi fikrlash qobiliyatiga, mustaqil qaror qabul qilish salohiyatiga va jamiyatdagi muvaffaqiyatiga ham ta'sir qiladi. Ayniqsa, matematika fanining o'quv jarayonidagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Matematik topshiriqlar o'quvchilarda analitik fikrlashni, mantiqiy tahlil qilishni va real hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Pragmatik topshiriqlar – o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash va ularning qiziqishini oshirishga xizmat qiladigan ta'lim vositasi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, topshiriqlar real hayotga moslashtirilgan bo'lib, o'quvchilarda faollik, mustaqillik va ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi. G.Abdullayevaning ta'kidlashicha, aqliy tarbiya bu – o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini shakllantirish, ularning analitik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonidir [1: 254]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun aqliy tarbiya quyidagi maqsadlarga qaratiladi:

Mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. O'quvchilarni tahlil qilish va muammolarni hal qilishga o'rgatish.

Mustaqillikni oshirish. O'quvchilarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish salohiyatini kuchaytirish.

Ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash. Topshiriqlar orqali o'quvchilarda ijodiy yondashuvni rivojlantirish.

Boshlang'ich sinflarda matematika darslari bu maqsadlarni amalga oshirish uchun eng qulay fanning biri hisoblanadi. Matematik topshiriqlar orqali bolalar nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishni, real hayotdagi muammolarni hal qilishni va yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishni o'rganadilar. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning aqliy tarbiyasini rivojlantirish jarayonida pragmatik mazmundagi topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida ta'kidlanadi. Bunday topshiriqlar bolalarning real hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq masalalarni hal qilishi orqali ularning

mantiqiy tafakkuri, tahlil qilish, taqqoslash, asoslash, xulosa chiqarish kabi aqliy amallarini chuqurlashtiradi [2: 198].

Pedagogik texnologiyalar – faqat dars usullari emas, balki o'quvchilarni faol, mustaqil va ijodiy ishlashga yo'naltiradigan tizimli yondashuvdir [3: 320]. Ma'lumki, dars mashg'ulotlarda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi [4: 276].

Pragmatik topshiriqlarning xususiyatlari. Pragmatik topshiriqlar quyidagi o'ziga xosliklarga ega:

- Amaliy yo'naltirilganlik. Topshiriqlar real hayotiy vaziyatlar asosida tuziladi.
- Qiziqish uyg'otish. Hayotiylik elementi o'quvchilarda ta'limga bo'lgan motivatsiyani oshiradi.
- Muammoli vaziyat yaratish. Bolalarni yechim izlashga va faol fikrlashga undaydi.
- Mustaqillikni rag'batlantirish. O'quvchilar mustaqil fikrlashni o'rganadilar.

Pragmatik topshiriqlarning afzalliklari:

Real hayotdagi masalalar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi va ularning matematik bilimlarini mustahkamlaydi.

O'quvchilarning aqliy rivojlanishi uchun turli yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi.

Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Quyida pragmatik topshiriqlarning o'quv jarayonidagi amaliy misollari keltiriladi:

Real hayotiy masalalar: "Bog'da 18 ta daraxt bor edi. Ulardan 7 tasini kesishdi. Endi qancha daraxt qoldi?" **Maqsad:** subtraksiya amallarini hayotiy vaziyatda qo'llash. *"Do'konda 6 xil non bor. Xaridor jami 15 000 so'mga 3 ta non sotib oldi. Har bir non narxi qancha bo'lishi mumkin?"* **Maqsad:** ko'paytirish va bo'lish amallarini qo'llash.

O'yinli topshiriqlar: "Bolalar 5 ta guruhga bo'lindi. Har bir guruhda 4 ta bola bor. Jami nechta bola o'yin o'ynayapti?" **Maqsad:** ko'paytirish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. "Xaridor

do'konda jami 100 000 so'mga xarid qilmoqchi. U 3 xil mahsulotni bir xil miqdorda sotib oldi. Mahsulotlarning narxini hisoblang". **Maqsad:** Bo'lish va arifmetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.

1-jadval

Pragmatik topshiriqlar samaradorligi

Topshiriq turi	Misol	Rivojlantiriladigan ko'nikma
Real hayotiy masalalar	Do'konda 5 xil meva bor. 20 ta olma qoldi. Sotilgan olmalarni toping.	subtraksiya va real muammolarni hal qilish
Diagramma asosidagi masala	Diagrammada ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalangan holda hisoblang.	vizual ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish
O'yinli topshiriqlar	Qancha shirinlikni bolalarga teng taqsimlash mumkin?	analitik fikrlash va mantiqiy yechimlarni topish
Muammoli vaziyatlar	Chegirma bilan mahsulot narxini hisoblang.	matematik bilimlarni kundalik hayotga qo'llash

Matematika darslarida pragmatik topshiriqlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Ushbu topshiriqlar orqali bolalar nafaqat nazariy bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularni hayotda qo'llashga o'rganadilar. Real hayotiy vaziyatlar asosida tuzilgan masalalar bolalarning darsga qiziqishini

oshirib, ularda ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda pragmatik topshiriqlarni joriy etish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki kelajak avlodning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv bugungi kun ta'lim tizimida muhim innovatsion metodikadan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva G.Sh. Boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Zokirova N.I. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Nazarova M.A. Pedagogik texnologiyalar asosida matematika o'qitish. – Toshkent: Sharq, 2018.
4. Maxsumov R.N. Matematika o'qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.

Nilufar DUMAROVA,

*Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi,
pedagogika, psixologiya va amaliy fanlar metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

XALQ TA'LIMI XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISH: MODULLI TA'LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUVNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi va differensial yondashuvning o'zaro integratsiyasi o'rganiladi. Modulli ta'limning moslashuvchan va tizimli xususiyatlari, differensial yondashuvning individual ehtiyojlarni hisobga olishdagi afzalliklari ilmiy tahlil qilinadi. Tinglovchilar ehtiyojini aniqlash, o'quv topshiriqlarini moslashtirish, baholash jarayonini takomillashtirish kabi masalalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: modulli ta'lim, differensial yondashuv, malaka oshirish, pedagog kompetensiyasi, individual ta'lim, innovatsion texnologiya.

Annotation. This article examines the mutual integration of modular educational technology and a differentiated approach in the process of professional development of public education employees. The adaptive and systemic features of modular learning, the advantages of a differentiated approach to considering individual needs, are scientifically analyzed. Issues such as identifying students' needs, adapting learning tasks, and improving the assessment process are addressed.

Keywords: Modular learning, differentiated approach, professional development, pedagogical competence, individualized learning, innovative technologies.

Аннотация. В данной статье исследуется взаимная интеграция модульной образовательной технологии и дифференцированного подхода в процессе повышения квалификации работников народного образования. Научно анализируются адаптивные и системные особенности модульного обучения, преимущества дифференцированного подхода к учету индивидуальных потребностей. Освещаются такие вопросы, как определение потребностей слушателей, адаптация учебных заданий, совершенствование процесса оценки.

Ключевые слова: модульное обучение, дифференцированный подход, повышение квалификации, педагогическая компетентность, индивидуализация обучения, инновационные технологии.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog xodimlarning malaka oshirish jarayoni ularning professional kompetensiyalarini mustahkamlash va ta'lim sifatini yaxshilashning muhim omili hisoblanadi. Malaka oshirish jarayoni xodimlarni yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va ta'limni boshqarish tizimlari bilan tanishtiradi. Shu bilan

birga, ta'lim jarayonida har bir pedagogning bilim darajasi, tajribasi va individual o'rganish sur'ati hisobga olinmasa, malaka oshirishning samaradorligi past bo'lishi mumkin. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar pedagog xodimlarning professional tayyorgarligi va malaka oshirish jarayonini

modernizatsiya qilishni strategik vazifa sifatida belgilab berdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5712-sonli Farmoni (“Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, [1], PQ–4884-sonli qarori (“Pedagoglarning malaka oshirish tizimini takomillashtirish choralari”, [2], PF–6108-son Farmoni (“Ta’lim sifatini oshirish va pedagoglar maqomini yuksaltirish to’g’risida” va PQ–3775-son qarori (“Xalq ta’limi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini joriy etish”da pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, malaka oshirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o’qitishning modulli tizimini yaratish bo’yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar malaka oshirish jarayonida an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, modulli ta’lim tizimi, masofaviy ta’lim shakllari, kompetensiyaga yo’naltirilgan metodlarni keng joriy etishni talab etadi. Modulli ta’limning afzalliklaridan biri – pedagog xodimning individual ehtiyojlari, kasbiy tajribasi va o’rganish sur’atidan kelib chiqib moslashtirilgan ta’lim mazmunini taqdim etishidir. Shu nuqtayi nazardan, differensial yondashuv modulli ta’limning asosiy tamoyillaridan bo’lib, pedagoglarni o’zlashtirish darajasi bo’yicha guruhlariga ajratish, topshiriqlarning murakkabligini individuallashtirish, o’z-o’zini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirish orqali samaradorlikni oshiradi.

O’zbekiston ta’lim tizimida modulli ta’limning joriy etilishi ayniqsa pedagoglarning 72 soatlik va 100 soatlik malaka oshirish dasturlari uchun dolzarb bo’lib, ularning amaliy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Modulli ta’limning samaradorligi o’quv jarayonining moslashuvchanligi, xodimning tayyorgarlik darajasiga mos tuzilishi va o’zlashtirish jarayonini individual nazorat qilish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga, davlat siyosati bilan uyg’un holda, malaka oshirish kurslarida differensial yondashuv asosidagi baholash tizimi, kompetensiya asosida loyihalash, masofaviy modul paketlari, raqamli platformalardan foydalanish ustuvor yo’nalish sifatida qaralmoqda. Shu sababli modulli ta’lim va differensial yondashuvni xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish jarayoniga joriy etish nafaqat pedagoglarning kasbiy savodxonligini oshiradi, balki Prezident farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarning amaldagi bajarilishini ta’minlaydi. Ushbu maqolada mazkur yondashuvlarning ilmiy-nazariy asoslari, amaliy tajribasi va ularning malaka oshirish tizimidagi samaradorligi o’rganiladi.

Modulli ta’lim – o’quv materialini modul va bloklar shaklida taqdim etish, xodimlarni mustaqil ishlashga yo’naltirish va ularning individual rivojlanishiga imkon beruvchi ta’lim tizimi hisoblanadi. Modullar xodimning o’zlashtirish sur’atiga mos ravishda tartiblangan va baholash tizimi orqali o’z-o’zini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Shu nuqtayi nazardan, differensial yondashuv pedagog xodimlarning individual ehtiyojlari, bilim darajasi va pedagogik tajribasini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Nazariy jihatdan, differensial yondashuv Blum, Carroll va Merrilning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Blumning “mastery learning” kontsepsiyasida har bir o’quvchining o’z sur’atida o’rganishi va natijaga erishishi mumkinligi ta’kidlanadi. Carroll esa o’rganish jarayonidagi vaqt va motivatsiya omillari natijasida differensial yondashuvni ishlab chiqishga asos bo’lgan. Merrilning kontsepsiyasi esa o’quv materialining bosqichma-bosqich va tizimli taqdim etilishi orqali xodimlarning mustaqil izlanish va amaliy ko’nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirish jarayonida modulli ta’lim va differensial yondashuvni qo’llashning asosiy maqsadi – pedagoglarning

metodik kompetensiyasini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amalda qo’llashga tayyorlash va ularni o’quv jarayonini samarali boshqarishga yo’naltirishdir. Shu bilan birga, bu yondashuv xodimlarning o’z-o’zini baholash, tanqidiy fikrlash, ijodiy yechimlar ishlab chiqish va pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Pedagogik tadqiqotlarda modulli ta’lim va differensial yondashuv masalasi katta e’tibor qaratilgan yo’nalishlardan biridir. Modulli ta’lim xodimlarni mustaqil o’rganishga yo’naltiradi, ularni o’z sur’atida bilim olish imkonini beradi va pedagogik jarayonni individuallashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, differensial yondashuv o’quv jarayonida xodimning bilim darajasi, tajribasi va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga oladi. Modulli ta’lim va differensial yondashuvning malaka oshirish tizimida qo’llanishi bo’yicha ilmiy tadqiqotlar oxirgi o’n yillikda sezilarli darajada faollashdi. Bu jarayon O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid bir qator farmon va qarorlarida modulli o’qitish texnologiyalarini joriy etish, pedagoglarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda o’qitish tizimini qayta ishlab chiqish bo’yicha belgilangan vazifalar bilan bevosita bog’liqdir. Jumladan, PF–5712 va PQ–4884 qarorlarida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish, o’qitish jarayonini bosqichma-bosqich va modul asosida tashkil etish hamda o’qituvchilarni tabaqalashtirilgan tayyorlovdan o’tkazish muhim masalalardan biri sifatida qayd etilgan.

B.Blum “Mastery Learning” nazariyasida o’quv jarayonida har bir shaxsning o’rganish sur’ati va motivatsiyasini hisobga olish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ta’kidlaydi [5]. Carroll o’rganish samaradorligi vaqt, motivatsiya va individual xususiyatlar bilan bog’liqligini ko’rsatadi. Merrill esa modullar tizimi orqali materialni bosqichma-bosqich o’zlashtirish va amaliy topshiriqlarni bajarish orqali pedagogik ko’nikmalarni shakllantirishga urg’u beradi. T.Tomlinson differensial yondashuvni pedagogik amaliyotda o’quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda topshiriqlarni moslashtirish vositasi sifatida taqdim etadi. Shu yondashuv xodimlarni malaka oshirish jarayonida samarali qo’llash pedagogik jarayonning individualizatsiyasini ta’minlaydi. Mahalliy tadqiqotchilar (Ishmuxamedov, Ziyamuhammedov,) modulli ta’lim va differensial yondashuvni maktab xodimlarini malaka oshirish tizimida qo’llash natijalarini o’rganib, ularning pedagogik kompetensiyani rivojlantirish va o’quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga yordam berishini aniqlagan. Xorijiy tadqiqotlar (OECD, 2019; Bybee, 2013; Holbrook, 2010) esa modulli yondashuvning o’quvchilarning bilimni chuqur o’zlashtirish, tanqidiy fikrlash va amaliy ko’nikmalarini rivojlantirishdagi rolini yoritadi. Shu bilan birga, raqamli platformalar va virtual laboratoriyalar pedagogik jarayonda differensial yondashuvni qo’llashni yanada samarali qiladi. Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, modulli ta’lim va differensial yondashuvni malaka oshirish jarayoniga tatbiq etish pedagog xodimlarning metodik va innovatsion kompetensiyasini oshirishga, ularning mustaqil izlanish va amaliy faoliyat ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda modulli ta’lim va differensial yondashuvni xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirish jarayonida qo’llash samaradorligi empirik jihatdan o’rganildi.

Nazariy adabiyotlarni tahlil qilish.

Xodimlarning boshlang’ich tayyorgarligini aniqlash.

Modullar va differensial topshiriqlarni ishlab chiqish.

Tajriba-sinov darslarini o’tkazish.

Natijalarni tahlil qilish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, modulli ta'lim va differensial yondashuvni qo'llash xodimlarning metodik kompetensiyasini sezilarli darajada oshirdi. Tajriba guruhi xodimlari: mustaqil ishlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini 30–35% ga oshirdi; pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish qobiliyati rivojlandi; tajriba guruhidagi xodimlarning darslarni rejalashtirish, interfaol metodlarni qo'llash va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish qobiliyati sezilarli darajada oshdi. Nazorat guruhi bilan solishtirganda tajriba guruhi xodimlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari $p < 0.05$ darajada yuqori ekanligi aniqlangan. Bu modulli ta'lim va differensial yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, xodimlar modul va differensial topshiriqlar orqali o'zlarini bilim yaratuvchi subyekt sifatida his qilgan, mustaqil izlanish va amaliy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirgan. Bu esa pedagogik jarayonda o'quvchi markaziga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Modulli ta'lim texnologiyalari va differensial yondashuvning xalq ta'limi xodimlari malaka oshirish tizimidagi o'zni zamonaviy pedagogik jarayonning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tobora dolzarblashib bormoqda. Tadqiqot davomida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, modulli o'qitishning asosiy ustunliklari – o'quv jarayonini moslashuvchan tashkil etish, tinglovchi-larning individual ehtiyojlariga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarini taklif etish, bilim va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish hamda baholash jarayonini aniq mezonlar asosida yo'lga qo'yish – malaka oshirish tizimining sifat ko'rsatkichlarini sezilarli oshirish imkonini beradi. Differensial yondashuv modulli ta'lim mazmunini yanada boyitadi, chunki tinglovchilar turli tayyorgarlik darajasi, ish tajribasi, kasbiy kompetensiya ko'rsatkichlari va o'quv motivatsiyasiga ega bo'lgan murakkab guruhlar sifatida shakllanadi. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan ta'limni modernizatsiya qilishga qaratilgan qarorlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda o'qituvchilar malakasini takomillashtirish bo'yicha qabul qilgan farmonlari modulli o'qitishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini jadal rivojlantirishga kuchli zamin yaratmoqda. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, modulli ta'lim jarayonida differensial yondashuvdan foydalanish o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda uchta muhim omilga ta'sir ko'rsatadi: **o'quv jarayonining moslashuvchanligi** – modulning tuzilishi tinglovchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini qamrab oladi; **faol o'qitish metodlarining qo'llanishi** – amaliy mashg'ulotlar, keyslar,

refleksiya, muammoli vaziyatlar tinglovchilarning fikrlash faolligini oshiradi; **baholashning aniqligi va shaffofligi** – differensial baholash mezonlari tinglovchilar o'zining rivojlanish dinamikasini kuzatishi va tahlil qilishi uchun imkon yaratadi. Shuningdek, modulli ta'lim tinglovchilarda o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi, chunki modul yakunida ularning malaka darajasi aniq belgilangan kompetensiyalar asosida baholanadi. Bu esa xalq ta'limi xodimlarining kasbiy rivojlanish jarayonini shaxsiy javobgarlik tamoyili asosida yo'lga qo'yadi.

Modulli ta'lim dasturlarini yangilash va boyitish. Dasturlarda tinglovchilar tayyorgarlik darajasiga mos differensial topshiriqlar, tabaqalashtirilgan testlar, amaliy vazifalar, keys texnologiyalari va real pedagogik muammolarga yo'naltirilgan mini-loyihalar sonini oshirish zarur.

Pedagog kadrlar uchun raqamli modul platformalarini joriy etish. Onlayn-modullar, elektron baholash tizimi, video-ma'ruzalar, adaptiv testlar, sun'iy intellekt asosida baholovchi dars simulyatorlari joriy etilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Malaka oshirishda diagnostika tizimini kuchaytirish. Tinglovchilar o'quv jarayoniga kirishdan avval bilim va ko'nikmalarining boshlang'ich darajasi aniqlanishi, modul davomida esa ularning rivojlanish dinamikasi muntazam monitoring qilinishi lozim.

Xalq ta'limi xodimlari uchun differensial yondashuvga asoslangan kasbiy rivojlanish yo'l xaritalarini ishlab chiqish. Har bir tinglovchi uchun shaxsiy rivojlanish strategiyasini belgilovchi kompetensiya xaritalari, individual ta'lim traektoriyalari va masofaviy modul paketlari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Modulli ta'limni o'quv jarayonida qo'llaydigan trenerlar tayyorlash. Trenerlar uchun maxsus sertifikatlash tizimi yo'lga qo'yilishi, ularning o'z faoliyatini innovatsion pedagogika talablariga mos olib borishini ta'minlaydi.

Modul jarayonida refleksiya va tahlil mexanizm-larini kuchaytirish. Tinglovchilarning modul jarayonidagi qiyinchiliklari, erishilgan natijalari va istiqboldagi maqsadlari bo'yicha tahliliy yozuvlar, baholash varaqalari, kuzatuv kartalari muntazam qo'llanilishi lozim.

Yuqoridagi tavsiyalar modulli ta'limning xalq ta'limi xodimlari malaka oshirish tizimidagi real amaliyotga joriy etilishini kuchaytiradi, differensial yondashuvning samaradorligini oshiradi va pedagoglarning kasbiy kompetensiya-larini zamonaviy talablarga mos tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge MA: Harvard University Press, 1928.
4. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2007.
5. Shamsiyeva M. Modulli o'qitish jarayonida tinglovchining o'zlashtirish sur'atini diagnostika qilish // Pedagogika axborotnomasi, 2002, 4(1). – P. 67–74.

Zafarbek XAQIQATBEKOV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

UNIVERSITETLARDI STRESSNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: NAZARIY ASOSLAR, AMALIY MEKANIZMLAR VA SAMARADORLIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy universitet talabalari orasida stressning ko'payib borishi, buning psixologik va akademik natijalarga ko'rsatadigan ko'pvektorli ta'siri hamda ushbu holatni yumshatishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari keng yoritiladi. Tadqiqot jarayonida talabalarning kognitiv faolligini, emotsional barqarorligini va ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan raqamli psixopedagogik platformalar, neyropedagogik modul asosidagi treninglar, biofeedback texnologiyalari va immersiv VR-muhitlarining stressni kamaytirishdagi samaradorligi tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: innovatsion pedagogik texnologiyalar; stressni kamaytirish, neyropedagogika, psixologik farovonlik, raqamli pedagogika, emotsional regulatsiya.

Annotattion. This article provides a comprehensive examination of the increasing stress levels among modern university students, its multivector impact on psychological and academic outcomes, and the scientific-theoretical foundations of innovative pedagogical technologies aimed at mitigating this issue. The study systematically analyzes the effectiveness of digital psychopedagogical platforms, neuro-pedagogical module-based trainings, biofeedback technologies, and immersive VR environments designed to enhance students' cognitive activity, emotional stability, and social adaptability.

Keywords: innovative pedagogical technologies, stress reduction, neuropedagogy, psychological well-being, digital pedagogy, emotional regulation.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются вопросы роста стресса среди современных студентов университетов, его многовекторное влияние на психологические и академические результаты, а также научно-теоретические основы инновационных педагогических технологий, направленных на смягчение этой проблемы. В ходе исследования систематически анализируется эффективность цифровых психопедагогических платформ, тренингов на основе нейропедагогических модулей, технологий биологической обратной связи и иммерсивных VR-сред, направленных на повышение когнитивной активности студентов, их эмоциональной устойчивости и социальной адаптивности.

Ключевые слова: инновационные педагогические технологии, снижение стресса, нейропедагогика, психологическое благополучие, цифровая педагогика, эмоциональная регуляция.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida talabalarning psixologik farovonligi, xususan, stress omillarining intensivligi, ko'lamli va ularning ta'lim jarayoniga ko'rsatadigan ko'pvektorli ta'siri pedagogika fanining eng dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, ilmiy axborotlar oqimining tezlashuvi, mehnat bozorining murakkablashuvi, akademik raqobatning kuchayishi kabi omillar universitet talabalarining ichki psixologik barqarorligiga jiddiy bosim ko'rsatmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limning zamonaviy modeli kompetensiyaga yo'naltirilgan integrativ va an'anaviy bilim berishdan keskin farq qiluvchi yondashuvlarni talab qilayotgan bir davrda, talabalarning individual psixik holatini nazorat qilish, ularni stressdan himoyalash, emotsional intellektini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish hamda o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim sifatining tarkibiy qismiga aylangan [1: 60]. Mazkur jarayonning samaradorligi esa avvalo innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'z vaqtida va ilmiy asoslangan holda joriy etilishiga bog'liqdir. Chunki an'anaviy ta'lim yondashuvlari stress omillarini bartaraf etishda yetarli bo'lmay qolayotgan bir sharoitda, neyropedagogika, raqamli psixodiagnostika, biofeedback tizimlariga asoslangan treninglar, immersiv VR terapiya va gamifikatsiyalangan moslashuv platformalari kabi texnologiyalar ta'lim jarayonining yangi ustuvor yo'nalishlariga aylanib bormoqda [2: 28]. Shu nuqtayi nazardan, universitetlarda stressni bartaraf etishning innovatsion konseptual modellarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish, avvalo, stress fenomenining mohiyatini, uning talabalik davridagi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

Stressning manbalari ko'p: o'quv yuklarni oshirish, baholash tizimining raqobatga asoslangan bo'lishi, iqtisodiy va oilaviy bosimlar, kelajak kasbiy faoliyati bilan bog'liq ikkilanishlar, jamoadagi muhit, kommunikativ moslashuvdagi

qiyinchiliklar, shaxsning o'ziga bo'lgan talablarining takroriy o'zgaruvchanligi va boshqalar [3: 348]. Bularning barchasi stressning psixopedagogik fenomen sifatida stressing murakkab strukturasi belgilaydi. Agar oliy ta'lim muassasalari bu jarayonni aniq bashoratlay olmasa, talabalar farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni bartaraf etishda kechikish yuz beradi, bu esa nafaqat individual psixologik muvozanatning buzilishiga, balki o'quv jarayonidagi samaradorlikning pasayishiga ham olib keladi [4: 412]. Shu bois, stressni pedagogik boshqarish tizimi faqat psixologik maslahatlar yoki oddiy dam olish mashg'ulotlari bilan cheklanmay, balki kompleks innovatsion mexanizmlarni o'z ichiga olishi zarur.

Innovatsion texnologiyalar stressni kamaytirishda ko'p funksional rol o'ynaydi. Neurofeedback va biofeedback texnologiyalari talabaning fiziologik ko'rsatkichlarini (yurak urishi, nafas ritmi, mushak tarangligi) kuzatish va real vaqt rejimida tahlil qilish orqali psixologik holat ustidan nazoratni kuchaytiradi. Immersiv virtual reallik asosidagi relaksatsion muhitlar stressga qarshi psixologik immunitetni oshirishga xizmat qiladi. Gamifikatsiya elementlari esa stressni boshqarishda motivatsion mexanizmlarni kuchaytiradi, o'quv jarayonini qiziqarli va shaxsga yo'naltirilgan shaklga keltiradi [5: 368]. Raqamli psixopedagogik platformalar esa talabalar stressini monitoring qilish, xavf guruhidagi talabalarning erta aniqlanishi va ular uchun maxsus individual dasturlar ishlab chiqishga imkon beradi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari ushbu texnologiyalarni o'z ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali nafaqat o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshirmoqda, balki talabalarning psixologik salomatligini qo'llab-quvvatlaydigan barqaror ekotizim yaratishda ham muvaffaqiyat qozonmoqda.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni stressni boshqarish jarayoniga integratsiya qilishning nazariy-metodologik asosi konstruktivizm, kognitiv-emotsional o'quv modellari, neyropedagogika paradigmalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

konsepsiyasi hamda sotsiokognitiv nazariyalarga tayanadi. Chunki stress bu faqat psixologik holat emas, balki inson organizmining barcha tizimlari o'rtasidagi murakkab interaktiv jarayon bo'lib, uni bartaraf etishning samarali yo'llari ham multidisiplinar yondashuvni talab qiladi.

Universitetlarda talabalarning psixologik barqarorligini ta'minlash, stress omillarini kamaytirish hamda o'quv jarayonining psixopedagogik muvozanatini tiklashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar bo'yicha dunyo ilmda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, amerikalik neyrobiolog olimi Amy F.T.Arnstenning ilmiy izlanishlari stressning kognitiv jarayonlarga ko'rsatadigan neuromodulyativ mexanizmlarini chuqur ochib bergani bilan ajralib turadi. U o'zining 2020-yildan keyingi ilmiy ishlarida stress holati prefrontal korteks faoliyatini vaqtincha bloklab qo'yishi, bu esa talabalarda ishchi xotira, diqqat barqarorligi, emotsional regulatsiya va analitik fikrlash mexanizmlarining izdan chiqishiga olib kelishini ilmiy asosda isbotlaydi. Arnstenning ta'kidlashicha, stressga qarshi pedagogik intervensiyalar samaradorligi faqat psixologik maslahatlar bilan emas, balki neyropedagogik stimulyatsiyalar, biofeedback va sensor-integrativ texnologiyalar orqali miyaning stressga sezgir markazlarini neyroplastik jihatdan qayta sozlash orqali ta'minlanadi. Shu bois, u universitetlarda stressni kamaytirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni joriy etishda, ayniqsa, fiziologik ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida qayd etuvchi raqamli monitoring tizimlari, neyrofeedback qurilmalari va individual emotsional regulatsiya protokollarining qo'llanishini ustuvor deb hisoblaydi. Arnstenning tadqiqotlari oliy ta'lim jarayonida stressning neuromorfik tabiatiga chuqur nazariy asos yaratgani sababli, ushbu maqolada stressning fiziologik va neyrobiologik mexanizmlarini tushuntirishda asosiy ilmiy platforma sifatida qabul qilingan.

Stressni boshqarishda pedagogik innovatsiyalarning psixologik va didaktik samaradorligi bo'yicha ikkinchi muhim ilmiy yondashuv amerikalik ta'lim psixologi Patricia A.Jennings tadqiqotlarida keng yoritilgan. Uning 2020 yildan keyingi ilmiy ishlari universitet muhitida stressni kamaytirishda emotsional intellekt treninglari, mindfulness asosidagi o'quv modullari, raqamli o'z-o'zini kuzatish platformalari va ijtimoiy-emotsional o'qitish texnologiyalarining integratsiyalashgan psixopedagogik rolini ochib beradi. Jenningsning ilmiy

konsepsiyasiga ko'ra, talabalarda stressning asosiy ildizi tashqi omillardan ko'ra, ichki kognitiv jarayonlar – o'z-o'ziga tanqidiy munosabat, akademik kutilmalar bosimi va metakognitiv monitoringdagi nomutanosibliklardan kelib chiqadi. Shu bois, innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ushbu ichki jarayonlarni qayta qurishga yo'naltirilgan bo'lmog'i kerak. Jennings VR asosidagi relaksatsiya muhiti, gamifikatsiyalangan stress monitorlari, meditatsiyaga asoslangan mobil ilovalar va raqamli moslashuv platformalarining ta'lim amaliyotidagi samaradorligini ko'p yillik empirik eksperimentlar orqali ilmiy dalillar bilan tasdiqlaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ushbu texnologiyalar talabalarning emotsional barqarorligini oshiradi, adaptiv fikrlashni kuchaytiradi, akademik faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantiradi va stressga qarshi psixologik immunitetni rivojlantiradi. Shuningdek, Jennings innovatsion yondashuvlar nafaqat stressni kamaytirishi, balki kommunikativ muhitni, guruh ichidagi o'zaro munosabatlarni va universitetning umumiy psixologik ekotizimini barqarorlashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning ilmiy qarashlari ushbu maqola mavzusi uchun stressni kamaytirishga qaratilgan texnologik-didaktik modellarni shakllantirishda asosiy metodologik tayanch bo'lib xizmat qildi. Mazkur ikki olimning ilmiy yondashuvlari bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim paradigmaga tayanadi: Arnstenning neuromorfik-biologik modeli texnologik intervensiyalarning fiziologik asoslarini ochib bersa, Jenningsning psixopedagogik modeli ushbu texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi ijtimoiy-emotsional, didaktik va kommunikativ funksiyalarini chuqur tahlil qiladi. Natijada, innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali stressni kamaytirishning kompleks modeli neyrobiologik, kognitiv, emotsional va raqamli yondashuvlarning birlashuvidan tashkil topgan murakkab psixopedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu maqolada universitetlarda talabalarning stressini kamaytirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar kompleks nazariy, metodologik va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, biofeedback va neurofeedback qurilmalari, immersiv VR relaksatsion muhitlar, gamifikatsiyalangan raqamli monitoring platformalari va mindfulness asosidagi interaktiv treninglar talabalarning psixologik barqarorligini, emotsional regulatsiyasini va kognitiv faoliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xabibullayevna Y.D. Oiladagi barqaror ijtimoiy muhit shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar // Models and Methods for Increasing the Efficiency of Innovative Research, 2024, T. 4, №37. – P. 60–65.
2. Turg'unboyev K., Tolipov M., Oxunov I. Ijtimoiy pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
3. Griffiths, Behavioral Addiction in Students: Psychological and Environmental Determinants. – London: Routledge, 2021.
4. Stallman University Student Wellbeing: A Systems-Based Approach to Academic Stress and Mental Health. – Berlin: Springer, 2022.
5. Patricia A. Jennings, Mindfulness, Emotion, and Higher Education: Innovative Approaches to Student Well-Being. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.

Shoxista RUSTAMOVA,

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

TALABALAR TADQIQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO GRANT VA STIPENDIYA TIZIMLARINING ROLI

Anotatsiya. Ushbu maqola talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda xalqaro grant va stipendiya tizimlarining samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Hozirgi kunda global ta'lim tizimlarida talabalar ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning tadqiqotchilik salohiyatini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro grant va stipendiya dasturlari nafaqat moliyaviy yordam, balki malaka oshirish, ilmiy tarmoqlar bilan integratsiya, innovatsion g'oyalarni ilgari surish imkoniyatlarini ham taqdim etadi.

Kalit so'zlar: tadqiqot kompetensiyalari, xalqaro grantlar, stipendiya tizimi, ilmiy salohiyat, ta'lim sifatini oshirish.

Annotation. This article explores the effectiveness of international grant and scholarship systems in developing students' research competencies. In today's global education systems, supporting students' scientific activities and enhancing their research potential is of critical importance. International grant and scholarship programs provide not only financial support but also opportunities for professional development, integration into scientific networks, and promotion of innovative ideas.

Keywords: research competencies, international grants, scholarship systems, scientific potential, improving education quality.

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность международных грантовых и стипендиальных систем в развитии исследовательских компетенций студентов. В современном глобальном образовательном пространстве вопросы поддержки научной деятельности студентов и повышения их исследовательского потенциала приобретают особую актуальность. Международные грантовые и стипендиальные программы предоставляют не только финансовую поддержку, но и возможности повышения квалификации, интеграции в научные сети и продвижения инновационных идей.

Ключевые слова: исследовательские компетенции, международные гранты, стипендиальная система, научный потенциал, повышение качества образования.

Global ta'lim makonida talabalar tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi har doim markaziy o'rnlardan birini egallab kelgan. Ilm-fan taraqqiyotining dinamikasi va innovatsion iqtisodiyotlarning rivojlanishi, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning strategik ahamiyati ta'lim tizimlarida talabalar ilmiy salohiyatini oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda [1]. Xalqaro grant va stipendiya tizimlari esa bu jarayonda muhim vosita sifatida xizmat qiladi, chunki ular nafaqat moliyaviy resurslarni taqdim etadi, balki talabalarni global ilmiy hamjamiyat bilan integratsiyalash, malaka oshirish va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish faqat akademik bilimlarni berish bilan chegaralanmay, balki mustaqil fikrlash, ilmiy metodlarni qo'llash, nazariy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda xalqaro ilmiy muloqotlarda faol ishtirok etish kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi [2]. Xalqaro grant va stipendiya dasturlari, masalan, Erasmus+, Fulbright, Chevening va boshqa shunga o'xshash tizimlar, talabalarni nafaqat ilmiy, balki madaniy, ijtimoiy va professional jihatdan ham rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ularning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim muassasalarining innovatsion pedagogik strategiyalariga va talabalar motivatsiyasiga bog'liq. Ta'limning global kontekstida grant va stipendiya tizimlari bir necha funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, ular talabalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb etishda vosita sifatida xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida talabalarining mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantiradi. Ikkinchidan, bu tizimlar xalqaro ilmiy hamkorlik va tarmoq imkoniyatlarini taqdim etadi, natijada talabalar nafaqat o'z mamlakatlarida, balki global ilmiy maydonda ham raqobatbardosh bo'lishadi [3]. Uchinchi jihat bu – motivatsion komponent bo'lib, stipendiya va grantlar talabalarni yuqori natijalarga erishishga undaydi, shuningdek, ularning innovatsion fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rag'batlantiradi.

Ilmiy adabiyotlarda ko'plab tadqiqotchilar talabalar tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda xalqaro grant tizimlarining ahamiyatini o'rganib kelgan. Misol uchun, Altbach va Knight o'z ishlarida global ta'lim migratsiyasi va xalqaro grant dasturlarining talabalar salohiyatiga ta'sirini tahlil qilgan bo'lsa, De Wit va Hunter ham shunga o'xshash natijalarni keltirib, xalqaro stipendiya tizimlarining ta'lim sifatini oshirishdagi roli va pedagogik metodologik jihatlarini o'rganishgan [4]. Shu bilan birga, ilmiy muloqotlar va xalqaro tajriba almashinuvi orqali talabalar nafaqat o'z ilmiy sohasida, balki multidisipliner kontekstda ham bilimlarini mustahkamlaydi. Talabalar tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni ko'plab pedagogik komponentlarni o'z ichiga oladi: akademik yozuv ko'nikmalari, ma'lumotlarni tahlil qilish, eksperimentlarni rejalashtirish va natijalarni tizimli ravishda ifodalash. Grant va stipendiya tizimlarida

ishtirok etish, talabalarni bu ko'nikmalarni amaliy ravishda qo'llashga undaydi [5].

Xalqaro dasturlar talabalarni etakchi ilmiy laboratoriyalar, ilmiy konferensiyalar va seminarlar bilan tanishtiradi, bu esa ularning metodologik savodxonligini oshiradi va ilmiy tadqiqotlarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar yordamida xalqaro grant tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Talabalar virtual laboratoriyalar, ilmiy vebinarlar va onlayn kurslar orqali global ilmiy maydonga integratsiyalanadi, bu esa tadqiqot kompetensiyalarini yanada chuqurroq rivojlantirishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro grant va stipendiya tizimlari talabalarining akademik, metodologik va innovatsion salohiyatini shakllantirishda bir nechta funksiyalarni bajaruvchi kompleks vosita sifatida qaralishi mumkin [6]. Shu bilan birga, grant va stipendiya tizimlarining samaradorligi bir qator shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Jumladan, talabalar motivatsiyasi, ilmiy rahbarlarning yordami, ta'lim muassasalari resurslari, shuningdek, xalqaro dasturlar bilan integratsiya darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori sifatli xalqaro grantlar va stipendiyalar talabalar ilmiy faoliyatini sezilarli darajada kuchaytiradi va ularning tadqiqot kompetensiyalarini kompleks tarzda rivojlantiradi (Knight, 2004; Marginson, 2006).

Talabalar tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda xalqaro grant va stipendiya tizimlarining ahamiyatini o'rganish bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ikki asosiy nazariy va empirik tadqiqot yo'nalishi ajralib turadi. Birinchi yo'nalishda Altbach va Knight global ta'lim migratsiyasi va xalqaro stipendiya tizimlarining talabalar salohiyatiga ta'sirini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, xalqaro grantlar talabalarni ilmiy tadqiqotga jalb qilish, innovatsion fikrlashni rag'batlantirish va metodologik ko'nikmalarini mustahkamlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ular ta'kidlaganidek, talabalar o'z ilmiy faoliyatini global kontekstda amalga oshirish imkoniga ega bo'lganda, ular nafaqat o'z mamlakatlarida, balki xalqaro ilmiy hamjamiyatda ham raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllanadi. Ikkinchi yo'nalishda De Wit va Hunter xalqaro grant va stipendiya tizimlarining pedagogik va metodologik jihatlarini chuqur tahlil qilgan [7]. Ularning tadqiqotlari ko'rsatadiki, stipendiya va grant dasturlari talabalarga ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, eksperimentlarni o'tkazish va natijalarni xalqaro ilmiy maydonda taqdim etish kabi ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatini beradi. De Wit va Hunter, shuningdek, xalqaro dasturlarda talabalar ishtirok etishining ularning motivatsiyasi va ilmiy intilishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashadi. Mazkur ikki tadqiqot bir-birini to'ldiradi: Altbach va Knight global migratsiya va ilmiy salohiyatning shakllanishiga e'tibor qaratgan bo'lsa, De Wit va Hunter esa grant va stipendiya tizimlarining pedagogik metodologik mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan [8]. Shu nuqtayi nazardan, talabalar tadqiqot

kompetensiyalarini rivojlantirishda xalqaro grant va stipendiya tizimlarining ahamiyati nafaqat moliyaviy resurs bilan cheklanmaydi, balki ilmiy va pedagogik komponentlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar grant va stipendiya dasturlarida ishtirok etganda ular ilmiy metodologiyani chuqurroq o'zlashtiradi, mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatini rivojlantiradi va global ilmiy tarmoqlarga integratsiyalanadi. Shu bilan birga, ular o'z ilmiy sohasida yetakchi mutaxassislar bilan hamkorlik qilish, zamonaviy ilmiy usullarni qo'llash va natijalarni xalqaro auditoriyaga taqdim etish orqali professional ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi. Natijada Altbach, Knight, De Wit va Hunter tadqiqotlari birgalikda shuni ko'rsatadiki, xalqaro grant va stipendiya tizimlari talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda multidimensional vosita sifatida qaralishi mumkin, bu esa yuqori malakali va global raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, xalqaro grant va stipendiya dasturlari talabalarni global ilmiy hamjamiyat bilan integratsiyalashishga, multidisipliner fikrlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga, shuningdek, ularning pedagogik va metodologik savodxonligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur tizimlar talabalarning motivatsiyasini kuchaytiradi va ularni yuqori natijalarga erishishga rag'batlantiradi. Xulosa qilib aytganda, xalqaro grant va stipendiya tizimlari talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda nafaqat moliyaviy resurs, balki kompleks pedagogik, metodologik va ijtimoiy vosita sifatida muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizimlarning samaradorligini oshirish va ularni milliy ta'lim jarayonlariga integratsiyalash pedagogik strategiyalarni takomillashtirish va yuqori malakali, global raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matkarimov J., Xakimova O., Imomaliyeva R. Ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga sun'iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish // Universal, 2025, T.2, №4. – B. 232–235.
2. Shohbozbek E. Pedagogik metodologiya uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri // Global Science Review, 2025, 4(5). – P. 774–782.
3. Haytbaeva S. Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'рни // Nordic_Press, 2024, T.3, №0003.
4. Shohbozbek E. va boshq. Bo'lajak pedagoglarning tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishning konsepsual asoslari // Global Science Review, 2025, T.1, №1. – P. 328–338.
5. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. – Termiz: Surxon-nashr, 2022.
6. Ruziyeva Z., Norboyeva S. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish // Problems and Solutions of Scientific and Innovative Research, 2025, T. 2, №5. – B. 197–204.

Gulruxsor SHARIPOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA YOZMA ISHLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri qurish, so'zlarni o'rinli qo'llash uchun nazariy bilim va **uzluksiz mashq** zarurligi, faqat muntazam amaliyotgina barqaror ko'nikma va malakalarni shakllantirishi haqida so'z boradi. Badiiy asarlarni muntazam o'qish, zarur parchalarini ko'chirish, yodlash va turli yozma mashqlarni bajarish yozma nutq taraqqiyotini sezilarli darajada o'stiradi.

Kalit so'zlar: yozma nutq, leksik birliklar, ilmiy tafakkur, lingvistik, ekstralingvistik, matn.

Annotation. This article discusses the necessity of grammatically correct written speech construction, theoretical knowledge, and continuous practice to use words correctly, as only regular practice can form stable skills and abilities. Regularly reading literary works, copying necessary passages, memorizing, and performing various written exercises significantly enhances the development of written language.

Keywords: written speech, lexical units, scientific thinking, linguistic, extralinguistic, text.

Аннотация. В данной статье говорится о необходимости грамматически правильного построения письменной речи, теоретических знаний и непрерывной практики для правильного употребления слов, так как только регулярная практика может сформировать устойчивые навыки и умения. Регулярное чтение художественных произведений, копирование необходимых фрагментов, запоминание и выполнение различных письменных упражнений значительно повышают развитие письменной речи.

Ключевые слова: письменная речь, лексические единицы, научное мышление, лингвистический, экстралингвистический, текст.

Yozma nutqni rivojlantirishda biror mavzu yuzasidan nafaqat ijodiy tafakkur yuritish, balki allaqachon o'qilgan yoki og'zaki tarzda eshittirilgan matnlar ustida ishlash, ularni qayta talqin qilish hamda aynan shu matn asosida mustaqil fikr bildirish imkoniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyat o'quvchiga tayyor matn bilan ishlash, undan tayanchoq sifatida foydalanib yozma ijod yaratish, dalil va mulohazalarini mustaqil ifodalash imkonini beradi.

O'quvchilarning tayyor matnlar ustida ishlashi va shu matnga suyanib ijodiy faoliyat yurita olishi uchun **bayon shakllari** alohida o'rin tutadi. Ijodiy bayonlar o'quvchi yozma nutqining poydevorini

barqaror shakllantiradi: bayon yozayotgan shaxs matn doirasida o'z tasavvurlarini jamlaydi, fikr-mulohazalarini mushohada qiladi, mazmunga mos rejani tuzadi va g'oyalarini izchil, mantiqan tartibli bayon etishga intiladi. Shu tariqa, bayon turlari fikrni tashkil etish, tarkibiy qismlarni muvofiqlashtirish va konseptual yaxlitlikni ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

O'quvchilarning yozma nutqi va savodxonlik darajasini oshirishda ular ustida ishlaydigan matnlarni **grammatik** va **semantik** jihatdan mos holda tanlash hal qiluvchi omildir. Matn tanlashda murakkablik darajasi, til materialining soddaligi yoki ko'p qatlamliliigi, muallif uslubining o'quvchi yoshiga va bilim

salohiyatiga mosligi, shuningdek, maqsadli kompetensiyalarni (tahlil, talqin, qayta tuzish) rivojlantirishga xizmat qilishi e'tiborga olinadi.

Yozma nutqni takomillashtirishda **leksika** va leksik ishlanmalar alohida ustuvorlikka ega. Shu sababli o'quv jarayonida **o'quv lug'atlari** va **qomuslar** muhim vosita hisoblanadi. Matnning tushunarli va aniq bo'lishida imloviy xatolarning minimallashtirilishi muhim; o'qituvchi yozma topshiriqlarni tashkil etishda **imlo lug'ati**ga tayanishi, o'quvchilarni esa uni muntazam qo'llashga o'rgatishi lozim. Yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri qurish, so'zlarni o'rinni qo'llash uchun nazariy bilim bilan bir qatorda **uzluksiz mashq** zarur. Faqat muntazam amaliyotgina barqaror ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Demak, nutqni o'stirish bevosita tilning **grammatik tuzilishi** va **lug'at tarkibini** chuqur o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Badiiy asarlarni muntazam o'qish, zarur parchalarni ko'chirma qilish, yodlash va turli yozma mashqlarni bajarish yozma nutq taraqqiyotini sezilarli darajada qo'llab-quvvatlaydi.

Shu o'rinda yana bir jihat: grammatika o'quvchining mustaqil xulosa chiqarishi, bilimni amaliyotga tatbiq etishi, boshqacha aytganda, **kuzatishdan qo'llashgacha** bo'lgan zanjiri mustaqil bosib o'tishiga xalaqit bermasligi shart. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'p o'quvchilar darslikda berilgan grammatik qoidalarni real hayot bilan bog'lay olmaydi; natijada bu qoidalar tezda unutiladi. Shunday ekan, ona tili ta'limida asosiy e'tibor o'quvchining **so'z boyligini kengaytirish**, **ma'no nozikliklarini** farqlay olish, **bexato yozish**, **begona fikrni to'g'ri anglash**, **bir fikrni turli shaklda ifodalash**, **uzilgan fikrni tiklash**, **nutq vaziyatini baholash** va **til imkoniyatlaridan kontekstga mos foydalanish** ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilishi lozim. O'quvchiga mazkur jarayon uchun zarur bo'ladigan ayrim **fonetik**, **leksik** va **grammatik** qoidalarining o'zi kifoya; buning ustiga fikrni anglash va ifodalashning turli mexanizmlarini, ularni turli nutq sharoitlarida qo'llash yo'llarini ko'rsatish; shu asosda mashq-topshiriqlar tizimini yaratish va **madaniy nutq** mashg'ulotlarini kuchaytirish zarur.

O'quvchilarni **matn yaratish** faoliyatiga kirgizishda maxsus tayyorlangan matn ustida ishlash bo'yicha topshiriqlar ham samarali:

Matnni ifodali o'qing va ma'noli qismlarga ajrating. 2. Mazmundan kelib chiqib reja tuzing. 3. Matn mazmunini ochib beruvchi savol va testlar yarating. 4. Matndagi xulosani kengaytirib, shaxsiy fikringizni yozing.

Berilayotgan topshiriqlar **bosqichma-bosqich murakkablashib boradi**, bu esa o'quvchini izchil fikrlashga, to'g'ri mushohada yuritishga, nutqiy hodisalarni qiyoslashga va mavzuga mos uslub tanlashga o'rgatadi. O'quvchilar nutqini o'stirish maqsadida taqdim etiladigan matnlarda **muallif aniq ko'rsatilishi** zarur. Manbalar badiiy asardan parchalar, ma'rifiy matnlar, kichik hikoya va rivoyatlar, qissa bo'laklari, rasmiy ish qog'ozlari, maktublar, taklifnoma va tabrik maktublaridan iborat bo'lishi mumkin. Asosiy talab – matnlar o'quvchi yoshiga mos, qiziqarli va diqqatni jalb etadigan bo'lishidir. Tanlangan matnni tushunish jarayoni quyidagicha darajalandi va tahlil qilindi:

Assotsiativ daraja – tayanch matn uslubi, unda qo'llangan so'zlarning ma'nosi, matnda bo'lmagan so'zlardan foydalanish yoki sinonim almashtirish holatlari.

Struktural daraja – tayanch matndagi mazmuniy tarkiblarning ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi.

Matn darajasi – eshittirilgan matnni yaxlit ko'rinishda qayta yaratish: mazmun va shakl jihatdan boyitish, ammo tayanch matnning asosiy mazmunini buzmaslik [1].

Matnni tushunish darajalari belgilanganidan so'ng, yozma nutqni tekshirish va tahlil qilishda quyidagi talablar hisobga olindi:

Mazmundorlik – asosiy fikrning mavjudligi, axborot dalillarining dolzarbligi va yangiligi;

Tushunarlik – matnning mantiqiy izchilligi, tilning aniqligi va ravshanligi;

Ifodalilik – leksik boylik darajasi va uslubiy rang-baranglik [2].

Yozma nutq mazmunli bo'lishi uchun material yig'ilgach, uni **sistemalashtirish**, **reja tuzish**, **xomaki nusxa** yaratish, matn ustida qayta ishlash va **oq nusxaga** ko'chirish talab etiladi. Yozma nutq sifati ko'p jihatdan **fikrning mustaqil bayoni** bilan belgilanadi. Yozma nutq turli janrlardagi topshiriqlar orqali namoyon bo'ladi. Umuman, yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda murakkabroq jarayondir: u o'quvchidan grammatik va mazmuniy jihatdan to'g'ri gap tuzishni, so'zlarni o'rnida qo'llashni, fikrni ixcham va izchil, usluban sodda va ravon ifodalashni, bildirilgan g'oyalar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Yozma nutqning murakkabligi, shuningdek, **imlo**, **tinish belgilari** va **uslub** bilan bog'liq. So'zlarni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinni qo'llash, uslub talablariga muvofiq bayon etish o'quvchidan yuqori darajadagi mas'uliyatni talab qiladi; shu sababli bu yo'nalishdagi taraqqiyot nisbatan sekin va murakkab kechadi.

Nutq madaniyatini rivoj topishiga ulkan hissa qo'shgan Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Rudakiy kabi buyuk daholar yaratgan asarlarda, shuningdek, Bexbudiy, Fitrat, Qori-Niyoziy, Munavvar Qori, Saidrasul Saidazizovlarining ijod namunalarida o'quvchi nutqini o'stirish haqida qimmatli fikrlarni bildirganlar. Masalan, Alisher Navoiyning shunday misralari bor:

So'zdirki, nishon berur o'likka jondin,

So'zdirki, berur j onga xabar jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilki, gavhari sharifroq yo'q ondin.

Nutqni zamonaviy va to'laonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik o'quvchining muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. O'quvchilar nutqni to'g'ri egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalardagi mustaqil fikrlash va mulohaza yuritish jarayonlari 3–5 yoshdan boshlab faol faollashadi. Shuning uchun oilaviy muhitda hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida so'z boyligini kengaytirish maqsadida tilning ertak, doston, topishmoq, qo'shiq kabi nutqiy imkoniyatlaridan imtiyozli foydalanish zarur. Ko'p hollarda badiiy asarlar o'quvchilarni to'g'ri yo'naltiradi. Shu bois, xalqimizga xos o'zbekona qadriyatlar va ulug'lanuvchi jihatlarni aks ettiruvchi o'zbek xalq og'zaki ijodiga ko'proq murojaat etish tavsiya etiladi. Ular uchun asar tanlashda ularning qahramonlariga o'xshab ketish istagini hisobga olish lozim.

Nutq o'stirish bo'yicha ishlarni rejalashtirishda o'quvchilar tomonidan ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlarini hisobga olish zarur. O'quvchilar tomonidan atrofdagilarning nutqini tushunish va uni idrok qilish, uning nutq organlari muskullarining mashq qilinganligiga bog'liq bo'lib, bolalarning tovush madaniyati bo'yicha nutqiy faolligini oshirish mashg'ulotlaridagina emas, balki mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda ham rejalashtirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. disss... – Toshkent, 2008.

2. Muhtidinova H. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. d.-ri. diss... – Toshkent, 2011.
3. Penny U. A Course in language teaching (practice and theory). – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
4. Qurbonova X. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish // Til va adabiyot ta'limi, 2017, №8.

Sadoqat NORMURODOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrasida katta o'qituvchi

INNOVATSION YONDASHUVLAR: ELEKTRON INTERFAOL VOSITALAR ORQALI "ALIFBO"NI O'RGATISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida "Alifbo"ni o'rgatishda elektron interfaol vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilingan. Scratch dasturlash muhiti asosida ishlab chiqilgan multimedia resurslari orqali o'quvchilarning tasavvurini kengaytirish, mavzuga qiziqishini oshirish hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik va psixologik mexanizmlari yoritiladi. Scratch asosidagi innovatsion modellar o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: "Alifbo", Scratch, interfaol ta'lim, raqamli resurs, boshlang'ich ta'lim, innovatsion texnologiya, vizualizatsiya, didaktika, gamifikatsiya, multimedia.

Annotation. This article analyzes innovative approaches to using electronic interactive tools in teaching alphabet in the primary education process. Using multimedia resources developed on the basis of the Scratch programming environment, pedagogical and psychological mechanisms for expanding students' imagination, increasing their interest in the topic, and forming creative thinking skills are highlighted. Suggestions for implementing innovative models based on Scratch in the educational process were given.

Keywords: "Alphabet", Scratch, interactive learning, digital resource, primary education, innovative technology, visualization, didactics, gamification, multimedia.

Аннотация. В данной статье анализируются инновационные подходы к использованию электронных интерактивных средств в обучении алфавиту в процессе начального образования. С помощью мультимедийных ресурсов, разработанных на основе среды программирования Scratch, освещаются педагогические и психологические механизмы расширения воображения учащихся, повышения их интереса к теме и формирования навыков творческого мышления. Даны предложения по внедрению инновационных моделей на основе Scratch в учебный процесс.

Ключевые слова: «Алфавит», Scratch, интерактивное обучение, цифровой ресурс, начальное образование, инновационная технология, визуализация, дидактика, геймификация, мультимедиа.

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa alifboni o'rgatish jarayoni metodik ehtiyojlar zarur. Interfaol vositalar o'quvchi faoliyatini faollashtirish, motivatsiyani oshirish va bilimlarni puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, multimedia kontentlar o'quvchilar tasavvuri, obrazli fikrlashi va simvollaridan ma'no olish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [1].

Scratch dasturlash muhiti bolalar psixologik xususiyatlariga mos keladigan vizual bloklar, animatsiyalar va o'yin elementlari orqali harflarni o'rgatishga yangi pedagogik yondashuv imkoniyatini yaratadi. Bir qator tadqiqotlar interfaol resurslarning o'quvchi faoliyati va muloqotga kirishishiga ijobiy ta'sirini tasdiqlagan [2: 3]. Mazkur tadqiqot metodologik asoslarining shakllanishida konstruktivistik pedagogika, kognitiv psixologiya, interaktiv ta'lim texnologiyalari hamda raqamli vositalar integratsiyasi bo'yicha ilg'or tadqiqotlar tahlil qilindi [4]. Chunki "Alifbo"ni o'rganish jarayoni bolalarda ramziy tafakkurning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot eksperimental va nazorat guruhlariga asoslangan eksperimental metod orqali tashkil etildi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

Diagnostika bosqichi – boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

Eksperiment bosqichi – interfaol vositalar yordamida o'qitish.

Natijalarni baholash bosqichi – ko'rsatkichlarni tahlil qilish.

Guruhlar maktabning o'quv ko'rsatkichlari, yosh xususiyatlari, psixologik ko'rsatkichlar bo'yicha tenglashtirildi. Nazorat guruhida darslar Davlat Ta'lim Standarti asosida an'anaviy metodlar bilan o'tilgan bo'lsa, eksperimental

guruhda Scratch dasturlash tilida yaratilgan elektron Alifbo interfaol dasturiy vosita orqali mashg'ulotlar olib borildi. Har bir dars quyidagi bosqichlar asosida qurildi:

Motivatsion bosqich – animatsion harf taqdimlari.

O'quv faoliyati bosqichi – harflar bilan interaktsiya (narsalarni rasmlarini harflarga bog'lash, ularning ovozi eshitish, harakatini ko'rish).

Ijodiy topshiriqlar – so'zga mos rasmni bos, harfni to'g'ri joyla, harf birikmalarini to'g'ri birlashtir, krassvord, so'zni to'g'ri top kabi bir qator interfaol o'yinlar.

Baholash – *ofarin, barakalla* so'zlarining sahnaviy va musuqiy shakli orqali rag'batlantirildi.

Bunda konstruktivizm nazariyasi asosiy mezon sifatida qabul qilindi: o'quvchi faol ravishda bilim hosil qiladi, tayyor bilimni o'zlashtirmaydi [5]. Scratch dasturlash tili yordamida ishlab chiqilgan elektron vosita quyidagi funksiyalarni o'z ichiga oldi:

Har bir harf alohida sahifa sifatida vizual animatsiya tarzida

Harfning ovoz bilan ifodalanishi (audio)

Harflar bilan bog'liq rasm va predmetlar

Interfaol mashqlar (drag&drop)

Didaktik o'yinlar: "Top va bog'la", "Harfni ovozga moslash"


Ball tizimi: har bir to'g'ri bajarilgan topshiriq uchun ovoqli rag'bat

Xatolarni avtomatik ko'rish

Qiyinchilik darajasini oshirish imkoniyati

Ushbu vosita bolalarda multimedial o'rganish jarayonini faollashtiradi: ko'rish, eshitish, harakat qilish va tafakkur mexanizmlari bir vaqtning o'zida ishlaydi [6]. Interaktiv topshiriqlarda qo'llanilgan asosiy mexanizmlar: drag&drop (harf-rang-moslik), juftlash (rasm-harf kombinatsiyasi), zanjir tuzish (harflardan

so'z), fonetik moslik (ovoz-harf), ranglar orqali kodlash (harflar o'xshashligi). Ushbu metodlar bolalarda obrazli fikrlashni shakllantiradi. Masalan, "A" harfi "anor", "avtomobil", "archa" bilan bog'lanadi va bu harfga nisbatan semantik karta shakllanadi [7].



Tadqiqotning amaliy bosqichi Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida joylashgan 2-umumta'lim maktabida o'tkazildi. Pedagogik eksperimentda jami 62 nafar 1-sinf o'quvchilari ishtirok etdi, ulardan 31 nafari eksperimental, 31 nafari nazorat guruhiga kiritildi. Eksperimental guruhda "Scratch dasturlash tili yordamida harflarni vizuallashtirish va sahnalashtirish" asosida ishlab chiqilgan **interaktiv elektron vosita** orqali darslar olib borildi. Nazorat guruhida esa amaldagi "Alifbo" darsligi asosida an'anaviy metodlar qo'llandi.

Tajriba boshlanishidan oldin barcha o'quvchilarda quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha **boshlang'ich diagnostika** o'tkazildi:

Harflarni tanish va farqlash qobiliyati, Tovush-harf munosabatini tushunish, Tasavvur va obrazli fikrlash, Harf asosida so'z tuzish ko'nikmasi, Eshitish orqali harfni aniqlash, Mini-sahna (historiya) orqali harfni ifodalash.

Tajriba boshlanishida harflarni farqlash ko'rsatkichlari eksperimental guruhda 21%, nazorat guruhida 19% ni tashkil etdi. Tasavvur va obrazli fikrlash ko'rsatkichlari esa mos ravishda 15% va 14% bo'ldi. Bu esa tadqiqotning **adolatli boshlanish sharoitini** ta'minladi.

Bu model o'quvchilarning fikrlash dinamikasini o'rganishga, shuningdek kombinatsiyalangan metodning ta'sirini tahlil qilish imkonini berdi. 8 haftalik darslardan so'ng qayta diagnostika o'tkazildi va natijalar quyidagicha qayd etildi:

1. Harflarni farqlash ko'nikmalari. Eksperimental guruh 21% – **66%**, Nazorat guruhi – **19%** → **46%**. Eksperimental guruhda o'sish darajasi **45%** ni tashkil qildi, nazorat guruhida esa **27%** o'sish kuzatildi. Bu farq **Scratch sahnasi orqali harflarni obrazlash** o'quvchilarning vizual idrokini kuchaytirganini ko'rsatadi.

2. Tasavvur va obrazli fikrlash. Tasavvur ko'nikmasini baholash uchun o'quvchilarga **harf asosida kichik-sahna yaratish**, kichik-dialog tuzish, rasm va harf orasidagi semantik bog'lanishni izohlash topshirildi.

Eksperimental guruh – **15%** → **53%** (+38%),

Nazorat guruhi – **14%** → **27%** (+13%)

Eksperimental guruhdagi natijalar Papert konsepsiyasi bilan mos keladi, ya'ni bola **o'zi yaratgan obraz orqali fikrlaydi**.

Bu natijalar shuni ko'rsatdiki, audio-voqea, animatsiya va harakat bolada **sinestetik idrokni** shakllantiradi. Harf o'ziga xos "xarakterni" oladi, masalan, "O" harfi "doira" shaklida aylanishi, "A" harfi "asalari" obrazida kabi. Bu

kuzatuvlar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi: Bers va Sullivan tadqiqotlari ham kichik yoshdagi bolalarda **kodlash o'yinlarning psixologik ijobiy ta'sirini** tasdiqlagan. Tadqiqotda olingan natijalar matematik formulada aks ettirildi, diagramma ustun shaklida tahlil qilindi. Eksperimental guruh **keskin ko'tarilishga** ega bo'ldi, nazorat guruhida esa **barqaror, ammo past** ko'rsatkich kuzatildi. Ushbu tadqiqotda o'zbek maktablarining boshlang'ich ta'lim bosqichida "Scratch" dasturlash tili asosida ishlab chiqilgan interaktiv vizual o'quv muhiti 1-sinf o'quvchilarining "Alifbo"ni o'zlashtirish jarayoniga, tasavvur va ijodiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga ta'siri empirik ravishda tahlil qilindi. Natijalardan ko'rinadiki:

- o'quvchilar multimediya yordamida **harflar bilan "muloqotga kirishadi"**, bu esa hissiy motivatsiyani oshiradi;
- interaktivlik o'quvchilarning **xatolarini tez tuzatish** imkonini beradi;
- vizual vositalar o'quvchilarni **faol konstruktorga** aylantiradi, passiv tinglovchi bo'lmaydilar;
- Scratch muhiti yosh bolalar psixologiyasiga mos keladi (o'yin dinamikasi, tasviriylilik, ranglar).

Mazkur holatlar bilan an'anaviy metodikaga nisbatan afzalliklar yaqqol ko'rinadi. Bu natijalar mavjud ilmiy manbalar bilan mos keladi: **Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi"**, Papert **"Constructionism"** nazariyalari Scratchning aynan obrazli fikrlashga kuchli ta'sir qilishini asoslaydi [4: 6]. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, Scratch asosidagi elektron interfaol vositalar "Alifbo"ni o'rgatishda bir nechta innovatsion yondashuvlarni ta'minlaydi:

Vizualizatsiya – abstrakt belgilarning ko'rgazmali obrazlarga aylanishi.

Konstruktiv o'yin faoliyati – o'yin va ta'lim integratsiyasini ta'minlaydi.

Gamifikatsiya – ball, daraja va mukofotlar orqali motivatsiya.

Interfaol muloqot – o'quvchi-o'qituvchi va o'quvchi-o'quvchi interaktsiyasi.

Personalizatsiya – har bir o'quvchining o'z tempida o'rganishi.

Bu yondashuvlar, ayniqsa, 6–7 yoshli bolalarning psixologik rivojlanishiga mos keladi. Multimedial ta'lim vositalari orqali o'quvchilarda harflar bilan bog'liq metaforik tushunchalar, his-tuyg'ular va obrazlar shakllanadi.

Interaktiv kontent dars jarayonining monotoniyasi va passivligini kamaytiradi, o'quvchilarni darsga jalb qiladi. Bu jarayon ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi bilan bog'lanadi [6], ya'ni bilimlar faol muloqot va tajriba orqali egallanadi. Scratch asosida ishlab chiqilgan elektron interfaol vositalar orqali "Alifbo"ni o'rgatish boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuv sifatida yuqori samaradorlikka ega. Tadqiqot natijalari multimediya resurslar o'quvchilarning tasavvur, obrazli fikrlash va o'qishga bo'lgan qiziqishini sezilarli oshirishini tasdiqladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekiston xalq ta'limi tizimi uchun dolzarb bo'lib, raqamli ta'lim vositalari yordamida bolalarda tasavvur, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, savodxonlik ko'nikmalarini erta bosqichdan boshlab shakllantirish mumkinligini ko'rsatadi. Scratch asosidagi ta'lim modeli kelajakda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, o'quvchilarni STEM yo'nalishlariga erta jalb etish, ta'limning zamonaviy axborot texnologiyalari bilan integratsiyasini kuchaytirish uchun poaydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov X., Niyozov A. Raqamli ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
2. Qosimov B., Abduqodirova Z. Boshlang'ich sinfda savod o'rgatish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Inomov A. Multimediya ta'lim tizimlarining psixologik asoslari. – Toshkent: Fan, 2022.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Piaget J. Cognitive Development in Children: Development and Learning // Journal of Research in Science Teaching, 1964.
6. Papert S. The Children's Machine: Rethinking School in the Age of the Computer. – New York: Basic Books, 1993.
7. Aminov A. Raqamli ta'lim vositalari yordamida savod o'rgatish metodikasi // O'zbekiston pedagogikasi, 2021, №2.

Nigora RAXMATOVA,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son o'zbek va xorijiy tillar kafedrasida ingliz tili o'qituvchisi

INNOVATSION METODIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TIBBIYOT YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARGA CHET TILINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion metodik yondashuvlarning nazariy va amaliy asoslari keng yoritiladi. Tibbiyotga oid ingliz tilining o'ziga xos murakkabliklari – klinik terminologiya, professional yozuv, kasallik tarixini tuzish, ilmiy maqolalarni tahlil qilish, bemor bilan muloqot kabi ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlari psixolingvistik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Tadqiqot natijalari innovatsion metodlar yordamida talabalarning klinik fikrlashi, analitik yondashuvi, kommunikativ madaniyati, kasbiy nutqi va ilmiy kompetensiyalarining sezilarli darajada rivojlanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tibbiyotga oid ingliz tili, CLIL, ESP/EMP, TBL, blended learning, sun'iy intellekt, klinik muloqot, terminologiya.

Annotation. This scientific article extensively examines the theoretical and practical foundations of innovative methodological approaches used in teaching English to medical students. From a psycholinguistic perspective, the specific aspects of medical English – clinical terminology, professional writing, medical history collection, analysis of scientific articles, and communication with patients – are examined, as well as the mechanisms for developing these skills. The research results show that innovative methods significantly improve students' clinical thinking, analytical approach, communicative culture, professional speech, and scientific competencies.

Keywords: medical English, CLIL, ESP/EMP, TBL, blended learning, terminology, AI-assisted learning.

Аннотация. В данной научной статье широко рассматриваются теоретические и практические основы инновационных методических подходов, используемых в обучении английскому языку студентов-медиков. С психолингвистической точки зрения рассматриваются специфические аспекты медицинского английского языка – клиническая терминология, профессиональное письмо, сбор анамнеза, анализ научных статей и общение с пациентами, а также механизмы развития этих навыков. Результаты исследования показывают, что инновационные методы значительно улучшают клиническое мышление студентов, их аналитический подход, коммуникативную культуру, профессиональную речь и научные компетенции.

Ключевые слова: медицинский английский язык, CLIL, ESP/EMP, TBL, искусственный интеллект, терминология.

Bugungi globallashuv sharoitida tibbiyot sohasi jadal integratsiyalashib borayotgan bir paytda, xalqaro ilmiy maydon, klinik protokollar, diagnostika standartlari va amaliyot talablari ingliz tilini chuqur bilishni zaruriyatga aylantirmoqda. Tibbiyot sohasidagi innovatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar, epidemiologik kuzatuvlar, farmakologik yo'riqnomalar, xalqaro konferensiya materiallari – barchasi asosan ingliz tilida olib boriladi. Shu sababli tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini o'rganish endilikda qo'shimcha ko'nikma emas, balki kasbiy tayyorgarlikning majburiy elementi hisoblanadi.

Tibbiyotga oid ingliz tilining o'ziga xos jihatlari – terminologik murakkablik, klinik muloqotning nozikliklari, kasallik tarixi yozuvining tuzilishi, ilmiy maqola talablari, kasbiy etikaga mos nutq uslubi – o'qitish jarayoniga yangi metodik yondashuvlarni qo'llashni talab qiladi. Coyle ishlab chiqqan CLIL konsepsiyasi ta'lim jarayonida til va mazmunni integratsiyalash orqali kognitiv faoliyatni kuchaytirishga qaratilgan [1]. Muallifga ko'ra, CLIL modeli talabalarda analitik fikrlash, kontseptual tushunchalarni chuqur o'zlashtirish va til kompetensiyalarini bir vaqtda shakllantirishga yordam beradi. Marsh ushbu yondashuvni amaliy dars modellarida qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqqan bo'lib, ayniqsa tibbiy ta'lim uchun CLILning moslashuvchan va samarali ekanini isbotlagan [2]. Hutchinson va Waters ESP (English for Specific Purposes) nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, ehtiyoj tahlili, kasbiy maqsadlar, til funksiyalari va matn tahliliga asoslangan ta'lim modelini taklif etgan [4]. Ularning ilmiy qarashlari tibbiyotga oid ingliz tilini o'qitishda asosiy pedagogik mezon sifatida

qabul qilingan. Dudley-Evans va S.John esa kasbiy yo'nalgan tilda o'qitish tamoyillarini amaliy jihatdan chuqurlashtirgan [3].

Harmer kommunikativ metodning til o'rgatishdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab, ayniqsa kasbiy muloqotda nutqni boshqarish, mazmunli dialoglar qurish, pragmatik kompetensiyani rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi [5]. Nacion o'z tadqiqotlarida tibbiy terminologiyani o'zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlarini, xususan qisqa muddatli xotira, semantik tarmoqlanish, leksik birliklarning kategorik tasniflanishi jarayonlarini chuqur tahlil qiladi [6]. Holmes (2020) va Zamfir (2021) esa sun'iy intellekt asosidagi raqamli ta'lim vositalarining til o'rganishga ta'sirini o'rganib, AI algoritmlari talabaning til bilimni soddalashtirish, nutqni avtomatik tahlil qilish, klinik dialoglarni modellashtirish va adaptiv mashqlar yaratishda sezilarli yordam berishini ilmiy asoslaydi.

Tibbiyotga oid ingliz tili bugungi kunda global ilmiy axborot almashinuvi, klinik tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar, tibbiy protokollar va diagnostika standartlari uchun asosiy kommunikativ vosita hisoblanadi. ESP/EMP (English for Medical Purposes) modeli aynan kasbiy ehtiyojlarga moslashtirilgan o'qitish tizimidir. Tibbiyotga oid ingliz tilini o'rganish jarayonida terminologik murakkablik, klinik muloqotdagi pragmatika, matnning ilmiy uslubi, dialog strukturalari va kasbiy etikaga mos kommunikativ vazifalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Coyle ta'riflagan CLIL modeli tibbiy ta'limda eng samarali metodlardan biri bo'lib, til va

mazmunni parallel ravishda rivojlantirishni ko'zlaydi. Uning asosiy ustunliklari:

- murakkab klinik mavzular ingliz tilida tahlil qilinadi;
- leksik va grammatik birliklar klinik kontekstda o'zlashtiriladi;
- talabalarda tahliliy fikrlash darajasi oshadi;
- real klinik holatlar asosida problemali ta'lim amalga oshadi.

Misol: "Cardiovascular Diseases" mavzusida anatomiya, patologiya, simptomlar, diagnostik mezonlar va terminologiya birgalikda o'rganiladi. CLIL modeli Bloom taksonomiyasi asosida yuqori darajadagi fikrlash (analysis, evaluate, create) ko'nikmalarini shakllantiradi.

Prabhu va Willis tadqiqotlariga asoslangan bo'lib, tibbiyotda eng amaliy metodlardan biridir. Chunki u real hayotiy vazifalar orqali til kompetensiyasini shakllantiradi. Talabalar ingliz tilida bajaradigan amaliy topshiriqlar: anamnez yig'ish, shikoyatlarni aniqlash (chief complaints), simptomlarni guruhlariga ajratish, dastlabki tashxis qo'yish, klinik qaror qabul qilish. Bu metod klinik fikrlash, aniq nutq, tezkor mulohaza va kasbiy refleksiyani rivojlantiradi. Harmer kommunikativ kompetensiyani tibbiy ta'limdagi eng asosiy ko'nikmalardan biri deb hisoblaydi. Shifokorlar kundalik ish jarayonida savol berish (eliciting information), bemorni tinchlantirish, diagnostik dialoglarni boshqarish, "breaking bad news" etikasi, konsilium davomida fikr bildirish kabi lingvopragmatik vazifalarni bajaradi:

Littlewood (2004) tibbiy dialoglarning strukturasini o'rgatishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Graham (2013) blended learningni an'anaviy va raqamli ta'limni uyg'unlashtiruvchi samarali model sifatida tavsiflaydi. Holmes (2020) va Zamfir (2021) sun'iy intellekt til o'rgatishda quyidagi afzalliklarni berishini ilmiy asoslaydi:

- matnni soddalashtiradi;
- talaffuzni avtomatik tahlil qiladi;
- klinik dialoglar yaratadi;
- adaptiv o'quv mashqlarini taklif qiladi;
- case study jarayonlarini simulyatsiya qiladi.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, CLIL, ESP/EMP, TBL, kommunikativ metod, blended learning va sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga integratsiyasi tibbiyotga oid ingliz tilini o'rgatishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu yondashuvlar talabalarning klinik mulohazasi, analitik fikrlashi, ilmiy nutqi, kasbiy kompetensiyalari va mustaqil ta'lim motivatsiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shuningdek, o'tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy grammatik markazlashgan yondashuv tibbiyot talabalari uchun yetarli bo'lmay qolmoqda. CLIL yordamida talaba tilni o'rganish bilan birga mazmunni chuqur tahlil qiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari talabalarga shaxsiylashtirilgan topshiriqlar taqdim etib. Umuman olganda, mazkur tadqiqot shuni isbotlaydiki, tibbiyotga oid ingliz tilini o'qitishda innovatsion metodlarni kompleks qo'llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Coyle D. Content and Language Integrated Learning. – Cambridge, 2010.
2. Marsh D. CLIL: A Compact Model. – Oxford, 2002.
3. Dudley-Evans T., John M. Developments in ESP. – Cambridge, 1998.
4. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes. – Cambridge, 1987.
5. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – Pearson, 2015.
6. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge, 2013.
7. Holmes J. AI in Language Education. – London, 2020.
8. Zamfir A. Artificial Intelligence and Language Learning. – Bucharest, 2021.

Gulhumor USMONOVA,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

QIYOSIY TAHLIL: INTENSIV VA EKSTENSIV O'QISH METODLARINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishda intensiv va ekstensiv o'qish metodlarining o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Intensiv o'qish, matnni chuqur va batafsil tahlil qilishga qaratilgan bo'lsa, ekstensiv o'qish keng miqyosdagi matnlarni umumiy tushunish va zavqlanish uchun o'qishni nazarda tutadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi har bir metodning qaysi til ko'nikmalariga ko'proq ta'sir qilishini aniqlashdir.

Kalit so'zlar: intensiv o'qish, ekstensiv o'qish, til o'rganish, samaradorlik, o'qish ko'nikmalari, lug'at, grammatika.

Annotation. This article is devoted to a comparative analysis of the effectiveness of intensive and extensive reading methods in developing students' language skills in teaching English as a foreign language. Intensive reading is aimed at deep and detailed analysis of the text, while extensive reading involves reading texts of a wide scale for general comprehension and enjoyment. The main goal of the research is to determine which language skills are most influenced by each method.

Keywords: intensive reading, extensive reading, language learning, effectiveness, reading skills, vocabulary, grammar.

Аннотация. Данная статья посвящена сравнительному анализу эффективности интенсивных и экстенсивных методов чтения в развитии языковых навыков учащихся при обучении английскому языку как иностранному. В то время как интенсивное чтение направлено на глубокий и подробный анализ текста, экстенсивное чтение подразумевает чтение текстов широкого масштаба для общего понимания и удовольствия. Основная цель исследования – определить, на какие языковые навыки каждый метод оказывает наибольшее влияние.

Ключевые слова: Интенсивное чтение, экстенсивное чтение, изучение языка, эффективность, навыки чтения, словарный запас, грамматика. Til ta'limining doimiy rivojlanib borayotgan manzarasida

ta'limning samarali natijalariga erishish uchun zamonaviy o'qitish usullarini qo'llash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan til o'rgatish yondashuvlari an'anaviy usullardan o'zaro ta'sir va mulohaza ustuvor ahamiyat beruvchi dinamik va talabaga

yo'naltirilgan yondashuvlarga o'tdi. Ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy uslublarni qo'llash til o'rganish tajribasida faol ishtirok etish, motivatsiya va dolzarblilikni oshirish uchun juda muhimdir. Zamonaviy usullarni birlashtirgan holda, o'qituvchilar o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirishi mumkin, bu esa tilni yanada samarali o'zlashtirish va saqlashga olib keladi. Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish jarayonida o'qish ko'nikmasi muhim o'rin tutadi, chunki u tilni o'rganuvchilarga yangi lug'at, grammatik tuzilmalar va madaniy ma'lumotlarni o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Til o'qitish metodikasida o'qish ko'nikmasini rivojlantirishning ikki asosiy yondashuvi mavjud: intensiv o'qish (intensive reading) va ekstensiv o'qish (extensive reading). Intensiv o'qish matnning har bir so'zi, gap tuzilishi va grammatik jihatlariga chuqur e'tibor qaratishni talab qilsa, ekstensiv o'qish katta hajmdagi, nisbatan oson matnlarni umumiy mazmunini tushunish va zavqlanish uchun o'qishni nazarda tutadi.

Hozirgi vatqda nafaqat chet tiliga o'qitish bo'yicha balki barcha fanlarga o'qitishni, o'rgatishni yangi-yangi metodlarini izlab topish va uni amalda sinab ko'rish to'g'risida ko'p ishlar qilingan va bugungi kunda ham bu ishlar izchil davom etirilmoqda. Bu hozirgi kundagi ta'lim tarbiya jarayonini yaxshilash, uchun xalq qilinishi kerak bo'lgan eng muhim muammoli jihatlardan biridir. O'zbekistondagi ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda ko'pincha intensiv o'qish metodlariga ustuvorlik beriladi. O'quvchilar ko'pincha matnning har bir detalini tahlil qilishga majbur bo'lishadi, bu esa ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi va o'qish tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ekstensiv o'qish esa yetarli darajada qo'llanmaydi, uning til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi salohiyati to'liq ishga solinmaydi. Shuning uchun, har ikki metodning ingliz tilini o'rganuvchilarning turli til ko'nikmalariga qanday ta'sir qilishini aniqlash va ularning samaradorligini qiyosiy baholash dolzarb ilmiy muammoga aylanadi.

Talabalar taraqqiyoti va tilni bilish darajasini baholash orqali o'qituvchilar o'z yondashuvlarini aniq sozlashlari va o'quvchilarning o'zlarining to'liq imkoniyatlarini ishga solishlarini ta'minlashlari mumkin. Innovatsion o'qitish usullarining samaradorligini o'lchash nafaqat hozirgi talabalarga foyda keltiradi, balki ingliz tili ta'limining kelajagini ham shakllantiradi. Talabalarining muvaffaqiyatini baholash baho qo'yishdan ham oshib ketadi – bu talabalar tilni qanchalik yaxshi o'zlashtirayotganini va uni real hayot stsenariylarida qo'llashini tushunishdir. Turli til ko'nikmalarini sinovdan o'tkazadigan muntazam baholashlar kuchli tomonlar va yaxshilashga muhtoj bo'lgan sohalar haqida qimmatli tushunchalar beradi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston kontekstida **intensiv va ekstensiv** o'qish metodlarining o'qish ko'nikmalariga ta'sirini empirik tarzda o'rganish orqali mavjud bo'shliqni to'ldiradi. Olingan natijalar ingliz tili o'qituvchilari va o'quv dasturlarini tuzuvchilarga qaysi metodni qaysi maqsadlarda samarali qo'llash bo'yicha asosli ma'lumot beradi. Bu esa o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ta'lim strategiyalarini takomillashtirishga va o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan yondashuv. Faqat bitta metodga yopishib qolmasdan, har ikki metodni dars jarayoniga integratsiya qilish

tavsiya etiladi. Masalan, darsning bir qismida intensiv matn tahlili o'tkazilsa, boshqa qismida o'quvchilarga o'z darajasiga mos keladigan va qiziqarli ekstensiv matnlarni mustaqil o'qishga rag'bat berish.

Material tanlash. Intensiv o'qish uchun akademik va ma'lumotga boy, murakkab matnlarni, ekstensiv o'qish uchun esa soddalashtirilgan kitoblar (graded readers), qiziqarli jurnallar, gazeta maqolalari yoki onlayn resurslardan foydalanish.

O'qituvchining roli. O'qituvchi ekstensiv o'qishda ko'proq fasilitator (ko'maklashuvchi) rolini bajarishi, o'quvchilarni matn tanlashda yo'naltirishi va ularni motivatsiya qilishga e'tibor berishi kerak. Intensiv o'qishda esa chuqur tahlil qilishga yordam beruvchi faol o'qituvchi bo'lishi lozim.

Baholash tizimi. Har ikki metodning maqsadlariga mos ravishda baholash mezonlari ishlab chiqilishi kerak. Intensiv o'qish uchun aniqlik va tahliliy qobiliyat, ekstensiv o'qish uchun esa umumiy tushunish va o'qish tezligi baholanishi mumkin.

Olingan natijalar har ikki o'qish metodining o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari borligini yaqqol ko'rsatdi. Intensiv o'qish grammatik aniqlik, murakkab lug'atni o'zlashtirish va matnni chuqur tahlil qilishda samarali bo'lib, o'quvchilarni tilning strukturaviy jihatlarini puxta o'rganishga undaydi. Bu akademik maqsadlar uchun juda muhimdir. Ekstensiv o'qish esa lug'at boyligini tezda kengaytirish, o'qish tezligini oshirish va umumiy tushunishni yaxshilashda ustunlik qildi. Eng muhimi, ekstensiv o'qish o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi, bu esa uzoq muddatli til rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari Day va Bamford (1998) kabi tadqiqotchilarning ekstensiv o'qishning til o'rganishga ijobiy ta'siri haqidagi nazariyalarini tasdiqlaydi. Ular ekstensiv o'qish til o'rganuvchilarga "kirish qulayligini" (comprehensible input) oshirish orqali til o'zlashtirishga yordam berishini ta'kidlaydilar (Krashen, 1985). Shuningdek, natijalar o'qish jarayonida "o'qish zavqi" ning (reading for pleasure) motivatsiyani oshirishdagi rolini ham yoritadi. Intensiv o'qishning ahamiyati esa Grabe va Stoller (2002) tomonidan ta'kidlanganidek, tilni akademik va professional maqsadlarda chuqur tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishda yotadi.

Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy o'qitish usullarini o'zlashtirish nafaqat o'quvchilarni samarali muloqot qilish uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlabgina qolmay, balki turli madaniyatlar va dunyoqarashlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Innovatsion yondashuvlarni qo'llash, texnologiyadan foydalanish va talabalarga yo'naltirilgan ta'limga ustuvor ahamiyat berish orqali o'qituvchilar talabalarni tobora o'zaro bog'langan dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlaydigan boyituvchi til o'rganish tajribasini yaratishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tili o'qitishda har ikki metodni strategik ravishda birlashtirgan integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish va ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini doimiy ushlab turish uchun eng maqbul yo'ldir. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning umumiy kommunikativ kompetensiyasini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babayeva X.U. O'quvchilarda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2023.
2. Malikova D.M. Cognitive approach to the formation of reading culture skills in students. – Toshkent, 2022.
3. Cain K. Individual differences in children's memory and reading comprehension: An investigation of semantic and inhibitory deficits // Memory, 2006.
4. Saidrahimova N. Kognitiv tilshunoslikda "tushuncha" va "konsept", ularni tahlil qilish usullari. – Toshkent, 2022.

5. Шавдиров С.А. Особенности подбора цвета в обучении изобразительному и прикладному искусству // International Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education, 2018. – P. 84–85.
6. Shavdirov S.A. Selection criteria of training methods in design fine arts lessons // Eastern European Scientific Journal, 2017, №1.
7. Shovdirov S., Boymetov B.B. Methods of organizing practical and theoretical classes for students in the process of teaching fine arts // International Journal on Integrated Education.

Gulmira MAMATKARIMOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Angren fakulteti o'qituvchisi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning tutgan o'rnini, boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi roli haqida so'z yuritiladi. Kelajak o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalarni egallashi va ularni amaliyotda qo'llashi zarurligini ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, boshlang'ich ta'lim, shaxsiylashtirilgan ta'lim, ta'limni avtomatlashtirish, interfaol ta'lim.

Annotation. The article examines the role of digital technologies and artificial intelligence in modern education, their significance in primary education, and their role in preparing primary school teachers. The need for future teachers to master digital competencies and apply them in practice is emphasized.

Keywords: digital technologies, artificial intelligence, primary education, personalized learning, automation in education, interactive learning.

Аннотация. В статье рассматривается роль цифровых технологий и искусственного интеллекта в современном образовании, их значение в начальном образовании и роль в подготовке учителей начальных классов. Подчеркивается необходимость овладения будущими учителями цифровыми компетенциями и их применения на практике.

Ключевые слова: цифровые технологии, искусственный интеллект, начальное образование, персонализированное обучение, автоматизация образования, интерактивное обучение.

Zamonaviy dunyoda texnologiyalarning jadal rivojlanishi kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib, ta'lim sohasini ham tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar (RT) va sun'iy intellekt (SI) ushbu transformatsiyaning markazida turib, kelajakni shakllantiradigan yangi avlodni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich ta'lim – bu bolalarning dunyoqarashi va asosiy ko'nikmalari shakllanadigan asosiy bosqich bo'lib, kelgusi o'qituvchilarning ushbu innovatsiyalarning mohiyati, funksiyalari va imkoniyatlarini chuqur tushunishi zarur. Chunki aynan ular ta'lim jarayoniga ushbu yangiliklarni joriy etib, raqamli muhitda samarali faoliyat yurita oladigan avlodni tarbiyalaydi [1: 17].

Ta'limdagi raqamli texnologiyalar: tushuncha, turlari va ahamiyati. Ta'limdagi raqamli texnologiyalar – ta'lim samaradorligi, qulayligi va sifatini oshirishga qaratilgan raqamli ma'lumotlar asosidagi keng ko'lamli vositalar, tizimlar va resurslardir. Ular oddiy kompyuter dasturlaridan tortib, murakkab integratsiyalashgan platformalargacha bo'lgan hamma narsani qamrab oladi va asosiy maqsadi – ta'lim jarayonini interfaol, shaxsiylashtirilgan va har bir o'quvchi ehtiyojlariga yo'naltirilgan qilishdir. RT ta'limning an'anaviy usullaridan tashqariga chiqib, yangi bilim olish, kommunikatsiya va ijodkorlik shakllarini taklif etadi. Asosiy qo'llaniladigan raqamli texnologiya turlari:

- Multimedia texnologiyalari. Matn, grafik, audio, video va animatsiya kabi turli formatdagi kontentlardan foydalanish orqali interfaol va qiziqarli o'quv materiallarini yaratish. Interfaol doskalar, multimedia taqdimotlar, o'quv videolari va simulyatsiyalar buning misolidir.

- Tarmoq texnologiyalari va internet resurslari. Ma'lumotlarga kirish, muloqot va hamkorlik uchun mahalliy va global tarmoqlardan foydalanish. Bunga o'quv portallari, onlayn kutubxonalar, masofaviy ta'lim platformalari (LMS), masalan, Moodle, Canvas, Google Classroom, shuningdek ta'lim maqsadlarida foydalaniladigan ijtimoiy tarmoqlar va bloglar kiradi.

- Mobil texnologiyalar. Ta'lim jarayonida smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalardan foydalanish. Bunga

mobil platformalarda mavjud bo'lgan o'quv dasturlari, mobil o'yinlar, elektron darsliklar kiradi.

- Bulut texnologiyalari. Dasturiy ta'minot va ma'lumotlarga internet orqali mahalliy kompyuterlarga o'rnatmasdan kirish imkonini beradi. Google Docs, Microsoft 365, fayllar uchun bulutli saqlash joylari misol bo'la oladi. Ular loyihalar bo'yicha hamkorlikni osonlashtiradi, har qanday qurilmadan materiallarga kirishni ta'minlaydi va dasturiy ta'minot va infratuzilma xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirib, o'quv resurslarini yanada qulayroq qiladi.

- Virtual va kuchaytirilgan realistik (VR/AR). Foydalanuvchilarga virtual ob'ektlar va simulyatsiyalar bilan o'zaro ta'sir qilish imkonini beruvchi immersive muhitlarni yaratadi. VR foydalanuvchini virtual dunyoga to'liq cho'mdirsa, AR virtual ob'ektlarni haqiqiy muhitga qo'shadi.

Ta'limda sun'iy intellekt: mohiyati va imkoniyatlari. Ta'limda sun'iy intellekt odatda inson intellektini talab qiladigan vazifalarni bajarish uchun o'quv jarayoni va ta'lim muassasalarini boshqarishni yaxshilashga qaratilgan kompyuter tizimlarini ishlab chiqish va qo'llash bilan bog'liq sohadir. SI ta'limni avtomatlashtirish, optimallashtirish va shaxsiylashtirish, shuningdek o'qituvchilarni ularning kasbiy faoliyatida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu oddiy dasturlardan foydalanish emas, balki ma'lumotlarni tahlil qilish, o'rganish, qaror qabul qilish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan aqlli tizimlarni yaratishdir [2: 35].

Sun'iy intellektning ta'limdagi asosiy vazifalari:

1. Ta'limni shaxsiylashtirish. SI har bir o'quvchining individual ehtiyojlari, o'rganish sur'ati, ma'lumotni qabul qilish uslubi va imtiyozlarini tahlil qila oladi. Ushbu tahlil asosida SI tizimlari shaxsiylashtirilgan o'quv rejalarini yaratishi, vazifalarning murakkabligini moslashtirishi, qo'shimcha materiallarni taklif qilishi yoki aksincha, o'quvchi yaxshi biladigan mavzularni tezroq o'zlashtirishi mumkin. Bu o'quv vaqtidan maksimal darajada samarali foydalanish va o'quvchining motivatsiyasini saqlashga imkon beradi.

2. Rutin vazifalarni avtomatlashtirish. SI o'qituvchilar tomonidan ma'muriy va rutin vazifalarga sarflanadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartirishi mumkin, masalan, uy vazifalarini tekshirish, baholash, jadval tuzish, tez-tez so'raladigan savollarga javob berish. Bu o'qituvchilarni o'quvchilar bilan individual ishlash, ijodiy topshiriqlar va o'qitish metodikalarini ishlab chiqish kabi muhimroq vazifalar uchun vaqt ajratish imkonini beradi.

3. Aqlli baholash va qayta aloqa tizimlari. SI o'quvchilarning taraqqiyotini tahlil qilishi, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, potentsial qiyinchiliklarni oldindan aytishi va natijalarni yaxshilash uchun individual tavsiyalar berishi mumkin. Ushbu tizimlar darhol va batafsil qayta aloqani ta'minlab, xatolarni tushuntirishi va ularni tuzatish yo'llarini taklif qilishi mumkin. Bu o'quvchilarga materialni tezroq o'zlashtirish va ular jiddiy muammolarga aylanishidan oldin kamchiliklarini tuzatish imkonini beradi.

4. Aqlli murabbiylik tizimlarini ishlab chiqish. Bu haqiqiy o'qituvchining ishini taqlid qiladigan, o'quvchilarga individual yordam, tushuntirishlar va qo'llab-quvvatlashni taqdim etadigan dasturiy agentlardir. Ular savollarga javob berishi, maslahatlar berishi, murakkab tushunchalarni tushuntirishi va hatto o'quvchi bilan suhbatlashishi, uning javoblariga qarab o'qitish strategiyasini moslashtirishi mumkin.

5. Ma'lumotlarni tahlil qilish va bashorat qilish. SI o'quv jarayoni, o'quvchilarning xatti-harakatlari, turli o'qitish metodlarining samaradorligi haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plashi va tahlil qilishi mumkin. Ushbu tahlil asosida tendentsiyalarni aniqlash, o'quvchilarning muvaffaqiyatini bashorat qilish, o'quvchilarning tark etishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ta'lim sifatini yaxshilash uchun asosli qarorlar qabul qilish mumkin.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning integratsiyasi: sinergik ta'sir. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning

ta'limda integratsiyalangan qo'llanilishining mohiyati sinergik effektini yaratishdan iborat bo'lib, unda RT infratuzilma va instrumental bazani ta'minlaydi, SI esa ushbu texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan jarayonlarni optimallashtiradigan, shaxsiylashtiradigan va avtomatlashtiradigan intellektual "dvigatel" vazifasini bajaradi [3: 37]. Bu alohida vositalarning oddiy yig'indisi emas, balki har bir tarkibiy qismi ikkinchisini kuchaytirib, sifat jihatidan yangi darajadagi ta'lim muhitiga olib keladigan kompleks tizimdir. Ushbu ikki yo'nalishning integratsiyasi quyidagilarga imkon beradi:

Moslashuvchan ta'lim muhitlarini yaratish. RT platformalar va kontentni ta'minlaydi, SI esa materialni yetkazish, topshiriqlarning murakkabligi va o'quv sur'atini dinamik ravishda moslashtirish uchun o'quvchining ushbu kontent bilan o'zaro ta'sirini tahlil qiladi.

Shaxsiylashtirilgan ta'limni keng miqyosda ta'minlash. An'anaviy ravishda, ta'limni shaxsiylashtirish har bir o'quvchi bilan individual ishlaydigan o'qituvchining katta sa'y-harakatlarini talab qilgan. RT va SI ni integratsiya qilish ushbu yondashuvni masshtablab, o'qituvchini haddan tashqari yuklamasdan har bir o'quvchiga individual o'quv yo'lini taqdim etish imkonini beradi [4: 42].

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning integratsiyalashgan qo'llanilishi dinamik, moslashuvchan va yuqori samarali ta'lim ekotizimini yaratishga qaratilgan bo'lib, u nafaqat o'quvchilarni raqamli dunyoda yashashga tayyorlaydi, balki ularning o'zgaruvchan ehtiyojlariga doimiy moslashib, maksimal sifatli va shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlaydi. Kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu ushbu texnologiyalarning ishlash tamoyillarini chuqur tushunish va ularni o'zlarining kundalik pedagogik amaliyotiga samarali integratsiya qilish ko'nikmasini egallash zarurligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шарипов Н.Б. Методология педагогического исследования в условиях цифровой среды. Ташкент: Университет, 2023.
2. Сихнабиев Р.А. Цифровые образовательные платформы как средство организации самостоятельной работы студентов. Ученые записки Забайкальского государственного университета. Серия: Педагогика и психология, 2021, Т.16, № 5.
3. Юдина А.В. Развитие профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов в области цифровых технологий. Современные научные исследования и инновации, 2023, №6.
4. Yakupova G. I. Использование ИИ-технологий для формирования языковых компетенций у учащихся начальных классов. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, 2022, № 7.

Dilafroz KENJABAYEVA,

*Termiz davlat universiteti fakultetlararo chet tillari kafedrasida dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

MEDIA TA'LIM TIZIMIDA TALABA YOSHLARNING MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada media ta'lim tizimi sharoitida talaba yoshlarda muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida talabalar media muhitidagi muloqot jarayonlari o'rganildi, media muloqot madaniyatining tarkibiy tuzilmasi aniqlashtirildi, shuningdek, media ta'limga asoslangan uch bosqichli pedagogik model ishlab chiqildi. Natijalar media vositalaridan ongli va tizimli foydalanish muloqot madaniyatining sifat jihatidan oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: media ta'lim, muloqot madaniyati, kommunikativ kompetensiya, media savodxonlik, raqamli etika, tanqidiy tahlil, media texnologiyalar, virtual muloqot.

Annotation. This article scientifically analyzes the pedagogical foundations of the formation of a culture of communication among students in the context of a media education system. During the study, students' communication processes in the media environment were studied, the structural structure of media communication culture was clarified, and a three-stage pedagogical model based on media education was developed. The results confirmed that the conscious and systematic use of media has a positive effect on the qualitative improvement of communication culture.

Keywords: media education, communication culture, communicative competence, media literacy, digital ethics, critical analysis, media technologies, virtual communication.

Аннотация. В статье научно анализируются педагогические основы формирования культуры общения студентов в условиях системы медиаобразования. В ходе исследования изучены коммуникативные процессы студентов в медиасреде, уточнена структурная структура культуры медиакommunikации и разработана трёхэтапная педагогическая модель, основанная на медиаобразовании. Результаты исследования подтвердили, что осознанное и систематическое использование медиа положительно влияет на качественное повышение культуры общения.

Ключевые слова: медиаобразование, культура общения, коммуникативная компетентность, медиаграмотность, цифровая этика, критический анализ, медиатеchnологии, виртуальная коммуникация.

Raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalarining keskin rivojlanishi ta'lim muhitini tubdan o'zgartirmoqda. Talabalar kundalik hayotida internet, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar va interaktiv axborot makonidan faol foydalanadi. Ushbu jarayon nafaqat axborotni tezkor qabul qilish, balki muloqot madaniyatining yangi shakllarini ham shakllantiradi. Media ta'lim tizimi yoshlarni ongli, madaniyatli, etika qoidalariga amal qilgan holda muloqot qilishga yo'naltiruvchi muhim pedagogik mexanizmdir. Shu boisdan media ta'lim orqali talaba-yoshlarda muloqot madaniyatini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda media texnologiyalari ta'lim va tarbiya jarayonining ajralmas tarkibiga aylanib bormoqda. Talabalar raqamli axborot makoni orqali doimiy muloqot olib boradi, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, videoplatformalar va onlayn forumlar orqali o'z fikrini bildiradi, bahs-munozaralarda ishtirok etadi. Bu esa nafaqat ularning axborot olish usullarini, balki muloqot madaniyatini ham tubdan o'zgartirmoqda. Shu bois media ta'lim tizimida muloqot madaniyatini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish, uni amaliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hozirgi pedagogikaning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Media muloqot talabaning nafaqat og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini, balki axborot bilan ishlash, tanqidiy tahlil, virtual etikaga amal qilish, konfliktlarni konstruktiv hal etish kabi kompetensiyalarini shakllantiradi [2: 287]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, media makonida samarali muloqot qiluvchi talaba: axborot ishonchligini baholay oladi; media matnlarning mazmunini sharhlash va tahlil qilishga qodir bo'ladi; raqamli odoob-axloq qoidalariga amal qiladi; virtual bahs-munozara jarayonlarida madaniyatli ishtirok etadi; o'z fikrini aniqlik bilan, asostangan holda ifodalaydi [4: 97]. Shu jihatdan media ta'lim talabalarda kommunikativ kompetensiyaning kengaytirilgan, zamonaviy modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- **tizimli tahlil** – media muloqotning tarkibiy qismlarini o'rganish;
- **pedagogik kuzatuv** – talabalar ishtirokidagi media muloqot jarayonlarini baholash;
- **kontent tahlili** – media matnlarning shakli, mazmuni va til xususiyatlarini tahlil qilish;
- **so'rovnom va suhbat** – talabalarining media savodxonligi va muloqot madaniyati darajasini aniqlash;
- **eksperimental ta'lim modeli** – media ta'lim asosidagi pedagogik shartlarning samaradorligini sinovdan o'tkazish.

Tadqiqot natijalari media ta'lim tizimining talaba-yoshlar muloqot madaniyatini shakllantirishdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy ilmiy xulosalarni yuzaga chiqardi.

Media muloqot madaniyatining tarkibiy tuzilmasi aniqlandi.

O'tkazilgan tahlillar media makonida shakllanayotgan muloqot madaniyati bir nechta o'zaro integratsiyalashgan kompetensiyalar majmuasiga asoslanishini ko'rsatdi. Jumladan, talabalar muloqot jarayonida axborotni baholash, tahlil qilish va uni tanqidiy fikrlash asosida qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Shuningdek, media matnlarni anglash, ularni mazmun jihatdan sharhlay olish, mavqe bildirish va fikrni asosli tarzda ifoda etish ko'nikmalari muloqot madaniyatining ajralmas komponenti sifatida qayd etildi. Tadqiqot davomida raqamli etikaga rioya qilish, virtual muhitda mas'uliyatli kommunikatsiya yuritish, bahs va munozara jarayonida madaniyatli yondashuvlarni qo'llash, konfliktli muloqot strategiyalaridan foydalanish ham talabalar o'rtasida muloqot madaniyati darajasining ko'rsatkichlari sifatida belgilandi. Bundan tashqari, raqamli nutq madaniyati – fikrni aniq, mantiqli, xushmuomalalik bilan va vaziyatga mos rasmiylik darajasini tanlagan holda ifodalash – media muhitidagi samarali kommunikatsiyaning muhim omili sifatida namoyon bo'ldi [3: 412].

Pedagogik shart-sharoitlar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasida media ta'lim orqali muloqot madaniyatini samarali shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar majmuasi belgilandi. Jumladan, o'quv jarayoniga media-pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish, media savodxonlikni mustaqil ta'lim tarkibiga qo'shish, ijodiy media loyihalar orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish kabi didaktik yo'nalishlar muhim omillar sifatida aniqlandi.

Tadqiqot media ta'lim talabalarda muloqot madaniyatining shakllanishi uchun samarali vosita ekanini ko'rsatadi. Media muloqot jarayonida talaba nafaqat axborotni qabul qiladi, balki uni qayta ishlaydi, tahlil qiladi, o'z pozitsiyasini asoslab beradi. Bu esa tanqidiy fikrlash, nutq madaniyati, madaniyatli muloqot va media etikasi kabi muhim kompetensiyalarning rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, media ta'limni pedagogik jarayonga to'laqonli integratsiya qilish o'qituvchidan ham yangicha yondashuv, media pedagogika bo'yicha bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, media vositalari asosidagi mashg'ulotlar orqali talabalar o'zaro fikr almashish, jamoaviy muloqot va axborotni ongli qabul qilish jarayonlarida yanada faol bo'ladi.

Media ta'lim tizimi talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali pedagogik yo'nalishidir. Media vositalari asosidagi ta'lim jarayonlari yoshlarni etik muloqotga, tanqidiy fikr yuritishga, mas'uliyatli axborot iste'moliga va professional nutq madaniyatiga yo'naltiradi. Tadqiqot natijalari media ta'limning muloqot madaniyatini shakllantirishdagi o'zni yuqori ekanini tasdiqlaydi va kelgusida ta'lim jarayoniga media-pedagogik metodlarni yanada chuqur integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aldashev I. Integration of media education in the educational process // Scientific journal of the Fergana State University, 2023. Vol.29, Issue 3/a170.
2. Irgashev M.U., Tukhtasinova M.A. The Importance of Multimedia Support in Foreign Language Lessons // Экономика и социум, 2023, (12 (115)-1). – P. 286 – 289.

3. Kenjabayeva D.A. The Role of Multimedia Resources in Developing the Education of Elegance in Foreign Language Teachers // Экономика и социум, 2025, (6-2 (133)). – P. 411–413.
4. Kenjabaeva D. Teaching foreign languages through interactive methods to professional education students // European International Journal of Pedagogics, 2024, 4(03). – P. 96–99.
5. Qundizaliyeva S. Media ta'lim sharoitida yoshlarning tafakkurini rivojlantirishning metod va usullari // Academic research in educational sciences, 2022, 3 (12). – P. 456–461.

Nilufar SHAKAROVA,

Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti;

Odina SAIDAXMEDOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

YOZMA NUTQIY FAOLIYAT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozma nutqiy faoliyatning ilmiy-nazariy asoslari, klassik olimlarning nutqiy faoliyatga berilgan ta'riflari hamda zamonaviy metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Nutqiy faoliyatning psixolingvistik mohiyati, fanlararo integratsiya hamda raqamli vositalar orqali yozma nutqni rivojlantirish masalalari yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy savodxonlik, nutqiy faoliyat, lisoniy qobiliyat, nutqiy jarayon, verbal, noverbal, yozma nutq, yondashuv.

Annotation. This article analyzes the scientific and theoretical foundations of written speech activity, the definitions given by classical scholars of speech activity, and modern methodological approaches. The psycholinguistic essence of speech activity, issues of interdisciplinary integration, and the development of written language using digital tools are considered as a holistic system.

Keywords: speech literacy, speech activity, linguistic competence, speech process, verbal, nonverbal, written speech, approach.

Аннотация. В данной статье анализируются научно-теоретические основы письменной речевой деятельности, определения, данные классическими учеными речевой деятельности, а также современные методические подходы. Психолингвистическая сущность речевой деятельности, вопросы междисциплинарной интеграции и развития письменной речи с помощью цифровых средств рассматриваются как целостная система.

Ключевые слова: речевая грамотность, речевая деятельность, языковая компетенция, речевой процесс, вербальный, невербальный, письменная речь, подход.

Fanlararo integratsiyaning ommalashuvi ta'lim oluvchilarning yanada nutqiy savodxonlikka erishishini talab qilmoqda. Nutqiy savodxonlikka erishishda nutqiy faoliyatni har jihatdan tadqiq etish muhim sanaladi. Turli davrlarda olimlar nutq faoliyat ta'rifiga turlicha yondashganlar. A.A.Leontev fikriga ko'ra, F.de Sossyur nutqiy faoliyatni til va lisoniy qobiliyatning birligi sifatida tushuntirgan. L.V.Shcherba esa nutqiy faoliyatni so'zlash va tushunish jarayonlarining umumlashmasi, deb belgilagan [1]. Y.S.Kubryakovaning ta'kidlashicha, aynan L.V.Shcherba til hodisalariga oid bo'lgan nutq, uning real asosi hamda nutqiy jarayon mahsulini ajratib ko'rsatgan. Shuningdek, olimlar nutqiy faoliyat termini ostida nutq yaratilishi va uning qabul qilinishiga oid barcha hodisalarni tushunish kerakligini alohida qayd etgan [2]. "Nutqiy faoliyat o'zining barcha mezonlariga ko'ra, eng murakkab faoliyat turlaridan biridir. Nutqiy faoliyat mustaqil, tugallangan faoliyat akti sifatida kamdan kam holatlarda namoyon bo'ladi. U odatda faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ishtirok etadi. Jumladan, odatdagi nutqiy ifoda boshqa odamning xatti-harakatini boshqaruvchi ifoda hisoblanadi. Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, bunday boshqaruv muvaffaqiyatli tamomlangandagina faoliyat tugallangan sanaladi" [3].

I.A.Zimnayaga ko'ra, nutqiy faoliyat faol, aniq bir maqsadga qaratilgan, til vositasida amalga oshiriladigan va holatlardan kelib chiqqan holda insonlar o'rtasida o'zaro ta'sir qilish, muloqot qilish jarayonidir. Nutqiy faoliyat boshqa kengroq, masalan, ijtimoiy-ishlab chiqarish, bilish faoliyatiga ham kirishi mumkin. Biroq u mustaqil faoliyat bo'lishi mumkin. Nutqiy faoliyatning har qaysi turi o'zining "kasbiy timsoli"ga ega bo'ladi, masalan, gapirish – ma'ruzachining, yozish – yozuvchining kasbiy faoliyatini ko'rsatadi [4]. F.de Sossyur til nutq orqali reallashuvini ko'rsatib o'tgan. Olim ijtimoiy hodisa bo'lgan tilni imkoniyat, nutqni esa yuzaga chiqadigan hodisa sifatida tilning ifoda vositalaridan foydalanilishini alohida ta'kidlaydi [5: 52–53.]. Nutq nutq a'zolarining harakati

jarayonida paydo bo'ladi. Ruhiy hodisa bo'lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o'tgach, haqiqatga aylanadi. Demak, nutq nutq faoliyatining mahsulotidan, ma'lum shaklga kirishidan iborat [6].

Nutqiy faoliyatga berilgan ta'riflardan ko'rinadiki, u ba'zan turg'un hodisa (masalan, matn), ba'zan esa harakatdagi hodisa (masalan, so'zlash va eshitish) sifatida talqin qilinadi. Nutqiy faoliyatga berilgan mazkur ilmiy ta'riflar bir-biridan turli jihatlariga ko'ra farq qilsa-da, ularning barchasida ikki omil: so'zlovchi va tinglovchi faoliyati nazarda tutilganligini ko'rish mumkin. Shunday qilib, **nutqiy faoliyat** – kishilarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: og'zaki va yozma tarzda. Nutqiy faoliyatni verbal yoki noverbal, tugallangan yoki tugallanmagan, yakka shaxslar o'rtasida yoki jamoaviy kabi bir necha turlarga ajratish mumkin [7: 9].

Zamonaviy ta'lim tizimida, xususan, o'zbek tili darolarida, og'zaki va yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Og'zaki nutq intonatsiya va kontekstga bog'liqlik kabi dinamik elementlarga asoslangan bo'lsa, yozma nutq esa strukturalashtirilganlik, grammatik to'g'rilik va vizual semiotikaga tayangan holda shakllanadi. Ushbu ikki nutq shaklining o'zaro aloqadorligiga rioya qilish nafaqat o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki ularning aqliy va ijtimoiy faoliyatini ham kuchaytirishga xizmat qiladi. Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutq yozma nutqni to'ldiruvchi vosita sifatida ishlatilganda, o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayoni tezlashtiriladi va nutqning semantik va pragmatik qatlamlari chuqurroq egallanadi. Masalan, Lev Vygotskiyning nazariyasiga ko'ra, nutq shakllari o'rtasidagi o'zaro ta'sir bolalarning ichki nutqini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu esa ularning fikrlash jarayonini tashqi nutq orqali ichki monologga o'tkazishga yordam beradi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida o'quvchilarga nutq maqsadiga muvofiq so'z tanlash yo'llarini o'rgatish – bu til ta'limining asosiy strategiyalaridan biridir. Bu jarayon orqali bolalar so'zlarning leksik ma'nolarini emas, balki kontekstual va pragmatik konnotatsiyalarini ham ochib berish orqali to'g'ri nutq tuzish sirlarini egallaydi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, so'z tanlashning tezligi o'quvchining nutq faoliyatidagi ishtirok darajasini belgilaydi: maqsadga mos so'zlarni tez tanlaydigan o'quvchi nutq jarayonida faolroq qatnashadi va bu uning kognitiv yuklamasini kamaytiradi. Grammatika darslarini psixologik va lingvistik elementlar bilan boyitish, o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali natija beradi. Bunda so'zlarning semantik maydonini tahlil qilish va sinonimlar orasidagi farqlarni ko'rsatish bolalarning nutqini boyitadi, chunki bu jarayon ularning assotsiativ fikrlashini faollashtiradi. O'zbek tili grammatikasini, ya'ni so'z boyligini, til qurilishini izchil o'rganish natijasida o'quvchilarning nutq jarayonida faol qatnashishini ta'minlaydigan nutq qobiliyatlari tarkib topadi. Bu qobiliyatlar nafaqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish, balki nutqning funksional maqsadlariga mos ravishda ishlatishni o'z ichiga oladi. Grammatika ta'limi o'quvchilarning aqliy strategiyalarini rivojlantiradi, ya'ni ular o'z nutqini baholash va tuzatish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Nutqiy qobiliyat – bu inson qobiliyatining muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, hozirgi zamon tadqiqotchilari tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Qobiliyat inson faoliyati talablariga javob bera oladigan shaxsiy individual xususiyatlarning sintezidir. Nutqiy qobiliyat esa bu sintezning til va muloqotga oid qismi sifatida, o'g'zaki va yozma nutqni samarali boshqarish, ma'noni to'g'ri ifodalash va kontekstga moslashish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Nutqiy qobiliyat ikki asosiy komponentga bo'linadi: leksik-grammatik (so'z boyligi va qoidalarni o'zlashtirish) va pragmatik (nutqni ijtimoiy vaziyatga moslashtirish).

Zamonaviy tadqiqotlar shuni korsatadiki, ona tili orqali shakllangan nutqiy qobiliyat bolalarda kognitiv jarayonlarni kuchaytiradi va bolalarning tilni qayta ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Masalan, ota-onalar nutqining sifati bolalarning nutq qobiliyatini belgilaydi, chunki yuqori ta'lim darajasidagi ota-onalar tomonidan aytilgan nutq bolalarning semantik tushunchalarini kengaytiradi. Bundan tashqari, nutqiy qobiliyat ijtimoiy kompetensiya bilan chambarchas bog'liq: til ko'nikmalari yaxshi rivojlangan bolalar ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatliroq bo'ladi.

Tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zaruriy qobiliyatlarni o'rganib chiqish va shu qobiliyatlar rivojiga bevosita ta'sir etadigan o'qitish tizimini yaratish o'zbek tili ta'limi sohasida eng dolzarb muammo hisoblanadi. Ona tili ta'limi bolalarning nutq qobiliyatini rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib, u nafaqat til me'yorlarini o'rgatadi, balki madaniy o'ziga xoslik va kognitiv rivojlanishni ta'minlaydi. Tadqiqotlardan shu narsa ma'lumki, ona tili darslarida grammatika va psixologik mashqlarning integratsiyasi o'quvchilarning nutqiy savodxonligiga ijodkorligiga sabab bo'ladi. Metodik jihatdan, nutq qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Kognitiv yondashuv. Bolalarning nutq kompetensiyasini kognitiv usullar bilan shakllantirish. Nutqni assotsiativ mashqlar orqali fikrlash jarayoni bilan bog'lash.

2. Sotsiomadaniy yondashuv. Bu yondashuvda guruhli munozaralar va rolli o'yinlar orqali nutq rivojlantiriladi. Bu yondashuv L.S.Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga asoslangan bo'lib, nutqni individual jarayon emas, balki ijtimoiy muloqot va madaniy kontekst orqali shakllanadigan fenomen sifatida ko'radi. Mazkur yondashuvda bola yakka o'zi qila olmaydigan vazifalarni guruhda, tajribali sheriklar (o'qituvchi yoki tengdoshlar) yordami bilan bajarib, nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Sotsiomadaniy metodda nutq ijtimoiy faoliyatning vositasi sifatida qaraladi: guruhli munozaralar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilar nutqni nafaqat ifodalash, balki bahslashish, empatiya qilish va ijtimoiy me'yorlarni o'rganish vositasi sifatida ishlatadilar. Vygotskiyning nazariyasiga ko'ra, nutq ikki funksiyaga ega: tashqi (muloqot) va ichki (fikrlash), va guruhli faoliyatlar bu ikki funktsiyani bog'laydi. Masalan, rolli o'yinlarida bola "doktor va bemor" rolini o'ynab, nutqni pragmatik vaziyatga moslashtirishni o'rganadi, bu esa kognitiv rivojlanishni tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, fanlararo integratsiyaning bugungi kunda keng ommalashishi o'quvchi yoshlarning nutqiy savodxonligiga qaratilayotgan e'tiborni sezilarli darajada oshirib, ta'lim jarayonida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali yo'nalishlarini ochmoqda. Bu yondashuv nafaqat til o'qitishni boshqa fanlar bilan bog'lab, balki o'quvchilarning kognitiv va kommunikativ qobiliyatlarini ham kompleks takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Щерба Л.В. Основы теории речевой деятельности. М., 1974. Глухов В. П. Основы психолингвистики. Учеб. Пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2008. – С. 33.
2. Кубракова Е.С. Коминативный аспект речевой деятельности. – М., 1986. – С.9.
3. Леонтев А.А. Психофизиологические механизмы речи. Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. М., 1970. – С.314-370.
4. Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учеб. Пособие для студентов педвузов. М.: АСТ: Астрель, 2003.
5. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. М., Прогресс, 1977.
6. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 1972.
7. Jakbarova M. Nutq so'zlashga o'rgatish metodikasi. – Toshkent, 2024.

Mohigul ABRAROVA,

Osiyo xalqaro universiteti iqtisodiyot va pedagogika fakulteti 2-bosqich magistranti;

Kamaliddin ASTAMKULOV,

Navoiy viloyati PMM dotsenti, p.f.b.f.d (PhD)

TARBIYA DARSLARIDA MULTIMEDIA VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiya darslarida multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalashtirish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini chuqur o'zlashtirishiga, ijodiy fikrlash va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga erishish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: globallashuv, integratsiya, ijodiy fikrlash, tarbiya, multimedia, ijodiy qobiliyat, innovatsion metodlar, AKT, o'quvchi faoliyati, ta'lim samaradorligi.

Annotation. This article analyzes the possibilities of achieving students' deep assimilation of spiritual and moral values, forming creative thinking skills and social activity through the integration of multimedia and information and communication technologies in upbringing lessons.

Keywords: globalization, integration, creative thinking, upbringing, multimedia, creative abilities, innovative methods, ICT, student activity, educational effectiveness.

Аннотация. В данной статье проанализированы возможности достижения глубокого усвоения учащимися духовно-нравственных ценностей, формирования навыков творческого мышления и социальной активности путем интеграции мультимедийных и информационно-коммуникационных технологий на уроках воспитания.

Ключевые слова: глобализация, интеграция, творческое мышление, воспитание, мультимедиа, творческие способности, инновационные методы, ИКТ, деятельность учащихся, эффективность образования.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining vositalari deganda mikroprocessor, kompyuter texnologiyalari asosida ishlaydigan dasturiy ta'minot, dasturiy ta'minot, apparat-texnika vositalari va qurilmalar, shuningdek, ma'lumotlarni uzatish, axborot almashish, yig'ish, ishlab chiqarish, to'plash, saqlash va saqlash bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradigan zamonaviy vositalar va tizimlar tushuniladi. Ma'lumotlarni qayta ishlash, uzatish va mahalliy va global kompyuter tarmoqlarining axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini tushunamiz. O'quv jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan **AKT vositalari:**

- kompyuter va multimedia projektori yordamida namoyish etilgan elektron darsliklar va qo'llanmalar;
- elektron entsiklopediyalar va ma'lumotnomalar;
- trenajyorlar va sinov dasturlari;
- internetning ta'lim resurslari;
- rasmlar va rasmlar bilan DVD va CD diskleri;
- video va audio uskunalar;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqish loyihalari;
- interfaol doska.

Hozirgi kunda yuz berayotgan AKT sohasidagi yutuqlar bizni kognitiv faoliyatni axborot bilan ta'minlashni qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Shunday qilib, AKT vositalarining ikkinchi tasnifi ta'lim faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqishga imkon beradi:

1) Internet Explorer, Mozilla Firefox kabi brauzerlar, Internetda ishlash uchun turli xil qidiruv tizimlari va dasturlaridan foydalangan holda Internetda adabiyotlarni qidirish (Yandex.ru, Rambler.ru, Mail.ru va boshqalar) va ishlash u bilan (abstraktatsiya, eslatma, izoh, tirnoq, onlayn taqdimot slaydlarini yaratish);

2) asosiy Microsoft Office dasturlari to'plamidan foydalangan holda matnlar bilan ishlash uchun: Microsoft Word sizga grafik dizayndagi matnlarni yaratish va tahrirlash imkonini beradi; Microsoft Power Point sizga materialni yanada rang-barang taqdim etish uchun taqdimot slaydlarini yaratishga imkon beradi; Microsoft Excel sizga jadvallarni va veb sahifalarda hisob-kitoblarni amalga oshirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va vizual ravishda ko'rsatish va ro'yxatlar bilan ishlash imkonini beradi; Microsoft Office Publisher sizga

bukletlar, risolalar va boshqalarni yaratishga va o'zgartirishga imkon beradi.

3) tarjima dasturlari (PROMT) va elektron lug'atlar (AbbyLingvo7.0) yordamida matnlarni avtomatik tarjima qilish uchun;

4) ma'lumotlarni saqlash va saqlash uchun (CD-, DVD-disklar, Flash-disklar);

5) aloqa uchun (Internet, elektron pochta, Skype, Hangout va boshqalar);

6) grafika va ovozni qayta ishlash va takrorlash uchun (Microsoft Media Player, zplay pleyerlar, CorelDraw, PhotoShop rasmlarni ko'rishga mo'ljallangan dasturlar), diagrammalar, chizmalar va grafikalar yaratish uchun dasturlar (Visio va boshqalar).

Bugungi kunda ta'limning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari masofaviy va ochiq ta'lim nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lgan bir nechta materiallarni taqdim etishni ta'minlaydi. Ulardan biri televidion va video yozuvlar [5]. Video va tegishli AKT vositalari ko'plab talabalarga eng yaxshi o'qituvchilar ma'ruzalari haqida ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Video yozuvlardan maxsus jihozlangan sinflarda ham, uyda ham foydalanish mumkin. Qizig'i shundaki, Evropa va Amerika o'quv kurslarida asosiy materiallar videotasvirlarda va bosma shaklda namoyish etiladi. Uzoq vaqt davomida ta'lim dasturlari butun dunyoda qo'llanilib kelinmoqda va masofaviy o'qitish uslubining ajoyib namunasidir. Ushbu AKT vositasi tufayli, bilimlarning assimilyatsiya qilinishini yanada kuzatmasdan, uning umumiy rivojlanishini oshirish uchun keng auditoriyaga ma'ruzalarni translyatsiya qilish mumkin bo'ldi.

Elektron o'quv adabiyotlari – o'rganilgan ma'lumotlarning butun hajmini uzatish va saqlashga imkon beruvchi juda kuchli texnologiya. Ular kompyuter tarmoqlarida ham tarqatiladi va optik vositalarda yozib olinadi. Bunday material bilan individual ishlash ma'lumotlarni chuqur anglash va o'zlashtirishga imkon beradi. Taqdimot – ma'lumotni taqdim etish usuli. Ma'lumotlar vizual va ishonchli shaklda taqdim etilishi kerak. Buning uchun grafik, video va audio ma'lumotlardan foydalaniladi. Asosiy fikrlar kichik matnlarda aks ettirilgan. Taqdimot turli

maqsadlarda qo'llaniladi. Shunga ko'ra, quyidagi taqdimot turlarini ajratish mumkin:

- ma'ruzalarni to'ldiruvchi taqdimotlar;
- ta'lim maqsadlari uchun taqdimotlar;
- savdo va marketingda qo'llaniladigan taqdimotlar.

Multimedia – informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida o'quv materiallarini tinglovchilarga to'liq yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. Multimedia hozirda juda tez rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan bo'lib, u quyidagi an'anaviy axborot turlarini: matn, jadval, turli xil bezaklar hamda original axborot turlarini: nutk, musika, telekadrlar, videofilg'mlardan parchalar, lavxalar, animatsiya ko'rinishdagi axborotlarni o'z ichiga oladi. O'qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish o'qitish sifati va samarasini oshirishning eng qulay usullaridan biri hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida olib borilgan audio-video muloqot o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini va bilim olishga bo'lgan xavasini oshiradi. Multimedia vositalariga, jumladan audiokolonka, mikrofon, videoproektor, Web kamera, TV tuner, CD-ROM v.h.lar kiradi [2].

Multimedia vositalari o'quvchiga yakka tartibda shugullanish imkonini beradi. O'quvchi ukituvchining bevosita ishtirokisiz ham materialni mustakil o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Innovatsiya – (inglizcha "innovation" – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. pedagogik yangilik esa pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariy va amaliy jihati boyitish va uni rivojlantirish vositasidir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganingiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidir. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar", "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli 'yin", FSMU, "Kichik guruhlarda ishlash", "Zig-zag", "Oxirgi so'zni men aytay", "Venn diagrammasi", "BLUM taksonomiyasi" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda [4].

O'quvchilarni, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib e'tirof etilmoqda. Chunki bu o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitida faqatgina mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qila oladi. O'zi uchun ham oila uchun ham foydali bo'lib hisoblanadi, hamma jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyat albatta dastlab oilada, keyinchalik esa ta'lim muassasalarida shakllanadi. O'qituvchi bu metodlarni har bir darsiga moslab, yangicha yondashsa, yangiliklar bilan bezab borsa, o'quvchi qiziqib o'rganadi" [2].

Multimedia vositalari – matn, tovush, tasvir, animatsiya, video hamda interaktiv elementlarni birlashtiruvchi zamonaviy axborot resurslaridir. Tarbiya darslarida ularni qo'llash orqali abstrakt tushunchalar (masalan, vatanparvarlik, adolat, mehribonlik, javobgarlik) ko'rgazmali, hissiy va tajribaviy darajada o'quvchilarga yetkaziladi. Masalan, milliy qadriyatlarini shakllantirishda tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi videofilmlar, interfaol doska orqali namoyish etiladigan hujjatli kadr materiallari, yoki o'quvchilar tomonidan tayyorlangan multimedia taqdimotlari axloqiy tushunchalarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, AKT vositalari faol o'qitish metodlarini (masalan, "BBB" (bilaman, bilmoqchiman, bildim), "Venn diagrammasi", "Rolli o'yin", "Zig-zag" va boshqalar) amalga oshirishda ham samarali vosita sifatida xizmat qiladi. O'quvchilar guruhlarda ishlash, axborot izlash, tahlil qilish, taqdim etish jarayonida nafaqat bilim egallash, balki muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash kabi kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Bu esa tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri – ijtimoiy faol fuqaroni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini takomillashtirish tizimli, ko'p omilli hamda ilmiy asoslangan jarayon bo'lib, unda o'qituvchining shaxsiy irodasi, tashqi qo'llab-quvvatlash tizimi, ilmiy asoslangan metodik hamda axloqiy-ma'naviy muhit o'z o'rnini egallashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.
4. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent, 2009.
5. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
6. Xasanova B. Pandnomalar – ma'naviyat manbayi. – Toshkent, 1997.
7. Hasanov R., Hasanova B. Sharq uyg'onish davri va bu davrdagi pedagogik fikrlar. – Toshkent: MRDI, 2000.

Sarvar BAXODIROV,

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti
jismoniy madaniyat kafedrasida dotsenti*

FUTBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIKLARI ORQALI TEXNIK MAXORATINI YAXSHILASH

Annotatsiya. Maqolada futbolchilarning jismoniy tayyorgarliklari orqali texnik maxoratini yaxshilash usullari bo'yicha mustahkam ko'nikmani rivojlantirish xususida so'z yuritilib, futbolchilarga ma'lum bir talabni qo'yishni: jismoniy sifatlardan o'yin samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalana bilish lozimligi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: futbol, musobaqa, chidam, moslashuv, kuchlilik, futbolchi, jismoniy sifatlari, individual yondashuv.

Annotation. The article discusses the development of solid skills in methods for improving the technical skills of football players through physical training, and examines the need to place a certain demand on football players: the ability to use physical qualities as a means of increasing the effectiveness of the game.

Keywords: football, competition, endurance, adaptation, strength, football player, physical qualities, individual approach.

Аннотация. В статье рассматривается развитие прочных навыков в методике совершенствования технического мастерства футболистов посредством физической подготовки, а также рассматривается необходимость предъявления к футболистам определенного требования: умение использовать физические качества как средство повышения результативности игры.

Ключевые слова: футбол, соревнования, выносливость, адаптация, сила, футболист, физические качества, индивидуальный подход.

Futbolchilarni jismoniy tayyorlash sport mashg'ulotlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, organizmni har tomonlama rivojlantirish, sog'liqni mustahkamlash, jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirish va tayyorgarlikning barcha boshqa turlari uchun mustahkam funksional baza yaratishga yo'naltirilgan jarayon sifatida tushuniladi. Zamonaviy sport sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga yuksak talablar qo'yadi. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- Sportdagi yutuqlarning o'sib borishi har doim sportchidan jismoniy qobiliyatlarni rivojining yangi darajasini talab qiladi;

- Jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini oshirishning zaruriy sharti;

- Qo'llaniladigan vositalarning ta'sir ko'rsatish xususiyati va yo'nalishiga ko'ra jismoniy tayyorgarlikni umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT), yordamchi hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) gurllariga bo'lib o'rganiladi.

Yosh sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi (UJT) yuksak natijalarga erishish uchun poydevor, zarur asos hisoblanadi. U quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- yosh sportchilar organizmining funksional imkoniyatlarini oshirish;

- jismoniy sifatlar – kuch, chidamlilik, chidamkorlik, ephilik va egiluvchanlikni rivojlantirish;

- yosh sportchilarning organizmining jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni yo'q qilish.

UJT tarkibiga nihoyatda turli-tuman vositalar kiradi; ular sirasida snaryadlar bilan bajariladigan, sheriklikda, maxsus qurilmalarda amalga oshiriladigan mashqlar, har xil sport turlari – akrobatika, yengil atletika, sport o'yinlari, suzish va boshqalarga xos umumrivojlantiruvchi mashqlar bor. Yosh sportchilarning yordamchi jismoniy tayyorgarligi maxsus jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan funksional asosni yuzaga keltirishga mo'ljallanadi. U maxsus yo'nalishga ega bo'lib, quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- sportchining tanlangan sport turiga xos harakat faoliyatlarida namoyon bo'ladigan funksional imkoniyatlarini rivojlantirish;

- organizmning yuqori darajadagi maxsus yuklamalarga chidamliligi qobiliyatini takomillashtirish;

- tiklanish jarayonlarining kechish shiddatini orttirish..

Yosh sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi (MJT) tanlangan sport turi bo'yicha musobaqa faoliyatining xususiyatlari qo'yadigan talablarga qat'i rioya qilgan holda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Yosh sportchilarni maxsus jismoniy tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etadi:

- tanlangan sport turi uchun xos bo'lgan jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirish;

- tanlangan sport turi bo'yicha muvaffaqiyatli texnik takomillashuv uchun zarur bo'lgan harakat ko'nikmalarini chuqurlashtirib rivojlantirish;

- ixtisoslashtirilgan mashqlarni bajarishda ko'proq qatnashadigan alohida mushak guruhlarini tanlab rivojlantirish.

Yosh sportchilarning MJT harakat ko'nikmalari tizimidagi eng muhim harakat sifatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shuning

uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida musobaqa mashqlari ularning sportchi organizmiga ta'sirini kuchaytiruvchi har turli murakkablashtiruvchi unsurlar bilan birgalikda qo'llaniladi.

Jismoniy tayyorgarlikning barcha turlari muayyan o'xshashliklarga ega. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligi sport ixtisosligi bilan chambarchas bog'liq. Mashq jarayonida jismoniy tayyorgarlikning biror turiga yetarlicha baho bermaslik oxir-oqibat sport mahoratining kuchayishiga to'sqinlik qiladi. Yosh sportchilarning mashg'ulotlarida UJT va MJT vositalari nisbati qo'yiladigan vazifalar, sportchilarning yoshi, malakasi, ularning alohida xususiyatlari, mashg'ulot jarayonining bosqich va davrlari, organizmning ayni paytdagi holatidan kelib chiqib o'zgartiriladi. Shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonida shug'ullanuvchilar harakatlarni va ular bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, o'z jismoniy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar.

Hozirgi vaqtda insonning harakat imkoniyatlarini tavsiflash uchun "jismoniy qobiliyatlar" va "jismoniy sifatlar" atamalaridan foydalaniladi. Bu tushunchalar ma'lum ma'noda o'xshash bo'lsalarda, lekin bir xil emaslar. Afsuski, adabiyotlarda mazkur tushunchalarning ta'rif va o'zaro aloqasi haqida birmuncha qarama-qarshi fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, bir holatda jismoniy qobiliyatlar organizmning harakat faoliyatida ishtirok etayotgan hamda uning ta'sirini belgilaydigan funksional tizimlar layoqatining namoyon bo'lish shakllari sifatida tushuniladi, boshqasida hayotda, ayniqsa, harakat faoliyatida amalga oshiriladigan va asosini jismoniy sifatlar tashkil etadigan insonga xos imkoniyatlar nazarda tutiladi; uchinchisida qobiliyatlar deganda, organizmning ruhiy-fiziologik va morfologik xususiyatlariga asoslanuvchi rivojlangan tug'ma qobiliyat nishonalari tushuniladi.

Jismoniy qobiliyatlar insonning u yoki bu mushak faoliyati talablariga javob beradigan va uning samarali bajarilishini ta'minlaydigan ruhiy-fiziologik hamda morfologik xususiyatlari majmuasidir. Inson harakat imkoniyatlarining alohida jihatlarni ifodalash uchun uzoq vaqt "jismoniy (harakatlantiruvchi) sifatlar" atamasi qo'llanilgan. Hozir ayrim mualliflar uni "jismoniy sifatlar" tushunchasining sodda formalistik mazmuni tufayli ilmiy muomaladan chiqarib yuborishni va ularning o'rniga faqat «jismoniy qobiliyatlar» atamasini qo'llashni taklif qilmoqdalar. Shunga qaramay, kundalik nutqda va ilmiy-usuliy adabiyotlarda mazkur atama ancha keng tarqalgan. Shuning uchun, ehtimol, bu ikki tushuncha orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash, ulardan foydalanish vaziyatlarini belgilab olish o'rindir.

Eng avvalo, "sifat" tushunchasi har doim biron-bir narsaga nisbatan qo'llanilib, uning boshqa narsalardan farqlab turadigan, mohiyatiga xos belgisini ifodalaydi, xususan, "buyum", xom-ashyo, oziq-ovqat mahsuloti, hayot sifatleri, shaxsning, bilimning sifati va hokazo haqida shunday gapiriladi. Jismoniy tarbiya sohasida ham bu atamadan xuddi shu ma'noda foydalanish lozim. Demak, insonning jismoniy sifatlarini uning harakat imkoniyatlariga xos ba'zi xususiyatlar singari jismoniy qobiliyatlar namoyon bo'ladigan u yoki bu shakllarga nisbatan qo'llab tekshirish, ya'ni ular to'g'risida amalga oshirib bo'lingan qobiliyatlar asosida fikr yuritish mumkin.

Inson sifat jihatidan bir-biridan farq qiluvchi turli-tuman qobiliyatlar egasi bo'lishi mumkin. Aynan shu turli jismoniy qobiliyatlarning sifatini o'ziga xosligi uning jismoniy sifatlarini to'g'risida guvohlik beradi. Turmushda, jismoniy tarbiya va sportda inson qobiliyatlarining sifatiga xos xususiyatlar "kuchli", "tezkor", "chaqqon", "egiluvchan" degan iboralarda o'z aksini topgan. Bu sifatning hayotdagi ahamiyati ularni ayirib ko'rsatish mezonini hisoblangan. Aslida, jismoniy sifatlar alohida jismoniy qobiliyatlarning erishilgan darajasi, ularning aniqligi, o'ziga xosligi, ahamiyati ifodasi sanaladi. Masalan, insonning kuch qobiliyatlarini olaylik. Ular mushaklarning zo'riqlash darajasi yuqori, qisqarish tezligi esa nisbatan uncha katta bo'lmagan kuch mashqlarida namoyon bo'ladi. Asli kuch qobiliyatlari "sust kuch", "siquvchi kuch", "statik kuch" kabi kuch sifatlarini tavsiflaydi. Chidamlilik qobiliyatlari mushaklarning jiddiy zo'riqlashi va ularning yuqori qisqarish tezligini talab etuvchi mashqlarda yuzaga chiqadi. Chidamlilik qobiliyatlarining rivojlanishi, eng avvalo "portlovchi" kuch deb ataladigan sifatda aks etadi.

Yuqorida tilga olingan kuch sifatlarini insonning kuch qobiliyatlarini yaxlit tarzda aniqlash va farqlashga imkon beradi. Xuddi shunday boshqa jismoniy qobiliyatlarning ham sifat tafovutlarini ifodalash mumkin. Jismoniy qobiliyatlar va sifatlar orasida ko'p ma'noli bog'liqlik bor. Bir xil qobiliyat turli jismoniy sifatlarini namoyon qilishi, turli qobiliyatlar esa ulardan faqat bittasini tavsiflashi mumkin. Masalan, "epchil" sifati asosida ko'pgina qobiliyatlar: muvofiqlash, chidamlilik, kuch va boshqalar yotadi. Chidamlilik qobiliyatlari faqat "kuch" emas, "chidamlilik" sifatida ham o'z aksini topadi.

Shunday qilib, insonning jismoniy sifatlarini jismoniy qobiliyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, turli harakatlar chog'ida ularning namoyon bo'lish xususiyatlarini bilan belgilanadi, jismoniy qobiliyatlarning rivojlanish va namoyon bo'lish darajasiga bir tomondan atrof-muhit omillari (turmushning ijtimoiy-maishiy sharoitlari, iqlimiy va geografik sharoit mashg'ulot o'tkaziladigan joylarning moddiy ta'minlanganligi, ularni rivojlantirish usuliyati va h.k.), ikkinchi tomondan esa organizmning turli ta'sirlarga o'ziga xos reaksiyasi bilan bog'liq bo'lgan irsiy omillar ("motor" qobiliyat nishonalari) ta'sir o'tkazadi, jismoniy qobiliyat nishonalari sifatida inson organizmining anatomik, fiziologik va ruhiy xususiyatlari yuzaga chiqadi. Biror-bir faoliyatni bajarish jarayonida «motor nishonalar» organizmning moslashish o'zgarishlari asosida takomillashib, tegishli jismoniy qobiliyatlarga aylanadi.

Ta'kidlash zarurki, "motor nishonalar" ko'p funksiyali bo'lib, mushak faoliyati sharoitlariga qarab u yoki bu yo'nalishda rivojlanishi va u yoki bu shakldagi jismoniy qobiliyatlar rivojini ta'minlashi mumkin. Professor Y.V. Verxoshanskiyning fikricha, bunday shakllar harakat faoliyati turlari qancha bo'lsa, shuncha ko'p bo'lishi mumkin, chunki ularning har biriga o'ziga xos tuzilish, harakatlarning maqsadli yo'naltirilganligi, mushaklar muvofiqlashi, organizm faoliyati rejimi hamda uning quvvat bilan ta'minlanishi kabi xususiyatlar xosdir. Shu sababli ham organizmdan chidamlilik yoki harakatlar tezkorligini rivojlantirishga javobgar bo'lgan qandaydir alohida mexanizmlarni izlash befoydali. Ularning takomillashuvi asosida inson organizmining morfofunktsional ixtisoslashuviga olib keladigan moslashtiruvchi ta'sir, butun bir adaptiv reaksiya yotadi. Morfofunktsional qayta qurishlar organizmni to'raligicha qamrab oladi. Biroq bu eng ko'p darajada va birinchi navbatda asosiy ish yuklamasini ko'taradigan mushak guruhlarini hamda ularning ish qobiliyatini ta'minlovchi fiziologik tizimlarga taalluqlidir. Funktsional ixtisoslashuvning bunday tanlash xususiyati,

asosan, organizmning ma'lum faoliyat sharoitidagi ish rejimiga, uning yaqqol namoyon bo'lish darajasi esa jismoniy yuklamalarning shiddati va hajmiga bog'liq.

Hozirgi vaqtda jismoniy qobiliyatlarni besh asosiy turga ajratish qabul qilingan: kuch, chidamlilik va muvofiqlash qobiliyatlari, chidamkorlik va egiluvchanlik. Ularning har biri harakat faoliyatining har xil turlarida xilma xil shakllarda namoyon bo'ladi. Raqibga qarshi kurashayotgan komanda harakatlaridagi uyushqoqlikka alohida futbolchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash bilan erishiladi. Hozirgi vaqtda o'yinchilarni vazifalariga ko'ra taqsimlash ular tayyorgarligidagi universallikka asoslangan bo'ladi. Bu hamma ishni barcha birdek bajara oladi degan so'z emas, albatta. Ammo har bir futbolchi o'yinning hamma texnik usullarini egallagan bo'lishi, hujumda ham, himoyada ham bilib harakat qilishi kerak. O'yindagi ayrim vazifalarni esa o'yinchi ayniqsa yaxshi ijro etadigan bo'lishi lozim.

Bugungi kunda darvozabonning o'yini turli-tuman va murakkabdir. Darvozabonning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi, uning psixikasi mustahkamligiga yuksak talab qo'yilayotganligi ham ana shundan. Odatda darvozabon baland bo'lyi (180 sm va undan ortiq), a'lo darajada jismoniy tayyorgarlik ko'rgan, reaksiyasi juda tez, start tezligi yuqori o'yinchi bo'ladi. U dovyurak va jur'atli, sakrovchan, epchil va hozirjavob, harakatlarini yaxshi muvofiqlashtira oladigan, yaxshi mo'ljal oladigan va rejalay biladigan bo'lishi; to'pning ehtimoliy uchish yo'nalishi, tezligi va trayektoriyasini darhol aniqlay olishi, himoya jarayonini mohirona idora qilishi, ya'ni uning izchilligi va uyushqoqligini ta'minlay bilishi kerak.

Bugungi futbolda qanot himoyachilarining vazifalari kengayib ketdi. Ularning vazifasi endilikda raqib hujumini "buzish" dangina iborat bo'lmay, balki himoyada ishonchli va mohirona o'ynash bilan o'z komandasining hujum harakatlariga faol qo'shilishni uyg'unlashtirib olib borishdan iborat bo'lib koldi. Ish hajmining juda ortib, harakat turlarining ko'payib ketishi himoyachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi ortishini – kuch, tezkorligi, tezlik chidamliligi, epchilligi, sakrovchanligi, start tezligining yuksakligi rivoj topishini talab qilib qoldi. Mudofaada qanot himoyachilariga bo'lgan asosiy talablar:

- a) zonada mohirona harakat qilish;
- b) raqib darvozasiga yaqinlashib qolganda, qattiq zo'riqlash qilib o'tish (yakkama-yakka kurashda ham mohirona o'ynash bilan birga);
- v) havoda kurash olib borish (yuqoridan to'p uzatilganda);
- g) sheriklarini, lozim bo'lib qolganda esa darvozabonni ham straxovka qilish;
- d) raqib zarba berganda va to'p uzatganda, shunga yarasha vaqtida harakat qilish.

Hujumda qanot himoyachilariga qo'yiladigan asosiy talablar:

- a) to'pni raqiblardan olib qo'ygandan keyin uni sheriklariga vaqtida va aniq uzatib berish;
- b) to'p komandadosh sherigiga yoki darvozabonga o'tganda, qanot tomonida mohirlik bilan ochilish;
- v) raqib uchun kutilmaganda hujumga qo'shilish; bunda to'p shu himoyachida bo'lib, u qanotda harakat qiladi, shuningdek, qanot hujumchisi bilan o'rin almashadi yoki qanotdagi zona bo'sh qolganda, shu hujumchi o'rnida o'ynaydi.

Mudofaaning markaziy qismida o'ynaydigan futbolchilar haqli ravishda asosiy o'yinchilar hisoblanadi. Chunki ular darvoza zabt etiladigan eng xavfli joyda raqib bilan kurash olib boradilar. Qanot himoyachilarining jismoniy va texnik fazilatlariga qo'shimcha tarzda markaziy himoyachilar havoda kurasha olish uchun baland bo'lyi va juda sakrovchan ham bo'lishlari kerak. Oldingi markaziy himoyachi mudofaada

markaziy hujumchining harakatlarini e'tibor bilan kuzatadi, zarur bo'lganda esa orqa himoyachi bilan o'rin almashib, mudofaadagi sheriklarini straxovka qiladi. Hujumda u to'p olgandan keyin hujum harakatlariga qo'shilib, tezlik bilan olg'a boradi yoki sheriklariga to'p oshirib beradi. Ayrim paytlarda ikkinchi eshelondagi hujumni qo'llaydi va iloji bo'lsa darvozaga to'p tepadi. Orqa chiziq markaziy himoyachisi taktik sharoitni nozik did bilan tushunishi, raqiblarining taktik yo'llarini "o'qiy" olishi hamda to'pni egallab olish va sheriklarini straxovka qilish uchun mudofaada to'g'ri pozitsiya tanlashi kerak. Uning asosiy ishi – mudofaa qiluvchilarning hamma harakatlarini muvofiqlash, zonada o'ynash, darvozabon va sheriklar bilan hamkorlik qilish. Sun'iy «o'yindan tashqari holat»ni to'g'ri uyutirishga hammadan ko'p javob beradigan ham shu o'yinchidir.

Hujumga o'tayotganda, orqa chiziq markaziy himoyachisi darvozabon yoki sheriklaridan to'p olish uchun ochiq joyga chiqadi, keyin esa aniq va xilma-xil uzatishlar qilib, hujumning davom ettirilishiga imkon yaratadi. Keskin holatlar yaratishda nisbiy erkinlikdan maksimal foydalanishga intilib, gohida uning o'zi ham hujumga qo'shiladi, ba'zan esa uzoq yoki o'rtacha masofadan to'p tepib, hujumni yakunlaydi. Hozirgi futbolda o'rta qator o'yinchilarining harakatlariga ko'p jihatdan komandaning muvaffaqiyat qozonishiga aloqador omillardan biri deb qaraladi. Bu ixtisosdagi futbolchilar butun match davomida yuksak ishchanlikni ta'minlaydigan a'lo darajadagi har tomonlama tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak. Ular hujum va mudofaa harakatlarida faol bo'lishlari, o'yinni yuksak sur'atda o'tkazishlari va uni bir dam ham susaytirmasliklari dardor. Taktik tayyorlik buyicha, komanda bo'lib o'ynash vositalari va usullarini tanlashdagi epchillik va ixtirochilik bo'yicha o'rta qator o'yinchilari oldiga oshirilgan talablar qo'yilmoqda. Hujumda o'rta qator o'yinchilariga qo'yiladigan asosiy talablar:

- a) mudofaadan hujumga o'tishni tashkil etish va hujum rivojini davom ettirish;
- b) maydon o'rtasini nazorat qilish va komandaning to'pni uzoq vaqt boshqarib turishini, binobarin, tashabbusni qo'ldan bermay turishini ta'minlash;
- v) hujumni yakunlashda qatnashish;

g) ham yaqinda turgan, ham uzoqdagi sheriklar bilan hamkorlik qilish;

d) hujumni rivojlantirishda to'pni qanotdan tez oshirish va bo'shagan zonaga tez ochilib chiqish yordamida qo'qqisdan ro'y berish holatini yuzaga keltirish.

Mudofaada o'rta qator o'yinchilariga qo'yiladigan asosiy talabalar:

a) maydonning bo'yi va eni bo'ylab to'g'ri taqsimlanib, joylashish hisobiga raqibning javob hujumi tez rivoj topishiga to'sqinlik qilish;

b) o'zi turgan zonadagi eng yaqin raqib o'yinchisini yoki shaxsan birkitib qo'yilgan raqibni kuzatib borish;

v) to'p uzatilishi va darvozaga to'p tepilishiga yo'l qoymaslik;

g) sheriklarni straxovka qilish va ular bilan hamkorlik qilish.

Komandaning o'rta qatori ko'pincha turli taktik planda harakat qiluvchi futbolchilardan tuzilib, yarim hujumchi, dispetcher va yarim himoyachidan iborat bo'ladi.

Yarim hujumchi asosan hujum qiluvchi o'yinchi vazifasini bajaradi. Goho u hujumning oldingi qatorida harakat qiladi va harakatni faol yakunlaydi. Dispetcher hujumda guruh va komanda harakatlarini uyushtiradi hamda ularni ikkinchi eshelondagi harakatlar bilan birga qo'shib olib boradi. Hujumda qanot hujumchilariga qo'yiladigan asosiy talablar:

a) "o'yindan tashqari holat" chegarasida mohirlik bilan o'ynash, shuningdek, orqa va o'rta qator o'yinchilari uzatgan to'pni olish uchun ortga qayta bilish;

b) qanotda tezkor shaxsiy manyovr qilib, keyin to'pni raqibning jarima maydoniga uzatish yoki g'izillatib oshirib berish;

v) hujum qatoridagi sheriklari bilan yoinki hujumga qo'shilgan himoyachilar va o'rta qator o'yinchilari bilan hamkorlik qilish;

g) hujumni yakunlashda qatnashish.

Hujumi bekor ketganidan keyin mudofaaga o'tayotganda, qanot hujumchisi qanot himoyachisini ta'qib qiladi yoki eng yaqinidagi to'pni egallagan raqib bilan kurash boshlaydi. Qanot hujumchisi natijali hujum qilish uchun kuch saqlab, mudofaa harakatlarida kam, lekin faol qatnashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алешков И.А., Невмянов А.М. О принципах выбора и информативности показателей, исследуемых в качестве модельных характеристик в спортивных играх и проблемы моделирования соревновательной деятельности: Сб. научн. статей. М., 1985.
2. Baxodirov S. Futbol mashg'ulotlarida qo'llaniladigan uslublar // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies, 2022, 2.1. – P. 406–412.
3. Baxodirov S. Turli darajadagi va ampuadagi futbolchilarning texnik tayyorgarligi xususiyatlarni o'rganish // Academic research in educational sciences, 2022, 2.4. – P. 1694–1701.
4. Xolmaxmatov B. 13–15 yoshli yosh futbolchilarning funktsional tayyorgarligining yoshga bog'liq xususiyatlari // Miasto Przyszłości, 2024, 250. – P. 493–496.

Mahbuba IKRAMOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Annotatsiya. Maqolada elektron ta'lim resurslarining boshlang'ich sinflarda qo'llanilishining pedagogik imkoniyatlari va mavjud muammolari tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari asosida raqamli vositalarning motivatsiyani oshirish, ta'limni individuallashtirish va zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Texnologik tengsizlik, pedagogik tayyorgarlik va metodologik cheklolvar asosiy muammolar sifatida belgilangan. O'zbekiston sharoitida gibridd yondashuv tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: elektron ta'lim resurslari, boshlang'ich ta'lim, raqamli texnologiyalar, ta'limni individuallashtirish, gibridd yondashuv.

Annotation. The article analyzes the pedagogical possibilities and existing problems of using electronic educational resources in primary grades. Based on the works of foreign and domestic researchers, the possibilities of digital tools for increasing motivation, individualizing learning, and developing modern skills have been demonstrated. Technological inequality, pedagogical training, and methodological limitations are identified as the main problems. In the conditions of Uzbekistan, a hybrid approach is recommended.

Keywords: electronic educational resources, primary education, digital technologies, individualization of education, hybrid approach.

Аннотация. В статье анализируются педагогические возможности и существующие проблемы использования электронных образовательных ресурсов в начальных классах. На основе работ зарубежных и отечественных исследователей показаны возможности цифровых инструментов для повышения мотивации, индивидуализации обучения и развития современных навыков. Технологическое неравенство, педагогическая подготовка и методологические ограничения определены как основные проблемы. В условиях Узбекистана рекомендуется гибридный подход.

Ключевые слова: электронные образовательные ресурсы, начальное образование, цифровые технологии, индивидуализация обучения, гибридный подход.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-apreldagi PF-233-sonli Farmoni mamlakatimizda raqamli ta'limni rivojlantirishga yangi turtki berdi [1]. Xalq ta'limi vazirligi elektron darsliklar yaratish va pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish bo'yicha keng ishlarni olib bormoqda.

Boshlang'ich ta'limda elektron resurslardan foydalanish juda muhim, chunki bu yoshdagi bolalar ko'rgazmalilik va interaktivlikni talab qiladi. Biroq texnologik imkoniyatlar cheklanishi, pedagoglar tayyorgarlikning pastligi va metodologik qiyinchiliklar jarayonni murakkablashtirmoqda. Maqolaning maqsadi 2020–2025-yillardagi ilmiy manbalarga asoslanib, elektron ta'lim resurslarining pedagogik imkoniyatlari va muammolarini tahlil qilish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil qilingan mahalliy va xorijiy manbalar elektron ta'lim resurslarining boshlang'ich sinflarda qo'llanishi o'quv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini namoyon etdi. Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, elektron ta'lim resurslarining imkoniyatlari bilan bir qatorda ayrim cheklovlari ham mavjud. Umuman olganda, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish bir qator afzalliklarga ega. Xususan, Khairova va Gabdullina raqamli resurslarning o'quvchilar motivatsiyasini oshirishi va bilimni samarali o'zlashtirishga yordam berishini isbotladilar [11]. Interaktiv vositalar bolalarning faol qiziqishini uyg'otadi va individual o'rganish yo'nalishini shakllantiradi. Serafin bu fikrni qo'llab-quvvatlab, raqamli resurslar orqali ta'limni modernizatsiya qilish va kognitiv jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi [12].

Aleksieva elektron resurslarning interaktivligi va ta'limni differentsiallash xususiyatini alohida qayd etadi [6]. Yadav kirish imkoniyati, moslashuvchanlik va zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirish jihatlari ta'kidlaydi [13]. Haleem va hamkasblarining tahlillari multimedia asosidagi o'qitish orqali o'quvchi natijalarini yaxshilashni isbotlaydi [9]. Camilleri va hamkasbi esa raqamli resurslarning vaqtini tejash va ta'lim xarajatlarini optimallashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadilar [7]. Akolzina elektron resurslarning multimedialik, modellashtirish, interfaollik va yangilanishga ochiqlik xususiyatlarini ilmiy asoslagan [5]. Mahalliy tadqiqotchi Lukmonova raqamli resurslar dars jarayonini moslashuvchan qilishi va o'qituvchi vaqtini tejashini ta'kidlaydi [3].

Hind tadqiqotchisi Yadav texnik tengsizlik muammosini birinchi o'ringa qo'yadi [13]. Raqamli savodxonlik kamligi, sifat nazorati qiyinliklari, motivatsiya pasayishi va ma'lumot xavfsizligi muammolari dolzarb hisoblanadi. Haleem va hamkasblarining ishlari texnologik tengsizlik, infratuzilma zaifligi va pedagogik moslashuv qiyinchiliklarini asosiy to'siqlar deb belgilaydi [9]. Aleksieva internet va texnik vositalar yetishmasligi, yuqori xarajatlar hamda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi muammolarini ta'kidlaydi [6].

O'zbekiston sharoitida bu muammolar biroz murakkabligini kuzatishimiz mumkin. J.Nomozov o'qituvchilarning raqamli malakasi pastligi, maktablarning texnik bazasi yetishmasligi va o'quvchilar tayyorgarligida sezilarli farqlar mavjudligini aniqlagan [4]. Ba'zi oilalarda raqamli savodxonlik pastligi o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Berdiyev metodik tizimning eski yondashuvlarga tayanishi va raqamli metodika shakllanmaganligini ilmiy asoslagan [2]. Lukmonova esa boshlang'ich sinf uchun ekran vaqti cheklangan bo'lib, texnologiyadan ortiqcha foydalanish sog'liqqa zarar yetkazishini alohida qayd etadi [3]. Yapon tadqiqotchisi Ishii internet odob-qoidalariga rioya qilmaslik, ortiqcha ekran vaqti va noto'g'ri onlayn xatti-harakatlar xavfini ta'kidlaydi [10]. O'qituvchilarning texnik yuklamasi ortishi va internet orqali "tayyor javob izlash" odati chuqurlashishi xavfi ham mavjud. Akolzina esa axborot ortiqchiligi, xavfsizlik, kognitiv yuklama va mualliflik huquqi muammolarini qayd etadi [5]. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar ishlari tahlil qilish asosida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston ta'lim tizimi uchun eng maqbul yechim gibrid yondashuv hisoblanadi. Camilleri va Aleksieva ta'kidlaganidek, elektron resurslar qo'shimcha pedagogik instrument bo'lishi kerak. Darsning turli qismlarida raqamli vositalar maqsadli qo'llanilishi mumkin, biroq bevosita muloqot va amaliy mashg'ulotlar o'z o'rnini saqlashi zarur [3: 8].

Mahalliy sharoitida eng katta muammo pedagoglarning metodik tayyorgarligi va texnik baza yetishmasligi [4: 2]. Shu sababli, birinchidan, o'qituvchilar uchun tizimli treninglar tashkil etish va raqamli kompetensiyani rivojlantirish zarur. Ikkinchidan, bolalarning sog'lig'i va xavfsizligiga e'tibor berish lozim [10]. Elektron resurslarni qo'llashda quyidagi tamoyillarga amal qilish kerak: pedagogik maqsadga muvofiqlik, yoshga moslik, me'yoriy cheklash, gibrid yondashuv va xavfsizlik. Bundan tashqari imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham mos keluvchi yechimlar ham ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Bu borada izlanish olin borgan tadqiqotchi Grimes va hamkasblarining [8] ta'kidlashicha, inklyuziv ta'lim nuqtai nazaridan elektron resurslar maxsus ehtiyojli bolalar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu uchun texnik va metodik tayyorgarlik hamda jamiyat qo'llab-quvvatlashi zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, elektron ta'lim resurslarining boshlang'ich sinflarda qo'llanilishi zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Tadqiqotchilar ishlari shuni ko'rsatdiki, elektron resurslar motivatsiyani oshirish, ta'limni individuallashtirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq texnologik tengsizlik, pedagogik tayyorgarlik yetishmasligi va metodologik cheklovlar samarali qo'llanishga to'siq qilmoqda. O'zbekiston sharoitida muvaffaqiyatli joriy etish uchun kompleks yondashuv zarur: pedagoglar malakasini oshirish, texnik bazani mustahkamlash, milliy kontent yaratish va gibrid ta'lim modelini rivojlantirish. Faqat barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilarining hamkorligi orqali elektron ta'lim resurslari o'z pedagogik potentsialini to'liq namoyon eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-apreldagi "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-233-sonli Farmoni.

2. Berdiyev M.M. Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish // *Inter Education & Global Study*, 2025, 3(6). – B. 248–255.
3. Lukmonova S.G. Boshlang'ich ta'limda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish // *Technical Science Research in Uzbekistan*, 2023, 2(1). – B. 149–154.
4. Nomozov J.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini informatika faniga oid ko'nikmalarini shakllantirish // *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 2025, 3(4). – B. 413–421.
5. Akolizina E.A. Ispolzovanie elektronnykh obrazovatelnykh resursov // *Gaudeamus*, 2013, 2(22). – B. 95–97.
6. Aleksieva L. Electronic resources in primary education // *Educational Studies*, 2020, 1. – B. 14–24.
7. Camilleri M.A., Camilleri A.C. Digital learning resources in education // *Technology, Knowledge and Learning*, 2017, 22(1). – B. 65–82.
8. Grimes P., et al. Inclusive classroom teaching // *European Union / UNICEF*, 2020.
9. Haleem A., et al. The role of digital technologies in education // *Sustainable Operations and Computers*, 2022, 3. – B. 275–285.
10. Ishi K. ICT-based education in primary schools // *Physics Education in University*, 2023, 29, B. 15–18.
11. Khairova I.V., Gabdullina E.O. Digital learning resources in individual educational route // *Proceedings IFTE-2020*. – B. 989–1001.
12. Serafin C. Digital learning resources in education / *Proceedings ICLEL 2024*. – Atlantis Press, 2025. – B. 222–235.
13. Yadav N. The impact of digital learning // *IJMRAS*, 2024, 2(1). – B. 24–34.

Dilnavoz TOXIROVA,

Karshi State University A teacher in Linguistics department

VOCABULARY ACTIVITIES FOR TEACHING ADJECTIVES OF PEOPLE'S CHARACTER

Annotation. The article explores practical methods for teaching and learning personality-related adjectives in English. It presents a variety of interactive classroom activities – such as matching exercises, role-plays, descriptions, and games – that help students expand and practice vocabulary describing character traits. The article emphasizes communicative learning, encouraging students to use new adjectives in real-life contexts and collaborative tasks to improve fluency and accuracy.

Keywords: vocabulary teaching, character adjectives, personality traits, communicative activities, interactive learning, English language teaching, vocabulary development.

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilida shaxsga oid sifatlarni o'rgatish va o'rganishning amaliy usullari ko'rib chiqilgan. U o'quvchilarga xarakter xususiyatlarini tavsiflovchi lug'atni kengaytirish va mashg'ulotlashga yordam beradigan mos mashqlar, rolli o'yinlar, tavsiflar va o'yinlar kabi turli xil interaktiv sinf mashg'ulotlarini taqdim etadi. Kommunikativ ta'limga alohida e'tibor qaratilib, o'quvchilarga xarakter sifatlarini bo'yicha lug'atni kengaytirish, ularni real muloqotda qo'llash va nutqiy ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: lug'at o'qitish, xarakter sifatlarini, shaxsiy xususiyatlar, kommunikativ mashg'ulotlar, interaktiv ta'lim, ingliz tilini o'qitish, lug'atni rivojlantirish.

Аннотация. Статья рассматривает эффективные методы обучения прилагательным, описывающим черты личности. Автор предлагает различные интерактивные упражнения: сопоставление слов, ролевые игры, описания персонажей и игровые задания. Эти виды деятельности помогают учащимся расширять словарный запас, активно использовать новые слова в речи и развивать коммуникативные навыки в подлинных ситуациях общения.

Ключевые слова: обучение лексике, прилагательные характера, черты личности, коммуникативные упражнения, интерактивное обучение, преподавание английского языка, развитие словарного запаса.

One of the most challenging aspects of learning a foreign language is expanding one's vocabulary. Nevertheless, vocabulary development plays a crucial role in the success of English language learners. For this reason, many linguists have explored effective methods of teaching vocabulary in their research. For example, Wilkins (1972), one of the early proponents of the Communicative Approach, explicitly emphasized that acquiring vocabulary is just as vital as learning grammar. He also pointed out that language learners can be considered comparable to native speakers only when they are able to use and pronounce collocations accurately. Without this ability, users cannot be classified as native speakers, even in the absence of grammatical errors.

From a practical perspective, lexicology occupies a key position in language learning, as it has a significant impact on vocabulary knowledge and contributes to the development of all language skills. Theoretical knowledge of vocabulary can be effectively applied in practice through well-designed vocabulary instruction in various educational contexts.

There are several effective activities for teaching adjectives of character that students enjoy and from which they learn a great deal. In the activities described below, learners actively participate and quickly become engaged. Well-structured activities also enable students to use target words repeatedly

and to reflect carefully on their meanings and appropriate usage.

Ranking. When students are asked to rank character adjectives according to specific criteria, it becomes one of the most effective ways to encourage practice and retention of the target language. Learners may, for instance, arrange adjectives based on their importance for a lover, spouse, employee, boss, teacher, or politician. Afterwards, they compare and discuss their opinions with other groups, which further reinforces vocabulary learning.

Role-plays. In this activity, learners are given role-play cards that describe particular character traits. They are then asked to act according to these traits until their partner guesses the descriptor assigned to them. Role-plays may include situations such as shopping, blind dating, job interviews, or press and television interviews. This activity promotes contextualized language use and enhances communicative competence.

Describing people. One learner describes a person using character adjectives while their partners try to identify who is being described. The person may be a family member, someone they know, a famous individual, or someone based on personal impressions. This activity can also be adapted for describing animals, which is especially effective in mixed-nationality

classes, where similarities and differences in perceptions of animals' personalities (such as foxes or elephants) may lead to interesting discussions.

Questionnaires. Learners are given a questionnaire without a title that is designed to assess one or more aspects of personality. After answering the questions, they work together to determine what character trait is being assessed (for example, generosity) and compare their responses with their partners. Subsequently, learners can create similar questionnaires focusing on other character adjectives and repeat the activity, further strengthening their understanding and use of the vocabulary.

Your character. In this activity, students are instructed to make guesses about one another's character traits. The simplest approach is to encourage them to use statements such as *"I think you are quite patient"*, to which their partner may respond with expressions like *"Are you pulling my leg?"* or *"You could say that"*. Students may also be asked to provide evidence to support their opinions. For example: *"I think you are quite adventurous. I assume you have taken a few solo hikes"*. This activity promotes both descriptive language use and interpersonal interaction.

Guess the character word. One of the simplest guessing games involving character adjectives requires a learner to describe a particular trait or give examples until their partner correctly identifies the word. For instance: *"A fox is said to be this way. It is similar to 'clever', but in a negative sense"*, referring to *"cunning"*. Learners may also be limited to providing examples of behavior that illustrate a specific character trait, such as: *"He refused to change his mind about which pasta restaurant we went to,"* for *"stubborn"*. In addition, students can make statements about who a particular trait is especially appropriate or inappropriate for, for example: *"This is the worst quality for a nursery nurse but quite a good one for a boxer,"* referring to *"aggressive"*.

Character Yuppies. In this activity, learners boast humorously about exaggerated comparisons, such as *"My car is more expensive than your car"* or *"My servant is more intelligent than your servant"*. A similar approach can be used to practice character adjectives by asking students to compare friends, bosses, or teachers using sentences like *"My friend*

is more generous than your friend". These exaggerated claims encourage creative language use and comparative structures while reinforcing character vocabulary.

Character and gender. Learners are asked to describe a well-known person or someone they know, while their partner attempts to guess the individual's gender based solely on the character traits described. Each learner is allowed only one guess and loses points if the guess is incorrect. This activity raises awareness of how character traits are often socially and culturally associated with gender.

Character and gender discussion. Following the activity, students can engage in a discussion about whether certain character traits (such as *"stubborn"* or *"vague"*) are more commonly associated with one gender than the other, and whether these traits are perceived as more acceptable or desirable depending on gender. This encourages critical thinking and sociolinguistic awareness.

Find the character word. While watching a film or video clip, learners call out whenever they believe a character trait is being demonstrated on screen. The class then discusses whether the suggested adjective is appropriate. For example: *"Mr Bean is cunning,"* followed by a discussion of how the scene conveys this trait, such as *"he is tricking the little child"*. The character adjectives may be selected from a predefined list or generated spontaneously by the learners.

Teaching adjectives that describe personal characteristics becomes significantly more effective when students actively engage in meaningful, creative, and motivating vocabulary activities. By incorporating tasks such as matching exercises, role-plays, character profiling, games, and real-life communicative situations, teachers can support learners in not only understanding the meanings of personality adjectives but also using them confidently and appropriately in context. Such activities contribute to the development of communicative competence, enhance long-term vocabulary retention, and encourage critical and reflective thinking. Ultimately, a varied and learner-centered approach to vocabulary instruction enables students to describe themselves and others with greater accuracy, nuance, and confidence in everyday communication.

Reference

1. Allen V.F. Techniques in teaching vocabulary. – Oxford: Oxford University Press, 1983.
2. Byrne D. Techniques for classroom interaction. – New York: Longman, 1987.
3. Cruickshank D.R., Telfer R. Classroom games and simulations // Theory in practice, 2001, 19 (1). – P. 75–80.
4. Doff A. Teaching English. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988.
5. Wilkins D. A. Linguistics in language teaching. – Cambridge: MIT Press, 1972.

Maftuna IBRAXIMOVA,

English language teacher,

Uzbekistan State World Languages University Angren faculty

EFFECTIVENESS OF BLENDED LEARNING MODELS IN UZBEK HIGHER EDUCATION

Annotation. This article examines the effectiveness of blended learning models within the context of higher education institutions in Uzbekistan. Blended learning – understood as the intentional integration of face-to-face instruction with digital learning tools – has been steadily gaining prominence worldwide. In Uzbekistan, this pedagogical trend has been accelerated by digitalization reforms, global educational shifts, and post-pandemic transformations. Drawing on international research, local policy documents, and actual practice observed in Uzbek universities, this paper explores the pedagogical, technological, and institutional factors shaping blended learning outcomes.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Annotatsiya. Maqolada elektron ta'lim resurslarining boshlang'ich sinflarda qo'llanilishining pedagogik imkoniyatlari va mavjud muammolari tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari asosida raqamli vositalarning motivatsiyani oshirish, ta'limni individuallashtirish va zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Texnologik tengsizlik, pedagogik tayyorgarlik va metodologik cheklavlar asosiy muammolar sifatida belgilangan. O'zbekiston sharoitida gibrid yondashuv tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: elektron ta'lim resurslari, boshlang'ich ta'lim, raqamli texnologiyalar, ta'limni individuallashtirish, gibrid yondashuv.

Annotation. The article analyzes the pedagogical possibilities and existing problems of using electronic educational resources in primary grades. Based on the works of foreign and domestic researchers, the possibilities of digital tools for increasing motivation, individualizing learning, and developing modern skills have been demonstrated. Technological inequality, pedagogical training, and methodological limitations are identified as the main problems. In the conditions of Uzbekistan, a hybrid approach is recommended.

Keywords: electronic educational resources, primary education, digital technologies, individualization of education, hybrid approach.

Аннотация. В статье анализируются педагогические возможности и существующие проблемы использования электронных образовательных ресурсов в начальных классах. На основе работ зарубежных и отечественных исследователей показаны возможности цифровых инструментов для повышения мотивации, индивидуализации обучения и развития современных навыков. Технологическое неравенство, педагогическая подготовка и методологические ограничения определены как основные проблемы. В условиях Узбекистана рекомендуется гибридный подход.

Ключевые слова: электронные образовательные ресурсы, начальное образование, цифровые технологии, индивидуализация обучения, гибридный подход.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-apreldagi PF-233-sonli Farmoni mamlakatimizda raqamli ta'limni rivojlantirishga yangi turtki berdi [1]. Xalq ta'limi vazirligi elektron darsliklar yaratish va pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish bo'yicha keng ishlarni olib bormoqda.

Boshlang'ich ta'limda elektron resurslardan foydalanish juda muhim, chunki bu yoshdagi bolalar ko'rgazmalilik va interaktivlikni talab qiladi. Biroq texnologik imkoniyatlar cheklanishi, pedagoglar tayyorgarlikning pastligi va metodologik qiyinchiliklar jarayonni murakkablashtirmoqda. Maqolaning maqsadi 2020–2025-yillardagi ilmiy manbalarga asoslanib,

elektron ta'lim resurslarining pedagogik imkoniyatlari va muammolarini tahlil qilish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil qilingan mahalliy va xorijiy manbalar elektron ta'lim resurslarining boshlang'ich sinflarda qo'llanishi o'quv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini namoyon etdi. Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, elektron ta'lim resurslarining imkoniyatlari bilan bir qatorda ayrim cheklovlari ham mavjud. Umuman olganda, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish bir qator afzalliklarga ega. Xususan, Khairova va Gabdullina raqamli resurslarning o'quvchilar motivatsiyasini oshirishi va bilimni samarali o'zlashtirishga yordam berishini isbotladilar [11]. Interaktiv vositalar bolalarning faol qiziqishini uyg'otadi va individual o'rganish yo'nalishini shakllantiradi. Serafin bu fikrni qo'llab-quvvatlab, raqamli resurslar orqali ta'limni modernizatsiya qilish va kognitiv jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi [12].

Aleksieva elektron resurslarning interaktivligi va ta'limni differentsiallash xususiyatini alohida qayd etadi [6]. Yadav kirish imkoniyati, moslashuvchanlik va zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirish jihatlari ta'kidlaydi [13]. Haleem va hamkasblarining tahlillari multimedia asosidagi o'qitish orqali o'quvchi natijalarini yaxshilashni isbotlaydi [9]. Camilleri va hamkasbi esa raqamli resurslarning vaqtini tejash va ta'lim xarajatlarini optimallashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadilar [7]. Akolzina elektron resurslarning multimediyalik, modellashirish, interfaollik va yangilanishga ochiqlik xususiyatlarini ilmiy asoslagan [5]. Mahalliy tadqiqotchi Lukmonova raqamli resurslar dars jarayonini moslashuvchan qilishi va o'qituvchi vaqtini tejashini ta'kidlaydi [3].

Hind tadqiqotchisi Yadav texnik tengsizlik muammosini birinchi o'ringa qo'yadi [13]. Raqamli savodxonlik kamligi, sifat nazorati qiyinliklari, motivatsiya pasayishi va ma'lumot xavfsizligi muammolari dolzarb hisoblanadi. Haleem va hamkasblarining ishlari texnologik tengsizlik, infratuzilma zaifligi va pedagogik moslashuv qiyinchiliklarini asosiy to'siqlar deb belgilaydi [9]. Aleksiyeva internet va texnik vositalar yetishmasligi, yuqori xarajatlar hamda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi muammolarini ta'kidlaydi [6].

O'zbekiston sharoitida bu muammolar biroz murakkabligini kuzatishimiz mumkin. J.Nomozov o'qituvchilarning raqamli malakasi pastligi, maktablarning texnik bazasi yetishmasligi va o'quvchilar tayyorgarligida sezilarli farqlar mavjudligini aniqlagan [4]. Ba'zi oilalarda raqamli savodxonlik pastligi o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Berdiyev metodik tizimning eski yondashuvlarga tayanishi va raqamli metodika

shakllanmaganligini ilmiy asoslagan [2]. Lukmonova esa boshlang'ich sinf uchun ekran vaqti cheklangan bo'lib, texnologiyadan ortiqcha foydalanish sog'liqqa zarar yetkazishini alohida qayd etadi [3]. Yapon tadqiqotchisi Ishii internet odob-qoidalariga rioya qilmaslik, ortiqcha ekran vaqti va noto'g'ri onlayn xatti-harakatlar xavfini ta'kidlaydi [10]. O'qituvchilarning texnik yuklamasi ortishi va internet orqali "tayyor javob izlash" odati chuqurlashishi xavfi ham mavjud. Akolzina esa axborot ortiqchilik, xavfsizlik, kognitiv yuklama va mualliflik huquqi muammolarini qayd etadi [5]. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar ishlarini tahlil qilish asosida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston ta'lim tizimi uchun eng maqbul yechim gibrid yondashuv hisoblanadi. Camilleri va Aleksiyeva ta'kidlaganidek, elektron resurslar qo'shimcha pedagogik instrument bo'lishi kerak. Darsning turli qismlarida raqamli vositalar maqsadli qo'llanilishi mumkin, biroq bevosita muloqot va amaliy mashg'ulotlar o'z o'rnini saqlashi zarur [3: 8].

Mahalliy sharoitda eng katta muammo pedagoglarning metodik tayyorgarligi va texnik baza yetishmasligi [4: 2]. Shu sababli, birinchidan, o'qituvchilar uchun tizimli treninglar tashkil etish va raqamli kompetensiyani rivojlantirish zarur. Ikkinchidan, bolalarning sog'lig'i va xavfsizligiga e'tibor berish lozim [10]. Elektron resurslarni qo'llashda quyidagi tamoyillarga amal qilish kerak: pedagogik maqsadga muvofiqlik, yoshga moslik, me'yoriy cheklash, gibrid yondashuv va xavfsizlik. Bundan tashqari imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham mos keluvchi yechimlar ham ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Bu borada izlanish olin borgan tadqiqotchi Grimes va hamkasblarining [8] ta'kidlashicha, inklyuziv ta'lim nuqtai nazaridan elektron resurslar maxsus ehtiyojli bolalar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu uchun texnik va metodik tayyorgarlik hamda jamiyat qo'llab-quvvatlashi zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, elektron ta'lim resurslarining boshlang'ich sinflarda qo'llanilishi zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Tadqiqotchilar ishlari shuni ko'rsatdiki, elektron resurslar motivatsiyani oshirish, ta'limni individuallashtirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq texnologik tengsizlik, pedagogik tayyorgarlik yetishmasligi va metodologik cheklovlar samarali qo'llanishga to'sinlik qilmoqda. O'zbekiston sharoitida muvaffaqiyatli joriy etish uchun kompleks yondashuv zarur: pedagoglar malakasini oshirish, texnik bazani mustahkamlash, milliy kontent yaratish va gibrid ta'lim modelini rivojlantirish. Faqat barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilarining hamkorligi orqali elektron ta'lim resurslari o'z pedagogik potentsialini to'liq namoyon eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-apreldagi "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-233-sonli Farmoni.
2. Berdiyev M.M. Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish // *Inter Education & Global Study*, 2025, 3(6). – B. 248–255.
3. Lukmonova S.G. Boshlang'ich ta'limda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish // *Technical Science Research in Uzbekistan*, 2023, 2(1). – B. 149–154.
4. Nomozov J.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini informatika faniga oid ko'nikmalarini shakllantirish // *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 2025, 3(4). – B. 413–421.
5. Akolzina E.A. Ispolzovanie elektronnykh obrazovatelnykh resursov // *Gaudeamus*, 2013, 2(22). – B. 95–97.
6. Aleksieva L. Electronic resources in primary education // *Educational Studies*, 2020, 1. – B. 14–24.
7. Camilleri M.A., Camilleri A.C. Digital learning resources in education // *Technology, Knowledge and Learning*, 2017, 22(1). – B. 65–82.
8. Grimes P., et al. Inclusive classroom teaching // *European Union / UNICEF*, 2020.
9. Haleem A., et al. The role of digital technologies in education // *Sustainable Operations and Computers*, 2022, 3. – B. 275–285.
10. Ishi K. ICT-based education in primary schools // *Physics Education in University*, 2023, 29, B. 15–18.
11. Khairova I.V., Gabdullina E.O. Digital learning resources in individual educational route // *Proceedings IFTE-2020*. – B. 989–1001.
12. Serafin C. Digital learning resources in education // *Proceedings ICLEL 2024*. – Atlantis Press, 2025. – B. 222–235.
13. Yadav N. The impact of digital learning // *IJMRAS*, 2024, 2(1). – B. 24–34.

Shahnoza IKRAMOVA,

Osiyo xalqaro universiteti pedagogika fakulteti 2-bosqich magistranti;

Kamaliddin ASTANKULOV,

*Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

O'QUVCHILARDA IJTIMOY, EMOTSIONAL VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNI RAG'BATLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida rang-barang va interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va ijtimoiy-emotsional rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi.

Kalit so'zlar: integratsiya, ijodiy fikrlash, yaratilish va kreativlik, boshlang'ich ta'lim, fanlararo yondashuv, ijodiy qobiliyat.

Annotation. The article analyzes the importance of integrated approaches in developing students' creative and intellectual abilities in primary education. Students' knowledge, skills, and socio-emotional development are maintained through the use of diverse and interactive methods in the educational process.

Keywords: integration, creative thinking, creativity and creativity, primary education, interdisciplinary approach, creative abilities.

Аннотация. В статье анализируется значение интегрированных подходов в развитии творческих и интеллектуальных способностей учащихся в начальном образовании. Знания, навыки и социально-эмоциональное развитие учащихся поддерживаются за счет использования разнообразных и интерактивных методов в образовательном процессе.

Ключевые слова: интеграция, творческое мышление, творчество и креативность, начальное образование, междисциплинарный подход, творческие способности.

Ta'limda jonli va ijtimoiy faol o'quvchilar hamjamiyatini rivojlantirish har tomonlama shaxsiy va akademik rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar murakkab akademik va shaxsiy o'sish jarayonida harakat qilarkan, ularning ijtimoiy o'zaro ta'siri nafaqat ta'lim tajribasini, balki kelajakdagi harakat va muvaffaqiyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy faollikning o'quvchilarning umumiy farovonligi va muvaffaqiyatiga ta'sirini tan olgan holda, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uni oshirish va rag'batlantirishning innovatsion usullarini tadqiq qilmoqda.

Ijtimoiy dinamika kelajakdagi yetakchilar va jamiyatga faol hissa qo'shuvchilarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilar, ma'murlar va talabalarni gullab-yashnayotgan va o'zaro bog'langan talabalar hamjamiyatini rivojlantirishga jalb etish lozim. Ijtimoiy faollik maktab o'quvchilarining muloqot ko'nikmalari, jamoada ishlash va hissiy intellektini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Talabalar o'rtasida ijtimoiy faollikni oshirish samarali va jonli maktab hamjamiyatini yaratishga yordam beradi [1].

Ta'lim jarayonida ijtimoiy faol o'quvchilar hamjamiyatini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'quvchilar faqat bilim olish bilan cheklanmasdan, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv va kelajakda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyor bo'lishi kerak. Bu jarayonda texnologiyalardan foydalanish, tajribaviy o'rganish, interfaol metodlar va loyihaviy faoliyat o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni kuchaytiruvchi samarali vositalardir.

Inklyuziv muhit va xilma-xillikka hurmat ijtimoiy faollikni rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. O'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish va ularning shaxsiy hamda madaniy farqlarini qadrlash ta'lim jarayonini boyitadi, bag'rikenglik va ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi [5]. Aksincha, agar odamlar jamoaga va uning talabalariga to'g'ri baho bermasalar, turmushlari ma'nosiz va ma'naviy boyliksiz kechadi. Jamoatchilikning bu xususiyatlari va tamoyillari pedagogik va psixologik jihatdan teran tahlil qilinishi lozim. Odam shaxsiyati uning jamiyatga, jamoaga va vatanga munosabati bilan belgilanadi. O'quvchilar jamoatchilik mazmunini puxta tushungan taqdirda uni amalga oshirishga qodir bo'ladi. Shu

sababli o'qituvchi jamoatchilik va jamoa shaxsini tarbiyalashda asosiy vosita sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Jamoa va shaxs masalasi yosh avlodni tarbiyalashning dolzarb nazariy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarni jamoatchilik ruhiyatiga, jamoa hayotiga va birlashishga odatlantirish, malaka hosil qilish va jamoatchilik ongini shakllantirish umumiy o'rta ta'lim muassasalarining vazifasidir. Jamoa ijtimoiy-foydali mehnat orqali o'quvchilarning do'stlashishiga, birlashishiga va umummaktab jamoasi atrofida birlashishiga yordam beradi. O'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etilishi ularda o'zaro munosabat, do'stlik, hamkorlik va mas'uliyat hislarini rivojlantiradi. Ishning maqsadi aniqligiga qarab, o'quvchilar bajarilgan ishdan qanoat hosil qiladi va sinf hamda maktab jamoasi oldidagi vazifalarini bajarganidan quvonadi. Shu bilan ular mehnatga va umumxalq ishiga qiziqish uyg'otadi, yangi yondashuv va yashash, o'qish zaruriyatini chuqurroq anglaydi. "Har bir sinf kichik jamoa bo'lib, o'z faollariga ega bo'lsa-da, bu jamoa maqsadlarning birligi va umumiy ishlarni tashkil etish bilan bog'liqdir. Jamoada ijobiy psixologik muhit mavjud bo'lsa, nafaqat pedagogik majburiyatlar, balki boshqa har qanday vazifalar sifatli bajarilishi mumkin. Masalaning yana bir tomoni shundaki, mehnat jamoasi a'zolarining o'z kasbiga qiziqishi va qoniqishi ham zarur. Jamoada ijobiy muhit bo'lishi uchun a'zolar o'z kasbidan mamnun bo'lishi lozim" [2].

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni jamoa ruhida tarbiyalash shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim shartidir. **Birinchidan**, jamoaviy qadriyatlar oiladan boshlanib, maktabda yanada mustahkamlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga hayotiy misollar, ibratli voqealar va o'tmish tajribalar asosida jamoaviylikning ahamiyatini singdiradi. Bu esa shaxsiy manfaatni umumiy manfaat bilan uyg'unlashtirishni o'rgatadi. Natijada o'quvchi asta-sekin jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatni anglay boshlaydi [7: 65]. **Ikkinchidan**, jamoa muhitining psixologik jihatlari ham alohida ahamiyatga ega. Agar jamoada ijobiy psixologik muhit shakllansa, o'quvchilar nafaqat o'qishda, balki ijtimoiy-foydali mehnatda ham faol bo'lishadi. Bu esa ularda mehnatga ijodiy yondashuv, o'zini jamiyatning muhim a'zosi sifatida his qilish kabi fazilatlarini tarbiyalaydi [7: 68]. **Uchinchidan**, sinf jamoasi o'quvchi uchun kichik model jamiyat hisoblanadi. Unda liderlik, mas'uliyat,

hamkorlik, muomala madaniyati kabi sifatlar amaliy tajriba orqali shakllanadi. Shu sababli sinf rahbari o'z jamoasining rivojlanish bosqichini aniqlab, tarbiyaviy ishlarni shunga mos olib borishi kerak. **To'rtinchidan**, o'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etilishi ularni birlashtiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ularni jamoa ruhida tarbiyalash nafaqat sinf ichidagi munosabatlarni mustahkamlash, balki shaxsning jamiyatga moslashuvi, ma'naviy boyishi va ijtimoiy faolligini ta'minlovchi jarayondir. Har qanday o'quvchi jamoada o'zini anglab, umumiy manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishni o'rganadi. Bu esa uni kelajakda jamiyatning faol, ma'suliyatli va vatanparvar a'zosi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Emotsiya psixik jarayon bo'lib, insonning atrof muhitga va o'ziga nisbatan subyektiv munosabatidir. U psixik faoliyatdagi va somatik namoyon bo'lishdagi o'lchashlarning o'zgarishida o'z aksini topgan, psixik jarayonlarning vujudga keladigan integrativ holatini (shaklini) bildiradi. Emotsiyalar bir qator xususiyatlarga ega: sifat, mazmun-mohiyat, yo'nalish, davr, namoyon bo'lish, vujudga kelish asosi va hokazo. Emotsional holatlarning asosiy sifatleri shaxsning obyektiga nisbatan subyektiv munosabatiga bo'lgan muhim belgilari sifatida namoyon bo'ladi. Ular ijobiy, salbiy, ikki yoqlama va noaniq (mavhum) munosabatlardir. E.D.Xomskaya va N.Y.Batovalar yaratgan "Miya va emotsiya" nomli kitobda emotsiyalarning muhim xususiyatlaridan biri ularning bilish jarayonlari bilan bog'liqligini o'rganishdir. L.S.Vigotskiy va boshqa olimlarning faoliyatlarida bu aloqadorlik ko'zga tashlanishi tahlil qilingan. Ushbu manbada keltirilishicha, emotsiyalarning kognitiv sohaga ta'siri perseptiv jarayonlarda namoyon bo'ladi. Bu boradagi eksperimental tadqiqotlarni E.T.Sokolova olib borgan tajriba misolida ko'rish mumkin.

Emotsional jarayonlarning perseptiv jarayonlarga ta'sirini o'rganish borasidagi olib borilgan tadqiqotlarda ko'rinadiki, verbal yoki noverbal, ijodiy yoki salbiy tusdagi materialni idrok qilish xususiyatlari sinaluvchining emotsional holatiga bog'liq. Ba'zi manbalarda emotsional holatlarning intellektual jarayonlarga ta'siri keltirib o'tilgan" [2]. Mashhur fiziolog A.A.Uxtomskiyning fikricha, har qanday tashqi ta'sir bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ida "dominant (lot. Dominantis – hukmronlik qiluvchi) o'choq" paydo qiladi va bu sohaning neyronlari boshqa soha neyronlari faolligini pasaytiradi. Natijada miyaning integrativ (lot. integrio – tiklash, to'ldirish, butun, yaxlit) faoliyati buzilib, funksional tabiatga ega bo'lgan patologik belgilar yuzaga keladi. Ularni yo'qotish uchun miyaning funksional faoliyatini oshirish va po'stloqda boshqa, ya'ni ijobiy xususiyatga ega bo'lgan "dominant o'choq" paydo qilish kerak" [3]. Asosiy g'oya shundaki, emotsiyalar miya faoliyati uchun yo'naltiruvchi dastur vazifasini bajaradi. Uxtomskiyning dominant o'choq tushunchasi nafaqat fiziologik hodisa, balki har bir insoning dunyoqarashi va qarorlar qabul qilish mexanizmining kalitidir. Dominant o'choqni ko'pincha tashqi stimullar – yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, atrof-muhitdagi stresslar o'rnatadi. Ammo aqlli inson o'z miyasida qaysi dominant o'choqni faollashtirishni o'zi tanlash huquqiga ega. Bu esa psixologik madaniyat va o'z-o'zini tarbiyalashning dolzarb masalasidir [8: 68].

Xulosa qilib aytganda, integratsiyalashgan ta'lim zamonaviy boshlang'ich ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchi shaxsining intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta'minlaydi, fanlarni bir-biridan ajralmagan, yagona yaxlit tizim sifatida idrok etishga yordam beradi. Bu esa kelajakda kompleks fikrlay oladigan, ijodkor, moslashuvchan va kompetensiyaga ega shaxslarni tarbiyalash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. Andreyeva T.V. Oila psixologiyasi tadqiqotlar. Foyda. – spb.: nutq, 2004.
3. Abramova G.S. Yoshg a bog'liq psixologiya tadqiqotlar – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2000.
4. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. – Toshkent: Noshir, 2012.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
6. Hasanov R., Hasanova B. Sharq uyg'onish davriva bu davrdagi pedagogik fikrlar. – Toshkent: MRDI, 2000.
7. Rasulova Z.D. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik asoslari // Yevropa fani, 2020, 51, №2. – B. 65–68.
8. Дусавицкий А.К. Урок в начальной школе. Реализация системно-деятельностного подхода к обучению. Москва: Вита-Пресс, 2011.

Chutkul BOLTAYEV,

Termiz davlat universiteti fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi

INGLIZ TILINI O'QITISHDA BLENDED LEARNING: AN'ANAVIY VA ONLAYN TA'LIMNING INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda Blended learning (aralash ta'lim) modelining nazariy-metodik asoslari, uning didaktik afzalliklari va o'quv jarayoniga integratsiya qilinishining samaradorligi tahlil qilinadi. Blended learning an'anaviy dars va onlayn ta'limning eng yaxshi jihatlarini uyg'unlashtirgan holda o'quvchilar kompetensiyalarining rivojlanishi, mustaqil ta'lim ko'nikmalarining shakllanishi hamda til o'rganish jarayonining interaktivligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: blended learning, aralash ta'lim, ingliz tili o'qitish metodikasi, onlayn ta'lim, an'anaviy dars, interaktiv ta'lim.

Annotation. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the Blended learning model in teaching English, its didactic advantages, and the effectiveness of integrating it into the learning process. Blended learning ensures the development of students' competencies, the formation of independent learning skills, and the interactivity of the language learning process, combining the best aspects of traditional lessons and online learning.

Keywords: blended learning, blended learning, English language teaching methodology, online learning, traditional lesson, interactive learning.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы модели Blended learning (смешанное обучение) в преподавании английского языка, ее дидактические преимущества и эффективность интеграции в учебный процесс. Blended learning

обеспечивает развитие компетенций учащихся, формирование навыков самостоятельного обучения и интерактивность процесса изучения языка, сочетая лучшие аспекты традиционного урока и онлайн-образования.

Ключевые слова: blended learning, смешанное обучение, методика преподавания английского языка, онлайн-обучение, традиционный урок, интерактивное обучение.

Global raqamlashtirish jarayoni ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarning shakllanishiga, metodik yondashuvlarning yangilanishiga va o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qayta ko'rib chiqilishiga asos yaratdi. Shunday yangi yondashuvlardan biri – **blended learning**, ya'ni an'anaviy (yuzma-yuz) va onlayn (masofaviy) ta'limni integratsiya qilgan aralash o'qitish modelidir. Ingliz tilini o'qitishda ushbu model o'quv jarayonini yanada moslashuvchan, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan qilishga imkon beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimi ham so'nggi yillarda raqamli resurslar, elektron darsliklar, video-mashg'ulotlar va LMS tizimlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yimoqda. Shunday sharoitda blended learningning ingliz tili ta'limida qo'llanilishi dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida Blended learning (aralash ta'lim) modeli pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqayotgan muhim innovatsion yondashuvdir. Ushbu model an'anaviy (offline) ta'limning ijtimoiy-psixologik ustunliklari bilan onlayn ta'limning texnologik imkoniyatlarini integratsiya qilishga asoslanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan Blended learning konstruktivizm, sotsial interaksionizm va faoliyatga asoslangan yondashuv tamoyillariga tayanadi. Xususan, konstruktivizmga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki faol faoliyat jarayonida o'zlashtiradi; onlayn muhit esa bu jarayonni mustaqillik, izlanish va refleksiya orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Aralash ta'lim modeli o'quv jarayonida ta'limni individuallashtirish, o'quvchi qiziqishi va ehtiyojlarini inobatga olish, ta'lim resurslariga doimiy va erkin murojaat qilish imkoniyatini yaratadi. Ingliz tilini o'qitishda Blended learning multimodal (audio, video, interaktiv test, matn, simulyatsiya) resurslardan foydalanish orqali til kompetensiyalarining kompleks shakllanishiga xizmat qiladi [1: 105]. Tadqiqot quyidagi metodlarga tayanadi:

- pedagogik va lingvodidaktik adabiyotlarni tahlil qilish;
- onlayn ta'lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Zoom, Quizlet, Duolingo) imkoniyatlarini qiyosiy o'rganish;
- ingliz tili o'qituvchilarining amaliy tajribasini kuzatish;
- Blended learning modeli asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligini ko'rsatkichlar asosida baholash.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'qitishda Blended learning modeli o'quv jarayonini yanada samarali, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan qilishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega. An'anaviy dars jarayoni bilan onlayn ta'limning uyg'unlashuvi o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantiradi va umumiy o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi [4: 56].

Blended learningning eng muhim afzalliklaridan biri – o'quvchilarning mustaqil ravishda bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada kuchaytirishi. Onlayn hamda

oflayn muhitning integratsiyasi o'quvchi uchun istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkonini yaratadi. Bu esa, ayniqsa, chet tillarini o'rganishda uzluksizlik va takrorlash tamoyillarini qo'llashga xizmat qiladi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, aralash ta'lim modeli quyidagi didaktik ustunliklarni namoyon qiladi:

Til ko'nikmalarining integrativ rivojlanishi. Multimodal resurslardan – (video, audio, interaktiv mashqlar) foydalanish o'quvchilarda bir vaqtning o'zida listening, speaking, reading va writing ko'nikmalarini uyg'un holda shakllantiradi [1: 104]. Bu esa kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy talablari bilan mos keladi.

Differensial yondashuvning kuchayishi. Onlayn platformalarning moslashuvchanligi tufayli o'quvchilar o'z tezligi, qiyinchilik darajasi va yo'nalishiga moslashtirilgan individual ta'lim trayektoriyasiga ega bo'ladi. Bu, ayniqsa, katta guruhlarda samaradorlikni oshiradi.

O'zlashtirish sifatining oshishi. Onlayn testlar, avtomatik tekshiruv tizimlari va tezkor feedback o'quvchilarga o'z xatolarini darhol anglash va bartaraf etish imkonini beradi. Natijada, bilimning mustahkamligi ortadi.

Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi. Real vaqt rejimidagi onlayn muloqotlar, virtual suhbatlar, forumlar, podcastlar bilan ishlash o'quvchilarda tabiiy kommunikativ muhitni yaratadi. Bu esa og'zaki nutqni shakllantirishda an'anaviy darslarga qaraganda samaraliroq bo'lishi mumkin [2: 78].

Motivatsiyaning oshishi. Gamifikatsiya elementlari, reyting tizimlari, badge va achievementlar o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb qiladi. Interaktivlik yuqori bo'lgan ta'lim muhiti o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlaydi.

Yakuniy muhokama sifatida aytish mumkinki, Blended learning nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki ingliz tilini o'qitish metodikasiga zamonaviy yondashuvlarni olib kiradi. An'anaviy pedagogik modellarning kuchli jihatlari bilan raqamli innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlari uyg'unlashganda, chet tilini o'rganish jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu bois, Blended learning modeli kelajak ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Blended learning ingliz tilini o'qitishda zamonaviy, samarali va moslashuvchan pedagogik model bo'lib, u o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, til ko'nikmalarini chuqur o'zlashtirishga va raqamli ta'lim muhitiga moslashishga yordam beradi. An'anaviy va onlayn ta'limning integratsiyasi o'quv jarayonining sifatini oshiradi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni kuchaytiradi. O'zbekiston ta'lim tizimida blended learningni keng joriy etish ingliz tili o'qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatova S.M., Mukhamedjanova N. D. (2023). Teaching English in Inclusive Education Based on Smart Technology // Results of National Scientific Research International Journal, 2023, 2(2). – P. 101–106.
2. Abdurasulova M. Developing EFL Students Speaking Skills through Task-Based Instructions, Importance of Role Plays on EFL Students Speaking Skills // Journal of Science, Research and Teaching, 2023. – P. 2(3), 77–79.
3. Nematullaeva M. Improving Students' Communicative Competence through internet applications // Interpretation, 2024, Vol.2, Issue 4. – P. 100–106.
4. Халимова S. Ingliz tilini zamonaviy interaktiv o'qitish metodikasi // Interpretation and Researches, 2025, (9(55-2).

Baxtiyorjon BARATOV,
*Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

TALABALARNING MA'NAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining o'rnini, uning tarbiyaviy, axloqiy va ma'rifiy ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Xalq ijodidan ta'lim jarayonida foydalanishning metodik shakllari, pedagogik amaliyotdagi imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, ma'naviy madaniyat, xalq pedagogikasi, axloqiy qadriyat, milliy o'zlik, aforizm, maqol.

Annotation. This article examines the role of folk oral art in shaping students' spiritual culture, its educational, moral, and instructional significance. Methodological forms of using folk art in the educational process, possibilities in pedagogical practice are presented.

Keywords: oral folk art, spiritual culture, folk pedagogy, moral values, national consciousness, aphorism, proverb.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль народного устного творчества в формировании духовной культуры у студентов, его воспитательное, нравственное и образовательное значение. Представлены методические формы использования народного творчества в образовательном процессе, возможности в педагогической практике.

Ключевые слова: устное народное творчество, духовная культура, народная педагогика, нравственные ценности, национальное самосознание, афоризм, пословица.

Hozirgi globallashuv davrida yosh avlodni, ayniqsa talabalarni milliy ruhda, ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biridir. Shu jarayonda xalq og'zaki ijodi – xalq donishmandligi, axloqiy me'yorlari, qadriyatlari mujassam bo'lgan bebaho manbadir [1: 21]. Maqollar, matallar, dostonlar, rivoyatlar, ertaklar, afsonalar va aforizmlar orqali xalq o'zining ko'p asrlik ma'naviy tajribasini avloddan-avlodga o'tkazib kelgan.

Xalq og'zaki ijodi talabaning ma'naviy dunyosini boyitish, unga milliy ruh, axloqiy immunitet, mustahkam irodaviy qarashlarni singdirish uchun zaruriy vositadir. Xalq og'zaki ijodi – asrlar davomida xalq tomonidan yaratilgan, og'zaki shaklda avloddan-avlodga o'tib kelgan badiiy va tarbiyaviy ifodalar majmuidir. U insoniyat tafakkuri, hissiyoti, dunyoqarashi va hayotiy tajribasining mahsuli sifatida jamiyatning madaniy-ma'naviy boyligini ifodalaydi. Xalq og'zaki ijodi o'z ichiga turli janrlarni oladi: ertaklar, maqollar, matallar, topishmoqlar, dostonlar, afsonalar va hikoyatlar kabi janrlar har biri alohida ma'naviy yuklama va tarbiyaviy ahamiyatga ega [2:78].

Ertaklar – bolalar uchun eng tushunarli va ta'sirchan tarbiyaviy janrlardan biridir. Ular orqali yaxshilik bilan yomonlikning farqi, adolat, jasorat, halollik kabi tushunchalar bolalar ongiga singdiriladi. Ertak qahramonlari orqali ezgu fazilatlar targ'ib qilinadi, ayni paytda bolalarning tasavvuri, fantaziyasi va og'zaki nutqi rivojlanadi. Maqollar esa qisqa va lo'nda shaklda chuqur hayotiy mazmunni ifodalaydi. "Yaxshilik qil – qaytar dunyo", "Mehnat qilgan to'yadi" [3: 128] kabi maqollar yoshlarni halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat kabi ijobiy sifatlar bilan tarbiyalaydi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi o'zida xalqning tarixiy xotirasi, tafakkur madaniyati, axloqiy-ruhiy qadriyatlarini mujassam etgan. U orqali yosh avlod jamiyatda o'z o'rnini topish, milliy g'urur va insoniy fazilatlarini anglash imkoniga ega bo'ladi. Ma'naviy madaniyat shaxsning axloqiy, estetik, ma'rifiy, dunyoqarash, e'tiqod, nutq madaniyati va ijtimoiy faoliyatini ifodalovchi murakkab tizimdir. Bu tushuncha shaxsning o'zini anglash, jamiyatdagi o'rnini va burchini to'g'ri baholay olish, qadriyatlarga hurmat bilan qarashini bildiradi. Pedagog olimi N. Sharipova ma'naviy madaniyatni shunday ta'riflaydi: "Ma'naviy madaniyat – insonning ichki dunyosi, uning axloqiy qadriyatlarga asoslangan fikrlash va xatti-harakatlar tizimidir. Bu jarayon xalq og'zaki ijodining turg'un ta'siri ostida shakllanadi".

Xalq og'zaki ijodi orqali yosh avlodda axloqiy, ma'naviy va aqliy tarbiya izchil shakllanadi. Axloqiy tarbiya – halollik, odob, kattalarga hurmat, do'stlik kabi tushunchalarni anglatadi. Ma'naviy tarbiya esa milliy qadriyatlar, ona tiliga hurmat, milliy o'zlikni anglashga yo'naltirilgan bo'lsa, aqliy tarbiya tafakkur va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu ma'noda, xalq og'zaki ijodi yoshlarning har tomonlama kamol topishida noyob tarbiyaviy vositadir. Zamonaviy ta'lim tizimida xalq og'zaki ijodidan foydalanish keng imkoniyatlarni yaratadi. Dars jarayonida ertaklar asosida rolli o'yinlar tashkil qilish, maqollar orqali mavzuni mustahkamlash, topishmoqlar orqali mantiqiy fikrlashga undash, dostonlardan sahna ko'rinishlari tayyorlash orqali bolalarning bilimiga, adabiyotga, ma'naviyatga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin [5: 97]. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi asosida yakuniy loyihalar, sinf tadbirlari, mushoira kechalari va badiiy chiqishlar tashkil etish orqali tarbiya jarayonini sarmazmun va qiziqarli qilish mumkin. Xalq og'zaki ijodi faqat badiiy meros emas, balki kuchli tarbiyaviy vosita, xalqning o'z madaniyatiga, axloqiga va ma'naviyatiga bo'lgan munosabatining ifodasidir. U zamonaviy ta'limda yosh avlodni har tomonlama yetuk inson etib tarbiyalashda o'zining dolzarb ahamiyatini saqlab qolmoqda. A.Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'kidlaydi: "Odob – insonni bezar, jaholat esa insonni xarob etar". Bu fikr talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda xalq hikmatlarining bevosita tarbiyaviy kuchini ko'rsatadi [1: 19].

Talabalarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish jarayonida xalq og'zaki ijodini quyidagi metodik shakllarda qo'llash maqsadga muvofiq. Oliy ta'lim jarayonida xalq og'zaki ijodini o'qitish nafaqat madaniy merosni o'rganish, balki talabaning ma'naviy, estetik va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidir. Talaba xalq og'zaki ijodidagi ijobiy obrazlar, ibratli g'oyalar orqali o'z hayotini ma'naviy mezonlar asosida yo'naltiradi.

Xalq og'zaki ijodining yana bir janri matallar odatda hayvonlar timsolida berilgan hikoyaviy janr bo'lib, unda axloqiy saboq markazda turadi. Bolalar matallar orqali hiyla-nayrang, ochko'zlik, yalqovlik kabi salbiy fazilatlarining oqibatini tushunadi. Topishmoqlar esa bolalarning tafakkurini, diqqatini, kuzatuvchanligini oshiradi. Ular mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi, o'yin bilan o'qitishga asoslangan janr sifatida bolalar ongida aqliy rivojlanishga xizmat qiladi. Dostonlar va xalq eposlari esa yurtparvarlik, fidoyilik, sadoqat va erksevarlik g'oyalarini o'zida mujassam etadi. "Alpomish",

“Go‘ro‘g‘li”, “Rustam” kabi dostonlar o‘z vatanini sevgan, oilasini asragan, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘ygan qahramonlar timsolida yuksak axloqiy fazilatlarni targ‘ib qiladi [8: 114]. Bu asarlar orqali yoshlar ma‘naviy jihatdan yuksaladi, ularda ijtimoiy mas‘uliyat tuyg‘usi shakllanadi. Masalan, o‘zbek ertaklarida “Halol bola”, “Yaxshilik qilgan el topadi”, “Qarining duosi” kabi syujetlar talabani ezgulik, sabr-toqat, mehr-oqibat, fidoyilik kabi fazilatlarni qadrlashga undaydi [6: 29]. Pedagog olim A.Murodovning fikricha, “Xalq og‘zaki ijodi vositasida tarbiya jarayoni emotsional ta‘sir orqali amalga oshadi. Chunki badiiy obraz, hikmatli so‘z va xalq tili shaxsning qalbini tezroq egallaydi”. Xalq og‘zaki ijodi nafaqat axloqiy tushunchalarni, balki his-tuyg‘ularni, estetik didni ham shakllantiradi. Bu metodlar nafaqat bilim berish, balki talabalarda milliy o‘zlik, ijtimoiy mas‘uliyat, mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantiradi.

Xalq og‘zaki ijodi – milliy o‘zlikning asosi, madaniy merosning poydevori. Unda xalq ruhiyati, qadriyati va hayot

falsafasi mujassam. Shu bois oliy ta‘lim tizimida xalq og‘zaki ijodini o‘rganish talabalarda o‘z millatiga hurmat, tarixiy xotiraga sadoqat va madaniyatga mehnatni kuchaytiradi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, yoshlarning ma‘naviy immunitetini mustahkamlash, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash-kelajak avlod uchun eng muhim vazifamizdir. Xalq ijodi yoshlar qalbiga milliy iftixor va ma‘naviy yuksaklik urug‘ini ekuvchi manbadir [9: 41].

Talabalarda ma‘naviy madaniyatni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyosdir. Maqollar, aforizmlar, dostonlar, rivoyatlar va ertaklar yoshlarni halollik, insonparvarlik, sabr-toqat, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi fazilatlarga o‘rgatadi. Xalq og‘zaki ijodi orqali o‘zbek talabalari milliy ruhni anglaydi, o‘zini jamiyatning faol, ma‘naviy yetuk a‘zosi sifatida shakllantiradi. Shu bois, xalq og‘zaki ijodini ta‘lim-tarbiya tizimida faol qo‘llash – ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalashning eng samarali yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
4. Normatova S. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Cho‘lpon, 2008.
5. Murodov A. Oliy ta‘limda ma‘naviy tarbiya nazariyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
6. Sharipova N. Ma‘naviy madaniyatni shakllantirishda xalq ijodining o‘rni. – Samarqand: “SamDU ilmiy to‘plami”, 2021.
7. Xodiyev B. Xalq pedagogikasida axloqiy qadriyatlar. – Toshkent: TDPI, 2020.
8. Yo‘ldoshev Q. Pedagogik ma‘naviyat asoslari. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2018.
9. Qodirov A. Xalq madaniyati va ta‘lim tizimi integratsiyasi. – Toshkent: TDPU, 2020.

Xusniya AXMEDOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

EVFEMIZMLARNING NUTQDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada evfemizmlarning nutqdagi leksik-semantik tabiati, ularni mazmuniy yumshatish, emotsional neytrallash, ijtimoiy moslashtirish masalasi va evfemizmlarning madaniy-estetik vazifalari atroflicha yoritiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemik birliklarning semantik mexanizmlari, struktur xususiyatlari, ma‘no kengayishi va torayishi jarayonlari, shuningdek, lingvokulturologik faktorlar ta‘siri ostidagi o‘ziga xosliklari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, leksik-semantik tizim, konnotatsiya, semantik yumshatish, metafora, perifriza, siyosiy korrektilik, pragmatika, ijtimoiy semantika, emotsional neytrallash, frazeologik evfemizm, kontekstual ma‘no.

Annotation. This article examines the lexical-semantic nature of euphemisms in speech, their semantic mitigation, emotional neutralization, social adaptation, and the cultural-aesthetic functions of euphemisms. Semantic mechanisms, structural features, processes of expansion and contraction of the meaning of euphemistic units in English and Uzbek, as well as their features under the influence of linguocultural factors, are analyzed from a scientific point of view.

Keywords: euphemism, lexico-semantic system, connotation, semantic mitigation, metaphor, periphrasis, political correctness, pragmatics, social semantics, emotional neutralization, phraseological euphemism, contextual meaning.

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается лексико-семантическая природа эвфемизмов в речи, их смысловое смягчение, эмоциональная нейтрализация, социальная адаптация и культурно-эстетические функции эвфемизмов. С научной точки зрения анализируются семантические механизмы, структурные особенности, процессы расширения и сужения значения эвфемистических единиц в английском и узбекском языках, а также их особенности под влиянием лингвокультурологических факторов.

Ключевые слова: эвфемизм, лексико-семантическая система, коннотация, семантическое смягчение, метафора, перифраз, политкорректность, прагматика, социальная семантика, эмоциональная нейтрализация, фразеологический эвфемизм, контекстуальное значение.

Evfemizmlar orqali nutq egasi muayyan tushunchani to‘g‘ridan-to‘g‘ri, qo‘pol yoki psixologik jihatdan og‘ir bo‘lgan shaklda aytmasdan, uni yumshoqroq, ijtimoiy jihatdan maqbulroq ifoda etadi. Tilshunoslikda evfemizm tushunchasi semantika, pragmatika, sotsiolingvistik va lingvokulturologiya kesishmasida o‘rganiladigan ko‘p qatlamli hodisa sifatida qaraladi [1: 23]. Tadqiqotchilarga ko‘ra (G.Leech, H.Rawson, K.Allan, A.V. Kunin, N.Mahmudov), evfemizmning asosida ijtimoiy madaniy konnotatsiya, psixologik ehtiyoj, nutqiy odob, konfliktlardan qochish, siyosiy korrektilik kabi omillar yotadi [2: 65]. Shuningdek, evfemizmlar tilning semantik tizimini

boyituvchi leksik innovatsiya sifatida ham namoyon bo‘ladi. Evfemizmlar leksik-semantik tizimda mazmunni yumshatish va manoni bilvosita ifodalash funksiyalarini bajaradi [3: 22]. Ular denotativ ma‘noni saqlagan holda konnotativ bo‘yoqni o‘zgartiradi. Bu jarayon nutqda emotsional zarbani pasaytirish, suhbatdoshning psixologik holatini inobatga olish, madaniy-axloqiy me‘yorlarni buzmaslik maqsadida sodir bo‘ladi.

Evfemizmning eng muhim semantik xususiyati shundaki, u predmetning mohiyatini o‘zgartirmaydi, balki unga bo‘lgan baholovchi munosabatni o‘zgartiradi [4: 76]. Misollar:

Qo'pol/To'g'ridan to'g'ri	Evfemizm	Til
o'ldi	vafot etdi, ko'z yumdi	o'zbek
to die	to pass away, to depart	ingliz
kambag'al	moddiy jihatdan qiyinalayotgan	o'zbek
fat	plus-sized, full-figured	ingliz

Bu holatda semantik yumshatish asosiy rolni o'ynaydi. Evfemizmlar metaforik yoki umumlashtiruvchi ma'no orqali kengayadi: *to sleep forever* → *vafot etmoq*; *katta yoshga kirgan* → *qari* o'rnida. Mazkur jarayon tilning semantik sistemasida yangi konnotativ qirralar ochadi. Ba'zan evfemizm birgina vaziyatga xos tor ma'noga ega bo'ladi: *special child* – *rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola*.

Evfemizm muayyan ijtimoiy guruh yoki sohada maxsus nom sifatida torayadi [5: 32]. Metafora, metonimiya, sinekdoxa evfemik strukturada keng qo'llanadi. **O'zbek tilida:** *yorug' dunyoni tark etdi, ko'zlariga uyqu ketdi* (charchoq uchun yumshoq ifoda). **Ingliz tilida:** *he is no longer with us, passed on to a better place*. Bu birliklar tasviriylilik orqali semantik yumshashni kuchaytiradi. Evfemizmlarni tematik-semantik jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

Eng ko'p evfemizm o'lim, kasallik, nogironlik mavzusida. Chunki ular inson ongida sezgir mavzulardir: *disabled* →

differently abled, keksaygan → *katta avlod vakili*, *cancer* → *a long illness*.

Psixologik ta'sirni kamaytirishga qaratilgan evfemizmlar ijtimoiy mavqe, iqtisodiy holat, bandlikka oid: *poverty* → *low-income status*, *ishsiz* → *vaqtincha band emas*, *kambag'al* → *moddiy yetishmovchilikda yashovchi*

Bu turdagi evfemizmlar ko'proq sotsiologik xarakterga ega. Evfemizmlar tilning leksik-semantik tizimida mazmuni yumshatishga xizmat qiluvchi muhim birliklar bo'lib, ular tilning ijtimoiy, madaniy, psixologik va pragmatik xususiyatlarini aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillarini qiyosiy tahlil qilish natijasida evfemik birliklarning bir-biriga o'xshash funksiyaga ega bo'lishi bilan birga, ularning madaniy konnotatsiyasi, qo'llanish ko'lam, semantik namunalar farqlanishi ayon bo'ladi [6: 54]. Evfemizmlar nutq madaniyatini ta'minlash, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, og'ir mavzularni yumshatib yetkazish, siyosiy korrektilikka rioya qilish va kommunikativ jarayonni silliqashtirish kabi ko'plab vazifalarni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allan K., Burrige K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
2. Rawson H. A Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. – New York: Crown Publishers, 2002.
3. Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.
4. Lyons J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
5. Кунин А. В. Фразеология современного английского языка. М., 1984.
6. Mahmudov N., Shukurov Sh. O'zbek tilining semantik tizimi. – Toshkent, 2018.

Sitorabonu MURODOVA,

Buxoro davlat pedagogika instituti kimyo kafedrasida o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANIDAGI “SPIRTLAR” MAVZUSINI CLIL METODI ASOSIDA O'QITISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada umum o'rta ta'lim maktablarida “Spirtlar” mavzusini CLIL metodi asosida o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. O'quvchilarni ilmiy tafakkurga, mustaqil izlanishga va xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, mavzuni CLIL asosida o'qitish orqali o'quvchilarda fanlararo integratsiya, kommunikativ savodxonlik, amaliy ko'nikma hamda global ta'lim muhiti talablariga mos kompetensiyalar shakllanishi ilmiy asosda izohlangan.

Kalit so'zlar: CLIL metodi, “Spirtlar” mavzusi, fanlararo integratsiya, kommunikativ savodxonlik, xorijiy til kompetensiyasi, amaliy ko'nikmalar, organik kimyo, global ta'lim.

Annotation. This article covers the theoretical and practical aspects of teaching the topic of “Alcohols” in general education schools based on the CLIL method. The possibilities of orienting students towards scientific thinking, independent research, and the development of foreign language competencies are demonstrated. Also, the formation of interdisciplinary integration, communicative literacy, practical skills, and competencies in students in accordance with the requirements of the global educational environment through CLIL-based teaching of the topic is explained on a scientific basis.

Keywords: CLIL method, “Alcohols” topic, interdisciplinary integration, communicative literacy, foreign language competence, practical skills, organic chemistry, global education.

Аннотация В данной статье освещены теоретические и практические аспекты преподавания темы «Спирты» в общеобразовательных школах на основе метода CLIL. Показаны возможности ориентации учащихся на научное мышление, самостоятельные исследования и развитие иноязычных компетенций. Также на научной основе объясняется формирование у учащихся междисциплинарной интеграции,

коммуникативной грамотности, практических навыков и компетенций, соответствующих требованиям глобальной образовательной среды, посредством преподавания темы на основе CLIL.

Ключевые слова: метод CLIL, тема «Спирты», междисциплинарная интеграция, коммуникативная грамотность, иноязычная компетенция, практические навыки, органическая химия, глобальное образование.

Bugungi kunda ta'lim tizimida fanlarni o'qitish jarayonida yangicha metod va texnologiyalardan foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy o'quvchi nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishi, balki ularni amalda qo'llash, hayot bilan bog'lay olish, shuningdek, xorijiy til ko'nikmalariga ham ega bo'lishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan qaranganda, kimyo fanini o'qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodini qo'llash o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish, fanlararo bog'liqlikni anglash va ingliz tilidagi atamalarni puxta egallash imkonini beradi.

Organik kimyo bo'limida muhim mavzulardan biri bo'lgan "Spirtlar" o'quvchilar uchun nazariy hamda amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Spirtilar mavzusida o'quvchilar ularning tuzilishini, turlarini, fizik va kimyoviy xossalarni, olinishi hamda hayotdagi qo'llanilishini o'rganadilar. Ushbu bilimlarni CLIL asosida o'zlashtirish jarayoni esa ikki tomonlama natija beradi: bir tomondan, kimyoviy tushunchalar yanada aniq va ravshan anglashiladi, ikkinchi tomondan, o'quvchilar xorijiy tilni fanga bog'liq holda o'rganadilar [2.] CLIL metodining afzalligi shundaki, u o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Dars jarayonida o'quvchilar tajriba o'tkazadilar, natijalarni ingliz tilida ifodalaydilar, guruhlarda ishlash orqali bir-biridan o'rganadilar va o'z fikrlarini erkin bildiradilar. Bu esa o'quvchilarda nafaqat kimyoviy savodxonlikni, balki kommunikativ qobiliyat, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni ham shakllantiradi.

"Spirtlar" mavzusini CLIL metodi asosida o'qitish orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtiradilar, o'zlashtirilgan ma'lumotlarni chet tilida ifodalay olish imkoniyatiga ega bo'ladi va eng muhimi, global ta'lim talablariga mos raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanadilar. Shu bois mazkur metodni qo'llash nafaqat o'quv jarayonini samarali tashkil etishga, balki o'quvchilarning kelajak hayotiga zarur bo'lgan

ko'nikmalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi [3]. Umumta'lim maktablarida organik kimyo fanini o'qitishda, hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish juda ham ommalashib ketmoqda. Bulardan biri – **"CLIL" metodi**. CLIL, birinchi navbatda, ko'p tili emas, balki umumiy bilimlarni o'rgatishdir, shuning uchun

- mashg'ulotlar asosiy 4 "C" ga asoslangan holda amalga oshiriladi: content(tarkib), communication (muloqot), cognition (bilim), culture (madaniyat). Ushbu tarkibiy qismlarning barchasi bir-biri bilan doimiy bog'liqdir;
- sinfda xavfsiz psixologik muhitni yaratishni talab qiladi;
- faqat bitta chet tili va bitta o'qituvchidan foydalanishni nazarda tutadi;
- materialni yaxshiroq tushunish uchun o'qituvchi yuz ifodalarni, imo-ishoralarni, rasmlarni, taqdimot tovushini va boshqalarni bog'lay oladi [4].

Masalan, 10-sinf o'quvchilari yil davomida kimyo fanidagi muhim terminlarni darsda muntazam ravishda yozib borish uchun lug'at daftar tutishlari xorijiy tillarga bo'lgan bilim va qiziqishlarini yanada oshiradi. Bunda asosan ko'p ishlatadigan terminlar nomi ingliz tilida yozib boriladi. 10-sinfidagi **"Spirtlar"** mavzusini mustahkamlash bosqichida yoki umumlashtiruvchi darslarda bu usulni qo'llash yaxshi samara beradi. Bunda birinchi navbatda jadval tuzib olamiz. Jadvalni birinchi qatorida spirt formulalarini yozib chiqamiz. 2-, 3-qatorlarini esa bo'sh qoldiramiz. Bunda o'quvchilardan jadvalni to'ldirish talab qilinadi. Ya'ni o'quvchilar birinchi navbatda 2-qatorni to'ldirishlari kerak. Jadvalning 2-qatoriga yozilgan spirt formulalarining sistematik nomenklaturalarini yozib chiqishlari kerak bo'ladi. So'ngra 3-qatoriga shu sistematik nomenklatura bo'yicha nomlanganlarini ingliz tilida nomlab chiqishlari talab qilinadi.

#	Spirit formulasi	Sistematik nomenklaturasi	Ingliz tili
1	CH ₃ OH	Metanol	Methanol
2	C ₂ H ₅ OH		
3	C ₃ H ₇ OH		
4	C ₄ H ₉ OH		
5	C ₅ H ₁₁ OH		
6	C ₆ H ₁₃ OH		

CLILni qo'llashning barcha qiyinchiliklariga qaramasdan, bu usul fan bilan chet tilini integratsiyalab o'rganishga ajoyib yondashuv bo'lib, ta'lim jarayonining ko'plab muammolarini hal qilishga imkon beradi. Ma'lumki, ikki tilni fizika, kimyo, biologiya va informatika fanlarida qo'llash qobiliyatini rivojlantirish uchun, shuningdek o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ilg'or mahalliy va xorijiy didaktik asarlar, havolalar va Internet manbalaridan foydalangan holda turli xil topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi [5].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida spirtilar mavzusini CLIL metodi asosida o'qitish – o'quvchilarning fanga oid bilimlarini zamonaviy pedagogik yondashuv bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu jarayonda o'quvchilar nafaqat spirtilarning tuzilishi va xossalarni o'rganadilar, balki ularning amaliy hayotdagi ahamiyatini ham anglaydilar. Shuningdek, o'z bilimlarini ingliz tilida ifodalash orqali ilmiy tafakkurini kengaytiradilar va global ta'lim maydoniga moslashadilar. Demak, CLIL metodi orqali o'qitilgan darslar o'quvchilarda chuqur bilim, ijodiy fikrlash va fanlararo bog'liqlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.G.Raxmatullaev, X.T.Omonov, SH.M.Mirkomilov. Kimyo o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2013.
2. Xodjiyev A., Yusupov B. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Jalolov J. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. – Toshkent, 2012.
4. Xoldorova M., Fayziyeva N., Rixsitilayeva F. Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish. – Toshkent: TDPU, 2018.

5. Qurbonova M.F. O'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda kouching metodikasi // Maktab va hayot. – Toshkent, 2020, №1.

Nozima AKBAROVA,

Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISHDA KLASTER YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda klasterli yondashuvning pedagogik imkoniyatlari va ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Unda klaster yondashuvining nazariy asoslari, ta'limda qo'llanilishi va boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdagi roli o'rganilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanish modeli taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: klaster yondashuvi, kasb-hunarga yo'naltirish, boshlang'ich ta'lim, pedagogik imkoniyatlar, kasbiy kompetensiya, shaxsni rivojlantirish, differensial topshiriq.

Annotation. The article is dedicated to highlighting the pedagogical possibilities and significance of the cluster approach in career guidance for primary school students. It examines the theoretical foundations of the cluster approach, its application in education, and its role in career guidance for primary school students. A model for the development of an elementary school student is presented.

Keywords: cluster approach, vocational guidance, primary education, pedagogical opportunities, professional competence, personal development, differentiated task.

Аннотация. Статья посвящена освещению педагогических возможностей и значения кластерного подхода в профориентации учащихся начальных классов. В ней изучены теоретические основы кластерного подхода, его применение в образовании и роль в профориентации учащихся начальных классов. Представлена модель развития учащегося начальной школы.

Ключевые слова: кластерный подход, профессиональная ориентация, начальное образование, педагогические возможности, профессиональная компетенция, развитие личности, дифференцированное задание.

Shaxsning kasbiy o'zini o'zi anglash muammosi psixologiya va pedagogikada dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kasb tanlash masalasi jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar kontekstida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy sharoitda moliyaviy inqirozlar, ishsizlik va yangi iqtisodiy tuzilmalarning paydo bo'lishi kabi omillar tufayli kasbiy obro' va mehnat madaniyati tushunchalari o'zgarib, kasbiy yo'nalishni shakllantirishga yangicha yondashuvni talab qilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning kasbiy qiziqishlarini shakllantirishning asosiy poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimi quyidagi vazifalarni bajarishga intilmoqda: ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, ya'ni zamonaviy iqtisodiyotning o'zgaruvchan sharoitida ta'lim mazmuni va usullarini ish beruvchilar ehtiyojlariga moslashtirish, o'quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash; o'quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda kasbiy yo'nalishni shakllantirish, ya'ni har bir o'quvchining individual xususiyatlarini aniqlash va ularning shaxsiy qiziqishlariga mos kasbiy yo'nalishlarni belgilash; ta'lim jarayonini shaxsiga xoslashtirish va differensiyalash, ya'ni o'quv materiallari va metodlarini har bir o'quvchining bilim darajasi, o'rganish tezligi va qiziqishlariga moslashtirish, shu orqali ta'lim samaradorligini oshirish. Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali boshlang'ich ta'lim nafaqat asosiy bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy tanqidiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Klaster yondashuvining nazariy asoslari. Ingliz tilidan klaster so'zining tarjimai "dasta", "g'ujum", "guruh", "konsentratsiya", "guruhlar bo'lib yig'ilish", "dastlab o'sish" ma'nolarini bildiradi. Dastlab klaster yondashuvi iqtisodiyotda M.Porter tadqiqotlari tufayli o'rganila boshlandi. U klasterni ma'lum bir sohada faoliyat yurituvchi, faoliyatining umumiyligi va bir-birini qo'shimcha qilishi bilan tavsiflanadigan, o'zaro bog'langan va bog'liq tashkilotlar bilan birga ishlaydigan qo'shni kompaniyalar guruhi sifatida ta'riflagan[1]. So'nggi paytlarda klaster yondashuvini ijtimoiy soha va ta'limda qo'llash dolzarb bo'lmoqda. Biroq, milliy ta'lim

tizimimizda klaster yondashuvi yetarlicha ishlab chiqilmagan va to'liq joriy etilmagan.

G'arb olimlari orasida Klaster yondashuvining ta'limda qo'llanilishi quyidagi mualliflarning ishlarida o'z aksini topgan: V.P.Burdakov, V.T.Volov, D.Y.Lapigin, A.V.Timiryasova, G.R.Xamidullina, R.I.Xikmatov, T.I.Shamova va boshqalar [2]. O'zbek olimlaridan Sh.Po'latov klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotlarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda pedagogik ta'limning tamoyillar, ta'lim-tarbiya mazmuni va sohaning o'ziga xos spesifikatsiyasi xususida fikr bildirgan bo'lsa [3], M.Ernazarova tadqiqotlari natijasida "boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy ko'nikmalarini tarbiyalash va ularning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida, qiziqarli topshiriq va masalalarni tanlashga alohida e'tibor berish zarur. Darsga doir tanlanadigan topshiriq va masalalar aniq bir tizimni tashkil qilishi, o'ziga xos tanlash usuliga va o'qitishning aniq bir maqsadiga qaratilishi zarur. Tanlangan topshiriqlar tizimi har xil mavzular yuzasidan bo'lishi mumkin" [4] degan xulosaga kelgan hamda klasterli yondashuv asosida dars jarayonlarini tashkil etish samarali ekanligini ta'kidlagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda klaster yondashuvi o'ziga xos pedagogik imkoniyatlarga ega. Vazifalarni hal qilishning klaster yondashuvi ma'lum masalalarni hal qilish uchun umumiy maqsad va ta'lim faoliyatining yadrosi bilan birlashtirilgan o'zaro bog'liq obyektlar guruhlarini o'z ichiga olgan moslashuvchan tuzilma yaratishga yordam beradi.


Klaster yondashuvining pedagogik imkoniyatlari. Klaster yondashuvi boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

Individual yondashuv: har bir o'quvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olish

2. Integratsiya: turli fanlar va kasblarni o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish

3. Amaliyotga yo'naltirilganlik: o'quvchilarga haqiqiy kasbiy tajriba olish imkoniyatini yaratish

4. Ijtimoiy hamkorlik: ta'lim muassasalari, korxonalar va oilalar o'rtasida uzviy bog'liqlik.



Vektorli model boshlang'ich sinf o'quvchisini har tomonlama rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ifodalaydi. Har bir vektor o'zaro bog'liq bo'lib, yagona maqsad – barkamol, mustaqil fikrlaydigan va jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyor shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

1-vektor (V1, och ko'k rang bilan ajratilgan) **akademik kompetensiyalar va universal o'qish ko'nikmalarini** ifodalab, u quyidagi 4 asosiy komponentdan iborat:

- a) kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga asos bo'ladigan o'quv predmetlar: ona tili, matematika, tabiiy fan, texnologiya;
- b) o'qish savodxonligi: barcha turdagi matnni tushunish, tahlil qilish va talqin qilish;
- d) mantiqiy fikrlash: muammolarni tahlil qilish va yechish;
- e) tadqiqotchilik ko'nikmalari: kichik loyihalar va kuzatuvlar.

2-vektor (V2, sariq rang bilan ajratilgan) **shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy madaniyatni** rivojlantirish bo'lib, u ham 4 komponentdan iborat:

ijtimoiy ko'nikmalar: muloyimlik, hamkorlik, muloqotga kirishuvchanlik;

emotsional intellekt: o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini, kechinmalarini tushunish;

ma'naviy-axloqiy tarbiya: yaxshi xulq, odob, mehnatsevarlik sifatlariga ega bo'lish;

madaniy ong: an'analar, qadriyatlar, milliy o'ziga xoslikni anglash, qadrlash.

3-vektor (V3, yashil rang bilan ajratilgan) **amaliy faoliyat va jismoniy madaniyatni** rivojlantirishga asoslanib, 4 komponentdan iborat:

nozik harakatlar: qo'l malakasi, yozish, chizish;

jismoniy rivojlanish: harakatchanlik, jismoniy faollik;

d) amaliy ko'nikmalar: kundalik hayot ko'nikmalari;

sog'lom turmush tarzi: gigiyena, ovqatlanish, dam olish.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida klasterli yondashuv asosida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

Individual yondashuv	Integratsiya-lashgan ta'lim	Amaliyotga yo'naltirilganlik	Ijtimoiy hamkorlik
har bir o'quvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda kasbiy yo'nalishlarni shakllantirish	turli fanlar va kasblar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish, o'quvchilarga har tomonlama tasavvur berish	o'quvchilarga haqiqiy kasbiy tajriba olish imkoniyatini yaratish, darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish	ta'lim muassasalari, korxonalar va oilalar o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlash

2-sinf Ona tili darsligida "Jonli burchak" mavzusida Sherzod va uning dadasining dialogiga asoslangan matn berilgan bo'lib, ushbu matnning mazmuni bolani iqtisodchi, tadbirkor hamda fermer bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi [5].

4-sinf "Ona tili" darsida esa "Otlarning kelishik qo'shimchalar bilan qo'llanishi" mavzusida "Kulol bobo" matni berilgan: "Hayotda bir emas, bir necha hunarni egallagan odam baxtildir. Qadim zamonda kulolchilik hunarini bilganlar juda e'zozlangan ekan. Chunki u vaqtlarda idish-tovoq hozirgidek serob emas ekan-da. Rahim bobo degan keksa odam kulolchilikda mashhur ekan. Ular yasagan ko'zalar, laganlar, guldona, qo'ying-chi, har bir buyum shunday chiroyli va bejirim, foydalanish uchun qulay ekan. Aslida bu hunarni egallash, uning qiyinchiliklariga bardosh berish qiyin kechadi. Sopol buyum yasash uchun avval tuproq olinib, loy qoriladi. So'ng shakl beriladi. Buning uchun maxsus dastgoh bo'ladi. Rahim bobo murakkab bu ishni qunt va chidam bilan sifatli bajarar ekanlar. Rahim bobo ko'p shogirdlariga o'zlarining hunarlarini o'rgatganlar. Shuni aytadilar-da: "Hunar – hunardan unar", deb [6].

Ushbu matnni tahlil qilishda PIRLS xalqaro baholash dasturiga muvofiq hamda klaster yondashuvi asosida o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida quyidagi topshiriqni bajartirish tavsiya etiladi:

1-to'plam: Asosiy ma'noni tushunish

Matnning asosiy mavzusi nima?

- A) qadimgi idish-tovoqlar
- B) kulolchilik hunari va Rahim bobo
- C) shogirdlarning hayoti
- D) tuproq yig'ish usullari

Rahim bobo nima bilan mashhur edi?

- A) Uning shogirdlari ko'p edi.
- B) Uning yasagan buyumlari chiroyli va qulay edi.
- C) U tuproq yig'ishni yaxshi bilardi.
- D) U qiyin ishlardan qochardi.

2-to'plam: Tafsilotlarni aniqlash

Sopol buyum yasash qaysi bosqichlardan iborat (klasterli yondashuv asosidagi topshiriq)?

- A) tuproq olish → loy qorish → shakl berish
- B) shakl berish → pishirish → tuproq olish
- C) loy qorish → pishirish → bezash
- D) maxsus dastgoh sotib olish → loy qorish

Rahim bobo o'z shogirdlariga nima o'rgatgan?

- A) tuproq yig'ish
- B) kulolchilik hunarini
- C) dastgoh yasash
- D) idishlarni sotish

3-to'plam: So'z ma'nosi va til xususiyatlari

"Hunar – hunardan unar" maqoli qanday ma'noni anglatadi?

- A) Har bir hunar o'ziga xos qiyinchiliklari bor.
- B) Bir hunarni egallash boshqa hunarlarni o'rganishga yordam beradi.
- C) Hunarli odam hech qachon och qolmaydi.
- D) Hunarni faqat keksalar biladi.

Quyidagi so'zlar qaysi guruhga mansub? ko'za, lagan, guldona.

- A) meva nomlari
- B) idish-tovoq nomlari
- C) hunarmandchilik asboblari
- D) kasb-hunar nomlari

4-to'plam: Matn tuzilishi va uslubi

Matn qanday usulda boshlandi?

- A) savol bilan
- B) hikoya bilan
- C) maqol bilan
- D) tasvirlash bilan

Matnning oxirida maqol keltirilgan. Nima uchun?

- A) o'quvchini kuldirish uchun
- B) asosiy fikrni mustahkamlash uchun
- C) matnni uzaytirish uchun
- D) shogirdlarni maqtash uchun

5-to'plam: Chuqur tahlil va xulosa chiqarish

Rahim bobo qanday odam deb o'ylaysiz?

- A) sabrli va mehnatsevar
- B) boy va sovg'asevar
- C) yolg'onchi va makkor
- D) yalqov va beparvo

Agar siz Rahim boboning shogirdi bo'lsangiz, nima qilardingiz?


- A) Uni tinglar va uning hunarini o'rganardim.
- B) Boshqa hunarni o'rganardim.
- C) Uyga qaytib ketardim.
- D) Faqat dastgoh bilan ishlardim.

To'g'ri javoblar:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
B	B	A	B	B	B	D	B	A	A

Shuningdek, "O'rin-payt kelishigi" mavzusini o'tishda 56-mashqda "Mening orzum" matni asosida o'quvchilarga "Siz kelajakda qanday kasb egasi bo'lmoqchisiz?" savoli

beriladi. Ushbu matnni aynan Klasterli yondashuv asosida differensial topshiriq asosida tahlil qilish tavsiya etiladi:



Klaster yondashuvi boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbhunarga yo'naltirishda kompleks yechimlar taklif qiladi va zamonaviy ta'limning rivojlangan tendensiyalariga mos keladi. Klaster yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda samarali vosita bo'lib, u o'qituvchilarning

kasbiy rivojlanish bosqichlari va qadriyatlar tizimini integratsiyalashgan holda taklif etadi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarga erta yoshdan kasbiy yo'nalishlarni shakllantirish, ularning shaxsiy va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nalivayko N.V., Panarin V.I. Mahalliy ta'limni rivojlantirishning zamonaviy xususiyatlari haqida // Ta'lim falsafasi, 2009, №2 (27). – B. 17–24.
2. Cherniyavskaya Y.V. Kasbiy o'zini o'zi anglashni shakllantirishda klaster yondashuvi // Falsafiy tahlilda madaniyatshunoslik va tarix muammolari. – Novosibirsk, 2023.
3. Po'latov Sh. Ta'lim tashkilotlarining klasterli yondashuvida pedagogik ta'lim tamoyillari va maqsadi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, № 12. – B. 166–170.
4. Ernazarova M.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida klasterli yondashuv asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў, 2024, №4/4. – B. 206–212.
5. Kuranov S. Ona tili. Darslik. 2-sinf. II qism. – Toshkent – 2023.
6. Boynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili. Darslik. 4-sinf. II qism. – Toshkent – 2023.

Gulhayo BOBOMURODOVA
Toshkent davlat tibbiyot universiteti mustaqil tadqiqotchi

TIBBIY INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu ishda tibbiy ingliz tilini o'rganishda o'yin texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati va samaradorligi o'rganiladi. Tibbiy sohadagi maxsus terminologiyani o'zlashtirish va kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yinning motivatsion roli ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik jarayonda o'yin texnologiyalarining joriy etilishi tibbiy ingliz tilini o'rganish sifatini oshiradi hamda o'quvchilarning til ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: tibbiy ingliz tili, o'yin texnologiyalari, til o'rganish, motivatsiya, kasbiy terminologiya, pedagogika, ta'lim sifati.

Annotation. This work studies the importance and effectiveness of using game technologies in learning medical English. The motivational role of the game in mastering special terminology in the medical field and developing professional communication skills is emphasized. The results of the study show that the introduction of game technologies in the pedagogical process increases the quality of learning medical English and helps to improve students' language skills.

Keywords: medical English, game technologies, language learning, motivation, professional terminology, pedagogy, quality of education.

Аннотация. В данной работе исследуется важность и эффективность использования игровых технологий в изучении медицинского английского языка. Подчеркивается мотивирующая роль игры в освоении специальной медицинской терминологии и развитии навыков профессионального общения. Результаты исследования показывают, что внедрение игровых технологий в педагогический процесс повышает качество изучения медицинского английского языка и способствует улучшению языковых навыков студентов.

Ключевые слова: медицинский английский язык, игровые технологии, изучение языка, мотивация, профессиональная терминология, педагогика, качество образования.

Zamonaviy tibbiyot sohasida ingliz tili kasbiy faoliyatning ajralmas vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Xususan, tibbiy ingliz tili kasbiy sohada aniq va samarali muloqot qilish, xalqaro ilmiy manbalarni o'rganish hamda sohadagi yangiliklardan xabardor bo'lish imkonini beradi. Biroq, tibbiy ingliz tilini o'rganish ko'plab o'quvchilar uchun murakkab jarayon bo'lib qoladi, chunki u nafaqat umumiy til bilimlarini, balki maxsus soha terminologiyasi, kontekstga mos muloqot madaniyati va professional kommunikatsiya ko'nikmalarini ham talab qiladi.

Ta'lim jarayonida an'anaviy usullar yetarlicha samarali bo'lmasligi, o'quvchilarni tinglash, o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash jarayonida qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Shu bois, o'yin texnologiyalarini qo'llash tibbiy ingliz tilini o'rganishda innovatsion yondashuv sifatida e'tiborga loyiqdir. O'yin texnologiyalari nafaqat bilimlarni mustahkamlashda, balki motivatsiya darajasini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda o'yin texnologiyalarining tibbiy ingliz tilini o'rgatishdagi samaradorligini o'rganish maqsadida bir nechta ilmiy metodlar qo'llanildi. Tadqiqot metodlari quyidagi bosqichlardan iborat:

Tadqiqotning birinchi bosqichida tibbiy ingliz tilini o'rganishda o'yin texnologiyalarining qo'llanilishi haqidagi mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Bu metod orqali turli mamlakatlardagi tadqiqotlar va amaliyotlar asosida o'yin texnologiyalarining samaradorligi haqidagi ilmiy fikrlar yig'ildi. O'yin texnologiyalari va gamifikatsiya prinsiplarining ta'limda qanday ishlashi va uning til o'rganishdagi ahamiyati baholandi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida eksperiment o'tkazildi. Eksperimentda tibbiy ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarning ikki guruhiga turli usullar qo'llanildi: birinchi guruhga an'anaviy o'qitish usullari (klassik ta'lim) va ikkinchi guruhga o'yin texnologiyalari (interaktiv viktorinalar, virtual shifoxona simulyatsiyalari, rol o'ynash o'yinlari) qo'llanildi. Har bir guruhda o'quvchilarning bilim darajasi, motivatsiya darajasi va tibbiy terminologiyani o'zlashtirishdagi samaradorlik o'lchandi.

Tadqiqot davomida o'yin texnologiyalarini qo'llagan guruh o'quvchilari an'anaviy ta'lim usulini qo'llagan guruhga nisbatan yuqori motivatsiya, tez o'zlashtirish va yuqori darajadagi amaliy ko'nikmalarni namoyish etdi. Bu o'zgarishlar o'quvchilarning tibbiy ingliz tilidagi terminologiyani va kasbiy

muloqot ko'nikmalarini yanada mustahkamlashiga yordam berdi.

O'yin texnologiyalari – video o'yinlar, interaktiv testlar, simulyatorlar, viktorinalar va boshqa interaktiv vositalarni o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarni faollashtiradi, qiziqishni oshiradi va o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Tibbiy ingliz tilida ko'p hollarda murakkab terminologiya va kontekstlar mavjud bo'lib, bu tilni o'rganish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. O'yin texnologiyalari esa til o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

O'yin shaklidagi topshiriqlar o'quvchilarni faol qatnashishga undaydi. Bu esa ularning tibbiy atamalarini tezroq va samaraliroq o'zlashtirishiga yordam beradi. O'yinlar orqali o'rganilayotgan lug'at va iboralar real sharoitga yaqin kontekstda qo'llanadi. Masalan, virtual shifoxonalardagi simulyatsiyalar tibbiy terminlarni amalda qo'llashga imkon beradi. O'yinlar doimiy ravishda darajani oshirish yoki xatolarni tuzatish imkonini beradi, bu esa o'rganishda yanada yaxshi natijalar beradi.

Tibbiy ingliz tili ko'p hollarda bosim ostida o'rganiladi, o'yin texnologiyalari esa o'quv muhitini qulay va do'stona qiladi. Shuningdek, o'yinlar yordamida o'rganish jarayoni yanada interaktiv va samarali bo'lib, o'quvchilar o'zaro faol muloqot qilish, murakkab tibbiy interaktiv vaziyatlarni boshdan kechirish va mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Natijada, pedagogik jarayonda o'yin texnologiyalarining joriy etilishi tibbiy ingliz tilini o'rganish sifatini oshirish, til ko'nikmalarini yaxshilash va kasbiy kommunikatsiya mahoratini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa tibbiyot sohasidagi xodimlar va talabalar uchun malaka oshirish va samarali professional faoliyat yuritishda katta yordamdir.

O'yin texnologiyalarini ta'lim dasturiga kiritishda o'qituvchilarning roli muhimdir. O'qituvchi o'yinlarning mazmunini, murakkabligini va o'quvchilarning bilim darajasiga mosligini ta'minlashi kerak. Shuningdek, o'quvchilarning o'yin orqali olingan bilimlarini an'anaviy metodlar bilan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin texnologiyalarini qo'llash tibbiy ingliz tilini o'rganish jarayonini 30-40% samaraliroq qiladi. O'quvchilar terminologiyani tezroq eslab qolish, murojaatlarda erkinlik va to'g'ri ishlatilishini yaxshilashadi.

Tibbiy ingliz tilini o'rganishda o'yin texnologiyalarining o'rni juda katta va muhimdir. Bu texnologiyalar nafaqat o'quvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiribgina qolmay, balki ularni tilni amaliyotda qo'llashga tayyorlaydi. Interaktiv va qiziqarli o'rganish muhitini yaratish orqali o'yin texnologiyalari tibbiy terminologiyani chuqur va puxta egallash imkonini beradi. Shu bilan birga, o'yinlar o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, stressni kamaytirish va takrorlashga qulaylik yaratishda

muhim vositadir. Ta'lim muassasalari o'yin texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tizimli, keng qamrovli tarzda joriy etishi samarali o'rganish uchun shart sharoit yaratadi. Bu yondashuv natijasida tibbiyot sohasida yuqori malakali, zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash imkoniyati kengayadi. Shu sababli pedagogika va ta'lim sohasida o'yin texnologiyalarining ahamiyatini yanada chuqur o'rganib, samarali metodikalar ishlab chiqish va amalda qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva R. et al. Learning foreign vocabulary using computer programs //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. S1. – C. 567-572.
2. Абдуллаева Р.М. Challenges in teaching ESP: teaching resources and students' needs Замонавий таълим. Ташкент. 2022.
3. Abdullaeva R.M., The specificity of teaching clinical terminology to students of the national group of medical universities// Journal of science and innovative technologies. ISSN: 2521-1447 E-ISSN: 2616-4418, Baku, Azerbaijan. 2022.-5.56-59
4. Abdullaeva R.M., Features of teaching medical terminology to medical students in Uzbekistan Alexandria University Conference Magazine, Alexandria, Egypt 2022. – 5.83-85.
5. И.Х. Исраилова. Обогащение лексической составляющей английского языка при просмотре аутентичных сериалов по специальности// Діалог культур у Європейському освітньому просторі. Київський національний університет технологій та дизайну 2021.
6. D. Gee, What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy, Palgrave Macmillan, 2003.
7. K. Johnson, "Integrating Simulation and Case-Based Learning in Medical English Course", Journal of Medical Education and Curricular Development, 2021.
8. Исраилова И. Х. Метафорические и фреймвые модели как средство когнитивно-дискурсивного осмысления медицинских знаний в междисциплинарной образовательной среде //pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 7. – №. 1. – C. 238-243.
9. Papastergiou, S. "Digital Game-Based Learning in high school Computer Science education: Impact on educational effectiveness and student motivation," Computers & Education, vol. 52, no. 1, pp. 1–12, 2009.
10. Исраилова И. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов // «педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал. – 2022. – T. 2. – №. 2.

Ma'rif SAG'DULLAYEV,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son o'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

SHIFOKORLAR NUTQ MADANIYATIDA "O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI" FANINING O'RNI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada shifokorlarning nutq madaniyatini shakllantirishda "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tibbiyot sohasida to'g'ri, aniq, me'yoriy va etikaga mos nutq shifokorning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur fan tibbiy terminologiyani o'zlashtirish, bemor bilan muloqot madaniyati, tibbiy hujjatlarni o'zbek tilida to'g'ri rasmiylashtirish, ilmiy nutqni rivojlantirish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, termin, semantika, kommunikativ, psixologik yondashuv.

Annotation. In this article, the role and importance of the course "Use of the Uzbek Language in the Professional Field" in shaping the speech culture of physicians are highlighted. In the medical field, correct, precise, normative, and ethically appropriate speech is an integral part of a doctor's professional competence. This course helps develop skills such as mastering medical terminology, patient communication culture, proper preparation of medical documentation in Uzbek, and the development of scientific speech.

Keywords: competence, term, semantics, communicative, psychological approach.

Аннотация. В данной статье раскрыта роль и значение дисциплины «Применение узбекского языка в профессиональной сфере» в формировании речевой культуры врачей. В медицинской сфере правильная, точная, нормативная и этически выверенная речь является неотъемлемой частью профессиональной компетентности врача. Данная дисциплина способствует формированию таких навыков, как овладение медицинской терминологией, культура общения с пациентом, правильное оформление медицинской документации на узбекском языке, развитие научного стиля речи.

Ключевые слова: компетенция, термин, семантика, коммуникативность, психологический подход.

Qadimdan so'z buyuk shifobaxsh qudratga ega bo'lib kelgan. So'z odamzod zabonidagi eng aziz gavhardir. Mashhur yunon hakimi Buqrot "Inson ruhini davolamay, tanga shifo berib bo'lmaydi", deb ta'kidlaganida aynan "so'z"ni nazarda tutgan [1: 20]. Qadimgi hind tabibi Sushruta: "So'z muloyim, yoqimli va umidvor qila oladigan, ruhga taskin berguvchi bo'lmog'i lozim", deb yozgan edi [1: 20].

Tibbiyot sohasi inson hayoti va salomatligini bevosita belgilovchi, yuksak mas'uliyat talab etadigan sohalaridan biridir. Shifokorning bemor bilan muloqoti, hamkasblar bilan

ilmiy-amaliy fikr almashuvi, tibbiy hujjatlarni to'g'ri yuritishi nutq madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Shu bois oliy tibbiyot ta'limida "O'zbek tilini sohada qo'llanishi" fani shifokorlar nutq kompetensiyasini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan mutaxassisning aniq, ravon, tushunarli va etika me'yorlariga mos nutqini shakllantirishga xizmat qiladi. Tibbiyot xodimining nutqi

- bemorda ishonch uyg'otuvchi psixologik omil;
- tashxis qo'yish jarayonida zarur bo'lgan muloqot kanali;
- muolajalar bo'yicha aniq ko'rsatmalar berish vositasi;

• tibbiy jamoada hamkorlik asosini yaratadigan til birliklaridir.

Demak, shifokor nutq madaniyati uning kasbiy mahorati bilan bir qatorda baholanadi. Mazkur fanning asosiy maqsadi – tibbiyot talabalari va shifokorlar uchun **adabiy o'zbek tilida** ravon, aniq va madaniyatli nutqni shakllantirish. **Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:**

Tibbiy terminologiyani to'g'ri o'zlashtirish. O'zbekcha va xalqaro tibbiy atamalarining ma'nosi, qo'llanish o'rni, talaffuz va yozuv me'yorlarini o'rgatadi.

Bemor bilan muloqot madaniyatini shakllantirish. Nutq etikasi, kommunikativ qoidalar, hamdardlik va psixologik yondashuvni rivojlantiradi.

Tibbiy hujjatlarni o'zbek tilida to'g'ri rasmiylashtirish. Tibbiy kartalar, yo'llanmalar, xulosa, anamnez yozuvi va hisobotlarni aniq va me'yoriy til bilan yozishga o'rgatadi.

Davolash jarayonida aniq ko'rsatmalar berish ko'nikmalarini rivojlantirish. Ilmiy-texnik uslubda og'zaki va yozma nutq tafovutlarini o'rgatadi.

Ilmiy nutqni shakllantirish. Tahlil natijalarni yozish, ma'ruza taqdim etish, tibbiy maqola tuzish bo'yicha lingvistik ko'nikmalarni beradi.

Tibbiyotga oid nutq inson hayotining muhim qismiga xizmat qiluvchi nutq turlaridan biri. Bunday nutq murakkab diskursiv shakllanish bo'lib, tibbiyot bilan u yoki bu tarzda bog'liq bo'lgan turli jihatlar, janrlar va kommunikativ vaziyatlarda o'zini namoyon qiladi. Bularga talabalarga ma'ruzalar, hamkasblar va kichik xodimlar bilan rasmiy va norasmiy muloqot, bemor va uning qarindoshlari bilan muloqot qilish, bemorning kartasiga yozish, kasallik tarixini yuritish, kasallik varaqalari va ma'lumotnomalar berish kiradi [3: 26].

Shifokorlarning nutq madaniyati rivojlanishi uchun ushbu fan beradigan amaliy natijalar:

1. Tibbiy terminlardan to'g'ri foydalanish:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov E.Y. Shifokorlarning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati. – Toshkent: Yangi asar avlodi, 2007.
2. Boymirzayeva X.S. Shifokor muloqoti madaniyati // Jahon. 3-to'plam, 2025.
3. Барсукова М.И. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача: автореф. дис. ... канд.фил.наук. Саратов, 2007.

• terminlarning semantik farqlarini va tibbiy terminlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Masalan, ba'zi terminal ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega. Morfologiya – to'qimalarni tashqi tuzilishini o'rganadigan tarmoq (tibbiyot), so'zlarning tuzilishini o'rganadigan bo'lim (tilshunoslik);

• izohlar berishni, tahlil natijalarini bemaorga oson va sodda tilda tushuntirishni o'rganadi;

• noto'g'ri tarjima yoki omonimlar sababli keladigan xatolarni bartaraf etishga yordam beradi.

2. Bemor bilan muloqotda empatiya va aniqlikni ta'minlaydi:

• tashvishlangan bemorni tinchlantiradi, tashvishlangan va xavotirlangan bemorlarni sog'ayib ketishiga ishonтира olish kerak, bunday ko'nikmani tibbiyot xodimlariga singdirish lozim;

• noto'g'ri tushunishlarning oldini oladi, shifokor bemorni ishonтира kerak va bemor bilan til topshishi kerak. Bu o'rinda o'zbek deontology va terapevti E.Y.Qosimov: "Davoning boshi ishonchdan boshlanadi, ya'ni bemor shifokorga va uning berayotgan dori-darmonlariga ixlos qo'yishi kerak. Bu ishonchni paydo qiladigan inson, albatta, shifokoming o'zidir, uning go'zal nutqidir. Shifokor o'zining xatti-harakatlari, shirin so'zi va tashqi ko'rinishi bilan bemorlarning hurmatini qozonishi zarur" – deydi.

• davolash jarayoniga ishonch uyg'otadi.

3. Tibbiy hujjatchilik madaniyatini rivojlantiradi:

Shifokorning har bir so'zi huquqiy ahamiyatga ega. Fan tibbiy hujjatlarning rasmiy-idoraviy uslub me'yorlariga, tibbiy standartlarga, axborot xavfsizligi talablariga mos yozilishini ta'minlaydi.

4. Kasbiy muloqotda tilning aniq me'yorlarini mustahkamlaydi.

Shifokorlar o'rtasida aniq, qisqa, normativ gaplar bilan fikr almashish jarrohlikdan tortib diagnostikaga qadar barcha jarayonlarda juda muhim.

Xolidaxon YUNUSOVA,

Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

GENDER YONDASHUVGA ASOSLANGAN PEDAGOGIK NAZARIYALAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender yondashuvning pedagogik nazariyalardagi o'rni va ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Ijtimoiy konstruktivizm, **gender-sensitiv pedagogika nazariyasi**, **feministik pedagogika nazariyasi** kabi nazariyalar asosida genderning shaxs rivojlanishi, o'qituvchi – o'quvchi muloqoti va ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy rollarga ta'siri yoritiladi. Gender sezgir ta'limning metodologik asoslari, stereotiplarni bartaraf etish mexanizmlari hamda ta'limda ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: gender yondashuv, pedagogik nazariya, gender-sensitiv ta'lim, feministik pedagogika, ijtimoiy konstruktivizm, ta'lim jarayoni.

Annotation. This article analyzes the role of the gender approach in pedagogical theories and its impact on the educational process. Based on such theories as social constructivism, gender-sensitive pedagogy theory, and feminist pedagogy theory, the influence of gender on personality development, teacher-student communication, and social roles in educational institutions is illuminated. The methodological foundations of gender-sensitive education, mechanisms for eliminating stereotypes, and pedagogical approaches aimed at strengthening social justice in education have been scientifically substantiated.

Keywords: gender approach, pedagogical theory, gender-sensitive education, feminist pedagogy, social constructivism, educational process.

Аннотация. В данной статье анализируется роль гендерного подхода в педагогических теориях и его влияние на образовательный процесс. На основе таких теорий, как социальный конструктивизм, теория гендерно-чувствительной педагогики, теория феминистской

педагогике, освещается влияние гендера на развитие личности, общение учитель-ученик и социальные роли в образовательных учреждениях. Научно обоснованы методологические основы гендерно-чувствительного образования, механизмы устранения стереотипов и педагогические подходы, направленные на укрепление социальной справедливости в образовании.

Ключевые слова: гендерный подход, педагогическая теория, гендерно-чувствительное образование, феминистская педагогика, социальный конструктивизм, образовательный процесс.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi nafaqat bilim, kompetensiya va ko'nikmalarni shakllantiruvchi institut, balki ijtimoiy munosabatlar, gender rollari va madaniy qadriyatlarining ham asosiy reproduktori sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois ta'lim jarayonida gender yondashuvni o'rganish, uni nazariy va amaliy jihatdan asoslash bugungi kunda pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan. Gender tengligi, gender madaniyati, gender sotsializatsiyasi kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilar shaxsida adolat, hurmat va insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Oxirgi o'n yilliklarda dunyo miqyosida olib borilgan ilmiy izlanishlar gender tengsizligi ta'lim tizimining turli bosqichlarida, ayrim hollarda sezilmas, ayrim holatlarda aniq ko'rinadigan shakllarda namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Masalan, S.Aker ta'kidlaganidek: "Ta'lim tizimi jamiyatdagi gender tartibini eng faol qayta ishlab chiqaradigan institutlardan biridir" [1]. Demak, ta'lim muassasalarida mavjud bo'lgan gender stereotiplarining bartaraf etilishi, tenglik tamoyillarining hayotga tatbiq qilinishi o'qituvchi shaxsiyatiga, o'quvchilar o'rtasidagi muloqotga va pedagogik jarayonning umumiy sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Gender nazariyalari, xususan, konstruktivizm, sotsializatsiya nazariyalari va postmodern yondashuvlar ta'lim tizimidagi gender jarayonlarni tahlil qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Judis Batler tomonidan ilgari surilgan "gender performativligining ijtimoiy tabiati" haqidagi g'oya shuni ko'rsatadiki, gender insonning biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy faoliyati natijasida shakllanadi. Bu yondashuv pedagogik jarayonda gender stereotiplarining yo'q qilinishi, tenglikka asoslangan kommunikatsiya madaniyatining rivojlanishi va o'quvchilar o'rtasida adolatli munosabatlarning shakllanishi uchun nazariy asos yaratadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida gender yondashuvni qo'llash masalasi davlat siyosati darajasida ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, 2019-yilda 2-sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan hamda ta'lim muassasalarida diskriminatsiyaning oldini olishga qaratilgan normativ hujjatlar shu yo'nalishning amaliy ahamiyatini kuchaytirdi. Shu bilan birga, pedagoglar, maktab direktorlarining gender kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini gender sezgir yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha ilmiy-metodik ishlanmalar ham ko'payib bormoqda.

Xalqaro miqyosda gender tengligi masalalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 2015-yilda qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida alohida e'tiborga olinadi. Jumladan, "4-sonli Maqsad – Inclusive and Equitable Quality Education" (Har qanday sharoitda ham sifatli ta'limga erishish) gender tengligini ta'limning asosiy tamoyili sifatida belgilaydi. Inkluziv ta'lim deyilganda ko'pincha nogironligi bor bo'lgan bolalarni ta'limga qamrab olish deb tushuniladi. Lekin aslida inkluziv ta'lim – barcha bolalar, shu jumladan nogironligi bo'lganlar, cheklovlari borlar, kam imkoniyatli oilalardan kelganlar yoki milliy/lingvistik ozchiliklarga mansub bo'lganlar, umumiy sinflarda birga o'qish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan yondashuv. Shu jihatdan aytish mumkinki, inkluziv ta'lim gender yondashuvni ham qamrab

oladi, ya'ni inkluziv ta'lim – har bir o'quvchiga, u qiz yoki o'g'il, turli ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va qobiliyatli bo'lishidan qat'i nazar, teng imkoniyatlar yaratib berish. Chunki ba'zi davlatlarda qiz bolalarning ta'limga qamrab olinish darajasi juda past darajada. UNESCOning 2021-yilgi hisobotiga ko'ra, gender tengligini ta'minlagan mamlakatlarda qiz bolalarning maktabda qolish darajasi 30% ga, oliy ta'limda qatnashishi esa 25% ga oshgan [2].

Ta'lim jarayoni nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallash, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy identiteti, qadriyatlari hamda ijtimoiy rollarini shakllantirishning muhim institutidir. Shu nuqtayi nazardan, gender yondashuv pedagogikada markaziy ahamiyat kasb etadi. Gender yondashuv – qizlar va o'g'il bolalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini teng darajada hisobga oladigan, stereotiplarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-metodik tamoyillar majmuasidir. Ta'lim jarayonida gender tengligini ta'minlash, gender stereotiplarini bartaraf etish va o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida gender omillarini inobatga oluvchi nazariy qarashlar *gender yondashuvning pedagogik nazariyalari* deb ataladi. Gender yondashuvning pedagogik nazariyalarni o'rganish bir qator muhim vazifalarni hal etishga xizmat qiladi:

- ta'lim jarayonida tenglik tamoyillarini mustahkamlash;
- gender stereotiplarining oldini olish;
- o'quvchi shaxsining ijtimoiy faolligini oshirish;
- adolatga asoslangan pedagogik kommunikatsiyani shakllantirish;

o'qituvchilarda gender kompetensiyalarni rivojlantirish. Asosiy pedagogik nazariyalari quyidagilardan iborat:

Feministik pedagogika nazariyasi – ta'lim jarayoniga feministik nazariy qarashlarni olib kiruvchi yondashuv bo'lib, uning asosiy maqsadi ijtimoiy tengsizliklarni, ayniqsa gender tengsizliklarini kamaytirish, ta'limni ozodlik va ijtimoiy adolat amaliyotiga aylantirish. Bu nazariya aniq bir muallifga tegishli emas, u feministik harakat va tanqidiy pedagogika yo'nalishlarining kesishishidan paydo bo'lgan. Lekin uning asosiy namoyandalari sifatida bell hooks (Gloriya Jan Uotkins) va **Paulo Freire e'tirof etiladi. bell hooks ta'limni ozodlik amaliyoti** sifatida talqin qilib, pedagogikani faqat bilim berish jarayoni emas, balki **ijtimoiy adolat va tenglikni shakllantirish maydoni** deb bilgan. **Dialogik va hamkorlikka asoslangan ta'lim**, ya'ni o'qituvchi va talabalar o'rtasida biryozlama bilim berish emas, balki **o'zaro fikr almashish va tenglik asosidagi subbot** muhitini yaratishni tavsiya qilgan [3]. **Paulo Freire** *Pedagogy of the Oppressed* (Tarjimasi: *Kamsitilgan yoki zulm ko'rganlar pedagogikasi*) asari bilan tanqidiy pedagogikaning nazariy asoslarini yaratib, feministik pedagogika rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.[4]

Gender-sensitiv pedagogika nazariyasi – u ta'lim jarayonini gender tenglik tamoyillariga asoslab qurish nazariyasi bo'lib, u o'quvchilar jinsiga sezgir, diskriminatsiyadan xoli va inkluziv o'quv muhitini yaratishga qaratilgan. **Gender-sensitiv pedagogika nazariyasi** turli mamlakatlarda olib borilgan **feministik pedagogika, tanqidiy pedagogika va ta'limdagi inson huquqlari tadqiqotlari** (UNESCO, UNICEF) asosida shakllangan.

Ijtimoiy konstruktivizm doirasida gender yondashuv nazariyasi – bu genderni **biologik emas, balki ijtimoiy-**

siyosiy va madaniy jarayonlar natijasida shakllanadigan konstrukt sifatida tushuntiradigan nazariya. Bu yondashuvga ko'ra, jamiyat insonlarga "erkak" yoki "ayol" sifatida qanday rol berishini, ulardan qanday xulq-atvor kutishini, qanday imkoniyatlarni ruxsat etishini yoki cheklashini **ijtimoiy me'yorlar va madaniyat belgilaydi**. Ta'lim va tarbiya gender tengligini mustahkamlash yoki stereotiplarni buzishda muhim vosita ekanligini ta'kidlanadi. Bu nazariya hozirgi kunda sotsiologiya, antropologiya, pedagogika va psixologiyada keng qo'llanadi.

Inkluziv pedagogika doirasida gender yondashuv nazariyasi – ta'lim jarayonida o'quvchilarning jinsidan qat'i nazar, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan yondashuv bo'lib, gender stereotiplardan xoli, diskriminatsiyasiz va inkluziv muhitni shakllantirishni nazarda tutadi. U **inklyuziya** (hamma uchun ta'lim) tamoyillari va **gender tenglik** prinsiplarini birlashtiradi. Gender yondashuvni inkluziv pedagogikaga tatbiq etish **2000-yillardan** boshlab UNESCO, UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlar tavsiyalarida alohida yo'nalish sifatida shakllangan.

Ijtimoiy konstruktivizm – bilimning shakllanish jarayonida ijtimoiy muhit, muloqot va hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini asoslaydigan pedagogik-nazariy yondashuvdir. Ushbu nazariya shaxs o'z bilimini tayyor shaklda qabul qilmasligini, balki uni ijtimoiy tajriba, muloqot va faol ishtirok orqali "konstruksiya qiladi", ya'ni yaratishini ta'kidlaydi. Ijtimoiy konstruktivizm fikrlarining ildizi L.S.Vygotskiy, Jerom Bruner, Piter Berger va Tomas Lukman kabi olimlarning asarlariga borib taqaladi. Vygotskiyga ko'ra, inson tafakkuri ijtimoiy muloqot bilan shakllanadi, til esa bilish jarayonining asosiy vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiy konstruktivizm bilim – obyektiv emas, balki ijtimoiy yaratiladigan, kontekstga bog'liq tizimdir.

Kritika-normativ pedagogika nazariyasi – ta'lim jarayonini nafaqat o'rgatuvchi, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklarni, tengsizliklarni va kuch munosabatlarini tanqidiy tahlil qilib, ularni o'zgartirishga qaratilgan pedagogik yondashuv. 1970-yillarda tanqidiy pedagogika (Paulo Freire) va normativ pedagogika (ta'limdagi axloqiy, demokratik qadriyatlar) konsepsiyalari asosida shakllangan [5]. Yuqoridagi nazariyalar qiyosiy tahlili 1-jadvalda aks ettirilgan.

Nazariya	Markaziy g'oya	Asosiy metodlar	Kuchli tomon
feministik pedagogika	adolat va tenglik, muloqot	debat, refleksiya, tajribaviy o'qitish	tanqidiy ongni kuchaytiradi
gender-sensitiv pedagogika	stereotiplarni oldini olish	materiallarni qayta dizayn, teng ishtirok	kundalik amaliyotga tez integratsiya
ijtimoiy konstruktivizm	gender ijtimoiy quriladi	diskurs tahlili, case study, portfoliolar	identitet savodxonligini oshiradi
kritik-normativ	me'yorlarni tanqidiy qayta belgilash	qoidalar auditi, yangi rubrikalar	tizimiy o'zgarishga olib boradi

1-jadval. Nazariyalar qiyosiy tahlili

Gender yondashuvning pedagogikadagi ahamiyati o'g'il va qiz bolalar ta'limining o'ziga xos jihatlarni faqatgina tasvirlash emas, balki gender tabaqalashtirish vositasida shakllantiriladigan o'quv va ijtimoiy ko'nikmalarni chuqur tahlil qilishni nazarda tutadi. Gender yondashuvga ko'ra, o'g'il va qiz bolalarning tarbiyasidagi farqlar ularning fiziologik, biologik yoki anatomik xususiyatlari bilangina belgilanmaydi; bu farqlar asosan ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida shakllanadi. Bunday konstruktiv yondashuv gender sohasidagi salbiy stereotiplarni bartaraf etishga, jamiyat a'zolari ongini o'zgartirish orqali ularni yangicha qarashlarga yo'naltirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, pedagogika jarayonida gender yondashuvga tayanish ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtiradi.

Pedagogika fanida gender tenglik va tafovutlarni hisobga olish tamoyili ustuvor bo'lishi lozim. Bu ustuvorlik quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- o'quv materiallarini tanlashda o'g'il va qiz bolalar orasidagi o'ziga xosliklarni inobatga olish;
- o'g'il va qiz bolalarning individual faoliyatini tashkil etish;
- muayyan jinsga mos keladigan o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish;
- har bir jinsning o'ziga xos qobiliyatlari va faoliyat turini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallarini tanlash;
- ta'lim jarayonida didaktik asoslangan gender omillari talqinidan foydalanishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni shakllantirish.

Bugungi kunda pedagogika fanidagi eng muhim yutuqlardan biri – ta'limni gender tenglik va tafovutlar asosida

tashkil etish imkoniyatlarining tobora kengayib borayotganidir. Bu jarayon ta'limni gumanitarlashtirish nuqtayi nazaridan ham alohida qimmatga ega.

Gender yondashuvning ta'limdagi amaliy ahamiyati shundaki, gender tengligini ta'limga tatbiq etish quyidagi ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi:

– **Stereotiplarni bartaraf etish.** Jamiyatda mavjud "ayollar uchun mos yumushlar", "erkaklarga xos qat'iyat" kabi qarashlarni o'zgartirishga yordam beradi.

– **Inkluziv ta'limni rivojlantirish.** Gender yondashuv har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga oladi.

– **Ijtimoiy adolatni mustahkamlash.** Gender teng ta'lim jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklarni kamaytiradi.

Gender yondashuv zamonaviy pedagogik bilimlar tizimida fundamental ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat ta'lim jarayonida gender tengligini ta'minlaydi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shadi. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda gender tengligi masalalari milliy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Gender tushunchasi biologik jins (sex) tushunchasidan farqli ravishda, ijtimoiy jihatdan shakllanadigan, madaniy, tarixiy va psixologik omillar ta'sirida yuzaga keladigan rollar va munosabatlarni anglatadi. Pedagogika sohasida gender yondashuvning ahamiyati shundaki, u ta'lim tizimida mavjud gender stereotiplarini bartaraf etishga, har bir shaxsning qobiliyatlarini to'laqonli rivojlantirishga va ijtimoiy adolatni ta'minlashga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Acker S. *Gendered education: Sociological reflections on women, teaching and feminism*. Open University Press. 1994 194 p.
2. <https://gender-report-2021.unesco.org/>.
3. bell hooks. *Teaching to Transgress: Education as the Practice of Freedom*. – New York: Routledge, 1994. 216 p.
4. Freire P. *Pedagogy of the Oppressed*. – New York: Herder and Herder, 1970.
5. Weiner G. *Gender and Education*. In **Encyclopedia of Educational Theory and Philosophy**. – Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2019. 333-339 p.